B. MAMATOV, D. XUJAMKULOV,
O. NURBEKOV

INVESTITSIYALARNI TASHKIL ETISH VA MOLIYALASHTIRISH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MAMATOV BAXADIR SAFARALIYEVICH
XUJAMKULOV DILMUROD YUSUPALIYEVICH
NURBEKOV OYBEK SHERALIYEVICH

INVESTITSIYALARNI TASHKIL ETISH VA MOLIYALASHTIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan

Toshkent
«Iqtisod-Moliya»
2014

UO'K: 330.322(575.1)
336.14(075)
KBK: 65.9(5O')-56

Taqrizchilar: – N.H. Haydarov i.f.d., prof.;
– N.G'. Karimov i.f.d.;
– E.I. Nosirov i.f.n.

M23 **Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish.** B.S. Mamatov, D.Yu. Xujamkulov, O.Sh. Nurbekov. Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2014. 608 bet.

Ushbu darslik «Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish» fani bo'yicha Davlat ta'lim standartlari talablariga mos keladi va mazkur o'quv kursining barcha bo'limlarini qamrab oladi. Darslikda investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirishning nazariy va uslubiy asoslari yoritilgan. Investitsiyalar va investitsiya jarayonining iqtisodiy mazmuni, investitsiya faoliyatini rivojlantirishda investitsiya siyosati, xorijiy investitsiyalar, investitsiya muhiti, kapital qurilishning ahamiyati, investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari, usullari va vositalari, innovatsiya faoliyati va nomoddiy aktivlarga investitsiyalar, shuningdek, investitsiya risklari tasnifi va ularni pasaytirish masalalari ko'rib chiqilgan va tahlil qilingan.

Darslik iqtisod ta'lim sohasining bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalari, iqtisodiy oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari, moliya, innovatsiya, biznesni baholash sohasida ixtisoslashgan ilmiy va amaliyot xodimlari uchun mo'ljallangan.

kutubxonasi 14320

UO'K: 330.322(575.1)
336.14(075)
KBK: 65.9(5O')-56

ISBN 978-9943-13-488-1

© «Iqtisod-Moliya», 2014
© B.S. Mamatov, D.Yu. Xujamkulov, O.Sh. Nurbekov, 2014

«Barchamiz bir oddiy haqiqatni yaxshi anglab olishimiz darkor — investitsiyalarsiz modernizatsiya ham, yangilanish ham bo'lmaydi»

I.A. Karimov

KIRISH

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida O'zbekiston iqtisodiyotining chuqur isloh qilinishi va tarkibiy o'zgarishlarning amalga oshirilishi mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida ham malakali va kuchli raqobatga bardoshli mutaxassislarni tayyorlashga bo'lgan munosabatning tubdan o'zgartirilishiga olib keldi.

Mustaqillik sharofati bilan ta'lim tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi va qabul qilindi. Davlat ta'lim standartlarida «Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish» fanini o'qitish ham nazarda tutilgan.

«Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish» fani iqtisod sohasi uchun mutaxassislar tayyorlash tizimida muhim o'rinlardan birini egallaydi va bu fanni o'rganishga bo'lgan e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bu holatni iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida investitsiyalarning iqtisodiyotda tutgan o'rni va ahamiyati orqali ifodalash mumkin. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning investitsiyalarga oid quyidagi fikrlarini keltirish kifoya qiladi, deb hisoblaymiz: «Barchamiz bir oddiy haqiqatni yaxshi anglab olishimiz darkor — investitsiyalarsiz modernizatsiya ham, yangilanish ham bo'lmaydi»[1], yoki «Vatanimizning kelajagi, uning jahon iqtisodiy aloqalari tizimidagi o'rni investitsiyalarga bog'liq bo'lib turibdi»[2], bu kabi fikr va asoslarni ko'plab keltirish mumkin.

Darhaqiqat, milliy iqtisodiyotimizning ravnaqi, fan-texnika taraqqiyoti, aholi bandligi investitsiyalar bilan chambarchas bog'liq. Shu bilan birga, ishlab chiqarishda tarkibiy o'zgarishlarni

[1] Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: «O'zbekiston», 2010. – B. 57.

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 16-fevral majlisidagi ma'ruzasi. // «Xalq so'zi», 1999-yil 17-fevral. – B. 1.

amalga oshirish, uni intensiv (resurstejam) rivojlantirish ham, ko'p jihatdan investitsiyalarga borib taqaladi. Hatto, iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy texnika-texnologiyalarni joriy qilishni, mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirishni ta'minlashni investitsiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Investitsiyalardan ayri holda makroiqtisodiy muvozanatga erishib bo'lmaydi. Eng muhimi, iqtisodiyotni modernizatsiyalashni investitsiyalarsiz ta'minlashning iloji yo'q. Umuman olganda, investitsiyalar islohotlarni samarali amalga oshirish, taraqqiyot asosi, mamlakatning xalqaro integratsiyasi va jahon xo'jaligidagi o'rnini mustahkamlash omili hamda unga erishishga xizmat qiluvchi iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning bosh quroli hisoblanadi.

Mazkur darslikning maqsadi talabalarga investitsiyalar hamda investitsiya faoliyati asoslari borasida chuqur nazariy bilim berish, ularda atroflicha amaliy ko'nikmalar hosil qilishdan iborat. Bunday maqsadga erishish uchun sohaning bo'lg'usi mutaxassislari investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni va mohiyati, investitsiya jarayonlarining mazmuni, investitsiya faoliyati va investitsiya siyosati, xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotdagi roli, investitsiya muhiti, investitsiya faoliyatida kapital qurilish, Davlat investitsiya dasturi, investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash, investitsiya faoliyatini moliyalashtirish, investitsiya risklari va ularni pasaytirish to'g'risida aniq tasavvurga va mustahkam pozitsiyaga ega bo'lmoqlari darkor.

Darslikning 1-7-boblarida investitsiyalarning mazmun-mohiyati, turlari va iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli, investitsiya jarayonlarining mazmuni va asosiy bosqichlari, investitsiya faoliyati va investitsiya siyosati, iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning roli, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda erkin iqtisodiy hududlarning ahamiyati, investitsiya muhiti, investitsiya faoliyatida kapital qurilish va Davlat investitsiya dasturi yoritilgan.

Investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash masalalari darslikning 8-bobida bayon qilingan.

9-15-boblarida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishga doir umumnazariy masalalar (investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari va usullari, investitsiyalarni moliyalashtirishda moliyaviy vositalar, investitsiya faoliyatini kreditlash, investitsiyalarni moliyalashtirishning lizing mexanizmi, loyihaviy moliyalashtirish,

innovatsiya faoliyatini moliyalashtirish, nomoddiy aktivlarga yo'naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish) o'z aksini topgan.

Darslikning 16-bobi investitsiya risklarining mohiyati, xususiyatlari, turlari, ularni tahlil qilish va baholash usullari, risklarni boshqarish va pasaytirish yo'llariga bag'ishlangan.

Darslikda har bir mavzuning mazmuni va mohiyati bayon etilganidan so'ng bahs-munozara va nazorat uchun savollarni ifodalashga ham jiddiy e'tibor qaratildi. Bunda odatdagidek 5-6 ta savolni shakllantirish bilan cheklanilmadi. Aksincha, savollarning mavzu materiallarini to'liq qamrab olishiga erishishga harakat qilindi. Bu o'quvchining tegishli mavzularni chuqur, atroflicha va tez o'zlashtirishi, ularning bilimini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi, deb o'ylaymiz.

Ushbu darslikning yaratilishida yaqindan yordam bergan ustozimiz iqtisod fanlari doktori, professor Alisher Vosiqovich Vaxobovga chesiz minnatdorchilik bildiramiz.

E'tiboringizga havola etilayotgan ushbu kitob «Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish» fani bo'yicha yaratilgan ilk darslik bo'lganligi uchun ayrim kamchiliklardan holi bo'lmasligi, tabiiy. Uning sifatini oshirishga xizmat qiluvchi taklif-mulohazalarni mualliflar samimiylik bilan qabul qiladilar.

I bob. INVESTITSIYALARNING IQTISODIY MAZMUNI VA MOHIYATI

1.1. Investitsiyalar: iqtisodiy mazmuni, mohiyati va tasniflanishi (turlari)

Investitsiya milliy iqtisodiyotda nisbatan yangi termin hisoblanadi. Investitsiya[1] (lot. investio – o'rash) – iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o'z mamlakatida yoki xorijda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq muddatli kapital kiritish (qo'yish)dir. An'anaviy tarzda investitsiya deganda kelgusida ko'zda tutilgan daromadlarni olish maqsadida hozirda aniq iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish tushuniladi. Investitsiya mohiyatini tavsiflashdagi bunday yondashuvga milliy, shu bilan birga, xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda birlamchi e'tibor beriladi.

Investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati[2] va mazmuni[3] to'g'risida iqtisodchi olimlar o'rtasida xilma-xil qarashlar va fikrlar mavjud. Bu so'zning ham keng ma'nosidan, ham tor ma'nosidan foydalanish mumkin. «Investitsiya» tushunchasining ma'no-mazmuniga hozirgacha yakuniy bir ta'rif berilmagan va iqtisodiy fanning turli sohalarida investitsiyaning maqsadi, vazifalari, manbasi, mablag' kiritish sohalari va obyektlarining xususiyatlaridan kelib chiqib turlicha ta'rif berilmoqda.

Investitsiyaning mazmuni 1998-yil 24-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi qonunida: «Iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan

---

[1] O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T.: «O'ME» davlat ilmiy nashriyoti. 2002. 4-tom. – B. 145.

[2] «Mohiyat» ham arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida haqiqat, har narsaning asli, tub negizini, ya'ni biror narsaning zamiridagi tub, eng muhim ma'no, ichki mazmun, mag'zni anglatadi. «Ma'no», «mazmun» va «mohiyat» to'g'risida batafsil qarang: O'zbek tilining izohli lug'ati / Tahrir hay'ati: T.Mirzayev va boshq. T.: O'zME, 2006. 2-jild. – B. 525-621.

[3] «Ma'no» arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida mazmun, tushuncha va g'oyani anglatadi. U so'zning mazmun tomoni, so'z bilan ifodalangan tushuncha, biror narsaning mohiyati, nima ekanligi, mohiyatni bildiradi. «Mazmun» ham arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida mundarija yoki ma'noni anglatadi.

moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar», sifatida ta'riflanadi.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan A.Vaxabov, Sh.Xajibakiyev, N.Muminov, D.G'ozibekov, D.Tojiboyeva, N.Qo'ziyeva, G. Maxmudovalar tomonidan investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilgan va munosabat bildirilgan. Jumladan, A.Vaxabov, Sh.Xajibakiyev, N.Muminovlar tomonidan investitsiyalarning mazmun-mohiyati bo'yicha bayon etilgan ta'rifda: «investitsiyalar – foyda olish hamda ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik obyektlariga va boshqa faoliyat turlariga qo'yiladigan pul mablag'lari, banklarning maqsadli omonatlari, aksiyalar, boshqa qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar, mashinalar, uskunalar, litsenziyalar, kreditlar, har qanday boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlar, intellektual boyliklar»,[1] deb ta'riflangan.

Prof. D. G'ozibekov tomonidan investitsiyalarning mazmuniga quyidagicha ta'rif berilgan: «aniq va ishonchli manbalardan mablag'lar olish, ularni asosli holda safarbar etish, risklar darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash va ko'zlangan samarani olishdan iborat bo'ladi. Ana shu belgilariga ko'ra investitsiyalar boshqa qo'yilmalardan mazmunan farq qiladi. Bular barchasining asosida kapitalning harakatlanish jarayoniga jalb etilishi investitsiyalarning mohiyatini aks ettiradi».[2] Shuni ham ta'kidlash joizki, D.G'ozibekov tomonidan investitsiyalarning makroiqtisodiy darajadagi, makro darajadagi va moliya nazariyasidagi mohiyati to'g'risida ham fikrlar bildirilgan. Xususan, makroiqtisodiy darajada investitsiyalar deganda ishlab chiqarish vositalarini takror ishlab chiqarishga, uy-joy fondini, tovar zaxiralarini o'stirish va shu kabilarga qilingan chiqimlarning bir qismi, ya'ni yalpi ichki mahsulotning (YaIM)ning kapitalni o'stirishga qaratilgan va joriy davrda ishlatilmagan qismi tushuniladi. Makro darajada va ishlab chiqarish nazariyasida investitsiyalar deganda yangi kapitalni, shu jumladan, ishlab chiqarish vositalari va intellektual salohiyatni takror ishlab chiqarishni tashkil etish jarayoni nazarda tutiladi. Moliya nazariyasida investitsiyani real

[1] Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. T.: «Moliya», 2010. – B. 303.

[2] G'ozibekov D. G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: «Moliya», 2003. – B. 26.

yoki moliyaviy aktivlarga yo'naltirish bilan bog'laydilar, ya'ni aslida, bu kelgusida daromadlar olish maqsadida qilingan hozirgi chiqimlardir (xarajatlardir). Boshqacha ifodalaganda, bu bugungi muayyan qiymatni, ehtimol, nomuayyan kelgusi qiymat bilan ayirboshlashdir. Umuman, iqtisodiyotda investitsiyalar kapitalni jamg'arish jarayoni sifatida sharhlanadi.

Prof. D.Tojiboyeva fikricha: «iqtisodiy nazariyada investitsiya, deganda kelajakdagi natija uchun ishlab chiqarishni kengaytirish yoki rekonstruksiya qilish, mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash, malakali mutaxassislar tayyorlash va ilmiy tadqiqot ishlari olib borishga mo'ljallangan moliyaviy resurslar tushuniladi»[1].

Iqtisod fanlari doktori N.Qo'ziyeva tomonidan investitsiyalarga quyidagicha ta'rif berilgan: «Davlat, yuridik va jismoniy shaxslarning daromad olish va boshqa ijobiy samaradorlikka erishish maqsadida mamlakat ichkarisida va tashqarisida yangi korxonalar tashkil etish, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni kengaytirish, qayta ta'mirlash va texnik jihatdan qayta qurollantirish, ko'chmas mulk, aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar hamda aktivlarni sotib olishga yo'naltirilayotgan moliyaviy mablag'lar, mulkiy va intellektual boyliklarga investitsiyalar deyiladi».[2]

Iqtisod fanlari nomzodi G.Maxmudova tomonidan investitsiyalarga agrar soha nuqtayi nazaridan bayon etilgan ta'rifda: «investitsiya — agrar sohada faoliyat yuritadigan barcha toifadagi xo'jaliklarga pul, shuningdek, mulkiy va nomulkiy huquqlar berish hisobidan investor tomonidan foyda va ijtimoiy samara olishga qaratilgan sarmoyalashdir»[3], deb ko'rsatib o'tilgan.

Rossiya qonunchiligida («Kapital qo'yilmalar shaklida amalga oshiriluvchi investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Rossiya Federatsiyasining 1999-yil 25-fevraldagi qonuni) investitsiyalarga quyidagicha ta'rif berilgan: «investitsiyalar — bu foyda olish yoki boshqa ijobiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik va boshqa faoliyat obyektlariga joylashtirilgan (qo'yilgan, yo'naltirilgan) pul mablag'-

---

[1] Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi: Ikkinchi kitob: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma / M.Sharifxo'jayev ilmiy tahriri ostida. T.: «Sharq», 2003. – B. 79.

[2] Qo'ziyeva N.R. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari. Iqt. fan. dok. ilm. dar. olish uchun yoz. diss. avtoref. T.: BMA, 2008. – B. 10-11.

[3] Maxmudova G.N. Agrar sohani investitsiyalash samaradorligini oshirish yo'nalishlari. Iqt. fan. nom. ilm. dar. olish uchun yoz. diss. avtoref. T.: BMA, 2010. – B. 10.

lari, qimmatli qog'ozlar, boshqa mol-mulklar, shu jumladan, mulkchilik huquqlari va boshqa huquqlar».[1]

Rossiyalik iqtisodchi olim L.Igoshina tomonidan: «investitsiyalar – pulni saqlash, ko'paytirish yoki ijobiy miqdordagi daromadni ta'minlashni hisobga olgan holda uni joylashtirish mumkin bo'lgan har qanday vosita sifatida ifodalanadi»,[2] deb ta'riflangan. «Инвестиции» darsligining muallifi, professor A.Neshitoy investitsiyalarning mazmunini quyidagicha tavsiflaydi: «foyda olish yoki boshqa samaralarga erishish maqsadida o'z yoki o'zga mamlakatning turli tarmoqlariga, tadbirkorlik loyihalari, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar hamda innovatsiya loyihalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan pul mablag'larini (kapitalni) uzoq muddatga joylashtirishdir».[3]

Investitsiya atamasining iqtisodiy mohiyati yana bir qator rus olimlari tomonidan quyidagicha tavsiflangan:

- «investitsiyalar iqtisodiy foyda va ijtimoiy samara olish maqsadida investitsiya sohasi obyektlariga kiritiladigan barcha turdagi mulkiy va intellektual boyliklarni aks ettiradi»[4];
- «investitsiyalar deganda foyda (daromad) olish va investorlarning individual maqsadlari singari ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida iqtisodiyotning turli tarmoqlari va sohalariga, tadbirkorlik va boshqa turdagi faoliyat obyektlariga muayyan muddatga kapitalning maqsadli yo'naltirilgan qo'yilmasi shaklida amalga oshiriladigan xarajatlar yig'indisi tushuniladi»[5];
- «investitsiyalar o'zini foyda (daromad) olish maqsadida milliy va xorijiy iqtisodiyotning turli tarmog'iga xususiy yoki davlat kapitalining uzoq muddatli qo'yilmasi sifatida namoyon etadi»[6];
- «investitsiya tushunchasi foyda olish maqsadida qandaydir korxona, tashkilot, uzoq muddatli loyihalar va shu kabilarga kapital, pul mablag'larini uzoq muddatga kiritishni anglatadi»[7];

---

[1] Сергеев И.В., Веретенникова И.И. Организация и финансирование инвестиций. М.: Финансы и статистика, 2001. С. 5.
[2] Игошина Л.Л. Инвестиции: Уч. пос. М.: Экономист, 2005. С. 23.
[3] Нешитой А.С. Инвестиции: Учебник. 4-е изд. М.: Дашков и К°, 2006. С. 13.
[4] Староверова Г.С., Медведов А.Ю., Сорокина И.В. Экономическая оценка инвестиций: Учебное пособие. М.: КНОРУС, 2006. С. 11.
[5] Подшиваленко и др. Инвестиции: Учеб. пос. 3-е изд. М.: КНОРУС, 2006. С.7.
[6] Колмыкова Т.С. Инвестиционный анализ: Учеб. пособие. М.: ИНФРА-М, 2009. С. 7.
[7] Зубченко Л.А. Иностранные инвестиции: Учеб. пособие. М.: КНИГОДЕЛ. 2006. С. 7.

Investitsiyalar keng ma'noda o'zini mablag'lar va resurslarning kelgusida ko'payishi va iqtisodiy samara yoki boshqa rejalashtirilgan natijalar olish (ijtimoiy, ekologik va boshqa samaralar) maqsadida ularning safarbar etilishi sifatida namoyon etadi.

Xorijlik iqtisodchi olimlardan U.Sharp, Kempbell R.Makkonell, Stanli, L.Bryu kabilar investitsiyalarning mazmun-mohiyati yuzasidan turlicha ta'riflarni bayon etishgan. Jumladan, Nobel mukofotining iqtisodiyot bo'yicha laureati (1990-yil) U.Sharp ta'kidlashicha: «investitsiyalar kelgusida (ehtimol, nomuayyan) qiymatlik olish maqsadida hozirgi vaqtda muayyan qiymatlikdan voz kechishdir»[1]. «Investitsiyalash» atamasining ma'nosini mana bunday sharhlaydilar: «Kelajakda foyda olish uchun bugun puldan ajralishdir» va hisoblaydilarki, mablag'larni yoki real yoxud moliyaviy aktivlarga investitsiyalash mumkin. Ular investitsiyalash atamasi mazmunini kelajakda foyda olish maqsadida bugun pul bilan «xayrlashish»da ko'radilar.

«Investitsiyalar atamasini kapitalning kelgusida ko'payishi maqsadida uning turli xil shaklda joylashtirilishi sifatida belgilash mumkin».[2] «Investitsiyalar – qo'yilmaning kelgusida o'sish maqsadida bugungi iste'moldan voz kechish»[3]. «Investitsiya – ishlab chiqarish davri davomida paydo bo'lgan kapital qo'yilma qiymatining joriy o'sishi. Bu o'sha davrdagi foydaning iste'mol uchun ishlatilmagan qismi hisoblanadi»[4]. «Investitsiyalar – pul mablag'lari, maqsadli bank jamg'armalari, qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar, mashina, asosiy vositalar va boshqa mulk ko'rinishidagi kapital qo'yilmalar, shuningdek, pul qiymatiga ega bo'lgan mulkiy va nomulkiy huquqlarni investorlarning strategik maqsadlarini ko'zlab ishlab chiqarish va boshqa faoliyat obyektlariga kiritish»[5].

Iqtisodchi olimlardan Kempbell R.Makkonell, Stanli L.Bryu investitsiya tushunchasini quyidagicha sharhlaydilar, ya'ni «investitsiya (investment) – bu moddiy zaxiralarning ko'payishi, ishlab chiqarish vositalarining jamg'arilishi va ishlab chiqarishga xara-

---

[1] Шарп У., Александр Г., Бейли Дж. Инвестиции. Пер. с. англ. М.: Инфра-М, 1997. С. 16, 979.
[2] Ткаченко И.Ю. Инвестиции: Учеб. пособие. М.: Академия, 2009. С. 6.
[3] Самуельсон П.А. Экономика: пер. с англ. М.: БИНОМ, 1997. С. 783.
[4] Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег: пер. с англ. М.: Гетос АРВ, 1999. С. 352.
[5] Марголин А.М. Инвестиции. М.: РАГС, 2006. С. 464.

jatlar»[1]. Ushbu ta'rif o'z mazmuniga ko'ra, ko'proq, «kapital qo'yilmalar» tushunchasiga mos kelishini ta'kidlab o'tish joiz.

Ma'lumki, markazlashtirilgan rejali tizim davrida, iqtisodiy adabiyotlarda «investitsiya» va «kapital qo'yilma» tushunchalari tor ma'noda va bir xil mazmunda talqin qilinib kelingan va bunda asosiy fondlarni takror ishlab chiqarishga qilingan xarajatlar (ularni ta'mirlashga qilingan xarajatlarni ham qo'shgan holda) tushunilar edi. Bunday hollarda investitsiyalar asosiy kapitalga mablag'lar qo'yish, asosiy fondlarni vujudga keltirish va takror ishlab chiqarish, mavjud quvvatlarni ta'mirlash va ularni kengaytirishga mablag'lar joylashtirish ma'nosida talqin qilinadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida «investitsiya» va «kapital qo'yilma» tushunchalari o'rtasida qator farqlar yuzaga keldi. Avvalo, investitsiyalar kapital qo'yilmalarga qaraganda ancha keng tushunchaga ega. Investitsiyalar asosiy kapitalga mablag' qo'yish bilan birga, nomoddiy aktivlarga ham, intellektual mulkka ham, aylanma aktivlarga ham, moliyaviy vositalarga (qimmatli qog'ozlar) ham yo'naltiriladi.

Investitsiyalarning mana shunday xususiyatlari uning iqtisodiy mohiyatini iqtisodchi olimlar hozirga qadar ham turlicha talqin qilib kelishiga sabab bo'lmoqda.

Ayrim iqtisodchilar uni «tadbirkorlik faoliyatiga daromad olish maqsadida safarbar etilgan barcha turdagi boyliklar», deb tushunsalar, ayrimlari, lotincha «invest» so'zining aynan tarjimasi «solish», «joylashtirish», degan ma'noni anglatishidan kelib chiqqan holda «kapital solish» bilan birday qilib ta'riflaydilar.

Rossiya Federatsiyasi qonunchiligida kapital qo'yilmalar quyidagicha ta'riflangan: «kapital qo'yilmalar — bu asosiy kapitalga investitsiyalar, shu jumladan, yangi korxonalar qurish va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni texnik qayta qurollantirish va ta'mirlash, kengaytirish, mashina va asbob-uskunalar sotib olish, loyihaqidiruv ishlari va boshqalarga safarbar etiladigan xarajatlar»[2]. Ushbu ta'rifdan kelib chiqadigan bo'lsak, aylanma mablag'larga safarbar etilgan investitsiyalar kapital qo'yilmalar hisoblanmaydi. Bu yerda ham investitsiyalarning keng tushunchaga ega ekanligini

[1] Кэмпбелл Р. Макконелл, Стенли Л. Брю. Экономикс, принципы, проблемы и политика. 2-том. М.: Республика, 1992. С. 388.

[2] Сергеев И.В., Веретенникова И.И. Организация и финансирования инвестиций. М.: Финансы и статистика, 2001. С. 6.

va bir vaqtning o'zida kapital qo'yilmalar investitsiyalarning asosini tashkil etishini ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagi ta'riflarni tahlil qilar ekanmiz, investitsiyaning juda keng tushunchasining juda keng mazmun kasb etishi uni har xil talqin qilish mumkinligini e'tirof etish mumkin. Bu atamaning barcha jihatlarini umumlashtirib, quyidagicha tavsiflash mumkin: foyda yoki ijobiy natijaga erishish maqsadida subyektlar tomonidan xarajatlar tarzida iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga joylashtiriluvchi turli ko'rinishlarga ega boyliklarga investitsiyalar deyiladi. Ushbu ta'rifda investitsiyalarning xarakterli belgilari aks etgan: investitsiyalashning maqsadlari; xarajat ko'rinishida bo'lishi, turli ko'rinishdagi boyliklar tarzida joylashtirilishi va h.k.

Pulning vaqt (zamon)ga bog'liq qiymati nazariyasiga ko'ra investitsiya kelajakda naf olish maqsadida mablag'lar qo'yishdir. Investitsiya kapitalni muayyan muddatga bog'lashni yoki band qilishni bildiradi. Bundan asosiy maqsad kapital qiymatini saqlab qolish yoki bo'lmasa kapital qiymatini davomli o'stirib borishdir. Iqtisodiy mazmuni jihatidan investitsiya turli faoliyatlarga safarbar etilgan moddiy, nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlarni aks ettiradi.

Investitsiyalar foyda (daromad) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida, davlat, huquqiy va jismoniy shaxslar (investorlar) tomonidan cheklangan imkoniyatlardan samarali foydalanib, cheklanmagan ehtiyojni qondirish uchun iqtisodiyotning turli sohalariga ma'lum muddatga sarflangan barcha turdagi boyliklarni ham anglatadi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, barcha turdagi boyliklar investitsiyalarning «asosiy birlamchi» elementi degan xulosaga kelish mumkin. Bu boyliklarning turlariga qarab investitsiyalar quyidagi shakllarda bo'ladi: ko'char va ko'chmas mulklar (binolar va inshootlar, mashina va uskunalar, transport vositalari, hisoblash texnikalari va boshq.); pul mablag'lari, maqsadli bank qo'yilmalari, aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar; mualliflik huquqidan kelib chiqadigan mulkiy huquqlar, litsenziyalar, patentlar, «nou-xau»lar, tajriba va boshqa intellektual qiymatliklar; tabiiy boyliklar, yer va boshqa mol-mulklardan foydalanish huquqlari.

Shuni qayd etish joizki, investitsiyalar shakllaridan qat'iy nazar kapitalni (boyliklarni, resurslarni) jamg'arish jarayonining

natijasi hisoblanadi. Jamg'arish investitsiya qo'yishning asosi bo'lib, u qo'yiladigan investitsiyalarning hajmini belgilaydi.

Ishlab chiqarishga, qimmatli qog'ozlarga va shu kabilarga mablag' sarflash shunda maqsadga muvofiq bo'ladiki, agar: shu qo'yilmadan kelgan sof foyda mablag'larni bank depozitiga joylashtirishdan kelgan sof foydadan ko'p bo'lsa; investitsiyalarning rentabellik darajasi inflyatsiya[1] darajasidan yuqori bo'lsa; muayyan loyihaning rentabelligi, pulning muvaqqat qiymatini hisobga olganda, muqobil loyihalarning rentabelligidan yuqori bo'lsa; korxona aktivlarining rentabelligi loyihalar amalga oshirilgandan keyin ko'paysa (yoki hech bo'lmaganda kamaymasa) va har qanday holda ham qarz mablag'lari bo'yicha o'rtacha hisob stavkasidan ortiq bo'lsa; joriy etiladigan loyiha ishlab chiqarishning ratsional assortiment tuzilmasining shakllanishi, xarajatlarning qoplanish muddatlari, chiqimlar qoplanadigan moliyaviy manbalar mavjudligi, barqaror, lekin oddiy, yoki, aksincha, jamlangan, lekin vaqt jihatdan ajratilgan tushumlarni ta'minlash va shu kabilar nuqtayi nazaridan korxonaning bosh strategik maqsadiga mos kelsa. Shu bilan birga, bunday umumiy tamoyillar mavjudligiga qaramay u yoki bu xo'jalik subyekti uchun investitsiya siyosatini tanlashning muhim bo'lgan mezonlarini aniqlash har doim g'oyat subyektivdir va muayyan aniq bosqichda ko'zlanayotgan strategik moliyaviy maqsadlarga bog'liq bo'ladi. Biroq, subyektivlik darajasi qanday bo'lmasin, moliya menejeri qaror qabul qilar ekan, pulning muvaqqat qiymatini, loyihaning risk darajasini va investitsiyalashning muqobil imkoniyatlariga nisbatan jozibadorligini hisobga olmog'i lozim.

Investitsiyalarni tahlil qilish, hisobga olish va samaradorligini oshirish uchun ularni makro va mikro darajada tasniflash[2] talab etiladi. Puxta o'ylangan va asoslangan holda investitsiyalarni tasniflash makro va mikro darajada investitsiyalash jarayonlarini tahlil qilish va shu asosda samarali investitsiya siyosatini amalga oshirish uchun zarur ma'lumotlar olish imkonini beradi.

---

[1] Inflyatsiya lotincha «inflation» so'zidan olingan bo'lib «shish», «bo'rtish», «ko'pchish» degan ma'noni anglatadi. Bu so'z XIX asrning o'rtalaridan boshlab iqtisodchilar tomonidan iqtisodiy termin sifatida ishlatilgunga qadar, u tibbiyotda xavfli o'sma kasalini ifodalashda qo'llanilgan. Inflyatsiya deganda narxlarning muqim ravishda o'sib borishi natijasida pul birligining qadrsizlanishi tushuniladi.

[2] Odatda, tasnif deganda, biz muayyan belgilar bo'yicha aniq guruhlarga ajratishni tushunamiz.

Rejali iqtisodiyot davrida iqtisodiy adabiyotlarda va amaliyotda kapital qo'yilmalarning birmuncha keng tarqalgan quyidagi tasnifi (turlari) xususiyatlariga ko'ra keltirilgan[1]:

– kelgusi obyektlarning maqsadli belgilanganlik belgilari bo'yicha: qurilish ishlab chiqarishi; madaniy-maishiy inshootlar qurish; ma'muriy binolar qurish; qidiruv va geologiya-razvedka ishlariga;

– asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish shakli bo'yicha: yangi qurilishga; faoliyat yuritayotgan korxonalarni ta'mirlash va kengaytirish; texnik qayta qurollantirishga;

– moliyalashtirish manbalari bo'yicha: markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan mablag'larga;

– ishlatilishi (joylashtirish, qo'yish) yo'nalishi bo'yicha: ishlab chiqarish va noishlab chiqarishga.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan ushbu tasniflash o'zining ilmiy va amaliy ahamiyatini yo'qotgani yo'q, biroq, yuqorida ta'kidlaganimizdek, quyidagi sabablarga ko'ra bunday tasniflash yetarli emas edi:

– birinchidan, investitsiyalar kapital qo'yilmalarga qaraganda kengroq tushunchaga ega. Ma'lumki, investitsiyalar real investitsiya qo'yilmalarini hamda portfel investitsiyalarni qamrab oladi. Yuqoridagi tasniflashda portfel investitsiyalar hisobga olinmagan;

– ikkinchidan, bozor munosabatlariga o'tish munosabati bilan investitsiyalarni ham, kapital qo'yilmalarni ham moliyalashtirish manbalari va usullari birmuncha kengaydi. Bularga yuqoridagi tasniflashda o'rin berilmagan va aks ettirilmagan.

Xorijiy adabiyotlarda investitsiyalarning tasniflanishi ilmiy va amaliy jihatdan alohida qiziqish uyg'otadi. Masalan, nemis professori Vaynrixom investitsiyalarni yo'naltirish obyektlariga ko'ra quyidagicha tasniflashni taklif etadi:

– ko'chmas mulkka investitsiyalar (moddiy investitsiyalar – bino, inshootlar, asbob-uskunalar va boshqa turdagi asosiy vositalar);

– moliyaviy investitsiyalar (aksiya, obligatsiya va boshqa turdagi qimmatli qog'ozlarni sotib olish);

[1] Сергеев И.В., Веретенникова И.И. Организация и финансирования инвестиций. М.: Финансы и статистика, 2001. С. 13-14.

– nomoddiy investitsiyalar (kadrlar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot va boshq.)[1].

Xorijiy adabiyotlarda portfel investitsiyalar investor tomonidan sotib olingan aksiyalarning firma ustidan nazorat va ta'sir doirasi belgilariga ko'ra tasniflanadi. Investitsiyalarning birmuncha ilmiy asoslangan tasnifi rus olimi N.Blank ishlarida keltirilgan. Bunda investitsiyalar quyidagi belgilariga ko'ra tasniflangan: qo'yilma obyektlariga ko'ra; investitsiyalashda ishtirok etishiga qarab; investitsiyalash davri bo'yicha; mulkchilik shakllari bo'yicha; hududiy belgisi bo'yicha (1.1-rasm).



1.1-rasm. **Investitsiyalarning alohida belgilari bo'yicha tasniflanishi**[2]

Rus iqtisodiy adabiyotlarida[3] portfel (aksiya, obligatsiya va boshqa turdagi qimmatli qog'ozlarga, shuningdek, boshqa korxonalarning aktivlariga yo'naltirilgan investitsiyalar) va real (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni ta'mirlash va texnik qayta qurollantirish, kengaytirish, yangi korxonalar barpo etishga yo'naltirilgan investitsiyalar) investitsiyalar farqlanadi. Bunday sharoitda inves-

[1] Сергеев И.В., Веретенникова И.И. Организация и финансирования инвестиций. М.: Финансы и статистика, 2001. С. 14.

[2] Сергеев И.В., Веретенникова И.И. Организация и финансирования инвестиций. М.: Финансы и статистика, 2001. С. 16.

[3] Бочарев В.В. Методы финансирования инвестиционной деятельности предприятий. М.: Финансы и статистика, 1998. С. 6-7. Сергеев И.В., Веретенникова И.И. Организация и финансирование инвестиций. М.: Финансы и статистика, 2001. С. 6.

tor-korxona mablag‘ kirita turib, o‘zining ishlab chiqarish kapitalini, ya’ni asosiy ishlab chiqarish fondlari va uning faoliyati uchun zarur bo‘lgan aylanma mablag‘larni ko‘paytiradi (oshiradi). Portfel investitsiyalar amalga oshirilganda investor o‘zining moliyaviy kapitalini, ya’ni qimmatli qog‘ozlardan olinadigan daromad-dividendini ko‘paytiradi.

Investitsiyalarni korxona miqyosida quyidagicha tasniflash mumkin (1.2-rasm).



1.2-rasm. **Korxona investitsiyalarining tasniflanishi**

Bunday tasniflashning afzalligi va uning boshqa tasniflashlardan farqi shundaki, unda korxona o‘z investitsiyalarini qanday maqsadlar uchun safarbar etishi to‘g‘risida real holat aks ettirilgan. Mohiyat jihatdan, ushbu tasniflash korxonaning investitsiya portfelini xarakterlaydi. Bunda korxona uchun ushbu portfel bo‘yicha riskni minimallashtirish va iqtisodiy foydani oshirish eng muhim muammolardan biri sanaladi. Yuqoridagi rasmda tasvirlangan real investitsiyalar — bevosita investitsiyalar bo‘lib, investorning investitsiya jarayonida bevosita ishtirok etishini anglatadi, ya’ni investor investitsiyalash obyektini, shuningdek, uni moliyalashtirishni tashkil etish va moliyalashtirish manbalarini bevosita o‘zi aniqlaydi. Portfel investitsiyalar —

bilvosita investitsiyalarni anglatib, bu investitsiya yoki moliyaviy vositachilar orqali investitsiyalashdir.

O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 24-dekabrdagi «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi qonunining 3-moddasiga ko'ra investitsiyalar mo'ljallangan obyektiga qarab kapital, innovatsiya va ijtimoiy investitsiyalarga bo'linadi:

–*kapital investitsiyalar* jumlasiga asosiy fondlarni vujudga keltirish va takror ishlab chiqarishga, shuningdek, moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo'shiladigan investitsiyalar kiradi;

– *innovatsiya investitsiyalari* jumlasiga texnika va texnologiyalarning yangi avlodini ishlab chiqish va o'zlashtirishga qo'shiladigan investitsiyalar kiradi;

– *ijtimoiy investitsiyalar* jumlasiga inson salohiyatini, malakasi va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, nomoddiy ne'matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo'shiladigan investitsiyalar kiradi.

Kapital investitsiyalar, asosan, moddiy ishlab chiqarishga safarbar etilgan investitsiyalarni anglatadi. Innovatsiya investitsiyalari texnika-texnologiyalarning yangi avlodini, yangi va takomillashgan variantlarini yaratishga yo'naltirilgan investitsiyalarni tavsiflaydi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yuqoridagi qayd etilgan investitsiya turlari tarkibida ijtimoiy investitsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi ijtimoiy investitsiyalar natijasida insonning bilim, ko'nikma, tajriba, malaka, iqtidor, qobiliyat va salohiyatda yuksak darajalarga erishuvi uning bebaho qiyofasini namoyon etadi.

Inson uchun kerak bo'lgan barcha ko'rinishda aqliy bilim va salohiyatning mujassamligi hayotning ijtimoiy-iqtisodiy jabhalarida, nafaqat, texnika va texnologiyalarning yangi avlodlarini yaratish hamda asosiy fondlarni vujudga keltirish va takror ishlab chiqarishni, qolaversa, barcha turdagi investitsiyalarni samarali safarbar etish, ularni boshqarish kabilar orqali jamiyatning moddiy-ma'naviy, ilmiy-texnik taraqqiyotini ta'minlashning muhim asosini tashkil etadi.

Kapital va innovatsiya investitsiyalari orqali moddiy boyliklarni yaratish va ko'paytirish mumkin bo'lsa, ijtimoiy investitsiyalar

2420

orqali ham moddiy, ham ma'naviy, shuningdek, ilmiy-texnik ahamiyatga ega boyliklarni ham yaratish va ko'paytirish mumkin.

Iqtisodiyotda yaratilayotgan YaIMning, korxonalarda mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarishning o'sishida investitsiyalarning hissasi qanchalar muhim bo'lmasin, ular zamirida inson kapitali va salohiyatidan o'zga hech bir omil asosiy o'rinni egallay olmaydi. Shu nuqtayi nazardan insonning bilimi, aqliy salohiyati, iqtidori, tajriba va malakasini oshirishga yo'naltirilgan investitsiyalarni eng samarali investitsiyalar, deb baholash mumkin.

Mamlakatda zamonaviy va yuksak darajadagi bilim, iqtidor, malaka, ko'nikma va salohiyatga ega yetuk mutaxassislarni tayyorlashda ta'lim muassasalarining, ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarining alohida o'rni mavjud. Respublikamizda ta'lim tizimini isloh qilishning navbatdagi ikkinchi bosqichi samarali ijrosini ta'minlash maqsadida mazkur sohaga davlat va boshqa investitsiyalarning keng jalb etilishi mamlakatimizning istiqbolli ravnaqini ta'minlashga munosib hissa qo'shishga intiluvchan, Vatanparvar, yosh kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan investitsiyalarning turlari bo'yicha ham izlanishlar olib borilgan. Masalan, prof. D.G'ozibekov investitsiyalarni quyidagi begilariga ko'ra tasniflagan: asosiy kapitalni ko'paytirish zarurati bilan bog'liq sof investitsiyalar va asosiy fondlarning yemirilishi o'rnini qoplash zaruratini taqozo etgan yalpi investitsiyalar farqlanadi. Investitsiyalar joylashtirish obyektlari bo'yicha farqlanadi. Bunday obyektlar mulk, moliyaviy vositalar, nomoddiy qiymatliklar bo'lishi mumkin.

Harakat yo'nalishi bo'yicha investitsiyalarni fondlar tarkibini yangilash, ratsionallashtirish, kengaytirish, almashtirish va hokazolarga mo'ljallangan investitsiyalarga ajratish mumkin. Maqsadlari va ular bilan bog'liq xatarlar nuqtayi nazaridan venchurli (xatarli) bevosita, portfel va annuitet investitsiyalar bo'ladi. Venchur kapital shakli katta xatar bilan bog'liq yangi faoliyat sohalarida chiqariladigan yangi aksiyalardir. Xatarli kapital kapitalning turli shakllarini: ssuda kapitali, aksiyadorlik kapitali va tadbirkorlik kapitalini o'z ichiga oladi.

Bevosita investitsiyalar muayyan xo'jalik subyektini boshqarishga, ishtirok etish huquqini olish va foyda chiqarish maqsadida

uning ustav kapitaliga mablag‘ solishdir. Portfel investitsiyalar investorning aniq maqsadga erishishi uchun xizmat qiladigan va bir butun qilib to‘plangan turli qiymatliklarning yig‘indisidir. Annuitet – vaqti-vaqti bilan investorga muayyan daromad keltirib turadigan investitsiyalar.

Investitsiya subyektlari nuqtayi nazaridan investitsiyalar xususiy va davlat investitsiyalariga bo‘linadi. Xususiy investitsiyalar o‘z xususiy kapitali, zayomlar (shu jumladan, obligatsiyali zayomlar), shuningdek, jalb etilgan kapital hisobidan amalga oshiriladi. Davlat investitsiyalari budjet ajratmalari va unga tegishli resurslar hisobidan amalga oshiriladi. Iqtisodiy nazariyada investitsiyalarning quyidagi turlarini uchratish mumkin. Jumladan: nominal investitsiyalar – investitsiyaga ajratilgan pul mablag‘lari; real investitsiyalar – pul mablag‘larining ishlatilishi natijasida erishilgan real natija. Kapital resurslarga investitsiyaning o‘zi ikki turga bo‘linadi: sof investitsiya va modernizatsiya uchun investitsiya.

Sof yoki yangi investitsiya bilan modernizatsiya uchun yoki eskirgan asosiy kapitalning o‘rnini to‘ldirish uchun investitsiyalar yalpi investitsiyalar deyiladi.[1] Jamg‘arilgan resurslar investitsiya obyektlariga qo‘yilishiga qarab mulkiy, moliyaviy va intellektual investitsiyalarga bo‘linadi. Biz ba’zi iqtisodchi olimlarning intellektual investitsiyaga alohida urg‘u berishlariga qo‘shilamiz.

Bir tomondan ehtiyojlarning o‘sib borishi, ikkinchi tomondan, fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning murakkablashib borishi insondan yuqori malaka va mahorat talab qiladi va borgan sari bu talab mezonlari yuksalib boradi. Natijada ma’lumot olish, tajriba to‘plash, malakaga ega bo‘lish, sog‘lom bo‘lish uchun borgan sari ko‘proq kapital mablag‘lar talab etiladi. Bir vaqtning o‘zida intellektual salohiyat ishlab chiqarishning eng asosiy elementi bo‘lib shakllanib boradi. Ana shu maqsadlarga sarflangan xarajatlar insoniy kapitaliga investitsiya (intellektual investitsiya), deb ataladi.

---

[1] Ya’ni, eski asosiy kapitalni yangilash (amortizatsiya) hamda ishlab chiqarishni kengaytirish uchun asosiy kapitalni ko‘paytirishga sarflangan investitsiya yalpi investitsiyalarni hosil qiladi. Sof investitsiya – yalpi investitsiyadan asosiy kapital amortizatsiyasining ayirmasiga teng. Agar sof investitsiya musbat kattalikni tashkil qilsa, iqtisodiyot rivojlanadi. Agar sof investitsiya nolga teng bo‘lsa, (investitsiya amortizatsiya summasiga teng), u holda iqtisodiyot turg‘unlikka yuz tutadi. Agar sof investitsiya manfiy miqdorga teng bo‘lsa, (investitsiya miqdori amortizatsiya miqdoridan kam) u holda tadbirkorlik faoliyati susayadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, investitsiyalarni quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiqdir (1.3-rasm).



1.3-rasm. **Investitsiyalarning tasnifi**

Shunday qilib, investitsiyalarni jamg'arish (boyliklar, resurslar), qo'yish (solish, joylashtirish, sarflash), kapitallashuv (kapitalizatsiya, mahsulot yaratilishi) va iqtisodiy yoki ijtimoiy samara olishdek dinamik harakatda bo'lishligini ta'kidlash lozim. Shunday bo'lsa-da, yuqorida aytganimizdek, investitsiyalarning asosini jamg'armalar tashkil qiladi.

Real jamg'arilgan kapitalning o'sishi farovonlikning ortishiga olib keladi. Bugungi farovonlik kechagi investitsiyaning natijasi, mevasi, bugungi investitsiya jamiyatning ertangi farovonligi asosidir.

1.2. Asosiy fondlarning shakllanishida kapital qo'yilmalarning roli

Ma'lumki, milliy boylikning[1] muhim tarkibiy qismini korxona va tashkilotlardagi, xalq xo'jaligi tarmoqlaridagi asosiy fondlar tashkil qiladi.

[1] *Milliy boylik – taraqqiyot asosi bo'lib, u mamlakatda amalga oshirilgan mehnat tufayli yaratilib, jamg'arilgan moddiy ne'matlar, oltin, chet el valyutalari, nomoddiy aktivlar va qadriyatlar, hisobga olingan va xo'jalik oborotiga jalb etilgan yer va tabiiy resurslardan iborat.*

Korxona va tashkilotlarning asosiy fondlari moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohasida uzoq muddat davomida natura shaklida amal qiluvchi va mehnat vositasi sifatida ishlatiluvchi moddiy-mulkiy qiymatliklar yig'indisini ifodalaydi. Nazariya va amaliyotda bir yildan ortiq xizmat qiluvchi vositalar asosiy fondlar, bir yilgacha xizmat qiluvchi vositalar aylanma mablag'lar sifatida tan olinadi. Asosiy fondlar ko'chmas mulkning tarkibiy qismini ham anglatadi. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga[1] muvofiq ko'chmas mulk jumlasiga yer uchastkalari, yerosti boyliklari, binolar, inshootlar, ko'p yillik dov-daraxtlar va yer bilan uzviy bog'langan boshqa mol-mulk, ya'ni belgilangan maqsadiga nomutanosib zarar yetkazmagan holda joyini o'zgartirish mumkin bo'lmaydigan obyektlar kiradi.

Uzoq muddat (bir yildan ortiq vaqt) mobaynida moddiy ishlab chiqarish sohasida, noishlab chiqarish sohasida ham amal qiladigan, shuningdek, ijaraga berish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlar asosiy vositalar hisoblanadi. Asosiy vositalarga imoratlar, inshootlar, o'tkazuvchi moslamalar, mashina va uskunalar, transport vositalari, o'lchov asboblari, hisoblash texnikasi, ishlab chiqarish va xo'jalik inventarlari, ishchi va mahsuldor hayvonlar, ko'p yillik daraxtlar, yerning meliorativ holatini yaxshilash uchun sarf qilingan kapital qo'yilmalar va boshqalar kiradi. O'z navbatida, ko'p yillik daraxtlar, (mevali va manzarali), mahsuldor hayvonlar, kutubxona fondlari, oddiy qishloq xo'jaligi texnikalari xizmat muddati va qiymatidan qat'iy nazar, asosiy vositalar tarkibiga kiritiladi. Shu bilan birga, yer ham asosiy vositalar tarkibida hisobga olinadi.

Mamlakatimizda amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq asosiy vositalar – korxona tomonidan uzoq muddat davomida xo'jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlarni ifodalaydi. Asosiy vositalar tarkibiga quyidagi mezonlarga javob beradigan moddiy aktivlar kiritiladi: bir yildan ortiq xizmat qilish muddati; bir birlik (to'plam) uchun qiymati eng kam oylik ish haqi miqdorining ellik baravaridan ortiq bo'lgan buyumlar.

[1] O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi Oliy Majlisning 29.08.1996-yildagi 257-I-sonli qaroriga muvofiq 1-mart 1997-yildan e'tiboran amalga kiritilgan. 86-modda (Mol-mulkning turlari).

Asosiy fondlarning iqtisodiy mohiyati shundaki, moddiy-mulkiy qiymatlik ko'rinishidagi asosiy fondlar korxona ishlab chiqarish jarayonida mehnat vositasi sifatida ko'p marotaba ishlatiladi (foydalaniladi) va ularning qiymati asta-sekin qismlarga bo'lingan holda tovar (mahsulot) bahosiga o'tib boradi. Asosiy fondlarning muhim xususiyati mehnat vositasi sifatida amal qilishi, ishlab chiqarish siklida ko'p marotaba ishlatilishi va ular qiymatining mahsulot bahosiga ko'chib o'tishi bilan tavsiflanadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, asosiy fondlarni shakllantirishda kapital qo'yilmalar muhim o'rin egallab, bu muhimlik kapital qo'yilmalarning tarkibiy tuzilishidan kelib chiqadi. Kapital qo'yilmalarning tarkibiy tuzilishi quyidagilarni qamrab oladi: kapital qo'yilmalarning texnologik tuzilishi; kapital qo'yilmalarning takror ishlab chiqarish tuzilishi; kapital qo'yilmalarning tarmoq va hududiy tuzilishi.

Kapital qo'yilmalarning texnologik tuzilishi, deganda kapital qo'yilmalarning xarajat turlari bo'yicha qandaydir obyekt qurilishiga ketgan xarajatlar tarkibi va uning jami smeta qiymatidagi ulushi tushuniladi. Ya'ni texnologik tuzilishi jami kapital qo'yilmalarning qancha qismi (ulushi) qurilish-montaj ishlariga, qanchasi mashina va uskunalar sotib olish va ularni montaj qilishga va yana qanchasi loyiha-qidiruv ishlari va boshqa xarajatlarga safarbar etilganligini ko'rsatadi. Kapital qo'yilmalarning texnologik tuzilishi ularning samarali ishlatilishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Mohiyat jihatdan, kapital qo'yilmalarning texnologik tuzilishi kelgusida barpo etilayotgan korxona ishlab chiqarish asosiy fondlarining aktiv va passiv elementlariga sarflangan xarajatlar nisbatini anglatadi[1].

Mashina va uskunalar ulushining yuqoriligi, ya'ni kelgusida barpo etilayotgan korxona asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv qismi ko'payishi ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish imkoniyatini yaratadi, o'z navbatida, bu holat mahsulot birligiga ketgan kapital qo'yilmalar sarfini kamaytiradi. Iqtisodiy samaradorlik mehnatni avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirish dara-

[1] Aktiv elementlar deganda, o'z qiymatini bevosita mahsulot yoki xizmatlar tannarxiga o'tkazuvchi, bevosita amortizatsiyalanuvchi elementlar va obyektlar tushuniladi, bularga texnologik uskunalar, mashina va qurilmalar qiymati misol bo'ladi. Passiv elementlar o'z qiymatini tannarx tarkibiga bilvosita kiritib boruvchi obyektlar va vositalar qiymatini anglatadi, ularga bino va imoratlar, mebel, ofis jihozlari, kompyuter texnikasi, moddiy va nomoddiy obyektlar misol bo'la oladi.

jasini oshirish hamda mahsulot birligiga ketgan doimiy xarajatlarni kamaytirish hisobiga erishiladi.

Kapital qo'yilmalarning takror ishlab chiqarish tuzilishi ham ularni samarali ishlatishga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Kapital qo'yilmalarning takror ishlab chiqarish tuzilishi deganda asosiy ishlab chiqarish fondlarining takror ishlab chiqarish shakllari bo'yicha umumiy smeta qiymatiga nisbati va taqsimlanishi tushuniladi. Bu holatda kapital qo'yilmalarning qancha qismi yangi qurilishga, qanchasi amaldagi ishlab chiqarishni texnik qayta qurollantirish va ta'mirlashga va yana qanchasi amaldagi ishlab chiqarishni kengaytirishga hamda modernizatsiya qilishga yo'naltirilayotganligini aniqlash mumkin.

Takror ishlab chiqarish tuzilishini takomillashtirish amaldagi ishlab chiqarishni texnik qayta qurollantirish va ta'mirlashga yo'naltirilgan kapital qo'yilmalarning hajmini oshirish bilan bog'liq bo'ladi. Nazariya va amaliyot tasdiqlashicha, yangi qurilishni amalga oshirishga nisbatan ishlab chiqarishni texnik qayta qurollantirish va ta'mirlash foydaliroqdir[1] (qo'shimcha ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish muddatlari qisqaradi va h.k.).

Real investitsiyalarni iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlash va o'zlashtirish mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Kapital qo'yilmalarning iqtisodiy samaradorligi ularning tarmoqlar va hududlar bo'yicha tarkibiy tuzilishiga bog'liq bo'ladi.

Kapital qo'yilmalarning tarmoq tuzilishi (tarkibi) deganda kapital qo'yilmalarning butunlay iqtisodiyot va sanoat tarmoqlariga nisbati va taqsimlanishi tushuniladi. Uni takomillashtirish, eng avvalo, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini proporsional ravishda rivojlantirish bilan bog'liq bo'ladi.

Iqtisodiyotda kapital qo'yilmalarning roli, asosan, quyidagilar bilan xususiyatlanadi:

– kapital qo'yilmalar asosiy fondlarni barpo etish, amaldagi korxonalarni ta'mirlash va kengaytirish, korxonalarni texnik qayta qurollantirishning muhim va bosh omilidir;

– kapital qo'yilmalar yordamida iqtisodiyot tarmoqlari va alohida ishlab chiqarishdagi asosiy fondlarning rivojlanish sur'atlarini tartibga solish amalga oshiriladi;

[1] Bu holatni «yangi uy qurmay turib, eskisini buzmang» iborasi tarzida tushuning.

– kapital qo'yilmalar yordamida ijtimoiy xarakterdagi muammolar (uy-joy, ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlash, madaniyat obyektlari qurilishi) bartaraf etiladi;

– kapital qo'yilmalar yordamida mamlakatning barcha iqtisodiy hududlarining rivojlanishi tartibga solinadi va boshq.

1.3. Jamg'armalar — investitsiyalash manbasi sifatida

Ma'lumki, iqtisodchi olimlar jamg'armani investitsiyalashning asosi, deb qarashadi. Bu mutlaqo to'g'ri, chunki investitsiya qilish uchun, eng avvalo, pul kapitali bo'lishi kerak. Resurslar (shu qatori pul mablag'lari ham) cheklangan. Asosiy muammo mablag' topish masalasidir. Ayniqsa, investitsiya uzoq muddatni ko'zlashi va tez natija bermasligi bilan ajralib turadi.

Inson doimo hozirgi kundagi ne'matlardan foydalanishni, kelajakdagi iste'moldan yuqori baholaydi. Unda doimo bugungi kun ehtiyojlari ustunlik qiladi[1]. Bu xalq maqollarida ham o'z ifodasini topgan: «Osmondagi turnadan qo'ldagi chittak yaxshi» yoki «Yutganim o'zimniki, chaynaganim gumon». Shuning uchun ham investitsiya manbalari, ularni jalb qilish imkoniyatlariga alohida ahamiyat berish talab etiladi. Investitsiyalarning asosiy manbayi jamg'arma, ya'ni milliy iqtisodiyotdagi yalpi daromadning iste'mol qilinmagan qismi hisoblanadi.

Jamg'arish — bu joriy davrdagi qayta ishlashning moddiy asosini kengaytirish orqali kelajakda aholi iste'molini oshirishga yo'naltirilgan jarayon. Jamg'arishning asosiy funksiyasi — takror ishlab chiqarish jarayonining pirovard maqsadiga erishishga ko'maklashishdir. Takror ishlab chiqarish jarayonining maqsadi aholining o'sib va o'zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishdan iborat.

Iqtisodiy nazariyada milliy daromad bir qismining asosiy va aylanma kapitallarni, shuningdek, ehtiyoj zaxiralarini ko'paytirish uchun sarflanishi jamg'armani tavsiflaydi. Jamg'arma, odatda, investitsiya sifatida iqtisodiyotga kiritiladi, ya'ni jamg'armaning iqtisodiyotga ijobiy ta'siri investitsiyaga aylangandagina yuz

[1] Insonlardagi bu fazilat, nazarimizda, hech qachon o'zgarmaydi. Odamzot hozir qondirishi mumkin bo'lgan ehtiyojini keyinga surmasdan qondirishga, ne'matlardan foydalanishga doimo intiladi. Buning sababi, eng avvalo, insonning hayoti cheklanganligi, o'limning haqligi va uning qachon yuz berishini bilmasligidir.

beradi. Jamg'arma deyilganda aholi, korxona va davlat joriy daromadlarining kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish va daromad olish maqsadlarida to'planib borishi tushuniladi. Uning hajmi barcha xo'jaliklar daromadidan iste'mol sarflarini ayirib tashlash yo'li bilan aniqlanadi. Daromad tarkibida iste'mol sarflari ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, jamg'arma hajmi shunchalik kam bo'ladi. Bunday holat investitsiya faoliyati [1] taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi. Jamg'armaning o'sishi iqtisodiy ma'noda mablag'-larning iste'mol buyumlar xarid qilishdan investitsiya tovarlari xarid qilishga yo'naltirilishini bildiradi. Shunga ko'ra, muddat jihatdan kechiktirilgan iste'mol jamg'armani anglatadi. Ammo, jamiyat oldida doimo bugungi va ertangi iste'molning qancha bo'lishini yechish muammosi turadi. Jamiyat bugun qancha ko'p investitsiya qilsa, ertaga boyroq bo'ladi, aksincha, ko'proq iste'mol qilinsa, keyinchalik ko'proq iste'mol qilish imkoniyati shuncha kamayadi.

Investitsiyalash darajasini ikki asosiy omil belgilab beradi, birinchisi, investitsiyalashdan kutilayotgan foyda me'yori va ikkinchisi foiz stavkasi. Investitsiyalashni yuzaga keltiruvchi sabab (motiv) foyda hisoblanadi. Investorlar yoki tadbirkorlar ishlab chiqarish vositalarini ular foyda keltiradigan bo'lsagina sotib oladilar. Investitsiyalash darajasini belgilaydigan ikkinchi omil foizning real stavkasi hisoblanadi. Real asosiy kapitalni sotib olish uchun zarur bo'lgan, bankdan olingan ssuda kapitaliga korxona to'lashi lozim bo'lgan pul miqdori foiz stavkasini anglatadi. Masalan, foyda me'yori 15 foiz, foiz stavkasi 9 foiz bo'lsin, u holda investitsiya qilish foydali hisoblanadi. Agar foiz stavkasi 15 foiz bo'lsa, aksincha, investitsiyalashdan voz kechiladi.

Yalpi xarajatlar[2]da investitsiyalar hissasi nisbatan uncha ko'p bo'lmasa-da, aynan, investitsiyalar tufayli asosiy makroiqtisodiy siljishlarga erishiladi. Shu bilan birga, jamg'arish bilan investitsiya o'rtasidagi muvozanat makroiqtisodiy muvozanatga erishishning eng muhim shartidir. Biroq, bu muvozanatga erishish doimo oson kechmaydi. Bunga sabab investitsiya darajasi va jamg'arma darajasining boshqa-boshqa jarayon va holatlarga bog'liqligidir.

---

[1] Investitsiya faoliyati, uning mazmuni, tarkibi va unga oid boshqa batafsil ma'lumotlar bilan darslikning uchinchi bobida yaqindan tanishasiz.

[2] Yalpi xarajatlar o'z tarkibiga: shaxsiy iste'mol xarajatlari; investitsiya iste'moli xarajatlari; davlat iste'moli xarajatlari va sof eksport xarajatlarini qamrab oladi.

Jahon amaliyotining ko'rsatishicha, yuqori jamg'arish me'yoriga [1] ga ega bo'lgan mamlakatlar, boshqa shart-sharoitlar o'zgarmagan holda, odatda, yuqori iqtisodiy o'sish[2] sur'atlariga ega bo'lishadi. Milliy iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiyalar hajmini ko'paytirish va uning iqtisodiy o'sishini ta'minlashdagi rolini oshirishning muhim zaruriy shartlaridan biri – bu jamg'arish me'yorining nisbatan yuqori va barqaror darajasini ta'minlash hisoblanadi. Jamg'arish me'yori barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.



1.4-rasm. **Aholi jamg'armalarining 1995-yilga nisbatan o'sishi, marta**

Milliy iqtisodiy tizimda 1996–2011-yillarda investitsiyalarning YaIMdagi ulushi o'rtacha 24 %ga teng bo'lgan bo'lsa, jamg'armaning ushbu davrdagi o'rtacha qiymati 27,2 %ni tashkil etmoqda.

Oxirgi 7-9 %li iqtisodiy o'sish davrida jamg'arma ulushi o'rtacha 35 %ni ifoda etgan bo'lsa, investitsiyalarning YaIMdagi ulushi 24 %ni ifoda etishi holatida, 10-11 %li jamg'arma ulushidan samarali foydalanilmay qolayotganligi ma'lum bo'ladi. Qolaversa, investitsiyalarning YaIMdagi ulushi 24 %ni tashkil etishida chetdan jalb etilgan xorijiy sarmoyalarning ham hissasi mavjud. Bu, o'z navbatida, mamlakatimizda ishlatilmay qolina-

[1] Iqtisodchilar tomonidan, odatda, ko'proq yaratilgan milliy daromadning qanday qismi iste'molga va qanday qismi jamg'arishga (investitsiyalashga) sarflanishini aniqlash maqsadida jamg'arish me'yori ko'rsatkichi qo'llaniladi. Bu ko'rsatkich jamg'arishning milliy daromadga nisbati (jamg'arish me'yori = jamg'arish fondi / milliy daromad) tarzida hisoblanadi. Bunda jamg'arish fondi deganda pulni xazina shaklida jamg'arish emas, balki investitsiyaga sarflanishi ko'zda tutiladi.

[2] Ma'lum bir vaqt (yil) mobaynida real YaIM (yoki YaMM), sof milliy mahsulotning hajmi ortib, tarkibining o'zgarishi.

yotgan milliy jamg'armalar ulushi 10-11 %dan ancha yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Xitoy, Janubiy Koreya kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda oxirgi 15 yil davomida kuzatilgan o'rtacha 10 %li iqtisodiy o'sish davrida jamg'arma ulushining o'rtacha qiymati 30 %ni tashkil etgan.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatdiki, bir yilda 6 foizdan ortiq iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun milliy jamg'armalar YaIMning kamida 25 foizini, investitsiyalar esa 30 foizini tashkil etishi kerak.

O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida investitsiya me'yorining barqarorligini ta'minlash muammosining mavjudligi makroiqtisodiy o'sish sur'atlarining barqarorligini ta'minlashga to'sqinlik qiladi.

Demak, iqtisodiyotda mavjud bo'lgan jamg'arma ulushi bir qator rivojlanayotgan mamlakatlar darajasidan yuqori bo'lsa-da, uning iqtisodiy o'sishga ta'siri nisbatan past holatni namoyon etmoqda. Shu munosabat bilan jamg'armadan samarali foydalanish asosida barqaror iqtisodiy o'sish davomiyligini ta'minlash uchun, eng avvalo, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish asosida mavjud aholi jamg'armalarini iqtisodiyotga investitsiya sifatida kirib kelishini faollashtirish hamda tarmoqlararo kapital oqimini ta'minlashga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar bazasini mukammallashtirish asosida korxona jamg'armalarining investitsiyaga aylanish samaradorligini oshirish lozim.

1.4. Investitsiyalarning makro va mikroiqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli

Iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalar yetakchi rol o'ynaydi, chunki investitsiya orqali korxonalarning kapital jamg'arilishiga, natijada mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish va iqtisodiy o'sishga erishiladi.

Investitsiyalar iqtisodiy kategoriya sifatida qator funksiya va vazifalarni bajaradi-ki, ularsiz har qanday mamlakat iqtisodiyoti bir maromda rivojlana olmaydi. Investitsiyalar makrodarajada quyidagilarni ta'minlaydi:

– takror ishlab chiqarishni kengaytirish siyosatini amalga oshirish;

– ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, milliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlash, uning sifati va hajminini oshirish;

– ijtimoiy sohalarni (sog'liqni saqlash, ta'lim va boshq.) rivojlantirish;

– aholi farovonligini ta'minlashda muhim bo'lgan uy-joy qurilishi, ichimlik suvi, gaz, elektr energiya bilan ta'minlash muammolarini hal etish;

– atrof-muhit va ekologiyaning ifloslanishining oldini olish;

– umumjamiyat ishlab chiqarishini tarkibiy jihatdan qayta qurish va barcha iqtisodiyot tarmoqlarini bir maromda rivojlantirish;

– iqtisodiyotning real sektori va yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish;

– hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish va ixtisoslashuvini mustahkamlash;

– investitsiyalar importi va eksporti orqali milliy iqtisodiyotning xalqaro integratsiyasini kuchaytirish;

– sanoat uchun zarur xomashyo bazasini yaratish;

– ishsizlik muammosini yumshatish yoki ma'lum darajada hal etish;

– mamlakatning harbiy sanoat majmuyini mustahkamlash;

– davlatning mudofaa imkoniyatlarini ta'minlash;

– boshqa qator muammolarni hal etish.

O'zbekiston Respublikasi uchun investitsiyalar, birinchi navbatda, iqtisodiyotni yanada barqarorlashtirish uchun zarurdir. Real investitsiyalarni (bino va inshootlar qurish va modernizatsiya qilish, zamonaviy mashina va asbob-uskunalar sotib olish) jalb qilish iqtisodiyotning ishlab chiqarish salohiyatini oshiradi. Ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni olib kelishga yo'naltirilgan investitsiyalar qattiq raqobat sharoitlarida omon qolishga ko'maklashadi.

Investitsiyalar mikrodarajada ham muhim rol o'ynadi. Bunda investitsiyalar, eng avvalo, quyidagi maqsadlarga erishish uchun zarurdir: korxona ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish; asosiy fondlarning haddan tashqari jismoniy va ma'naviy

eskirishiga yo'l qo'ymaslik; ishlab chiqarishning texnik-texnologik darajasini oshirish; korxona mahsuloti raqobatbardoshligini ta'minlash va uning sifatini oshirish; tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish; qimmatli qog'ozlar sotib olish va boshqa korxona aktivlariga o'z mablag'ini sarflash.

Investitsiyalar mikrodarajada, pirovardida, korxonalarning kelgusida me'yorda faoliyat ko'rsatishi, barqaror moliyaviy holatini va maksimum (yuqori) foyda olishini ta'minlash uchun zarurdir.

Shunday qilib, investitsiyalar makro va mikroiqtisodiyotni rivojlantirishda katta rol o'ynaydi, birinchi navbatda, takror ishlab chiqarishni kengaytirish, tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, korxona foydasini ko'paytirish va shu asosda boshqa ko'pgina muammolarni ijobiy hal etish imkoniyatlarini yaratadi.

Mamlakatda investitsiya faoliyatining ahvolini (holatini) quyidagi ko'rsatkichlar dinamikasi xarakterlaydi:

– investitsiyalarning umumiy hajmi;

– YaIMda investitsiyalarning ulushi;

– investitsiyalarning umumiy hajmida real investitsiyalarning ulushi;

– investitsiyalarning texnologik tarkibi va uning o'zgarishi;

– real investitsiyalarning umumiy o'sishi;

– investitsiyalar tarkibida xorijiy investitsiyalarning ulushi;

– asosiy kapitalga yo'naltirilgan real investitsiyalarning ulushi;

– xorijiy investitsiyalar tarkibida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushi va boshqalar.

Bilvosita, biroq, obyektiv holatda, investitsiya faoliyatining holatini quyidagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlari xarakterlaydi: milliy daromad; yalpi milliy mahsulot (YaMM) va YaIM; sanoat ishlab chiqarish hajmi; sanoat mahsulotlarining alohida turini ishlab chiqarish; qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarish hajmi va boshqalar.

Investitsiya faoliyatining holatiga baho berishda ushbu ko'rsatkichlarning obyektivligi shundaki, investitsiya qo'yilmalarisiz ushbu ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlarini tasavvur etib bo'lmaydi. Ushbu ko'rsatkichlar u yoki bu darajada investitsiyalarning samarali ishlatilishini xarakterlaydi. Agar ushbu ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlari investitsiyalarning o'sish sur'atlaridan yuqori

bo‘lsa, investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish zarurligini ko‘rsatadi va aksincha.

So‘nggi yillarda iqtisodiyotda faol amalga oshirilayotgan tuzilmaviy o‘zgarishlar va modernizatsiya qilish jarayoni investitsiya faolligini yanada oshirdi.

Iqtisodiyotdagi investitsiyalar hajmining[1] yildan yilga sezilarli ravishda o‘sib borishi muqarrar ravishda milliy ishlab chiqarish hajmining o‘sishi orqali o‘zining ijobiy natijalarini ko‘rsatishiga imkon bermoqda.

Davlat tomonidan investitsiya faoliyatini rivojlantirishga berilgan e’tibor va qo‘llab-quvvatlash natijasida YaIM hajmi va investitsiyalar miqdori o‘sish sur’atlariga ega bo‘ldi. Jumladan, investitsiyalarning o‘sish ko‘rsatkichi 2002–2013-yillar oralig‘ida 103,8 foizdan 111,3 foizga yetgan, investitsiyalar hajmi mazkur yillar davrida 1,4 mlrd AQSh dollaridan 13 mlrd AQSh dollarini tashkil qilib, 2002-yilga nisbatan 9,3 martaga ortgan. Agar 2002-yilda respublikamiz iqtisodiyotiga jalb etilgan investitsiyalarning o‘sish sur’ati atigi 3,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2011-yilga kelib bu ko‘rsatkich 11,2 foizni tashkil qildi (1.1-jadval).

1.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti va investitsiyalarning o‘sish sur’atlari dinamikasi[2]

Yillar	YaIM (mlrd AQSh dollari)	Oldingi yilga nisbatan foiz hisobida	Investitsiyalar (mlrd AQSh dollari)	Avvalgi yilga nisbatan, foiz hisobida
1	2	3	4	5
2002	7,4	104,2	1,4	103,8
2003	9,7	104,4	1,9	104,5
2004	12,2	107,7	2,5	105,2
2005	15,2	107,0	2,9	107,0
2006	17,0	107,3	3,3	111,4
2007	22,3	109,5	4,7	123,0
2008	28,1	109,0	6,5	128,3

[1] Eslatib o‘tamiz, investitsiyalar YaIMning eng muhim va o‘zgaruvchan komponentidir. Investitsiyalarni taxmin qilish juda qiyin, ular to‘satdan o‘sib ketishi yoki aksincha, tushib ketishi mumkin. Masalan, AQShda buyuk depressiya davrida investitsiyalar 100 % tushib ketgan.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining statistik ma’lumotlari.

1	2	3	4	5
2009	32,1	108,1	8,2	124,8
2010	38,7	108,5	9,7	113,6
2011	45,9	108,3	10,8	111,2
2012	51,1	108,2	11,7	111,6
2013	56,5	108,0	13,0	111,3

Agar 2002 yilda respublikamiz iqtisodiyotiga jalb etilgan investitsiyalarning o'sish sur'ati atigi 3,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilga kelib bu ko'rsatkich 11,3 foizni tashkil qildi. Bu holat investitsiyalarning YaIMdagi salmog'ining o'sishiga olib keldi. Jumladan, investitsiyalarning YaIMdagi ulushi 2002 yilda 18,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilga kelib 23 foizga ko'tarildi (1.5-rasm).



1.5-rasm. **Investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, foiz hisobida**[1]

2012-yilda iqtisodiyotimizga yo'naltirilgan kapital mablag'lar, investitsiyalar tobora o'sib borayotganida, bu ko'rsatkich YaIMga nisbatan 22,9 foizni tashkil qildi. E'tiborga sazovor tomoni shuki, jami investitsiyalarning qariyb 74 foizi ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilashga qaratilgan dastur va loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirildi[2].

[1] O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlari.

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlari»ga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi: Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlarni va

Fikrimizcha, investitsiyalarning iqtisodiyot rivojlanishiga har tomonlama ijobiy ta'sirini hisobga olib, uning quyidagi vazifalarini belgilash maqsadga muvofiqdir:

– iqtisodiyotda ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish vositalarini optimal joylashtirish bilan keng tarmoqli bozor infratuzilmalarini shakllantirishga imkon yaratish;

– iqtisodiyotdagi takror ishlab chiqarish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi barcha yo'nalishlarni va imkoniyatlarni amaliyotga tatbiq etish;

– mamlakatning milliy xususiyatlarini hisobga olgan holdagi qonuniy kafolatlangan investorlarni qoniqtiruvchi ulushini yaratadigan va moliyaviy o'sishni ta'minlovchi infratuzilmalarni faollashtirish;

– iqtisodiyotning barcha sohalarini faollashtirish orqali mamlakatning barqaror o'sishi va jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvini tezlashtirish.

Respublika iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

– birinchidan, ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi;

– ikkinchidan, import o'rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirish va pirovardida, aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash (farovonligini oshirish) imkonini yaratadi;

– uchinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadalashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlaydi;

– to'rtinchidan, korxonalarning eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi;

– beshinchidan, tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalarni barpo etishga ko'maklashadi va h.k.

---

modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. // «Xalq so'zi», 2013-yil 19-yanvar, №13. – B. 1.

1.5. Milliy iqtisodiyot taraqqiyotini ta'minlashda investitsiya loyihalarining o'rni va ahamiyati

Odatda, har qanday investitsion tadbirkorlik muayyan maqsadga yo'naltirilgan, mukammal darajada yaratilgan investitsiya g'oyasiga asoslanadi. Mukammal darajada shakllantirilgan va asoslangan investitsiya g'oyasi investitsiya loyihasining qaror topishiga olib keladi.

«Investitsiya loyihasi» tushunchasi iqtisodiy nazariyada va amaliyotda keng qo'llaniladi va u ikki xil ma'noda talqin etiladi:

– muayyan maqsadlarga erishishni (ko'zlangan natijalarni hosil qilishni) ta'minlovchi qandaydir faoliyatlar yig'indisini amalga oshirishni nazarda tutuvchi ish, faoliyat, tadbir sifatida tushuniladi. Bunday hollarda «xo'jalik tadbiri», «ish (ishlar yig'indisi)», «loyiha» terminlari ushbu tushunchalarga mazmunan yaqin keladi. Umumiy jihatdan, loyiha (ingl. projekt) – bu «biron nima, nima o'ylanayapti yoki rejalashtirilayapti», degan ma'nolarni anglatadi[1];

– qandaydir faoliyatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy-boshqaruv va moliyaviy-hisob hujjatlari tizimi yoki bunday faoliyatlar tizimini bayon etuvchi hujjatlar to'plami sifatida qaraladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda «investitsiya loyiha»si ikkinchi mazmundagi tushuncha sifatida qo'llaniladi. «Loyiha» termini birinchi mazmun bo'yicha tushuniladi. Umuman olganda, «investitsiya loyiha»si tushunchasi uning yo'naltirilgan maqsadini amalga oshirish uchun texnologik, texnik va tashkiliy hujjatlashtirish, obyektlarni barpo etish va ishga tushirish jarayonlarini, moddiy, moliyaviy, mehnat resurslarining harakatini, shuningdek, tegishli boshqaruv qarorlari va tadbirlarni o'zida mujassamlashtiruvchi tizim sifatida qaralishi mumkin. Shuningdek, investitsiya loyihasi qator umumiy xususiyatlarni tavsiflovchi turli xil faoliyat ko'rinishlarini birlashtiradi va ulardan umumiylari quyidagilar hisoblanadi: aniq natijalarga, aniq maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan; turli xil bir-biri bilan aloqador faoliyatlarni bajarishni muvofiqlashtirish; vaqt davomida cheklanganligi va h.k.

---

[1] Мазур И.И., Шапиро В.Д., Ольдерогге Н.Г. Управление проектами: Учеб. пос. для вузов /Под общ. ред. И.И. Мазура. М.: «Экономика», 2001. С. 18.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 7-iyundagi 110-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Investitsiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o‘tkazish va tasdiqlash tartibi to‘g‘risida»gi nizomda: «investitsiya loyihasi (loyiha) — iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa manfaat ko‘rish maqsadida investitsiyalar kiritgan holda oldindan belgilangan muddat mobaynida amalga oshiriladigan o‘zaro bog‘liq tadbirlar va ishlar kompleksi»[1], sifatida tavsiflangan.

To‘liq shakllangan, yakuniga yetgan investitsiya loyihasini tuzish va amalga oshirish umumiy holda quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga qamrab oladi: investitsiya g‘oyasini shakllantirish; investitsiya imkoniyatlarini tadqiq etish; investitsiya loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash (TIA); shartnoma hujjatlarini tayyorlash; loyiha (ishchi) hujjatlarini tayyorlash; qurilish-montaj ishlari; obyektni ishga tushirish va investitsiya loyihasi (iqtisodiy ko‘rsatkichlar) monitoringini olib borish.

Investitsiya loyihasi o‘z maqsadi, yo‘nalishi, amal qilish sohasi, muddati va chegarasiga ega bo‘lgan alohida faoliyat turi hisoblanadi. U tashkiliy, huquqiy, ijtimoiy, ekologik, iqtisodiy jihatdan to‘liq va mukammal hisob-kitoblar yordamida asoslangan yuridik hujjat hisoblanadi. Investitsiya loyihasining boshqa hujjat va «loyiha»lardan asosiy farqi shundaki, u haqiqiy hujjat sifatida qaror topishi uchun uning barcha tomonlari maxsus usullar yordamida keng va aniq hisob-kitoblar bilan baholanadi. Shu bilan birga, uning amalga oshirilishi muayyan miqdordagi mablag‘larni safarbar etishga asoslanadi. Prof. D.G‘ozibekov investitsiya loyihalari to‘g‘risida fikr bildirib: «investitsiya loyihasiga muayyan ishlab chiqarish quvvatlariga kelajakda alohida turdagi samaralar keltirishi zarur bo‘lgan, aniq belgilangan tadbirlar yo‘li bilan resurslarni investitsiyalash bo‘yicha takliflar to‘plami tarzida ta’rif berish mumkin»[2], deb ta’kidlaydi. Shuningdek, u investitsiya loyihasining sifat-tavsiflarini, boshqa tadbirlardan farq qiluvchi jihatlarini ochib berishi diqqatga sazovordir.[3] Rossiyalik iqtisodchi olim B.Koltinyukning fikricha: «investitsiya loyihasi keng ma’noda foyda olish maqsadida kapital qo‘yish rejasi bo‘lib, uni ikki xil ma’noda talqin etadi: aniq maqsadlarga erishish (aniq natijalar

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 7-iyundagi «Investitsiya loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o‘tkazish va tasdiqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash tartibi haqida»gi 110-sonli qaroriga ilova.

[2] G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: «Moliya», 2003. – B. 67-68.

[3] G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: «Moliya», 2003. – B. 68-69.

olish)ni ta'minlovchi qandaydir harakatlar majmuyini amalga oshirishni nazarda tutuvchi tadbir, faoliyat; qandaydir harakatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan aniq hisob-moliyaviy va tashkiliy-huquqiy hujjatlarni qamrab oluvchi tizim».[1]

Umuman olganda, investitsiya loyihasi investitsion tadbirkorlik va tashabbusning mevasi, natijasi sifatida yaratilgan investitsion hujjat bo'lib, investitsiyalar bilan ta'minlangan har qanday tadbirlar majmuasi hisoblanadi. Ya'ni u cheklangan muddat va vaqt mobaynida foyda (daromad) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadidagi bir-biri bilan bog'liq, bir-biri bilan aloqadorlikdagi murakkab tadbirlar yig'indisidir. «Investitsiya loyiha»si tushunchasi bir qator umumiy xususiyatlarni tavsiflovchi turli xil faoliyat ko'rinishlarini birlashtiradi va ulardan birmuncha umumiylari quyidagilar hisoblanadi:

– aniq natijalarga, aniq maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan;

– turli xil bir-biri bilan aloqador faoliyatlarni bajarishni muvofiqlashtirish;

– vaqt davomida cheklanganligi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, investitsiya loyihasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: cheklangan muddat va vaqt mobaynida foyda (daromad) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadidagi bir-biri bilan o'zaro bog'liq, bir-biri bilan aloqadorlikdagi murakkab tadbirlar yig'indisini o'zida mujassam etgan huquqiy-boshqaruv, texnik va moliyaviy hisoblar hujjatlari to'plamiga investitsiya loyihasi deyiladi. Investitsiya loyihasi kelishilgan muddatlarda aniq maqsadlarga erishish hamda rejalashtirilgan natijalarni olish uchun aniq miqdordagi resurslarni (intellektual, moliyaviy, moddiy) qo'yishni, joylashtirishni ko'zda tutuvchi tadbirlar majmuyidir.

Investitsiya loyihasining moliyaviy natijalari bo'lib, ko'p hollarda, foyda (daromad), moddiy-mulkiy natijalari bo'lib, yangi yoki ta'mirlanayotgan asosiy fondlar yoki daromad olish uchun moliyaviy vositalarni yoki nomoddiy aktivlarni ishlatish va sotib olish hisoblanadi. Investitsiya loyihasining asosiy elementlari va yo'nalishlarini quyidagicha tasvirlash mumkin (1.6-rasm).

Shuni ham ta'kidlash joizki, investitsiya loyihasini amalga oshirishning bosh maqsadi foyda (daromad) olishga yoki hech bo'lmaganda kapital qiymatini saqlab qolishga qaratiladi.

---

[1] Колтынюк Б.А. Инвестиционное проектирование объектов социально-культурной сферы: Учебник. – СПб.: «Изд-во Михайлова В.А.», 2000. С. 13.



1.6-rasm. **Investitsiya loyihasining asosiy elementlari va yo'nalishlari**

Investitsiya loyihasi uch tomonlama cheklangan bo'lib, muayyan iqtisodiyotda, hududda amalga oshirilishi bilan, belgilangan vaqt bilan cheklanadi. Mazkur hududda belgilangan vaqtda loyiha amalga oshirilsa, u o'zining maqsadiga erishish kuchiga egadir. Investitsiya loyihalari yana bir tomondan cheklanishi, ya'ni unga safarbar etiladigan resurslar qiymati (xomashyo, mehnat va moliyaviy resurslari qiymati) o'zgarib boradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, investitsiya loyihasini quyidagicha tasniflash mumkin:



1.7-rasm. **Investitsiya loyihasining tasniflanishi**

Investitsiya loyihalari, avvalo, ustuvor tarmoqlarga, ya'ni neft va kimyo sanoati, transport, energetika, yerosti qazilma boyliklarini ishlab chiqarishga, qurilish, telekommunikatsiya tarmoqlariga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga va ularni keng qayta ishlashga, turizm sohasini rivojlantirishga qaratiladi. Mazkur tarmoqlardagi investitsiya loyihalarini samarali amalga oshirish qulay investitsiya muhitini shakllantirishni taqozo etadi. Qulay investitsiya muhiti investorning u yoki bu davlat iqtisodiyotiga mablag' sarflashi uchun shart-sharoitlarning qulayligini, ya'ni siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va huquqiy sharoitlarning yaratilganligini baholashdagi barcha hisob-kitoblar majmuasini o'z ichiga oladi.

Investorlar uchun investitsiya loyihasini amalga oshirishda qanchalik qulay muhit yaratilsa, uning milliy iqtisodiyotga keltiradigan samarasi shuncha yuqori bo'ladi.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning ahamiyati quyidagilar bilan izohlanadi: birinchidan, import o'rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga yo'naltirish va pirovardida, aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash imkonini yaratadi; ikkinchidan, xorijiy investitsiyalarning samarali o'zlashtirilishi natijasida ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalar joriy etilib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantiradi; uchinchidan, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlaydi; to'rtinchidan, tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalarni barpo etishga ko'maklashadi; beshinchidan korxonalarning eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi.

Yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan yuksak texnologiyalar asosidagi mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda jahondagi eng yirik va mashhur AQShning «Jeneral Motors», «Teksako», Germaniyaning «MAN», «Daymler Bens», «Klaas», Buyuk Britaniyaning «BAT», Ispaniyaning «Maksam», Yaponiyaning «Isuzu», «Itochu», Malayziyaning «Petronas», Koreyaning «Korean Eyr», «CNOC»,

«LG», Xitoyning «SNPC», Rossiyaning «Lukoyl», «Gazprom» kabi kompaniyalari, Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Jahon banki, Islom taraqqiyot banki (ITB), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB) singari yirik xalqaro moliya tashkilotlari, Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy va bir qator Arab davlatlarining investitsiya banklari mamlakatimizning asosiy hamkorlari bo'lmoqda.

Investitsiya va sanoat sohasidagi faol siyosat natijasi sifatida mustaqillik yillarida yurtimizda yengil va yuk avtomobillari, avtobuslar ishlab chiqaradigan yangi avtomobil zavodlari tashkil etildi. Jahondagi yetakchi xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi, Qo'ng'irot soda zavodi, o'nlab to'qimachilik majmualari barpo etildi.

Iqtisodiyotning yetakchi, avvalambor, bazaviy tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash bo'yicha loyihalarni, shuningdek, samarali tarkibiy o'zgarishlar va investitsiya siyosatini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan 2006-yilda tashkil etilgan, nizom fondi bugungi kunda qariyb 15 milliard AQSh dollaridan iborat bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi muhim o'rin egallamoqda. Jamg'armaning eng asosiy vazifalaridan biri — iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari rivoji, birinchi navbatda, ishlab chiqarish infratuzilmasining shakllanishi bilan bog'liq ustuvor vazifalarni amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan strategik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdan iborat.

Jamg'arma o'z mablag'lari bilan umumiy qiymati 29 milliard dollardan ziyod 86 ta strategik ahamiyatga molik investitsiya loyihasini hamkorlikda moliyalashtirishda ishtirok etmoqda. Faqat 2013 yilning o'zida Jamg'arma mablag'lari ishtirokida qiymati 780 million dollardan ortiq bo'lgan 33 ta o'ta muhim loyiha amalga oshirildi[1].

Xullas, yutuqlarimiz ko'p, ammo diqqat-e'tiborni jalb qiladigan o'tkir masalalar ham mavjud. Bugungi kunda asosiy e'tibor O'zbekiston hududlari rivojlanishining notekisligini bartaraf etish

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi: 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. // «Toshkent oqshomi» gazetasi, 2014 yil 20 yanvar, №13. – B. 2.

va sust rivojlangan hududlarda xususiy xorijiy to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar ishtirokida zamonaviy loyihalarni amalga oshirish, ishlab turgan va faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarni ta’mirlash va modernizatsiya qilish hozirgi bosqichda asosiy ustuvor vazifa hisoblanadi. Xususiy sektorni tobora kengaytirib borish davlat kafolati bilan kiritiladigan investitsiyalarni kamaytirish va to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalar tanlovini kengaytirishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiya loyihalarining samarali amalga oshirilishi import o‘rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo‘ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish, ishlab chiqarishni jadallashtirish orqali o‘sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta’minlash imkonini beradi.

Nazorat savollari

- Investitsiyalar deganda nimani tushunasiz?
- O‘zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi qonunida investitsiyaga qanday ta’rif berilgan?
- Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan investitsiyalarning mazmun-mohiyatiga berilgan ta’riflarni ayta olasizmi?
- Investitsiya va kapital qo‘yilmalarning o‘ziga xos xususiyatlarini qanday izohlaysiz?
- Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarning zarurligini izohlab bering?
- Xorij iqtisodchi olimlari tomonidan investitsiya tushunchasiga berilgan ta’riflarni bilasizmi?
- Kapital qo‘yilmalar deganda nimani tushunasiz?
- Investitsiyalashga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?
- Ishlab chiqarishga, qimmatli qog‘ozlarga va shu kabilarga mablag‘ sarflash qanday holatlarda o‘z maqsadiga ega bo‘ladi?
- Investitsiyalarning qanday turlarini bilasiz?
- O‘zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi qonunda investitsiyalar mo‘ljallangan obyektiga ko‘ra qanday turlarga ajratilgan?
- Kapital investitsiyalar deganda nimani tushunasiz?

➢ Innovatsiya investitsiyalarini qanday izohlaysiz?

➢ Ijtimoiy investitsiyalarga qanday ta'rifni bera olasiz?

➢ Bevosita investitsiyalar, deganda nimani tushunasiz?

➢ Portfel investitsiyalarni qanday izohlaysiz?

➢ Investitsiyalarni yo'naltirish obyektlariga ko'ra qanday turlarga ajratish mumkin?

➢ Ko'chmas mulkka investitsiyalar, moliyaviy investitsiyalar va nomoddiy investitsiyalar xususida nimalarni bilasiz?

➢ Real va moliyaviy investitsiyalar nimani anglatadi?

➢ Iqtisodiyot nazariyasida investitsiyalarning qanday turlari mavjud?

➢ Jamg'arma bilan investitsiya o'rtasida qanday bog'liqlik bor?

➢ Intellektual investitsiyalar, deb nimaga aytiladi?

➢ Investitsiyalarning makro va mikroiqtisodiyotni rivojlantirishdagi rolini izohlab bera olasizmi?

➢ Mamlakatda investitsiya faoliyatining ahvolini (holatini) qanday ko'rsatkichlar xarakterlaydi?

➢ O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarning ahamiyatini tavfislab bera olasizmi?

➢ Investitsiyalarning YaIMdagi ulushi 2012-yilda necha foiz tashkil qilgan? 2002–2011-yillardachi? Buni qanday izohlaysiz?

➢ «Investitsiya loyiha»si tushunchasiga ta'rif bering.

➢ «Investitsiya loyiha»si tushunchasiga iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta'riflarni bilasizmi?

➢ Milliy iqtisodiyot taraqqiyotini ta'minlashda investitsiya loyihalarining o'rni va ahamiyati nimalarda ko'rinadi?

➢ Investitsiya loyihasining asosiy elementlari va yo'nalishlarini izohlab bering?

➢ Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining rolini izohlab bering?

➢ Mamlakatimizda so'nggi yillarda strategik ahamiyatga ega bo'lgan qanday investitsiya loyihalari amalga oshirildi?

II BOB. INVESTITSIYA JARAYONLARINING MAZMUNI VA ASOSIY BOSQICHLARI

2.1. Investitsiya jarayonining mazmun-mohiyati. Investitsiyalash maqsadlari va yo'nalishlari

Ma'lumki, investitsiya jarayoni investitsiyalashda hodisa, holatlarning birin-ketin almashinuvini, foyda olish yoki boshqa ijobiy natijaga erishish uchun bo'ladigan ketma-ket harakatlarning majmuyini anglatadi. Shu bilan birga, investitsiya jarayonining bosh nuqtasi qayerdan yoki nimadan boshlanadi? Yoki qayerdan «start» oladi? Biz, ko'pchilik iqtisodchilarning investitsiyalashning asosini jamg'armalar tashkil qiladi, degan fikriga qo'shilamiz. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, investitsiya jarayonining bosh nuqtasini jamg'arma tashkil qiladi. Bundan ko'rinadiki, investitsiya jarayonini amalga oshirish uchun jamg'armalar bo'lishi talab etiladi. Jamg'armaning mavjud emasligi investitsiyalashni yo'qqa chiqaradi va investitsiyalash to'g'risida so'z yuritishning hojati ham bo'lmaydi. Demak, investitsiya jarayonini tushunishda resurslarni jamg'arish jarayonini ham birga olib qarash uning mohiyatini yanada oydinlashtiradi. Chunki, investitsiya qilishdan oldin resurslarni jamg'arish zarur bo'ladi. Bir vaqtning o'zida bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan xo'jalik subyektlari o'rtasidagi kapitalning oqimi tezlashadi va bu jarayonda bir xo'jalik subyektining resurslarni jamg'arishi boshqalari uchun investitsiya qo'yishdan iborat bo'ladi, ya'ni Xasanning daromadi, Xusanning xarajati bo'ladi. Masalan, xo'jaliklar, ko'p hollarda, investitsiya qo'yish uchun o'z mablag'lari yetmaganda qimmatli qog'ozlar chiqaradilar.

Bu jarayon ular uchun resurslarni jamg'arishdir, ammo qimmatli qog'ozlarni sotib oluvchilar uchun investitsiya qilishdir. Bu holat investitsiya jarayoniga investorlarning resurslarni jamg'arish va ularni qo'yish bilan bog'liq harakatlari majmuasi, deb qarashga asos bo'ladi.

Investitsiyalarning g'oyat bir muhim tomoni shundaki, ular multiplikatsion[1] samaraga (hodisaga) sababchi bo'ladi. Keynschilik multiplikator konsepsiyasiga ko'ra, investitsiya, iste'mol va milliy daromad o'rtasida barqaror bog'liqlik mavjud – investitsiyaga qilingan har bir xarajat boshlang'ich daromadlarga aylanadi, bu daromadlar yana xarajat qilinadi va yana boshqalarning daromadlariga aylanadi va jarayon shu tarzda davom etadi (Xasanning sarf-xarajati, Xusanning daromadi bo'ladi), bu, o'z navbatida, bandlik va ishlab chiqarish hajmining o'sishini ta'minlab beradi.

Bir vaqtning o'zida multiplikatsion jarayon investitsiya resurslarini harakatga keltirib, ishlab chiqarish faolligini kengaytiradi, ilgariga qaraganda ko'proq mahsulot, daromad yaratiladi. Ular yana qaytadan iste'mol qilinadi va investitsiyaga ajratiladi. Shunday tarzda ilgariga qaraganda ko'proq daromadning investitsiyaga aylanishi ishlab chiqarishning uzluksiz kengayib borishini ta'minlaydi. Bunda investitsiya beradigan daromad bank foizidan kam bo'lmasligi zarur, aks holda, pulni investitsiya qilgandan ko'ra jamg'arish qulay bo'ladi.

Investitsiya qilib olingan daromad darajasini ifodalash uchun multiplikator koeffitsiyenti ko'rsatkichi qo'llaniladi. Mazkur ko'rsatkich daromad o'sishi bilan investitsiya o'sishi o'rtasidagi bog'lanishni ifodalaydi, ya'ni investitsiya evaziga olingan daromad pasaysa, investitsiya faolligi ham susayadi.

Daromad o'sishining investitsiyaga ta'sir doirasini ko'rsatish maqsadida iqtisodchilar akselerator tushunchasini kiritishgan. Akselerator[2] – investitsiyalar o'sishining milliy daromadga nisbatini ifodalovchi koeffitsiyent bo'lib, u joriy yildagi investitsiya o'sishining o'tgan yilgi milliy daromad o'sishiga nisbati tarzida aniqlanadi. U daromadning o'sishining investitsiya o'sishiga ta'sirini ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, investitsiya jarayonining mohiyatini yoritganda uni jamg'arish (resurlar), qo'yish (xarajatlar) va foyda (daromad) olishdan iborat dinamik jarayonda olib qarash lozim. Investitsiya jarayonining asosida investitsiyadagi ketma-ketlik, ya'ni resurslar (jamg'arish) – investitsiya qo'yish (xarajatlar) – foyda (daromad) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish ket-

[1] Multiplikator (ingl.) – ko'paytiruvchi.
[2] Akselerator (lot. asselero – tezlataman).

ma-ketligi yotishi kerak (2.1-rasm). Ammo, bu yerda shu narsani e'tiborga olish lozimki, daromad investitsiya jarayonida emas, balki ishlab chiqarish jarayonida yaratiladi. Yaratilgan daromadning bir qismi iste'mol qilinadi, qolgani jamg'ariladi.



2.1-rasm. **Investitsiya jarayoni**

Investitsiya jarayoni tadbirkorlik va boshqa faoliyat turlarini tashkil etish uchun mol-mulklarning kapitallashuvini ta'minlash maqsadida investorlarning resurslarni jamg'arish va ularni turli shaklda qo'yish bilan bog'liq harakatlari yig'indisi, deb tushunilishi kerak. Bu jarayon jamg'arish (resurslar) – investitsiya qo'yish (xarajatlar) – mol-mulk kapitallashuvi – iqtisodiy yoki ijtimoiy samara ketma-ketligidan iborat bo'ladi. Albatta, bu holatda pul shaklida qo'yilgan investitsiyalar mol-mulk kapitallashuvini anglatmaydiku?, degan savol tug'ilishi mumkin. Shuni alohida qayd qilish lozimki, investitsiya jarayonining natijasida pul mablag'lari, oxir-oqibatda, kapital mol-mulklarning kapitallashuviga olib keladi. Chunki, investitsiya qo'yishdan maqsad daromad olish ekan, faqatgina mol-mulklarning kapitallashuvigina daromad olish uchun sharoit yaratadi. Shuning uchun ham pul mablag'lari, aksiya, obligatsiya va boshqa moliyaviy shaklda investitsiya qilishdan maqsad mol-mulklarning kapitallashuvini ta'minlash, ularni yangilash va zamonaviylashtirishdan iborat.

Umumlashtiradigan bo'lsak, resurslar, ularni qo'yish va bu jarayon natijasida foyda (daromad) olish bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, investitsiya qilishdan oldin resurslar jamg'ariladi, so'ng ular foyda (daromad) yoki ijtimoiy samara olish maqsadida iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga joylashtiriladi. Resurslarsiz qo'yish jarayoni bo'lmaydi, resurslar qo'yilmas ekan foyda (daromad) yoki ijtimoiy samara olish ham mum-

kin emas va shuningdek, resurslar qanday turda bo'lishidan qat'iy nazar ularning manbayi daromaddir.

Demak, yuqorida aytib o'tilganidek, resurslar (jamg'arish) – investitsiyalashning bosh nuqtasidir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, shakllaridan qat'iy nazar investitsiyalar kapitalni (resurslarni) jamg'arish jarayonining natijasi hisoblanadi. Jamg'arish investitsiya qo'yishning asosi bo'lib, u qo'yiladigan investitsiyalarning hajmini ham belgilab beradi.

Investitsiyalashning bosh bosqichlari quyidagilar bo'ladi: resurslarni kapital qo'yilmalarga aylantirish (resurslarning kapitallashuvi), ya'ni bunda investitsiyalar investitsiya faoliyatining aniq obyektlariga transformatsiyasi jarayoni yuz beradi; qo'yilgan mablag'larning kapital qiymati o'sishiga aylanishi (ekspluatatsiyaga berilgan obyektlar va ishlab chiqarish quvvatlari shaklida); kapital qiymatining daromad (foyda) shaklida o'sishi, ya'ni investitsiyalashning oxirgi (so'nggi) maqsadi amalga oshiriladi.

Shunday qilib, investitsiyalarning bosh va oxirgi nuqtalari tutashadi. Bunda yana ketma-ketlik, bir-biri bilan yangi aloqa shakllanib: daromad (foyda) – resurslar – oxirgi natija, ya'ni jamg'arish jarayoni takrorlanadi. Demak, investitsiya faoliyatining mohiyatini tushunishda jamg'arish (resurslar), investitsiya qo'yish va ularning kapitallashuvi jarayonlarini ham birga olib qarash lozim.

Investitsiya faoliyati investitsiyalash va investitsiyalarni, mulkni ko'paytirishning asosi hisoblanadi, chunki aynan ana shu faoliyatda investitsiya bir ko'rinishdan ikkinchi ko'rinishga o'tadi, ya'ni jamg'armalar (resurslar), qo'yilmalar (xarajatlar), kapital mulk (tayyor mahsulot), iqtisodiy yoki ijtimoiy samara (daromad, foyda) va kapitalni o'stirish (jamg'arma) shaklini oladi.

Investitsiya jarayoni bilan investitsiya faoliyatining farqi shundaki, investitsiya jarayoni maqsadli, maqsadli harakatni namoyon etmaydi, balki, umumiy xatti-harakatlarni ifoda etadi va mujassamlashtiradi. Investitsiya faoliyati aniq maqsadga asoslangan bo'lib, maqsadlarning turlariga qarab, turlicha yo'nalish, xususiyat, natija va samaraga ega bo'ladi. Investitsiya faoliyati biznes-g'oyalarni yaratish, ishlab chiqish, ular asosida investitsiya loyihalarini asoslash, investitsiya loyihalarini amalga oshirishning moddiy-texnik, moliyaviy va boshqa asoslarini aniqlash va

ta'minlash va shuning asosida investor xarajatlari qoplanishi, mulkning yanada ko'payishiga erishish hamda bu jarayonda ma'lum subyektlar ishtirokini ta'minlash harakatlari va imkoniyatlarini aks ettiradi. Shu jihatdan investitsiya faoliyati investitsiya jarayoniga nisbatan kengroq tushuncha hisoblanadi.

Qo'yiladigan resurslarning turlariga qarab, investitsiya resurslari quyidagi shakllarda bo'ladi:

– pul va boshqa moliyaviy mablag'lar, shu jumladan, kreditlar, paylar, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar;

– ko'char va ko'chmas mol-mulk (binolar, inshootlar, uskunalar va boshqa moddiy boyliklar) hamda ularga doir huquqlar;

– intellektual mulk obyektlari, shu jumladan, texnikaviy hujjatlar tarzida tuzilgan texnikaga, texnologiyaga, tijoratga oid va boshqa bilimlar majmuyi, u yoki bu turdagi ishlab chiqarishni tashkil etish uchun zarur bo'lgan bilimlar va ishlab chiqarish tajribasi, nou-xau;

– yerga va boshqa tabiiy resurslarga, binolar, inshootlar, uskunalarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqi, shuningdek, mulk huquqidan kelib chiquvchi ashyoviy huquqlar;

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa boyliklar.

Investitsiyalash maqsadlari ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga yo'naltirilgan, texnik-iqtisodiy, biznes-boshqaruv, marketing va ishlab chiqarish rejalari kabi jihatlarga asoslangan, turli moliyaviy manbalar mablag'lari ishtiroki nazarda tutilgan kompleks hujjatlar asosida shakllantiriladigan investitsiya loyihalari orqali amalga oshiriladi.

G'arb adabiyotida [1] investitsiyalashning eng keng tarqalgan to'rt maqsadi keltiriladi: joriy daromadni ko'paytirish; kelgusida yirik xarajatalar uchun mablag' jamg'arish; pensiya fondlarida mablag' to'plash; daromadlarni soliqqa tortishdan himoyalash.

Keltirilgan ro'yxatda investitsiyalash maqsadlarida manfaatlar ustuvorligi yaqqol va shu sababli uni sharhlashga zarurat yo'q, deb hisoblaymiz.

Umuman olganda, investitsiyalash maqsadlarini to'rt guruhga ajratish mumkin:

– yangi ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishni tashkil etish;

[1] Гитман Л.Дж., Джонк М.Д. Основы инвестирования. Пер. с англ. М.: «Дело», 1997. С. 144.

– ishlab chiqarishni yoki xizmat ko‘rsatishni kengaytirish;

– ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;

– davlat tashkilotlari talabini qondirish, ularni mahsulot va xizmatlar bilan ta’minlash.

Bundan ko‘rinadiki, investitsiyalash maqsadlari turlicha bo‘lib, ular, oxir-oqibatda, mamlakat iqtisodiyoti taraqqiyotini ta’minlash imkonini beradi.

Investitsiya resurslarining taqchilligi sharoitida ustuvor yo‘nalishga ega bo‘lgan loyihalar qishloq xo‘jaligi va sanoat tarmoqlarida, ijtimoiy sohalarda (fan, sog‘liqni saqlash, madaniyat, maorif va h. k.) ishlab chiqilishi lozim.

Investitsiya faoliyati subyektlari investitsiya sohasida faoliyat ko‘rsatib, bu yerda ular tomonidan investitsiyalar amalga oshiriladi. Investitsiya sohasi tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

– kapital qurilish sohasi (bu soha buyurtmachi-investorlar, pudratchilar, loyihalashtiruvchilar, uskuna yetkazib beruvchilar va boshqa tegishli tashkilotlar faoliyatini birlashtiradi);

– innovatsiya sohasi (ilmiy-texnik va intellektual salohiyat amalga oshiriladi);

– moliya kapitali muomalasi sohasi (qimmatli qog‘ozlar va boshq.);

– investitsiya faoliyati subyektlarining mulkiy huquqlarini amalga oshirish sohasi.

2.2. Real investitsiyalarni amalga oshirish xususiyatlari

Real investitsiyalar milliy iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular ichki jamg‘armalar darajasidan ko‘proq miqdorda kapital jamg‘arish, to‘lov balansini qo‘llab-quvvatlash va import qilish imkoniyatini kengaytirish orqali iqtisodiy taraqqiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar alohida korxonalarning faoliyati, ishlab chiqarish va kapital samaradorligini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va menejment tizimini takomillashtirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu jarayonlar mahsulot va xizmatlar yetkazib beruvchilar, buyurtmachilar, raqobatchilarga bilvosita ta’sir ko‘rsatish orqali ichki bozorni rivojlantirish, ishchilarning malakasi va amaliy tajribasini oshirishda yordam beradi.

To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar tarkibiga:

– ishlab chiqarish (asosiy va aylanma) fondlari, ularni kengaytirish, qayta qurish va qayta qurollantirishga qo‘yiladigan iqtisodiy resurslar;

– ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma xarajatlari (bino va inshootlar, uy-joylar);

– pul qiymatiga ega bo‘lgan nomoddiy aktivlar (qimmatli qog‘ozlar, patentlar, texnik va texnologik yangiliklar, loyihalar va boshqa intellektual mulk obyektlari)ni kiradi.

Real investitsiyalar quyidagi elementlardan iborat:

– asosiy fondlar (asosiy kapital)ga investitsiyalar;

– yer uchastkalarini sotib olishga xarajatlar;

– nomoddiy aktivlar (patentlar, litsenziyalar, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari)ga investitsiyalar;

– moddiy aylanma mablag‘lari zaxiralarini to‘ldirish xarajatlari.

To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalashda investorlarning bevosita o‘zlari investitsiya qo‘yilmalarini u yoki bu investitsiya obyektlariga kiritadilar. Bu faoliyatni investitsiyalanayotgan obyekt haqida chuqur ma’lumotga ega bo‘lgan va investitsiyalash mexanizmlarini bilgan ixtisoslashgan investorlar amalga oshiradilar.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati yuqorligi ularni keng ko‘lamda jalb etishga, ayniqsa, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarga bo‘lgan talabni oshiradi. To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdan maqsad shartnoma ishtirokchilarini patentlar, savdo markazlariga ega bo‘lishga, boshqarish tajribasini egallashga, sotish bozorlarini o‘rganishga, tashkiliy bilimlarni egallash va boshqalarni o‘zlashtirishga qaratiladi. Bunda eng muhimi jahon bozoriga o‘z mahsulotlarini olib chiqish va ushbu bozor ishtirokchisi bo‘lishdir.

Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, milliy iqtisodiyotning to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish holati ichki bozor hamda eksportning hajmi, tabiiy va mineral resurslar, malakali ishchi kuchi mavjudligi, bozor islohotlarini amalga oshirish sur’atlari, iqtisodiy barqarorlik omillari bilan bog‘liqdir.

To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar xorij kapitalining uzoq muddatga joylashtirilishini, investor tashkil qilayotgan firma aksiyalari yoki aksiyadorlik kapitaliga to‘la ega bo‘lishi yoki kamida 10 foizi xo‘jalik faoliyatining ta’sirchan nazorat qilinishini ta’minlashini anglatadi.

To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar:

– investorga investitsiya kiritilayotgan obyekt ustidan nazorat qilish huquqini beruvchi ishlab chiqarishga sarflangan uzoq muddatli xorijiy qo‘yilmalarni;

– pirovard maqsadi foyda ko‘rinishida daromad olishga qaratilgan tadbirkorlik kapitalining ustuvor shaklini;

– xususiy kapitalga asoslangan to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni;

– xorijiy investorning investitsiya kiritilayotgan obyekt ustidan to‘liq egalik qilishini;

– xorijiy investor tomonidan investitsiya kiritilayotgan obyekt ustav kapitalining 10 %dan kam bo‘lmagan qismi ustidan nazorat o‘rnatishini;

– xorijiy investorning investitsiya kiritayotgan obyektlarni boshqarishda samarali qatnashishini;

– mustahkam iqtisodiy munosabatlarni o‘rnatish hamda korxona ustidan nazorat huquqini qo‘lga kiritish maqsadida kapital va resurslarning transchegaraviy harakatini qamrab oladi va namoyon etadi.

To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning O‘zbekistonga kirib kelishi qisqa vaqt ichida mulkchilikning turli shakllari tashkil topishiga ko‘maklashdi, iqtisodiyotda tarkibiy qayta qurish, nufuzli tarmoqlarning barpo etilishini ta’minladi. Eng muhimi, iqtisodiyotning baynalmilallashuvini va xalqaro bozorga o‘z mahsulotlarini olib chiqishini va u yerda o‘z o‘rniga ega bo‘lishini ta’minladi. Buning oqibatida eksport hajmi va salohiyati o‘sishi va respublikamizning to‘lov balansining tobora ijobiylashib borishiga erishildi.

To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimini kengaytirishga qulay sharoitlar yaratishda, birinchi navbatda, kapitalning mamlakatlararo ayirboshlanishidan, qo‘shimcha aniq va noaniq risklarga duch kelish ehtimollaridan va kapital oqimining vaqtli qiymati

konsepsiyasidan kelib chiqqan holda ish yuritish kerak. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida jami qo'shimcha risklar orasida valuta riski ajralib turadi. Hukumat kafolati bilan olinadigan kreditlar va qarzlar rolini hisobga olgan holda investitsiya muhitini va investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni yanada takomillashtirish maqsadida keskin chora-tadbirlar ko'rilishi talab etiladi, unga mintaqalar iqtisodiyotining ustuvor sohalarida soliq imtiyozlaridan foydalanish bilan erishish mumkin. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni yangi loyihalarga keng jalb etish bilan ekologik toza va ilg'or texnologiyalar, eng yangi texnika va uskuna-jihozlarni joriy qilish, mehnatni oqilona tashkil etish hisobiga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini jadal rivojlantirishga erishish mumkin. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni ularni jalb qilish va foydalanish bo'yicha tasdiqlangan uzoq muddatli hududiy, maqsadli dasturlarga muvofiq tashkil etish zarur. Bunday dasturlarda ustuvor sohalar, ilmtalab va kapitaltalab tarmoqlar belgilanib, ularda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini aniq belgilash bilan bog'liq tadbirlar nazarda tutilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi respublikamizda xususiylashtirish jarayonlarini tashkil etish bosqichlari bilan bog'liq bo'ldi. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning oqimlari, eng avvalo, O'zbekiston iqtisodiyotida qo'shma korxonalarning barpo etilishiga asos soldi hamda xorijiy va qo'shma korxonalari barpo etilishiga zamin yaratdi.

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar kapital qabul qiluvchi mintaqa iqtisodiyotida bevosita tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishga safarbar etiladi. Ushbu investitsiyalar mavjud bo'lgan korxona yoki boshqa xo'jalik yuritish subyektlarining aksiyalari nazorat paketini xarid etish yoki o'z ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish yo'llari bilan safarbar etiladi. O'zga iqtisodiyotga kirib kelish shaklidan qat'iy nazar, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'z egalariga investitsiya obyektlarini boshqarishda samarali ishtirok etish, o'z mamlakatlari tashqarisida bo'lgan va kapitallari safarbar etilgan korxona va firmalar ustidan nazorat o'rnatish kabi imkoniyatlarni yaratib beradi.

Kapital jalb qiluvchi mamlakatlarning ishlab chiqarish sohalariga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning kiritilishi va uning o'sib borishi, bu davlatlarning iqtisodiy qoloqlikdan tezroq qutulishining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Respublikamizda yaratilgan qulay investitsiya muhiti investitsiya faoliyatining rivojlanishiga olib keldi. Jumladan, mamlakatimizda 2013-yilda umumiy qo'yilmalar hajmida xorijiy investitsiyalar va kreditlar ulushi 23,1 %ni, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushi 16,9 %ni, ya'ni 2 milliard 9200 mln AQSh dollarini tashkil etdi. Jami investitsiyalarning 73,5 foizidan ortig'i ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga yo'naltirilmoqda. Investitsiyalarning qariyb 45,3 foizi zamonaviy, yuksak samarali asbob-uskunalar xarid qilishga yo'naltirilganligi, ayniqsa, muhimdir.[1]

Mamnuniyat bilan qayd etish joizki, bunday ijobiy holat, eng avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning jahon iqtisodiy inqirozining mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta'sirini yumshatishga qaratilgan qator Farmon va Qarorlarining amaliyotga tatbiqi, shuningdek, mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilashga davlat tomonidan katta e'tibor (jumladan, turli soliq va boj imtiyozlari, huquqiy kafolatlar, yaratilgan turli preferentsiyalar va boshq.) berilayotgani natijasidir.

2.3. Moliyaviy investitsiyalarni amalga oshirish xususiyatlari

Bozor munosabatlari sharoitida pul resurslarini uzluksiz shakllantirish va ularni daromad keltiruvchi obyektlarga samarali investitsiyalash moliya bozori yordamida ta'minlanadi. Ushbu bozor o'zida pul bozori, kredit bozori va fond bozorini mujassam etadi. Fond bozorida moliyaviy (portfel) investitsiyalar[2] amal qiladi-ki, ular qimmatli qog'ozlarni sotib olishga yo'naltirilgan bo'ladi[3].

Moliyaviy investitsiyalar – daromad olish (xuddi foizlar, dividendlar va ijara haqi singari) va asosiy kapital qiymatini ko'pay-

---

[1] Karimov I.A. 2012-yil Vatanimizni yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. T.: «O'zbekiston», 2012. – B. 11-12

[2] Matnning ayrim joylarida moliyaviy investitsiyalar va ayrim joylarida portfel investitsiyalar, deb yozilishi prinsipial ahamiyatga ega emas.

[3] Darsligimizning X bobida bu masala batafsil ko'rib chiqilgan.

tirish maqsadida investor tasarrufida bo'lgan korxona aktivlari. Mohiyat jihatdan «qimmatli qog'ozlarga (aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar), ya'ni moliyaviy aktivlarga joylashtirilgan kapital moliyaviy investitsiyalarni anglatadi»[1].

Moliyaviy investitsiyalarni quyidagicha (2.2-rasm) tasniflash mumkin.



2.2-rasm. **Moliyaviy investitsiyalarni tasnifiy belgilari**

Moliyaviy investitsiya yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyorida mavjud bo'lgan bo'sh pul mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Moliyaviy investitsiyalar joriy (qisqa) va uzoq muddatli investitsiyalarga ajratiladi. Joriy (qisqa) investitsiyalar – erkin sotiladigan va bir yildan ko'p bo'lmagan muddatda egalik qilishga qaratilgan qimmatli qog'ozlar, ular, odatda, bozor (likvidli) qimmatli qog'ozlari, deb ataladi.

[1] Непитой А.С. Инвестиции: Учебник. – 4-е изд. М.: «Дашков и К°», 2006. С. 14.

Hozirgi iqtisodiy sharoitda jalb etilgan mablag'lar hisobiga investitsiya faoliyatini moliyalashtirish, asosan, qimmatli qog'ozlar, xorijiy investitsiyalar va bank kreditlari hisobiga amalga oshirilmoqda. Aytish joizki, bank kreditlari qarz mablag'lari tarkibiga kiritilsa ham, bu manbani jalb qilingan mablag'lar tarkibiga kiritish mumkin, chunki bank krediti investitsiya faoliyatini moliyalashtirish uchun chetdan, kredit tashkilotlaridan jalb qilinadi.

Investitsiya qilishda turlicha vositalar qo'llanilishi mumkin: pul, valuta, kredit, qimmatli qog'ozlar, mulk (moddiy va nomoddiy), turli tovar xomashyolar va h.k. Bular ichida qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish investorning talablarini qondirishning eng samarali va keng tarqalgan usullaridan biri hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlar bozori, bir tomondan, iqtisodiyotning xo'jalik subyektlari uchun moliyaviy ta'minlanish manbayi bo'lsa, ikkinchi tomondan, aholi va xo'jalik subyektlarining bo'sh turgan mablag'larini iqtisodiyotga faol jalb etuvchi, pul mablag'larini qayta taqsimlovchi mexanizmdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotning yangidan vujudga kelayotgan va faoliyat yuritayotgan tarmoqlarini rivojlantirish uchun turli shakldagi va hajmdagi investitsiyalar kerak bo'ladi. Bozor iqtisodiyotida qimmatli qog'ozlar bozori iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilari o'rtasida pul vositalarini samarali qayta taqsimlovchi mexanizm vazifasini bajarmoqda.

Jalb etilgan mablag'lar hisobiga investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning muhim manbalaridan biri bu to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisoblanadi. Bo'sh turgan mablag'larni aksiyadorlik jamiyatlariga yoki davlat budjetiga yo'naltirish qo'shimcha mablag'ga bo'lgan ehtiyojni qondirishga olib keladi. Mana shunday vaziyatlarda pul mablag'larini qayta taqsimlaydigan samarali iqtisodiy mexanizm kerak bo'ladi. Bu mexanizm moliyaviy investitsiyalar harakatini ta'minlab, iqtisodiy o'sishga sharoit yaratadi.

Nazorat savollari

➢ Investitsiya jarayoni deganda nimani tushunasiz va uni qanday izohlaysiz?

➢ Investitsiyalashning asosini nima tashkil qiladi?

➢ Investitsiya resurslari qanday manbalardan tashkil topadi?

➢ O‘zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi qonuniga ko‘ra investitsiya resurslariga nimalar kiradi?

➢ Multiplikator va akselerator koeffitsiyentlarini izohlab bering?

➢ Investitsiyalashning bosqichlarini izohlab bering?

➢ Investitsiyalash maqsadlarini izohlay olasizmi?

➢ Real investitsiyalarning milliy iqtisodiyot taraqqiyotidagi rolini izohlab bering?

➢ To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar tarkibiga nimalar kiradi?

➢ Real investitsiyalarning elementlarini sanab bering?

➢ To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdan maqsad nimada, deb o‘ylaysiz?

➢ Bevosita xorijiy investitsiyalarning xususiyatlarini bilasizmi?

➢ Moliyaviy investitsiyalar mazmun-mohiyatini tavsiflab bering?

➢ Moliyaviy investitsiyalar qanday xususiyatlarga ega?

➢ Moliyaviy investitsiyalar qanday maqsadlarga qaratiladi va uning real investitsiyalardan farqli xususiyatlarini ko‘rsatib bering?

➢ Moliyaviy investitsiyalarning tasnifiy belgilarini bilasizmi?

➢ Qimmatli qog‘ozlar bozori deganda nimani tushunasiz?

➢ Jalb etilgan mablag‘lar hisobiga investitsiya faoliyatini moliyalashtirishga qanday manbalar taalluqli?

III BOB. INVESTITSIYA FAOLIYATI VA INVESTITSIYA SIYOSATI

3.1. Investitsiya faoliyati: uning mohiyati, mazmuni va tarkibiy tuzilishi

Hammamizga ma'lumki, investitsiya faoliyati subyektlarining[1] investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlari majmuyi investitsiya faoliyatining umumiy mazmunini anglatadi, biroq, uning tub mohiyatini ochib bermaydi. Investitsiya faoliyati huquqiy shaxslar, davlat va fuqarolarning investitsiyalarni amalga oshirish bo'yicha jami amaliy harakatlari yig'indisidir. Iqtisodchi olimlar investitsiya faoliyatiga deyarli bir xil mazmundagi ta'riflarni berishgan. Jumladan, Rossiyalik iqtisodchi olim V.Bocharyov fikricha: «Investitsiya faoliyati – davlat, fuqarolar va huquqiy shaxslarning investitsiyalarni amalga oshirishdagi amaliy harakatlari yig'indisi»[2] ni anglatadi. Mualliflar A.Arzimiyana va boshqalar: «Investitsiya faoliyati investitsiya qo'yish yoki investitsiyalash hamda investitsiyalarni amalga oshirishdagi amaliy harakatlar yig'indisi»,[3] deb ta'riflaydi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan M.Angelidi va D.G'ozibekovlar ham investitsiya faoliyatini yuqorida berilgan ta'riflarga yaqin ifodalagan.[4] Ushbu ta'riflarning barchasida investitsiya faoliyatiga mazmunan bir xil tarzda yondashilgan bo'lib, ular investorlarning investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlarini aks ettirganlar.

---

[1] O'zbekiston Respublikasining rezidentlari - fuqarolari (jismoniy shaxslari), yuridik shaxslari; mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruv organlari; xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va xorijlik yuridik shaxslar hamda fuqarolar, shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va O'zbekiston Respublikasining chet elda doimiy yashovchi fuqarolari; hamkorlikda investitsiya faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, davlatlar va xalqaro tashkilotlar.

[2] Бочарев В.В. Методы финансирования инвестиционной деятельности предприятий. М.: Финансы и статистика, 1998. С. 7.

[3] Арзимияна и др. Большой экономический словарь. М.: «Правовая культура», 1994. С. 157.

[4] Газибеков Д.Г, Ангелиди М.С. Инвестиционная деятельность перед вхождением в рыночную экономику. – Т.: ТФИ, 1994. С. 7.

Fikrimizcha, investitsiya faoliyatiga berilgan ta'riflar, uning mohiyatini to'la ochib berolmaydi. Chunki investitsiya faoliyatida investitsiyalash maqsadi, yo'nalishlari, obyekti va subyektlari ishtiroki, investitsiyalarning ketma-ketligi va ularning o'zgaruvchanligi (metamorfozi), ya'ni resurslar (qiymatliklar) – qo'yish (xarajatlar) va investitsiya natijasida samara (foyda, daromad) olish yotishi kerak.

Keng ma'noda, investitsiya faoliyati bu g'oyalarni ishlab chiqish va investitsiya loyihalarini asoslash, ularni moddiy-texnik va moliyaviy ta'minlash, buning natijasida barpo etilayotgan obyekt faoliyatini boshqarish va investorlarning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish imkoniyatlarini ham aks ettiradi.

Investitsiya faoliyatida resurslarni jamlash, ularni qo'yish (joylashtirish, yo'naltirish) va bu jarayon natijasida foyda (daromad) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish bir-biri bilan uzviy bog'langandir.

Investitsiya faoliyatining tarkibiy tuzilishini uning obyektlari, investitsiya resurslari va subyektlari tashkil qiladi. Moddiy va nomoddiy ne'matlar ishlab chiqarish obyektlari investitsiya faoliyatining obyektlari hisoblanadi (3.1-rasm).

Shu bilan birga barpo etilishi va foydalanilishi qonun hujjatlarida belgilangan sanitariya-gigiyena, radiatsiya, ekologiya, arxitektura-shaharsozlikka oid va boshqa talablarga javob bermaydigan, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan obyektlarga investitsiya kiritish taqiqlanadi.

Investitsiya faoliyati obyektiga daxldor bo'lgan investitsiya resurslari quyidagilardan iborat bo'ladi: pul va boshqa moliyaviy mablag'lar; ko'char va ko'chmas mol-mulklar va ularga doir huquqlar; intellektual mulk obyektlari; yerga va boshqa tabiiy resurslarga, binolar, inshootlar, uskunalarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqi, shuningdek, mulk huquqidan kelib chiquvchi ashyoviy huquqlar.

Investitsiya faoliyati subyektlarini turli darajadagi investorlar, deb atashimiz mumkin. Investorlar qonun hujjatlariga muvofiq buyurtmachi (mablag' kirituvchi), kreditor, sotib oluvchi bo'lishlari, shuningdek, investitsiya faoliyati ishtirokchisi vazifasini bajaruvchi bo'lishlari mumkin.



3.1-rasm. **Investitsiya faoliyatining tarkibi va mazmuni**

Investitsiya faoliyatining ishtirokchilari investor bilan tuzilgan shartnoma asosida investorning buyurtmasini bajaruvchi bo'lishlari mumkin.

Investitsiya faoliyati ishtirokchisi – bu investorning buyurtmalarini bajaruvchi sifatida investitsiya faoliyatini ta'minlovchi investitsiya faoliyati subyekti. Investor – bu o'z mablag'larini, qarzga olingan va jalb etilgan mablag'larni, mulkiy boyliklarni va ularga doir huquqlarni, shuningdek, intellektual mulkka doir huquqlarni investitsiya faoliyati obyektlariga investitsiyalashni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subyekti.

Investorlarning qaysi mulk shakliga tegishliligiga qarab investitsiya faoliyati quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

– davlat korxonalari va tashkilotlari, davlat ma'muriy boshqaruv organlari amalga oshiradigan investitsiya faoliyati;

– jamoa, ijara, xususiy, aksiyador va boshqa nodavlat mulkiga asoslangan xo'jalik subyektlari, shuningdek, jamoatchilik va diniy uyushmalar, jismoniy shaxslar amalga oshiradigan investitsiya faoliyati;

– xorijiy davlatlar, ularning huquqiy va jismoniy shaxslari, xalqaro uyushmalar amalga oshiradigan investitsiya faoliyati;

– O'zbekiston Respublikasi hukumati, uning huquqiy va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlar, ularning huquqiy va jismoniy shaxslari bilan birgalikda amalga oshiradigan qo'shma korxonalar shaklidagi investitsiya faoliyati.

Hozir respublikamizda ishlab chiqarilgan jami ijtimoiy mahsulotning qanchalik katta qismi jamg'arilib, investitsiya qilinsa, kelajakda iste'mol uchun shuncha katta sharoit yaratiladi. Chunki real jamg'arilgan kapitalning o'sishi jamiyat a'zolari moddiy darajasi tez o'sishining muhim omili hisoblanadi. Bu o'sish yildan yilga qanday bo'layotganini bilish uchun jami investitsiya tushunchasining ahamiyati, omillarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Bizningcha, jami investitsiya tarkibiga barcha shakl va turdagi investitsiyalar yig'indisini kiritish lozim. Shuningdek, jami investitsiyani ma'lum bir vaqt oralig'ida hisoblash maqsadga muvofiq bo'lib, bunday hisoblash oralig'i qilib kalendar bo'yicha bir yilni olish mumkin. Demak, jami investitsiya bu bir yil ichida barcha investorlar tomonidan qo'yilgan hamma shakl va turdagi investitsiyalar yig'indisidir.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mamlakat ichidagi jamg'arish va investitsiya qo'yish darajasi past bo'lsa, xorijiy investitsiyalardan yagona manba va hal qiluvchi omil sifatida iqtisodiy inqirozdan chiqish va iqtisodiyotni rivojlantirish va foydalanish mumkin emas. Xorijiy investitsiyalar katalizator vazifasini bajaradi, xolos. Demak, avvalambor, mamlakatning o'zida xo'jalik subyektlarining investitsiya faolligini rag'batlantirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, investitsiya jarayonining faollashuvi ishlab chiqarishni kengaytirish siyosatini amalga oshirishga, ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirishga, milliy mahsulotlar raqobatbardoshligini ta'minlash va uning sifatini oshirishga, ijtimoiy sohalarni yanada rivojlantirishga, ijtimoiy muammolarni bartaraf

etishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, korxona ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish, asosiy fondlarning jismoniy va ma'naviy eskirishiga yo'l qo'ymaslik, ishlab chiqarishning texnik-texnologik darajasini oshirish, korxonalar mahsulotlari raqobatbardoshligini ta'minlash, qimmatli qog'ozlar sotib olish va boshqa korxona aktivlariga o'z mablag'larini sarflash asosida foyda olish maqsadlariga erishish imkonini beradi.

3.2. O'zbekistonda investitsiya faoliyatini tartibga solish va muvofiqlashtirishda davlatning roli

Tartibga solish (iqtisodiy) – bu iqtisodiy jarayonlar rivojlanishining yo'nalishlarini aniqlash, yo'lga qo'yish va ma'lum tizimga solishga qaratilgan maqsadli yo'naltirilgan harakat. Iqtisodiy adabiyotlarda[1] investitsiya faoliyatini tartibga solish, deganda huquqiy nuqtayi nazaridan, turli mulkdorlar o'rtasida moddiy va nomoddiy aktivlarni takror ishlab chiqarish xususidagi o'ziga xos, murakkab, ijtimoiy zarur iqtisodiy (investitsiya) munosabatlarni shakllantirish me'yorlarini nazarda tutishi ta'kidlanadi.

O'zbekistonda olib borilayotgan investitsiya siyosatining natijasi mamlakatdagi investitsiya faoliyatining rivojlanish holati bilan belgilanadi. Shu sababli har qanday investitsiya siyosatining maqsadi investitsiya faoliyatini rivojlantirish istiqboliga qaratiladi. Bu maqsad o'zida davlatning investitsiya faoliyatini muntazam ravishda muvofiqlashtirish va tartibga solish vazifasini ham mujassam etadi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiya faoliyati davlat tomonidan tartibga solinishi zarur bo'ladi.

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishda turli usullar qo'llaniladi. Birinchi navbatda, davlat quyidagi shakllarda investitsiya faoliyatini tartibga soladi:

– investitsiya faoliyatiga taalluqli qonunlar va qonunosti hujjatlarini ishlab chiqish;

– davlat investitsiyalarini bevosita boshqarish;

– davlat investitsiya dasturlarini qabul qilish;

[1] G'ozibekov D.G'., Nosirov E.I. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Risola. T.: «Iqtisod-moliya», 2007. 48-b. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: «Moliya», 2003. 46-47- b.

– investitsiya faoliyatini tartibga solishning iqtisodiy usullari (soliqqa tortish, investitsiya faoliyatida davlat organlarining ishtiroki, erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish, moliyaviy resurslarni taqsimlash va qayta taqismlash, moliya-kredit mexanizmi va boshq.).

O'zbekistonda investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bunda, eng avvalo, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, Mehnat kodeksi, Yer kodeksi, Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi, «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi hamda «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi va boshqa qonun hujjatlari huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

– investitsiya faoliyatining qonunchilik negizini takomillashtirish;

– soliq to'lovchilar va soliq solish obyektlarini, soliq stavkalari va ularga doir imtiyozlarni tabaqalashtiruvchi soliq tizimini qo'llash;

– asosiy fondlarni jadal amortizatsiya qilish;

– me'yorlar, qoidalar va standartlarni belgilash;

– monopoliyaga qarshi choralarni qo'llash;

– kredit siyosati va narx belgilash siyosatini o'tkazish;

– yerga va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish shartlarini belgilash;

– investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish mexanizmlarini belgilash;

– O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyihalarining amalga oshirilish monitoringini yuritish.

Ta'kidlash joizki, investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda ham amalga oshiriladi.

Hozirgi sharoitda O'zbekistonda investitsiya faoliyatini tartibga solish, birinchi navbatda, barcha xo'jalik yuritish bosqichlarida jamg'armalar o'sishi sur'atlarini rag'batlantirish va iste'mol darajasini pasaytirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bunga iqtisodiyotdagi yuridik va jismoniy shaxslardan, xorijlik investorlardan undiriladigan soliqlarning tartibga soluvchi funksiyasi amal qilishini kuchaytirish orqali erishish mumkin. Investitsiya faoliyatini tartibga solish tizimi doirasida soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyalarini kuchaytirish investitsiyalarni moliyalashtirishda bozor mexanizmlari rolini kengaytirishga olib keladi.

Respublikada investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish ishlab chiqarish texnologiyalarini sotib olish, global ilmlarni egallash, soliqlarning tartiblovchi rolini takomillashtirish, ularning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirishga qaratilmoqda. Bunda asosiy vazifa – xorijlik hamkorlarga kapital qo'yishda eng samarali yo'nalishlarni taklif etish, o'zaro manfaatli sohalarni belgilash, investorlarga kafolatlar berish va ularning huquqlarini himoya qilishdan iborat.

Investitsiya munosabatlarining davlat tomonidan tartibga solinishi huquqiy sharoitlar yaratish, ushbu faoliyatni yuritish uchun kafolatlar berish, bu faoliyat subyektlarini sug'urtalash va boshqa vositalar orqali ijtimoiy yoki davlat manfaatlarini amalga oshirish yo'lida tashkil etiladi.

Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning kengayib borishi darajasiga qarab investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni yangi loyihalarga va qo'shma korxonalarga jalb etishga qaratiladi hamda tartibga solish xususiy tadbirkorlik subyektlarining katta qismini investitsiya faoliyatiga jalb qilishni ham nazarda tutadi. Shunday qilib, tartibga solishning vazifasi, bir tomondan, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini oshirishdan, ikkinchi tomondan, milliy iqtisodiyotdagi xususiy mulkchilik subyektlarining qo'yilmalarini kengaytirishdan iborat bo'ladi.

Jahon tajribasining ko'rsatishicha, hozirgi davrda iqtisodiy o'sish uchun faqat jamg'arish va investitsiyalarning yuqori sur'atlarigina yetarli emas. Bozorga o'tish bosqichida jamg'armaning kamligi, yalpi investitsiyalarda aholi mablag'lari hissasining ozligi

tufayli investitsiyalarni moliyalashtirishning tashqi manbalarini jalb etish, investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirish obyektiv zaruratga aylanadi. Bu amaldagi qonunchilikni soddalashtirish va barqarorlashtirish tomon takomillashtirish, mamlakatda yangi loyihalar va qo'shma korxonalar tashkil qilish uchun to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini rag'batlantirishni talab qiladi. Rag'batlantirish mexanizmlari valuta xarajatlarini qoplaydigan loyihalarni va mahalliy xomashyo resurslari bazasidagi loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirilmog'i zarur.

O'zbekistonga xorijiy sarmoyalar oqimi kengayishi munosabati bilan investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishda e'tibor beriladigan muhim jihat jamiyat va xususiy manfaatlar, xorijiy mamlakatlar, kompaniyalar, muayyan investorlar manfaatlarining samarali nisbatini belgilash hisoblanadi. Iqtisodiyot erkinlasha borgani sari investitsiya faoliyatining davlat tomonidan tartiblanishi, ko'proq, xususiy tadbirkorlik sohiblari va iqtisodning aralash sektorlarining investitsiya faoliyatiga kengroq jalb etilishiga va bu borada ularni rag'batlantirishga qaratiladi.

Bundan tashqari, davlatning investitsiya faoliyatiga qanday vositalar va dastaklar orqali ta'sir ko'rsatishi ham muhim masaladir. Har qanday jamiyatdagi investitsiya faoliyati o'z-o'zidan rivojlana olmaydi, unga, albatta, muayyan ta'sir ko'rsatuvchi subyektlarning aralashuvi talab qilinadi. Bunday aralashuvning samarali natijasini faqat davlat qo'li bilangina ta'minlash mumkin bo'ladi. Biroq, bunday vaziyatda davlat investitsiya faoliyatining rivojlanishini bo'g'ib qo'ymasligi kerak, aks holda, uning amal qilishi subyektivlik ta'sir kuchiga bo'ysundirilib qo'yiladi.

Odatda, investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirish uning muhim yo'nalishlarida qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan bo'ladi, avvalambor, ijtimoiy rivojlantirish, ishlab chiqarishni texnik jihatdan takomillashtirish, yangilik va ixtirolarni tatbiq etish asosida ijtimoiy talablarni qondirishga qaratiladi.

Har bir davlat investitsiya faoliyatini quyidagi maqsadlarda muvofiqlashtirib boradi:

–bozor iqtisodiyoti sharoitiga kirib borish jarayonida davlatning iqtisodiy siyosati amalga oshirilishi;

–davlatning fan-texnika siyosatini o'tkazish va buning asosida xo'jalik tabaqalarini mustahkamlash hamda jahon bozoriga chiqishiga ko'maklashish;

– mamlakat ijtimoiy siyosatini yuritish.

Davlat tomonidan investitsiya faoliyatini boshqarish bir qator chora-tadbirlarni qo'llash, ularni hayotga tatbiq etish asosida amalga oshiriladi. Bu chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

– soliq tizimini qulaylashtirish, ya'ni soliq subyektlarini, obyektlari va stavkalarini tabaqalashtirish;

– amortizatsiya siyosatini amalga oshirish, shu jumladan, tezlashtirilgan amortizatsiya siyosatini qo'llash;

– ayrim hududlarni, tarmoqlarni rivojlantirish maqsadida dotatsiyalar, subsidiyalar, subvensiyalar orqali yordam ko'rsatish;

– valuta-kredit siyosatini, davlatning me'yor va standartlarining antimonopol tadbirlarini ishlab chiqarish, davlat mulkini xususiylashtirish va narx-navo siyosatini o'tkazish;

– yer hamda boshqa tabiiy boyliklardan foydalanish shart-sharoitlarini aniqlash;

– investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish mexanizmlarini belgilash va investitsiya loyihalarining monitoringi mexanizmini ishlab chiqish;

– zarur hollarda yoki qonunga muvofiq investitsiya faoliyatini to'xtatib turish, cheklash yoki tugatish.

Shuni ta'kidlash joizki, investitsiya faoliyatining amalga oshirilishi zaruriy barcha shart-sharoitlarning, qulayliklarning yaratilishiga bog'liq. Bu investitsiya iqlimi sifatida iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillarga bog'liq bo'lgan muhitni anglatadi. Bunda investitsiya muhitining ahvoli iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlarning mavjud holatidan kelib chiqadi. Shuning uchun iqtisodiy siyosatni olib borish, davlat *boshqaruv organlarining investitsiya jarayonlarini tartibga solishi*, iqtisodiyotda davlatning aralashuvi, xalqaro bitimlarda ishtirok etishi va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishi investitsiya muhitiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Davlat tomonidan investitsiya faoliyatini tartibga solishda soliqlar yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. G'arb mamlakatlarida soliq imtiyozlari, birinchi navbatda, investitsiyalarni va ilmiy-

texnik faoliyatni, shuningdek, ayrim tarmoqlar va mintaqalarni rivojlantirishni rag'batlantirish uchun joriy qilinadi. Butun mamlakat miqyosida, mintaqa doirasida va alohida faoliyat sohalarida investitsiya, ilmiy-texnika faoliyati va tadbirkorlikni rag'batlantirishga qaratilgan soliq imtiyozlari eng barqaror hisoblanadi. Bunda soliq imtiyozlari – soliq krediti (foyda solig'idan chegirma ko'rinishida); foydaning soliqqa tortiladigan summasini kamaytirish; soliqdan ma'lum muddatga ozod qilish yoki pasaytirilgan soliq stavkalarini belgilash; jadallashtirilgan amortizatsiyani qo'llash shakllarida beriladi.

Turli mamlakatlar iqtisodiyotida yuz berayotgan investitsiya jarayonlarida davlatning roli va ahamiyati bir qancha omillar orqali aniqlanadi. Ular ichida bozor munosabatlarining rivojlanganlik darajasi va ayni daqiqada ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy vaziyat muhim o'rin tutadi.

Shu bilan bir qatorda, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya harakatlarida tendensiyalarni, inson kapitaliga, texnologik o'sish va texnika bilimlari sohalarini rivojlantirishga investitsiyalarni, ilmiy-texnika yutuqlaridan foydalanish va boshqalarni hisobga olishga to'g'ri keladi. Buning uchun global bilimlarni egallash va ularga moslashish, mahalliy darajadagi bilimlar doirasini rivojlantirish, bilimlarni o'zlashtirish va ularni qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish maqsadlarida inson kapitaliga investitsiyalar, jahon yutuqlari va bilimlarini o'zlashtirish va egallashga yordam beradigan texnologiyalarga investitsiyalar talab etiladi.

Hozirgi vaqtda iqtisodiyotni davlat tomonidan muvofiqlashtirish bozor munosabatlarini shakllantirish yo'liga o'tgan mamlakatlar uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Ular uchun iqtisodiyotni davlat tomonidan muvofiqlashtirish hamda bozor munosabatlari o'rtasida eng maqbul nisbatni o'rnata olish juda muhimdir.

Shu o'rinda jahon amaliyotiga nazar solsak, hozirda G'arbiy Yevropa mamlakatlari (Fransiya, Germaniya, Niderlandiya, Avstriya, Ispaniya, Skandinaviya mamlakatlari), Yaponiya, Afrika va Lotin Amerikasining bir qator tez rivojlanayotgan mamlakatlarida iqtisodiyotni davlat tomonidan muvofiqlashtirish va boshqarishning eng ko'p rivojlangan mexanizmlari shakllangan. AQSh, Kanada, Avstraliyada xususiy kapital kuchli o'ringa ega bo'lib, iqtisodiyotni davlat tomonidan muvofiqlashtirish va

boshqarish ularda nisbatan kuchsiz bo'lib, bozor mexanizmlari yaxshi rivojlangan.

Davlat iqtisodiy boshqaruviga bo'lgan yondashuvlarni asoslash yo'lida G'arb olimlari bozor «muvaffaqiyatsizligi», ya'ni «sinish» hamda davlat «muvaffaqiyatsizligi» nazariyasini olg'a surishadi. Bozor o'z kuchsizligi va kam samaradorligi tufayli resurslarning eng maqbul taqsimotini ta'minlay olmagan hollarda, ya'ni u muvaffaqiyatsizlikka uchragan joylarda davlat boshqaruvining turli shakllaridan foydalanadi. Iqtisodiyotni bunday boshqarish bozor iqtisodiyotiga o'tish davri mamlakatlari uchun xos bo'lib, investitsiya faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirishning kuchayishi, birinchi navbatda, bozor mexanizmlarining to'la shakllanmaganligi va to'liq ishlamasligi oqibatida yuz beradi. Bozor munosabatlariga teskari bo'lgan bunday proporsiyani yengish uchun hukumat o'tish davrini qisqartiradigan, iqtisodiyotni tubdan qayta quradigan izchil bozor islohotlarini bosqichma-bosqich amalga oshirib boradi.

Keyingi yillarda bir talay hukumat hujjatlari qabul qilindi, bu hujjatlarning qabul qilinishida davlatning iqtisodiyotdagi, shuningdek, investitsiya sohasini muvofiqlashtirishdagi roli zarur ekanligini qayd etish mumkin. Ushbu hujjatlarda xususiy ishlab chiqarish sektorida xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxona [1] (XIIK)larni barpo etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojiga yordam berish, investitsiya faolligini rag'batlantirish kabilar nazarda tutilgan. Shuningdek, bu hujjatlar iqtisodiyotni isloh etish va mamlakatni modernizatsiya qilish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni izchil amalga oshirishni nazarda tutadi. Investitsiya va tadbirkorlik muhitini yaxshilash, moliyaviy bozorlar rivoji uchun shart-sharoitlar yaratish, budjet, soliq, pul-kredit siyosatini takomillashtirish kabilar, birinchi navbatda, ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish vositalari bo'lishi lozim.

Mamlakatda bozor mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi tufayli investitsiya faoliyati rivojlanishining ustuvor masalalari bozor boshqaruvi orqali hal qilinishi mumkin emas. Shunday ekan, investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirishdagi endigi vazifa davlat boshqaruvi va bozor mexanizmlari orqali boshqaru-

[1] Matnda «chet el investitsiya ishtirokidagi korxonalar» yoki «xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar» yohud «qo'shma korxonalar» deb atalishi prinsipial ahamiyatga ega emas.

vning birga qo'shib olib boriladigan maqbul variantlarini tanlash maqsadga muvofiqdir. Bunda faqat davlatning investitsiya jarayonlarida ishtirok etishi tamoyillari va chegaralarini aniqlash muhim hisoblanadi.

Investitsiyalarga davlat va biznes nuqtayi nazaridan baho berish bir-biridan farq qiladi. Aksariyat mamlakatlarda muhim investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi bir yoki bir necha davlat muassasalari tomonidan qo'llab-quvvatlanishini talab qiladiki, bu muassasalarni korporatsiya ko'radigan foydadan ko'ra jamiyat nuqtayi nazaridan qancha xarajat va qancha foyda olish mumkinligi ko'proq qiziqtiradi.

Shu o'rinda, ta'kidlash joizki, davlat o'z funksiyalarini bajarishi uchun investitsiya faoliyatini tartibga solishning tashkiliy va bevosita usullaridan foydalanadi. Investitsiya faoliyatini tartibga solishning tashkiliy masalalari Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Tashqi iqtisodiy aloqalarni keng rivojlantirish va chuqurlashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etishni faollashtirish va xorijiy sarmoyadorlarga ishonchli kafolatlarni ta'minlash, tashqi savdoni yanada erkinlashtirish, mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilari bilan xorijiy firmalar o'rtasidagi uzoq muddatli barqaror sheriklik munosabatlarini shakllantirish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tashqi iqtisodiy va savdo aloqalari, xorijiy investitsiyalarni jalb etish sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi[1] farmonida Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilab berildi:

– tashqi iqtisodiy faoliyat, eksportni rag'batlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, tashqi savdoni erkinlashtirish, tashqi savdo aloqalarini kengaytirish va mustahkamlash sohasida yagona davlat siyosati o'tkazilishini ta'minlash;

– jahon tovarlar (kapitallar, xizmatlar) bozorlarining kompleks marketing tadqiqotlarini amalga oshirish, ichki va tashqi bozorlar istiqbollarini hamda samaradorligini hisobga olgan holda ularning ahvolini chuqur tahlil etish va rivojlanishini prognoz qilish, xorijiy sheriklar bilan uzoq muddatli, barqaror savdo-iqtisodiy

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 21 iyuldagi «Tashqi iqtisodiy va savdo aloqalari, xorijiy investitsiyalarni jalb etish sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi 3631-sonli farmoni.

munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish;

– iqtisodiyotni rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirish hamda uning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish, respublikaning eksport salohiyatini rivojlantirish dasturlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish, mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining huquq va manfaatlarini ta'minlash;

– O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar, xalqaro iqtisodiy va moliyaviy institutlar, boshqa xalqaro huquq subyektlari bilan o'zaro manfaatli asosda iqtisodiy va moliyaviy hamkorligini rivojlantirishni ta'minlash;

– qulay investitsiya muhitini shakllantirishga va respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar jalb etilishiga ko'maklashish, investitsiya loyihalari ro'yobga chiqarilishi monitoringini amalga oshirish, xorijiy investorlarga zarur axborot yordamini ko'rsatish.

Shuni ham ta'kidlash joizi, respublikamiz Prezidentining yuqoridagi farmoniga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Xorijiy investitsiyalar va kreditlar masalalari bo'yicha idoralararo Kengash hamda eksport salohiyatini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha Respublika Kengashi tugatilib, ularning vazifalari O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi zimmasiga yuklatildi. Albatta, bu ushbu vazirlikning investitsiya faoliyatini tartibga solishdagi ta'sirini yanada kuchaytiradi.

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan bevosita tartibga solish, asosan, davlat dasturlarini bajarishga moliyaviy resurslarni yo'naltirish bilan amalga oshiriladi. Bunda moliyaviy ajratmalar har yili qabul qilinadigan davlat Investitsiya dasturida ko'zda tutiladi.

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishda quyidagilar ko'zda tutiladi:

1. Investitsiya faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish (soliq tizimini va amortizatsiya hisoblash mexanizmini takomillashtirish, investitsiya faoliyati subyektlari uchun maxsus soliq tartiblarini o'rnatish, investorlarning huquqlarini himoya qilish, investitsiya faoliyati subyektlari uchun yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha qulay sharoitlar yaratish,

axborot-analitik markazlar tarmog'ini barpo etish va rivojlantirish, monopoliyaga qarshi choralar qo'llash, moliyaviy lizingni rivojlantirish, inflyatsiya sur'atlariga muvofiq asosiy fondlarni qayta baholash va h.k.);

2. Investitsiya faoliyatini amalga oshirishda davlatning bevosita ishtiroki (xorijiy mamlakatlar bilan birgalikda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini ishlab chiqish, tasdiqlash va moliyalashtirish, respublika uchun ahamiyatli bo'lgan qurilish obyektlari ro'yxatini shakllantirish, budjet mablag'lari bo'yicha investitsiya loyihalari yuzasidan tanlov asosida davlat kafolatlarini taqdim qilish, investitsiya loyihalarining ekspertizasini o'tkazish, investitsiya loyihalari bo'yicha standartlar (me'yorlar, qoidalar) ishlab chiqish va tasdiqlash va ularga amal qilinishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish, konsessiyalar taqdim qilish).

Investitsiya faoliyatini tartibga solish va boshqarishning xorij tajribalarida davlatning faol aralashuvi muhim ahamiyatga ega. Bunda davlat quyidagi funksiyalarni bajaradi:

– tartibga solish;
– nazorat qilish;
– rag'batlantirish.

Xorijiy investitsiyalarni tartibga soluvchi xalqaro moliya tashkilotlaridan tashqari ushbu investitsiyalarni kafolatlovchi va tartibga soluvchi maxsus xalqaro tashkilotlar ham mavjud. Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha xalqaro agentlik (IKXA), Investitsion da'volarni tartibga solish bo'yicha xalqaro markaz (IDTSXM) va Xorijiy investorlarga maslahat berish agentligi (XIMBA) shular jumlasidandir.

3.3. Investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar

Investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi barcha omillarni ularning ta'sir doirasidan kelib chiqib, ikki guruhga tasniflash mumkin:

1. Makrodarajada investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar (korxonaga nisbatan barcha tashqi omillar).

2. Mikrodarajada investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar (ichki omillar).

Birinchi guruh omillariga quyidagilar kiradi:

– soliq tizimining takomillashganlik darajasi;

– investitsiya faoliyatining me'yoriy-huquqiy ta'minoti;
– investitsiya faoliyatida davlat ishtirokining darajasi;
– inflyatsiya darajasi;
– budjet defitsiti;
– mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish holati va dinamikasi;
– moliya-kredit siyosatining takomillashganlik darajasi;
– mamlakatning xomashyo va resurslarga boyligi;
– davlatning iqtisodiy, shu jumladan, investitsiya siyosati;
– narx-navo va unga davlat tomonidan ta'sir ko'rsatilishi;
– alohida hudud, tarmoqlarni rivojlantirishga bo'lgan davlat e'tiborining ustuvorligi;
– jamiyatdagi ijtimoiy va siyosiy holatlar;
– bozor munosabatlarining takomillashganlik darajasi;
– muayyan soha va tarmoqlarda davlat mulkining ustunligi va yoki to'liq amal qilishi;
– erkin iqtisodiy hududlarning mavjudligi;
– xorij kapitalini jalb qilish uchun yaratilgan shart-sharoitlar;
– yerga egalik huquqining davlat qo'lida saqlanishi;
– investitsiyalar kiritishning (qo'yishning, joylashtirishning) risklilik darajasi;
– iqtisodiyotda davlat sektorining tutgan o'rni;
– davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning qo'llab-quvvatlanishi.

Ma'lumki, iqtisodiyotning rivojlanish sur'atlari mavjud salohiyatdan samarali foydalanish va investitsiyalar kiritish sur'atlariga bog'liq bo'ladi.

Inflyatsiya investitsiya faoliyatiga eng faol ta'sir etuvchi omil bo'lib, o'z navbatida, iqtisodiyotning holatiga bog'liq bo'lib, iqtisodiyot barqarorlashganda va rivojlanganda ushbu ko'rsatkich darajasi pasayib boradi. Bu o'rinda shuni hisobga olish kerakki, inflyatsiya jarayonlari bilan bank krediti foiz stavkasi chambarchas bog'liq bo'ladi. Agar bank foiz stavkasi yuqori bo'lsa, investitsiyaga talab shuncha kamayadi. Bunday bog'liqlik investitsiyalarga talab bilan kutilayotgan foyda me'yorida ham mavjud bo'ladi. Bir vaqtning o'zida sof foyda me'yori bank foiz stavkasidan yuqori

bo'lsa, mamlakatda investitsiya qo'yilmalari hajmi oshishi kuzatiladi, aksincha bo'lsa, kamayadi.

Ma'lumki, nominal va real foiz stavkalari mavjud. Real foiz stavkasi inflyatsiya darajasi bo'yicha nominal foiz stavkasidan farq qiladi, ya'ni:

$$S_r = S_n - D_i \qquad (3.1)$$

bu yerda: S_r – bank foizining real stavkasi; S_n – bank foizining nominal stavkasi; D_i – inflyatsiya darajasi.

Ta'kidlash joizki, nominal stavka emas, balki aynan real foiz stavkasi investitsiya qarorlarini qabul qilishda muhim rol o'ynaydi.

Inflyatsiya sharoitlarida, asosan, giperinflyatsiyada [1] kredit uchun bank foiz stavkalari yuqori bo'lgan holda korxonalar uchun investitsiyalar faqat bir holatda foydali bo'lishi mumkin, ya'ni kutilayotgan foyda me'yori bank foiz stavkasidan yuqori bo'lishi kerak. Biroq korxonalar uchun bunday loyihalarni topish oson kechmaydi. Bundan xulosa shuki, giperinflyatsiya, investitsiya faoliyatini jonlashtirish va faollashtirishga kuchli salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi.

Xalqaro tajriba tasdiqlashicha, moliyaviy barqarorlik holatida (ya'ni bunda narxlar o'sish darajasi yiliga 40 foizdan oshmaydi va oyiga o'rtacha 2,8 foizni tashkil qiladi) investitsiya jarayoni faollashadi. Biroq narxlar o'sish darajasi ushbu ko'rsatkichlardan yuqori bo'lgan holatda ishlab chiqarishga investitsiyalar sezilarli darajada kamayadi va bu iqtisodiy o'sish hamda aholi turmush farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Investitsiya faoliyatini jonlantirishda kuchli ta'sir doirasiga ega bo'lgan navbatdagi omil soliq tizimi va uning takomillashganlik darajasi hisoblanadi.

O'zbekistonda soliq qonunchiligini takomillashtirish, soliq yukini bosqichma-bosqich kamaytirib borish, soliq to'lovchilarni ularning xo'jalik faoliyatiga asossiz aralashuvlardan himoya qilishni kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish bilan bir vaqtda soliqqa tortish tizimini takomillashtirish va soddalashtirish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Mamnuniyat bilan ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida yurtimizda keng miqyosdagi soliq islohotlari amalga oshirildi. Buning

[1] Giperinflyatsiya – shiddat bilan yuguruvchi inflyatsiya, bu narxlarning yiliga 1000 foiz, ya'ni 10 martadan ko'p o'sishini bildiradi.

natijasida bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan, davlat budjetini to'ldirishni va zarur davlat xarajatlarini moliyalashtirishni ta'minlaydigan va shuningdek, aholi daromadlari o'sishini, iqtisodiyotni modernizatsiya qilishni, uning yangi tarmoqlari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantiradigan zamonaviy soliq tizimi yaratildi. Iqtisodiyotda soliq yukining bosqichma-bosqich kamaytirilishi – olib borilayotgan soliq islohotlarining eng muhim natijasi, yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashning eng muhim omillaridan biri bo'ldi. Misol uchun, agar 1994-yili korxonalarning daromad solig'i stavkasi 45 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilga kelib u 9 foizga tushdi. Bundan tashqari, 1991-yildan bugungi kungacha stavkalarni pasaytirish bilan bir qatorda soliqlar unifikatsiya qilindi, ya'ni birxillashtirildi hamda bir qator bir-birini takrorlaydigan va kam samara beradigan soliq hamda majburiy to'lovlar bekor qilindi. Natijada hozirgi vaqtda O'zbekiston asosiy soliq stavkalari miqdori bo'yicha soliqqa tortish darajasi yuqori bo'lmagan davlatlardan biri hisoblanadi, jami soliq yuki bizda YaIMga nisbatan 20,5 foizdan oshmaydi.

Hozirgi sharoitda soliq tizimi, ayniqsa, mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun shunday ta'sir doirasiga egaki, ko'p hollarda, ushbu korxonalarda o'z ishlab chiqarish faoliyatini modernizatsiya qilish uchun mablag'lar taqchilligi seziladi. Bundan tashqari, soliqlarning ham bir qancha turlari borki, ular bevosita mahsulot tannarxiga yoki korxona faoliyati moliyaviy natijalariga yoxud sof foydaga bog'liq bo'ladi. Bularning barchasi moliyaviy natijalarda, korxona ixtiyorida qoladigan sof foydada o'z aksini topadi. Foyda korxonalarning investitsiyalarni amalga oshirishining asosiy manbasi hisoblanadi. Shuning uchun mamlakatimizda soliq tizimini yanada takomillashtirib borish, nafaqat, korxonalarning investitsiya jarayonlarini faollashtirishga, balki mamlakat taraqqiyotini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Investitsiya faoliyati rivojiga mamlakatdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish darajasi ham ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, har qanday davlat iqtisodiyoti mazkur soha rivojisiz me'yorda faoliyat ko'rsata olmaydi[1].

[1] Buning boisi shuki, bozor iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik nihoyatda muhim o'rin egallaydi. Eng avvalo, u bozor konyunkturasi o'zgarishlariga tez moslasha olishga, iste'molchilarning talab-ehtiyojlari qanday

Investitsiya faoliyati rivojiga davlat ishtiroki darajasi ham katta ta'sir ko'rsatadi. Davlat (hukumat, vazirlik va muassasalar) nafaqat investitsiya siyosatini (investitsiya dasturlarini) ishlab chiqishlari, balki ushbu jarayonda (ularni amalga oshirishda) faol ishtirok etishlari ham zarur. Bunda ular budjetni rejalashtirish jarayonida unga yo'naltiriladigan mablag'lar hajmini aniqlashlari va qat'iy nazorat qilishlari lozim. Mamlakatimizda bu vaziyatni (manzarani) ijobiy baholash mumkin, jumladan, maqsadli va samarali investitsiya siyosatining olib borilishi, Davlat investitsiya dasturining amalga oshirilishi, strategik ahamiyatga ega bo'lgan obyektlarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini alohida qayd etish joiz.

Yuqorida ko'rib chiqilgan omillar investitsiya faoliyati rivojiga nafaqat makro, balki mikrodarajada ham faol ta'sir ko'rsatadi.

Investitsiya faoliyati rivojida nafaqat tashqi omillar, balki ichki omillar (ikkinchi guruh omillari, mikrodarajada) ham keng ta'sir doirasiga ega. Bunday omillarga:

- korxonalar ko'lami va moliyaviy holati;
- amortizatsiya ajratmalarini hisoblash usullarini qo'llash;
- korxonalarning ilmiy-texnik siyosati;
- korxonalarning investitsiya siyosati;
- xo'jalikning tashkiliy-huquqiy shakli va boshq.

Korxonalar ko'lami bevosita tarzda investitsiya faoliyati ko'lamiga ta'sir ko'rsatadi. Yirik korxonalar (boshqa sharoitlar teng bo'lgan holatda) kichik korxonalarga qaraganda ko'p miqdordagi moliyaviy resurslarga ega bo'lishadi.

Korxonalarning investitsiya faoliyati bevosita iqtisodiy, shu jumladan, investitsiya siyosatiga bog'liq bo'ladi. Masalan, agar korxona texnik qayta qurollantirish va ta'mirlashni rejalashtirsa, albatta, uni amalga oshirish uchun aniq manbalarni ko'zda tutishi lozim.

Xo'jalikning tashkiliy-huquqiy shakli ham korxonalar investitsiya faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan, kredit tashkilotlari bunday korxonalarga ehtiyotkorlik bilan yondashadilar. Bunday

---

o'zgarishiga qarab ish tuta bilishga qodir. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik raqobatchilik muhitini shakllantiradi-ki, busiz bozor iqtisodiyotini tasavvur qilib bo'lmaydi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yangi ish o'rinlari jadallik bilan barpo etilishini, aholining bandligi o'sishi va uning daromadlari oshib borishini, mulkdorlarning keng qatlami shakllanishini ta'minlaydi. Qolaversa, kichik biznes ichki bozorni tovar va xizmatlar bilan boyitishning muhim manbayi hamdir.

korxonalarda o‘z majburiyatlari bo‘yicha javob berishi ham turlicha bo‘ladi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatlarga tijorat banklari, shu jumladan, xorijiy kredit tashkilotlari ishonchsizlik bilan qaraydi. Chunki bunday korxona ta’sischilari o‘z majburiyatlari bo‘yicha cheklangan javobgarlikka (o‘z qo‘yilmalari chegarasida) ega bo‘ladi. Bu ushbu korxonalarning ko‘lami va imkoniyatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Qolaversa, bunday korxonalarda investitsiya faoliyati bilan bog‘liq javobgarlik darajasi va risk turlicha bo‘ladi.

Ma’lumki, investitsiya faoliyatga ta’sir etuvchi omillar to‘g‘risida gapirganimizda infratuzilmani chetlab o‘tolmaymiz. Infratuzilma – xizmat ko‘rsatish sohalari majmuasi bo‘lib, tarkiban ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor infratuzilmalarini o‘z ichiga oladi (3.3-rasm).

Investitsiya faoliyatini rivojlantirishda bozor infratuzilmasi, ya’ni infratuzilma muassasalari investitsiya faoliyati ishtirokchilarining tovar va xizmatlar bozori, pul bozori, mehnat resurslari bozori, kapital bozori, shuningdek, bank tizimi, bankdan tashqari moliyaviy institutlar tizimi, ulgurji vositachilik tuzilmalari, konsalting va auditorlik xizmatlari bozori, mehnat birjalari va boshqa bir qancha muassasalar bilan bo‘ladigan o‘zaro aloqalarini ta’minlaydi.

Shu o’rinda bozor infratuzilmasi hamda investitsiya infratuzilmasini farqlashimiz lozim bo’ladi. Bozor infratuzilmasi deganda bozor iqtisodiyoti uchun xizmat ko’rsatuvchi har xil sohalar tushunilib, ular jumlasiga tijorat banklari, birjalar, auktsionlar, savdo uylari, tashqi savdo firmalari, davlatning tashqi savdo mahkamalari, bojxonalar, soliq idoralari, tijorat va sohibkorlik idoralari, savdo-sotiq uyushmalari, vositachi firmalar, kontsernlar, konsortsiumlar va boshqalar kiradi. Bundan ko’rinib turibdiki, bozor infratuzilmasi umumiy iqtisodiy faoliyat bilan bog’liq barcha jabhalarni qamrab oladi. Investitsiya bozori bozor infratuzilmasi obyektlaridan umumiy foydalanuvchi hisoblansa-da, shu bilan bir qatorda o’zining tashkil topish, amal qilish va rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiquvchi maxsus infratuzilma obyektlariga ham bog’liqligini alohida ta’kidlash zarur.



3.3-rasm. **Infratuzilma tizimi**

Chunki bevosita va bilbevosita aloqadorlikning o'ziga xos farqli jihatlari mavjud bo'ladi. Xullas, infratuzilma investitsiya faoliyatini rivojlantirishda muhim turtki bo'lib xizmat qiladi. Qaysi mintaqada infratuzilma yaxshi tashkil etilgan bo'lsa, shu mintaqada yangi investorlar ko'proq paydo bo'ladi. Bu, o'z navbatida, yangi ish joylarini yaratish, ish bilan bandlikni

ta'minlash, aholining real daromadlarini ko'paytirish, byudjetga soliqlar tushumining ortishi, iqtisodiyotda sog'lom raqobat muhitining yaratilishi hamda turli xo'jalik aloqalarining mustahkamlanishini ta'minlaydi.

3.4. O'zbekistonda investitsiya faoliyatining qonuniy-me'yoriy bazasi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya faoliyatini tashkil etish va ularning investitsiya faolligini ta'minlash vazifalari

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, O'zbekistonda investitsiya faoliyatining me'yoriy-qonuniy bazasi shakllangan va xalqaro me'yorlarga moslashtirilgan bo'lib, ular asosan, «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi (14.06.1991-y.), «Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida»gi (25.04.1996-y.), «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi (24.12. 1998-y.), «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi (30.04.1998-y.), «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi (30.04.1998-y.), «Lizing to'g'risida»gi (14.04.1999-y.) O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasining Prezidentimizning investitsiyalarga oid qator farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlardan tashkil topgan.

O'zbekiston qonunchiligiga [1] muvofiq mamlakat hududida investitsiyalar quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

– yuridik shaxslar tuzish yoki ularning ustav jamg'armalarida (kapitallarida) ulushli ishtirok etish, shu jumladan, mol-mulkni yoki aksiyalarni olish;

– qimmatli qog'ozlarni, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qarz majburiyatlarini olish;

– konsessiyalarni, shu jumladan, tabiiy resurslarni qidirish, ishlab chiqish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga bo'lgan konsessiyalarni olish;

– mulk huquqini, shu jumladan, ular joylashgan yer uchastkalari bilan birgalikda savdo va xizmat ko'rsatish sohalari obyektlariga, turar joylarga mulk huquqini, shuningdek, yerga hamda boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish (shu

[1] Bunda O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi qonuni nazarda tutilayapti.

jumladan ijara asosida foydalanish) huquqini qonun hujjatlariga muvofiq olish.

Ta'kidlash joizki, investorlar investitsiyalarni qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa shakllarda ham amalga oshirishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi qonunda investorlarga qator huquqlar, erkinliklar va kafolatlar berilgan. Jumladan, mulk shakllaridan va faoliyat turidan qat'iy nazar, investorlar investitsiya faoliyatini amalga oshirishda teng huquqlarga egadirlar.

Davlat investitsiya faoliyati subyektlarining huquqlarini kafolatlaydi. Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari investitsiya faoliyati subyektlarining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas. Agar davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari investitsiya faoliyati subyektlarining faoliyatida qonun hujjatlari buzilganligini aniqlasalar, ular vakolatlari bo'lgan va muayyan qoidabuzarlikni bartaraf etish bilan bevosita bog'liq choralarni ko'rishlari mumkin. Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari qoidabuzarlik mavjudligi dalilidan investitsiya faoliyati subyektlarining boshqa qonuniy faoliyatiga aralashish yoki faoliyatini cheklab qo'yish uchun asos sifatida foydalanishi mumkin emas.

Davlat investitsiyalar himoya qilinishini kafolatlaydi. O'zbekiston Respublikasida investitsiyalar va investorlarning boshqa aktivlari davlat mulkiga aylantirilmaydi. Investitsiyalar va investorlarning boshqa aktivlari rekvizitsiya qilinmaydi, tabiiy ofatlar, avariyalar, epidemiyalar, epizootiya hollari va boshqa favqulotda xususiyatga ega bo'lgan holatlar bundan mustasno.

Investitsiya faoliyati subyektining investitsiya faoliyati natijasida olingan foydasi (daromadi) soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langach, uning xohishiga ko'ra reinvestitsiya[1] qilinishi yoki boshqa har qanday usulda ishlatilishi mumkin.

Investitsiya faoliyati subyekti olgan aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar, uning maqsadli bank omonatlari, shuningdek, olingan mol-mulk olib qo'yilgan (rekvizitsiya qilingan) hollarda ular qiymati yoki ijara to'lovlari qonun hujjatlariga muvofiq qoplanadi. Investitsiya faoliyati subyektining hisobvaraqlaridan

[1] Investorning faoliyati natijasida olingan foydani (daromadni) muomalaga kiritish, qayta investitsiyalash.

foydalanishni cheklab qo'yish yoki mablag'larni majburan olib qo'yish qonunda belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

Investitsiyalarning qo'shimcha kafolatlari va himoya qilish choralari hukumat tomonidan kafolatlar berishni, investitsiya loyihalarini moliyaviy ta'minlashda ko'maklashishni, maxsus soliq va to'lov rejimi yaratilishini, loyihalar amalga oshirilishining davlat monitoringi yuritilishini va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa choralarni o'z ichiga olishi mumkin.

Investitsiya faoliyati subyektlarining manfaatlariga muayyan tarzda daxldor umummajburiy tusdagi qonun hujjatlaridan ular erkin foydalana olishlari lozim. Mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruv organlari investitsiya faoliyati subyektlarining so'rovlariga ko'ra ularni qiziqtirgan axborotni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda berishlari shart.

Investor investitsiyalash maqsadi, yo'nalishi, turi va hajmini mustaqil ravishda belgilaydi, buni amalga oshirish uchun shartnoma asosida, qoida tariqasida, tanlov (tender) savdosini o'tkazish yo'li bilan yuridik va jismoniy shaxslarni investitsiya faoliyati ishtirokchilari sifatida jalb etadi. Qonun hujjatlariga muvofiq, investor investitsiya obyektlariga va ularning natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish, ularni tasarruf etish, shuningdek, reinvestitsiya qilish huquqiga ega.

Qonun hujjatlarida belgilangan mulk huquqini qo'lga kiritishni keltirib chiqarmaydigan obyektlarga investitsiya kiritish investorning keyinchalik bu obyektlarga egalik qilish, ularni operativ boshqarish yoki ulardan foydalanishdan olinadigan foyda (daromadlar)da ishtirok etish huquqini istisno etmaydi. Investorning qaroriga binoan investitsiya obyektlariga va ularning natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish, ularni tasarruf etish huquqi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga berilishi mumkin. Huquqlarni berish paytida taraflarning o'zaro munosabatlari ular tuzadigan shartnomalar asosida tartibga solinadi.

Investitsiya faoliyatining ishtirokchisi quyidagilarga haqli: tanlov (tender) savdosining ishtirokchisi bo'lish; investorlar bilan ularning buyurtmalarini bajarish uchun shartnomalar tuzish; agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, investor oldidagi o'z majburiyatini bajarishga bosh-

qa shaxslarni jalb etish; agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, investitsiya faoliyati obyektining haqiqiy qiymatini pasaytirish natijasida erishilgan tejamni mustaqil ravishda tasarruf etish.

Investitsiyalar birlamchi yoki takroran qo'shiladigan shakllarining o'zgartirilishi ularning investitsiyalar sifatidagi darajasining o'zgarishiga olib kelmaydi. Investitsiya faoliyatini cheklab qo'yish, to'xtatib turish yoki tugatish investorning, davlatning vakolatli organi yoki sudning qaroriga ko'ra amalga oshirilishi mumkin.

Davlatning vakolatli organi investitsiya faoliyatini cheklab qo'yish, to'xtatib turish yoki tugatish to'g'risidagi qarorni: investor qonunda belgilangan tartibda bankrot deb e'lon qilingan yoki topilgan; favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan; investitsiya faoliyati jarayonida qonun hujjatlarida belgilangan sanitariya-gigiyena, radiatsiya, ekologiya, arxitektura-shaharsozlikka oid va boshqa talablar, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar aniqlangan hollarda qabul qilishi mumkin.

Xorijlik investorlarning xo'jalik faoliyati, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar, ularning sho'ba korxonalari, filiallari va boshqa tuzilmalarini, shuningdek, xo'jalik uyushmalari va birlashmalarini tashkil etish, sotish, qayta tashkil etish yoki tugatish, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning fondlarini shakllantirish, ijara shartnomalari va boshqa shartnomalarini tuzish bo'yicha faoliyati O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq, soliqlar va boshqa to'lovlarni, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari hisoblanuvchi o'z xodimlari uchun ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot bo'yicha to'lovlarni amalga oshiradi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning xorij valutasidagi barcha xarajatlari ularning o'z valuta tushumlari hisobiga, shuningdek, xorij valutasini olishning O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ruxsat etilgan boshqa manbalari hisobiga ta'minlanishi lozim. Ularning valutada o'zini-o'zi qoplashi tuziladigan konsorsiumlar, birlashmalar va boshqa tashkiliy tuzilmalar doirasida ham ta'minlanishi mumkin. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar

O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari talablariga rioya etgan holda eksport-import operatsiyalarini mustaqil ravishda amalga oshiradilar.

O‘zlari ishlab chiqargan mahsulotni eksport qilganlarida bunday mahsulot litsenziyalanmaydi va kvotalanmaydi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq o‘z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun mahsulotni litsenziyasiz import qilishga haqli. Eksportga chiqariladigan o‘zining ishlab chiqargan mahsulotini va korxonalar tomonidan o‘z ehtiyojlari uchun import qilinadigan mahsulotni aniqlash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Xorijlik investorlar O‘zbekiston Respublikasiga o‘z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kiriladigan mol-mulkdan boj to‘lovi olinmaydi. Xorijlik investorlarga hamda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga tegishli, ularning investitsiyalari sifatida qo‘shiladigan ixtirolarni patentlash va sanoat namunalarini joriy etish O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar korxona fondlari ro‘yxatini, ularni vujudga keltirish va ulardan foydalanish tartibini mustaqil ravishda belgilaydi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar xodimlarining mehnat munosabatlari O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. XIIK xodimlarini ijtimoiy sug‘urta qilish va ijtimoiy ta’minlash (xorijlik xodimlarni ijtimoiy sug‘urta qilish va ta’minlash bundan mustasno) O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar belgilangan tartibda va shartlarda yer uchastkalari sotib olishlari mumkin. Imoratlar va inshootlarga bo‘lgan mulk huquqi boshqaga o‘tayotganda belgilangan tartibda va shartlarda shu obyektlar bilan birgalikda yer uchastkasidan foydalanish huquqi ham o‘tadi. Xorijlik investorlarga mol-mulkni ijaraga berib qo‘yish ijaraga beruvchi tomonidan shartnomalar asosida va qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar belgilangan tartibda hisob-kitobni va hisobotni amalga oshiradilar, ular buxgalteriya daftarlari va yozuvlarini O‘zbekiston Respublikasining milliy valutasida, shuningdek, o‘z xohishlariga ko‘ra, erkin ayir-

boshlanadigan valutada yuritadilar. Investitsiya faoliyati jarayonida mahsulot (ishlar, xizmatlar) bahosi, qoida tariqasida, tanlov (tender) savdosi natijalariga ko'ra, kelishilgan narxlarda belgilanadi.

Huquq bor joyda, majburiyat ham bor deganlaridek, investorlar ham ma'lum majburiyatlarni bajarib qo'yishlari lozim bo'ladi. Jumladan, investorlar:

– investitsiya loyihalarida sanitariya-gigiyena, radiatsiya, ekologiya, arxitektura-shaharsozlikka oid va boshqa talablarga rioya etilganligi xususida ekspertiza xulosasini olishi;

– monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarining talablariga rioya etishi;

– soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashi;

– shartnoma bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi tufayli investitsiya faoliyati ishtirokchisiga yetkazilgan zararni qoplashi;

– mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruv organlarining o'z vakolati doirasida qo'yiladigan talablarini bajarishi shart.

Investitsiya faoliyatining ishtirokchisi: qonun hujjatlarida belgilangan me'yorlar, qoidalar va standartlarga rioya etishi; shartnomalarni o'z vaqtida va lozim darajada bajarishi; shartnomani bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi tufayli investorga yetkazilgan zararni qoplashi; mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruv organlarining o'z vakolati doirasida qo'yilgan talablarini bajarishi shart.

Investitsiya faoliyatining ishtirokchisi litsenziyalanishi lozim bo'lgan faoliyatni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda litsenziya olishi shart.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya faolligini ta'minlash vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

– soliq tizimini takomillashtirish;

– jadallashtirilgan amortizatsiya usullarini qo'llash;

– xususiy sektorga investitsiyalarni jalb qilish va ishlab chiqarishga yo'naltirilgan investitsiyalarni rag'batlantirish;

– inson kapitaliga investitsiyalarni kengaytirish;

– investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning zamonaviy usullarini joriy qilish;

– tijorat banklarining investitsiya kreditlari berish salohiyatini oshirish;

– eksport bilan shug'ullanuvchi korxonalarning aylanma mablag'larini to'ldirish uchun uzoq muddatli (1 yildan ortiq) imtiyozli kreditlar berish;

– yangi tashkil etilayotgan kichik va xususiy korxonalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida tijorat banklarida tashkil etilgan Imtiyozli kreditlash maxsus jamg'armasining resurs bazasini oshirish;

– xo'jalik yurituvchi subyektlarni tekshirishlar sonini yanada kamaytirish.

Umuman olganda, O'zbekistonda investitsiya faoliyatining qonuniy-me'yoriy bazasida investorlar uchun tegishli kafolatlar, huquqlar va erkinliklar yaratilgan bo'lib, bu holat mamlakatimizda investitsiya jarayonlarini faollashtirishga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

3.5. Investitsiya siyosati: mazmuni, roli, asosiy yo'nalishlari va uni amalga oshirish bosqichlari

Har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiyotning bir tomonlama xomashyoviy yo'nalishga tayanilishiga qat'iy barham berish, mustaqil milliy iqtisodiyotni yaratish va uni rivojlantirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish, xorijiy investitsiyalarni samarali jalb qilishga kuchli ehtiyoj tug'iladi.

«Faol investitsiya siyosati mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning eng muhim sharti va manbai bo'lmog'i kerak».[1]

Investitsiya siyosati davlat iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, belgilangan maqsadlarga erishish hamda iqtisodiy siyosatning qisqa muddatli va uzoq istiqbol uchun belgilangan vazifalarini bajarishga xizmat qiladi. Investitsiya jarayonlarini faollashtirish va iqtisodiyotni yuksaltirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ijtimoiy muammolarni hal etish maqsadida iqtisodiy

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi: Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlarni va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. // «Xalq so'zi», 2013 yil 19 yanvar, №13. – B. 3.

subyektlar uchun qulay xo'jalik yuritish sharoitlarini yaratishga qaratilgan maqsadli tadbirlar majmuyi investitsiya siyosatini anglatadi. Investitsiya siyosatiga iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash, investitsiya faoliyatining o'rta va uzoq muddatli maqsadlari hamda ularga erishish yo'llarini belgilash, markazlashtirilgan investiyatsiyalash jarayonidan markazlashtirilmagan investitsiyalashga o'tish, investitsiya strategiyasini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimi, ustuvor investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mexanizm, uslublar yig'indisi sifatida ham qaraladi. Ushbu siyosat O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatini davlat tomonidan boshqarish shakllari, yo'nalishlari va maqsadlarini belgilab beradi.

Ma'lumki, mamlakatimizning jahon maydonidagi raqobatdoshligini, eng avvalo, puxta ishlab chiqilgan va oqilona yuritilayotgan investitsiya siyosati orqaligina ta'minlash mumkin. Milliy mahsulotlarimiz raqobatdoshligini ta'minlash uchun ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash bo'yicha katta va kichik loyihalarni ishlab chiqish, buning uchun zarur mablag' va manbalarni topish – bu birinchi navbatdagi eng muhim vazifa bo'lishi zarur. Shu bilan birga, investitsiya siyosatida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga alohida etibor qaratmoq kerak.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarda hududiy investitsiya siyosatini olib borish o'ta muhim masalalardan sanaladi. Davlat doimiy ravishda har bir hududning iqtisodiy imkoniyati, rivojlanish darajasini e'tiborga olgan holda investitsiya siyosatini olib boradi. AQShda federal darajada maxsus xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish dasturlari ishlab chiqilmagan. Xorijiy investitsiyalar uchun tavsiya etiladigan barcha imtiyoz va engilliklar shtatlar darajasida ishlab chiqilgan. Bu, o'z navbatida, xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha shtatlar o'rtasida erkin raqobatni vujudga keltiradi. Barcha 50 ta shtat milliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha o'zining maxsus dasturiga ega. Har bir shtat aniq maqsadga qaratilgan xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish bo'yicha bir necha xil dasturlarni ishlab chiqadi. Ular quyidagi maqsadlarda bo'lishi mumkin: ish joylarini tashkil etish; shtatni va alohida shtat hududlarining iqtisodiyotini rivojlantirishni rag'batlantirish; zamonaviy ilg'or texnologiyani

joriy etish va fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga erishish va h.k.

Sanoati rivojlangan mamlakatlardagi iqtisodiy va siyosiy barqarorlik xorij kapitali va investitsiyani maxsus qonunlarsiz ham yetarlicha himoyalash imkoniyatini beradi. Bu yerda xorijiy investitsiyalar ham ichki investitsiyalar kabi umumiy qonunlar asosida muvofiqlashtiriladi. Bu mamlakatlardagi aniq ishlab chiqilgan qonuniy baza xorijiy investorlarning to'laqonli faoliyatini, ya'ni yangi kompaniyalarni tashkil etishda erkin faoliyatni (ro'yxatdan o'tkazish jarayoni, mulk huquqi kafolati), foyda olish (soliq siyosatidagi yengillik va imtiyozlar), nizolarni tartibga solish (mehnat qonunlaridagi shaffoflik, monopoliyaga qarshi aniq tadbirlar) kabilarni kafolatlaydi.

G'arb mamlakatlarida hukumat kapital qo'yilmalarni faollashtirish strategiyasida, ko'proq, xorijiy investitsiyalarni muvofiqlashtirishning egri usulidan (soliq, amortizatsiya, moliya-kredit siyosati) foydalanishni afzal ko'radi. So'nggi ikki o'n yillikda G'arbda investitsiya qarorlarini qabul qilishda va amalga oshirishda mahalliy hududlarning javobgarligi va roli oshib bormoqda. Qator mamlakatlarda (AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya) mahalliy organlar xorijiy investitsiyalarni va investorlar faoliyatini muvofiqlashtirishda yetarlicha mustaqillikka egadirlar. Bu yerda investitsiya bozorini muvofiqlashtirishning asosiy vositasi sifatida daromad solig'i (foyda solig'i) qo'llaniladi. Bu soliq stavkasining o'zgarishi firma va kompaniyalarning investitsiya faoliyatiga bevosita ta'sir etadi.

Umuman, so'nggi 20 yil mobaynida rivojlangan mamlakatlarda investitsiya faoliyati keng kompyuterlashtirish, resurslarni tejash, yangi zamonaviy texnologiya, shuningdek, mahalliy hokimiyatning roli va javobgarligini oshirish asosidagi yangi boshqaruv tizimiga tayangan iqtisodiyotni tuzilmaviy qayta qurishga yo'naltirilgan. Mahalliy hokimiyatlarga investitsiya dasturlarini boshqarishda, ekologik siyosatni yuritishda va hududiy rejalashtirishda asosiy rol berilgan. Jahon tajribasi shundan guvohlik beradiki, investitsiya dasturi va loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshishi uning ishtirokchilari o'rtasida optimal proporsiyani ta'minlashga bog'liqdir.

Davlat ham bu jarayonda muhim rol o'ynaydi, uning funksiyasiga, asosan, quyidagilarni kiritish mumkin: huquqiy muvofiq-

lashtirishni ta'minlash, munitsipial tashkilotlar bilan shartnomaviy munosabatlarni rasmiylashtirish; moddiy va moliyaviy resurslarni birlashtirish uchun sharoit yaratish, soliq yengilliklarini va boshqa moliyaviy imtiyozlarni belgilash; loyihani hayotga tatbiq etishda va uning noxush oqibatlari (ekologiya buzilishi, hududiy yer uchastkasining buzilishi va boshq.) uchun mahalliy organlarning javobgarligini aniqlash; loyihani amalga oshirish uchun aholini, ijtimoiy tashkilotlarni jalb etish maqsadida ommaviy axborot vositalari orqali loyihani hayotga tatbiq etishning maqsadga muvofiqligini keng targ'ib etish.

O'zbekistonning eksport imkoniyatini keskin oshirishda qimmatli xom ashyoni qayta ishlash asosida tayyor mahsulot ishlab chiqaradigan qo'shma korxonalarni rivojlantirish, xorijlik sheriklar bilan zamonaviy, ixcham korxonalar tashkil etish, ularni, birinchi navbatda, mehnat resurslari va xom ashyo manbalariga, avvalambor, qishloq joylariga yaqinroq joylashtirish zarurdir.

Globallashuv ishlab chiqarishning ko'chishiga va uning oqibati sifatida mahalliy darajada murakkab iqtisodiy vaziyatlarning (ishsizlik, budjetga soliq tushumlarining kamayishi) yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Oxir-oqibat, globallashuv moliya operatsiyalarining erkinlashuviga, xalqaro mehnat taqsimotiga, millatlararo korporatsiyalarning paydo bo'lishiga, xalqaro raqobatning kuchayishiga olib keladi.

3.6. Globallashuv va xorij kapitali migratsiyasining kuchayishi. Zamonaviy investitsiya siyosatini amalga oshirishda xorijiy investitsiyalar ko'chishini hisobga olish

Xalqaro kapital migratsiyasi[1] jahon xo'jaligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega, chunki u mamlakatlarning tashqi iqtisodiy va siyosiy aloqalarining mustahkamlanishiga olib keladi, ularning tashqi savdo aylanmalarini oshiradi, iqtisodiy rivojlanishni jadallashtiradi, ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytiradi, ishlab chiqarilayotgan tovarlarning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini, importyor-mamlakatlar texnik salohiyatini o'stiradi va mamlakatdagi bandlikni oshiradi.

[1] Migratsiya – lot. migration – ko'chaman, joyimni o'zgartiraman, degan ma'nolarni anglatadi. Kapitalning qo'shimcha qiymat olish va siyosiy maqsadlarda bir mamlakatdan boshqasiga muntazam chiqib turishini bildiradi.

Kapital migratsiyasi bu ma'lum manfaatli maqsadga qaratilgan pul mablag'lari (boyliklarni)ning bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga ko'chishini ifodalaydi. Kapital migratsiyasi ikki shaklda yuz beradi:

– xorijga tadbirkorlik kapitalini chiqarish yoki xorijda iqtisodiy faoliyatini investitsiya qilish;

– ssuda kapitalini chiqarish yoki xalqaro kredit.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni, biz, ko'proq, tovar eksporti va importi tarzida ko'rishga o'rganib qolganmiz. Lekin hozirgi zamon iqtisodiyotida tovar-kapital eksporti va importi muhim o'rin tutadi.

Chetga kapital chiqarishning asosiy sababi xo'jalik hayotining baynalmilallashuvi va chetdan olinishi mumkin bo'lgan foydaning yuqori bo'lishi bo'lsa, kapital import qilayotgan mamlakat uchun chetdan kelgan mablag' evaziga iqtisodiy faoliyatini jadallashtirishdir. Kapitallarning mamlakatlar bo'ylab ko'chib yurishidagi asosiy harakatlantiruvchi sabab (motiv) ularni safarbar etish hamda band qilishning nafliroq sharoitlaridir. Ishlab chiqarishni xorijga chiqarishning kuchayishini, xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotga kirib kelishini, iqtisodiyotlar rivojlanishini jadallashtiradigan jarayon tarzida baholash kerak.

Kapital migratsiyasi jarayonlariga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

– ishlab chiqarishning rivojlanishi va iqtisodiy o'sish sur'atlarining barqaror saqlab turilishi;

– jahon iqtisodiyoti va alohida mamlakatlar iqtisodiyotida kuzatilayotgan chuqur tarkibiy o'zgarishlar;

– ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyasining chuqurlashuvi;

– jahon iqtisodiyotining transmilliylashishi;

– ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi va integratsiyaviy jarayonlarning rivojlanishi;

– bozorlarning o'ta to'yinishi ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlarini cheklaydi;

– rivojlangan mamlakatlarga xos sotuvchilar o'rtasidagi keskin raqobat;

– milliy bozorning yirik moliya-sanoat guruhlari tomonidan monopollashtirilishi;

– harakatdagi texnologiyalarni takomillashtirish imkoniyatlarining qolmasligi;

– sanoati rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy o'sish sur'atlarini, bandlik darajasini, ilg'or sanoat tarmoqlarining rivojlanishini saqlab turish uchun salmoqli miqdorda kapitallarni jalb qilishga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosati;

– xalqaro tashkilotlar tomonidan xalqaro investitsiyaviy bo'shliqni erkinlashtirish siyosatining yuritilishi, investitsiyaviy sheriklikning universal me'yorlarini ishlab chiqish;

– mamlakatlar o'rtasida daromadlar va kapitalning ikki yoqlama soliqqa tortilishiga yo'l qo'ymaslik to'g'risida xalqaro kelishuvlar, ular o'rtasida savdo-sotiqning rivojlanishi va investitsiyalarning jalb qilinishiga ko'maklashadi.

Xorijiy investitsiyalar migratsiyasini milliy investitsiya siyosatini olib borishda va ularni amalga oshirishda, albatta, hisobga olishga to'g'ri keladi. Ularni jalb qilish importyor mamlakat budjetiga soliq, ijara va boshqa tushumlarni ko'paytiradi. Ular yangi ish o'rinlarini tashkil qilishga, raqobatbardosh mahsulotlar chiqarish, jahon bozorlarida mustahkam o'rnashib olishga yordam beradi.

Xorijiy kapitalning milliy iqtisodiyotga kiritilishi ikkala tomonga ham manfaat keltirishni ko'zlaydi. Aks holda, bunday munosabatlar yo'lga qo'yilmagan bo'lar edi. Kapital qabul qiluvchi iqtisodiyot uchun xorijiy investitsiyalar daromad keltirmaganda edi, u kapitalni qabul qilmagan bo'lar edi. Kapitalni joylashtiruvchi (xorijiy investor) uchun kapitalni safarbar etishda kutiladigan daromad kapital evaziga olish mumkin bo'lgan bank foiz stavkasidan yuqori bo'lmaganda edi, u o'z kapitalini o'zga iqtisodiyotga safarbar etmagan bo'lar edi.

Chetga kapitalni tadbirkorlik kapitali tarzida chiqarish ikki xil: to'g'ridan to'g'ri va portfel shaklida chiqariladi. To'g'ridan to'g'ri kapital chiqarish bu investitsiya miqdori xorijiy korxonalarni nazorat qilish huquqini beradigan darajada kapital qo'yishdir. Buni nazariy jihatdan qarasak, 50 %dan ortiq bo'lishi kerak. Lekin amaliyotda bu miqdor turli mamlakatlarda turlicha bo'lib, kompaniyalar kapitali 20-25 % va undan ham kam miqdorni tashkil etishi mumkin. Masalan, AQShda nazorat paketi aksiyadorlik kapitalining 10 %igacha qismini tashkil etishi mumkin.

To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar kapitalni joylashtirish shakli bo‘lib, investorning qimmatli qog‘ozlarga yoki mulkka bo‘lgan bevosita huquqidan dalolat beradi. To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, kapital qo‘yuvchi davlat yoki uning xo‘jalik yurituvchi subyektlari tomonidan investitsiyalarning kapital qabul qiluvchi davlat iqtisodiyotiga joylashtirishini anglatadi. To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilmasdan turib jiddiy tarkibiy o‘zgarishlar, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish faolligini oshirish, modernizatsiya qilish, jahon bozoriga qaratilgan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi samaradorligini tubdan oshirish, qolaversa, iqtisodiyotning barqaror va mutanosib sur’atlarda o‘sishini ta’minlash, ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan yangilash vazifalarini hal etish qiyin.

Globallashuv kuchayishi tufayli butun dunyo bo‘ylab qisqa muddatlarda kapital, ishlab chiqarish, tovarlar, intellektual salohiyat, mehnat resurslari, axborotlar va boshqalarning ko‘chish jarayoni jadallashadi. Shuning uchun ham investitsiya siyosatini yuritishda bu vaziyatlarni hisobga olishi zarur bo‘ladi.

Kapital migratsiyasi makro va mikro ko‘lamda yuz beradi, ya’ni mamlakatlar o‘rtasida yuz berganda mamlakatning statistik hisoboti va to‘lov balansida aks ettiriladi. Mikro ko‘lamda, ya’ni korporatsiyaning ichki kanallari orqali, ko‘proq, transmilliy korporatsiyalarning bosh kompaniyalaridan filiallari, ikkilamchi kompaniyalariga, shaxobchalari tomon kapital harakati tarzida yuz beradi. Mamlakatning xalqaro kapital migratsiyasidagi ishtiroki darajasi qator ko‘rsatkichlarda ifodalanadi. Ulardan biri kapital importi koeffitsiyentidir. Bu ko‘rsatkich import qilingan xorijiy kapitalning mamlakat YaIMdagi ulushini ko‘rsatadi. Yevropa mamlakatlari o‘rtasida bu koeffitsiyentning eng yuqori darajasi Belgiya va Luksemburgda qayd etilgan. Ikkinchisi, kapital eksporti koeffitsiyentidir. Bu ko‘rsatkich eksport qilinadigan xorijiy kapitalning YaIMdagi ulushini aks ettiradi. Yevropa mamlakatlarida ushbu ko‘rsatkichning maksimal miqdori Niderlandiyada qayd etilgan. Boshqa nisbiy ko‘rsatkichlarga: xorijiy yoki qo‘shma kompaniyalarning milliy ishlab chiqarishdagi ulushi, kapital eksporti-importining oldingi davrga nisbatan o‘sish sur’atlari, mamlakat aholisi jon boshiga to‘g‘ri keladigan xorijiy investitsiyalar summasi kabilar kiradi.

Nazorat savollari

- «Investitsiya faoliyati»ga qanday ta'rif berish mumkin?
- Iqtisodchi olimlar tomonidan investitsiya faoliyatining mazmun-mohiyatiga berilgan ta'riflarni bilasizmi?
- O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi qonunida investitsiya faoliyatiga qanday ta'rif berilgan?
- Investitsiya faoliyatining tarkibiy tuzilishini nimalar tashkil qiladi?
- Investitsiya faoliyatining obyektlariga nimalar kiradi?
- Investitsiya faoliyatining subyektlari kimlar bo'lishi mumkin?
- O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi qonunida investitsiya faoliyati subyektlariga kimlar kiritilgan?
- Investor, deganda kimlarni tushunasiz?
- Investorlar investitsiya faoliyatini qanday shakllarda amalga oshiradilar?
- Makrodarajada investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar qatoriga qanday omillar taalluqli?
- Mikrodarajada investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarga qanday omillar kiradi?
- Inflyatsiya investitsiya faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatishini izohlab bering?
- Nominal va real foiz stavkalari deganda nimani tushunasiz? Inflyatsiyaning bu stavkalarga qanday aloqadorligi bor?
- Investitsiya qarorlarini qabul qilishga nominal va real foiz stavkalarining ta'siri qanday bo'ladi?
- Investitsiya faoliyatini jonlantirishga kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ta'sirini izohlay olasizmi?
- Infratuzilmani qanday izohlaysiz?
- Investitsiya faoliyatini rivojlantirishda infratuzilmaning o'rni va ahamiyatini ifodalab bering?
- O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq mamlakat hududida investitsiyalar qanday shakllarda amalga oshiriladi?

➢ Investitsiya faoliyatini cheklab qo'yish, to'xtatib turish yoki tugatish qanday amalga oshiriladi va u qanday holatlarda yuz beradi?

➢ Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish qanday yo'llar bilan amalga oshiriladi?

➢ Investitsiya faoliyatini tartibga solishda qanday maqsadlar mujassam?

➢ O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatini tartibga solishning huquqiy asoslarini bilasizmi?

➢ Investitsiya faoliyatini tartibga solish va boshqarishning xorij tajribalari to'g'risida nimalarni bilasiz?

➢ O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatini tartibga solishda bevosita ishtirok etuvchi qanday vazirlik va muassasalarni bilasiz?

➢ Investitsiya siyosati deganda nimani tushunasiz? Yoki investitsiya siyosatiga qanday ta'rif bera olasiz?

➢ Investitsiya siyosatining asosiy maqsadi nimalardan iborat, deb o'ylaysiz, vazifalarichi?

➢ O'zbekistonda investitsiya siyosatini olib borishda qanday tamoyillarga asoslanadi?

➢ O'zbekistonda investitsiya siyosati rivojlanishining bosqichlarini izohlab bering?

➢ Davlat investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlari nimalardan iborat?

➢ Kapital migratsiyasi, deganda nimani tushunasiz?

➢ Xalqaro kapital migratsiyasi alohida mamlakatlar iqtisodiyotida qanday ahamiyat kasb etadi?

➢ Chetga kapital chiqarishning asosiy sabablari nimalardan iborat, deb hisoblaysiz?

➢ Kapital migratsiyasi jarayonlariga qanday omillar ta'sir qiladi?

➢ Xorijiy kapitalning milliy iqtisodiyotga kiritilishi qanday manfaatlarni ko'zlaydi?

➢ Portfel investitsiyalarning ahamiyati nimada?

➢ Mamlakatning xalqaro kapital migratsiyasidagi ishtiroki darajasi qanday ko'rsatkichlarda ifodalanadi? Bu ko'rsatkichlarning zaruriyati nimada?

IV BOB. IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING ROLI

4.1. Xorijiy investitsiyalarning mazmun-mohiyati va turlari. Xorijiy investitsiyalarni O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilishning obyektiv zarurligi

Ma'lumki, har qanday davlat tashqi dunyodan ajralgan holda, jahondagi ilm, fan va texnika sohasida erishgan yutuqlardan, iqtisodi rivojlangan davlatlarning tajribalaridan samarali foydalanmasdan rivojlanishi mumkin emas.

Jahon iqtisodiyotida chuqur va tezkor globalizatsiya jarayoni ketayotgan bugungi kunda O'zbekistonning mazkur jarayonga qo'shilib ketishi, u bilan bir xil o'zgarishlarni boshidan kechirishga yetarli kuch va tayyorgarliklarga ega bo'lishi uchun mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi har bir katta-kichik muammolar, yutuqlar, imkoniyatlar, shart-sharoitlarni e'tibordan chetda qoldirmaslik, rivojlanishning ko'zlangan daraja va samaralarga erishish yo'llarini izlab topish, ulardan maksimal darajada foydalanish, buning uchun zarur bo'lgan barcha chora-tadbirlarni amalga oshirish, eng muhim va kechiktirib bo'lmas dolzarb vazifa hisoblanadi. Shular jumlasida ushbu maqsad yo'lida milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Prof. D.G'ozibekovning xorijiy investitsiyalar to'g'risidagi nazariy qarashlarida quyidagi fikrlar bayon etilgan: «Chet el investitsiyalari bir iqtisodiyot subyekti kapitalini o'zga iqtisodiyotga muayyan muddatga bog'lash bo'lib, ichki investitsiyalardan risklar kengligi bilan farqlangan holda, huquqiy sharoitlarning, investitsiya muhitining o'zgarishi bilan tavsiflanadi va natijada mamlakatlar va mintaqalar bo'ylab kapital ko'chishi yuz beradi»[1]. Ushbu fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, xorijiy

[1] G'ozibekov D. G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: «Moliya», 2003. – B. 45.

investitsiyalar bir mamlakat iqtisodiyotidan mutlaqo boshqa davlat iqtisodiyotiga ko'chuvchi kapital bo'lib, u risklar doirasi kengligi bilan ichki investitsiyalardan farqlanadi. Shuningdek, «chet el investitsiyalari mamlakatlar uchun tashqi moliyalashtirishning zaruriy va muhim manbayi bo'lgani holda, o'zi bilan birga, juda ko'p payqaladigan va sezilmaydigan aktivlar, turli-tuman texnologik, axborot, moliya oqimlarini, menejment malakalarini, jahon bozorlaridagi ish tajribalarini va boshqalarni olib kiradi. Ularga mamlakatlararo harakatlanish, ya'ni ko'chib yurish, faoliyat yuritishning huquqiy shart-sharoitlarini almashtirish, qo'shimcha risklar bilan to'qnashish va aniq maqsadlar xos».[1]

Iqtisod fanlari doktori N.Qo'ziyevaning ilmiy ishlarida xorijiy investitsiyalarning mohiyati to'g'risida: «Kelgusida foyda olish maqsadida kapitalni eksport qiluvchi xorijiy davlatlar, yuridik va jismoniy shaxslarning kapitalni qabul qiluvchi mamlakatlarga turli ko'rinishdagi boyliklar (ko'char, ko'chmas mol-mulk, intellektual boyliklar va boshq.) va ulardan olingan daromadlar (foyda, foizlar, dividendlar, litsenziya va komission mukofotlar, royalti, texnik ta'minot va boshqa mukofotlar)ni qo'yilishiga xorijiy investitsiyalar deyiladi»[2], degan ta'rif keltirilgan. Olimaning fikricha, xorijiy investitsiyalarni turli belgilariga asoslangan holda tasniflash ularning iqtisodiy mohiyatini yanada oydinlashtiradi.

Iqtisod fanlari nomzodi Q. Xoshimov ilmiy ishida: «chet el investitsiyalari – chet el mulkdorlari tomonidan ma'lum kapitalni bir iqtisodiyotdan mutlaqo boshqa mamlakat iqtisodiyotining qonun bilan ta'qiqlanmagan turli tarmoqlariga aniq va noaniq risklarni hisobga olgan holda, o'z manfaatiga erishish, nisbatan yuqori darajada samara olish maqsadida muayyan muddatga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklardir»[3], degan mazmunda ta'rif berilgan.

«Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasida: «Chet el investorlari asosan daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun

---

[1] G'ozibekov D. G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: «Moliya», 2003. – B. 45.

[2] Qo'zieva N.R. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari. Iqt. fan. dok. ilm. dar. olish uchun yoz. diss. avtoref. T.: BMA, 2008. – B. 11.

[3] Xoshimov Q.B. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni soliqqa tortish va uni takomillashtirish yo'llari. Iqt. fan. nom. ilm. dar. ol. uch. yoz. dis. avtor. T.: BMA, 2004. – B. 7.

hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat obyektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir huquqlar, chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari»[1], deb e'tirof etilgan. Ushbu qonunda tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat obyektlariga chet ellik investorlar tomonidan reinvestitsiya tariqasida qo'shiladigan daromad deganda O'zbekiston Respublikasida investitsiyalashdan olingan har qanday mablag', shu jumladan foyda, foizlar, dividendlar, royalti, litsenziya va komission mukofotlar, texnikaviy yordam, texnik xizmat ko'rsatish uchun to'lovlar va boshqa shakldagi mukofot pullari tushuniladi.

Xorijdan investitsiyalash kapital oqimining bir iqtisodiyotdan boshqasiga chiqib ketishini bildiradi, boyliklarni yanada foydaliroq shartlarda joylashtirish va investitsiyalar xorijlikka – kapital egasiga qaytishiga qadar nisbatan uzoq vaqt davomida mablag'lar oqimini ta'minlash maqsadlarini nazarda tutadi. Ularga mamlakatlararo ko'chib yurish xos bo'lib, xorijiy investitsiyalar mohiyat jihatidan o'z milliy investitsiya muhitini o'zga muhitga almashtiradi. Xavfsizlik, daromadlilik, kapitallashuv va likvidlikdan tashqari xorijiy investitsiyalarning o'ziga xos muhim belgisi – aniq maqsadlarni ko'zlashi hisoblanadi. Ularning e'tiborini tortuvchi iqtisodiyot ham o'z maqsadlariga erishishga intiladi. Bu maqsadlar samaradorlik, ishlab chiqarishni o'stirish, bozorlarga kirib borish kabi vazifalar bo'lishi mumkin. Shu sababli, o'zaro manfaatlarning mos tushishi, ishonchli munosabatlar, kirib borish sharoitlarini hisobga olish investitsiyalarning bir mamlakatdan boshqasiga ko'chishining asosi hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ichki investitsiyalardan farqli ravishda mamlakat, valuta, milliylashtirish, rekvizitsiya kabi qo'shimcha risklarga to'qnashish ehtimoliga ega bo'ladi. Demak, ularning risklar doirasi ancha keng.

Xorijiy investitsiyalarni mulkchilik shakliga ko'ra xususiy, davlat, xorijiy va aralash investitsiyalarga tasniflash maqsadga muvofiqdir. Xorijiy investitsiyalarni yo'nalish obyektiga qarab, moliyaviy va real investitsiyalarga ham ajratish mumkin. Rivojlangan

[1] O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 apreldagi «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi qonuni. // «Xalq so'zi», 1999 yil 12 yanvar, – №7. – B. 1.

mamlakatlarda moliyaviy investitsiyalarning tarkibida asosiy o'rinni xususiy mulk egalarining investitsiyalari tashkil etadi.

Xorijiy investitsiyalarni ichki investitsiyalardan farqli jihatlaridan biri, ularni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha uch guruhga ajratilgan barcha risklarning oldindan hisoblab chiqilishidadir (4.1-rasm).

Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy mohiyatini anglashda uning xususiyatlarini bilish muhim ahamiyatga ega. Xorijiy investitsiyalarning quyidagi xususiyatlarini ta'kidlash mumkin:

– xorijiy investitsiyalar bir iqtisodiyotdan ikkinchisiga ko'chayotgan kapital;

– kapitalni o'zga mamlakatga qulayroq qilib joylashtirish maqsadi;

– qo'yilgan sarmoya egasiga qaytib kelgunga qadar nisbatan uzoq muddat davomida yuqori foyda ko'rish;

– qo'shimcha risklarga ega bo'lish;



4.1-rasm. **Xorijiy investitsiyalar bilan bog'liq risklar**

– aniq maqsadlarga intilish (yuqori daromad olish, yangi bozorlarni egallash, ishonch qozonish);

– o‘zga mamlakat qonunchiligidan, imkoniyatlaridan foydalanish asosida vaqtdan unumli foydalangan holda o‘z kapitalini o‘stirish;

– rag‘batlantirish tizimi, kafolatlar, imtiyozlar, ishonchli va o‘zaro manfaatli munosabatlarning yo‘lga qo‘yilishini talab etishi;

– ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish)ni chetga olib chiqish yo‘li bilan mahsulotni arzonlashtirish, yangi bozorlarni egallash, yuqori daromad olish, boyliklarni yanada foydaliroq joylashtirish;

– o‘z milliy huquqiy sharoitlarini va o‘z milliy investitsiya muhitini kapital qabul qiluvchi o‘zga mamlakat milliy huquqiy sharoitlariga, o‘zga investitsiya muhitiga almashtirish.

Xorijlik investorlar tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutlaq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklari xorijiy investitsiyalar bo‘lib, u ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbasiga kiradi. Ular milliy iqtisodiyotga chetdan, ularning kelishini rag‘batlantirgan holda jalb qilinadi.

Bir vaqtning o‘zida milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish qator ijobiy samaralar keltiradi. Xususan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish raqobatbardosh mahsulotlarga, zamonaviy ishlab chiqarishga yuzma-yuz kelish, talabga muvofiq sifatli va arzon mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatidir. Xorijiy sarmoyadorlar bilan amaliy hamkorlik o‘rnatish orqali jahon amaliyotida mavjud bo‘lgan imkoniyatlardan foydalanish asosida quyidagi samaralarga erishish mumkin bo‘ladi:

– eng zamonaviy texnologiyalarga ega bo‘lgan ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish) faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

– yangi texnologiya, zamonaviy jihozlarni, yuqori unumli uskunalarni qo‘lga kiritish;

– yangi ish joylarini tashkil etish va aholi bandligini ta’minlash;

– ixcham, amalga oshirilgan xarajatlarni tez sur’atlar bilan qoplaydigan, yuqori samara beradigan korxonalarni qurish;

– zamon darajasida yuqori mehnat unumdorligiga erishish, mahsulot tannarxini pasaytirish, o‘z manfaatlariga erishish;

– qo‘shma korxonalar tuzish, ilg‘or tajribaga ega bo‘lish, boshqaruvni, raqobatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish;

– bozor talabini qoniqtiradigan mahsulot (xizmatlarni) yetishtirish;

– ishlab chiqarilgan mahsulot sifati va raqobatbardoshligini dunyo bozori talablariga javob beradigan qilib yetkazish;

– tadbirkorlik faoliyatini samarali tashkil etish va uni yanada kengaytirish imkoniyatlarini qo‘lga kiritish;

– jahon bozorida o‘zining mustahkam mavqeni egallash;

– daromadni ko‘paytirish, yuqori samaraga erishish, sarf etilgan mablag‘larni hech qanday talofat va yo‘qotishlarsiz tez fursatda qoplash;

– mamlakat eksport imkoniyatlarini kengaytirish va jahon bozorida «qattiq» valuta ishlab topishni o‘rganish;

– mamlakat xazinasini to‘ldirish;

– ichki, tashqi bozorda olib chiqiladigan mahsulotlar (ish, xizmat)ga bo‘lgan talabni qondirish;

– milliy va jahon iqtisodiyoti ravnaqi va jamiyat farovonligini oshirish.

Ushbu ro‘yxatni yanada davom ettirish mumkin, chunki xorijiy sheriklar bilan hamkorlik o‘rnatish, ular bilan qo‘shma faoliyat olib borish milliy iqtisodiyotimizda tub tuzilmaviy o‘zgarishlarga olib keladi, mamlakat qudratini yanada oshirib, milliy valuta mavqeyini mustahkamlaydi, aholi farovonligini ta’minlaydi, turmush tarzini yaxshilaydi.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, «Chet el investitsiyalari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonuniga ko‘ra, xorijlik investorlar xorijiy davlatlar, ajnabiy fuqarolar, fuqarolarning uyushmalari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, xorijda doimiy ravishda yashaydigan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning ahamiyati beqiyosdir. To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarish kapitalini to‘g‘ridan to‘g‘ri tovar va xizmatlar ishlab chiqarishga yo‘naltirishni anglatadi. Bunday investitsiyalar quyidagi shakllarda amalga oshiriladi: u yoki bu korxona (firmalar)lar aksiyasining nazorat paketini sotib

olish orqali; o'zining ishlab chiqarish quvvatlarini qurish orqali; qo'shma korxonalarni barpo etish orqali va h.k.

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar har qanday holatda ham xorijiy investorga investitsiyalash obyekti bo'lgan korxona, firmalarning ishlab chiqarish faoliyatini boshqarishda samarali ishtirok etishini ta'minlaydi.

Xorijiy investorlar uchun yaratilgan qulay biznes muhiti, keng huquqiy kafolat va imtiyozlar tizimi, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni rag'batlantirishga qaratilgan butun bir chora-tadbirlar majmuasi mamlakatimiz iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini tubdan ko'paytirish imkonini berdi. Natijada 2014-yil 1-yanvar holatiga xorijiy investitsiyalarning jami kapital qo'yilmalar tarkibidagi ulushi 23,1 foizni, jumladan, xorijiy investitsiyalar tarkibida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 72 foizni tashkil etdi (4.1-jadval).

4.1-jadval

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning dinamikasi[1] (foiz hisobida)

Iqtisodiyot tarmoqlari	Yillar						
	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013
Xorijiy investitsiyalarning jami investitsiyalar hajmidagi salmog'i	24,5	25,8	35,4	28,8	23,5	22	23,1
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning jami investitsiyalar hajmidagi salmog'i	20,6	20,9	30,5	25,1	21,2	16,9	16,9
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning jami xorijiy investitsiyalar hajmidagi salmog'i	84,0	80,8	86,2	87,0	78,8	79	72

Iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirishda O'zbekiston yirik xalqaro moliya institutlari, hukumat tashkilotlari va xorijiy banklarni, birinchi navbatda, mamlakatimiz bilan yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha o'zaro hamkorlik aloqalarini kengaytirishga katta qiziqish bildirayotgan OTB, Jahon banki, ITB, Yaponiya, Janubiy Koreya va Xitoy Xalq Respublikasi taraqqiyot banklari, qator Arab davlatlarining investitsiya fondlarini jalb etish masalasiga katta ahamiyat beradi.

Aynan ana shu hamkorlikning moliyaviy ko'magida kelgusi

[1] O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlari.

yillar davomida O'zbek milliy avtomagistrali uchastkalarini qurish, ichimlik suvi bilan ta'minlash tizimlarini barpo etish va rekonstruktsiya qilish, qishloq xo'jalik erlarining meliorativ holatini yaxshilash, polivinilxlorid va kaustik soda ishlab chiqarish bo'yicha yangi majmua barpo etish, qishloq xo'jaligi texnikasi va avtomobil shinalarini ishlab chiqarishni tashkil etish kabi ko'plab loyihalar amalga oshiriladi.

Yuqori texnik saviyadagi tayyor mahsulotlar ulushi oshirilishi quyidagi jihatlarga bog'liq: a) xorijiy mamlakatlardagi korxonalar o'rtasida kooperatsiya aloqalarining shakllanishiga ko'maklashish; b) yuqori texnologiya va ilm talab qiluvchi mahsulotlar ishlab chiqarilishi va ichki tizimi yaxshilanishiga xizmat qilish; v) eksportning intellektual mulk obyektlari litsenziyalarini hamda nou-xau shaklida texnik-tijorat sirlarini sotish, injiniring va lizing sohalarida xizmatlar ko'rsatish kabi turlarini rivojlantirish yo'li bilan respublikamizda erishilgan ilmiy-texnik yutuqlarning jahon xo'jaligi aylanmasiga kirib borishini tezlashtirish; g) ilmiy ishlanmalarga, xususan, amaliy fan-texnologiyalar transferti sohasidagi ilmiy ishlanmalarga bozor yo'nalishini beruvchi shart-sharoit yaratuvchi innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini ishlab chiqish; d) innovatsiya jarayonini davlat tomonidan va tijorat usulida qo'llab-quvvatlashning eng maqbul uyg'unlashuvi asosiy yo'llarini belgilab olish hamda ilmiy-texnik ishlanmalarni tijorat ahamiyatiga molik natijalar darajasigacha etkazish; e) o'zbek olim-mutaxassislarining xorijdagi etakchi institutlar, tashkilotlar va firmalar bilan hamkorligini kengaytirish; yuqori darajali marketing tadqiqotlarini o'tkazish, tijorat va texnologiya menejmenti sohasidagi yutuqlarni o'rganish, xorijiy bozorlarning konyunkturasi, sig'imi hamda raqobatchilarning narx siyosati, kooperatsiya, qo'shma korxonalar tashkil etish bo'yicha hamkorlar qidirish yuzasidan tahliliy ma'lumotlarni o'rganish va h.k.

Xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb etish strategiyasi bo'lajak xorijiy investorlarning manfaatlarini hamda milliy iqtisodiyotga zarar keltirmagan holda ularni qondirish imkoniyatlarini o'rganib chiqishga asoslanadi. Buning uchun bir tomondan, iqtisodiyotni tarkiban qayta qurishga qaratilgan bir qator aniq loyihalarni amalga oshirish zarur bo'ladi va ikkinchi tomondan, ichki investitsiya resurslari cheklangan bir sharoitda

xorijiy investitsiyalarning ahamiyati juda yuqori baholanadi.

Ishlab chiqarishni xalqarolashtirish zamonaviy iqtisodiyotning asosiy belgilaridan biridir. Hozirda «ochiq» iqtisodiyot jahon xo'jaligi bilan uch asosiy yo'l – tovarlar va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha xalqaro savdo, xalqaro sarmoya harakati, milliy valyutalarni xalqaro ayirboshlash vositasida bog'langan.

Boy mineral resurslarning mavjudligi ko'plab xorijiy kompaniya va firmalarni qiziqtirmoqda, ular bu sohalarni rivojlantirish uchun iqtisodiyotimizga mablag' kiritishga tayyorliklarini bildirishmoqda. Aynan mana shu tarmoqlar respublikaning iqtisodiy mustaqilligini, barqarorligini ta'minlaydi va xalq xo'jaligi barcha tarmoqlarining jadal o'sishi, bo'lg'usi yuksalishning muhim poydevori bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonga hozirda tadbirkorlik xorijiy investitsiyasidan tashqari ikki tomonlama tuzilgan shartnomalarga ko'ra, eksport uchun qisqa va o'rta muddatli kreditlardan foydalanish ham zarur bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonning tashqi moliyaviy mablag'larga bo'lgan ehtiyoji bevosita tadbirkorlik investitsiyalari orqali faqatgina kelgusi o'rta va uzoq muddatlardagina qondirilishi mumkin, chunki bu investitsiya samarasi birdaniga emas, asta-sekinlik bilan bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, respublika iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni keng ko'lamda jalb qilishning zarurligi quyidagi holatlardan kelib chiqadi:

– ishlab chiqarish quvvatlarining jismoniy va ma'naviy eskirganligi, ularning qayta tiklashga yoki texnik jihatdan qayta jihozlashga yoki umuman, yangilashga oid bo'lib qolganligi;

– sanoat tarmog'ida moddiy-texnika bazasining o'ta pastligi va ko'pgina zarar ko'rib ishlaydigan korxonalarning mavjudligi;

– respublika milliy daromadida jamg'arish bilan iste'mol o'rtasidagi nisbatning iste'mol tomonga og'ishi ustunligi va buning natijasida jamg'arishning investitsiya manbai sifatida hanuz kamligi;

– O'zbekistonning tabiiy boyliklarga boyligi va bu erda ko'plab qayta ishlovchi korxonalarni qurish imkoniyatining mavjudligi;

– aholi sonining o'sib borayotganligi (mehnat resurslari) va kichik zamonaviy ixcham korxonalarni barpo etish, ularni mehnat resurslarining manbai bo'lmish qishloq hududlarida barpo etishning muhimligi;

– respublika eksportida xom ashyo salmog'ini kamaytirish va

sifatli, yuqori talablarga javob beradigan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish zarurligi va boshqalar.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida xorijiy investitsiyalarning roli ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, boshqaruv tajribalarini o'zlashtirish, ishsizlik muammosini hal etishga ko'maklashish, O'zbekiston iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ko'plab qayta ishlovchi korxonalarni qurish bilan izohlanadi.

4.2. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish shakllari. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar – xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning shakli sifatida

Ma'lumki, milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning bir qancha shakllari mavjud. Xorijlik investorlar O'zbekiston Respublikasi hududida investitsiyalarni quyidagi yo'llar bilan amalga oshirishlari mumkin:

1. O'zbekiston Respublikasining yuridik va (yoki) jismoniy shaxslari bilan birgalikda tashkil etilgan xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarining, banklar, sug'urta tashkilotlari va boshqa korxonalarning ustav jamg'armalarida va boshqa mol-mulkida ulush qo'shib qatnashish. Bunga misol qilib XIIKlarni (ustav kapitalining kamida 30 foizi xorijlik investorga tegishli bo'lishi kerak) keltirish mumkin, ya'ni qo'shma korxonalar tashkil etish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish eng ommabop shakl hisoblanadi.

2. Xorijlik investorlarga to'liq qarashli bo'lgan xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarini, banklar, sug'urta tashkilotlari va boshqa korxonalarni barpo etish va rivojlantirish, ya'ni sof xorijiy investitsiyali korxonalar tashkil etish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Bunda jami (100 %) ustav kapitali xorijlik investorga tegishli bo'ladi

3. Mol-mulk, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qarz majburiyatlarini sotib olish asosida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

4. Intellektual mulkka, shu jumladan, mualliflik huquqlari, patentlar, tovar belgilari, foydali modellar, sanoat namunalari,

firma nomlari va nou-xauga, shuningdek, ishchanlik nufuziga (gudvillga) huquqlar kiritish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

5. Konsessiyalar, shu jumladan, tabiiy resurslarni qidirish, ishlab chiqish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga bo'lgan konsessiyalar olish asosida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

6. Savdo va xizmat ko'rsatish sohalari obyektlariga, turarjoy binolariga ular joylashgan yer uchastkalari bilan birgalikda mulk huquqini, shuningdek, yerga egalik qilish va undan foydalanish (shu jumladan, ijara asosida foydalanish) hamda tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqlarini sotib olish orqali xorij sarmoyasini jalb qilish.

7. Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

8. Xalqaro lizing amaliyotini rivojlantirish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning eng ommabop shakli hisoblangan XIIKlarni tashkil etish va ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'lida qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Keling, aziz o'quvchi, shu yerda «xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxona»ga aniqlik kiritsak. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxona, deb nimaga aytiladi? Unga qanday ta'rif berish mumkin? Chunki, XIIK nimaligini to'liq anglamay turib, u haqda fikr bildirish ma'noga ega emas.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida «Korxona – yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt. Mahsulotlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish uchun tashkil etiladi, iqtisodiy faoliyatning xilma-xil turlari bilan shug'ullanadi. Davlat, munitsipial, jamoa, qo'shma, yakka (oila, xususiy) korxonalar bor»[1], deya ta'riflanadi. Mazkur ta'rifning e'tiborli jihati shundaki, unda korxonaning «qo'shma korxona» shaklida ham tashkil etilishi e'tirof etilgan. Chunki, qo'shma korxonaga berilgan ta'riflarning aksariyatida mazkur masala e'tibordan chetda qolgan. Rossiyalik iqtisodchi olimlardan L.Makarevich: «Korxona – mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekti bo'lib, iste'mol talabini qondirish va foyda olish maqsadida qonunchilik asosida tashkil etiladi, tovarlar ishlab chiqarish va

[1] O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.: «O'ME» Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – B. 48.

xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanadi»[1], deb ta’rif beradi. Muallif ushbu ta’rifda qo‘shma korxonalarni e’tibordan chetda qoldirganligi ko‘rinib turibdi.

Shuningdek, iqtisodchi olimlar B.Rayzberg, L.Lozovskiy, E. Stradubtsevalar ta’rifiga ko‘ra: «qo‘shma korxona, asosan, yuridik shaxslar tomonidan, mahalliy korxonalar yoki xorijiy hamkorlarning shaxsiy mablag‘lari hisobidan ta’sischi joylashgan mamlakatda tashkil etilgan xo‘jalik tashkilotidir. Mulkiy shakli jihatidan aksiyadorlik, mas’uliyati cheklangan yoki sherikchilik ko‘rinishida bo‘lishi mumkin»[2]. Mualliflar tomonidan «qo‘shma korxona»ga berilgan ta’rif ayrim cheklanishlardan holi emasligi ko‘rinib turibdi. Jumladan, so‘nggi ta’rifda «ta’sischi joylashgan mamlakatda tashkil etilgan», deya qayd etilgan jumla munozaralidir. Nazarimizda, mazkur jumla qo‘shma korxonalarning iqtisodiy mohiyatini ochib berishga bevosita xizmat qilmaydi. Chunki, qo‘shma korxonaning ta’sischisi ikkinchi mamlakatda joylashgan bo‘lib, uning o‘zi boshqa mamlakat hududida tashkil etilishi amaliyotdan ma’lum.

A.Borisov tomonidan tuzilgan «Katta iqtisodiy lug‘at»da: «Qo‘shma korxona ikki yoki undan ortiq yuridik shaxslar tomonidan tashkil topgan xo‘jalik yuritish shaklidir. Qo‘shma korxona mahalliy tadbirkorlar yoki xorijiy hamkorlar ishtirokida tashkil etiladi. Ta’sischilardan biri jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin. Qo‘shma korxona ustav kapitalining hamkorlikda shakllantirilishi va ta’sischilardan biri joylashgan hududda tashkil etilishi uning o‘ziga xos xususiyatga ega ekanligidan dalolat beradi», [3] deya ta’riflangan. Fikrimizcha, qo‘shma korxonaga berilgan mazkur ta’rif mantiqiy jihatdan bir-biriga uzviy bog‘lanmagan. Shu bilan birga, qo‘shma korxonaning ta’sischilaridan faqat biri emas, ikkalasi ham jismoniy shaxslar bo‘lishi mumkin, ya’ni ikkita mamlakatning vakili hisoblangan jismoniy shaxslar o‘z mablag‘larini qo‘shma korxonaning ustav kapitaliga kiritish asosida uni tashkil etishi ham mumkinligi e’tirof etilmagan.

O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi «Chet el investitsiyalari to‘g‘risida»gi qonunning 6-moddasiga ko‘ra,

---

[1] Макаревич Л.М. 200 правил бизнеса. М.: «Дело и Сервис», 2003. С. 125.

[2] Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стрaдубцева Е.Б. Современный экономической словарь. 4-изд., перераб. и доп. М.: «Инфра-М», 2005. С. 235.

[3] Борисов А.Б. Большой экономический словарь. М.: «Книжный мир», 2005. С. 126.

O‘zbekiston Respublikasi hududidagi xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar deganda aksiyalarining (ulushlari, paylarining) yoki ustav jamg‘armasining kamida o‘ttiz foizini xorijiy investitsiyalar tashkil etadigan korxonalar tushuniladi. Ular O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid kelmaydigan har qanday tashkiliy-huquqiy shakllarda faoliyat ko‘rsatadilar. XIIK qatnashchilaridan biri ushbu qonunga ko‘ra xorijlik investor bo‘lishi shart.

Umumlashtiradigan bo‘lsak, ikki yoki undan ortiq mahalliy va xorijiy mamlakat subyektlari ishtirokida tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish, foyda olish maqsadida yuridik shaxs sifatida tashkil etiladigan, mamlakatning qonunchilik talablari asosida tuzilgan xo‘jalik yurituvchi subyektga qo‘shma korxona deyiladi.

XIIK uni ta’sis etish yo‘li bilan yoki ilgari xorijiy investitsiyalar ishtirokisiz ta’sis etilgan korxonada ishtirok etish ulushining (payining, aksiyalarining) yoxud bunday korxona butunlay, shu jumladan, xususiylashtirish jarayonida xorijlik investor tomonidan sotib olinishi natijasida tashkil etilishi mumkin.

XIIK davlat ro‘yxatiga olingan paytdan e’tiboran yuridik shaxs huquqiga ega bo‘ladi. XIIKlar tashkil etish va ularni davlat ro‘yxatiga olish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Xorijlik investorlar O‘zbekiston Respublikasi hududida XIIKlar tashkil etishlari hamda O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan o‘zlariga berilgan barcha huquqlar, kafolatlar va imtiyozlardan foydalanishlari mumkin.

XIIKlar tashkil etish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning keng tarqalgan shakllaridan biri hamkorlikda qo‘shma korxonalarni tashkil etishdir. O‘zbekiston Respublikasida qo‘shma korxona deganda xorijiy investor faqat yuridik shaxs bo‘lgan, nizom kapitalining eng kam miqdori 150000 AQSh dollariga teng bo‘lgan ekvivalent summani tashkil etgan korxonalarga aytiladi[1]. XIIK nizom jamg‘armasining 150000 AQSh dollaridan kam bo‘lmasligi, asosan, sifatsiz mahsulotlarning oldi-sotdisi va ularni respublikaga import qilish ishlari bilan shug‘ullanishga ixtisoslashgan kichik XIIKlarning keragidan ortiqcha kirib kelishining oldini olish maqsadida belgilangan.

[1] Vahobov A. va boshq. Xalqaro moliya munosabatlari: Darslik. /Mual.: A.Vahobov, N.Jumayev, U.Burxanov. T.: «Sharq», 2003. – B. 277.

O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida XIIKlarning sho‘ba korxonalari, filiallari, vakolatxonalari va boshqa alohida bo‘linmalari tashkil etilishi mumkin.

XIIKlar ixtiyoriy ravishda O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida uyushmalar, konsernlar, korporatsiyalar, konsorsiumlar va boshqa xo‘jalik birlashmalari tashkil etishi, amal qilib turgan birlashmalar tarkibiga to‘la huquqli a’zo sifatida kirishi mumkin.

XIIKlar qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi huquqlarga ega: O‘zbekiston hududida, shuningdek, undan tashqarida har qanday valutada, har qanday bankda hisobvaraqlar ochish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish; xorijiy valutada ssudalar olish va uni qaytarish; XIIKlarning hisobvaraqlaridagi mablag‘lardan foydalanishni cheklash yoxud mablag‘larni majburiy olish davlat boshqaruv organlari tomonidan faqat qonunda belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

XIIKlarni tashkil etish, ular faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator muhim jihatlarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin:

– birinchidan, iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida XIIKlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun quyidagi bosqichlar amal qilishini ta’kidlash mumkin: korxonani ochish uchun sherik tanlash; qo‘shma korxona ochish haqida qaror qabul qilish; qo‘shma korxonani ochish va faoliyatini rejalashtirish;

– ikkinchidan, qo‘shma korxonani tashkil etish sabablarini ichki, tashqi va strategik turkumlarga ajratish mumkin;

– uchinchidan, investitsiyalarni jalb qilishni tahlil qilishda mamlakat, hudud, soha, korxona miqyosidagi xususiyatlarini o‘rganib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur tizimdagi har bir loyihaning investitsiyalarni jalb qilish tartiblari barcha tarkibiy qismlarning xususiyatlari bilan belgilanadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatuvchi XIIKlarga amaldagi soliqlar va bojlar yuzasidan qator imtiyozlar belgilangan. Ushbu imtiyozlarning amal qilishi investitsiya siyosatining asosini tashkil etib, o‘z ijobiy samarasini bermoqda. 2012-yilda Janubiy Afrika Respublikasining «Sasol» kompaniyasi va Malayziyaning «Petronans» korporatsiyasi bilan hamkorlikda qiymati 4 milliard dollardan ziyodni tashkil etadigan, tozalangan metan asosida sintetik suyuq yoqilg‘i ishlab chiqarish bo‘yicha

katta istiqbolga ega bo'lgan yirik loyihani amalga oshirish boshlandi. Ushbu loyiha asosida barpo etiladigan zavod dunyodagi sanoqli korxonalardan biri bo'lib, u sintetik suyuq yoqilg'i – suyultirilgan gaz, aviakerosin va «premium klass» toifasidagi, ya'ni «yevro – 4» standartidan kam bo'lmagan dizel yoqilg'isi ishlab chiqaradi[1].

XIIKlarni tashkil etishni ichki, tashqi va strategik sabablarga bo'lish mumkin (4.2-jadval).

4.2-jadval

Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarni tashkil etish sabablari

Ichki sabablar	Investitsiya muhitining ustunliklaridan foydalanish
	Risklarni taqsimlash
	Ishlab chiqarish miqyosida tejash
	Boshqaruvning yangi usullarini o'rganish
	Xorijiy bozorlarga chiqishni jadallashtirish
	Shartnoma xarajatlarini kamaytirish
Tashqi sabablar	Jahon bozoriga chiqish
	Siyosiy keskinlikning yumshashi
	Milliy hukumat talablari
	Samarali raqobatni vujudga keltirish
Strategik sabablar	Mustahkam xomashyo bazasiga ega bo'lish
	Texnologiyalar transferti
	Ishlab chiqarish diversifikatsiyasi
	Mamlakatda uzoq vaqt faoliyat olib borish imkoniyati

Respublikada tashkil etilgan XIIKlarning mintaqalar bo'yicha joylashuvi notekis. Hozirgi kunda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning aksariyati Toshkent shahriga va Toshkent viloyatiga, Samarqand viloyati, Andijon va Farg'ona viloyatlariga to'g'ri kelmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasida, Surxondaryo, Xorazm va Jizzax viloyatlarida ushbu ko'rsatkichlarning salmog'i ancha past. Tahlillarning ko'rsatishicha, respublikamizda tashkil etilgan XIIKlarning aksariyati yirik shaharlarda, markazga yaqin joylarda tashkil etilib, o'z faoliyatini yuritmoqda.

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi: Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlarni va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. // «Xalq so'zi», 2013-yil 19-yanvar, №13. – B. 1.

Mamlakatimizda XIIKlar faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ularga soliq va bojxona imtiyozlari, imtiyozli kreditlar, qonun o'zgarmasligi kafolatlari, sug'urta va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shakllarda amalga oshirilmoqda.

XIIKlar faoliyatining tahlili quyidagi xuloslarni shakllantirish imkonini beradi:

– mamlakatimizning sust rivojlanayotgan hududlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish yuzasidan olib borilayotgan chora-tadbirlarni faol davom ettirish zarur. Bunda hududiy boshqaruv organlarining turli sohalardagi investitsiya loyihalarining amaliyotga samarali tatbiq etilishi yuzasidan mas'uliyatini oshirish lozim;

– har bir hudud bo'yicha tahliliy ma'lumotlar bazasini shakllantirish yuzasidan amaliy tadbirlar ishlab chiqish va xorijiy investorlarni hududning eksport imkoniyatlari bo'yicha zaruriy ma'lumotlar bilan ta'minlash;

– investitsiyalarni keng ko'lamda jalb qilish maqsadida mamlakatimizning kam rivojlangan hududlarida infratuzilmalarni rivojlantirish dasturlari bajarilishi yuzasidan davlat monitoringini o'rnatish. Bunda, ayniqsa, telekommunikatsiya va mexmonxona xo'jaligi sohalarini rivojlantirishga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

4.3. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda erkin iqtisodiy hududlarning zarurligi va ahamiyati

O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalar, xususan, xorijiy investitsiyalar oqimini yanada ko'paytirishda jahon amaliyotida faol rivojlanib borayotgan erkin iqtisodiy hudud (EIH)lar faoliyatini yo'lga qo'yish va rivojlantirish mihim ahamiyatga ega.

Jahon amaliyoti tajribasi shuni ko'rsatadiki, EIHlar milliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bilan birgalikda, ishlab chiqarishga yangi yuqori texnologiyalarni olib kirish, zamonaviy xorijiy menejment va marketing tajribalaridan foydalanish, ichki bozorni import o'rnini bosuvchi tovarlar bilan to'ldirish, mamlakat eksport salohiyatini yanada oshirish, hududlarda yangi ish o'rinlari yaratish, valuta tushumlari kirib kelishini ko'paytirish va pirovardida, milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi kuchayishiga keng yo'l ochib beriladi.

Iqtisodchi olimlar tomonidan erkin iqtisodiy hudud tushunchasining mazmuni va mohiyati xususida turli fikrlar mavjud. Hozirgi kungacha iqtisodiy adabiyotlarda EIHlarga 30 xilga yaqin ta'rif berilmoqda. Chunki, na xorijiy adabiyotlarda, na mahalliy adabiyotlarda EIHning ko'pchilik tomonidan qabul qilingan umumiy belgilari yoki umumiy ko'rsatkichlari ko'rsatib o'tilmagan. Turli davrlarda EIHning mohiyatidan kelib chiqqan holda turlicha ta'riflanmoqda. Masalan, iqtisodchilardan A.Kuznetsov: «An'anaviy ma'noda EIH davlatning suveren hududi bo'lib, u xorijiy tavorlar hech qanday bojxona to'lovlarisiz saqlanishi, sotilishi yoki xarid qilinishi mumkin»[1], deb ta'riflaydi.

I.Faminskiy fikricha: «Erkin iqtisodiy hudud shunday hududki, uning chegaralarida ko'rsatilgan mamlakatda umum qabul qilingan xo'jalik faoliyati tizimiga nisbatan imtiyozli rejim amal qiladi»[2]. Ushbu talqin bilan N.Smorodinskayaning ilmiy fikri hamohangdir. U «Erkin iqtisodiy hudud milliy iqtisodiyotning shunday qismiki (geografik hududning bir qismi, voha, xo'jalik faoliyati sektori yoki alohida korxona), u yerda mamlakatning boshqa hududlarida qo'llanilmaydigan ma'lum bir imtiyozlar, rag'batlar tizimi kiritilgan va amal qiladi».[3]

V.Ignatov va V.Butovlar EIHga yanada kengroq ta'rif beradilar. Ularning fikricha: «Erkin iqtisodiy hudud – bu mahalliy hamda xorijiy tadbirkorlar faoliyat yuritishi uchun maxsus imtiyozli iqtisodiyot amal qiladigan chegaralangan hudud, shahar yoki dengiz va aviatsiya portlari»[4].

1973-yil 18-mayda Kioto shahrida bo'lib o'tgan konvensiyada EIH tushunchasiga rasman izoh berilgan. Unda yozilishicha: «Erkin iqtisodiy hudud bu ma'lum bir davlat hududining shunday qismiki, unga olib kirilgan tovarlar bojxona hududidan tashqaridagi tovar sifatida qaralib, u bojxona tekshiruvidan va soliqlaridan ozod etiladi»[5]. Bizning fikrimizcha, bu ta'rifda turli xildagi EIHlarning asosiy xususiyatlari yoritib o'tilgan, lekin bu

---

[1] Кузнецов А. Свободные зоны и национальная экономика. // «Мировая экономика и международные отношения». – №12. 1990. С. 24.

[2] Иностранные инвестиции России: современной состояние и перспективы. / Сост. И.П. Фаминский. М.: «Международные отношения», 1995. С. 448.

[3] Смородинская Н.В. Свободные зоны и проблема экономического подъема в России. М.: Институт экономики «РАН», 1996. С. 36.

[4] Игнатов В.Г., Бутов В.И. Свободные экономические зоны. М.: «Ось-89», 1997. С. 192.

[5] Рыбаков С.А., Орлова Н.А. Особые экономические зоны в России. М.: «Вершина», 2006. С. 248.

faqat tovarlarni hududga olib kirish va olib chiqib ketishga nisbatan to'g'ridir. Ushbu tushunchadan ko'rinib turibdiki, EIH tom ma'noda erkin emas, balki nisbatan erkin hududdir. Bu hududga olib kirilgan tovarlar bojxona to'lovlaridan, import solig'i va import nazarotilardan ozod etilgani uchun ham bu hudud erkin iqtisodiy hudud, deb ataladi. Bu shuni anglatadiki, EIHga xorijdan olib kelingan tovarlar qabul qiluvchi davlatga olib kelingan, deb e'lon qilinmaydi. Shu bilan birga, qonunlar tovar egalarini va sarmoyachilarni mavjud iqtisodiy huquqiy tartibotdan ozod qilmaydi, balki uni yengillashtiradi.

O'zbekiston Respublikasining «Erkin iqtisodiy zonalar to'grisida»gi Qonuniga ko'ra, erkin iqtisodiy zona – mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo'lgan maxsus ajratilgan hududdir.

Erkin iqtisodiy zonalar – shunday geografik hududki, unda mamlakatda qabul qilingan xo'jalik faoliyati tartibiga qaraganda imtiyozli soliq to'lash tartibi joriy etiladi. Boshqacha ifodalaganda, ushbu hududda davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi kamaytiriladi va bu milliy iqtisodiy makonning bir qismi bo'lib, mamlakatning boshqa hududlarida qo'llanilmaydigan ma'lum imtiyozlar tizimi joriy etiladi. Erkin iqtisodiy zona – mamlakat hududining imtiyozli bojxona, valuta, soliq, viza va mehnat rejimlari joriy etilgan maxsus ajratilgan qismi.

EIHga eng umumiy tavsif qilib shuni aytish mumkin, u shunday hududki, bu yerdagi rag'batlantirishlar, imtiyozlar (soliq, bojxona, ma'muriy), litsenziyalash, vizalarni rasmiylashtirish, bank faoliyatlari, mulkchilik munosabatlariga oid yengilliklar bu mamlakatning boshqa hududlarida amal qilmaydi. Boshqacha qilib aytganda, u anklav, ya'ni bu bir mamlakat hududining yoki qismining har taraflama boshqa mamlakat yoki shu mamlakatning boshqa hududlari bilan o'ralishidir. Bu hududda iqtisodiyotga davlatning aralashuvi ma'lum bir darajada chegaralanadi. Bu hududda mamlakatning boshqa hududlarida amal qilinmaydigan ma'lum imtiyozlar beriladi.

Davlatning EIHni tashkil etish orqali maxsus hududlarga investitsiya oqimini kuchaytirishga qaratilgan intilishlarini T.Danko

va Z.Okrutlar ta'kidlab o'tadilar. Ular EIHni «qulay investitsiya muhitini yaratish uchun hamda ishlab chiqarishni, savdo-sotiqni, ilmiy faoliyatni rag'batlantiruvchi omil, mexanizm», deb biladilar[1].

Iqtisodiy lug'atlarda EIHning xorij investitsiyalarining kirib kelishini rag'batlantirishiga urg'u berilgan. U yerda yozilishicha: «Erkin iqtisodiy hudud – xorij kapitali ishtirokidagi faoliyatni rag'batlantiruvchi, imtiyozli valuta- moliyaviy va anchayin qulay soliq rejimlariga ega bo'lgan hududdir» [2]. Biroq, professor E.Avdokushenning fikriga ko'ra, mamlakat xorij investitsiyalariga butunlikcha yo'l ochib berishni istamagan holda, balki investitsiyalarni ma'lum bir hududga yoki sohaga yo'naltirish niyatida, mamlakatning ba'zi yerlarida EIHlarni tashkil qiladi. Uning qayd etishicha, so'ngi paytlarda davlatlar o'rtasida boshqa mamlakatlardan investitsiyalarni jalb qilish uchun yaratib berilayotgan shart-sharoitlar, imtiyozlar borasida kuchli raqobat bormoqda. Demak, bundan xulosa qilsak, bu kurashda EIH «jahon xo'jaligi miqyosida ko'chib yurgan kapitallar uchun o'ziga xos qopqon»[3], deb hisoblasa bo'ladi.

Iqtisodiy ilmiy adabiyotlarda, ko'pincha, EIHga investorlarni nima jalb qilishi yuzasidan baxs yuritiladi. Ba'zi bir olimlar, bu masalaning yechimi, faqatgina qulay rejim, xo'jalik yuritishning maxsus sharoiti, deb hisoblaydilar. Xususan, Ya.Druzik ko'rsatishicha, «...har qanday erkin iqtisodiy hududning rivojlanishidagi muhim sababchisi imtiyozlardir (bo'lib hisoblanadi)...»[4].

Boshqa bir olimlar guruhi, masalan, V.Ivchenko, L.Samoylova, A.Kuznetsovlar EIH rejimi taklif etadigan imtiyozlar tizimi, har doim ham xorijiy investitsiyani jalb etishda asosiy omil bo'lib hisoblanmaydi, deb biladilar. Olimlarning yozishicha, «xorijiy investorlar uchun imtiyozlar hal qiluvchi emas, ularni, ko'proq, mamlakatdagi siyosiy va iqtisodiy barqarorlik, xususiy mulkka nisbatan bo'lgan munosabat, erkin xalqaro bitim va shartnomalar qiziqtiradi»[5].

---

[1] Данько Т.П., Окрут З.М. Свободные экономические зоны в мировом хозяйстве. М.: «ИНФРА-М», 1998. – С. 31.

[2] Краткий внешнеэкономический словарь-справочник. Под редакцией В.И. Рыбалкин. М.: «Международные отношения», 1991. С.82.

[3] Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения. М.: «Юрист», 1999. С. 162.

[4] Друзик Я.С. Свободные экономические зоны. – Минск, 2000. С. 14.

[5] Ивченко В.В., Самойлова Л.Б. Свободные экономические зоны в зарубежных станах и России. Учеб. пос.

Bizning fikrimizcha, EIH o'ziga investitsiyalarni mamlakatdagi siyosiy va iqtisodiy barqarorlik bilan bir qatorda, EIH qulay joyda joylashishi (qo'shni davlatlarga chiqish yo'llari, dengiz portlari, aviaportlar, temiryo'llar, avtomobil yo'llari, tabiiy resurslarga boy, malakali ishchi kuchi ko'p va arzon), xorijiy va mahalliy investorlarni rag'batlantiradigan va huquqlarini kafolatlaydigan puxta ishlab chiqilgan huquqiy bazaning mavjudligi, ishlab chiqarish hamda tijorat infratuzilmasining rivojlanganligi va albatta, qulay iqtisodiy konyunktura – bu har qanday investorni o'ziga jalb qiluvchi kuch, deb bilamiz.

A.Kuznetsov fikriga ko'ra, EIHda belgilangan imtiyozlar va preferensiyalar – bu xorij kapitali va zamonaviy texnologiyaning monopol egalari qatnashadigan, transmilliy korporatsiyalarni jalb qilish uchun raqobat kurashining natijasi. Bu olim, EIHni tashkil etishda, birinchi o'rinda, haddan tashqari ko'p va arzon ishchi kuchini qo'llashga intilish turadi, deb ta'kidlaydi. Uning yozishicha, «... rivojlanayotgan mamlakatlarda EIHni tashkil etish orqali ishchi kuchi, alohida turdagi xomashyo, ba'zi bir mahalliy mahsulotlar «eksporti» amalga oshiriladi»[1].

Ko'pincha, olimlar EIHni davlatdan mustaqil bo'lan iqtisodga ega, deb qarashadi. A.Kuznetsov fikricha: «moliyaviy rejim nuqtayi nazaridan qaraganda, erkin iqtisodiy hudud davlat chegaralaridan tashqarida joylashgan»[2], yaponiyalik olim T.Simadzaki «Erkin iqtisodiy hududda milliy qonunchilikdagi ba'zi bir moddalar faoliyati to'xtatib qo'yilgan»[3], deb hisblaydi.

Ayni paytda T.Danko va Z.Okrutlar ko'rsatishicha, «Erkin iqtisodiy hudud hamisha davlat yurisdiksiyasi ostida bo'ladi».[4]

Ushbu masala bo'yicha muallif professor K.Semenov fikriga qo'shiladi, Uning yozishicha, «...Erkin iqtisodiy hududning davlatga nisbatan bo'lgan mustaqilligi absolut emas, balki nisbiydir...» va «...EIHdagi qonun mahsulot egalari va investorlarni mavjud iqtisodiy huquqiy tartibotdan butkul ozod etmaydi, balki

---

– Калининград, 1999.

[1] Кузнецов А. Свободные зоны и национальная экономика. // «Мировая экономика и международные отношения». – №12, 1990. С. 22.

[2] *Кузнецов А. Свободные зоны и национальная экономика. // «Мировая экономика и международные отношения». – №12, 1990. С. 24.*

[3] *Смородинская Н.В. Организация свободных экономических зон в Российской Федерации. Анализ политико-правовой базы и возможных перспектив. М.: «Центральный банк РФ», 1996. С. 29.*

[4] Данько Т.П., Окрут З.М. Свободные экономические зоны в мировом хозяйстве. М.: «ИНФРА-М», 1998. С. 35.

uni yengillashtiradi. Bu hudud, unga olib kirilgan tovarlarga turli boj va soliqlar to'lanmasligi yuzasidan erkindir».[1]

O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borgan M.Raimjonova EIHni quyidagicha ta'riflagan: «mamlakat hududida maxsus iqtisodiy rejim va ma'muriy boshqaruvga ega bo'lgan, davlat aralashuvi kamaytirilgan va ayni vaqtda uning nazoratidan butkul ozod etilmagan, balki xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyat yuritishi uchun mamlakatning boshqa hududlarida amal qilmaydigan imtiyoz va rag'batlantirishlar beriladigan hudud – erkin iqtisodiy hudud, deb tushuniladi»[2].

Iqtisodiy adabiyotda turli xildagi hududlarning mohiyatini yoritishda «erkin iqtisodiy hudud» terminidan foydalaniladi. Biroq, bu termin uning mohiyatini to'liq ifoda eta olmaydi. Bunda qo'llaniladigan iqtisodiy qoidalar, maxsus ma'muriy tartib, shu hududda faoliyat yuritadigan tadbirkorlarni aniq belgilangan huquqiy va xo'jalik rejimlaridan butunlay ozod qilmaydi, balki ularni yengillashtiradi, ma'lum imtiyozlar beradi. Ko'rinib turibdiki, EIH tom ma'noda erkin emas, balki nisbatan erkin hududdir. Bu hududga olib kirilgan tovarlar bojxona to'lovlari, import nazoratlaridan ozod etilgani uchun ham bunday hudud – erkin iqtisodiy hudud, deb ataladi. Shu bilan birga, qonunlar tovar egalari va investorlarni mavjud iqtisodiy-huquqiy tartibotdan ozod qilmaydi, balki uni yengillashtiradi. Shuning uchun, fikrimizcha, bunday hududni «erkin» emas, balki «maxsus» iqtisodiy hudud, deb atash o'rinlidir.

EIHlar faoliyat yuritayotgan 123 ta mamlakatlar orasida eng ko'pi AQShga to'g'ri keladi. AQShda EIHlarning soni 240 tadan oshadi[3]. AQShda EIHlar 1930 yillarda tashkil qilina boshlagan. U «Tashqi savdo hududlari to'g'risida»gi (1934 y.) Qonun bilan birgalikda, tashqi iqtisodiy faoliyatni jadallashtirish va ishsizlik darajasini pasaytirish maqsadida tashkil qilingan.

EIHlar Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Fransiyada va mintaqaning boshqa mamlakatlarida ham EIHlar tashkil qilingan bo'lib, ular muvaffaqiyat bilan faoliyat yuritayapti. U erda,

---

[1] Друзик Я.С. Свободные экономические зоны. – Минск, 2000. С. 29.

[2] Raimjonova M.A. O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish. Iqt. fan. nom. ilm. dar. olish uchun yoz. diss. avtoref. T.: BMA, 2012. – B. 8.

[3] http://ivr.nm.ru/2001/rus/p0107/p010703.htm E.Неклюдова. СЭЗ.

ko‘proq, turli xildagi erkin savdo hududlari, ilmiy parklar va ofshor markazlari tarqalgan.

Markaziy va Sharqiy Yevropa hamda Xitoy mamlakatlarida 1980-yillarda EIHlar xorij kapitalini va texnologiyasini jalb qilish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish maqsadlarida tashkil qilina boshladi. Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida, asosan, mahsulot-omborxona va eksport-ishlab chiqarish hududlari tashkil qilingan va ularga soliq hamda bojxona imtiyozlari berilgan.

Rossiyada EIHlar 1980-yillar oxiri 1990-yillar o‘rtalariga kelib tashkil qilina boshlandi. Biroq, Rossiyada tashkil qilingan barcha EIHlar ham vaqt o‘tishi bilan tajribalarga dosh berolmadi. Bunga ularga (EIHga) nisbatan mamlakat siyosatining munosabati ham ta’sir ko‘rsatgan. Ular ichida muvaffaqiyat qozonganlardan Primorya o‘lkasining «Naxodka» EIH va Kaliningrad viloyatidagi maxsus iqtisodiy hududlarni aytish mumkin.

Shunday qilib, dunyodagi EIHlar soni doimiy ravishda ortib bormoqda, ularni tashkil qilishdagi geografik chegaralari kengayib, ularning shakli o‘zgarib bormoqda, tashqi savdo hududlaridan eksport-ishlab chiqarish va kompleks hududlarga aylanishi kuchayib bormoqda. Xo‘jalik faoliyati mohiyati tovar ayriboshlashdan tovar ishlab chiqarish tomon boradi, xizmat ko‘rsatishning oddiy turlaridan ilmiy darajada murakkab bo‘lgan turlariga o‘zgarib boradi. Yuqoridagilarga muvofiq, shuni xulosa qilish mumkinki, EIHlar milliy iqtisodiyotning jahon xo‘jaligi bilan integratsiyalashuvida muhim omilga aylandi.

O‘z hududida EIHni tashkil qilayotgan davlat uchun, EIHlar pirovard maqsad hisoblanmaydi. Ko‘pgina hollarda, EIHlar mamlakat milliy iqtisodiyoti rivojlanishining umumiy strategiyasiga qo‘shilib ketadi. EIHni tashkil qilishdan umumiy maqsad ommaviy ahamiyatga ega bo‘lgan makroiqtisodiy masalalarning yechimiga qaratilgan bo‘ladi. Xususan:

– iqtisodiy o‘sish darajasini tezlashtirish;

– sanoatni yangilash va zamonaviylashtirish;

– ichki bozorni yuqori sifatli mahsulotlar va xizmatlar bilan to‘yintirish.

Jahon amaliyotidan ma’lumki, EIH turli maqsadlarga erishish uchun tashkil etiladi.

Birinchidan, milliy iqtisodiyotning xalqaro mehnat taqsimoti jarayoniga chuqur integratsiyalashuvini ta'minlash hisoblanadi. Raqobatbardosh eksport mahsulotlarini ishlab chiqarish orqali valuta tushumlarini ko'paytirishga erishiladi. Agar mamlakat qandaydir sabablarga ko'ra xorijiy tadbirkorlik kapitali uchun iqtisodiyotning erkinlashuvini ta'minlay olmasa, unda erkin iqtisodiy hudud tashkil etish orqali xorijiy investorlarga qulay investitsiya muhitini yaratishi mumkin.

Ikkinchidan, EIH import o'rnini qoplovchi mahsulot ishlab chiqarish, ichki bozorni yuqori sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish uchun tashkil etiladi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun hududda xorijiy kapital yordamida import o'rnini qoplovchi ishlab chiqarish barpo etiladi.

Uchinchidan, EIHni maxsus tashkil etishda xalqaro mehnat taqsimotiga tovar ishlab chiqarish tarmoqlari bilan birgalikda turizm, madaniyat va sanatoriya-kurort sohalarining integratsiyalashuvi ham ko'zda tutiladi.

To'rtinchidan, EIH ishlab chiqarishga xorijiy texnologiyalar va milliy ilmiy-texnik yangiliklarini tatbiq etish orqali butun milliy iqtisodiyotda undan foydalanishni nazarda tutadi.

Beshinchidan, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun malakali kadrlar tayyorlash va o'qitishni nazarda tutadi.

Oltinchidan, maxsus iqtisodiy hududlarni tashkil etish biror hudud yoki sohaning iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirishni ko'zda tutadi. Misol uchun, AQSh va Buyuk Britaniyada maxsus iqtisodiy hududlar XX asrning 80-yillarida iqtisodiy turg'unlik holatidagi hududlarda kichik va xususiy biznesni rivojlantirish uchun tashkil etilgan. Ushbu hududlarda ishbilarmonlarga mamlakatning boshqa hududlariga nisbatan moliyaviy imtiyozlar va xo'jalik faoliyati erkinligi beriladi. Ushbu dasturlar xorijiy kapitalni jalb etishni rag'batlantirish uchun maxsus yo'naltirilgan. Shu maqsadda qoloq hududlarni rivojlangan hududlarga aylantirishda asosiy e'tibor xorijiy kapitalni jalb etishga qaratiladi.

Yettinchidan, ayrim mamlakatlarda erkin iqtisodiy hudud iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning mintaqaviy usuli sifatida qaraladi. EIH mamlakatda hukum surayotgan iqtisodiyotning qaysidir turidan bozor iqtisodiyotiga o'tishga yordam beradi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, dunyo xo'jaligidagi turli

guruhlarga tegishli mamlakatlarda EIHlarni tashkil qilish maqsadlari har xil bo'lishiga qaramay, ular ba'zi bir umumiylikka ega. Ularni iqtisodiy, ijtimoiy va ilmiy-texnik maqsadlarga bo'lish mumkin:

1. EIHlarni tashkil qilishdagi iqtisodiy maqsadlar: tashqi savdo hamda tashqi iqtisodiy faoliyatni jadallashtirish va kengaytirish; iqtisodiyotga xorij va milliy investitsiyalarni jalb qilish; milliy ishlab chiqarish raqobatbardoshligini va uning iqtisodiy samaradorligini ko'tarish; eksportni oshirish va import o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarish; mamlakat budjetiga va hududga valuta kirib kelishini oshirish.

2. EIHlarni tashkil qilishdagi ijtimoiy maqsadlar: yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining ish bilan bandligining o'sishi; malakali xodimlarni, injenerlarni, xo'jalikda faoliyat yurituvchilarni va boshqaruvdagi kadrlarni jahon standartlariga javob beradigan darajada o'qitish va ularni tayyorlash; sanoat hamda iste'mol uchun mo'ljallangan yuqori sifatli mahsulot va xizmatlar bilan milliy bozorni to'yintirish; aholi turmush darajasi va farovonligini oshirish.

3. EIHlarni tashkil qilishdagi ilmiy-texnik maqsadlar quyidagilarga qaratiladi: eng yangi xorij va mahalliy texnologiyalardan jadal foydalanish; ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari natijalarini amalda qo'llashni tezlashtirish; dolzarb bo'lgan yo'nalishga ilmiy-texnik, shu jumladan, xorij kadrlarini ham jalb qilish; ilmiy-texnik markazlar va venchur kompaniyalarining tajribalarini hamda ilmiy-tadqiqot yutuqlarini jalb qilish; foydalanilayotgan ishlab chiqarish quvvati samaradorligini oshirish.

Maqsad va joylanishidan kelib chiqqan holda, EIHlar hududi o'lcham jihatdan turlicha bo'lishi mumkin – 1,5 km^2 dan (Sheremetevo, Rossiya) to 3,6 mln km^2 gacha (Manaus, Braziliya). Ayrim hollarda, EIHlarni hali ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma hamda rivojlangan sanoatga ega bo'lmagan yangi xo'jalik hududlarida tashkil etish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. EIHlarni yangi xo'jalik o'zlashtirish hududlarida tashkil etish uzoq muddatli muhim davlat dasturlarini amalga oshirish *imkoniyatini beradi (mineral xomashyo bazasini mustahkamlash, mashinasozlik kompleksini yaratish va h.k.).* Mana shunday

hududiy siyosatni Argentina, Braziliya, Indoneziya, Xitoy, Meksika, Chili va boshqa mamlakatlar olib bormoqda.

EIH muvaffaqiyatli faoliyatining muhim sharti bu hududni boshqarishning samarali tizimi mavjudligi (yoki tashkil etilishi), hudud rahbarlarining yangi boshqaruv madaniyatini egallashga qobiliyati mavjudligidir. Hududni ma'muriy xo'jalik boshqaruvi modelini tanlash bu hudud turi va maydon kattaligiga, mamlakatning davlat tuzilmasi xususiyatlariga, xususiy sektorning rivojlanganlik darajasiga va boshqalarga bog'liq. Lekin, umumiy va muhim jihati shundan iboratki, hududlar lokal ijtimoiy-iqtisodiy tizim bo'lgani holda lokal, nisbatan mustaqil xo'jalik boshqaruv tizimiga ham ega bo'lishi lozim, ya'ni iqtisodiyotning turli sohalarini boshqaruvchi soha vazirliklari va markaziy idoralardan mustaqil bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasining «Erkin iqtisodiy zona to'g'risida»gi qonuniga ko'ra erkin iqtisodiy zonalar quyidagi turlarga ajratiladi:

– erkin savdo zonalari;
– erkin ishlab chiqarish zonalari;
– erkin ilmiy-texnikaviy va boshqa zonalar.

Erkin savdo zonalari konsignatsiya omborlarini, erkin bojxona zonalarini, shuningdek, tovarlarga ishlov berish, ularni o'rash-joylash, saralash, saqlash zonalarini o'z ichiga oladi. Erkin savdo zonalari chegaraga tutash hududlarda, aeroportlarda, temiryo'l tugunlarida yoki O'zbekiston Respublikasi bojxona hududining boshqa joylarida tuziladi.

Erkin ishlab chiqarish zonalari tadbirkorlikni rag'batlantirish, iqtisodiyotning ustun tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, istiqbolli texnologiyalarni joriy etish maqsadida xo'jalik-moliyaviy faoliyatning alohida tartiboti joriy etiladigan hududlardir. Erkin ishlab chiqarish zonalari eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish zonalarini, agropolislarni, tadbirkorlik zonalarini, industrial-iqtisodiy zonalarni va boshqa zonalarni o'z ichiga oladi.

Erkin ilmiy-texnikaviy zonalar alohida ajratilgan hududlardan iborat bo'lib, u yerda ilmiy-ishlab chiqarish va o'quv markazlari jamlanadi hamda ular uchun ilmiy va ishlab chiqarish imkoniyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus huquqiy tartibot o'rnatiladi. Erkin ilmiy-texnikaviy zonalar yuksak texnologiyalar

amal qiladigan zonalar, texnoparklar, mintaqaviy innovatsiya markazlari – texnopolislar shaklida tashkil etiladi.

EIHlar quyidagilar bilan farqlanadi: geografik joylanishi, konfiguratsiyasi, hudud maydoni kattaligi; ishlab chiqarish resurslarining mavjudligi va sifati; EIHning tabiiy, iqtisodiy va boshqa o'ziga xos xususiyatlari; davlatning hududni tashkil etishda qo'ygan vazifalari; hudud oldida qo'yilgan maqsadlarga erishish va masalalarni yechish uchun unga berilgan funksiyalar davlat tomonidan hududga berilgan xo'jalik faoliyatini yuritish erkinliklari; hududning ma'muriy-tashkiliy bo'linmaga tegishliligi va boshqalar.

O'zbekistonda EIH rivojlanishi zarur iqtisodiy, ijtimoiy va geografik omillarning mavjudligiga va birligiga bog'liq bo'ladi. Ular jumlasiga mamlakatdagi iqtisodiy konyunkturaning umumiy holati, ichki xo'jalik mexanizmining EIH mexanizmi bilan mos kelish darajasi, infratuzilma, zarur tabiiy va mehnat resurslarining mavjudligi va holati kiradi.

Respublikada EIHni tashkil etish va rivojlantirishda ularni shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni aniqlashtirib olish lozim. Bunday shart-sharoitlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

– transport aloqalarining qulayligi, masalan, xalqaro aeroportlarga yaqin joylashganligi, EIHga kerakli texnika, mashina, asbob-uskunalar, xomashyo va materiallarni o'z vaqtida qabul qilish imkonini beradi;

– bozorga yaqinlik, transport va sug'urta xarajatlarini kamaytirish imkoniyatini beradi;

– tabiiy resurslarning mavjudligi, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish natijasida tovarlar raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi;

– yuqori malakali va nisbatan arzon ishchi kuchining mavjudligi, xorij investitsiyalarini jalb qilishda asosiy omillardan biri bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan 2008-yilning dekabr oyida keng miqyosdagi mintaqaviy taraqqiyot dasturining mantiqiy davomi sifatida «Navoiy» aeroportining bevosita yaqinida – Buxoro va Samarqand shaharlaridan 100-175 kilometr uzoqlikda 564 gektar maydonni egallagan «Navoiy» erkin industrial iqtisodiy zonasi (EIIZ) tashkil

etildi. Yuksak samarali, zamonaviy xorij asbob-uskunalari va texnikasi, texnologik tarmoqlar va modullar, innovatsiya texnologiyalarini joriy etish hisobidan yuqori texnologiyalarga asoslangan, jahon bozorlarida raqobatdosh mahsulotlarni keng ko'lamda ishlab chiqarish «Navoiy» EIIZ hududida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining asosiy yo'nalishi etib belgilandi. Bu hududdagi ishlab chiqarish faoliyatining istiqbolli yo'nalishlari - kimyo va neft-gazkimyo, zamonaviy qurilish materiallari sanoati, elektrotexnika sanoati, mashinasozlik, oziq-ovqat sanoati, dori-darmon va tibbiyot mahsulotlari ishlab chiqarish sohalari hisoblanadi.

«Navoiy» EIIZsining faoliyat ko'rsatish muddati 30 yilni tashkil etadi va bu muddat keyinchalik uzaytirilishi mumkin.

«Navoiy» xalqaro aeroporti va «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasini rivojlantirish mamlakatimizda yangidan shakllanayotgan yirik xalqaro logistika markazlaridan biri Navoiy aeroporti hududidagi intermodal logistika markazidir. Ushbu aeroportning afzalliklari shundan iboratki, uning Evropa va Osiyoni tutashtiradigan havo yo'llarining chorrahasida o'ta qulay mintaqada joylashgani (aeroportdan 2000 kilometr uzoqlikdagi yon-atrofda 150 million aholiga ega bo'lgan 40 ta shahar mavjud), unga juda yaqin masofadan xalqaro avtomobil va temir yo'llari tarmoqlarining o'tishi qo'shni davlatlar, shuningdek, Rossiya, Evropa va Xitoy bilan zarur aloqalarni ta'minlaydi.

Bularning barchasi Navoiy aeroporti mintaqaviy va qit'alararo tabiiy logistika markazi sifatida noyob mavqega ega ekanidan dalolat beradi. Hozirgi kunda Navoiy aeroporti orqali Frankfurt, Seul, Bryussel, Milan, Dubay, Bangkok, Dehli, Dakka va Mumbay kabi dunyoning yirik shaharlariga parvozlar amalga oshirilmoqda.

«Navoiy» EIIZning e'tiborga molik xususiyati shundaki, uning hududida o'ziga xos huquqiy tartib amal qiladi. Bu tartib, jumladan, quyidagilarni nazarda tutadi:

– ushbu hududda ro'yxatdan o'tgan korxonalarni, ular kiritadigan investitsiyalar hajmidan kelib chiqqan holda, barcha turdagi soliqlardan 15 yilgacha ozod qilishni ko'zda tutadigan alohida soliq tartibi;

– industrial-iqtisodiy zonaning butun faoliyati davomida eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqish maqsadida olib kiriladigan uskunalar, xom ashyo va materiallar uchun to'lanadigan bojxona to'lovlaridan ozod qilishni ko'zda tutadigan alohida bojxona tartibi;

– mazkur zona hududida hisob-kitoblar va to'lovlarni o'zaro tuzilgan shartnoma va kontraktlarga muvofiq xorij valyutasida, shuningdek, eksport va import qilinayotgan tovarlar uchun har ikki tomonga qulay bo'lgan to'lov shakllari va hisob-kitoblardan foydalanish huquqini beradigan alohida valyuta tartibi.

EIIZda faoliyat yurituvchi xo'jalik subyektlarga alohida huquqiy tartib, bojxona, valyuta va soliq rejimlari, O'zbekiston Respublikasi norezident fuqarolarining hududga kirish, hududda bo'lish va chiqib ketish, shuningdek, ular tomonidan mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ruxsatnomalar olishning soddalashtirilgan tartibi joriy etiladi.

Bu imtiyozlarning barchasi faqatgina EIIZ hududida faoliyat ko'rsatayotgan va EIIZ direktsiyasi tomonidan ro'yxatga olingan xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun amal qiladi. EIIZda faoliyat yuritish uchun to'g'ridan-to'g'ri investitsiya olib kirgan xo'jalik subyektlari er solig'i, mulk solig'i, daromad solig'i, obodonchilik va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yagona soliq to'lovi (kichik korxonalar uchun), Respublika yo'l jamg'armasi va Respublika maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy to'lovlardan ozod etiladi va buni 4.3-jadvalda ko'rish mumkin. Mazkur jadvalda mamlakatimizda tashkil etilgan «Angren» maxsus industrial zonasi va «Jizzax» maxsus industrial zonasida amal qiladigan imtiyozlar haqidagi ma'lumotlar ham keltirilgan.

O'zbekistonda EIHni tashkil etish va rivojlantirish imkoniyatlari juda keng. Shuni qayd etish kerakki, O'zbekistonda tabiiy boyliklarning, mehnat rusurslarining va hududlarda sanoat ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanganligini hisobga olib, kelajakda EIHning turli ko'rinishlarni tashkil etish mumkin.

4.3-jadval

O‘zbekistonda tashkil etilgan erkin iqtisodiy hududlarda amal qiladigan imtiyozlar[1]

Ko‘rsat-kichlar	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4059 sonli «Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to‘g‘risida»gi Farmoni	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4436 sonli ««Angren» maxsus industrial zonasini barpo etish to‘g‘risida»gi farmoni
Investitsiya miqdoriga qarab imtiyozlar-ning amal qilish muddati	– 3 mlndan 10 mln yevrogacha – 7 yil; – 10 mln dan 30 mln evrogacha – 10 yil, keyingi 5 yil davomida foyda solig‘i va yagona soliq to‘lovi hajmi amaldagi stavkadan 50 foiz miqdorida belgilanadi; – 30 mln yevrodan ortiq bo‘lganda – 15 yil, keyingi 10 yil davomida foyda solig‘i va yagona soliq to‘lovi amaldagi stavkadan 50 foiz miqdorida belgilanadi	– 300 ming dan 3 mln AQSh dollarigacha – 3 yil; – 3 mlndan 10 mln AQSh dollarigacha – 5 yil; – 10 mln AQSh dollaridan ortiq bo‘lganda – 7 yil.
Soliq va majburiy to‘lov imtiyozlari	«Navoiy» EIIZda ro‘yxatdan o‘tgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar yagona soliq to‘lovi, foyda, yer, mol-mulk hamda obodonchilik va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish soliqlari va majburiy to‘lovlardan (Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmadan tashqari) ozod etiladi.	«Angren» MIZ qatnashchilari foyda, mol-mulk, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i, kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovi va Respublika yo‘l jamg‘armasiga ajratmalar to‘lashdan ozod etiladi.
Bojxona imtiyozlari	EIIZda faoliyat ko‘rsatadigan butun muddatga eksportga yo‘naltirilgan mahsulot ishlab chiqarish maqsadida olib kelinayotgan asbob-uskunalar, xomashyo, materiallar va butlovchi qismlar bojxona to‘lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig‘imlardan tashqari) ozod qilinadi.	«Angren» MIZ hududiga Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxatlar bo‘yicha olib kiriladigan uskunalar, butlovchi buyumlar va materiallar boj to‘lovlari (bojxona yig‘imlaridan tashqari) to‘lashdan ozod qilinadi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 2-dekabrdagi «Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to‘g‘risida»gi 4059-sonli hamda 2012-yil 13-apreldagi ««Angren» maxsus industrial zonasini barpo etish to‘g‘risida»gi 4436-sonli farmonlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

4.4. To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotni modernizatsiya qilishdagi roli

To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar:

– investorga investitsiya kiritilayotgan obyekt ustidan nazorat qilish huquqini beruvchi ishlab chiqarishga sarflangan uzoq muddatli xorijiy qo‘yilmalarni;

– pirovard maqsadi foyda ko‘rinishida daromad olishga qaratilgan tadbirkorlik kapitalining ustuvor shaklini;

– xususiy kapitalga asoslangan to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni;

– xorijiy investorning investitsiya kiritilayotgan obyekt ustidan to‘liq egalik qilishini;

– xorijiy investor tomonidan investitsiya kiritilayotgan obyekti ustav kapitalining 10 %dan kam bo‘lmagan qismi ustidan nazorat o‘rnatishini;

– xorijiy investorning investitsiya kiritilayotgan obyektlarni boshqarishda samarali qatnashishini;

– mustahkam iqtisodiy munosabatlarni o‘rnatish hamda korxona ustidan nazorat huquqini qo‘lga kiritish maqsadida kapital va resurslarning transchegaraviy harakatini qamrab oladi.

To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning O‘zbekistonga kirib kelishi qisqa vaqt ichida mulkchilikning turli shakllarini tashkil topishiga ko‘maklashdi, O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy qayta qurishni, nufuzli tarmoqlarning barpo etilishini ta’minladi. Eng muhimi, O‘zbekiston iqtisodiyotining baynalmilallashini va O‘zbekistonning xalqaro bozorga o‘z mahsulotlarini olib chiqishini va u yerda o‘z o‘rniga ega bo‘lishini ta’minladi.

To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi respublikamizda xususiylashtirish jarayonlarini tashkil etish bosqichlari bilan bog‘liq bo‘ldi. Shu bilan bir qatorda, respublikada iqtisodiy islohotlarning huquqiy poydevorini yaratish ham, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimlari shakllarini belgilab berdi. To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning oqimlari:

– O‘zbekiston iqtisodiyotida qo‘shma korxonalarning barpo etilishiga asos soldi;

– xorijiy korxonalar barpo etilishiga zamin yaratdi.

Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, milliy iqtisodiyotning to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish holati ichki bozor hamda eksportning hajmi, tabiiy va mineral resurslar, malakali ishchi kuchi mavjudligi, bozor islohotlarini amalga oshirish sur’atlari, iqtisodiy barqarorlik omillari bilan bog‘liqdir.

O‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarining to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning jozibadorligini belgilovchi omillarni besh guruhga bo‘lish mumkin:

– bozor omillari (ichki bozor va eksport imkoniyatlari);
– boy tabiiy resurslarning mavjudligi;
– ishlab chiqarish xarajatlari omillari;
– investitsiya muhiti;
– mamlakatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasi.

Iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida xorijiy investitsiyalar, ayniqsa, to‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalar uchun qator imtiyozlar berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi «To‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmoni[1]ga ko‘ra, 2005-yilning 1-iyulidan boshlab to‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari asosiy faoliyat bo‘yicha daromad (foyda) solig‘i, mulk solig‘i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va hududlarni obodonlashtirish solig‘i, ekologiya solig‘i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to‘lashdan, shuningdek, Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalar to‘lashdan ozod etildi. Farmonda belgilanganidek, to‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalar hajmi quyidagicha bo‘lganda mazkur soliq imtiyozlari beriladi:

– 300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha – 3 yil muddatga;

– 3 million AQSh dollaridan 10 million AQSh dollarigacha – 5 yil muddatga;

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi «To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 3594-sonli farmoni (1-2-bandlari).

– 10 million AQSh dollaridan ortiq bo‘lganda – 7 yil muddatga.

Ushbu soliq imtiyozlari quyidagi shartlar asosida qo‘llanilishi belgilab qo‘yilgan:

1) mazkur korxonalarni ortiqcha ishchi kuchi bo‘lgan mintaqalar –Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jizzax, Qashqadaryo, Sirdaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida, shuningdek, Navoiy, Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarining qishloq aholi punktlarida joylashtirish;

2) korxonaning ustav kapitalida xorijiy ishtirokchilarning ulushi kamida 50 foizni tashkil etishi lozim;

3) ushbu korxonalar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandan keyin to‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni kiritish;

4) xorijiy investitsiyalarni erkin almashtiriladigan valuta yoki yangi zamonaviy texnologik uskuna tarzida qo‘yish;

5) mazkur imtiyozlarni qo‘llanilishi muddati davomida imtiyozlardan olingan daromadni korxonani yanada rivojlantirish maqsadida qayta investitsiyalashga yo‘naltirish.

To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar tarkibiga:

– ishlab chiqarish (asosiy va aylanma) fondlari, ularni kengaytirish, qayta qurish va qayta qurollantirishga qo‘yiladigan iqtisodiy resurslar;

– ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma xarajatlari (bino va inshootlar, uy-joylar);

– pul qiymatiga ega bo‘lgan nomoddiy aktivlar (qimmatli qog‘ozlar, patentlar, texnik va texnologik yangiliklar, loyihalar va boshqa intellektual mulk obyektlari)ni kiritadi.

To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning investitsiya faolligi va kuchli raqobat muhiti yaratilishiga ta’siri quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

– integratsiyalashuvni ta’minlangan holda raqobat muhitini ta’minlaydi, raqobatga undaydi;

– xorij boshqaruv tajribasini qo‘llashga undaydi;

– iqtisodiyot subyektlaridan investitsiya faolligini talab etadi;

– yangi uskuna, jihoz, zamonaviy texnika, texnologiyani qo‘llashga chorlaydi;

– yangi texnika-texnologiya asosida yangi mahsulot ishlab chiqarishni, yangi bozorlarni egallashni nazarda tutadi;

– investitsiya muhitini takomillashtirib borishni talab etadi;
– ishlab chiqarishning modernizatsiya qilinishini ta'minlaydi;
– o'z manfaatlari ustunligini nazarda tutadi;
– ishonch qozonish uchun kuchli rag'batlantirish, imtiyozlar, kafolatlar tizimini talab qiladi;
– xorijdan turli aktivlar kirib kelishi asosida qabul qiluvchi mamlakatda iqtisodiyotni yuksaltiradi, soliq, boj, ijara va boshqa tushumlarning ko'payishini ta'minlaydi.

To'g'ridan to'g'ri investitsiyalarning innovatsiya faoliyatiga ta'siri quyidagilarda ko'rinadi:
– raqobat muhitini rivojlantiradi va raqobatga bardoshli mahsulot turlarini ishlab chiqarishni tezlashtiradi;
– to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar oqimining ko'payishi mamlakat iqtisodiyotiga:
a) yangi, zamonaviy, ilg'or texnologiyalar va yuqori unumdorli uskunalarni olib kiradi;
b) yangi yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarilishi tezlashadi yoki mavjud ishlab chiqarilayotgan mahsulot o'rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarilishi tashkil etiladi;
v) yangi bozorlarga chiqish, jahon bozorida o'z o'rniga ega bo'lish, tashqi bozorlarda o'z mavqeyini mustahkamlash imkoniyatini beradi;
– innovatsiya loyihalarini tatbiq etish va iqtisodiyotda tuzilmaviy o'zgarishlarni ta'minlaydi, pirovardida, iqtisodiyot zamonaviylashadi va jadal o'sib boradi.

4.5. «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi va «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining mazmuni, maqsadi va ahamiyati. Xorijiy investorlarga berilgan imtiyozlar, kafolatlar va rag'batlantirish omillari

Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etishdan manfaatdorlik har qanday davlatning o'z investitsiya siyosatini ishlab chiqishini talab etadi. Bu siyosat xorijiy investitsiyalarni jalb etishning o'ziga xos yo'nalishini, shuningdek, ularni jalb etishni rag'batlantirish tizimini aniqlab beradi va investitsiya faoliyatining huquqiy tartibini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to‘g‘risida»gi qonunning asosiy maqsadi O‘zbekiston Respublikasi hududida xorijiy investitsiyalar amalga oshirilishining huquqiy asoslari va tartibini belgilab berishdan iborat. Ushbu qonunning asosiy vazifalari quyidagilar:

– xorijiy investitsiyalar kirib kelishini rag‘batlantirish yo‘li bilan O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish va uning jahon iqtisodiy tizimiga qo‘shilishiga ko‘maklashishdan;

– xorijning moliyaviy, moddiy, intellektual va boshqa resurslarini, zamonaviy xorijiy texnologiyalarni va boshqaruv tajribasini jalb etish hamda ulardan oqilona foydalanishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasining «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida»gi qonunining maqsadi O‘zbekiston Respublikasi hududida xorijiy investitsiya faoliyatini amalga oshirayotgan xorijlik investorlar huquqlarining kafolatlarini va ularni himoya qilish choralarini belgilab berishdan iborat bo‘lib, uning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

– xorijlik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish bo‘yicha kompleks choralarni shakllantirish;

– xorijlik investorlar va xorijiy investitsiyalarning ayrim toifalari uchun qo‘shimcha kafolatlar berish shart-sharoitlarini va ularni himoya qilish choralarini belgilash.

Davlat O‘zbekiston Respublikasi hududida xorijlik investorlar investitsiya faoliyatini amalga oshirishlari chog‘ida ularning barcha huquqlarini kafolatlaydi va himoya qiladi. O‘zbekiston Respublikada xalqaro shartnomalarning amalga oshirilishi ta’minlanishini hisobga olgan holda fuqaroligi, yashash joyi, iqtisodiy faoliyati qayerda amalga oshirilayotganligiga, investorlar yoki investitsiyalarning qaysi mamlakatga mansubligiga qarab xorijlik investorlarning kamsitilishiga ham yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi «Chet el investitsiyalari to‘g‘risida»ga Qonuniga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida xorijlik investorlar quyidagilar bo‘lishi mumkin: chet el davlatlari, chet el davlatlarining ma’muriy yoki hududiy organlari; davlatlararo bitimlar yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tashkil topgan yoki xalqaro ommaviy huquq subyektlari bo‘lgan xalqaro tashkilotlar; chet el davlatlarining qonun

hujjatlariga muvofiq tashkil topgan va faoliyat ko'rsatib kelayotgan yuridik shaxslar, boshqa har qanday shirkatlar, tashkilotlar yoki uyushmalar; chet el davlati fuqarolari bo'lmish jismoniy shaxslar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va chet ellarda doimiy yashaydigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari.

Xorijlik investorlar va xorijiy investitsiyalar uchun adolatli va teng huquqli rejim, ularning to'liq va doimiy himoyasi hamda xavfsizligi ta'minlanadi. Bunday rejim O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilab qo'yilgan rejimga qaraganda noqulayroq bo'lishi mumkin emas.

Xorijiy investitsiyalarning huquqiy rejimi O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiyalarning tegishli rejimiga qaraganda noqulayroq bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan me'yorlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining milliy xavfsizligi manfaatlarini himoya etish maqsadida iqtisodiyot va faoliyatning muayyan sohalarida xorijiy investitsiyalar uchun cheklashlar yoki taqiq nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.

Xorijlik investorlarning O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan kafolatlangan huquqlari va manfaatlari buzilganda ularni tiklash O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, shu jumladan, xalqaro shartnomalari bilan tartibga solinadi.

Investitsiya faoliyati bilan bog'liq holda O'zbekiston Respublikasida bo'lib turgan xorijlik investorlar, ularning vakillari va xorijlik xodimlar O'zbekiston Respublikasining butun hududida erkin yurish huquqiga egadirlar. Basharti, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida erkin yurishga cheklovlar belgilangan bo'lsa, faqat milliy xavfsizlikni ta'minlash maqsadlarini ko'zlab muayyan cheklovlar qo'llanilishi mumkin.

Investitsiyalar va xorijlik investorlarning tavakkalchiligini sug'urta qilish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi.

Quyidagilar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ta'minlanadi: investitsiya faoliyatining milliy va xorijlik subyektlari uchun barcha qulayliklar; xorijlik investorlarning huquqlarining davlat kafolatlari, zarur hollarda qo'shimcha kafolatlar va himoya tadbirlari; milliylashtirishdan, mablag'lardan

foydalanish kafolatlari; mablag'larni o'tkazish kafolatlari, investitsiya faoliyati to'xtatilishi munosabati bilan xorijiy investitsiyalarni qaytarish kafolatlari; ochiq axborotlardan erkin foydalanish.

Xorijlik investorlarga qo'shimcha kafolatlar va ularni himoya qilish choralari O'zbekiston Renspublikasi hukumati tomonidan kafolat berishni, investitsiya loyihalarini moliyaviy ta'minlashda ko'maklashishini, maxsus soliq va to'lov rejimi yaratilishini, loyihalar ro'yobga chiqarilishini, davlat monitoringi amalga oshirilishini hamda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa choralarni o'z ichiga olishi mumkin.

Qo'shimcha kafolatlar va ularni himoya qilish choralari xorijlik investorlarga hukumatning maxsus qarorlari bilan berilib, ularda, xususan, xorijiy investitsiyalarni kiritish, ishlatish va ularning o'rni qoplanishini ta'minlash shartlari va tartibi nazarda tutiladi.

Xorijlik investorlarga xorij valutasidagi pul mablag'larni O'zbekiston Respublikasiga va undan tashqariga, ular soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlarni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'lashi sharti bilan, birorbir cheklovlarsiz erkin o'tkazish kafolatlanadi. Bunday o'tkazishlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– xorij investitsiyalarini saqlab turish yoxud ko'paytirish uchun boshlang'ich va qo'shimcha summalarni;

– investitsiyalarni amalga oshirishdan tushgan daromadlarni;

– yetkazilgan zararni qoplash uchun tovon sifatida ushbu kunga muvofiq olingan mablag'larni;

– shartnomalarni ijro etish tartibida amalga oshirilgan to'lovlarni;

– xorijiy investitsiyalarning hammasini yoki bir qismini sotishdan kelgan tushumni;

– nizoni hal qilish, shu jumladan, sud yoki hakamlikning har qanday hal qiluv qarori tufayli vujudga keluvchi to'lovlarni;

– xodimlarga to'lanadigan ish haqini va boshqa to'lovlarni;

– qonun hujatlariga muvofiq boshqa manbalardan olingan mablag'larni.

Xo'jalik subyektlari tomonidan ishlab chiqarishni muntazam modernizatsiya qilish, texnik-texnologik jihatdan qayta jihozlash, uni yuqori sifatli, raqobatbardosh, eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish imkonini beradigan ilg'or

zamonaviy uskunalar bilan ta'minlashga qaratilgan samarali rag'batlantirish tizimini yaratish maqsadida 2007-yil 14-martida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonining qabul qilinishi respublikaga xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish asosida iqtisodiyot tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilishni faollashtirishga yo'naltirilgan navbatdagi amaliy qadam bo'ldi.

Prezidentimiz I.A.Karimovning 2012-yil 10-apreldagi «To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investorlar uchun yanada qulay moliyaviy sharoitlar yaratildi. Mazkur farmonda belgilanishicha, xorijiy investorning pul shaklidagi ulushi 5 million AQSh dollaridan kam bo'lmagan yangidan tashkil etilayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar davlat ro'yxatidan o'tgan sanadan boshlab 10 yil mobaynida, soliq qonunchiligida o'zgarishlar yuz bergan hollarda, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i (tovarlar, ishlar, xizmatlarni realizatsiya qilish aylanmasi), mol-mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yagona ijtimoiy to'lov, yagona soliq to'lovi, shuningdek, Respublika yo'l jamg'armasiga hamda Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashning mazkur korxonalar davlat ro'yxatidan o'tish sanasida amal qilgan me'yorlari va qoidalarini qo'llashga haqlidirlar. Farmonga muvofiq, qiymati 50 million AQSh dollaridan oshadigan va xorijiy investorning ulushi kamida 50 foiz bo'lgan investitsiya loyihalari doirasida ishlab chiqarish maydonidan tashqaridagi zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurish budjet mablag'lari hamda boshqa ichki moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11 apreldagi «To'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 3594-sonliFarmonibilan belgilangan soliq imtiyozlari 2012-

yilning II choragidan boshlab quyidagi shartlar asosida qo'llanilishi belgilangan:

– Toshkent shahri va Toshkent viloyati istisno etilgan holda, respublikaning barcha mintaqalarida joylashtiriladigan xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalarga tatbiq etiladi;

– korxonaning ustav kapitalida xorijiy ishtirokchilarning ulushi kamida 33 foizni tashkil etishi lozim;

– xorijiy investitsiyalarni erkin almashtiriladigan valuta yoki yangi zamonaviy texnologik uskuna tarzida qo'yish;

– mazkur imtiyozlarning qo'llanish muddati davomida imtiyozlardan olingan daromadning kamida 50 foizini korxonani yanada rivojlantirish maqsadida qayta investitsiyalashga yo'naltirish.

O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy va qonun hujjatlarida xorijiy investitsiyalar uchun quyidagi kafolatlar va rag'batlantirish omillari amal qiladi:

– davlat investitsiya faoliyati subyektlarining huquqlarini kafolatlaydi;

– davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari investitsiya faoliyati subyektlarining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas;

– davlat investitsiyalar himoya qilinishini kafolatlaydi;

– O'zbekiston Respublikasida investitsiyalar va investorlarning boshqa aktivlari davlat mulkiga aylantirilmaydi;

– investitsiyalar va investorlarning boshqa aktivlari rekvizitsiya qilinmaydi;

– investitsiya faoliyati subyektining investitsiya faoliyati natijasida olingan foydasi (daromadi) soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langach, uning xohishiga ko'ra reinvestitsiya qilinishi yoki boshqa har qanday usulda ishlatilishi mumkin;

– investitsiya faoliyati subyekti olgan aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar, uning maqsadli bank omonatlari, shuningdek, olingan mol-mulk olib qo'yilgan (rekvizitsiya qilingan) hollarda ular qiymati yoki ijara to'lovlari qonun hujjatlariga muvofiq qoplanadi (kompensatsiya to'lanadi);

– O'zbekiston Respublikasining yangi qonun hujjatlarini qabul qilish investitsiyalash shart-sharoitlarini yomonlashtirishi mumkin. Agar O'zbekiston Respublikasining keyingi qonun

hujjatlari investitsiyalash shart-sharoitlarini yomonlashtirsa, unda xorijlik investorlarga nisbatan investitsiyalash sanasida amal qilgan qonun hujjatlari investitsiyalash paytidan boshlab o'n yil mobaynida qo'llaniladi. Xorijlik investor o'z xohishiga ko'ra yangi qonun hujjatlarining investitsiyalash shart-sharoitlarini yaxshilaydigan qoidalarini qo'llash huquqiga egadir;

– xorijlik investorlarga xorij valutasidagi pul mablag'larini O'zbekiston Respublikasiga va undan tashqariga, ular soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlarni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'lashi sharti bilan, biror-bir cheklovlarsiz erkin o'tkazish kafolatlanadi.

Xulosa qilib aytganda, milliy iqtisodiyotimizda xorijiy investitsiyalarning me'yoriy-huquqiy asoslari bunyod etilgan bo'lib, ularda yaratilgan shart-sharoitlar, jumladan, soliq va bojxona imtiyozlari, qonun o'zgarmaslik kafolatlari, foyda olish va mulklarning rekvizitsiya qilinmasligi va boshqa kafolatlar respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar jalb qilinishini yanada rag'batlantiradi va uning jahon xo'jaligi tizimiga uyg'unlashuvini ta'minlaydi.

4.6. Fond bozoriga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning zarurligi va ahamiyati

Fond bozori, qimmatli qog'ozlar bozori – moliya bozorining qimmatli qog'ozlar emissiyasi va ularning oldi-sotdisi bilan shug'ullanadigan sohasi. Fond bozorining asosiy vazifasi: investitsiyalarni, ya'ni kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga va texnika ravnaqiga zarur investitsiya mablag'larini to'plash hamda taqsimlash; qimmatli qog'ozlar paketlaridan foydalangan holda mulk egaligini o'zgartirish; qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi yo'li bilan bozorni qayta taqsimlash; qimmatli qog'ozlar chiqarish yordamida davlat qarzini moliyalashtirish va boshq.

O'zbekistonda investitsiya jarayonlarini boshqarish va bo'sh turgan pul mablag'larini iqtisodiyotga jalb qilishning samarali vositasi bo'lgan fond bozorining shakllanishi o'tgan asrning 90-yillar boshlariga to'g'ri keladi. 1993-yil 2-sentabrda bu bozor faoliyatining huquqiy bazasi bo'lgan O'zbekiston Respublikasining

«Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi.

Qisqa muddatda fond bozori infratuzilmasining asosiy muassasasi – 1994-yilda «Toshkent» respublika fond birjasi o'z faoliyatini boshladi. Respublika Prezidentining 1996-yil 26-martdagi «O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi huzurida qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Markazini tashkil etish to'g'risida»gi farmoniga ko'ra, respublikada qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli davlat organi hisoblanadigan Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi tuzildi. 1999-yilda naqdsiz chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni saqlash, shuningdek, xususiylashtirilgan korxonalar aksiyalaridagi davlat hissasi (huquqi) hisobini yuritadigan Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi va 30 dan ortiq ikkinchi bosqich depozitariylarini o'z ichiga olgan ikki pog'onali depozitariylar tizimi tashkil topdi.

Fond bozori qatnashchilari kapital «iste'molchilari» (emitentlar) va uni «taqdim etuvchilar» (investorlardir). «Iste'molchilar» davlat, mahalliy hokimiyat organlari, yirik milliy va xalqaro kompaniyalar hisoblanadi. Investorlar institutsional (qimmatli qog'ozlar bilan ish yurituvchi har xil moliyaviy kredit institutlari: tijorat va investitsiya banklari, sug'urta jamiyatlari, pensiya fondlari va b.) va yakka (xususiy shaxslar, shu jumladan, venchur biznesining uncha katta bo'lmagan korxona egalari) guruhlarga bo'linadi.

Fond bozori ishlari uning professional xodimlari: brokerlar (bitimda o'z kapitali bilan qatnashuvchi vositalar), boshqaruvchilar (ishonib topshirilgan qimmatli qog'ozlarni idora qiladigan shaxslar), kliringlar (o'zaro majburiyatlarni aniqlash bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar), depozitariylar (qimmatli qog'ozlarni saqlash bo'yicha xizmat ko'rsatadi); reyestr yurituvchilar (qimmatli qog'ozlarni ro'yxatdan o'tkazish ishlarini bajaradi); savdo-sotiqni tashkil etuvchilar (qimmatli qog'ozlar bilan bitim tuzishga yordam berish xizmatini bajaradi); jobberlar (qimmatli qog'ozlar bozori konyunkturasi bo'yicha mutaxassislar) orqali amalga oshiriladi. Ular bilan birga qimmatli qog'ozlar bozoriga bank xizmatchilari, investitsiya fondlari xodimlari, shuningdek, moliyaviy bozor uchun zarur bo'lgan qonunchilik va nazoratni ta'minlovchi davlat xizmatchilari va yuristlar xizmat ko'rsatadi.

Fond bozori qimmatli qog'ozlarning kelib tushish vaqti va usuliga qarab *birlamchi* va *ikkilamchi* bozorlarga ajratiladi. *Birlamchi bozor* – fond bozorining asosi hisoblanadi. Unda birinchi marta chiqarilayotgan qimmatli qog'ozlar joylashtiriladi. Birlamchi bozorning asosiy qatnashchilari qimmatli qog'oz emitentlari va investorlardir. Investitsiya qilish uchun asosiy va aylanma moliyaviy kapital zaxiralariga muhtoj bo'lgan emitentlar fond bozorida qimmatli qog'ozlar taklifini belgilaydi. O'z kapitalini qo'llash uchun foydali soha izlovchi investorlar qimmatli qog'ozlarga talabni shakllantiradi. Birlamchi bozorda vaqtincha erkin pul mablag'larini jalb etish amalga oshiriladi. Lekin birlamchi bozor jamg'armani faqat milliy iqtisodiyot ko'lamidagina kengaytirish bilan chegaralanmaydi. Unda erkin pul mablag'larining iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari bo'yicha taqsimlanishi ham sodir bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida qimmatli qog'ozlar keltiradigan daromad taqsimlanish mezoni bo'lib xizmat qiladi. Bu holat erkin pul mablag'larini eng ko'p daromadni ta'minlovchi korxonalarga, xo'jaliklar, tarmoqlar va sohalarga yo'naltiradi, degan ma'noni bildiradi. Birlamchi bozor yangi chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning emitentlar tomonidan joylashtirilishini nazarda tutadi.

Qimmatli qog'ozlarning *ikkilamchi bozori* – birlamchi bozorning zaruriy qo'shimchasi. Unda qimmatli qog'ozlarning olib-sotarlik shaklidagi aylanmasi sodir bo'ladi. Qimmatli qog'ozlar bo'yicha bitimlarning shakliga qarab, ularni uyushtirilgan (birjali) va uyushtirilmagan (birjadan tashqaridagi) bozorlariga ajratish mumkin. Uyushtirilgan bozorni fond birjalari tashkil qiladi. Qimmatli qog'ozlar bilan qilinadigan boshqa barcha bitimlar uyushtirilmagan bozorda amalga oshiriladi. Birjadan tashqari aylanmadagi savdoni mutaxassislar – brokerlar va dilerlik kompaniyalari olib boradi. Birjadan tashqari aylanmada savdo jarayonlarini bajaradigan yagona markaz yo'qligi tufayli oldi-sotdi bitimlari telefon va kompyuter tarmoqlari orqali bajariladi.

Investitsiya qilishda turlicha vositalar qo'llanilishi mumkin: pul, valuta, kredit, qimmatli qog'ozlar, mulk (moddiy va nomoddiy), turli tovar, xomashyolar va h.k. Bular ichida qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish investorning talablarini qondirishning eng samarali va keng tarqalgan yo'llardan biri hisoblanadi.

Investitsiya resurslarini moliya bozori imkoniyatlaridan foydalangan holda foyda olish uchun yo'naltirish investorlarning eng asosiy maqsadi hisoblanadi. Bunda uning bosh vazifasi o'zining investitsiya faoliyati jarayonida investitsiyalari daromadliligini oshirib borish va risklilik darajasini pasaytirishdir. Bu jarayonda moliya bozori investorning vazifalari va investitsiya siyosati samarali amalga oshirilishida, yetarli darajada rivojlangan bo'lishida katta rol o'ynaydi va muhim funksiyani bajaradi.

Aytish joizki, fond bozorining ochiqligi, jalb etuvchanligi, barqarorligi, umuman, yuqori darajada tashkillashganligi va rivojlanganligi milliy iqtisodiyotning xalqaro miqyosda raqobatbardoshligi va samaradorliligini ifodalaydi. Barcha mamlakatlarning shunday xususiyatlarga ega bo'lgan moliya bozorlari investitsiyalash maqsadida moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash va savdo faolligini ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lishi uchun o'zaro raqobatlashadilar. Bunday raqobatda O'zbekiston moliya bozorining hozircha kichik bo'lsa-da, o'ziga xos o'rni bo'lib, bosqichma-bosqich jahon moliya bozori darajasi tomon takomillashib va rivojlanib bormoqda. Tabiiyki, ko'pchilik rivojlanayotgan (o'tish iqtisodiyotiga mansub) mamlakatlarning moliya bozorlari ham O'zbekiston singari investitsiyalarni jalb qilish maqsadida moliya resurslari uchun kuchli raqobat sharoitlarini boshidan kechirmoqda.

Jahon amaliyotining ko'rsatishicha, xo'jalik subyektlarining innovatsiya taraqqiyotini moliyalashtirish manbalari tuzilmasida markaziy o'rinni qimmatli qog'ozlar bozorining dastaklari egallaydi. Qimmatli qog'ozlar vositasida investitsiyani moliyalashtirish investorlar manbalarining muomaladagi qimmatli qog'ozlarga sarflanishini anglatadi hamda qimmatli qog'ozlar bozorida ochiq va erkin faoliyati tavsiflanadi. Xo'jalik subyektlarining innovatsiya ehtiyojlarini moliyalashtirishning barcha turidan qimmatli qog'ozlar vositasidagi investitsiyalarni moliyalashtirish investitsiyalarni sarflash obyektlari tavsifining xususiyatlari va investitsiya jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarning murakkab mexanizmi bilan ajralib turadi.

Iqtisodiyotni investitsiyalashning muhim manbalaridan biri bu to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisoblanadi. Bo'sh turgan mablag'larni aksiyadorlik jamiyatlariga yoki davlat

budjetiga yo'naltirish qo'shimcha mablag'ga bo'lgan ehtiyojni qondirishga olib keladi. Mana shunday vaziyatlarda pul mablag'larini qayta taqsimlaydigan samarali iqtisodiy mexanizm kerak bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotida qimmatli qog'ozlar bozori –iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilari o'rtasida pul vositalarini samarali qayta taqsimlovchi vosita vazifasini bajarmoqda. Moliya bozori, shu jumladan, fond bozori mamlakat aholisi turmush darajasini oshirishni ta'minlovchi milliy ishlab chiqarishni rivojlantirishga bevosita ta'sir o'tkazadi. O'zbekiston fond bozoriga makroiqtisodiy siyosatning ta'sirini quyidagi rasm orqali ifodalaymiz.



4.3-rasm. **O'zbekistonda fond bozori rivojlanishiga makroiqtisodiy siyosatning ta'siri**

Bu mexanizmning ishlash tamoyili iqtisodiyotdagi pul massasi miqdorini oshirib, ortiqcha moliyaviy mablag'larni fond bozoriga ko'chirishga asoslanadi. Aslida, fond bozorining mohiyati iqtisodiyotdagi bo'sh pul mablag'larini talab mavjud joyga tez va samarali yetkazishni ta'minlashdir. Demak, fond bozorining rivojlanishi iqtisodiyotdagi bo'sh pul mablag'lari miqdori bilan uzviy bog'liqdir. Mamlakat iqtisodiyotida pul massasini oshirishga qaratilgan makroiqtisodiy siyosat ta'sirida milliy qimmatli qog'ozlar bozorining barqaror sur'atlarda rivojlanishiga erishilmoqda.

Shu bilan birga, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish dasturiga muvofiq o'nlab yirik davlat korxonalari ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirilishi va tijorat banklarining korporativ aksiyalari emissiyasi miqdorining ortishi hisobiga birlamchi bozordagi savdolar hajmining jami savdo hajmidagi ulushi ortdi.

Umuman olganda, fond bozori barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Bu respublikamiz moliya bozorini erkinlashtirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligi bilan izohlanadi. Xususan, 2001-yilda «Qimmatli qog'ozlar bozorida investorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Bundan tashqari, 2002-yilda «O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yuridik shaxslar uchun obligatsiyalar chiqarish va ularning muomalasi to'g'risida»gi nizom kuchga kirdi, 2006-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori va Vazirlar Mahkamasining 2008-yildagi «Qimmatli qog'ozlar bozori infratuzilmasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Yuqoridagi holatlarning barchasi fond bozori rivojlanishida keskin burilish sodir bo'lishiga sababchi bo'ldi.

O'zbekistonga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda portfel investitsiyalar sohibi o'z kapitalini fond bozorlari orqali yo'naltirib, ular milliy iqtisodiyotni obyektiv baholaydi va raqobatli kreditlaydi. Shu bilan ular mablag'larini bir loyihaga to'g'ridan to'g'ri investitsiya qiluvchi investorlardan farqlanadi. Bevosita investitsiyalar sohibi uchun investitsiya loyihasi tarixi va kredit oluvchi kompaniya bilan sheriklikda manfaatdorlik katta ahamiyatga ega bo'lib, portfel investitsiyalar sohibi (strategik-portfel investitsiyalar sohibidan tashqari, chunki ular tarmoq kompaniyalariga bozor konyunkturasiga qarab, ko'pincha o'zlarining rivojlanish tartiblarini majburlaydilar) uchun bu masalalar unchalik ahamiyat kasb etmaydi.

Innovatsiya jarayonlarini qimmatli qog'ozlar yordamida moliyalashtirishning qarama-qarshiligi va murakkabligi, innovatsiya dasturlari emitentlarining turli xarakterliligi va yo'naltirilganligi, investorlar manfaatlarining keng miqyosdaligidandir. Ularning bir xillari uzoq muddatli va ishonchli daromadlar olishga intilib,

to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarga urg‘u berishadi, buning uchun ular o‘zlarini qiziqtirgan korxonalarning kamida 10 foiz aksiyalarini sotib olishlari shart. Boshqa investorlar qarama-qarshi o‘laroq, portfel investitsiyalarni afzal ko‘rishadi. Bunda ular investitsiya faoliyatini investitsiya portfelini turli emitentlarning qimmatli qog‘ozlaridan tashkil etish hisobiga diversifikatsiyalaydilar, shu bilan birga, o‘zlariga to‘g‘ri keladigan risk darajasini pasaytiradilar va daromadlarning barqaror darajasiga erishadilar. Portfel investitsiyalarning maxsus funksiyasi bo‘lib qimmatli qog‘ozlar portfeli egasiga o‘z qo‘yilmalarini diversifikatsiyalash imkonini berish orqali risklarni to‘plash va tarqatib yuborish, kurs va turli qimmatli qog‘ozlar tebranishlarini bartaraf etish hisoblanadi.

Strategik-portfel investitsiyalar egalari ishlab chiqarishni restrukturizatsiyalash va chiqarilayotgan mahsulotning assortimentini yangilash jarayonlarida faol qatnashadilar, spekulyativ portfel investitsiyalar egalari qimmatli qog‘ozlarning talab va taklifi nisbati farqidan kelib chiqadigan arbitraj bitimlarni afzal ko‘rishadi. Shu bilan birga, strategik portfel investitsiya egalariga past darajadagi risk to‘g‘ri keladi, chunki ular emitentlarning investitsiya potensialini sinchiklab o‘rganishadi va ular faoliyati samaradorligini oshirish imkoniga egadirlar.Ammo, shuni unutmaslik kerakki, strategik investorlarning daromadlilik darajasi spekulyativ investorlarga nisbatan pastroqdir, chunki investorlar ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini keskin oshirishni ta’minlashga yoki o‘zlarining qimmatli qog‘ozlarining investitsiya potensialini keskin oshirishga tayyor bo‘lmaydilar. Investitsiya bozorining faol qatnashchisi sifatida institutsional investorlar namoyon bo‘lib, ular bu faoliyat bilan professional asosda, investitsion biznesga o‘zlarining bo‘sh mablag‘larini aksiyalar bo‘yicha yuqori dividendlarni, ulushli qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha foizlarni yoki ularni qayta sotish operatsiyalaridan daromadlarni olish maqsadida jalb etishadi. Institutsional investorlar qimmatli qog‘ozlar portfelini ularning kotirovkalarining fundamental prognozlariga va emitentlari biznesining raqobatbardoshligini uzoq va o‘rta muddatli rejada baholashga asoslanib, shakllantirishadi. Shundan so‘ng ushbu portfelning daromadga erishish va risk darajasini pasaytirish maqsadida qimmatli qog‘ozlarni sotish yoki xarid qilish bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish orqali

boshqaradi. Jahon amaliyotining ko'rsatishicha, portfel investitsiyalar bozorining asosiy ishtirokchilari bo'lib, institutsional investorlar namoyon bo'lishadi. Bunda moliya bozorining aksariyat qismini nazorat qiluvchi Amerika institutsional investorlari (75 %gacha) nazorat qilishadi.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining asoslari yaratilib, bozor institutlari infratuzilmasi faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozoriga xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonlari soddalashtirilgan. O'zbekistondagi barqaror makroiqtisodiy vaziyat, iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi manzilli tadbirlarni moliyalashtirishga yetarli mablag'larning mavjudligi respublikaga 2009-yil oxirida kelgan Xalqaro valuta jamg'armasi missiyasi tomonidan yuqori baholandi.

Iqtisodiyotning makroiqtisodiy barqarorlashuvida jiddiy o'zgarishlarning mavjudligi, birinchidan, budjet taqchilligining mavjud emasligi, davlatning qimmatli qog'ozlar ichki bozorida yirik qarzlarni olish ehtiyojini yo'qotdi. Yuqori likvidli va daromadli davlatning ishonarli qarz vositalari bozorining qisqarib borishi bilan investorlar korporativ qimmatli qog'ozlar bozoriga e'tibor berishga majbur bo'ladilar. Mamlakat kompaniyalarida moliya bozoridan moliyaviy resurslarni mobilizatsiya qilish vositasi sifatida foydalanishga imkoniyat vujudga keldi.

Korxonalarning innovatsion rivojlanishi ehtiyojlari uchun investitsiya resurslarini mobilizatsiya qilishning yirik manbalaridan biri – qimmatli qog'ozlar bozori instrumentlari yordamida jalb qilinayotgan xorijiy investorlarning mablag'lari hisoblanadi. Mamlakat ichida makroiqtisodiy indikatorlarning barqaror sur'atlarda o'sib borishi, xususiylashtirilgan aksiyadorlik korxonalarning strategik xorijiy investorlarda mablag' sarflash obyekti sifatidagi jozibadorligini oshirdi.

Nazorat uchun savollar:

- Xorijiy investitsiyalarning mazmun-mohiyatini izohlab bering.
- Xorijiy investitsiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalab beringchi?

➢ Xorijiy investitsiyalar ichki investitsiyalardan nimasi bilan farq qiladi?

➢ Xorijiy investitsiyalar bilan bog'liq qanday risklarni bilasiz?

➢ O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning rolini va ularni jalb qilishning huquqiy asoslarini bilasizmi?

➢ O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda bevosita xorijiy investitsiyalarning ahamiyati nimalarda ko'rinadi?

➢ Milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning zarurligi nimada, deb hisoblaysiz?

➢ O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, xorijlik investorlar mamlakat hududida investitsiyalarni qanday yo'llar bilan amalga oshirishlari mumkin?

➢ Erkin iqtisodiy zona deganda nimani tushunasiz?

➢ Birinchi bo'lib erkin iqtisodiy hudud qaysi mamlakatda va qanday maqsadlarda tashkil qilingan?

➢ Iqtisodiy adabiyotlarda erkin iqtisodiy hududga berilgan ta'riflarni bilasizmi?

➢ O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish maqsadlari nimalardan iborat?

➢ Ofshor hududlar deganda nimani tushunasiz?

➢ Erkin savdo hududlari deganda nimani tushunasiz?

➢ Erkin ishlab chiqarish hududlari deganda qanday hududni tushunasiz?

➢ Erkin ilmiy-texnikaviy hududlar deganda nimani tushunasiz?

➢ Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar qonun hujjatlariga muvofiq qanday huquqlarga ega?

➢ Xorijiy investorlar bilan qo'shma korxonalar tashkil qilish mamlakatimizda qanday imkoniyatlarni yaratib beradi?

➢ Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda fond bozorining rolini izohlay olasizmi?

V BOB. INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA MUHITINING O'RNI

5.1. Investitsiya muhiti va unga ta'sir etuvchi omillar

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, investitsiya faolligining o'sish sur'atlari investitsiya muhitiga ko'p jihatdan bog'liq. Xorijiy investitsiyalarni respublika iqtisodiyotiga jalb etish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Qaysi mamlakatda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va huquqiy shart-sharoitlar mavjud bo'lsagina o'sha davlat iqtisodiyotiga investitsiya qo'yilishi mumkin. Investitsiya muhitining jozibadorligi xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirishning muhim omili hisoblanadi. O'z navbatida, investitsiya muhiti o'zi nima? Uning jozibadorligi nimalarga bog'liq? Investitsiya muhitiga qanday ta'rif berish mumkin? Qolaversa, investitsiya muhitiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi? kabi savollarning tug'ilishi, tabiiydir.

Iqtisodiyotda investitsiya faoliyatining rivojlanishi, ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilishning ko'lami, yo'nalishlari va samaradorligi, bevosita investitsiya muhitiga bog'liq. Shu sababli mazkur iqtisodiy atamaning tub mohiyatini o'rganish, yoritish va asoslab berishga bo'lgan turli iqtisodchi olimlarning qarashlari va o'ziga xos yondashuvlari orqali o'zaro ilmiy munozaralar hozirgi kunda ham davom etmoqdaki, bu o'z navbatida, investitsiyalarga oid chuqurroq bilimga ega bo'luvchilar e'tiborini o'ziga tortmasdan qolmaydi.

Iqtisodchi olimlardan A.Vaxabov, Sh.Xajibakiyev, N.Muminovlar investitsiya muhiti to'g'risida quyidagilarni ta'kidlab o'tadilar: «Investitsiya muhiti – bu xorijiy kapital qo'yilmalarining qaltislik darajasini va ulardan mamlakatda samarali foydalanish imkoniyatlarini oldindan belgilaydigan iqtisodiy, siyosiy, yuridik va ijtimoiy omillar yig'indisidir. Investitsiya muhiti kompleks, ko'pqirrali tushuncha bo'lib, milliy qonunchilik, iqtisodiy shart-

sharoitlar (inqiroz, o'sish, stagnatsiya), bojxona rejimi, valuta siyosati, iqtisodiy o'sish sur'atlari, inflyatsiya sur'atlari, valuta kursining barqarorligi, tashqi qarzdorlik darajasi kabi ko'rsatkichlarga ega»[1]. Shuningdek, mamlakatdagi investitsiya jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, me'yoriy-huquqiy, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlar majmuyi investitsiya muhitini anglatadi.

«Investitsiya muhiti» va «investitsiya iqlimi» sinonim tushunchalar sifatida ishlatiladi. Bu xususda iqtisodchi olimlardan D.G'ozibekov va T.Qoraliyevlar tomonidan quyidagi fikrlar bildirilgan: «Investitsiya iqlimi juda keng ma'noda ishlatiladigan tushuncha bo'lib, investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammo va masalalarni mujassamlashtiradi. Investor tomonidan ma'lum bir mamlakatga kapital ajratishning qulay va noqulay tomonlari belgilanadi, shu bilan bir qatorda, o'z kapitalini kiritmoqchi bo'lgan mamlakat mafkurasi, siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatiga katta ahamiyat beriladi»[2].

Investitsiya muhitining holatini investitsiya faoliyatini amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini aniqlaydigan iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, huquqiy, siyosiy, ekologik va boshqa shart-sharoitlarning umumlashtiruvchi xususiyatlari belgilab beradi. Investitsiya muhiti deganda, mamlakat iqtisodiyoti yoki uning ma'lum bir hududiga kiritiladigan investitsiyalarning samaradorligini va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, tashkiliy-huquqiy, ekologik, madaniy va boshqa shart-sharoitlar majmuasi tushuniladi. U muayyan hududga investitsiyalar kiritishning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini belgilaydigan shart-sharoitlarning mavjud ijobiy va salbiy tomonlarini anglatadi. Investitsiya muhiti holati yaratilgan huquqiy baza va uning asoslari, qonun hujjatlarining sifatli tuzilishi va ularga rioya qilinishini talab etadi.

Investitsiyaviy jozibadorlik – mamlakat, tarmoq yoki alohida olingan biror-bir korxona investitsiyalarining daromadliligi, rivojlanish istiqbollari va investitsiya riski darajasi nuqtayi nazaridan baholanishi. Investitsiyaviy jozibadorlik investitsiya salohiyati va investitsiya riski darajasini shakllantiradigan ikki guruh

[1] Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. T.: «Moliya», 2010. 153-b.

[2] G'ozibekov D.G'., Qoraliyev T.M. Investitsiya faoliyatini tashkil etish va davlat tomonidan tartibga solish. T.: TMI, 1993. 46-b.

omillarning bir vaqtda ta'sir etishi orqali aniqlanadi. Bu kabi ko'rsatkichlarga baho berish orqali investitsiyalarning maqsadga muvofiqligi hamda jozibadorligi, investitsiya riski darajasini aniqlash mumkin. Investitsiya riski darajasi investitsiya muhitiga bevosita, to'g'ridan to'g'ri bog'liqdir.

Investitsiya muhiti tabiiy shart-sharoitlar, foydali qazilmalar zaxiralari, ishchi kuchi malakasi va o'rtacha ish haqi darajasi, iqtisodiy konyunktura holati, ichki bozor sig'imi, tovarlarni tashqi bozorda sotish imkoniyatlari, valuta siyosati, kredit tizimi holati, soliqqa tortish darajasi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanganligi, xorijiy kapitalga nisbatan davlat siyosati, unga nisbatan imtiyozli shart-sharoitlarning yaratilganligi kabi omillar orqali belgilanadi.

Fikrimizcha, investitsiya muhitini ta'riflashda va uning holatiga baho berishda quyidagilarni inobatga olish zarur:

– jami ichki mahsulot, milliy daromad va sanoat ishlab chiqarishining o'sishi yoki kamayishi; milliy daromadning taqsimlanishi; jamg'arma va iste'mol munosabatlarining o'zgarishi; xususiylashtirish jarayonlarining borishi; ma'muriy yo'l bilan investitsiya faoliyatini tartibga solishning holati; alohida investitsiya bozorlarining, shu jumladan, fond va pul bozorlarining taraqqiyoti;

– investitsiya iqlimiga ta'sir etuvchi barcha omillarni hisobga olish. Bu omillar qatoriga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi: hududning iqtisodiy salohiyati, ya'ni mintaqaning pul mablag'lari bilan ta'minlanganligi; ishlab chiqarish va investitsiyalarni yo'lga qo'yish uchun bo'sh yerlarning mavjudligi; mehnat va energiya resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi; ilmiy-texnikaviy salohiyatning rivojlanganlik darajasi; olib borilayotgan umumiy xo'jalik yuritish shart-sharoitlari, ya'ni ekologik holat, moddiy ishlab chiqarish sohalarining rivojlanganligi; tugallanmagan qurilishlarning hajmi; asosiy ishlab chiqarish fondlarining eskirish darajasi; uy-joy qurilishi sohasining taraqqiy etganligi;

– mintaqada bozor muhitining tarkib topganligi, ya'ni to'laqonli bozor infratuzilmasining rivojlanganligi, xususiylashtirishning investitsiya jarayoniga ta'siri, inflyatsiya darajasi va ta'siri, aholining investitsiya faoliyatiga jalb etilish darajasi, tadbirkorlar o'rtasida raqobat muhitining rivojlanganlik darajasi, xo'jaliklararo

aloqalarning faollik darajasi, eksport imkoniyatlari, xorijiy kapitalning mavjudlik darajasi;

– siyosiy omillar, ya'ni aholining mintaqa yoki mamlakat hokimiyat organlariga ishonchi darajasi, mintaqa rahbariyatining markaziy davlat rahbariyati bilan munosabatlari, ijtimoiy barqarorlik darajasi, milliy, diniy munosabatlarning ahvoli;

– ijtimoiy va madaniy omillar, ya'ni aholi hayot darajasi, maishiy-yashash sharoitlari, tibbiy xizmatning rivojlanganligi, ichkilikbozlik, giyohvandlik va shunga o'xshash salbiy odatlarning aholi o'rtasida tarqalganlik darajasi, jinoyatchilik darajasi, haqiqiy ish haqining o'rtacha miqdori, aholi ko'chishining investitsiya jarayoniga ta'siri, aholining o'z davlati va chet davlat tadbirkorlariga nisbatan munosabatlari, xorijlik mutaxassislarning ishlashi uchun shart-sharoitlar;

– tashkiliy-huquqiy omillar, ya'ni hokimiyatning o'z va chet davlat investorlariga munosabati, mintaqa rahbariyatining investitsiyaga doir qonun va me'yorlarga amal qilishi; korxonani ro'yxatdan o'tkazish muammolari va uni hal qilish darajasi, ma'lumotlarni olish imkoniyatlari, mahalliy ma'muriyatning malakaviy darajasi, huquqni himoya qilish idoralari faoliyatining samaradorligi, tovarlarni, kapitalni va ishchi kuchini tashish va ko'chirish shart-sharoitlari, mahalliy tadbirkorlarning ishchanlik sifatlari va madaniy-axloqiy darajasi;

– moliyaviy omillar, ya'ni mintaqa budjetining daromadlari, aholi jon boshiga budjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi, markaziy va mintaqa budjetlaridan moliyaviy mablag'lar olishning imkoniyatlari, xorij valutasida kredit olish imkoniyatlari, bank krediti foizlari darajasi, banklararo hamkorlikning rivojlanganligi, har ming aholiga bank kreditlarining to'g'ri kelgan qismi, uzoq muddatli kreditlarning umumiy kredit qo'yilmalaridagi vazni, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan omonatlar miqdori, zarar ko'rib ishlovchi korxonalarning umumiy korxonalar miqdoridagi solishtirma vazni va boshqalar.

O'ylaymizki, yuqorida keltirilgan omillar mintaqaning investitsiya muhitini yetarlicha ifodalab bera oladi.

Qulay investitsiya muhitini yaratishning muhim jihatlaridan biri huquqiy-me'yoriy baza bo'lib, u har bir salohiyatli investorning mulkiy manfaatlarini himoyalashi, kafolatlashi va shu-

ningdek, mamlakatdagi mavjud investitsiya mexanizmining tushunarli va aniq bo'lishini ta'minlashi lozim.

Sodda qilib aytganda, investitsiya muhiti investitsiya munosabatlarini amalga oshirish mumkin bo'lgan imkoniyatlar va qulayliklar majmuasini o'zida aks ettirgan voqelikdir. Investitsiya muhitini yaxshilashdan maqsad investitsiya salohiyatini oshirish uchun zarur va maqbul shart-sharoitlarni yaratish, investitsiya faoliyatini jadallashtirish va pirovardida, iqtisodiyotni yuksaltirish, ijtimoiy muammolarni hal etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini yaratishdan iborat.

Respublikada siyosiy-iqtisodiy sharoitning mavjudligi, ya'ni qulay investitsiya muhitining yaratilishi va xorijiy kapitalni qabul qilish tizimining samarali bo'lishi xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning zaruriy shartidir. Investitsiya muhiti investitsiya resurslarini joylashtirish uchun umumiy mezon bo'lib, birinchi navbatda, kapital mablag'larning daromadliligini ta'minlab beradi.

Mamlakatning investitsiya muhitini shakllantiradigan omillar majmuyini 5.1-jadval orqali ifodalash mumkin.

5.1-jadval

Mamlakatning investitsiya muhiti va uni keltirib chiqaradigan omillar[1]

Omillar	Mazmuni
Iqtisodiy holat	Mamlakat to'lov balansining holati, valuta-pul tizimi barqarorligi, tashqi iqtisodiy aloqalarnnng rivojlanganligi, ichki bozor sig'imining kattaligi, inflyatsiya darajasi, YaIM, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari
Huquqiy baza	Yangi sharoitlarga mos keladigan, mamlakat va uning alohida tarmoqlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqaradigan huquqiy-me'yoriy, jumladan, respublika Prezidentining farmonlari va qarorlari, hukumat qarorlari, tegishli nizom va yo'riqnomalarning mavjudligi
Tabiiy xomashyo resurslari	Minerial xomashyo, yoqilg'i-energetika va suv resurslari zaxiralari, qishloq xo'jaligi xomashyosini ishlab chiqarish hajmlari
Mehnat resurslari va bandlik	Iqtisodiy faol aholi soni, band aholi ulushi, ishsizlik darajasi, xizmatchilar daromadi darajasi, kadrlarning malaka darajasi, aholining savodxonligi

[1] Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. T.: «Moliya», 2010. 174-b.

Ishlab chiqarishning texnik bazasi	Asosiy ishlab chiqarish fondlari, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, uskunalarning foydalanish muddati, asosiy fondlarning eskirishi darajasi
Ilmiy-texnika salohiyati	Iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan investitsiyalar, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar hajmlari, investitsiya risklari darajasi, ishlab chiqarishning texnik jihozlanishi, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish va ITTKI sohasini rivojlantirish holati, mahsulotning fan sig'imkorligi katta va yuqori texnologik turlarini ishlab chiqarish
Moliya-kredit tizimi	Soliq va kredit siyosati, iqgisodiyotning real sektori korxonalarining foydalilik va rentabellik darajasi. Narx siyosati va narxni shakllantirish siyosati
Infratuzilma	Bank tizimining rivojlanishi holati, transport, kommunikatsiya xizmatlari va mexmonxona xo'jaligi sohalari, tovar va fond birjalari, marketing, konsalting, auditorlik xizmatlari, sug'urta sohasi tarmog'ining ishonchliligi
Ekologik vaziyat	Atrof-muhitning ifloslanish darajasi, radiatsion fon, zararli chiqindilar, tabiiy iqlim va uning o'zgarishi, xorijiy fuqarolarning unga moslashish darajasi

Har qanday davlatga investitsiyalarning kirib kelishi va rivojlanishi mazkur mamlakatdagi investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillarga bevosita bog'liq bo'ladi.

Qulay investitsiya muhitini yaratishda huquqiy-me'yoriy baza har bir salohiyatli investorning mulkiy manfaatlarini himoyalashi, kafolatlashi va shuningdek, mamlakatdagi mavjud investitsiya mexanizmining tushunarli va aniq bo'lishini ta'minlashi lozim.

Mamlakatimizdagi investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillar, asosan, to'rt guruhga bo'linib, ular huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni tashkil etadi (5.2-jadval).

5.2-jadval

Investitsiya muhiti holatini belgilovchi kengaytirilgan omillar

Ta'sir etuvchi omillar guruhi	Ko'rinishlari
I. Siyosiy omillar	1. Davlatning investitsiyalar, xususan, xorijiy investitsiyalar bo'yicha siyosati 2. Davlatning iqtisodiyotga aralashish darajasi 3. Mamlakatning xalqaro shartnomalarga qo'shilganlik darajasi 4. Mamlakatning xalqaro bitimlarga rioya qilishi

	5. Siyosiy ahvolning barqarorligi (siyosiy harakatlar, to'qnashuvlar, qo'shni davlatlarning osoyishtaligi) 6. Siyosiy hokimiyatning maqsadli harakati 7. Davlat apparatining samarali ish yuritishi 8. Ko'p partiyaviylik va siyosiy guruhlarning mavqeyi 9. Soliq, valuta, narx, pul-kredit siyosatining investitsiya siyosatiga uyg'unligi 10. Mamlakatdagi ekologik vaziyat va hukumatning ekologik sog'lomlashtirish bo'yicha siyosati ko'lami
II. Iqtisodiy omillar	1. Mamlakatning iqtisodiy ahvoli 2. Inflyatsiya darajasi 3. Soliq imtiyozlari 4. Bojxona tartibi 5. Mamlakatning tabiiy va xomashyo resurslari holati 6. Ishchi kuchi holati va qiymati 7. Ishchi kuchidan foydalanish tartibi 8. Muayyan tovarlar uchun talab va taklif 9. Raqobat va bahoning erkinligi 10. Valuta konvertatsiyasi va milliy valuta kursining barqarorligi 11. Bank foiz stavkalari 12. Mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalari 13. Mamlakatning geografik-hududiy jihatdan joylashuvi (tabiiy ofatlar, dengiz va quruqlik yo'llari, iqlim sharoiti)
III. Ijtimoiy omillar	1. Xususiy mulk hamda xorijiy investitsiyalarga nisbatan mahalliy aholi munosabati 2. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli 3. Aholining mafkuraviy qarashlari va ularning turli-tumanligi 4. Mamlakatda turli millatlikka nisbatan mavjud munosabat 5. Aholining savodxonlik darajasi 6. Ishchi-mutaxassislar malakasi, ko'nikmalari va tajribalarining o'sib borishi va unga intilish 7. Yangiliklar va turli xil ixtirolarga aholining munosabati va ularni qabul qilish darajasi
IV. Huquqiy omillar	1. Investitsiya faoliyati huquqiy asoslarining mustahkamlik darajasi 2. Investitsiya faoliyatini bevosita ta'minlovchi huquqiy asosning mustahkamlik darajasi 3. Investitsiya faoliyatining me'yoriy asoslari (farmonlar, qarorlar, qonunlar, nizomlar, yo'riqnomalar va h.k.)

O‘zbekistonda jahon talablariga mos, milliy xususiyatlarga xos investitsiya dasturlari va loyihalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun quyidagi qo‘shimcha chora-tadbirlarni bajarish lozim bo‘ladi:

– iqtisodiyot tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni proporsional jalb etishning umumlashgan aniq dasturini ishlab chiqish;

– tarmoq xususiyati va iqtisodiyot rivojiga qarab erkin iqtisodiy hududlar tashkil etish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag‘batlantirish;

– tarmoqlardagi mas’ul xodimlarning xorijiy investitsiyalarni jalb etishdagi faolligi va mas’ulligini oshirish;

– tarmoqlarda aloqa, telekommunikatsiyani rivojlantirish orqali investorlarning erkin va to‘liq axborotlar olishini ta’minlash.

O‘zbekistonda xorijiy investorlar faoliyati uchun qulay investitsiya muhitini yaratish va xorijiy investorlarni respublikaga ko‘proq jalb etish maqsadida ularga qator soliq va bojxona imtiyozlari belgilangan.

Har bir mamlakatdagi investitsiya muhiti, birinchi navbatda, uning siyosiy barqarorligidadir. Xuddi ana shu omil xorijlik investorlarning boshqa mamlakatga uzoq muddatli shartnomalar asosida resurslarni kiritish imkoniyatini beradi. Bunday muhit uzoq muddatli investitsiya rejalarini amalga oshirishda juda muhimdir. O‘zbekistondagi investitsiya muhitining asosiy xususiyati uning Markaziy Osiyoda eng barqaror mamlakat ekanligidadir.

Albatta, bu yerda xorijiy investor u yoki bu mamlakatda o‘z kapitalining xavfsizligini ta’minlash masalalariga, birinchi navbatda, e’tiborini qaratadi. Shundan keyin, u o‘z kapitalidan foyda olishning qanchalik samaradorligi haqida o‘ylab ko‘radi. Demak, investitsiya muhiti investor uchun shunday bir shart ekanki, unda investor u yoki bu mamlakatga kiritayotgan kapitalning riski haqida o‘ylab ko‘radi. Buning uchun u kapital riskiga ta’sir etuvchi quyidagi omillarni e’tiborga oladi:

– mamlakat ichkarisidagi siyosiy barqarorlik;

– mintaqadagi yaqin qo‘shnichilik munosabatlari;

– hukumatning investitsiya munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan qonun-qoidalarining mukammallik darajasi.

Investitsiya salohiyati makroiqtisodiy xususiyatlar, hududning ishlab chiqarish omillari bilan to'yinganligi, aholining xaridorgir talablari va boshqalarni hisobga oladi.

Investitsiya riski darajasining yuqoriligi investitsiya va undan keladigan daromadni yo'qotish ehtimolini ko'rsatadi. Oxir-oqibat, investitsiya faolligi uning investitsiyaviy jozibadorligiga bog'liq.

Investitsiya faolligi – asosiy kapitalga qo'yilgan investitsiya ko'rinishidagi investitsiya faoliyatining real (haqiqiy) rivojlanishidir.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun qulay investitsiya shart-sharoitlarini yaratish bo'yicha chora-tadbirlar quyidagilar hisoblanadi: investitsiya faoliyatini me'yoriy-huquqiy ta'minlashni takomillashtirish; ustuvor ishlab chiqarish sohalaridagi xususiy sektorga oid investitsiya loyihalarini amalga oshirish va ularni o'zlashtirishda davlat ko'magining ahamiyatini oshirish; investitsiya dasturlarini ishlab chiqish orqali investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirish; investitsiya siyosatiga zarur o'zgarishlarni tezkor ravishda kiritish maqsadida investitsiya jarayonlarining doimiy monitoringini olib borish.

Investitsiya muhiti mikroiqtisodiyot darajasida ikki tomonlama, ya'ni investor va aniq davlat organlari, xo'jalik subyektlari o'rtasidagi munosabatlarda o'z aksini topadi. Investitsiya muhiti har qanday aniq vaqt uchun obyektiv holat bo'lib, kapital qo'yish uchun mavjud sharoitlarning majmuasini o'zida qamrab olsa-da, biroq, davlat organlarining boshqarish faoliyati ta'sirida shakllanadi. Shuning uchun davlatning investitsiya siyosati eng asosiy omillardandir. Shu ma'noda har bir davlat kapital import qilishda o'zining aniq kapital qabul qilish tizimiga ega bo'ladi. Kapital qabul qilish tizimi bu xorijiy kapitalga nisbatan davlat siyosatining va qonunlarining, me'yoriy hujjatlarining majmuasidir. O'zbekistonda ham ishlab chiqarishga kapital qabul qilish tizimi yildan yilga takomillashib bormoqda. Hozirda xorijiy investitsiyalarga bo'lgan munosabatda zamonaviy xalqaro xo'jalik aloqalari qoidalariga asosalangan holda qonun va qarorlar ishlab chiqilmoqda, shuningdek, xorijiy investitsiyalarga xizmat qiluvchi infratuzilmalar yaratilmoqda.

Respublikaning tashqi iqtisodiy siyosati jahon bozoridagi mavqeyini mustahkamlashga, uning to'lov balansini kuchayti-

rishga, qulay investitsiya muhitini vujudga keltirishga qaratilgandir. Shuningdek, tashqi iqtisodiy siyosatda ustuvor yo'nalish sifatida xorijiy sarmoyalarni respublika iqtisodiyotiga keng ko'lamda jalb etish uchun zarur huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy hamda boshqa shart-sharoitlarni vujudga keltirish, qo'shma korxonalarni tashkil qilishda ko'maklashish, shuningdek, sarmoyalarning manfaatlari himoya qilinishi ta'minlanishi muhim vazifadir.

O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi qonuniga ko'ra, xorijiy investitsiyalar davlat huquqiy himoyasi bilan ta'minlanib, ularning huquqiy sharoiti boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning sharoitidan kam bo'lmasligi, shuningdek, xorijiy investorlar investitsiyasining hajmi, turi, yo'nalishini, bu investitsiyalarni amalga oshirishda yuridik, jismoniy shaxslarni jalb etishni mustaqil belgilashi va boshqa shu kabi huquqlari mustahkamlab qo'yilgan. Bu qonunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi o'z hududida investitsiya faoliyatini amalga oshirayotgan xorijiy investorlarning huquqlari umume'tirof etilgan xalqaro huquq me'yorlariga muvofiq himoya qilinishiga kafolat beradi. Shuningdek, qonunga binoan, xorijiy investorlarning qonuniy faoliyatlari natijasida olgan foyda va mablag'larini xorij valutasida xorijga hech qanday cheklovlarsiz o'tkazishlari kafolatlanadi, xorijlik investorlarning investitsiyalarini va tavakkal harakatlarini sug'urtalash ixtiyoriylik asosida amalga oshiriladi.

O'zbekistonda investitsiya muhiti yildan yilga barqarorlashib borayotgan bo'lsa-da, lekin, hozircha iqtisodiyotga yirik hajmdagi investitsiyalar asta-sekinlik bilan kirib kelmoqda. Bunga: O'zbekistonning dengiz savdo yo'llariga to'g'ridan to'g'ri chiqa olmasligi; telekommunikatsiya aloqalarining sust rivojlanganligi; iqtisodiyotda milliy valuta qadrining erkin almashadigan valuta kursiga nisbatan pastligi; ayrim qonunlar va me'yoriy hujjatlardagi kamchiliklarning mavjudligi va xususan, foydali qazilmalar bo'yicha maxsus qonunlarning qabul qilinmaganligi; kredit tizimidagi, valutani konvertatsiyalashdagi mavjud kamchiliklar va qimmatli qog'ozlar bozorining endigina rivojlanib kelayotganligi kabilar sabab bo'lmoqda, deb bilamiz.

Demak, bugungi kunda respublika iqtisodiyotini jahon iqtisodiyotiga yaqinlashtirish zarur. Buning uchun tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish, xo'jalik ishlarini yurituvchi subyektlarga xorijiy sheriklar bilan bevosita aloqalar o'rnatish, tovarlarni eksport va import qilishda birmuncha imtiyozli tartibni joriy qilish borasida aniq maqsadni ko'zlab siyosat olib borish lozim. Bunda investitsiya riskini e'tiborda tutmoq juda muhimdir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, respublikada muayyan darajada xorij kapitalini qabul qilish tizimi shakllangan. Bunda xorij kapitaliga nisbatan davlat siyosatini ifoda etadigan huquqiy me'yorlar, qoidalar va muassasalar majmuyi nazarda tutiladi. Xorij kapitalini qabul qilish tizimi investitsiya muhitining tarkibiy qismiga kiradi va ayni paytda mustaqil hisoblanadi, chunki bu tizimni o'zgartirish xususiyatiga ega. Bu tizimning elementlari quyidagilardan iborat; xorij kapitali uchun soliq va bojxona imtiyozlarini berish; foydani boshqa iqtisodiyotga o'tkazishning qulay rejimi; milliylashtirishdan kafolatlar; ro'yxatdan o'tkazishning oddiy tartib qoidalari; konsessiyalar berish; erkin iqtisodiy zonalar barpo etish; aksiyadorlik kapitalida hissani cheklash; majburiy eksport kvotasini joriy qilish; narxlarni nazorat qilish; tashqi savdo operatsiyalarini litsenziyalash va boshqalar.

Qulay investitsiya muhitini rivojlantirishda soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish beqiyos ahamiyatga ega. Soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini to'rt jihatdan olib qarash mumkin, ular: soliq to'lashdan vaqtinchalik ozod qilish; soliq stavkasini kamaytirish; soliqqa tortiladigan bazani toraytirish; soliq majburiyatini bajarishni kechiktirish (soliq krediti). Qayd qilingan rag'batlar u yoki bu darajada xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi keng doiradagi korxonalar uchun tatbiq etiladi.

Rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlarining amal qilishini, shuningdek, investitsiyalarni inson kapitaliga, texnologik o'sish va texnika bilimlari sohalarini rivojlantirishga, kengaytirishga ham joriy qilish kerak. Bularning barchasi O'zbekistonda investitsiya muhitini modellashtirish masalasini kun tartibiga qo'yadi. Bu model xorijiy investorga ta'sir ko'rsatadigan omillar to'g'risida mukammal ma'lumot to'plash, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatni yaqqol baholash hamda xorijlik sheriklar harakatlari

motivatsiyasini anglash, xorij investitsiyalarini tartibga solishning asosiy vositalarini isloh qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Shuningdek, XIIKlarning daromadlarini soliqqa tortishda qo'llaniladigan soliq imtiyozlarida, birinchidan, bu soliq imtiyozlarining muddati, hajmi, qo'llanish shart-sharoiti aniq ko'rsatilgan bo'lishi; ikkinchidan, bu yengilliklar xorijiy investorlarga yaxshi tanish va tushunarli bo'lib, kamida besh-o'n yilga belgilanishi; uchinchidan, soliq imtiyozlari o'zgarmas va qat'iy bo'lishini ta'minlash lozim. Shundagina bu imtiyozlar o'z samarasini berishi mumkin.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida, davlat ayrim tizimlarning shakllanishiga, yangi hududlar va ishlab chiqarishning o'sishida boshlang'ich manbalarning tashkil etilishiga yoki ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratishi lozim. Shuningdek, davlat hisobidan investitsiyalarni moliyalashtirishda, ularning strategik rivojlanishida ahamiyatga ega bo'lgan, lekin kelajakda tez samara bera olmaydigan tarmoqlar va ilmiy tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Butun dunyoda davlat mablag'lari, asosan, yo'l qurilishi, shahar obodonchiligi va ishlab chiqarish infratuzilmalarining rivojlanishi kabi umumiy miqyosdagi katta ishlarga sarflanadi. Iqtisodiyotning bozor mexanizmiga asoslangan sharoitida davlatning roli asta-sekin torayib borib, uning qo'lida, asosan, davlat miqyosi darajasidagi vazifalar qoladi. Ya'ni ijtimoiy sohaning boshlang'ich ta'limi, sog'liqni saqlashning tez tibbiy xizmat ko'rsatish sohasi, davlat boshqaruvi va boshqalarni moliyalashtirish budjet hisobidan amalga oshiriladi.

O'zbekistonda intellektual salohiyatni o'stirish uchun kapital qo'yish kelajakda respublika iqtisodiyotini rivojlantirishning eng asosiy omillaridan bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun bu sohada kapital qo'ygan investorlarga soliq imtiyozlarini berish o'ta muhimdir.

O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar oqimining jadal sur'atlarda o'sishini quyidagi omillar belgilab bermoqda:

– mamlakatdagi investitsiya muhitining barqarorligi. Bu yirik investitsiya loyihalari uzoq muddatga mo'ljallab amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi. Yuqoridagi sabablarga ko'ra, investorlarga,

birinchi navbatda, xorijiy investorlarga biznes olib borish uchun qulay investitsiya muhiti, ishonch kerak;

– valuta kursini tartibga solishdagi ijobiy o'zgarishlar. Milliy valutaning diversifikatsiyalanishuvi mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilarga xorijiy tovar ishlab chiqaruvchilar va import qilinadigan tovarlarga nisbatan raqobat kurashida ma'lum afzallikni beradi;

– milliy eksport tarkibidagi asosiy tovarlarga (oltin, mis, paxta) qulay narx kon'yunkturasi yirik milliy eksportyorlarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirdi va o'zlarining investitsiya dasturlarini moliyalashtirishning faollashuviga, kengayishiga olib keldi. Bu, o'z navbatida, o'zaro bog'liq tarmoqlar mahsulotiga talabning o'sishiga sababchi bo'ldi;

– davlat moliyasi va davlat qarziga xizmat ko'rsatish holatining mo'tadillashuvi, mamlakatimizga 18 oylik import miqdoriga teng oltin-valuta zaxiralarining jamlanishiga, budjet taqchilligini bartaraf etishga va 2005-yildan boshlab budjet profitsitiga chiqishga imkon berdi. Jumladan, 2013-yilda davlat budjeti YaIMga nisbatan 0,4 foiz miqdorida profitsit bilan ijro etildi.

Mamlakatimiz va xorijiy investorlar uchun yaratilgan qulay investitsiya muhiti tufayli aholi jon boshiga to'g'ri keladigan investitsiya miqdori 1990-yildagi 105,2 AQSh dollaridan 2011-yilda 365,4 AQSh dollariga etishi ta'minlandi. Agar 1993-yilda jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori 0,05 AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2011-yilda bu ko'rsatkich 98,1 AQSh dollariga etdi (5.1-rasm).



5.1-rasm. **Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan investitsiyalar, AQSh dollari hisobida**

Xullas, investitsiya muhiti investorlarning samarali va erkin faoliyat yuritishi uchun yaratilgan muhit bo'lib, uning investorlar uchun qulayligi, jozibadorligi unga ta'sir etuvchi huquqiy, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy omillarning ta'sir darajasiga bevosita bog'liqdir.

5.2. Investitsiya muhitini baholash xususiyatlari

Har qaysi investor ma'lum bir mamlakat va uning hududiga investitsiya kiritishdan avval o'sha mamlakat va hududning investitsiya muhitini baholash, uning jozibadorligini aniqlashga kirishadi. Albatta, bunda yuqorida ko'rib o'tilgan omillar o'rganiladi, tahlil qilinadi va shu asosda investitsiya qarorlari qabul qilinadi.

Qabul qiluvchi mamlakatning investitsiya muhiti xorijlik investorlar tomonidan baholanishida, birinchi navbatda, uning xavfsizligi, investitsiyalash maqsadlariga muvofiqligi, mamlakatga xos risklar darajasi, investitsiyalarni rag'batlantirish tadbirlariga e'tibor qaratiladi.

Konsessiya sharoitlari, eksport sanoati hududlari, erkin savdo hududlari, bojxona bojlari amal qilmaydigan hududlarning bo'lishi va boshqalar bevosita xorijiy investitsiyalar uchun muhim hisoblanadi.

Xorijiy investor uchun yuqorida qayd qilingan barcha omillar muhimdir. Shuning uchun ham rivojlangan ko'pgina mamlakatlarda investitsiya loyihalarini baholaydigan, investitsiyalar qo'yilishiga talab bo'lgan davlatlarning investitsiya muhitini o'rganadigan va aniq xulosa va ma'lumotlarni investorlar uchun taqdim etuvchi maxsus firmalar, tashkilotlar mavjuddir.

Masalan: Shvetsariya, Germaniya kabi qator mamlakatlarning nufuzli axborot xizmatlari davlatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy holatini baholash uchun har biri «0» dan «4» gacha bo'lgan (0-qoniqarsiz va 4-o'ta qulay) 4 balli shkala bo'yicha baholanadigan 15 ta muhim ko'rsatkichni hisobga oladigan «BERI»[1] (business environment risk index)ni qo'llaydi.

Quyidagi 5.2-rasmda ular investitsiya qarorlarini qabul qilish bo'yicha ahamiyatidan kelib chiqib aks ettirilgan.

[1] Shu nomdagi firma tomonidan ishlab chiqilgan.



5.2-rasm. **Xorijiy investitsiyalar uchun hudud jozibadorligini (maftunkorligini) baholashning BERI indeksi**

5.2-rasmdan ko'rinadiki, «BERI» indeksiga kirgan ko'rsatkichlar orasida siyosiy barqarorlik (0,12 ball) eng katta ahamiyatga ega. Tahlillar ko'rsatishicha, G'arb ekspertlari, aynan, harbiy harakatlar yoki ichki vaziyatning keskinlashuvi yuz bergani bois, shuningdek, iqtisodiy va siyosiy nobarqarorlik tufayli Gruziya, Moldava va Tojikistonga reytinglarda so'nggi o'rinlar berishgan, ya'ni ular «BERI» indeksining eng past ko'rsatkichi darajasiga ega.

Mazkur usulning mohiyati shundaki, obro'li ekspertlarni [1] tanlash asosida va ularga 5 balli (0 dan 4 ballgacha va ularning yig'indisi 1 ga teng) shkalada 15 ta asosiy mezonlar bo'yicha

[1] Odatda, ekspertlarning umumiy soni taxminan 100 nafardan iborat bo'ladi.

mamlakat riskini baholash taklif etiladi. Ushbu usulda baholash mezonlari va ularning qiymatlari quyidagilardan iborat[1]:

– siyosiy barqarorlik (0,12);

– xorijiy investitsiyalarga bo'lgan munosabat (0,06);

– milliylashtirilish xavfi (0,06), agar mamlakat qonunchiligida mulkni haq to'lamasdan ekspropriatsiya qilish ko'zda tutilgan bo'lsa, 0 ball qo'yiladi;

– valutaning devalvatsiya qilinish ehtimoli va darajasi (0,06);

– to'lov balansining holati (0,06);

– biznesning byurokratlashish darajasi (0,04);

– iqtisodiy o'sish sur'ati (0,1);

– valutaning erkin almashinuv darajasi (0,1);

– shartnoma majburiyatlarini bajarish soni (0,06);

– mehnat unumdorligi darajasi va ish haqi xarajatlari (0,08);

– yuridik va marketing maslahatlarini olish, malakali mutaxassislarni jalb qilish imkoniyati (0,02);

– aloqa va transportni tashkil qilish (0,04);

– davlat organlari va jamoat tashkilotlarining munosabatlari (0,04);

– qisqa muddatli kreditlarni olish shartlari (0,08);

– uzoq muddatli kreditlar, xususiy kapitalni olish, foydalanish shartlari (0,08).

Umuman olganda, «BERI» xizmati bu borada katta obro' qozongan tashkilotdir. Mazkur tashkilot kapital import qiluvchi mamlakatlardagi investitsiya muhitini tahlil qilib, investitsiyalarning risklilik darajasini aniqlab beradi. «BERI» xizmati matbuotlar orqali turlicha indekslar bilan investorlarning xorijiy mamlakatlarga investitsiya qo'yishining xavf-xatarlilik, risk darajasini aniqlab beradi. Hozirda bu xizmat ko'rsatuvchi tashkilot 55 dan ortiq kapital import qiluvchi mamlakatlardagi investitsiya muhitini 15 ta ko'rsatkichni qamrab oluvchi mezon (ball) bilan baholamoqda. Bunda mamlakat investitsiya muhiti qanchalik yuqori ballga ega bo'lsa, u shunchalik barqaror mamlakat hisoblanadi. Bu ball indekslarini hisoblashda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy omillar ta'siri ham hisobga olinadi. Bu tashkilot faqatgina

[1] Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. T.: «Moliya», 2010. 155-156-b.

hozirgi joriy davrnigina emas, balki istiqbolda kutilayotgan o'zgarishlarni ham baholaydi.

Bu kabi xizmatlar faqatgina xususiy firmalar tomonidangina emas, balki davlat yoki davlat-xususiy firmalari tomonidan ham bajariladi. Bu kabi xizmatlarni tashkil etishda ko'proq investitsiyaga talabi bo'lgan mamlakatlarning taklifi bo'lishi zarur. Shuning uchun bu tarzdagi tashkilotlarni O'zbekistonda ham tashkil qilish xorijiy investorlar uchun ham, ichki investorlar uchun ham muhim ahamiyatga ega.

5.3-jadval

O'zbekiston iqtisodiyoti uchun ICOR ko'rsatkichlari[1]

Yillar	YaIM, mlrd. so'm	Yalpi investitsiyaning yalpi ichki mahsulotga nisbati, foiz hisobida	YaIMning qo'shimcha o'sish sur'ati, foiz hisobida	ICOR (YaIM qo'shimcha o'sishining kapital sig'imkorligi)
2002	7405,2	19,3	4,0	6,4
2003	9837,8	19,3	4,2	4,6
2004	12189,5	20,3	7,4	2,6
2005	15210,0	20,8	7,0	2,9
2006	20759,3	19,5	7,9	2,6
2007	22731,4	19,4	9,5	2,1
2008	36839,4	23,0	9,0	2,2
2009	48095,0	26,1	8,1	2,8
2010	61831,2	25,0	8,5	3,1
2011	77750,6	23,5	8,3	3,0
2012	96589,8	22,9	8,2	2,7
2013	118986,9	23,0	8,0	2,9

Bir vaqtning o'zida investitsiyalar samaradorligini aniqlash ularni safarbar etishning istiqbollarini bashoratlashda muhim ahamiyatga ega. Qolaversa, iqtisodiyot bo'yicha investitsiyalar taqsimotining to'g'ri yo'nalishlarini aniqlab olishga imkon beradi. Shu maqsadda foydalaniladigan ICOR (incremental capital-output ratio) koeffitsiyenti asosiy kapitalga qo'yilgan mablag'-larning kelgusi yilda YaIMning o'sishiga ta'sirini aniqlashga imkon beradi va YaIMda investitsiyalar salmog'ining keyingi yildagi YaIMning qo'shimcha o'sish sur'atiga nisbatini ifodalaydi.

[1] Jadval O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida tuzilgan.

ICOR koeffitsiyenti investitsiya resurslarining samarali ishlatilishini belgilab beruvchi ko'rsatkich hisoblanib, u qanchalik kichik bo'lsa, shunchalik ahamiyatli hisoblanadi va aksincha[1].

Investitsiyalar iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan birga kelgusida investitsiyalash manbalarini yaratish uchun ham xizmat qiladi. Shu sababli yalpi investitsiyalarning YaIMga nisbatan ulushi YaIMning o'sish sur'atidan 4-8 marotaba ko'p bo'lishi lozim. Qolaversa, yalpi investitsiyalarning aholi jon boshiga to'g'ri kelgan miqdorini va uning o'tgan yilga nisbatan o'sish darajasini aniqlash investitsiyalar samaradorligini real baholashning muhim sharti hisoblanadi. Shuningdek, muayyan bir tarmoq bo'yicha yalpi investitsiyalarning samaradorligini aniqlashda joriy davrda tarmoqda band bo'lgan kishilar boshiga nisbatan to'g'ri kelgan o'rtacha investitsiyalar miqdorini hisoblash ham foydalidir.

$$ICOR = I : \Delta YaIM \qquad (5.1),$$

bu yerda: **I** – o'tgan yilda YaIMda investitsiyalarning ulushi; **ΔYaIM** – yalpi ichki mahsulotning o'tgan yilga nisbatan qo'shimcha o'sish sur'ati.

O'zbekiston iqtisodiyoti uchun ICOR ko'rsatkichi darajasini quyidagi jadval orqali ko'rish mumkin. Jadval ma'lumotidan ko'rinadiki, tahlil etilayotgan davrda YaIMning kapital sig'imkorligini aks ettiruvchi ICOR samaradorligi ko'rsatkichi 2002-yilda 6,4 ga teng bo'lgani holda, 2003-yilda 2,3 ni tashkil etdi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, ushbu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlarda 2,4 ga teng[2].

ICOR koeffitsiyentini hisoblash uslubiyotiga asoslanib, daromad o'sishining kapitalga nisbati ko'rsatkichi o'tgan yilgi yalpi investitsiyalarning (YaIMga nisbatan foizda) joriy yildagi YaIMning o'sish sur'atiga nisbati sifatida aniqlanadi. Lo'nda qilib aytganda, o'tgan yilgi investitsiyalar hajmi joriy yildagi YaIMning o'sishida o'z natijasini beradi.

Bu ko'rsatkich qanchalik kichik bo'lsa, shunchalik ahamiyatli (ijobiy) hisoblanadi. Investitsiya mablag'lari samaradorligini aniqlab beruvchi ko'rsatkichlar va ularning tizimlari talaygina.

---

[1] Siddiqov A. Sanoat ishlab chiqarishga yo'naltirilgan investitsiya mablag'lari samaradorligi. // «Bozor, pul va kredit», 2004. №7-8. 48-b.

[2] Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. T.: «Moliya», 2010. 170-b.

Ular ichida hisoblanishi nuqtayi nazaridan qulay bo'lgan ICOR ko'rsatkichidan, mamlakatimiz iqtisodiyotiga, umuman, real sektorga yo'naltirilgan investitsiyalar samaradorligini aniqlashda foydalanamiz.

Jahon amaliyotida mamlakatning investitsiya muhitini baholash borasida turli yondashuvlar mavjud. Ushbu yondashuvlar bir-biridan investitsiya muhitini tashkil etuvchi omillarni to'liq yoki qisman qamrab olishi bilan farq qiladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, «Standart & Poor's», «Moody's» va «Fitch ibca» jahondagi eng yirik reyting agentliklardan hisoblanib, ular emitentning qarz majburiyatlarini ko'rsatilgan muddatda va to'laqonli bajara olish imkoniyatlari va emitentlarning kredit bera olish qobiliyatiga baho beradilar. Agentliklar tomonidan ishlab chiqilgan va tuzilgan reytinglar mamlakat investitsiya muhitini ma'lum darajada baholash imkonini beradi. Masalan, «Standart & Poor's» uslubiyotiga ko'ra, uzoq muddatli reyting eng yuqori «AAA» ko'rsatkichidan eng quyi «D» ko'rsatkich oralig'ida o'zgarib boradi. «AA» dan «SSS» ko'rsatkichigacha bo'lgan oraliq reytingi «musbat» (+) yoki «manfiy» (−) belgilar bilan to'ldirib borilishi mumkin va ular asosiy ko'rsatkichlarga tegishli bo'lgan oraliq ko'rsatkichlar hisoblanadi. Qarz majburiyatlarini bajarish sifati reytingning quyidagi ko'rsatkichlari orqali baholanadi:

– AAA – qarz majburiyatlarini ko'rsatilgan muddatda va to'liq bajarishning eng yuqori qobiliyatini aks ettiradi;

– AA – qarz majburiyatlarini ko'rsatilgan muddatda va to'liq bajarishning yuqori qobiliyatini anglatadi;

– A – qarz majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarishning nisbatan yuqori qobiliyati, ammo tijorat, moliya va iqtisodiy sharoitlardagi salbiy o'zgarishlar ta'sirini ifodalaydi;

– VVV – qarz majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarishning yetarli darajadagi qobiliyati bo'lib, moliya va iqtisodiy sharoitlardagi salbiy o'zgarishlar ta'sirining yuqori darajada sezilishini ifodalaydi;

– V – moliya va iqtisodiy sharoitlardagi salbiy o'zgarishlar ta'sirining keskin sezilishi hamda qarz majburiyatlarini ko'rsatilgan muddatda va to'liq bajarish imkonining mavjudigini bildiradi;

– SSS – emitentning qarz majburiyatlarini bajarmaslik ehtimolining mavjudligi bo'lib, qarz majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilishi qulay tijorat, moliyaviy va iqtisodiy shart-sharoitlar bilan belgilanadi;

– SS – hozirgi davrda emitentning qarz majburiyatlarini bajarmaslik ehtimolining yuqori ekanligini ifodalaydi;

– S – emitentga nisbatan bankrotlik yoki protsedurasi qo'zg'atilgan holda to'lovlar yoki qarz majburiyatlarining bajarilishi davom etayotganligini bildiradi;

– SD – boshqa qarz majburiyatlarini ko'rsatilgan muddatda va to'liq to'lanayotgan sharoitda ushbu qarz majburiyati bo'yicha tanlanma defolt mavjudligini aks ettiradi;

– D – qarz majburiyatlari bo'yicha defoltni ifodalaydi.

– «AAA», «AA», «A» va «VVV» kategoriyalari reytingi investitsion klass reytinglari hisoblanib, «VV», «V», «SSS», «SS» va «S» kategoriyalari reytingi spekulyativ klassga ma'lum darajada kiradi. Kredit reytinglarini ishlab chiqishning asosiy tashkiliy qismi ularning o'zgarishini prognozlash hisoblanadi. Prognozning quyidagi tavsiflari keng qo'llaniladi: «ijobiy» (reytingning ko'tarilishi ehtimoli), «salbiy» (reytingning pasayishi ehtimoli) va «barqaror» (reytingning o'zgarishi kuzatilmaydi). Reyting agentliklari tomonidan reyting o'zgarishi tendensiyalarini aniqlash murakkab bo'lgan holatda «rivojlanayotgan» prognoz tavsifidan foydalaniladi va u reytingning ko'tarilishi yoki pasayishi ehtimoli borligini anglatadi.

Investitsiya muhitini baholash bo'yicha Umumjahon banki yondashuvini oladigan bo'lsak, Umumjahon bankining 2005-yilda chop etilgan «Hamma uchun investitsiya muhitini qanday shakllantirish mumkin» mavzuidagi jahon iqtisodiyotining rivojlanishi to'g'risidagi yillik hisobotida investitsiya muhitini baholash bo'yicha bank yondashuvining asosiy mazmuni keltirilgan.

Yuqorida ko'rib chiqarilgan usullar singari ushbu yondashuvda ham mutaxassislar tomonidan beriladigan ballar yig'indisidan foydalaniladi. Umumjahon banki yondashuviga ko'ra, mamlakat investitsiya muhitiga ta'sir qiluvchi omillar quyidagilardan iborat, deb hisoblanadi:

– iqtisodiy siyosat va huquqiy-me'yoriy amaliyotning noaniqligi;

– korrupsiya darajasi;
– sud tizimining sifati;
– jinoyatchilik darajasi;
– «soliq yuki» va soliqqa tortish tizimini huquqiy jihatdan tartibga solish tizimi;
– moliya resurslarini olish imkoniyati va moliyalashtirish qiymati;
– elektr bilan ta'minlanganlik darajasi va sifati;
– ishchilar malaka darajasi va mehnat qonunchiligining sifati.

Ushbu yondashuv investitsiyaviy jozibadorlikni ta'minlashning institutsional omillariga alohida e'tibor qaratilganligi bilan ajralib turadi. Jahon banki tomonidan tahlil etiladigan investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillar investitsiya riski bilan bog'liq. Ushbu uslubiyotga muvofiq mamlakatning investitsiya imkoniyatlari e'tiborga olinmaydi.

Rossiya iqtisodiy hududlarining investitsiyaviy jozibadorligini baholashda qo'llaniladigan «Ekspert» haftanomasi uslubiyotiga muvofiq investitsiya muhitiga ta'sir qiluvchi investitsiya risklarining quyidagi turlari ajratib ko'rsatiladi:
– huquqiy (investitsiyalashning huquqiy shartlarini, alohida ishlab chiqarish omillari tarkibini aks ettiradi);
– siyosiy (siyosiy barqarorlik darajasini hisobga oladi);
– ijtimoiy (ijtimoiy holat darajasi hisobga olinadi);
– noqonuniy (mintaqada jinoyatchilik darajasini hisobga oladi);
– moliyaviy (hududiy budjet va korxonalar moliyasining muvofiqlashganlik darajasini aks ettiradi);
– iqtisodiy (mintaqaning iqtisodiy rivojlanish darajasini hisobga oladi);
– ekologik (atrof-muhitning ifloslanish darajasini hisobga oladi).

Rossiyada o'tkazilgan reytinglar natijasiga ko'ra, mamlakatdagi investitsiya muhitining yaxshilanishi ustun darajada investitsiya sohasidagi qabul qilinayotgan huquqiy hujjatlar bilan bog'liq ekanligi aniqlangan.

O'zbekistonda xalqaro amaliyot negizida banklar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning milliy individual reyting tizimini joriy etish maqsadida «Axbor-Reyting» milliy reyting

agentligi tashkil etilgan. Ushbu agentlik tomonidan 2008-yil mobaynida 21 ta tijorat bankiga turli darajadagi reyting baholari berildi va endilikda bu baholash har yili o'tkazib kelinmoqda.

Investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan yuqorida qayd etilgan bir qator ishlar amalga oshirilayotganligiga qaramasdan, bugungi kunga qadar davlat kafolati asosida joylashtirilayotgan xorijiy investitsiyalar va kreditlarning salmog'i jami tashqi investitsiyalarga nisbatan yuqori salmoqni tashkil qilmoqda. Shu boisdan investitsiya muhiti investorlarning investitsiya risklarini baholash asosida xorijiy investitsiyalar kirib kelishiga qulayliklar yaratishi kerak. Xorijlik investorlar kapital qabul qiluvchi mamlakatdagi investitsiya muhitini uning xavfsizligi, siyosiy risklar darajasi va ularning sug'urtalanishi, investitsiyalash maqsadlariga muvofiqligi, iqtisodiyotning boshqalarga qaraganda qulayligi nuqtayi nazaridan baholaydilar. Mamlakatga xos risk darajasi (qarzlar masalasi, import va eksport balansi, hukumatning barqarorligi va boshqalar), mahalliy sharoitning qo'shni mamlakatga nisbatan ustun tomonlari muhim o'rinda turadi. Investitsiyalarni rag'batlantirish tadbirlari (import xomashyoga bojxona bojlarini bekor qilish, korporativ soliqni qisman yoki butunlay bekor qilish, soliqlar bo'yicha imtiyozlar), eksport sanoati hududlari, erkin savdo hududlari, bojxona bojlari amal qilmaydigan hududlarining bo'lishi va boshqalar alohida ahamiyatga ega.

5.3. Investitsiya muhitida investitsiya salohiyatining o'rni. Investitsiya muhitini shakllantirishda huquqiy-me'yoriy tizim

Investitsiya muhitini yaxshilashning asosiy maqsadi investitsiya salohiyatini oshirish uchun zarur va maqbul shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Investitsiya salohiyati, deganda iqtisodiy faoliyatda ishlatiladigan (foydalaniladigan) ishlab chiqarish zaxiralari, quvvatlari, kuchlari, imkoniyatlari kabilardan iborat resurslar yig'indisi tushuniladi. Investitsiya salohiyati foyda olish yoki ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida uzoq muddat foydalaniladigan aktivlarga mablag' kiritish (qo'yish) imkoniyatlari darajasini xarakterlaydi.

Investitsiya salohiyati – mamlakatda asrlar davomida shakllangan bir qancha omillar yig'indisini tavsiflaydi. Bu omillar ishlab chiqarish omillari, tabiiy resurs omillari, mehnat omillari,

innovatsiya va iste'mol omillari hamda mamlakatning moliyaviy salohiyati kabilarni qamrab oladi (5.3-rasm).



5.3-rasm. **Investitsiya salohiyati omillari**

Tabiiy salohiyat tabiiy resurslar miqdori va sifati, mamlakatning iqlimi, tabiiy-geografik shart-sharoitlarini o'z ichiga oladi. Tabiiy resurs omillari[1] ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda muhim o'rin tutadi va quyidagilarni qamrab oladi: mineral resurslar (foydali qazilmalar); agromuhit shart-sharoitlari; yer va suv resurslari; o'simlik va hayvonot dunyosi va boshqalar.

Mehnat salohiyati iqtisodiy faol aholi soni, yoshi, aholining bilim darajasi kabilarni xarakterlaydi. Shuningdek, ishlab chiqarishga layoqatli, bilim, malaka, mahoratga ega bo'lgan kishilardan iborat bo'lsa, intellektual salohiyat jamiyat a'zolarining ilmiy, ma'rifiy, ma'naviy, intellektual salohiyatini ko'rsatadi. Qoida tarzida, xorijiy investorlarni malakali ish kuchi va arzon ish haqi to'lanadigan hududlar jalb qiladi.

Ishlab chiqarish salohiyati mamlakatdagi mavjud ishlab chiqarish quvvatlari, ishlab chiqarish vositalari, iqtisodiyot tarkibi, qazib oluvchi, qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari, muvaffaqiyatli amalga oshirilgan investitsiya loyihalari soni (qo'shma korxonalar tomonidan amalga oshirilgan investitsiya loyihalarini ham qo'shgan holda), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish holati va boshqalarni ifodalaydi.

[1] Ma'lumot uchun: Yaponiya, Janubiy Koreya va qator G'arbiy Yevropa mamlakatlarida tabiiy resurslarning kamyobligi texnika-texnologiya vositasida ortig'isbilan qoplanadi.

Texnika-texnologiya salohiyati mamlakatdagi mashina-mexanizmlar miqdori, ularning tarkibi, texnologik tizim kabilardan iborat bo'lib, u fan yutuqlari va ularning qay darajada tatbiq etilishi bilan bog'liq.

Innovatsiya salohiyati mamlakatdagi ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari, texnika va texnologiyalarning yangilanish darajasi (yangi avlodi), milliy ishlab chiqarishdagi yangiliklar, kashfiyotlarni xarakterlaydi.

Iste'mol salohiyati investorlar tomonidan mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ichki bozorda qancha ulishi sotilish, shu asosda talabni o'rganish, raqobatchilar va aholining daromadlari darajasi sifatida qaraladi.

Moliyaviy salohiyat ushbu mamlakatning moliyaviy imkoniyatlari, iste'mol va jamg'armaning nisbati, bank sohasida pul-kredit va depozit siyosati, tashqi qarzlar holati, ichki zaxiralar va boshqalarni xarakterlaydi.

Investitsiya salohiyatini ifodalovchi ushbu omillarning mavjudligi xorijiy tadbirkorlarning aynan o'sha mamlakatga investitsiya qilishining asosiy sabablaridan bo'lishi mumkin. Biroq investitsiya salohiyatining mavjudligi xorijiy investitsiyalarning uzoq muddat davomida barqaror kirib kelishini kafolatlay olmaydi. Mamlakatdagi qulay investitsiya shart-sharoitlarisiz investitsiya salohiyati hali «xazm qilinmagan» boylik hisoblanadi. Investitsiya muhitini baholash, aynan, investitsiya shart-sharoitlariga asoslanadi.

Investitsiya shart-sharoitlariga quyidagi omillar kiradi:

— umumiqtisodiy shart-sharoitlar — YaIMning o'sish sur'atlari, inflyatsiya darajasi, ishsizlik darajasi, foiz stavkasi, ishlab chiqarish hajmi va tarkibi, to'lov balansi, monopolizm darajasi, valuta konvertatsiyasi, tashqi qarz, investitsiyalar hajmi va moliyalashtirish manbalari, davlat budjeti defitsiti va boshq.;

— siyosiy shart-sharoitlar — mamlakatdagi siyosiy barqarorlik, investitsiya faoliyatini tartiblovchi va investorlarning huquqlarini va ularga yaratilgan kafolatlarni ta'minlovchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mavjudligi va amal qilishi, jinoyatchilik va korrupsiya holati va boshq.;

– bozor mexanizmi shart-sharoitlari – bozor infratuzilmasining rivojlanganligi: bank, sug'urta, fond bozori, transport va aloqa, raqobat va narx shakllanishi va boshq.;

– axborot ta'minoti shart-sharoitlari – axborot va telekommunikatsiyalarning rivojlanganligi, raqobatchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni tezkorlik bilan olish imkoniyatlari, mahalliy hamkorlar to'g'risidagi ma'lumotlarning shaffofligi va boshq.;

– ekologik shart-sharoitlar – mamlakatdagi ekologik holat, mamlakatda va qo'shni davlatlarda ekologik xavfli hududlarning mavjudligi, xalqaro qonunchilikdagi ekologik me'yorlarga amal qilish holati va boshq.;

– ijtimoiy madaniy va etnografik shart-sharoitlar – mahalliy aholining mentaliteti va madaniyati, aholining hayot tarzi va turmush holati, jamiyatning xorijiy investitsiyalarga bo'lgan munosabati va boshq.

Ma'lumki, hukumat mamlakatdagi investitsiya shart-sharoitlarini takomillashtirib, makroiqtisodiy holatni yaxshilaydi, iqtisodiy barqarorlikka erishishga harakat qiladi va iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Bu esa, nafaqat, xorijiy investorlar uchun investitsiya muhitining jozibadorligini ta'minlaydi, balki ichki investitsiya jarayonlarini faollashtiradi.

Mamlakatimizda qulay investitsiya muhitini shakllantirishning huquqiy-me'yoriy tizimi samarali ishlashi natijasida qisqa muddatda yirik xorijiy investorlar bilan keng ko'lamli investitsiya hamkorliklari yo'lga qo'yildi. Natijada yangi tarmoqlarning ham vujudga kelishiga erishildi (avtomobilsozlik, neft-kimyo, elektronika va sh.k.). Temir yo'l vagonlari ishlab chiqaradigan va vertolyotlarni ta'mirlaydigan, texnik oyna, ip-gazlama, turli xil tikuvchilik buyumlari va boshqa turdagi mahsulotlar tayyorlaydigan korxonalar barpo etildi. Energetika, qora va rangli metallurgiya, yonilg'i va to'qimachilik sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmoqlari kabi iqtisodiyotning yetakchi sohalarini texnik modernizatsiya qilish amalga oshirildi. Xorijiy sarmoyalarning jalb qilinishi go'sht-sut mahsulotlari, sabzavot va mevalarni qayta ishlashning moddiy-texnika bazasini keskin yangilashga yordam beradi.

Mahalliy xomashyoni qayta ishlashni chuqurlashtirish, qayta ishlovchi tarmoqlarning mamlakat sanoat majmuasidagi ulushini

ko‘paytirish eksportning yangi takribini shakllantirdi, unda salmoqli o‘rinni tayyor mahsulotlar egallaydi.

Ta’kidlash joizki, mamlakatimizda investitsiya muhitini shakllantirishda huquqiy-me’yoriy tizimni doimo takomillashtirib borish talab etiladi. Bu, o‘z navbatida, xorijiy sarmoyalar kirib kelishini rag‘batlantirib, iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi.

VI BOB. INVESTITSIYA FAOLIYATIDA KAPITAL QURILISH

6.1. Kapital qurilish va kapital qo'yilmalar. Yangi qurilish, ta'mirlash, kengaytirish, texnik qayta jihozlash. «Qurilish industriya»si tushunchasi

Kapital qurilish va kapital qo'yilma tushunchalari bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'liq tushunchalardir. Kapital qurilish – asosiy fondlarni kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning shakllaridan biri. Kapital qo'yilmalar kapital qurilishni amalga oshirishning moliyaviy manbasi hisoblanadi.

Mohiyat jihatidan yangi qurilish, kengaytirish, ta'mirlash, texnik qayta qurollantirish va amaldagi obyektlarni modernizatsiya qilish yo'li bilan ishlab chiqarish va noishlab chiqarish asosiy fondlarini barpo etish jarayoni kapital qurilishni anglatadi. Uning yordamida jismoniy va ma'naviy jihatdan eskirgan asosiy fondlar yangilanadi. Kapital qurilish asosiy fondlarni barpo etishning barcha bosqichlarini (obyektni loyihalashtirishdan boshlab to uni ishga tushirishgacha bo'lgan jarayonni) qamrab oladi. Uning asosiy hal qiluvchi bosqichi qurilish-montaj ishlarini bajarish hamda qurilayotgan obyektning ishga tushirilishini ta'minlash hisoblanadi. Ushbu bosqich moddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmog'i bo'lgan «qurilish industriyasi» bilan amalga oshiriladi.

«Kapital qurilish» tushunchasi adabiyotlarda va amaliyotda ikki xil tarzda talqin qilinadi:

– moddiy ishlab chiqarishning tarmog'i sifatida;

– ishlab chiqarish faoliyatining turi sifatida.

Tarmoq sifatida kapital qurilish quyidagi asosiy belgilari bo'yicha xarakterlanadi: aniq maqsadga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarish; texnologik jarayonlarning umumiyligi; malakali mutaxassislarning mavjudligi.

Qurilish ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasi, ya'ni qurilish tarmog'i mahsuloti bo'lib, mamlakat xalq xo'jaligi

tarmoqlari asosiy fondlarini shakllantiruvchi korxonalar, binolar va inshootlarning ekspluatatsiyaga (foydalanishga) tayyorligi va tugallangan qurilish hisoblanadi.

Asosiy fondlarni barpo etishdan tashqari, kapital qurilish funksiyasiga korxonalardagi mavjud asosiy fondlarni ta'mirlash va texnik qayta qurollantirish ham taalluqlidir.

Ishlab chiqarish faoliyatining turi sifatida kapital qurilish quyidagi kompleks ishlarni bajarishi asosida korxonalar bino va inshootlarini barpo etishni (yaratishni) tavsiflaydi: qurilishni amalga oshirish uchun uskunalar montaji; loyiha-qidiruv ishlari; qurilish maydonini tayyorlash; sanitar-texnik qurilmalarni (kanalizatsiya, suv o'tkazgichlar va h.k.) barpo etish va boshq.

Qurilish mahsuloti hisoblangan binolar, inshootlar va boshqa obyektlar ko'p qirrali, konstruksiyasi murakkab bo'lgan obyektlar hisoblanadi. Bu qurilish ishlarini ishlab chiqarishning xususiyatlari bilan xarakterlanadi.

Qurilish ishlab chiqarishning asosiy xususiyatlari quyidagilar bilan belgilanadi. Birinchidan, sanoat ishlab chiqarishidan farqli holda qurilish mahsuloti ko'chmasligi va qayerda yaratilgan bo'lsa, o'sha yerda ishlatilishi bilan xususiyatlanadi. Faqat quruvchilar va mehnat qurollari (qurilish mashinalari va uskunalar) ko'chishi yoki joylashtirilishi mumkin. Mehnat resurslari va mehnat qurollari qurilish tugallangandan keyin bir obyektdan boshqa obyektga olib o'tiladi. Qurilishning bu xususiyati boshqaruvning o'ziga xos tashkiliy shakllarini, qurilish texnikalari va mehnat resurslarini bir qurilish maydonidan boshqa qurilish maydoniga ko'chirishda vaqtning yo'qotilishi va xarajatlarni minimumga keltirish uchun qurilish tashkilotlarini to'g'ri joylashtirishni talab qiladi.

Ikkinchidan, qurilish mahsulotini tayyorlash jarayoni uzoq muddatni ko'zda tutadi va shuning uchun qurilish jarayoniga ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi uzoq muddatga jalb qilinadi.

Uchinchidan, qurilish ishlab chiqarishi ko'plab tarmoqlar va korxonalar (firmalar, uyushmalar) bilan bog'liq bo'ladi. Ma'lum bir tarmoq korxonalaridan qurilish mahsulotini tayyorlash uchun xomashyo, materiallar va uskunalar oladi. Boshqa tarmoq korxonalari bilan bog'liqligi shundaki, buyurtmachi-korxonalar

topshirig'iga binoan buyurtma asosida tegishli ishlarni amalga oshiradi.

Kapital qurilishning alohida tarmoqlari, o'z navbatida, alohida xususiyatlarga ega bo'ladi. Masalan, qishloq xo'jaligi qurilishi sanoat qurilishidan, shaharsozlik qurilishi qishloq qurilishidan farq qiladi.

Qurilishning asosiy xususiyati uning industrlashganligi bilan belgilanadi. Qurilishni industrlashtirish qurilish tarmog'ida ilmiy-texnik taraqqiyotning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Qurilish industriyasi deganda sanoat ishlab chiqarish bloklari va konstruksiyalar holatidan kelib chiqib, qurilish ishlab chiqarishini bino va inshootlarni montaj qilish va yig'ish jarayonini mexanizatsiyalashtirishga aylantirish tushuniladi.

Qurilishni industrlashtirish qurilish ishlarining texnologiyasi bo'yicha keng ko'lamdagi o'zgarishlarni olib kiradi. Qurilishni industrlashtirishning asosiy elementlari quyidagilar bo'lib hisoblanadi: yig'ma qurilishni rivojlantirish[1]; qurilish-montaj ishlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish; qurilish ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish.

Kapital qurilish ko'p aloqalarni xarakterlaydigan murakkab jarayondir. Uning asosiy xususiyati: obyektlarni qurishning texnik va tashkiliy jihatdan murakkabligi; moddiy, mehnat va pul resurslari xarajatlarining ko'pligi, ishlab chiqarish siklining davomiyligidir.

Kapital qurilishning asosiy vazifasi ijtimoiy-madaniy ahamiyatga doir obyektlar, uy-joy, bino va inshootlarni zamonaviy texnik asosda qurish, mamlakatning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishdan iborat.

Aholi farovonligining oshishi, moddiy ishlab chiqarish barcha tarmoqlarining yanada rivojlanishi kapital qurilishning hajmi va samaradorligiga bog'liq bo'ladi. Kapital qurilish o'z vazifasini bajara turib, investitsiya jarayonlarida muhim rol o'ynaydi. Investitsiya jarayonlarida kapital qurilishning o'rni va ahamiyatini aniqlash uchun kapital qo'yilmalarning texnologik tarkibiga murojaat qilish zarur bo'ladi.

[1] Bunda yig'ma qurilishni rivojlantirishning asosiy sharti – qurilish industriyasining baquvvat moddiy bazasini – qurilish konstruksiyalari va bloklarini ishlab chiqarish bo'yicha zavodlar yaratish hisoblanadi.

Ma'lumki, yangi korxonalarni barpo etish, mavjud ishlab chiqarish va noishlab chiqarish obyektlarini texnik jihatdan qayta qurollantirish bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy, iqtisodiy, moddiy va mehnat xarajatlari yig'indisi kapital qo'yilmalarni anglatib, o'z navbatida, kapital qo'yilmalar iqtisodiy jihatdan kapital investitsiyalarni anglatadi, ular deyarli bir mazmunni bildiradi. Ular mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish sohasida kiritiladigan investitsiyalarni – qo'yilmalarni – xarajatlar majmuasini anglatadi. Iqtisodiy adabiyotlarda kapital qo'yilmalarning mohiyatiga quyidagicha ta'riflar berilgan: «kapital qo'yilmalar – bu asosiy kapitalga yo'naltirilgan real investitsiyalarni (qo'yilmalarni), shu jumladan, yangi qurilish, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni texnik qayta qurollantirish, ta'mirlash, kengaytirish, mashina va uskunalar sotib olish, loyiha-qidiruv ishlari, shuningdek, uy-joy hamda madaniy-maishiy qurilishlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan xarajatlardir»[1]. Statistik hisobotlarda va iqtisodiy tahlil jarayonlarida bunday investitsiyalar kapital hosil qiluvchi investitsiyalar, deb ham nomlanadi. Iqtisodiy mazmuniga ko'ra, kapital qo'yilmalar asosiy fondlarni takror ishlab chiqarishga yo'naltirilgan qo'yilmalarni anglatadi. Umuman olganda, kapital qo'yilmalar aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish uchun mo'ljallangan hamda asosiy fondlarni barpo etish va yangilash bilan bog'liq bo'lgan jami xarajatlarni aks ettiradi.

Asosiy vositalar va boshqa uzoq muddat foydalaniladigan aktivlarni sotib olish, qurish bilan bog'liq xarajatlar kapital sarflar yoki kapital qo'yilmalar deyiladi. Kapital qo'yilmalar bilan xarajatlarni bir-biridan farqlay bilish kerak. Xarajat, albatta, shu davrda daromad keltirishi kerak. Kapital qo'yilma bir necha yillardan keyin daromad keltira boshlaydi.

Kapital qo'yilmalar tarkibiga asosiy vositalar, tabiiy resurslar va nomoddiy aktivlarni sotib olishdan tashqari asosiy vositalarni o'stirish va ularni yaxshilanishiga sarflanadigan xarajatlar ham kiradi. Asosiy vositaning o'sishi (additions) deganda ishlab chiqarish quvvatini fizik jihatdan kengaytirish tushuniladi.

«Kapital qo'yilma», tushunchasi «kapital qurilish» tushunchasiga nisbatan kengroq ma'noga ega. Kapital qo'yilmalarning bir qismi qurilishni amalga oshirishga, shuningdek, transport

[1] Нешитой А.С. Инвестиции: Учебник. – 4-е изд. М.: «Дашков и К°», 2006. С. 13.

vositalari, qishloq xo'jaligi texnikalari, texnologik uskunalar sotib olishga safarbar qilinadi.

Kapital qo'yilmalar quyidagi belgilariga ko'ra tasniflanadi:

– ishlab chiqarish (mo'ljallangan) obyektlari qurilishi;
– qishloq xo'jaligi (mo'ljallangan) obyektlari qurilishi;
– transport va aloqa obyektlari qurilishi;
– uy-joy qurilishi;
– ijtimoiy soha obyektlari qurilishi.

Asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish shakli bo'yicha kapital qo'yilmalar quyidagilarga ajratiladi:

– yangi qurilishga;
– faoliyat yuritayotgan korxonalarni kengaytirishga;
– korxonalarni ta'mirlash va texnik qayta qurollantirishga.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha kapital qo'yilmalar quyidagilarga bo'linadi:

– markazlashtirilgan;
– markazlashtirilmagan.

Texnologik belgilariga ko'ra, kapital qo'yilmalar quyidagi turlarga ajratiladi:

– qurilish-montaj ishlari;
– mashina va uskunalarni sotib olish;
– boshqa kapital ishlar va xarajatlar.

Tasnifiy belgilariga ko'ra, kapital qo'yilmalar tarmoq, takror ishlab chiqarish va texnologik tarkibiy tuzilishga ega[1].

Kapital qo'yilmalar maqsadiga ko'ra:

a) ishlab chiqarish maqsadlaridagi obyektlar qurilishiga (qurilishi tugallangandan so'ng moddiy ishlab chiqarish sohasi: sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, aloqa va shu kabilarda ishlaydigan obyektlar);

b) noishlab chiqarish maqsadlaridagi (turarjoy va kommunal xo'jalik, sog'liqni saqlash muassasalari, ijtimoiy ta'minot, xalq ta'limi va boshqalar) obyektlarga ajratiladi.

Xalq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha kapital qo'yilmalar sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi va boshqa tarmoqlardagi kapital qo'yilmalarga ajratiladi.

Kapital qo'yilmalar tarkibi takror ishlab chiqarish tuzilmasining yo'nalishlari, texnologik tuzilmasi, mo'ljallanishi,

[1] Eslatib o'tamiz kapital qo'yilmalarning tarmoq, takror ishlab chiqarish va texnologik tuzilishi ushbu darslikning 1-bobi 1.2-paragrafida ko'rib chiqilgan.

xalq xo'jalik tarmoqlari, ishlarni bajarish usuli, mablag' bilan ta'minlash manbalariga ko'ra guruhlanadi.

Takror ishlab chiqarish tuzilmasining yo'nalishlari bo'yicha kapital qo'yilmalar yangi qurilish, kengaytirish, ta'mirlash, texnik qayta jihozlash va ishlab turgan korxonalar quvvatlarini saqlashga ajratiladi.

Texnologik tuzilmasiga ko'ra, kapital qo'yilmalar quyidagi ish va xarajat turlari qiymatidan tarkib topadi: qurilish ishlarining barcha turlari; uskunalar natijasi bo'yicha ishlar; qurilish smetalarida nazarda tutilgan uskunalar xarajatlari (montaj talab qiladigan va qilmaydigan); qurilish smetasiga kiritiladigan asbob va inventarlar xarajatlari; boshqa kapital ish va xarajatlar.

Yangi qurilish deganda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlarga xizmat ko'rsatuvchi asosiy va yordamchi obyektlar majmuyining qurilishi tushuniladi, shuningdek, tasdiqlangan loyihalar bo'yicha yangi qurilish maydonida tashkil etilgan ishlab chiqarish bo'limlari tushuniladi.

Kengaytirish deganda faoliyat yurituvchi korxonalar va tashkilotlarda alohida sexlar, qo'shimcha ishlab chiqarish obyektlarining qurilishi tushuniladi. Kengaytirishdan maqsad ishlab chiqarish quvvatini oshirishdir. Ishlab turgan korxonalarni kengaytirish deganda ishlab turgan korxona (inshoot)larda qo'shimcha ishlab chiqarishlarni qurish, shuningdek, ishlab turgan korxona hududi yoki unga qo'shni maydonchada qo'shimcha yoki yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish maqsadlarida ayrim sexlar yoki asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan obyektlarni qurish va ishlab turganlarni kengaytirish tushuniladi. Ishlab turgan korxonani kengaytirish, uning ishlab chiqarish quvvatini (unumdorligi) ko'paytirish ishlari yangi qurilish yo'li bilan shunday quvvatlar yaratishdan ko'ra, qisqaroq muddat va kam xarajatlarda amalga oshirilishi lozim.

Ta'mirlash deganda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarda mavjud ishlab chiqarishni, sexlarni va boshqa obyektlarni to'liq yoki qisman qaytadan qurish (bunda, qoida tarzida, birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan mavjud bino va inshootlarni kengaytirmasdan turib, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish maqsadida ularning texnik-iqtisodiy darajasini ko'tarish va ishlab chiqarishni takomillashtirish) tushuniladi. Ishlab turgan korxonalarni ta'mirlash asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan, ishlab turgan sex va obyektlarni ishlab chiqarishni

takomillashtirish va ularning texnik-iqtisodiy darajasini oshirish maqsadlarida qayta qurish tushuniladi. Bu, odatda, asosiy maqsaddagi bino hamda inshootlarni kengaytirmasdan amalga oshiriladi.

Faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarni texnik qayta qurollantirish — alohida ishlab chiqarishlarni, sexlarni, uchastkalarni zamonaviy texnika-texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, kompyuterlashtirish, modernizatsiya qilish, jismoniy va ma'naviy eskirgan uskunalarni yangisiga almashtirish, ularni intensivlashtirish asosida texnik darajasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuyini anglatadi.

Ta'mirlash va texnik qayta qurollantirishning asosiy maqsadi ishlab chiqarishni texnik qayta qurollantirish orqali uning samaradorligini oshirishga qaratiladi va bu, o'z navbatida, mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish, uning sifatini oshirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hisobiga amalga oshiriladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, kapital qo'yilmalarni amalga oshirishda va investitsiya jarayonlarida asosiy rolni kapital qurilish o'ynaydi. Kapital qurilishning investitsiya jarayonidagi o'rni va ahamiyati quyidagilar bilan izohlanadi:

— kapital qurilish kapital qo'yilmalarni o'zlashtirishda (amalga oshirishda) qatnashadi. Jami kapital qo'yilmalar summasining 2/3 qismi qurilish tashkilotlari tomonidan bajariladigan qurilish-montaj ishlariga, loyiha-qidiruv va boshqa qurilish ishlariga to'g'ri keladi;

— kapital qurilish korxonalar ishlab chiqarish quvvatining oshishi va asosiy fondlari o'sishini ta'minlaydi, bu, o'z navbatida, aholining turmush farovonligini oshirish, ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda xalq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish imkonini beradi;

— kapital qurilish korxonalarda zamonaviy texnika va texnologiyalarni qo'llash asosida ishlab chiqarishda ilmiy-texnik taraqqiyotni ta'minlaydi;

— ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish jarayonida qurilishning o'ziga xos o'rni shundaki, bir vaqtning o'zida bino va inshootlarni texnologik, energetik va boshqa uskunalarni montaj qilish ishlarini amalga oshira turib, zavod, fabrika, tashkilotlarni

ishga tushirish uchun sharoitni yaratadi (ta'minlaydi) va shu bilan ularni barpo etishning umumiy jarayonini yakunlaydi (tugallaydi);

– qurilish tarmog'ida qurilishga qaratilgan investitsiya loyihalarini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan loyihaviy tashkilotlar (loyiha-qidiruv ishlari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar) faoliyat ko'rsatadi. Bu yerda qurilish yangi uskunalar asosidagi zamonaviy iqtisodiy loyihalarni ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi va investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ilmiy-texnik taraqqiyotni ta'minlaydi.

6.2. Mamlakat iqtisodiyoti uchun qurilish muddatini qisqartirishning ahamiyati. Qurilishning uch bosqichi: tayyorgarlik bosqichi, qurilish bosqichi, qurilish mahsuloti realizatsiyasi. Qurilish ishlab chiqarishining davomiyligi

Kapital qurilishda qurilish muddatlarini qisqartirish katta iqtisodiy ahamiyatga ega, chunki u kapital qo'yilmalarning tezroq qoplanishini ta'minlaydi. Masalan, qurilayotgan obyekt qandaydir mahsulot ishlab chiqarishga mo'ljallangan bo'lsa, bunda qurilish muddatini qisqartirish evaziga qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish, qurilish muddati tugagandan so'ng qo'shimcha foyda olish imkoniyati bo'ladi.

Kapital qurilish jarayoni uch bosqich ajratiladi. Uni quyidagi rasm orqali ifodalaymiz:



6.1-rasm. **Kapital qurilishning bosqichlari**

Qurilish maydonini tanlash va obyektni loyihalashtirish quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi: qurilayotgan obyekt-

ning maqsadga muvofiqligi yuzasidan texnik-iqtisodiy tadqiqotlar olib borish; obyektni loyihalashtirish va qurilish uchun texnik-muhandislik ishlariga tayyorgarlik ko'rish. Har bir yo'nalish o'zining maqsad va vazifalariga ega.

Texnik-iqtisodiy tadqiqotlar jarayonida kelgusi obyektning (qurilishi mo'ljallangan obyektning) asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari aniqlanadi va qurilishni amalga oshirishning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi baholanadi. Loyihalashtirish bosqichida obyektning konstruktiv yechimlari, qurilishni tashkil etishning usullari va ishlab chiqarish texnologiyasi ishlab chiqiladi. Shuningdek, qurilishning smeta qiymati aniqlanadi. Undan keyin qurilish uchun texnik-muhandislik tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi.

Qurilishni amalga oshirish bosqichida qurilish maydonida qurilish jarayonining barcha texnologik elementlari qo'shiladi. Bunda qurilish ishlab chiqarishidagi jami xarajatlar, bino va inshootlarning moddiy-mulkiy elementlari bo'yicha xarajatlari shakllantiriladi.

Qurilish obyektini foydalanishga (ekspluatatsiyaga) topshirish bosqichida qurilib bitkazilgan obyektlar ishga tushiriladi va tayyor mahsulot sifatida buyurtmachiga topshiriladi.

Takror ishlab chiqarishning uch bosqichi kapital qo'yilmalar aylanishining uch bosqichiga muvofiq keladi:

1) qurilish — asosiy fondlarni barpo etish shakli sifatida;

2) qurilish mahsulotining asosiy fondlarga aylanishi shakli sifatida;

3) pul mablag'larini mahsulotga aylantirish maqsadida takror ishlab chiqarishning navbatdagi bosqichiga tayyorgarlik ko'rish.

Qurilish ishlab chiqarishining barcha elementlarining o'zaro aloqadorligini yaxshilash uchun qurilish mahsulotini barpo etish texnologiyasi (mehnat predmetlarining (beton, g'isht, temir, tosh va boshq.) sifat o'zgarishlari bilan tavsiflanuvchi qurilish jarayonlarini olib borishning usullari va vositalari) ishlab chiqiladi. Qurilish jarayoni qurilish maydonida amalga oshiriluvchi asosiy, qo'shimcha va xizmat qiluvchi texnologik operatsiyalarning jami o'zaro aloqalarini anglatadi, o'zaro aloqalar natijasida qurilish mahsuloti yaratiladi.

Ishlab chiqarish obyekti qurilishining davomiylik sikli qurilish maydonini rejalashtirishdan boshlab to uni ishga tushirishgacha (ekspluatatsiya) bo'lgan oraliq vaqtni (davrni) ifodalaydi.

Kapital qurilish tizimida investitsiya jarayonlarining asosiy qatnashchilari sifatida investorlar, buyurtmachilar, quruvchilar, pudratchilar, loyihalashtiruvchilar ishtirok etadi.

Investor – o'z mablag'larini, qarzga olingan va jalb etilgan mablag'larni, mulkiy boyliklarni va ularga doir huquqlarni, shuningdek, intellektual mulkka doir huquqlarni investitsiya faoliyati obyektlariga investitsiyalashni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subyekti hisoblanadi. Investor huquqiy jihatdan investitsiya natijalariga o'zi egalik qiladi. U kapital qo'yilmalarni joylashtirish sohalarini o'zi tanlaydi, qurilayotgan obyekt uchun shartnoma shartlarini ishlab chiqadi, investitsiya jarayoni qatnashchilari bilan moliya-kredit munosabatlarini amalga oshiradi.

Buyurtmachi – obyekt qurilishi bo'yicha boshqaruvni va tashkiliy masalalarni (texnik-iqtisodiy asosnomani ishlab chiqishdan to obyektni ishga tushirishgacha yoki ekspluatatsiyaga topshirishgacha) zimmasiga oluvchi yuridik yoki jismoniy shaxslardir.

6.3. Qurilishning tashkiliy shakllari. Kapital qurilishda loyihalashtirish

Kapital qurilishda, odatda, qurilish ikki usulda olib boriladi: xo'jalik va pudrat usuli, shu jumladan, qurilish obyektini «tayyor holda topshirish» usuli.

Xo'jalik usulida qurilish obyekti investorning yoki buyurtmachining o'z kuchlari yordamida amalga oshiriladi. Mazkur usul, odatda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni kengaytirish va ta'mirlashda, faoliyat yuritayotgan korxona hududida kichik obyektlarni qurishda qo'llaniladi. Ko'lami jihatidan kichik bo'lgan ishlar turli malakaga ega bo'lgan ishchilar tomonidan bajariladi. Xo'jalik usulida, ko'p hollarda, ishchilarning malakasi nisbatan past, yuqori ishlab chiqarish quvvatlariga ega bo'lgan maxsus texnikalar bilan ta'minlanish darajasi ham past va mehnat unumdorligi yuqori bo'lmaydi. Bularning barchasi qurilishni industrlashtirish, yuqori malakali qurilish jamoasini shakllantirish imkonini bermaydi. Biroq, bu usulning o'ziga xos afzalligi mavjud

- turli xil kelishuvlar bo'yicha (masalan, pudrat qurilish tashkilotlarini jalb qilish va h.k.) vaqtning tejalishi va boshqalar. Xo'jalik usulida – obyektlar qurilishi yoki qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish ishlari xo'jalik subyektlarining – korxonalar, tashkilotlar, institutlar va shu kabilarning kuch va mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. Korxonalarni qayta ta'mirlash va kengaytirish, kichikroq qurilish obyektlari va hududlarni obodonlashtirish, ta'mirlash ishlari, ko'pincha, shu usulda olib boriladi.

Pudrat usulida qurilish obyekti doimo faoliyat ko'rsatuvchi maxsus qurilish tashkilotlari tomonidan buyurtmachi bilan tuzilgan shartnomalar asosida olib boriladi. Ushbu tashkilotlarning o'z moddiy-texnik bazasi, mexanizatsiya vositalari va transportlari, maxsus ixtisoslikka ega bo'lgan kadrlari mavjud bo'ladi. Pudrat usuli qurilishning butun davriga (qurilish to'liq tugallangunga qadar) buyurtmachi va pudratchi (bosh pudratchi) bilan shartnoma tuzishni nazarda tutadi. Mazkur shartnoma bosh shartnoma, deb ataladi. Qurilish jarayoni qatnashchilarining o'zaro munosabatlari ushbu shartnoma va respublika hukumatining tegishli qarorlari, vazirlik va idoralarning tegishli qoidalari, tartiblari bilan tartibga solinadi. Pudrat usulida qurilish-montaj ishlarini ixtisoslashgan pudrat qurilish-montaj tashkilotlari olib boradi, bunda ikki tomon bosh pudratchi va buyurtmachi aloqaga kirishib, ularning o'zaro munosabatlari pudrat shartnomasi bilan belgilanadi. Kapital qo'yilmalar mablag' bilan ta'minlashning quyidagi manbalari hisobiga amalga oshiriladi: korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari, budjet mablag'lari va bank kreditlari: davlat kapital qo'yilmalari limitidan tashqari amalga oshiriladigan kapital qo'yilmalar bo'yicha hukumat tomonidan shu maqsadlarga yo'llashga ruxsat etilgan mablag' bilan ta'minlashning markazlashtirilgan manbalari va boshqalar.

Pudrat usulida qurilish muntazam ishlab turuvchi qurilish tashkilotlari (firmalari) tomonidan buyurtmachilar bilan tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Bu qurilishning asosiy va eng keng tarqalgan usulidir. Bugungi kunda kapital qurilish sohasidagi barcha pudrat ishlarining taxminan 80 foizi shu usulda amalga oshiriladi. Uni amalga oshirish uchun «Kapital qurilishning pudrat shartnomasi» asos bo'lib xizmat qiladi.

Bosh pudrat shartnomasida tomonlarning (buyurtmasi va pudratchining) huquq va majburiyatlari, javobgarligi, qurilishni amalga oshirish tartibi, moddiy-texnik resurslar ta'minoti kabilar belgilab olinadi.

Pudrat shartnomasi bo'yicha bir taraf (pudratchi) ikkinchi taraf (buyurtmachi)ning topshirig'iga binoan ma'lum bir ishni bajarish va uning natijasini buyurtmachiga belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi ish natijasini qabul qilib olish va buning uchun haq to'lash majburiyatini oladi.

Qurilishning pudrat shartnomasi korxonani, binoni (jumladan, uy-joy binosini), inshootni yoki boshqa obyektni qurish yoxud qayta qurish haqida, shuningdek, montaj, sozlash, ishga tushirish va qurilayotgan obyekt bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa ishlarni bajarish haqida tuziladi. Qurilishning pudrat shartnomasi to'g'risidagi qoidalar, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, bino va inshootlarni kapital ta'mirlash ishlariga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Qurilishning pudrat shartnomasida nazarda tutilgan hollarda obyektni buyurtmachi qabul qilib olganidan keyin uni shartnomada ko'rsatilgan muddatda ishlatishni ta'minlash majburiyatini pudratchi o'z zimmasiga oladi.

Tugallanmagan qurilishning mulkdori u buyurtmachiga topshirilguncha va uning haqi to'languncha pudratchi hisoblanadi. Agar pudrat obyekti nobud bo'lsa yoki shikastlansa, obyekt qabul qilib olingunga qadar uning tasodifan nobud bo'lish yoki tasodifan shikastlanish xavfi pudratchi zimmasida bo'ladi. Bajarilayotgan ishlarning xavfsizligi uchun pudratchi javobgar bo'ladi. Agar shartnomada taraflar boshqacha tartib va shartlarni belgilab qo'ygan bo'lmasalar, shartnomada nazarda tutilgan obyektni yoki ishlar majmuyini pudratchi o'z hisobidan sug'urtalashi shart.

Sug'urtalash majburiyati yuklatilgan taraf qurilishning pudrat shartnomasida nazarda tutilgan tartibda ikkinchi tarafga shartnoma shartlariga muvofiq sug'urta shartnomasi tuzganini tasdiqlovchi dalillarni, shu jumladan, sug'urta qiluvchi, sug'urta summasi miqdori va sug'urtalangan tavakkalchiliklar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim qilishi kerak.

Sug'urtalash tegishli tarafni sug'urta hodisasi yuz berishining oldini olish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatidan ozod

qilmaydi. Pudratchi qurilish va u bilan bog'liq bo'lgan ishlarni ishning hajmi, mazmuni va ularga qo'yiladigan boshqa talablarni belgilaydigan loyiha-smeta hujjatlariga muvofiq amalga oshirishi shart. Qurilishning pudrat shartnomasida boshqa ko'rsatmalar bo'lmasa, pudratchi loyiha-smeta hujjatlarida ko'rsatilgan hamma ishlarni bajarishi shart, deb taxmin qilinadi.

Qurilishning pudrat shartnomasida loyiha-smeta hujjatlarining tarkibi va mazmuni aniqlangan, shuningdek, qaysi taraf va qancha muddatda tegishli hujjatlarni taqdim qilishi lozimligi nazarda tutilgan bo'lishi kerak.

Pudratchi qurilish davomida loyiha-smeta hujjatlarida hisobga olinmagan ishlarni va shu munosabat bilan qo'shimcha ishlarni bajarish va qurilishning smeta qiymatini oshirish zarurligini aniqlasa, bu to'g'rida buyurtmachiga xabar berishi shart. Pudratchi buyurtmachidan o'n kun ichida o'z xabariga javob olmagan taqdirda, agar qonunda yoki qurilish pudrati shartnomasida buning uchun boshqa muddat nazarda tutilgan bo'lmasa, tegishli ishlarni to'xtatib, bekor turib qolish natijasida ko'rilgan zararni buyurtmachining zimmasiga yuklashi shart. Agar buyurtmachi qo'shimcha ish bajarish zarurati yo'qligini isbotlasa, bu zararni qoplashdan ozod etiladi.

Pudratchi loyiha-smeta hujjatlaridagi kamchiliklarni aniqlash va yo'qotish bilan bog'liq oqilona xarajatlarni qoplashni talab qilishga haqli. Agar shartnomada butun qurilishni yoki uning muayyan qismini moddiy ta'minlash buyurtmachi tomonidan amalga oshirilishi nazarda tutilgan bo'lmasa, qurilishni materiallar, shu jumladan, detallar va konstruksiyalar, shuningdek, uskunalar bilan ta'minlash majburiyati pudratchi zimmasida bo'ladi.

Qurilishni ta'minlash majburiyatini zimmasiga olgan taraf o'zi topshirgan materiallar (detallar, konstruksiyalar)dan, shuningdek, uskunalardan bajarilayotgan ishlar sifatini yomonlashtirmagan holda foydalanib bo'lmasligi vujudga kelganligi uchun, agar foydalanib bo'lmaslik ikkinchi taraf javob beradigan vaziyatlar tufayli vujudga kelganligini isbot qilmasa, javobgar bo'ladi.

Buyurtmachi bergan materiallar yoki uskunalardan bajarilayotgan ishlar sifatini yomonlashtirmagan holda foydalanish mumkin emasligi aniqlangan va buyurtmachi ularni almash-

tirishdan bosh tortgan taqdirda, pudratchi qurilishning pudrat shartnomasidan voz kechishga va buyurtmachidan ishning bajarilgan qismiga mutanosib ravishda shartnoma narxini to'lashni talab qilishga haqli.

Buyurtmachi qurilish uchun yer uchastkasi qurilishining pudrat shartnomasida ko'rsatilgan kattalikda va holatda o'z vaqtida berishi shart. Shartnomada bular ko'rsatilgan bo'lmasa, yer uchastkasining maydoni va holati, ishning o'z vaqtida boshlanishi, maromida olib borilishi va muddatida tugallanishini ta'minlashi shart.

Pudratchidan qurilishning pudrat shartnomasi bo'yicha bajarilgan ishlar natijasi yoki (agar) shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa, ishlarning bajarilgan bosqichi topshirishga tayyor ekanligi to'g'risida xabar olgan buyurtmachi darhol uni qabul qilib olishga kirishishi shart. Agar qurilishning pudrat shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, buyurtmachi ishlar natijasini qabul qilib olishni o'z hisobidan tashkil etadi va amalga oshiradi. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ishlarni qabul qilib olishda davlat organlarining va fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining vakillari ishtirok etishi lozim.

Ishlarning alohida bosqichlarini oldindan qabul qilib olgan buyurtmachi ularning pudratchi aybdor bo'lmagan holda nobud bo'lish yoki shikastlanish xavfini, shu jumladan, qurilishning pudrat shartnomasida ishning pudratchi tomonidan tavakkal qilib bajarilishi nazarda tutilgan hollarda ham, o'z zimmasiga oladi.

Ishlar natijasining pudratchi tomonidan topshirilishi va buyurtmachi tomonidan qabul qilib olinishi ikkala taraf imzolagan dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi. Taraflardan biri dalolatnomani imzolashdan bosh torsa, bu to'g'rida ushbu dalolatnomaga yozib qo'yiladi va dalolatnomani ikkinchi taraf imzolaydi.

Kapital qurilishda loyihalashtirish qurilishga tayyorgarlik ko'rish bosqichi hisoblanadi. Qandaydir obyektni (korxona, bino, inshoot) qurish uchun, eng avvalo, uni loyihalashtirish zarur bo'ladi.

Pudratchi qurilishning pudrat shartnomasida, texnikaviy loyihada va taraflar uchun majburiy bo'lgan qurilish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan talablardan chekinishga yo'l qo'yilganligi, shuningdek, qurilish obyektining loyiha-smeta

hujjatlarida belgilangan ko'rsatkichlariga, jumladan, korxonaning ishlab chiqarish quvvatiga erishilmaganligi uchun buyurtmachi oldida javobgar bo'ladi.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, qurilishning amalga oshirilishi tegishli tartibda tasdiqlangan loyihaviy hujjatlarsiz taqiqlanadi.

Bugungi kun amaliyotida, banklar tomonidan moliyalashtirilayotgan investitsiya loyihalarining ayrimlari muvaffaqiyatli amalga oshmayotganligi, u bo'yicha muammoli kreditlarning yuzaga kelishiga, ko'p hollarda, loyihaning TIAsi talab darajasida ishlab chiqilmaganligi yoki uning sifat darajasi chuqur ekspertiza qilinmasligi sabab bo'lmoqda. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov: «Investitsiya loyihalarining texnikaviy-iqtisodiy asosi sifatsiz tayyorlanishi, ularning past darajada ekspertiza qilinishi, tayyor mahsulot ishlab chiqarishda chetdan olib kelinadigan xomashyo va butlovchi qismlarning salmog'i katta ekanligi bu boradagi asosiy kamchiliklardir. Shuningdek, ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish bo'yicha aniq maqsadga qaratilgan marketing tadqiqotlari o'tkazilmasligi, loyihani tayyorlash jarayonida sherik tomonlar o'z zimmasiga olgan majburiyatlarning bajarilishini nazorat ostiga olmaganlari sababli xorijiy sarmoya ishtirokida tashkil qilingan ko'plab korxonalar ishlamay turibdi. Takror aytaman, bunga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi»[1], deb ta'kidlab, mamlakatda amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarini samarali tatbiq etishda ularning TIAning talab darajasida ishlab chiqilishiga erishish masalasi nihoyatda dolzarbligini e'tirof etadi.

Investitsiya loyihalarining TIA g'oyaning paydo bo'lishidan boshlab uning moddiylikka aylanishigacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladi va bu jarayon uch bosqichdan iborat bo'lib, investitsiya oldi bosqichi (boshlang'ich bosqich), investitsiya va ekspluatatsiya bosqichlariga bo'linadi.

Investitsiya oldi bosqichida TIA ishlari amalga oshiriladi va u eng asosiy bosqich hisoblanadi. TIA mavjud ishlab chiqarish omillariga, mahalliy bozor va ishlab chiqarish shart-sharoitlariga bog'langan bo'lishi lozim. Tahlil natijalari xarajatlar, daromadlar va sof foyda qismini yaqqol ko'rsatib berishi lozim. TIAni ishlab

[1] Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida/ Tuzuvchi F.M.Mullajonov. T.: «O'zbekiston», 2005. – B. 479.

chiqish tadqiqot natijasida aniqlangan kerakli moliyaviy mablag'lar yetarli darajadaligi ma'lum bo'lgandagina amalga oshirilishi lozim.

TIA tushunchasi iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Fikrimizcha, eng avvalo, «loyihani asoslash» tushunchasini anglab olish lozim. Keng ma'noda loyihani asoslash besh asosiy jihatni tahlil qilish va baholash bilan tavsiflanadi: texnik; institutsional; moliyaviy; iqtisodiy va ijtimoiy.

Loyihani texnik asoslash texnik nuqtayi nazardan qabul qilingan maqbul qaror iqtisodiy jihatdan maqbul bo'lmasligi mumkin. Bu shu bilan bog'liqki, turli texnik qarorlar o'zi bilan birga turli xarajatlar va samaralarga ega bo'ladi va ular taqqoslangandan keyingina qaysi qaror maqbul ekanligini aytish mumkin.

Loyihani ishlab chiqish jarayonida hisobga olish lozim bo'lgan texnik qarorlarning bir qancha jihatlarini ko'rib chiqamiz:

– texnologiya – texnologiya ilmiy jihatdan asoslanganmi va amaliyotga joriy etilganmi? Texnika mazkur texnologiyani qo'llashga tayyormi?

– loyiha bo'yicha vaqti-vaqti bilan yuzaga keluvchi xarajatlar hisobga olinganmi, masalan, texnika va uning ishlash holati;

– atrof-muhitga ta'siri – loyihada qo'llanilayotgan texnikaning atrof-muhitga yetkazadigan zarari darajasi qanday?

Loyihaning iqtisodiy asoslanishi uning cheklangan resurslarni ishlatish nuqtayi nazaridan butunligicha milliy iqtisodiyotga qanday sof foyda berishi bilan aniqlanadi. Barcha resurslar u yoki bu darajada cheklangan va ularning barchasini bir emas, bir qancha usullar bilan ishlatish mumkin. Masala shundaki, mazkur loyiha mavjud resurslarni samarali ishlatishni ta'minlaydimi? Loyihani iqtisodiy asoslashda undagi xarajatlar va daromadlar hisob-kitob qilinadi, ya'ni baholanadi.

Taniqli xorijlik iqtisodchi olimlardan V.Berens, P.Xavranek-lar fikricha: «texnik-iqtisodiy asoslash – bu salohiyatli investorlar, loyiha quruvchilari va moliyachilarni investitsiyalash va moliyalash usullari bo'yicha qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar bilan ta'minlovchi vosita»[1]. Rossiyalik olim V.Zolotogorov: «texnik-iqtisodiy asoslash – bu investitsiya loyihasining

[1] Беренс В., П.М.Хавранек. Руководство по оценке эффективности инвестиций: Пер. с англ. перер. и дополн. Изд-во. М.: «Интерэксперт», «Инфра-М», 1995. С. 6.

samaradorligi va maqsadliligini ko'rib chiqishga imkon beruvchi texnik va tashkiliy qarorlar, hisob-smeta, baholash va boshqa ko'rsatkichlarni aks ettiruvchi hisob-analitik hujjatlar to'plami»[1], deya tavsiflaydi.

Prof. D.G'ozibekov ta'kidlaydiki: «texnik-iqtisodiy asoslash o'z mazmuniga ko'ra loyihani amalga oshirishning maqsadga muvofiqligini texnik-iqtisodiy tadqiq etish atamasi bilan aynan bir xil»[2]. TIA potensial investorlar hamda boshqa barcha ishtirokchilarni investitsiyalashning ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy va ekologik jihatlarini oydinlashtiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, loyihaning muqobil strategiyasi va doirasiga baho beruvchi vosita, resurslar marketingi, joylashgan o'rni, ishlab chiqarish quvvatlari va texnologiyalar haqidagi tegishli ma'lumotlar bilan ta'minlovchi hisoblanadi.

Iqtisod fanlari doktori N.Karimov bu to'g'rida fikr bildirib, «loyihani texnik-iqtisodiy asoslanishi loyihaviy tahlilning obyekti bo'lib hisoblanadi va u loyihaning iqtisodiy, moliyaviy samaradorligini va loyiha bo'yicha xarajatlarni aniqlash, moliyalashtirish manbalari va xatarlarni baholashdek o'z maqsadiga ega bo'ladi»[3], deb ta'kidlab o'tadi. TIAning mohiyati va mazmuni bo'yicha yuqorida bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, unga quyidagicha ta'rif berish maqsadga muvofiqdir: loyihani amalga oshirishga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillarni tahlil qilish asosida loyihaning maqsadiga erishishning samarali yo'llarini aniqlovchi moliyaviy, iqtisodiy, texnik va boshqa ko'rsatkichlarni aks ettiruvchi hamda ularga oid hujjatlar to'plamiga texnik-iqtisodiy asoslash deyiladi. TIA loyihani amalga oshirishning imkoniyatlarini asoslaydi va birmuncha optimal bo'lgan qarorni tanlashga imkon beradi. U loyihaning barcha jihatlarini ochib berishini hisobga oladigan bo'lsak, uni ishlab chiqishdan oldin, loyiha tashabbuskori yoki loyihani ishlab chiquvchi u bo'yicha barcha ma'lumotlarni to'plashi lozim.

Ma'lumotlar manbayi bo'lib, qarz oluvchining faoliyatiga bevosita taalluqli hujjatlar, shuningdek, turli iqtisodiy adabiyotlar hamda shaxsan o'zining tajribasi xizmat qiladi.

---

[1] Золотогоров В.А. Инвестиционное проектирование: Учеб.пос. – Мн.: «Экоперспектива», 1998. С. 33.
[2] G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: «Moliya», 2003. – B. 76.
[3] Karimov N.G'. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish. //«Bozor, pul va kredit», 2000. – B. 41.

Shuni ham ta'kidlash joizki, investitsiya loyihalarining TIA bosqichlari o'zaro bog'liq bo'lib, ularning ketma-ketlikda amalga oshirilishi ham loyihaning sifatli ishlab chiqilishiga xizmat qiladi. Biz uning o'zaro bog'liqligini quyidagi 6.2-rasm asosida tasvirlaymiz.



6.2-rasm. **Investitsiya loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash bosqichlarining o'zaro bog'liqligi**

Investitsiya loyihalarining TIAlarini ishlab chiqishda mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan TIFMB tavsiyasi alohida ahamiyatga ega. Tadbirkorlar va barcha investorlar investitsiya loyihalarini mazkur tavsiya asosida ishlab chiqishi uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

TIFMB tomonidan ishlab chiqilgan investitsiya loyihasining TIA bo'limlarining mazmuni 6.1-jadvalda aks ettirilgan. Loyihaning ushbu jadvalda ko'rsatilgan tartib va bo'limlar asosida amalga oshirilishi uning yuqori sifat darajasini ta'minlashga xizmat qiladi va u qarz oluvchilarga ham, qarz beruvchilarga (kreditorlarga) ham muayyan iqtisodiy samaraga erishishga imkon beradi.

6.1-jadval

Investitsiya loyihalari texnik-iqtisodiy asosnomasining bo'limlari mazmuni

Bo'limlar nomi	Mazmuni va bajariladigan ishlar
Kirish	Ushbu bo'limda qarz oluvchi korxona to'g'risida ma'lumot, biznesdagi maqsadi, biznesining imkoniyatlari va ularni amalga oshirish strategiyasi, ishlab chiqariladigan mahsulotlar sotilishi kutilayotgan bozorlar holati, raqobatchilari, moliyaviy natijalari hamda talab qilinayotgan investitsiyalar summasi haqidagi ma'lumotlar mavjud bo'lishi va taqdim etilishi kerak. Shuningdek, korxona nomi, yuridik manzili, bank rekvizitlari, qarz oluvchining asosiy faoliyati hamda xorijiy hamkorlar (agar ular mavjud bo'lsa) to'g'risidagi ma'lumotlar batafsil ko'rsatilishi kerak.
Loyihadagi operatsiyalar	Bunda loyiha muhokamasi, uning faoliyat sohasi va mantiqiy ifodasi (asoslanishi), amalga oshirish chora-tadbirlari, loyihaning yangiligi yoki ishlab chiqarishni kengaytirish uchun mo'ljallanganligi, ishlab chiqariladigan mahsulotlari, quvvati, zaif jihatlari, ishlab chiqarishni kengaytirishdan ko'zlangan maqsad va boshqalar to'liq ko'rsatib o'tilishi kerak.
Loyihaning afzalliklari va foydaliligi	Bu bo'lim qo'shimcha ishchi kuchini va ish o'rinlarini tashkil etish, ekologik vaziyatni yaxshilash, respublikaning eksport salohiyatini oshirish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish, energiya va yoqilg'ini tejashi, yangi texnologiyalarni qo'llash, zamonaviy boshqaruv tizimini tatbiq etish va nihoyat, loyihaning mahalliy ishlab chiqarish va iqtisodiyot uchun muhimligi jihatidan samaradorligini yoritish vazifalari tahlil qilinadi.
Loyiha ta'sischilari va homiylari	Bunda qarz oluvchi korxonaning yuridik nomi, manzili, bank rekvizitlari, mulkchilik shakli, rahbarlari, xizmatchilari va ularning tajribasi, ta'sischilar va homiylar ish faoliyatining tajribalari to'g'risidagi ma'lumotlar, yillik tovar aylanmasi, aksiyadorlik kapitali, moliyaviy imkoniyatlari, ko'zda tutilgan moliyaviy qo'yilmalar va risklar, xorijiy hamkorlarning loyihada ishtirok etishining mantiqiy asoslanganligi (agar mavjud bo'lsa) va ta'sischilarning so'nggi ikki yillik daromadlari va xarajatlari to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari hamda auditorlik firmalari xulosalari keltirilishi lozim.
Loyiha bo'yicha bitimlar (shartnomalar) qiymati	Loyihani amalga oshirish qiymatining hisob-kitobi quyidagilarni qamrab oladi: baholash qiymati; yer, uskuna, montaj ishlari, qurilish va h.k.lar qiymatiga xarajatlarning taqsimlanishi; milliy va xorijiy valuta xarajatlarining taqsimlanishi va h.k. Bu bo'limda tomonlar o'rtasida tuzilgan bitimda uning qiymati, bitim qiymatining asosliligi, ya'ni xarajatlarning yer, uskuna, xodimlarni o'qitish, qurilish-

	montaj ishlari, talab qilingan aylanma kapital va boshlang'ich xarajatlarga bo'linishi hamda ularning bahosi, xarajatlarning milliy va xorijiy valutada qiymati va tuzilishi, investitsiya xarajatlari kabilar mukammal tarzda aks ettirilgan bo'lishi zarur.
Loyihaning moliyalashtirish rejasi	Bu bo'limda loyiha ishtirokchilari va ularning moliyaviy qo'yilmalari aks etiriladi. Kreditni olish manbalari, mahalliy va xorijiy qarzlar va o'z mablag'lari, loyiha likvidliligini ta'minlash uchun talab qilinuvchi muddat va shartlar, ya'ni qo'yilgan mablag'larning qoplanishi va kreditlarning qaytarilishi uchun qancha muddat va qanday shartlar talab qilinadi. Shuningdek, moliyalashtirish rejasida moliyalashtirishning tarkibiy tuzilishi to'g'risidagi boshlang'ich ma'lumotlar keltiriladi.
Loyihadagi xomashyo va boshqa xarajatlar	Ushbu bo'limda ishlab chiqarish uchun materiallar, resurslar, xomashyo va ishchilarga ish haqi xarajatlari, energiya va suv, yarim tayyor mahsulotlar hamda boshqa joriy xarajatlar (qadoqlash materiallari, transport va h.k.) tahlil qilinadi. Shuningdek, bozorning joylashgan joyi, materiallar, resurslar va xomashyo yetkazib beruvchilar va ularning ishonchliligi, xomashyo sifati, xomashyo bilan ta'minlashda kutilayotgan risklar, xomashyoni yetkazib berish xarajatlari, xomashyo baholari (xorijiy va milliy valutada), marketing va h.k.lar chuqur tahlil qilinadi.
Loyiha bo'yicha tovar va xizmatlar, sotish bozorlari	Bunda yetkazib berilayotgan tovarlar yoki ko'rsatilayotgan xizmatlar, ularning jahon standartlariga muvofiq kelishi, raqobatbardoshligi (tovarning asosiy sifat tavsiflari, afzalliklari, qadoqlash xususiyatlari, tovarlar yetkazib berishni tashkil etish) atroflicha o'rganiladi. Korxonalarning tovarlari yoki xizmatlari uchun sotish bozorlari (iste'molchilar turi, korxonaning bozordagi ulushi, talabning o'sishiga ta'sir etuvchi omillar (talabning egiluvchanligi, tayyor mahsulot sotishda yuzaga keladigan muammolar), raqobatchilar) chuqur o'rganiladi. Marketing rejasi tuziladi va u quyidagilarni o'z ichiga oladi: – tovarlarning sotilish sxemasi (xususiy do'konlar, ulgurji savdo tashkilotlari, savdo uylari va h.k.lar orqali; – narxni shakllantirish; – reklamani (targ'ibot) tashkil etish va unga xarajatlar; – kutilayotgan risklar.
Loyihaning tashkiliy masalalari	Bunda, birinchi navbatda, korxona boshqaruv masalalari ko'rib chiqiladi. Bank loyihaning tashkiliy rejasi bilan tanishganda korxona boshqaruvi, asosan, kimlar tomonidan amalga oshirilishi to'g'risidagi aniq tasavvurga ega bo'lishi lozim. Bunda quyidagilar ko'rsatilishi kerak: – korxonaning tashkiliy sxemasi; – yetuk mutaxassislar va ishchilarning mavjudligi, agar

	mavjud bo'lmasa o'qitish ishlari kim tomonidan va qanday tashkil etilishi; – ishchilarning samarali va ishonchli ishlashi uchun qanday dastur zarur bo'lishi; – xorijiy hamkor tomonidan qanday yordam va qachon zarur bo'lishi va h.k.
Loyiha bo'yicha mulk va uskunalarni sug'urtalash	Bunda sug'urta polislarining turi va qancha summaga sotib olishining rejalashtirilishi, shuningdek, TIAda loyiha bo'yicha barcha mulk va uskunalarni sug'urtalash bo'yicha tuzilgan shartnoma shartlari, muddati, shakli, summasi, sug'urtalovchi tashkilot va uning faoliyati, imidji (obro'si) to'g'risidagi ma'lumot, sug'urtalanayotgan mulk va uskunalarning to'liq tarkibiy elementlari va shu kabilar ko'rsatilish kerak.
Loyiha bo'yicha atrof-muhitni muhofaza qilishga doir ma'lumotlar	Loyihaning atrof-muhitga ta'siri, atrof-muhit to'g'risidagi ma'lumotlarning mavjudligi, loyiha bo'yicha atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishlarni kamaytirish uchun qo'llanilishi ko'zda tutilgan texnologik usullar, qarz oluvchining atrof-muhit bo'yicha umumiy siyosati, baxtsiz hodisalar va «fors-major» holatlarida atrof-muhit uchun salbiy oqibatlarning kelib chiqish risklari kabilar Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining loyiha bo'yicha ekspertiza xulosalari asosida hal etilgan bo'lishi kerak.
Loyiha bo'yicha qonun va qoidalar	Loyihani amalga oshirish va unga doir tegishli shartnomalarni tuzish va rasmiylashtirishda mavjud qonun-qoidalarga hamda tegishli yuqori tashkilot organlarining ruxsatnomalariga hamda atrof-muhitni muhofaza qilish tartiblariga qat'iy amal qilinishi, agar korxona tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanadigan bo'lsa, u holda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, agar qo'shma korxona bo'lsa, Moliya vazirligidan ro'yxatdan o'tganligi, agar korxona faoliyat turi maxsus litsenziyalarni talab etsa, unda tegishli litsenziyalarga egaligi kabilar ko'zda tutilgan bo'lishi kerak.
Loyiha bo'yicha texnologiya va uskuna	Bu bo'limda rejalashtirilgan uskuna va texnologiyani olish manbasi, yetkazib beruvchi tashkilot, ixtisoslashgan firma va ular to'g'risida qisqacha ma'lumot (manzili, rahbarlari, ish tajribasi, telefon raqamlari), yetkazib berish shartlari va kafolatlari, uskuna va texnologiyaning ishonchliligi, uni yetkazib beruvchi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar, ularning energiya va boshqa resurslarni iste'mol qilish darajasi, texnologik kommunikatsiyaning saviyasi, ishlab chiqarish sifati va jarayoni, texnologiya va uskunaning raqobatbardoshligi va ularning xalqaro standartlarga sifat jihatdan mos kelishi, qiymati, talab etiladigan ishlab chiqarish maydoni va binosi, ularning tayyorliligi, texnologiya va uskunalarning mahalliy xomashyolarga mos kelishi, shartnoma mavjudligi holatida Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi ekspertizasi xulosalari, uskuna

	va texnologiyaning muqobil variantlari bilan taqqoslanganligi va afzalligi asoslanganligi, ularning texnik hujjatlari, kadrlarni o'qitish va «nou-xau», qurilish-montaj ishlari qiymati, ehtiyot qismlar va tashish xarajatlari qiymati kabilar batafsil ko'rsatilishi lozim.
Loyihani kreditlashda banklarning o'rni	Ushbu bo'limda loyihani moliyalashtiruvchi bankning roli, uning bir o'zi yoki boshqa kreditorlar bilan birgalikda qarz oluvchiga kreditni taqdim etishi, bank tomonidan o'rnatilgan shart-sharoitlar, talablar va qarz oluvchi bilan tuzgan kredit shartnomasi, kredit uchun taqdim etilgan garovlar yoki mulkning sug'urtalanganligi, maslahat xizmatlari, ustav kapitaliga kiritilayotgan investitsiyalar mukammal ma'lumotlar asosida tayyorlanishi kerak.
Loyiha bo'yicha kafolatlar	Bu bo'limda kredit olishdagi kafolat turlari: mulk, uskuna, tovarlar, kafolat xati, sug'urtalangan kreditlar va shu kabilar ko'rsatilishi zarur.
Loyiha quvvati va uning yillar bo'yicha o'zlashtirilishi	Bunda loyihaning quvvati va ishonchliligi, uning yillar bo'yicha o'zlashtirilish bosqichi va muddati, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning sotuvchilar bilan birgalikda rejalashtirilganligi kabilar tahliliy asosda aks ettirilgan bo'lishi talab qilinadi.
Loyihadagi tayyor mahsulotning yillar bo'yicha sotilishi	Bunda mahsulotning ichki va tashqi bozorda sotilishi, ularning baholari va olinadigan tushumlar (daromadlar), korxonada har yilning oxiriga qoldirilishi mo'ljallangan tayyor mahsulot zaxiralari (kunlarda), sotiladigan mahsulot turlari va ularning yillar bo'yicha sotilish hajmi rejasi ishlab chiqilgan bo'lishi lozim.
Loyiha bo'yicha xarajatlar	Bu bo'limda loyiha xarajatlari tarkibi mahsulotni ishlab chiqarish va sotish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar manbayidan tashkil topgan holda ularning xomashyo va materiallarga, ishchilar va ijtimoiy sug'urta va boshqa ajratmalarga (elektr energiyasi, gaz, suv va shu kabilarga) amortizatsiya ajratmalari, umumishlab chiqarish xarajatlariga, zaxiralarga, reklama (targ'ibot) va transport xarajatlariga hamda sotish xarajatlariga ajratilishi bilan yillar bo'yicha ketma-ketlikda va o'zaro aloqadorlikda aks ettirish kerak.
Loyiha bo'yicha kredit to'lovlari va foizlarning yillar bo'yicha hisob-kitobi	Loyihadagi hisob-kitob ishlaridan avval kreditlash shartlarini, ya'ni kredit taqdim etish muddatini, kreditning davriyligi – qaytarilish shartlari, foizlarning qaytarilish shartlari va foiz stavkalari o'zgarishini bilib olish kerak. Shu asosda loyihada asosiy qarzlar va ular bo'yicha foizlarning yillar bo'yicha davriy hisoblanish va to'lanish rejalari jadval ko'rinishida aks ettirilishi kerak.
Loyiha bo'yicha daromadlar jadvali.	Bunda loyiha bo'yicha avvalgi hisob-kitob ma'lumotlari asosida daromadlarning yillar bo'yicha tashkil topish rejasi jadval ma'lumotlari orqali aks ettiriladi. Daromadlar umumiy holda hamda alohida mahsulot turlari bo'yicha ichki va

	tashqi bozorda sotilishi hisobiga hosil qilinishi nuqtayi nazaridan ham milliy, ham xorijiy valutada aks ettirilishi zarur. Bunda daromadlar sotishdan tushgan tushumdan umumiy xarajatlarni, foizlarni va soliqlarni to'lash ketma-ketligi va ularning natijasi sifatida olingan sof foyda ko'rinishida ifodalanishi zarur.
Loyiha bo'yicha joriy aktivlar va passivlarning, aylanma kapital (ishchi kapitali)ning hisob-kitobi	Bunda «loyiha bo'yicha daromadlar jadvali»dagi ma'lumotlarning barchasi jadval ko'rinishida, yillar bo'yicha tuzilishi lozim. Bunda ularning alohida bandlari bo'yicha tegishli ma'lumotlar tushunarli tarzda aks ettirilishi, ya'ni kelib tushishi kutilayotgan tushumlar, debitorlik qarzlari, tayyor mahsulot zaxiralari, joriy aktivlar, kreditorlik qarzlari, joriy passivlar, sof ishchi kapitali va ularning o'zgarishi o'zaro bog'liqlik asosida berilgan bo'lishi kerak.
Loyiha bo'yicha pul oqimi hisob-kitobi	Loyiha bo'yicha pul oqimi hisob-kitobi yuqorida olingan ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Unda soliq va foizlarni to'lagungacha daromadlar va amortizatsiya ajratmalari, ishchi kapitalidagi o'zgarishlar, faoliyat bo'yicha pul oqimi, moliyalashtirish manbalari (kreditlar, o'z kapitali va boshqalar), kredit uchun asosiy qarz va u bo'yicha foiz to'lovlari, soliq to'lovlari, taqsimlanmagan foyda, investitsiyaga yo'naltirilgan mablag'lar (foydadan ajratilgan), taqsimlash fondlari, dividendlar va sof pul oqimi ma'lumotlari tartib asosida, jadval ko'rinishida rejalashtirilgan yillar bo'yicha ishlab chiqilishi kerak.

Lekin shunday hollar ham kuzatilishi mumkinki, qarz oluvchilarning loyiha TIAsini tayyorlashdagi bilim va tajribalarining yetishmasligi, maxsus investitsiya-konsalting va injiniring kompaniyalari xizmati doirasining torligi sababli TIAlarning sifatsiz tayyorlanish hollari kuzatilishi mumkin. Undan tashqari, ayrim hollarda, TIA bo'yicha hisob-kitoblarning bir tomonlama ishlab chiqilishi loyihaning amalga oshirilish imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Shu sababdan investitsiya loyihalari bo'yicha TIAlarni tayyorlashda kredit muassasalari, loyiha tashabbuskorlari, konsalting va injiniring firmalarining o'zaro hamkorlik qilish tizimini takomilashtirish, TIAda loyiha ishtirokchilarining o'zaro kelishilgan manfaatlarini ta'minlashga erishish va uning hayotiyligini yuzaga chiqarish masalalarini hal etish, nafaqat, TIAlarning sifatida, shuningdek, investitsiya loyihasining yuqori samaradorlikka erishishida muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, loyihani TIA uning samaradorligi va afzalligini ta'minlash uchun olib borilgan

izlanishlar natijasida olingan tahliliy ma'lumotlarni, baholash va hisob-smeta ko'rsatkichlarini, texnik va tashkiliy qarorlarni o'zida mujassam etuvchi hisob-analitik hujjatlar to'plami hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, kapital qurilishni loyihalashtirishning markaziy maydonini dastlabki TIA egallaydi. Bugungi kunda amaldagi qonun hujjatlariga [1] ko'ra dastlabki TIAning namunaviy tarkibi quyidagilardan iborat:

– loyihaning maqsadi;

– obyektning tavsifi – ishlab chiqarish, transport infratuzilmasining mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyatlari, ishchi kuchlari mavjudligi, ijara qiymati, ishlab chiqarish binolari va yordamchi binolarni sotib olish yoki ularni yangidan qurish imkoniyati va boshqalar;

– shaharsozlik talablarini hisobga olgan holda, korxona (inshoot)ni joylashtirish tumani va punktini tanlashning asoslanishi;

– arxitektura-qurilish va hajmiy-rejalashtirishning qonuniy, haqqoniy yechimlari va ularning asosiy ko'rsatkichlari;

– qurish va ishlatishda zararli tashlanmalar, oqova suvlarning tavsifi va hajmi, atrof-muhitni ifloslantirishning oldini olish tadbirlari;

– obyektni muhandislik jihatidan ta'minlash va jihozlash (suv, kanalizatsiya, issiqlik, gaz, elektr energiyasi bilan ta'minlash, isitish, shamollatish va havo haroratini maqbullashtirish) bo'yicha qonuniy, haqqoniy yechimlar;

– texnologiyaning tavsifi va texnologiya asbob-uskunalari variantlarining asosiy ko'rsatkichlari (quvvati, energetika va moddiy resurslar iste'moli va boshqalar);

– marketing tadqiqotlari natijalari;

– loyiha tashabbuskorining moliyaviy ahvoli va uning loyihani amalga oshirish bo'yicha imkoniyatlari tahlili;

– loyiha tashabbuskorining texnik va moliyaviy imkoniyatlariga asoslangan loyihani amalga oshirishning dastlabki sxemasi, loyihani amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan resurslarning mavjudligi va qiymati (shu jumladan, xorijiy valutada);

[1] Bu yerda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 7-iyundagi «Investitsiya loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash tartibi haqida»gi 110-sonli qarori va unga binoan ishlab chiqilgan nizom va unga havola qilingan ilovalar nazarda tutilayapti.

– tanlangan variant asosida qurilishning cheklangan qiymati, shu jumladan, injiniring kuzatuviga, dastlabki TIAni va loyihaning yakuniy TIAni ishlab chiqishga, texnologiya asbob-uskunalariga, yer uchastkasini ajratishga, binolar va inshootlar qurilishiga xarajatlar, shuningdek, aylanma kapitalning, jalb etiladigan kreditlar bo'yicha moliyaviy chiqimlar va boshqalarning xorijiy va milliy valutadagi qiymati;

– xarajatlar bo'yicha moliyaviy resurslarga ehtiyojning hisob-kitoblar variantlari asosida, shu jumladan, jalb qilinayotgan mablag'lar va ularning loyihani samarali amalga oshirishni ta'minlash imkonini beradigan jalb qilish shartlarini aniqlash;

– loyiha risklarining tahlili;

– naqd pul oqimlari diskontini hisobga olgan holda, barcha investitsiyalar bazasida hisoblab chiqilgan loyihaning xorijiy valutadagi moliyaviy-iqtisodiy samaradorligining, o'zini-o'zi qoplashi muddatining, nazarda tutilgan kreditlarni qaytarishning hisob-kitoblari.

Loyihalashtirish obyektlari juda murakkab va ko'p turli hisoblanadi. Biroq, loyihalashtirish jarayoni yuqori darajadagi texnik va iqtisodiy loyihaviy qarorlarning qabul qilinishini ta'minlashga umumiy xizmat qiluvchiquyidagi tamoyillarga asoslanadi: bosqichma-bosqichlilik; ko'p variantlilik; loyihalashtirishning bir butunligi; loyihalashtirishda yagona bo'lgan me'yorlarning qo'llanilishi.

Birinchi tamoyilga ko'ra loyihalashtirish, loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish deduktiv usulni qo'llash orqali amalga oshiriladi, ya'ni bu usulning asosiy tamoyili bo'lib, loyihalashtirishning umumiylikdan xususiylik tomon borishidir. Loyihalashtirish jarayonida, avvalo, qurilishning maqsadga muvofiqligini asoslashga qaratilgan umumiy masalalar bosqichma-bosqich hal etiladi, so'ngra loyiha bo'yicha asosiy bo'lgan arxitektura, texnologik masalalar aniqlanadi. Mazkur tamoyil loyihalashtirishning tartibini, ya'ni har bir bosqichida hal etiladigan vazifalarni belgilab beradi.

Ikkinchi tamoyilda loyihalashtirish kapital qo'yilmalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish nuqtayi nazaridan bir qancha variantlarni ishlab chiqish usulida olib boriladi. So'ngra ular ichidan texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha eng maqbul

varianti tanlanadi. Tanlangan variant kam xarajat evaziga eng ko'p miqdorda foyda olish imkonini berishi yoki ijtimoiy samarani ta'minlashi kerak.

Loyihalashtirishning uchinchi tamoyili loyihaning barcha bosqichlarini (texnologik, arxitektura-qurilish, smeta va boshqa) o'zaro bog'liqlikda ishlab chiqishni ko'zda tutadi.

To'rtinchi tamoyilda qurilish-loyihalashtirish me'yorlari loyihalarni ishlab chiqishning zaruriy sharti hisoblanadi va iqtisodiy loyihalarni ishlab chiqish va loyihalashtirish sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qurilish me'yorlari va qoidalari davlatning me'yoriy hujjati hisoblanib, unda bino va inshootlarni, korxonalarni loyihalashtirishga va qurilishga bo'lgan asosiy talablar aks ettiriladi. Bunday me'yor va qoidalar mamlakatimizdagi barcha qurilish-montaj va loyihalashtiruvchi tashkilotlarga amal qiladi.

Obyektlarni loyihalashtirish jarayoni, qoida tariqasida, 3 bosqichga bo'linadi. Obyektlarni loyihalashtirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Loyihalashtirishni tashkil etishning taxminiy sxemasini 6.2-jadval asosida ifodalash mumkin.

6.2-jadval

Loyihalashtirish ishlarini bosqichlar bo'yicha tashkil etish sxemasi

Ishlar bosqichi	Asos	Ijrochilar
1-bosqich. Loyiha oldi ishlari		
1.1. Texnik-iqtisodiy asosnoma ishlab chiqish	Kapital qo'yilmalarning rejasi. Qaror (qurilishni amalga oshiruvchi tashkilotning buyruqlari)	Buyurtmachi yoki uning topshirig'iga ko'ra loyihaviy yoki ilmiy-tadqiqot tashkiloti
1.2. Loyihalashtirish uchun shartnomalar tuzish	Buyurtmachining taklifi	Buyurtmachi yoki loyihaviy tashkilot
2-bosqich. Loyihaviy ishlar		
2.1. Qidiruv-izlanish	Buyurtma va shartnoma	Loyihaviy tashkilot
2.2. Bosqichlar bo'yicha loyihani ishlab chiqish	Loyihalashtirish uchun belgilangan vazifalar (buyurtma), loyihani ishlab chiqish va shartnoma tuzish uchun yo'riqnoma	Loyihaviy tashkilot

3-bosqich. Loyihani ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash		
3.1. Loyiha ekspertizasi	Loyihani ishlab chiqish tartibi bo'yicha yo'riqnoma va loyihani ekspertiza qilish bo'yicha yo'riqnoma	Loyihaviy tashkilot, loyihalar ekspertizasi bo'limi
3.2. Loyihani tasdiqlash	Loyihani ishlab chiqish tartibi bo'yicha yo'riqnoma	Loyihaviy tashkilot, tegishli muassasa tomonidan loyihaning tasdiqlanishi

Bino va inshootlar, korxonalarni qurish maqsadlari uchun loyihalashtirish murakkab ijodiy jarayon hisoblanadi. Bunda tadqiqotchilar, arxitektorlar, muhandislar, konstruktorlar, loyihalashtiruvchilar, iqtisodchi va moliyachilar ishtirok etadi.

6.4. Kapital qurilishda tanlovni tashkil etish. Kapital qurilishda tenderlar

Tanlovlar – iqtisodiyotda nisbatan yangi hodisa bo'lib, bunda buyurtmachi biror obyektni qurish yoki loyihalash, asbob-uskunalar yetkazib berish bo'yicha tanlov e'lon qilayotganligini ochiq yoki yopiq shaklda xabardor qiladi va xohlovchilarni shu tanlovda ishtirok etishga taklif qiladi. Bunda maxsus hujjat tayyorlanadi va unda tanlovning asosiy g'oyasi uning tijoriy va boshqa shartlari ko'rsatiladi. Bunday hujjatlar majmuasi «tender», deb ataladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilish, shuningdek, ilgari to'xtatib qo'yilgan obyektlar qurilishini davom ettirish bilan bog'liq ishlar va xizmatlarning butun kompleksini bajarish, tovarlar xarid qilish, asbob-uskunalar sotib olish Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 3-iyuldagi 302-sonli qaroriga asosan tanlov savdolari (tenderlar) orqali amalga oshiriladi. Uni tashkil etish va o'tkazish tartibi va shartlari ushbu qarorda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilishda tanlov savdolari to'g'risida»gi nizom belgilaydi.

Nizom tanlov savdolarini o'tkazishning barcha tashkiliy bosqichlarini belgilab beradi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– umumiy qoidalar;

– tanlov savdolari qatnashchilari;

– tanlov savdolari shakllari;
– talabgorga qo'yiladigan malaka talablari;
– tanlov savdolarini o'tkazishga tayyorgarlik;
– tanlov hujjatlarining tarkibi, tuzilishi, ularni ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi;
– ofertalarni taqdim etish;
– tanlov savdolarini o'tkazish va ularni yakunlash;
– tanlov hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish hamda tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish tartibi monitoringi;
– narxlarga tuzatishlar kiritish va sug'urta;
– tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish xarajatlari;
– tanlov savdolari qatnashchilarining javobgarligi.

Nizom talablari O'zbekiston Respublikasi hududida markazlashtirilgan manbalar hisobiga tovarlar, ishlar va xizmatlar xarid qilishda majburiy hisoblanadi. Boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladigan qurilish obyektlari uchun nizom talablari tavsiya xususiyatiga ega bo'ladi. Nizom, agar xorijiy kreditlar va grantlar berish shartlariga ko'ra o'zgacha tartib belgilangan bo'lsa, tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridiga joriy etilmaydi.

Tanlov savdolari o'tkazish to'g'risidagi qaror buyurtmachi tomonidan faqat tanlov savdolari predmeti tegishli hujjatlar (kredit shartnomasi, bank ma'lumotnomasi, qurilishlarning aniq ro'yxati, davlat boshqaruv organi qarori va boshqalar) bilan tasdiqlangan moliyaviy resurslar bilan ta'minlangan taqdirda qabul qilinadi.

Nizomda quyidagi tushunchalardan foydalanilgan:

– boshlang'ich narx – buyurtmachi tomonidan yoki uning buyurtmasi bo'yicha jalb etilgan tashkilot tomonidan aniqlanadigan tanlov savdolari predmetining hisoblab chiqilgan qiymati;

– baholovchi guruh – ofertani baholash uchun tanlov komissiyasi tomonidan tashkil etiladigan vaqtinchalik organ;

– baholovchi komissiya – erkin savdoda xaridni amalga oshirishda buyurtmachi tomonidan tashkil etiladigan doimiy yoki vaqtinchalik organ;

– baholash mezonlari – talabgorlarni tanlash hamda ofertani baholash va savdolar g'olibini aniqlash uchun foydalaniladigan ko'rsatkichlar;

– buyurtmachi – investor yoki tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda investor tomonidan belgilangan yuridik shaxs;

– talabgorning malakasini oldindan aniqlash – tanlov savdolarida qatnashishga qo'yish uchun talabgorlarni tanlash;

– investor – tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridiga o'z mablag'larini yoki qarz olingan mablag'larni (budjetdan moliyalashtirishda – nazarda tutilgan mablag'larni) qo'yuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

– kapital qurilish – yangi qurilish, korxonalarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, zamonaviylashtirish va texnika bilan qayta jihozlash, obyektlar va asosiy vositalarni mukammal ta'mirlash, shu jumladan, loyiha-qidiruv ishlarini bajarish;

– tanlov savdolarida ishtirok etishga buyurtmalarni ta'minlash – oferent tomonidan buyurtmachining talabiga ko'ra ular bo'yicha dastlabki majburiyatni bank beradigan bank kafolati, topshiriq, zaxira akkreditivlar, cheklar shaklidagi tanlov savdolari shartlarida nazarda tutilgan istalgan majburiyatning yoxud ta'minlashning boshqa turlarida ta'minlanishi;

– talabgor – ofertasi savdo tashkilotchisi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgunga qadar taklif etilgan shartlarda tanlov savdolarida qatnashish niyatini bildirgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

– tanlov buyurtmasi aksepti – uning yutgan ofertasi e'tirof etilgan holda oferentga yuboriladigan va shartnoma tuzishga taklif hisoblanadigan buyurtmachining yozma bildirishnomasi;

– tanlov komissiyasi – ma'lum funksiyalarni bajarish uchun buyurtmachi tomonidan tashkil etiladigan doimiy yoki vaqtinchalik organ;

– tanlov savdolari – tanlov hujjatlarida nazarda tutilgan mezonlar va shartlarga muvofiq tovarning maqbul yetkazib beruvchisini, ishlarni bajaruvchini va xizmatlar ko'rsatuvchini tanlash usuli;

– tanlov savdolari predmeti – tovarlar, ishlar va xizmatlar;

– tanlov savdolari tashkilotchisi – buyurtmachi yoki tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish uchun buyurtmachi tomonidan jalb etiladigan yuridik shaxs;

– tanlov hujjatlari – tanlov savdolarining texnik, moliyaviy, tijorat, tashkiliy va boshqa tavsiflari to'g'risidagi hamda tanlov

savdolarini tashkil etish va o'tkazish shartlari, tartib-qoidalari to'g'risidagi dastlabki axborot mavjud bo'lgan hujjatlar turkumi;

– tovar-xomashyo, buyum, konstruksiya, asbob-uskunalarga butlovchi buyumlar, qattiq, suyuq yoki gazsimon holatdagi predmetlar, energiyaning barcha turlari, shuningdek, yetkazib beriladigan tovarga qo'shimcha ravishda ko'rsatiladigan xizmatlar, agar ularning qiymati tovar qiymatining o'zidan ortiq bo'lmasa;

– oferent – malaka tanlovidan o'tgan va ofertasi tanlov savdolari tashkilotchisi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan talabgor;

– oferta – tanlov hujjatlarida belgilangan shartlarga muvofiq taqdim etilgan tanlov savdolari predmetiga nisbatan talabgorning taklifi;

– shartnomaviy joriy narx – tanlov savdolari natijalari bo'yicha belgilanadigan tanlov savdolari predmeti narxi;

– shartnoma bajarilishini ta'minlash – buyurtmachining talabiga ko'ra tanlov savdolari g'olibi tomonidan ular bo'yicha birlamchi majburiyatni bank o'z zimmasiga oladigan bank kafolati, topshiriq, zaxira akkreditivlar, cheklar shaklidagi, naqd mablag'lardagi depozitlar yoxud boshqa shakllardagi depozitlar shaklidagi shartnomadagi mavjud majburiyatlar bajarilishining ta'minlanishi.

Investor, buyurtmachi, tanlov savdolari tashkilotchisi, tanlov komissiyasi va oferentlar tanlov savdolarining asosiy qatnashchilari hisoblanadi.

Buyurtmachi quyidagi funksiyalarni bajaradi: tanlov komissiyasi tarkibini va ish tartibini shakllantiradi va tasdiqlaydi, uning ishida qatnashadi; miqdori tanlov hujjatlarida qayd etiladigan aniq tanlov shartlariga bog'liq bo'ladigan tanlov savdolarida qatnashishga buyurtmalarni ta'minlash shaklini belgilaydi; tanlov savdolarining tashkilotchisi bo'ladi (ushbu funksiyalarni jalb etiladigan ixtisoslashgan tashkilotga berishi mumkin); tanlov hujjatlari tarkibini belgilaydi; talabgorning malakasini oldindan aniqlash va tanlov savdolariga qo'yiladigan asosiy talablarni, tanlov savdolari predmetiga qo'yiladigan va tanlov hujjatlari tarkibiga kiritiladigan maxsus va texnik talablarni belgilaydi; belgilangan tartibda ekspertizaning o'tkazilishi va tanlov hujjatlari tasdiqlanishini ta'minlaydi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi bilan kelishgan holda tanlov

savdolari natijalari to‘g‘risidagi hisobotni tasdiqlaydi; tanlov savdolari g‘olibi bilan shartnoma tuzadi; tanlov savdolarini tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq barcha xarajatlarni qoplaydi.

Quyidagilar tanlov savdolari tashkilotchisining asosiy vazifalari hisoblanadi: tanlov savdolarini o‘tkazish tartib-qoidalarini belgilash; tanlov savdolari predmetiga qo‘yiladigan maxsus, texnik va tijorat talablarini hisobga olgan holda talabgorning malakasini oldindan aniqlash va tanlov savdolarini o‘tkazish uchun tanlov hujjatlarini ishlab chiqish; belgilangan shakl bo‘yicha tanlov savdolari o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lonni matbuotda chiqarish va potensial talabgorlarga taklifnomalar yuborish; agar tanlov hujjatlarida o‘zgacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, arizalar va ofertalarni qabul qilish, ularning hisobga olinishi va maxfiyligini ta’minlash; jalb etiladigan buyurtmachi bilan shartnoma asosida mustaqil ekspertlar yoki maslahatchilarning ishlarini tashkil etish; talabgorlarga tanlov hujjatlarini taqdim etish; ofertalarning asl nusxalarini ular ochilgandan keyin buyurtmachiga berish.

Tanlov savdolarini tashkil etish uchun ixtisoslashtirilgan tashkilot jalb etilgan taqdirda tanlov savdolari tashkilotchisining huquq va majburiyatlari u bilan buyurtmachi o‘rtasida tuziladigan shartnomada belgilanadi.

Tanlov komissiyasi quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi: o‘zining ish tartibini belgilaydi; miqdori tanlov hujjatlarida qayd etilgan tanlov shartlariga bog‘liq bo‘lgan tanlov savdolarida qatnashishga buyurtmalarni ta’minlash shaklini tasdiqlaydi; ofertani qabul qilishning oxirgi kuni va vaqtini, konvertlarni ochish vaqti va joyini belgilaydi; talabgorning malakasini oldindan aniqlaydi, agar u tanlov hujjatlarida nazarda tutilgan bo‘lsa; tegishli ravishda rasmiylashtirgan holda tanlov savdolarini o‘tkazish tartib-qoidalarini amalga oshiradi; ichida ofertalar bo‘lgan konvertlarni ochadi, ularning tanlov hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiqligini tekshiradi (hujjatlarning to‘liq taqdim etilishi, rasmiylashtirish va h.k.) va konvertlarni ochish to‘g‘risidagi bayonnomani tasdiqlaydi; mustaqil ekspertlarni (maslahatchilarni) jalb etish zarurligini belgilaydi yoki tanlov komissiyasi a’zolari orasidan baholash guruhini tuzadi; tanlov hujjatlarida ko‘rsatilgan mezonlarga muvofiq ofertalarni o‘rganadi, tekshiradi va ko‘rib chiqadi, tanlov savdolari g‘olibini aniqlaydi yoki boshqa qaror

qabul qiladi; tanlov savdolarini o'tkazish jarayonida paydo bo'ladigan nizolar va kelishmovchiliklarni ko'rib chiqadi va tartibga soladi hamda ular bo'yicha tegishli xulosalar chiqaradi.

Tanlov komissiyasi a'zolari soni toq bo'lishi kerak.

Qoidaga ko'ra, tanlov komissiyasi tarkibiga investor, buyurtmachi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, joylardagi davlat hokimiyati organlari, xizmat ko'rsatuvchi bank vakillari kiritiladi.

Tanlov savdolari predmetiga bog'liq ravishda tanlov komissiyasi tarkibiga loyiha, ekspert tashkilotlari va boshqa tashkilotlarning vakillari kiritilishi mumkin.

Tanlov komissiyasi tarkibida investor va buyurtmachining vakillari soni komissiya a'zolari umumiy sonining to'rtdan bir qismidan ortiq bo'lmasligi kerak. Agar majlisda tanlov komissiyasi a'zolarining kamida to'rtdan uch qismi qatnashsa tanlov komissiyasi huquqiy vakolatli hisoblanadi.

Tanlov savdolarini o'tkazish tartib-qoidalari bosqichlari bo'yicha qaror tanlov takliflarini baholash mezonlarini hisobga olgan holda tanlov komissiyasi tomonidan ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan taqdirda raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

Tanlov komissiyasi majlislarida «Davarxitektqurilish» qo'mitasining vakolatli vakili ishtirok etadi.

Tanlov savdolari quyidagilarga bo'linadi:

– ochiq tanlov savdolari – oferentlar soni cheklanmaydi;

– yopiq tanlov savdolari – oferentlar soni cheklanadi.

Yopiq tanlov savdolari o'tkazish to'g'risidagi qaror Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadi. Ochiq yoki yopiq tanlov savdolari talabgorning malakasi oldindan aniqlangan holda yoki aniqlanmasdan yoxud ikki bosqichli bo'lishi mumkin.

Talabgorning malakasini oldindan aniqlash tanlov savdolarining birinchi turi, tanlov savdolarining g'olibini aniqlash – uning ikkinchi turi hisoblanadi. Talabgorning malakasi oldindan aniqlanadigan ochiq yoki yopiq tanlov savdolarini o'tkazishda talabgorlarning umumiy ro'yxati tuziladi, talabgorning

malakasi oldindan aniqlanadi va malakasi oldindan aniqlangan talabgorlar o'rtasida tanlov savdolari o'tkaziladi.

Tanlov savdolarida qatnashish uchun talabgorga quyidagi malaka talablari qo'yiladi: tanlov savdolari predmeti qiymatining kamida 20 foizi miqdoridagi bo'sh aylanma mablag'larning yoki ko'rsatib o'tilgan mablag'larni berishga bank kafolatnomasi, ishlar (xizmatlar)ni bajarish uchun zarur bo'lgan mehnat resurslari va mutaxassislarning mavjudligi; shartnomalar tuzish yuzasidan fuqarolik-muomala huquqiy layoqat va vakolatlar; ustav sarmoyasining miqdori; tanlov obyektiga o'xshash holda talabgor tajribasining mavjudligi; o'z kuchlari bilan ilgari bajarilgan ish hajmlari to'grisidagi ma'lumotlar; tanlov obyektida o'z kuchlari bilan bajariladigan ishlarning mo'ljallanayotgan hajmi (foizlarda).

Buyurtmachining tor ixtisoslashgan pudratchi tashkilotlari ochiq tanlov savdolarida umumiy asoslarda qatnashadilar, yopiq tanlov savdolarida tanlov savdolari tashkilotchisi kamida ikkita chetdan qatnashchini taklif qilishi shart.

Tanlov savdolari tashkilotchisi tanlov savdolari to'grisida ommaviy axborot vositalarida e'lon beradi yoki potentsial pudratchilarga (etkazib beruvchilarga) tanlov savdolarida qatnashishga taklifnoma jo'natadi. Tanlov savdolari o'tkazilishi to'grisidagi e'londa yoki tanlov savdolarida qatnashishga taklifnomada quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak: tanlov savdolari tashkilotchisining nomi va manzili; tanlov savdolari predmetini mablag' bilan ta'minlash manbalari; tanlov savdolari predmetining tavsifi va uni sotish joyi; tanlov savdolari predmetini sotish muddati; talabgorlarga qo'yiladigan asosiy shartlar; tanlov hujjatlarini sotib olish joyi va uning uchun to'lov miqdori; ofertalarni taqdim etish joyi, oxirgi kuni va vaqti; ofertalarni ochish joyi, kuni va vaqti.

Tanlov savdolari predmeti xaridining umumiy qiymati 25 ming AQSh dollariga teng summani tashkil etgan hollarda ular: xarid qilinadigan tovar, ishlar va xizmatlarning tavsifi, miqdori, bajarish muddatlari va tovarni yetkazib berish punkti ko'rsatilgan holdagi takliflarni talabgorlarga yuborish; yetkazib beruvchi yoki pudratchi tomonidan e'lon qilingan baho va tavsiflarni taqqoslash yo'li bilan erkin savdoda amalga oshirilishi mumkin.

Erkin savdoda xarid qilishda takliflarning yetkazib beruvchi yoki pudratchi tomonidan aloqa kanallari orqali yozma shaklda

taqdim etilishiga yo'l qo'yiladi. Erkin savdoda xarid qilishda yetkazib beruvchi yoki pudratchini tanlash baholash komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Baholash komissiyasi buyurtmachi tomonidan kamida besh nafar vakolatli mutaxassisdan iborat tarkibda tayinlanadi.

Tanlov savdolarida qatnashish uchun talabgorga quyidagi malaka talablari qo'yiladi: tanlov savdolari predmeti qiymatining kamida 20 foizi miqdoridagi bo'sh aylanma mablag'larning yoki ko'rsatib o'tilgan mablag'larni berishga bank kafolatnomasi, ishlar (xizmatlar)ni bajarish uchun zarur bo'lgan mehnat resurslari va mutaxassislarning mavjudligi; shartnomalar tuzish yuzasidan fuqarolik-muomala huquqiy layoqat va vakolatlar; ustav sarmoyasining miqdori; tanlov obyektiga o'xshash holda talabgor tajribasining mavjudligi; o'z kuchlari bilan ilgari bajarilgan ish hajmlari to'g'risidagi ma'lumotlar; tanlov obyektida o'z kuchlari bilan bajariladigan ishlarning mo'ljallanayotgan hajmi (foizlarda).

Tanlov savdolarida qatnishish talabgoriga buyurtmachi tomonidan belgilanadigan boshqa talablar ham qo'yilishi mumkin. Agar tanlov savdolari predmeti hisoblanadigan ishlar (xizmatlar)ni bajarish bilan bog'liq faoliyat qonun hujjatlariga muvofiq litsenziyalanishi kerak bo'lsa belgilangan tartibda berilgan tegishli litsenziyaga ega bo'lgan talabgorlar tanlov savdolarida qatnashishga qo'yiladi.

Tanlov komissiyasi talabgor (oferent)dan uning malaka ma'lumotlariga muvofiqligini tasdiqlovchi dalillarni hujjatli shaklda taqdim etishni talab qilishga haqlidir.

Talabgorlarga tanlov savdolarida qatnashishga malaka talablari tanlov hujjatlari tarkibida ko'rsatib o'tiladi. Malaka talablariga muvofiq talabgorlar tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlarni baholash tanlov hujjatlarida belgilangan tartibda tanlov komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Tanlov komissiyasi talabgorlarning o'z intellektual mulkini yoki tijorat sirini muhofaza qilish huquqini buzishga hamda talabgorlar (oferentlar)ning tanlov hujjatlarida nazarda tutilmagan malaka ma'lumotlariga nisbatan mezonlar va talablarni belgilashga haqli emas.

Ta'sis hujjatlari, moliyaviy qatnashish, xolding shaklida va boshqa shakllarda ifodalangan bir-biri bilan bevosita tashkiliy-

huquqiy yoki moliyaviy bog'liq bo'lgan tashkilotlarning tanlov savdolarida qatnashishi taqiqlanadi.

Buyurtmachining tor ixtisoslashgan pudratchi tashkilotlari ochiq tanlov savdolarida umumiy asoslarda qatnashadilar, yopiq tanlov savdolarida tanlov savdolari tashkilotchisi kamida ikkita chetdan qatnashchini taklif qilishi shart.

Malaka ma'lumotlari to'g'risida noto'g'ri axborot aniqlangan taqdirda tanlov komissiyasi qarori bilan talabgor (oferent) bundan keyin tanlov savdolari tartibotida qatnashishdan chetlatiladi. Malaka ma'lumotlari to'g'risida tanlov savdolari natijasiga ta'sir qilmaydigan unchalik muhim bo'lmagan noaniqliklar mavjud bo'lgan axborotni taqdim etgan talabgor (oferent)ga tanlov komissiyasi qarori bilan aniqlangan noaniqliklarni uning ofertasini ko'rib chiqish davomida tuzatishiga ruxsat etilishi mumkin.

Qayta tashkil etish (bo'linish, birlashish), tugatish yoki bankrotlik bosqichida bo'lgan, mulki xatlab qo'yilgan talabgorlar tanlov savdolari tartibotlarida qatnashishga qo'yilmaydi.

Tanlov savdolari tashkilotchisi tanlov savdolari to'g'risida ommaviy axborot vositalarida e'lon beradi yoki potensial pudratchilarga (etkazib beruvchilarga) tanlov savdolarida qatnashishga taklifnoma jo'natadi. Tanlov savdolari o'tkazilishi to'g'risidagi e'londa yoki tanlov savdolarida qatnashishga taklifnomada quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak: tanlov savdolari tashkilotchisining nomi va manzili; tanlov savdolari predmetini mablag' bilan ta'minlash manbalari; tanlov savdolari predmetining tavsifi va uni sotish joyi; tanlov savdolari predmetini sotish muddati; talabgorlarga qo'yiladigan asosiy shartlar; tanlov hujjatlarini sotib olish joyi va uning uchun to'lov miqdori; ofertalarni taqdim etish joyi, oxirgi kuni va vaqti; ofertalarni ochish joyi, kuni va vaqti.

Tanlov savdolari va (yoki) talabgorning malakasini oldindan aniqlash to'g'risidagi e'lon ommaviy axborot vositalarida chop etiladi. Buyurtmachining qaroriga ko'ra, xorijiy pudratchilar (etkazib beruvchilar) tanlov savdolarida qatnashishga taklif etilishi mumkin. Bunda e'lon, qoidaga ko'ra, eng ommaviy davriy nashrlarda, gazetalarda, web-caytda va (yoki) BMTning Development Business nashrida, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning elchixonalari orqali taklifnomalar jo'natish vositasida amalga oshiriladi.

Ofertalarni taqdim etish muddati e'lon ommaviy axborot vositalarida chop etilgan kundan boshlab kamida o'ttiz kunni yoki taklifnomalar jo'natilgan kundan boshlab o'ttiz besh kunni tashkil etishi kerak.

Tanlov savdolari o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon faqat tanlov hujjatlariga ijobiy ekspert xulosasi mavjud bo'lgan taqdirdagina chop etilishi mumkin.

Tanlov xujjatlari, qoidaga ko'ra, uch qismdan: umumiy, texnik va tijorat qismidan iborat bo'ladi.

Umumiy qismga quyidagilar kiradi: tanlov savdolarida qatnashishga taklifnoma; tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish yuzasidan shartnomaning umumiy shartlari; talabgorlarning tanlov savdolarida qatnashishga buyurtmalari shakli; talabgorning malakasini hamda uning texnik va moliyaviy ahvolini baholash talablari va mezonlarini, takliflarni moliyaviy baholash va tanlov savdolari g'olibini aniqlash mezonlari, tanlov savdolari tartibotiga taalluqli boshqa hujjatlardan iborat bo'lgan yo'riqnoma.

Texnik qism qurish, rekonstruksiya qilish, texnika bilan qayta jihozlash, loyihalash, qurilish obyektlari uchun materiallar, konstruksiyalar va jihozlar xarid qilishga doir tanlov hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom talablariga muvofiq ishlab chiqiladi.

Tanlov hujjatlarining tijorat qismi ishlar (xizmatlar)ni bajarish va (yoki) tovarni yetkazib berish shartlaridan, mablag' bilan ta'minlash manbalari va shartlaridan, tanlov savdolari predmetini sotish muddatidan, shartnoma loyihasidan iborat bo'ladi.

Buyurtmachi tomonidan e'lon qilingan narx bilan tanlov savdolari o'tkazilishi to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda tanlov savdolari predmetining boshlang'ich narxi e'lon va taklifnomada ko'rsatiladi.

Ofertalarni taqdim etish tartibi tanlov hujjatlarida belgilanadi.

Taqdim etilayotgan oferta tanlov hujjatlari shartlari va talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

Xorijiy pudrat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan va erkin muomaladagi valutada haq to'lanadigan xorijiy kreditlar va grantlar hisobiga moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda, agar xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan tuzilgan kredit shartnomalarida o'zgacha hol nazarda tutil-

magan bo'lsa, tanlov hujjatlariga ishlar (xizmatlar) qiymatining kamida 50 foizi miqdorida ishlar (xizmatlar)ni bajarish uchun O'zbekiston Respublikasining xo'jalik yurituvchi subyektlari - rezidentlari ishtirok etishi shartlari kiritiladi.

Tanlov va talabgorning malakasini oldindan aniqlash hujjatlariga, ofertani joylashga va markirovka qilishga, takliflarni texnik va moliyaviy baholash mezonlariga shartlar va talablar tanlov komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Ofertalarni taqdim etish muddati tugagungacha tanlov savdolari tashkilotchisi tanlov hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga haqlidir, tashkilotchi ular to'g'risida tanlov hujjatlarini olgan talabgorlarga darhol xabar qilishi, ofertalarni taqdim etish muddatini ofertaga tuzatish kiritish uchun yetarli bo'lgan vaqtga uzaytirishi kerak.

Tanlov hujjatlari ular uchun to'lov to'langandan keyin taqdim etiladi.

To'lov miqdori buyurtmachi va (yoki) tanlov savdolari tashkilotchisi tomonidan, tanlov hujjatlarini ko'paytirish va tarqatish qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Tanlov savdolari tashkilotchisi talabgorning so'roviga ko'ra tanlov hujjatlarining mohiyati yoki mazmuni bilan bog'liq bo'lgan savollarga yozma ravishda javob berishi, tanlov savdolarining barcha qatnashchilariga javobni so'rov manbayini ko'rsatmasdan yuborishi shart. Tanlov savdolarining asosiy qatnashchilari va (yoki) talabgorlar o'rtasida xabarlar, bildirishnomalar va boshqa axborotlarni almashish tanlov hujjatlari tarkibida tasdiqlangan shakl bo'yicha yozma ravishda amalga oshiriladi.

Ofertaning amal qilish muddati tanlov hujjatlarida belgilanadi.

Oferta uni taqdim etishning oxirgi kuni va vaqti tugagungacha qaytarib olinishi mumkin. Talabgorning imzosi va muhri qo'yilgan oferta savdolar tashkilotchisiga konvertga solib elimlangan holda jo'natiladi. Taqdim etish muddati tugagandan keyin olingan oferta ko'rib chiqilmaydi.

Ofertani taqdim etish sanasi tanlov savdolari tashkilotchisining pochta bildirishnomasidagi oferta olinganligi to'g'risidagi qayd bo'yicha yoki tanlov savdolari tashkilotchisining oferentga berilgan (oferta chopar orqali yetkazib beriladigan hol) oferta olinganligi to'g'risidagi bildirishnomasi sanasi bo'yicha belgilanadi.

Talabgor oferta tarkibida tanlov savdolarida qatnashishga buyurtmani tanlov hujjatlarida ko'rsatilgan, lekin, tanlov savdolari predmeti hisoblab chiqilgan qiymatining ko'pi bilan 2 foizi miqdorida ta'minlashni taqdim etadi. Ta'minlashning amal qilish muddati ofertaning amal qilish muddatidan kam bo'lmasligi kerak. Buyurtmachi tanlov hujjatlarida ta'minlash kafilining ishonchliligi bo'yicha talablarni, uning shakllarini va tanlov savdolarida qatnashishga buyurtmani ta'minlashdan foydalanish tartibini belgilashi mumkin.

Tanlov savdolarida qatnashishga buyurtmani ta'minlash: tanlov savdolari g'olibiga – shartnoma tuzilgandan keyin, shartnoma ijrosining talab qilinadigan ta'minlanishi taqdim etilgach; qolgan oferentlarga – tanlov savdolari g'olibi bilan shartnoma tuzilgandan keyin, lekin ofertaning amal qilish muddatidan kechikmay; ofertani qaytarib olgan oferentga – uni taqdim etishning oxirgi kuni va vaqti tugagungacha qaytariladi.

Buyurtmani ta'minlash uni qaytarish uchun asos paydo bo'lgan vaqtdan boshlab o'n kun mobaynida qaytariladi.

Tanlov savdolarida qatnashishga buyurtmani ta'minlash: ofertani taqdim etishning oxirgi kuni va vaqti tugagach ofertani o'zgartirgan yoki uni qaytarib olgan oferentga; tanlov savdolari g'olibiga – oferta uning amal qilish davrida qaytarib olinganda, tanlov hujjatlarida belgilangan shartlarda shartnoma tuzish yoki shartnoma ijrosining talab qilinadigan ta'minlanishini taqdim qilish rad etilganda qaytarilmaydi.

Tanlov savdolari, qoidaga ko'ra, buyurtmachi joylashgan joyda o'tkaziladi. Majlis vaqtida ofertalar solingan konvertlar ochiladi, shartlar va tartibotlarga rioya qilinishi, tanlov hujjatlarida ko'rsatilgan hujjatlarning mavjudligi tekshiriladi. Ofertalar solingan konvertlarni ochish qatnashish istagini bildirishgan oferentlar yoki ularning vakolatli vakillari ishtirokida amalga oshiriladi. Tanlov komissiyasi majlisi natijalari bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Tanlov komissiyasi majlislari natijalari to'g'risidagi axborot qatnashmagan oferentga yozma shaklda yetkaziladi. Hujjatlar paketida tanlov hujjatlari talablarining buzilganligi aniqlangan taqdirda hujjatlar ularning mazmuni e'lon qilinmasdan oferentga qaytariladi.

Tanlov komissiyasi tanlov hujjatlarining e'lon qilingan shartlarga nomuvofiqligini yoki ofertani rasmiylashtirishdagi noaniqliklarni, ular boshqa qatnashchilarning reytingiga ta'sir ko'rsatmaydigan va ularga yo'l qo'ygan tanlov savdolari qatnashchisiga ustunlik bermaydigan hollarda, e'tiborga olmasligi mumkin. Tanlov hujjatlari shartlariga javob beradigan ofertalar bo'yicha oferentning ismi (nomi), malaka ma'lumotlari, taklif qilingan narxlar va bajarish muddatlari, shuningdek, oferent tomonidan tanlov hujjatlari talablariga muvofiq kiritilgan qo'shimcha takliflar hisobga olinadi. Tanlov komissiyasi majlisida ofertani ko'rib chiqish davomida oferent tomonidan ofertaning mazmuni tushuntirib berilishiga yo'l qo'yiladi. Bunda ofertaning mazmunini, shu jumladan, narxi yoki bajarish muddatini o'zgartiruvchi tushuntirishlar berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Savdolarning turidan qat'iy nazar, tanlov savdolari g'olibi tanlov komissiyasining yopiq majlisida aniqlanadi. Tanlov savdolari g'olibi tanlov savdolari qatnashchilari ishtirokida e'lon qilinadi, ishtirok etmagan qatnashchilar xabardor qilinadi.

Ofertalarni ko'rib chiqish, baholash va taqqoslash natijalari to'g'risidagi axborot oshkor qilinmaydi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Tanlov komissiyasining har bir majlisida bayonnoma yuritiladi. Qoidaga ko'ra, bu – talabgor malakasini oldindan aniqlash, konvertlarni ochish, tanlov savdolari g'oliblarini aniqlash va tanlov savdolari o'tkazish tartiboti bilan bog'liq bo'lgan boshqa bayonnomalar. Tanlov savdolari buyurtmachi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangandan keyin tugallangan hisoblanadi.

Buyurtmachi «Davarxitektqurilish» qo'mitasi bilan kelishilgan kundan boshlab besh kun muddatda ommaviy axborot vositalarida tanlov savdolari natijalari (predmeti, g'olibi, investitsiya loyihasining shartnomaviy narxi va uni amalga oshirish muddati) to'g'risidagi axborotni e'lon qiladi.

Tanlov savdolari o'tkazilmagan hisoblanadi agar: ofertalarni taqdim etish muddatida uchtadan kam oferta tushsa; ofertalar tanlov hujjatlari shartlariga muvofiq bo'lmasa; ofertalarda tanlov savdolarida qatnashishga buyurtmani ta'minlash kafolati mavjud bo'lmasa; oferentlar tomonidan taklif etilgan narxlar tanlov savdolari predmeti boshlang'ich qiymatidan ancha ortiq bo'lsa;

«Davarxitektqurilish» qo‘mitasi bilan kelishuv bo‘yicha tanlov komissiyasi tomonidan asoslangan boshqa holatlar paydo bo‘lsa.

Tanlov savdolarining o‘tkazilmagan, deb e’lon qilinishi asosiy qatnashchilardan birontasining mulkiy yoki boshqacha tusdagi javobgarligiga olib kelmaydi. Agar tanlov savdolari o‘tkazilmagan, deb e’tirof etilsa, tanlov savdolari takroran o‘tkaziladi, bunda tanlov hujjatlari shartlarining qaytadan ko‘rib chiqilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Tanlov savdolari tashkilotchisi ular tugallangandan keyin tanlov savdolari g‘olibiga besh kundan kechikmay yozma bildirishnoma jo‘natadi. Shartnoma tanlov savdolari g‘olibi bildirishnomani olgan kundan boshlab o‘n kun muddatda tuziladi. Agar tanlov savdolari g‘olibi shartnoma tuzishni rad etsa yoki shartnoma ijrosini ta’minlashni belgilangan muddatda taqdim etmasa, u holda buyurtmachi tanlov komissiyasi bilan birgalikda ofertasi ikkinchi bahoni olgan oferentni tanlov savdolari g‘olibi, deb e’tirof etishi yoki takroriy tanlov savdolari o‘tkazishni tayinlashi mumkin. Shartnoma ijrosini ta’minlash miqdori buyurtmachi tomonidan, lekin tanlov savdolarida belgilangan qiymatning ko‘pi bilan 10 foizi miqdorida belgilanadi.

Tanlov hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazish, tanlov savdolarini o‘tkazishning maqsadga muvofiqligi va usullarining asoslanganligini aniqlash, tanlov savdolarini tashkil etish, tanlov savdolarini o‘tkazish shartlari va tartibotiga rioya qilish monitoringi «Davarxitektqurilish» qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

Tanlov hujjatlari ekspertizasi shartnoma asosida o‘tkaziladi. Tanlov savdolari tashkilotchisi tomonidan tanlov savdolarini tashkil etish va o‘tkazish masalalarini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar shartlariga hamda nizomga rioya qilinishi tanlov hujjatlari ekspertizasi predmeti hisoblanadi.

Tanlov hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazish uchun quyidagilar taqdim etiladi: tanlov savdolari predmeti va tashkilotchisi to‘g‘risidagi ma’lumotlar; tanlov hujjatlari; tanlov komissiyasini tayinlash va uning tarkibi to‘g‘risidagi buyruq; moliyaviy resurslarni tasdiqlovchi tegishli hujjatlar (kredit shartnomasi, bank ma’lumotnomasi, qurilishlarning aniq manzilli ro‘yxati, davlat boshqaruv organi qarori va boshqalar). Zarur hollarda ekspertiza

organi savdolar tashkilotchisidan qo‘shimcha ma’lumotlarni so‘rab oladi.

Tanlov hujjatlari ekspertizasi «Davarxitektqurilish» qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan qurilish, rekonstruksiya qilish, texnika bilan qayta jihozlash, loyihalash, qurilish obyektlari uchun materiallar, konstruksiyalar va jihozlar xarid qilishga doir tanlov hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq o‘tkaziladi. Tanlov hujjatlari ekspertizasi va ekspertiza organi tomonidan tegishli xulosani berish hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab o‘n kun muddatda amalga oshiriladi.

Takroriy ekspertiza besh kun muddatda o‘tkaziladi.

Quyidagilar monitoring obyekti hisoblanadi: tanlov savdolarini tashkil etish va o‘tkazish, shartnoma tuzish; loyihani amalga oshirishda tanlov savdolari shartlarining bajarilishi; ishlarni bajarish va moliyalashtirish jadvallarining ijrosi; qurilishi tugallangan obyektni o‘z vaqtida foydalanishga topshirish.

Monitoring buyurtmachi va pudratchi tomonidan tomonlarning tanlov savdolari shartlarini bajarishi to‘g‘risida «Davarxitektqurilish» qo‘mitasi hududiy boshqarmasiga har oyda taqdim etiladigan axborotlarni tahlil qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Monitoring natijalarini umumlashtirish «Davarxitektqurilish» qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

Tanlov savdolarida belgilangan narx qat’iy narx hisoblanadi. Birinchi moliyaviy yil mobaynida narxlarga hamda tovarlar, ishlar va xizmatlar xarid qilish yuzasidan shartnomani bajarish muddatiga tuzatishlar kiritishga yo‘l qo‘yilmaydi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Ikkinchi yil va undan keyingi yillar uchun shartnoma narxlariga tuzatishlar kiritish belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Tanlov savdolari g‘olibi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda obyekt qurilishining sug‘urta qilinishini ta’minlaydi.

Tanlov savdolarini tashkil etish va o‘tkazish, tanlov hujjatlarini ishlab chiqish bilan bog‘liq xarajatlar shartnoma asosida amalga oshiriladi. Tanlov savdolari tanlov savdolari predmetini sotishning maqsadga muvofiq emasligi sababli bekor qilingan taqdirda ularni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar amaldagi xarajatlar bo‘yicha buyurtmachi tomonidan qoplanadi.

Tanlov hujjatlarini ishlab chiqish, shartnoma asosida qurilishda tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish Qurilishda tanlov savdolari va narxlarni shakllantirish hududiy konsalting markazlari orqali amalga oshiriladi. Markazning faoliyati Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 2-dekabrdagi 538-sonli qaroriga qilingan 6b-ilovada qabul qilingan «Qurilishda tanlov savdolari va narxlarni shakllantirish hududiy konsalting markazi to'g'risida»gi namunaviy nizom orqali tartibga solinadi.

6.5. Buyurtmachi va pudratchining huquq va majburiyatlari

Kapital qurilish tizimida buyurtmachi va pudratchilarning ma'lum huquqlar va majburiyatlarga ega.

Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega: talabgorning malakasini oldindan aniqlash yoki buningsiz tanlov savdolari o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish; rasmiy farmoyish beruvchi hujjat chiqargan holda tanlov savdolarini o'tkazish shakli, turi va sanasini belgilash; tanlov savdolari tashkilotchisi funksiyasini amalga oshirish (ushbu funksiyalarni jalb etiladigan tashkilotga berishi mumkin); mustaqil ravishda yoki ixtisoslashtirilgan tashkilotni jalb etgan holda tanlov savdolari predmetining boshlang'ich qiymatini belgilash.

Buyurtmachining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

– barcha ishlar bajarib bo'linganidan keyin belgilangan narxning hammasini pudratchiga to'lashi yoki ishlarning ayrim bosqichlari tugallanganidan keyin narxning tegishli qismini to'lashi;

– pudratchidan olingan loyiha-smeta hujjatlaridan faqat shartnomada nazarda tutilgan maqsadlarda foydalanishi, loyiha-smeta hujjatlarini pudratchining roziligisiz uchinchi shaxslarga bermasligi va undagi ma'lumotlarni oshkor qilmasligi;

– loyiha va qidiruv ishlarini bajarishda shartnomada nazarda tutilgan hajmda va shartlarda pudratchiga xizmat ko'rsatishi;

– tayyor bo'lgan loyiha-smeta hujjatlarini tegishli davlat organlari va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan kelishib olishda pudratchi bilan birga qatnashishi;

– pudratchiga bog'liq bo'lmagan holatlar tufayli loyiha va qidiruv ishlarini bajarish uchun boshlang'ich ma'lumotlar o'zgarishi bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarni pudratchiga to'lashi;

– tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlarining yoki bajarilgan qidiruv ishlarining kamchiliklari borligi munosabati bilan uchinchi shaxs tomonidan buyurtmachiga nisbatan qo'zg'atilgan da'vo yuzasidan ishda qatnashishga pudratchini jalb qilishi shart.

Pudratchining majburiyatlari. Loyiha va qidiruv ishlari pudrat shartnomasiga muvofiq pudratchi:

– ishlarni loyihalash haqidagi topshiriq va boshqa boshlang'ich ma'lumotlarga muvofiq bajarishi;

– tayyor bo'lgan loyiha-smeta hujjatlarini buyurtmachi bilan kelishib olishi, shuningdek, buyurtmachi bilan birga tegishli davlat organlari va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan kelishib olishi;

– tayyor bo'lgan loyiha-smeta hujjatlarini va qidiruv ishlari natijalarini shartnomada belgilangan muddatlarda buyurtmachiga topshirishi;

– buyurtmachining roziligisiz loyiha-smeta hujjatlarini uchinchi shaxslarga bermasligi shart.

Kapital qurilishda buyurtmachi tomonidan quyidagilar ta'minlanadi: yer uchastkasini tanlash va ajratish, birlamchi ruxsat beruvchi hujjatlarni va qurilish hududini tayyorlash, loyiha oldi ishlarini tashkil etish, loyihaning, ish hujjatlarining (obyektni foydalanishga tayyor holda qurish hollaridan tashqari) va tanlov hujjatlarining tasdiqlanadigan qismini kelishish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash; loyihalovchi va pudratchini (bosh pudratchini) tanlov savdolari orqali tanlash; ishlarni bajarish va moliyalashtirish jadvallari bilan birgalikda shartnomalar tuzish; qurilish obyektini Davlat arxitektura qurilish nazorati organlarida ro'yxatdan o'tkazish; pudratchiga qurish uchun birlamchi ruxsat beruvchi hujjatlarni berish; buziladigan, ko'chiriladigan yoki rekonstruksiya qilinadigan binolarda, shuningdek, obyekt qurilishi hududida yashayotgan shaxslarni ko'chirish; moliyalashtirish. pudratchi tomonidan qabul qilingan shartnoma majburiyatlariga va shartnomada qayd etilgan boshqa funksiyalarga rioya qilinishi ustidan nazorat qilish; texnik kuzatish va obyekt qurilishi ustidan texnik nazorat qilish; qurilishi tugallangan obyektni belgilangan tartibda foydalanish uchun qabul qilish; kafolatli davrda aniqlangan nuqsonlar bartaraf etilishi ustidan nazorat qilish.

Pudratchi tomonidan quyidagilar ta'minlanadi: ish hujjatlarini ishlab chiqish va uning texnologiya qismini buyurtmachi bilan kelishgan holda qurilish jarayonida (obyekt foydalanishga tayyor holda qurilganda) ekspert kuzatish; ish hujjatlarini (obyekt foydalanishga tayyor holda qurilganda) texnologik izchillik va obyekt qurilishining aniq shartlari bilan bog'liqlikda hajmlar va muddatlarda ishlab chiqarishga berish; ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq hamda belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga rioya qilgan holda tasdiqlangan loyihada nazarda tutilgan ishlarni bajarish; shartnomaga muvofiq qurilishni asbob-uskunalar, konstruksiyalar va qurilish materiallari bilan butlash; loyiha yechimlariga hamda qurilish me'yorlari va qoidalariga rioya qilgan holda qurilish-montaj, maxsus va ishga tushirish-sozlash ishlarini o'z vaqtida va sifatli bajarish; obyektning ijroiya hujjatlarini, shu jumladan, sertifikatlanishi shart bo'lgan mahsulotga muvofiqlik sertifikatlarini, foydalanilgan qurilish materiallari va asbob-uskunalarga texnik pasportlarni tuzish va buyurtmachiga berish; tasdiqlangan loyihalarga, boshqa talablarga va shartnoma majburiyatlariga muvofiq obyektni buyurtmachiga topshirish.

Buyurtmachi va pudratchi qonun hujjatlariga va shartnoma shartlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham bajaradi.

Buyurtmachi bilan pudratchi o'rtasidagi vazifalarni aniq taqsimlash, shuningdek, ularning mulkiy javobgarligi darajasi qonun hujjatlariga va tanlov savdosi shartlariga muvofiq aniq bir pudrat shartnomasini tuzishda aniqlashtiriladi. Obyektni foydalanishga qabul qilib olish belgilangan sifat standartlari hisobga olingan holda «Davarxitektqurilish» qo'mitasi organlarining xulosasi asosida buyurtmachi tomonidan ta'minlanadi.

Buyurtmachi qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq: ishlarni bajarishga birlamchi-ruxsat beruvchi hujjatlar berilishi kechiktirilganligi; geodeziya – bo'lish asoslari hamda qurilish hududiga biriktirilgan punktlar va belgilar berilishi kechiktirilganligi; qurilish tugallangan obyekt, uning ayrim navbatlari, ishga tushirish kompleksi, binolar, inshootlar, ishlab chiqarishga tayyorlangan mahsulotlar yoki xizmatlar shartnoma shartlariga muvofiq qabul qilib olinishi asossiz ravishda kechiktirilganligi; shartnomaga muvofiq o'z vaqtida mablag' bilan ta'minlanmaganligi, bajarilgan ishlar tasdiqlanmaganligi va ularga haq to'lanmaganligi; shart-

nomada nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar bajarilmaganligi uchun pudratchi oldida javob beradi.

Pudratchi qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq: ish hujjatlari sifatsiz ishlab chiqilganligi (obyektni foydalanishga tayyor holda tayyor holda qurishda); qurilish-montaj ishlari sifatsiz bajarilganligi; obyekt, uning navbati, bosqichi, qurilishi o'z vaqtida tugallanmaganligi; buyurtmachi bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha montaj tashkilotlari va boshqa ixtisoslashtirilgan tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotgan asbob-uskunalarni montaj qilishga mo'ljallangan maydonlarni topshirish muddatlari buzilganligi (agar bu shartnoma va tanlov savdolari shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa); buyurtmachi bilan tuzilgan shartnomaga ilova qilingan alohida shartlarda belgilangan yerlarni rekultivatsiya qilish bo'yicha ishlar muddatlari va hajmlarining buzilganligi; qurilish jarayonida yoki oraliq qabul qilish jarayonida buyurtmachi, mualliflik nazorati va nazorat organlari tomonidan aniqlangan ishlar va konstruksiyalarda yo'l qo'yilgan chala ishlar va nuqsonlarni bartaraf etish kechikkanligi; shartnomada nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun buyurtmachi oldida mulkiy javob beradi.

Ish pudratchi tomonidan pudrat shartnomasidan chetga chiqib yoki boshqa nuqsonlari bo'lgan holda bajarilgan hollarda buyurtmachi, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada o'zgacha hol belgilanmagan bo'lsa, o'z xohishiga ko'ra pudratchidan: nuqsonlar oqilona muddatda qoplashsiz bartaraf etilishini; ish uchun belgilangan narx mutanosib miqdorda kamaytirilishini; agar nuqsonlarni bartaraf etish yuzasidan buyurtmachining huquqi shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa, nuqsonlarni bartaraf etish bilan bog'liq xarajatlar qoplanishini talab qilishga haqlidir. Agar pudratchi nuqsonlarni tomonlar tomonidan belgilangan muddatda bartaraf etmasa, buyurtmachi yoki foydalanuvchi tashkilot nuqsonni bartaraf etish ishlari qiymatini undirib olgan va nuqson o'z vaqtida bartaraf etilmaganligi uchun ko'rilgan zarar qoplangan holda nuqsonni pudratchi hisobidan o'z kuchlari bilan bartaraf etishga haqlidir. Bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'z vaqtida haq to'lanmagan taqdirda shartnomaga muvofiq aybdor tomon boshqa tomonga qonun hujjatlarida va shartnomada belgilangan tartibda jarima to'laydi. Jarima to'lanishi,

shuningdek, majburiyatlar zarur darajada bajarilmaganligi uchun zararlar qoplanishi tomonlarni shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilishidan ozod etmaydi.

Buyurtmachi pudratchining aybi bilan shartnomani bekor qilishga majbur bo'lgan taqdirda pudratchining kafili (u mavjud bo'lgan taqdirda) buyurtmachi bilan pudratchi o'rtasida tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq obyekt qurilishini qurilish to'liq tamom bo'lgungacha davom ettirish majburiyatini o'z zimmasiga olishi yoki unga berilgan kafolatdan kelib chiquvchi moliyaviy majburiyatlarni bajarishi mumkin. Kafil ishni o'z kuchlari bilan tamomlashi yoki o'z xohishiga ko'ra, istalgan pudratchini jalb etgan holda tamomlashi mumkin.

Obyektni foydalanishga tayyor holda qurish pudratchining loyihada nazarda tutilgan ishlarining butun hajmini, shu jumladan, maxsus va ishga tushirish-sozlash ishlarini bajarish, obyektni texnologiya va muhandislik asbob-uskunalari bilan butlash bo'yicha majburiyatlarini nazarda tutadi hamda tayyor qurilish mahsuloti yaratishning yagona uzluksiz kompleks jarayoni sifatida amalga oshiriladi. Obyektlarni foydalanishga tayyor holda qurishda buyurtmachi va pudratchi qatnashchilar hisoblanadi. Obyektni foydalanishga tayyor holda qurish markazlashtirilgan manbalar hisobiga amalga oshiriladigan yangi qurilishda, ishlab turgan korxonani kengaytirish, rekonstruksiya qilish va texnika bilan jihozlashda majburiy hisoblanadi. Loyihalarni boshqa manbalar hisobiga amalga oshirishda obyektlarni foydalanishga tayyor holda qurish tomonlarning kelishuvi bo'yicha yoki tanlov savdolari shartlariga qarab qo'llanilishi mumkin. Foydalanishga tayyor holda qurish shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun pudratchi subpudratchi tashkilotlarni jalb etishi mumkin, ularga nisbatan pudratchi bosh pudratchi hisoblanadi.

Qurilishni qurilish-montaj ishlarini bajarish uchun zarur bo'lgan materiallar, konstruksiyalar va buyumlar bilan, shuningdek, barcha namunaviy asbob-uskunalar va apparatlar, nostandartlashtirilgan, texnologik va energetika asbob-uskunalari bilan, shu jumladan, maxsus materiallar bilan ta'minlash pudratchining vazifasi hisoblanadi. Pudratchi shartnomada belgilangan kafolatli davrda obyektdan loyihada nazarda tutilgan parametrlarda foydalanilishi uchun buyurtmachi oldida mulkiy javob beradi.

Pudratchi bilan uzil-kesil hisob-kitob qilish buyurtmachi tomonidan qurilish tamom bo'lgandan va obyekt foydalanishga topshirilganidan, shu jumladan, kredit olish va ular bo'yicha pudrat-qurilish tashkilotlari tomonidan foizlar to'lash bilan bog'liq xarajatlar qoplangandan keyin amalga oshiriladi. Obyektlarni foydalanishga tayyor holda qurishda tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari obyekt foydalanishga topshirilgunga qadar pudratchining balansida bo'ladi va uning soliq solinadigan bazasiga kiritilmaydi.

Investitsiya loyihasini markazlashtirilgan manbalar hisobiga mablag' bilan ta'minlash har qaysi obyekt bo'yicha ajratilgan kapital qo'yilmalar limitlari doirasiga qat'iy amal qilgan holda, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishilgan qurilishlarning aniq mo'ljalli ro'yxati va qurilishlarning belgilangan tartibda tasdiqlangan titul ro'yxati asosida amalga oshiriladi.

Belgilangan tartibda tasdiqlangan qurilishlarning aniq mo'ljalli ro'yxati kapital qo'yilmalarning tasdiqlangan limitiga muvofiq obyektlar qurilishining aniq ro'yxatida nazarda tutilgan qurilish uchun banklarning kreditlarini jalb etishda pudratchi uchun asos bo'lib hisoblanadi. Ajratilgan mablag'lardan buyurtmachi tomonidan qurilishlarning titul ro'yxatida nazarda tutilmagan maqsadlarda foydalanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Mablag' bilan ta'minlashni ochish uchun buyurtmachi tomonidan xizmat ko'rsatuvchi bankka quyidagilar taqdim etiladi: qurilishlarning aniq mo'ljalli ro'yxati (loyiha-qidiruv ishlarining aniq ro'yxati); qurilishning titul ro'yxati; buyurtmachi bilan pudratchi o'rtasida tuzilgan shartnoma nusxasi; pudrat tashkilotining qurilish tavakkalchiliklarini sug'urtalash yuzasidan shartnomasi nusxasi; qurilish-montaj ishlarini bajarishga «Davarxitektqurilish» qo'mitasining ruxsati.

Buyurtmachi va pudrat tashkiloti o'rtasida investitsiya loyihasini amalga oshirish yuzasidan tuzilgan shartnomada va unga ilova qilinadigan mablag' bilan ta'minlash jadvalida quyidagilar hisobga olinishi zarur:

— qurilish yangidan boshlanayotgan, tayyor holda foydalanishga topshiriladigan obyektlarni qurishda;

– qurilishning dastlabki ikki oyi mobaynida avans to‘lovlari tanlov savdolari natijalari bo‘yicha belgilangan ishlar qiymatining 30 foizigacha miqdorda teng ulushlarda ajratilishi;

– jam bo‘lgan holda avans to‘lovi ham hisoblanadigan avans berishni hisobga olgan holda obyekt qiymatining 50 foizgacha miqdorida joriy moliyalashtirishni amalga oshirish.

Mablag‘ bilan ta’minlovchi organga buyurtmachi tomonidan quyidagilar taqdim etiladi: qurilishlarning aniq mo‘ljalli ro‘yxati (loyiha-qidiruv ishlarining aniq mo‘ljalli ro‘yxati); qurilishlarning titul ro‘yxati; buyurtmachi bilan pudratchi o‘rtasida tuzilgan shartnoma nusxasi; qurilish tavakkilchiliklarini sug‘urtalash yuzasidan pudrat tashkiloti tomonidan tuzilgan shartnoma nusxasi va tanlov savdolari natijalari to‘g‘risida buyurtmachining hisoboti; har qaysi investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun ochilgan moliyalashtirishning har bir hisob raqami bo‘yicha bank rekvizitlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

Xizmat ko‘rsatuvchi bank bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun buyurtmachiga har qaysi qurilish obyekti bo‘yicha «talab qilib olinadigan» alohida ikkilamchi depozit hisob raqamlari (keyingi o‘rinlarda moliyalashtirish hisob raqamlari deb ataladi) ochiladi. Moliyalashtirish hisob raqamlaridan buyurtmachi ta’minoti bo‘yicha xarajatlarga mablag‘ to‘lanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Pudrat tashkilotiga kredit berish uchun bank tomonidan buyurtmachini moliyalashtirish hisob raqamiga xizmat ko‘rsatuvchi bankning ma’lumotnomasi asosida qurilishning har bir obyektiga alohida ssuda hisob raqami ochiladi. Kredit va foiz stavkalari miqdorlari, kreditni qaytarish va u bo‘yicha foizlar to‘lash muddatlari va tartibi bank bilan pudrat tashkiloti o‘rtasida tuzilgan kredit shartnomasida belgilanadi. Xizmat ko‘rsatuvchi bank tomonidan moliyalashtirish hisob raqamidan pul mablag‘larini o‘tkazish buyurtmachi tomonidan to‘lov topshirig‘i taqdim etilganidan keyingi kun boshlanishidan kechiktirmay amalga oshiriladi. Xizmat ko‘rsatuvchi bank qonun hujjatlariga muvofiq mablag‘lar o‘z vaqtida o‘tkazilishi uchun javob beradi. Buyurtmachi to‘lov topshiriqlari qurilishning titul ro‘yxatiga qat’iy muvofiq bo‘lishi uchun javob beradi.

To‘lov topshiriqnomasiga bajarilgan ishlar qiymati to‘g‘risidagi «ma’lumotnoma – schyot-faktura» ilova qilinadi. Obyektni foydalanishga tayyor holda qurishda joriy mablag‘ bilan ta’minlash ishlarni bajarish va mablag‘ bilan ta’minlash jadvallariga muvofiq amalga oshiriladi. Avans to‘lovi pudrat tashkilotining xizmat ko‘rsatuvchi bankdagi talab qilib olinadigan depozit hisob raqamiga o‘tkaziladi.

Moliyalashtirish hisob raqamidan qurilishning titul ro‘yxatiga va unda ko‘rsatilgan kapital qo‘yilmalardan foydalanish yo‘llariga muvofiq bo‘lmagan to‘lovlarni amalga oshirish taqiqlanadi. Joriy mablag‘ bilan ta’minlash mablag‘ bilan ta’minlovchi organ tomonidan amalda bajarilgan qurilish ishlari hajmi hisobga olingan holda har oyda 20-kundan kechikmay amalga oshiriladi.

Investitsiya loyihasini amalga oshirish qatnashchilari o‘rtasidagi hisob-kitoblar ular o‘rtasida tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi. Hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 5-kunidan kechikmay, buyurtmachilar tomonidan moliya organiga mazkur nizomga muvofiq tasdiqlovchi hujjatlar bilan birga belgilangan shakl bo‘yicha markazlashtirilgan kapital qo‘yilmalardan foydalanilishi to‘g‘risida hisobotlar taqdim etiladi.

6.6. Qurilish-montaj ishlarining smeta qiymati tarkibi va tuzilishi

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, qurilishning qiymati va uni moliyalashtirish hajmlarini aniqlash, shuningdek, buyurtmachi va pudratchi o‘rtasidagi hisob-kitoblarni amalga oshirishga oid hujjat smetani anglatadi va u tayyor qurilish mahsulotining bahosini ifodalaydi.

Pudrat shartnomasida bajariladigan ishning bahosi yoki uni aniqlash usullari ko‘rsatiladi. Pudrat shartnomasidagi ishning bahosi pudratchining chiqimlarini va unga to‘lanadigan haqni o‘z ichiga oladi. Ishning bahosi smeta tuzish yo‘li bilan aniqlanishi mumkin. Ish pudratchi tomonidan tuzilgan smeta bo‘yicha bajarilgan taqdirda, smeta buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan paytdan boshlab kuchga ega bo‘ladi va pudrat shartnomasining bir qismi bo‘lib qoladi. Ishning bahosi (smeta) taxminiy yoki qat’iy bo‘lishi mumkin. Pudrat shartnomasida bunday ko‘rsatma bo‘l-

masa, ishning bahosi (smeta) qat'iy hisoblanadi. Agar qo'shimcha ishlarni bajarish zarur bo'lib qolsa va shu sababli ishning taxminan belgilangan bahosini (taxminiy smetani) ancha oshirishga to'g'ri kelsa, pudratchi bu haqda buyurtmachini vaqtida ogohlantirishi shart. Qurilish shartnomasida quyidagilar aks ettiriladi: tomonlarning majburiyatlari, yetkazilgan zararlarni qoplash tartibi; mavjud muammolarni hal qilish yo'llari, xo'jalik sudiga da'vo arizasini kiritish tartibi; shartnoma ishtirokchilarining malakasini tasdiqlash.

Buyurtmachi pudrat shartnomasida ko'rsatilgan ishning bahosini (smetani) oshirishga rozi bo'lmagan taqdirda, shartnomadan voz kechishga haqli. Bunday hollarda pudratchi buyurtmachidan ishning bajarilgan qismining bahosini to'lashni talab qilishi mumkin. Buyurtmachini pudrat shartnomasida ko'rsatilgan ishning bahosini (smetani) oshirish zarurligi to'g'risida o'z vaqtida ogohlantirmagan pudratchi ish uchun shartnomada ko'rsatilgan baho bo'yicha haq olish huquqini saqlab qolgan holda shartnomani bajarishi shart. Pudratchi, qoida tariqasida, qat'iy baho (qat'iy smeta)ni oshirishni, buyurtmachi uni kamaytirishni talab qilishga, shu jumladan, bajarilishi kerak bo'lgan ishning to'la hajmini yoki buning uchun zarur xarajatlarni pudrat shartnomasi tuzilayotgan paytda nazarda tutish imkoniyati bo'lmagan hollarda ham, haqli emas.

Pudratchi tomonidan taqdim qilinishi kerak bo'lgan materiallar va uskunalar, shuningdek, uchinchi shaxslar tomonidan unga ko'rsatiladigan xizmatlar bahosi ancha oshgan va buni shartnoma tuzish vaqtida nazarda tutish mumkin bo'lmagan hollarda pudratchi belgilangan ish bahosini (smetani) oshirishni talab qilishga, buyurtmachi bu talabni bajarishdan bosh tortgan taqdirda, shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqli.

Loyiha oldi izlanishlarining muhim bosqichlaridan biri - bo'lg'usi investitsiya loyihasini amalga oshirish qiymatini baholash hisoblanadi. Loyiha qiymatini aniqlash uchun asos bo'lib loyihani alohida qismlari (qurilish, texnologik va tashkiliy) bo'yicha va ularni amalga oshirish bo'yicha ishlanmalar xizmat qiladi. Bunday tarzda olingan ishlar va texnologik uskunani xarid qilish qiymati loyihaning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini hisoblab chiqishga, ularni boshqa shunday turdagi loyihalar bilan taqqoslashga, loyihalashtirishdagi afzalliklar va kamchiliklarni aniqlashga,

kapital qo'yilmalarning samaradorligini oshirish bo'yicha asosiy vazifalarni shakllantirishga imkon beradi. Loyiha-smeta hujjatlari loyiha budjetini shakllantirish va uning bajarilishi ustidan nazorat qilishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Smeta asosida qurilish ishlari xarajatlari: texnologik, energetik, ko'tarma-transport va boshqa uskunalar, korxona faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan boshqa asboblar va ishlab chiqarish inventarlari xaridi xarajatlari; ushbu uskunalarni o'rnatish ishlari xarajatlari; qurilish maydonini o'zlashtirish xarajatlari; texnik va mualliflik nazoratini amalga oshirish xarajatlari; loyiha hujjatlarini ishlab chiqish xarajatlarini o'z ichiga oluvchi kapital qo'yilmalar hajmi aniqlanadi.

Qurilish-montaj ishlarining smeta qiymati buyurtmachilar va pudratchilar, uskunalar yetkazib beruvchilar bilan shartnomalar tuzish va shartnoma bahosini aniqlash hamda ular o'rtasida hisoblashishni amalga oshirish uchun ishlatiladi.

Smeta qiymati ko'rsatkichlari ishlab chiqarish va noishlab chiqarish obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha loyihaviy yechimlar variantlarini baholash va ulardan iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofig'ini tanlash uchun zarur bo'ladi. Bundan tashqari, smeta qiymati qurilishni tashkil etish va ishlarni bajarish variantlarini taqqoslash, konstruktiv va bajariladigan ishlar hajmini aniqlash hamda qurilish materiallari va uskunalarni tanlash uchun ishlatiladi.

Loyihaning smeta qismi o'z tarkibiga qurilish bo'yicha yig'ma smetani va obyekt qurilishi bo'yicha smetani hamda bajarilgan ish turlarini qamrab oladi.

Bino va korxona qurilishi bo'yicha yig'ma-smeta qurilishni moliyalashtirishni amalga oshirishdagi asosiy hujjat hisoblanadi.

Yig'ma-smeta quyidagi xarajat turlarini o'zida aks ettirishi lozim: qurilish maydonini tayyorlash; ishlab chiqarish ahamiyatiga oid asosiy obyektlar; ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish ahamiyatiga oid yordamchi obyektlar; transport xo'jaligi va aloqa obyektlari; elektroenergetika obyektlari; kanalizatsiya, issiqlik va gaz ta'minoti, suv ta'minoti; korxona hududini obodonlashtirish; vaqtinchalik bino va inshootlar; loyihaviy va qidiruv ishlari; boshqa ishlar.

Qurilish uchun yig'ma-smetada kutilmagan ishlar va xarajatlar uchun quyidagi miqdorlarda mablag'lar zaxirasi ko'zda tutiladi: yakka tartibdagi obyektlar qurilishini ko'zda tutuvchi sanoat, qishloq xo'jaligi, transport inshootlari va korxonalarini qurishdagi barcha xarajatlar umumiy qiymatining 5 foizi miqdorida; barcha tarmoq korxonalarining namunaviy loyihalari bo'yicha obyektlar barpo etilishidagi barcha xarajatlar umumiy qiymatining 3 foizi miqdorida.

Hozirgi iqtisodiy sharoitda qurilish obyektlari smeta qiymatini aniqlash bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

1. TIA tarkibidagi loyiha oldi bosqichida. TIA ko'rsatkichlarining hisob-kitoblari natijasida obyektlar barpo etilishidagi taxminiy xarajatlar aniqlanadi.

2. Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish bosqichida. Loyihalashtiruvchilar amalga oshirilgan hisob-kitoblar va smeta me'yorlarini qo'llash natijasida obyekt qurilishining smeta qiymatini aniqlaydi, shu jumladan, lokal smetalari, alohida bajariladigan ishlar uchun xarajatlar qiymati va qurilish qiymatining yig'ma-smeta hisob-kitobi.

Obyektning smeta qiymatini aniqlashda quyidagi ko'rsatkichlar qo'llaniladi: bevosita xarajatlar[1] – BX; ustama xarajatlar[2] – UX; rejali jamg'arma – RJ (smeta foydasi[3]). Unga ko'ra, qurilish mahsulotining (obyektining) smeta bahosi (SB) quyidagi tenglik bilan ifodalandi:

$$SB = BX + UX + RJ \qquad (6.1)$$

---

[1] Bevosita qurilish-montaj ishlarini bajarish bilan bog'liq xarajatlarni: ishchilarning asosiy ish haqi; material, konstruksiya, detal va yarimtayyor mahsulotlar qiymati; mashina va mexanizmlarni ishlatish/ekspluatatsiya qilish xarajatlari.

[2] Ustama sarflarga quyidagi xarajat moddalari kiradi: ma'muriy-xo'jalik xarajatlari (ma'muriy-xo'jalik xodimlari ish haqi; ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar; kompyuterlar, bino va inshootlar, xizmat yengil mashinasini tutib turish va ekspluatatsiya qilish; ma'muriy-xo'jalik xodimlari foydalanadigan asosiy fondlarni ta'mirlash; ma'muriy xodimlarga xizmat ko'rsatishda foydalaniladigan asosiy fondlar bo'yicha amortizatsiya ajratmalari (ijara haqi); maslahatlar, axborotlar va auditorlik xizmatlari uchun haq to'lash; pochta-telegraf, kanselyariya, bosmaxona va boshqa ma'muriy-xo'jalik xarajatlari; qurilish ishchilariga xizmat ko'rsatish xarajatlari (tayyorlov, qayta tayyorlov, ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar, sanitar-gigiyenik va xo'jalik sharoitlari bilan ta'minlash, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi); qurilish maydonlarida ishlarni tashkil etish xarajatlari (arzon va tez eskiruvchi asbob-uskuna va inventarlarning eskirishi va ularni ta'mirlash; kashfiyot va ratsionalizatorlik; geodeziya va qurilish ishlarini loyihalashtirish xarajatlari; ishlab chiqarish laboratoriyalarini tutib turish; qurilish maydonlarini obodonlashtirish va tutib turish; qurilish miqyosiga ko'ra qurilish bo'linmalarini tayyorlash); boshqa xarajatlar (majburiy sug'urta, bank kreditlari bo'yicha to'lovlar; reklama, ko'rgazma va yarmarkalarda ishtirok etish; soliqlar, yig'imlar, to'lovlar va boshqa majburiy ajratmalar, ishchilarni yig'ish va ularni xizmat safariga yuborish, taqdimotlar o'tkazish va buyurtmachilar tomonidan qoplanadigan boshqa xarajatlar).

[3] Qurilish tashkilotining alohida (umumiy) xarajatlarini qoplash uchun zarur bo'lgan va ishlar tannarxiga qo'shiladigan mablag'lar summasi.

Smeta qiymati – qurilish mahsuloti (obyekti) uchun erkin bahoning shakllanishi va kapital qo'yilmalarni aniqlashda asos bo'lib xizmat qiladi.

6.7. Qurilishda narxni shakllantirish asoslari. Qurilish obyektining shartnoma narxlari

Kapital qurilishda xo'jalik munosabatlari mexanizmini takomillashtirish, shartnoma majburiyatlariga rioya etilishi va qurilishning pirovard natijalari uchun investitsiya jarayoni qatnashchilarining javobgarligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 12-sentabrdagi «Kapital qurilishda xo'jalik munosabatlari mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida»gi 395-sonli qarorida O'zbekistonda kapital qurilishdagi shartnomaviy narxlar yagona uslubiyoti barcha mulk shakllari uchun qabul qilindi. Ta'kidlash joizki, shartnomaviy narxlar bozordagi mavjud sharoitlarni hisobga olgan material qiymatning konyunkturasi, ishlatiladigan mashina va mexanizmlar qiymati hamda pudrat tashkilotlarining foydasini anglatadi. Shartnoma O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda kapital qurilish sohasidagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq tuziladi. Ushu qarorda past rentabelli va zarar ko'rib ishlayotgan pudrat-qurilish tashkilotlarini xususiylashtirishda tegishli investitsiya majburiyatlari mavjud bo'lgan taqdirda obyektlarni qonun hujjatlariga muvofiq bepul berishga ruxsat etildi. Shuningdek, markazlashtirilgan manbalar hisobiga qurilishni tashkil etish, moliyalashtirish va kreditlash tartibi to'g'risidagi nizom, obyektlarni foydalanishga tayyor holda qurishga doir Namunaviy pudrat shartnomasi hamda «O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish tartibi to'g'risida»gi nizomlar tasdiqlandi.

Ta'kidlash joizki, eskirgan va zamonaviy talablarga muvofiq bo'lmagan amaldagi smeta me'yorlari va qoidalari tizimi va uning asosida qurilish smeta qiymatining oshib ketishiga olib keluvchi ustama narxlarni ishlab chiqish qurilish-texnologiya jarayonini va umuman, qurilish kompleksining samarali ishlashini maqbul-

lashtirish yo'lidagi, pirovard natijada, qurilishda loyihalashtirish, smeta va texnologiya intizomini mustahkamlashdagi bosh to'siqlardan biri hisoblanadi.

Ko'rsatib o'tilgan kamchiliklarni bartaraf etish, bozor iqtisodiyoti talablariga muvofiq kapital qurilishda narxlarni shakllantirishning smeta-me'yoriy bazasini tartibga solish va yangilash, obyektlar qurilishi qiymatini joriy shartnomaviy narxlarda belgilash mexanizmini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 24-oktabrdagi «Kapital qurilishda narxlarni shakllantirishning smeta-normativ bazasini takomillashtirish va yangilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 463-sonli qarori qabul qilindi. Qarorda «Davarxitektqurilish» qo'mitasi amaldagi yakka tartibdagi va idoraviy smeta me'yorlarini, ularning maqsadga muvofiqligini, asoslanganligini hamda qo'mitaning me'yoriy hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiqligini aniqlash maqsadida to'liq xatlovdan o'tkazilishi hamda xatlovdan o'tkazish uchun «Davarxitektqurilish» qo'mitasi ekspert komissiyalari tashkil etilishi hamda idoraviy smeta me'yorlarini keskin qisqartirish chora-tadbirlari belgilab berildi. Shuningdek, joriy shartnomaviy narxlarni belgilash uchun idoraviy smeta me'yorlari faqat ular «Davarxitektqurilish» qo'mitasi bilan belgilangan tartibda majburiy ravishda kelishib olingan taqdirda kuchga ega bo'lishi qayd etilgan. Albatta, bu hol kapital qurilishning samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Kapital qurilish sohasida tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridining yagona tizimini yaratish, tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish mexanizmini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 3-iyuldagi «Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 302-sonli qarori qabul qilinib, unda:

– markazlashtirilgan manbalar, davlat boshqaruv organlari va davlat korxonalari mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan kapital qurilish bilan bog'liq tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridi faqat tanlov savdolari natijalari bo'yicha amalga oshirishi;

– kapital qurilish bilan bog'liq tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilishda tanlov savdolari majburiy o'tkazilishi uchun buyurtmachilar, tanlov savdolarini o'tkazishning belgilangan

tartibiga rioya qilinishi uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda tanlov savdolari tashkilotchilari javob berishlari;

– sifatli bajarilgan ishlar va xizmatlarni o'z vaqtida va to'liq moliyalashtirish yuzasidan shartnoma shartlari bajarilmaganligi uchun shartnoma shartlariga muvofiq buyurtmachi moddiy javob berishi, shuningdek, ko'rsatib o'tilgan sabablar natijasida soliq organlari tomonidan hisoblangan, ularga to'langan jarimalar va penyani pudratchiga to'liq qoplashi;

– tanlov savdolari natijalari bo'yicha tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan shartlarning o'zgarishi, buyurtmachi bilan pudratchi o'rtasida kelishuv mavjudligidan qat'iy nazar, faqat ular belgilangan tartibda tanlov komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilgandan va tasdiqlangandan keyin qabul qilingan, deb hisoblanishi;

– qurilishning amaldagi qiymatini tanlov savdolari natijalari bo'yicha shartnomada belgilangan shartnomaviy narxga nisbatan kamaytirish natijasida tejalgan mablag'lar pudrat tashkilotining tasarrufida qolishi belgilab qo'yildi.

Albatta, ushbu holatlar kapital qurilishni moliyalashtirish samaradorligini ta'minlashga, ishtirokchilarning shaxsiy javobgarligini oshirishga va shartnoma shartlarining to'liq bajarilishiga xizmat qiladi.

6.8. Kapital qo'yilmalar samaradorligini baholash. Kapital qurilishda nazorat ishlarini olib borish

Zamonaviy sharoitda shunday vaziyat yuzaga keldiki, korxonalar, loyihalash va ilmiy-tadqiqot institutlari, banklar va boshqa tijorat tashkilotlari investitsiyalarni iqtisodiy asoslashning zamonaviy uslubiyoti bilan qurollanmaganligi ulardan foydalanish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

So'nggi yillarda iqtisodiy adabiyotlarda investitsiyalarni iqtisodiy asoslash uslubiyotiga bag'ishlangan ko'pgina masalalar yoritib kelinmoqda. Shu boisdan tijorat tashkilotlari uchun ma'qul va tushunarli bo'lgan hamda xalqaro amaliyotni hisobga oluvchi investitsiyalarni iqtisodiy asoslashning umumtanolingan uslubiyotini ishlab chiqish nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Sobiq Ittifoq davrida kapital qo'yilmalarning absolut va taqqoslama samaradorligini aniqlash uslubiyoti amal qilar edi.

Mazkur uslubiyot yagona bo'lib, amaliyotda keng qo'llanildi va hozirgi davrgacha ham ushbu uslubiyot o'z kuchini yo'qotgani yo'q.

Kapital qo'yilmalarning absolut va taqqoslama samaradorligini aniqlash uslubiyoti ikki usuldan iborat bo'lib, birinchisi, kapital qo'yilmalarning absolut samaradorligini aniqlash uslubiyoti, ikkinchisi, kapital qo'yilmalarning taqqoslama samaradorligini aniqlash uslubiyotidir.

Mazkur uslubiyotning ayrim jihatlariga to'xtalib o'tamiz.

1. Kapital qo'yilmalarning iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti (E_{kp}). Ushbu ko'rsatkich foydaning kapital qo'yilmalar hajmiga nisbati orqali aniqlanadi:

$$E_{kp}\ (\text{umumiy}) = \frac{P}{K} \qquad (6.2),$$

$$E_{kp}\ (\text{ishlab chiqarishda}) = \frac{Ts - S}{K} \qquad (6.3),$$

$$E_{kp}\ (\text{savdoda}) = \frac{N - I}{K} \qquad (6.4),$$

bu yerda: **P** – rejalashtirilgan davrdagi yillik foyda; **K** – obyekt qurilishga kapital qo'yilmalar (qurilayotgan obyektning smeta qiymati); **Ts** – loyiha bo'yicha bir yilda ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati (ulgurji narxlarda, soliqsiz); **S** – mahsulot ishlab chiqarishning yillik tannarxi; **N** – savdo ustamalari summasi (chegirma va ustamalar); **I** – muomala xarajatlari summasi.

2. Kapital qo'yilmalarning qoplash muddati (T_{kp}). Mazkur ko'rsatkich kapital qo'yilmalar hajmining foydaga nisbati bilan aniqlanadi va quyidagi formula[1] ko'rinishiga ega:

$$T_{kp}\ (\text{barcha korxonalar uchun umumiy}) = \frac{K}{P} \qquad (6.5),$$

$$T_{kp}\ (\text{ishlab chiqarishda}) = \frac{K}{Ts - S} \qquad (6.6),$$

[1] Formula (lot. formula – qoida, me'yor) – 1) har qanday qisqa ta'rif; 2) muayyan fikr, mulohaza yoki qonunning matematik belgilar orqali ifodasi.

$$E_{kp}\ (savdoda) = \frac{K}{N - I} \qquad (6.7)$$

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o‘tishi munosabati bilan yuqorida ta’kidlangan uslubiyot ma’naviy jihatdan eskirdi va amaliyotda undan keng foydalanish mumkin emas. Avvalo, buning sababini ko‘rsatishdan oldin, nima uchun ushbu uslubiyot ma’naviy jihatdan eskirganligining mohiyatini oydinlashtirish zarur bo‘ladi. Xususan, kapital qo‘yilmalarning yuqorida ta’kidlangan uslubiyotida vaqt omili hisobga olinmas edi, ya’ni mahsulot ishlab chiqarish hajmi, uning tannarxi, foyda va rentabellik darajalari vaqt omilini hisobga olgan holda hisob-kitob qilinmas edi. Bugungi kunda xo‘jalik yurituvchi subyektlar kapital qo‘yilmalarning samaradorligini baholashda vaqt omilini hisobga olishi va mahsulot ishlab chiqarish hajmi, uning tannarxi, foyda va rentabellik darajalarining vaqt mobaynida o‘zgarishini baholashi lozimdir. Bunday operatsiya diskontlashtirish deb nomlandi [1]. Kapital qurilish ishlarining yuqori sifat darajasiga erishishda qurilish sifati yuzasidan olib boriladigan nazorat muhim o‘rin egallaydi. Qurilish sifati yuzasidan nazorat qurilish-montaj ishlarining, shuningdek, qurilish materiallari va buyumlarining muvofiqligini tekshirishni anglatadi. Qurilish-montaj ishlarining sifati bo‘yicha nazoratni davlat muassasalari, buyurtmachilar va loyihaviy tashkilotlar (loyiha mualliflari) amalga oshiradilar. Bunda ichki va tashqi nazorat farqlanadi.

Qurilish sifati bo‘yicha davlat nazoratini davlat hokimiyati organlari, tegishli qo‘mitalar (Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Davarxitekqurilish qo‘mitasi) amalga oshiradilar. Ushbu muassasalar loiyhaviy hujjatlar bo‘yicha bajarilgan ishlarning muvofiqligini tekshiradi. Qurilish nazoratini amalga oshirish tartibi me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi.

6.9. Kapital qurilishni moliyalashtirishning huquqiy asoslari

Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, tarmoqda bozor iqtisodiyoti tamoyillari va talablariga mos keladigan xo‘jalik munosabatlarini keng joriy etish, pudrat, loyiha

[1] Diskontlashtirish masalalari darslikning 8-bobida batafsil ko‘rib chiqiladi.

ishlari va qurilish materiallarining rivojlangan bozorlarini shakllantirish, qurilishda narx belgilash mexanizmini takomillashtirish, investitsiya loyihalarini amalga oshirishning pirovard natijalari samaradorligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida»gi [1] farmoni qabul qilindi. Unda kapital qurilish sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi, jumladan: loyiha va qurilish ishlari bozorida raqobat muhitini yaratish; kapital qurilishda boshqaruv va xo'jalik munosabatlari tizimiga bozor tamoyillari hamda mexanizmlarini keng joriy etish; loyiha va qurilish ishlarini bajarishga buyurtmalar joylashtirishda tanlov savdolari (tenderlar)ni tashkil etish darajasini oshirish; qurilish materiallari bozorini kengaytirish; qurilish industriyasi korxonalarida zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida»gi 2003-yil 6-maydagi farmonini bajarish yuzasidan hamda kapital qurilishda ijara va lizing xizmatlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 23 oktabrdagi «Kapital qurilishda ijara va lizing xizmatlari tizimini joriy etish to'g'risida»gi 462-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko'ra, Vazirlar Mahkamasining qurilish, qurilish materiallari sanoati, uy-joy-kommunal xo'jaligi va transport kompleksi, O'zbekiston Respublikasi TIFMB, «Asakabank», «Agrobank», «O'zsanoatqurilishbank», «Ipotekabank», «O'zbekiston temiryo'llari» DAK, «O'zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasi, «O'zbekenergo» DAKsining ustav jamg'armasi 1 mlrd so'm bo'lgan ochiq aksiyadorlik jamiyati shaklidagi «Qurilish-lizing» lizing kompaniyasi tashkil etildi. Ushbu kompaniyaga:

– o'z moliyaviy manbalari hisobiga, shuningdek, mamlakatimiz banklari va xorijiy banklar kreditlarini jalb qilish yo'li bilan zamonaviy qurilish texnikasi, kichik mexanizatsiya va maxsus transport vositalari xarid qilish;

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 6-maydagi «Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida»gi farmoni.

– qurilish texnikasini, transport va kichik mexanizatsiya vositalarini mulkchilikning barcha shakllaridagi pudrat qurilish tashkilotlariga, birinchi navbatda, kichik va xususiy biznes subyektlariga shartnoma asosida lizingga va ijaraga berish vazifalari yuklatildi.

Kapital qurilishda narxlarni shakllantirish mexanizmini takomillashtirish, investitsiya jarayoni barcha qatnashchilarining pirovard natijalar, investitsiya loyihalarini amalga oshirish samaradorligi uchun javobgarligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-iyundagi «Markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar hisobiga ro'yobga chiqarilayotgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda shartnomaviy-joriy narxlarga o'tish to'g'risida»gi 261-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko'ra, «Obyektlarni qurish qiymatini shartnomaviy-joriy narxlarda belgilash tartibi to'g'risida»gi hamda «Obyektlar qurilishining ikkinchi va keyingi yillarida shartnomaviy joriy narxlarda qurilish shartnomaviy qiymatini aniqlashtirish tartibi to'g'risida»gi Vaqtinchalik nizomlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2004-yil 19 mayda 1358-son bilan davlat ro'xatiga olingan «Markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalari hisobidan «tayyor holda topshirish» sharti asosida obyektlar qurilishini amalga oshirayotgan pudrat-qurilish tashkilotlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risida»gi nizom kapital qurilishni moliyalashtirishning huquqiy asoslarini belgilab berdi. Mazkur nizom markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalari hisobidan «tayyor holda topshirish» sharti asosida obyektlar qurilishini amalga oshirayotgan pudrat qurilish tashkilotlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash mexanizmini belgilab beradi. Ta'kidlash joizki, «tayyor holda topshirish» sharti asosida obyekt qurilishi usuli loyiha hujjatlarida nazarda tutilgan ishlarning butun hajmini, shu jumladan, maxsus va ishga tushirish-sozlash ishlarini bajarish, obyektni texnologik va muhandislik asbob-uskunalari bilan butlash bo'yicha pudrat qurilish tashkilotining tayyor qurilish mahsuloti yaratishning yagona uzluksiz kompleks jarayoni sifatida amalga oshirilayotgan majburiyatini nazarda tutadi.

Obyektni «tayyor holda topshirish» sharti asosida qurish markazlashtirilgan manbalar hisobidan amalga oshiriladigan yangi

qurilishda, ishlab turgan korxonani kengaytirish, rekonstruksiya qilish va texnika bilan qayta jihozlashda majburiy hisoblanadi.

Umumlashtiradigan bo'lsak, kapital qurilishni moliyalashtirishning huquqiy asoslari bunyod etilgan, takomillashtirib borilmoqda. Bu kapital qurilishni moliyalashtirishning huquqiy asoslarining takomillashuvi, kapital qurilish ishtirokchilarining javobgarliklarini oshirish, tanlov savdolarini tashkil etish, moliyalashtirish manbalaridan unumli foydalanish va kapital qurilishni moliyalashtirish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishda kapital qurilishning o'rni va ahamiyati: birinchidan, asosiy fondlarning ma'naviy va jismoniy eskirishining tiklanishi; ikkinchidan, asosiy fondlar modernizatsiyasini ta'minlashi; uchinchidan, mehnat unumdorligini ta'minlash imkoniyatining yuzaga kelishi, yirik obyektlarning barpo etilishi va ishga tushirilishi orqali aholini ish bilan ta'minlab, ijtimoiy muammolarni hal etishga ko'maklashishi; to'rtinchidan, intensiv ishlab chiqarishni va takror ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, asosiy fondlarning ko'payishiga zamin yaratish va investitsiya loyihalarini ro'yobga chiqarish bilan xususiyatlanadi.

Nazorat savollari

- Kapital qurilish deganda nimani tushunasiz?
- Kapital qo'yilmalarning mazmun-mohiyatini tavsiflab bering?
- «Kapital qo'yilma» va «kapital qurilish» tushunchalari qanday aloqadorlikka ega?
- Kapital qo'yilmalarning tarkibiy tuzilishi nimalardan iborat?
- Iqtisodiyot uchun kapital qurilishning ahamiyatini izohlab bering?
- Kapital qurilishning asosiy bosqichlarini bilasizmi?
- Kapital qurilish tizimida qanday tushunchalar qo'llaniladi?
- Obyektlar qurilishida loyiha oldi hujjatlari va loyiha hujjatlari deganda nimani tushunasiz?
- Dastlabki TIA yoki dastlabki texnik-iqtisodiy hisoblash, yakuniy TIA yoki texnik-iqtisodiy hisoblash mazmuni nima?
- Obyektlar qurilishida ishchi loyiha nimani anglatadi?
- Smeta o'zi nima?

- Kapital qurilish tizimida loyiha deganda nima tushuniladi?
- Kapital qurilishda ish hujjatlari nimalardan iborat?
- Kapital qurilishda loyihalovchi deganda kimlarni tushunasiz?
- Kapital qurilishda yetkazib beruvchi (ishlab chiqaruvchi) kimlar bo'lishi mumkin?
- Kapital qurilish tizimida qurilishlarning aniq ro'yxatini va titul ro'yxatini qanday tushunasiz?
- Kapital qurilishda mablag' bilan ta'minlovchi organ bo'lib qaysi muassasalar ishtirok etadi?
- Kapital qurilish tizimida qurilish maydoni deganda nimani tushunasiz?
- Kapital qurilishda vaqtinchalik inshootlar nima uchun talab etiladi?
- Kapital qurilishda shartnoma narxini bo'lib chiqish, deganda nimani tushunasiz?
- Kapital qurilishda ijro hujjatlari nimalarni ifoda etadi?
- Kapital qurilish loyihasida qanday asosiy masalalar hal etiladi?
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida»gi farmonining mazmun-mohiyatini bilasizmi?
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida»gi farmoni mazmun-mohiyatini izohlab bering?
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kapital qurilishda ijara va lizing xizmatlari tizimini joriy etish to'g'risida»gi qarorining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
- «Qurilish-lizing» lizing kompaniyasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kapital qurilishda xo'jalik munosabatlari mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori mazmun-mohiyatini bilasizmi?
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar hisobiga ro'yobga chiqarilayotgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda shartnomaviy-

joriy narxlarga o‘tish to‘g‘risida»gi qarori asosida qanday Nizomlar qabul qilingan?

➢ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorida qanday vaziflar belgilab olindi?

➢ O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan davlat ro‘xatiga olingan «Markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalari hisobidan «tayyor holda topshirish» sharti asosida obyektlar qurilishini amalga oshirayotgan pudrat qurilish tashkilotlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to‘g‘risida»gi nizomda nimalar ko‘zda tutilgan?

➢ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kapital qurilishda narxlarni shakllantirishning smeta-normativ bazasini takomillashtirish va yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorida qanday chora-tadbirlar belgilab berildi?

➢ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorida qanday chora-tadbirlar belgilab olindi?

➢ Kapital qurilish qanday usullarda olib boriladi?

➢ Qurilish tizimidagi yakka tartibdagi loyihalar va namunaviy loyihalarga izoh bering?

➢ Bugungi kunda amaldagi qonun hujjatlariga ko‘ra dastlabki TIAning namunaviy tarkibini tavsiflab bering?

➢ Qurilish me’yorlari va qoidalari deganda nimani tushunasiz?

➢ Obyektlarni loyihalashtirish jarayoni necha bosqichga bo‘linadi?

➢ Hozirgi iqtisodiy sharoitda qurilish obyektlari smeta qiymatini aniqlash qanday amalga oshiriladi?

➢ Obyektning smeta qiymatini aniqlashda qanday ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi?

➢ Smeta bahosi qanday aniqlanadi?

➢ Kapital qo‘yilmalarning iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

➢ Kapital qurilish ishlarining yuqori sifat darajasiga erishishda qurilish sifati yuzasidan olib boriladigan nazorat to‘g‘risida nimalarni bilasiz?

VII BOB. DAVLAT INVESTITSIYA DASTURI

7.1. O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi: mazmuni, asosiy maqsadi, shakllantirish tartibi, tamoyillari va muddatlari

Iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarning investitsiya faoliyatini jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish uchun to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish va ulardan samarali foydalanish, ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish, yangi ish o'rinlarini yaratish va shu asosda O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror va bir maromda rivojlanishini ta'minlashda Davlat investitsiya dasturining o'rni beqiyosdir. Buning dalili sifatida quyidagi ma'lumotlarni keltirib o'tishni joiz, deb hisoblaymiz: «Investitsiya dasturi doirasida 2010-yilda 200 dan ziyod loyiha amalga oshirildi. Jumladan, yiliga 50 mingta avtomobil ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan «M-300» rusumidagi yengil avtomobil ishlab chiqarishni o'zlashtirish, 200 ming tonna kaliy o'g'itlari ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan «Dehqonobod kaliy o'g'itlari zavodi qurilishi», «Xonjiza konida polimetall rudalarga ishlov berish» kabi yirik loyihalar, «Navoiyazot» kompaniyasining bir qator yangi obyektlarini barpo etish ishlari va boshqa loyihalar nihoyasiga yetkazilganini ta'kidlash joiz»[1]. Xo'sh, shunday ekan, beixtiyor, investitsiya dasturining o'zi nima, dastur qanday shakllantiriladi? degan savollar ko'nglimizdan o'tadi.

Ma'lumki, davlat investitsiya siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri har yili qabul qilinadigan va amalga oshiriladigan Davlat investitsiya dasturi hisoblanadi.

2012-yil 21-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining 2013-yilgi investitsiya dasturi

[1] Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. //«Xalq so'zi», 2011. 22-yanvar, №10. – B. 2.

to‘g‘risida»gi 1855-sonli qarori qabul qilindi[1]. O‘zbekiston Respublikasining 2013-yilgi Investitsiya dasturida kapital qo‘yilmalarning asosiy parametrlari va davlat budjeti mablag‘lari hisobidan 2013-yil uchun markazlashtirilgan kapital qo‘yilmalar limitlari belgilanib olindi. Dasturda ko‘rsatilgan ustuvor tarmoqlarni rivojlantirish mavjud bo‘lgan zaxira, xomashyo quvvatlariga mos keladi va iqtisodiyotni tubdan qayta qurish, transport, kommunikatsiya, irrigatsiya, qayta ishlash va ilmiy ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish asosida jahon bozoriga uyg‘unlashuvini nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturi respublika iqtisodiyotini barqaror va tadrijiy rivojlantirishga erishishga, tabiiy, mineral xomashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish yo‘li bilan respublika ayrim tarmoqlari va mintaqalarini tarkibiy o‘zgartirishning asosiy ustuvorliklarini va strategik vazifalarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan chora-tadbirlar majmuyidir.

O‘zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturi respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbolining tarkibiy qismi hisoblanadi va davlat investitsiya siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini aks ettiradi. Shu bilan birga, Investitsiya dasturi loyiha-qidiruv ishlaridan boshlab, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning umumdavlat dasturlari bajarilishini ta’minlash uchun obyektni foydalanishga topshirishgacha bo‘lgan bosqichlarni hisobga olgan holda, investitsiya loyihalarini amalga oshirishning aniq muddatlari va moliyalashtirish manbalari belgilangan tarzda har yili ishlab chiqiladi hamda dasturning asosiy ko‘rsatkichlari qayta hisob-kitob qilinib, aniq ro‘yxati yangilangan ko‘rinishda 3 yillik davrga shakllantiriladi.

Investitsiya dasturini shakllantirishning asosiy tamoyillari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

– investitsiya jarayonlarini boshqarish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, shu jumladan, zarur hajmlarda, maqbul shartlarda xorijiy investitsiyalarni va kreditlarni jalb etish, shuningdek, loyihalarni tanlab olishning amaliy mexanizmini shakllantirish va

[1] Bu hujjat, nafaqat, Vatanimiz tadbirkorlariga, balki, xorijiy investorlar uchun ham harakat qo‘llanmasi bo‘lib hisoblanadi. Unda iqtisodiy rivojlanishning tarmoqli yo‘nalishlari va mamlakatimiz mintaqalarida milliy iqtisodiyotning barcha ustuvor tarmoqlari bo‘yicha barcha manbalar hisobidan amalga oshiriladigan investitsiyalar hajmi belgilab olinadi.

ularning amalga oshirilishi monitoringini olib borish asosida ulardan samarali foydalanish mexanizmini yaratish;

– belgilangan davlat ustuvorliklari asosida eng muhim tarmoqlarni, ishlab chiqarishlarni va faoliyat sohalarini qo'llab-quvvatlash;

– ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlarni (ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy kommunal xo'jaligi va boshq.) aholi turmush darajasi va sifatini oshirishni, iste'mol talabini faollashtirishni ta'minlovchi hajmlarda, birinchi navbatda, investitsiyalash;

– mineral xomashyo resurslarini va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni, tayyor mahsulotning tashqi bozorda raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash;

– transport infratuzilmasini rivojlantirish va takomillashtirish;

– tarkibiy o'zgartirishlar vazifalari va amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatiga muvofiq mablag' qo'yishning o'zaro manfaatligi asosida xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, tomonlarning investitsiya majburiyatlari asosida shartnomalar tuzish amaliyotini joriy etish;

– investitsiya loyihalarini Investitsiya dasturining aniq ro'yxatiga oldindan begilangan mezonlar asosida kiritish;

– ilgari boshlangan obyektlarni tugallash uchun markazlashtirilgan investitsiyalarni, birinchi navbatda, ajratish.

Loyihalarni tanlab olishda ularning samaradorligi, respublika iqtisodiyotining ayrim tarmoqlarini va mintaqalarini rivojlantirish ustuvorliklari, mahsulot sotish ko'rsatkichlari, shu jumladan, eksportga yo'naltirilganlik, butlovchi buyumlar va komponentlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirishda qatnashishi kabilar asosiy mezonlar hisoblanadi

Investitsiya dasturini shakllantirish tartibini quyidagi:

1) Iqtisodiyot vazirligi uch yillik davrga O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga kiritish uchun takliflarni tayyorlashga oid uslubiy ko'rsatmalarni tarmoq vazirliklari va idorali, Qoraqalpog'iston Respublikasi Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga har yili yetkazadi;

2) Buyurtmachilar loyihalar bo'yicha dastlabki axborotni tayyorlaydi, ularni uch yillik davrda amalga oshirish uchun tanlab oladi va takliflarni Iqtisodiyot vazirligiga taqim etadi;

3) Iqtisodiyot vazirligi takliflarni ko'rib chiqadi va o'rtacha muddatli davrda aniq tarmoqni rivojlantirish ustuvorliklariga muvofiq tarmoqlarni tanlab oladi;

4) Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, «Davarxitektqurilish» qo'mitasi va vakolatli banklar bilan birgalikda Investitsiya dasturiga kiritiladigan loyihalarni uzil-kesil tanlab oladi;

5) Investitsiya dasturining loyihasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi birlashgan hay'at tomonidan ko'rib chiqiladi va uning qaroriga ko'ra ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasining komplekslari bilan kelishish uchun Tashqi iqtisodiy aloqalar va xorijiy investitsiyalar departamentiga taqdim etiladi;

6) Investitsiya dasturining loyihasi ko'rib chiqiladi;

7) Investitsiya dasturining loyihasi tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritiladi;

8) Investitsiya dasturini amalga oshirishning birinchi yiliga kiritiladigan, yangidan boshlanadigan obyektlar bo'yicha tanlov savdolari o'tkaziladi;

9) Tasdiqlangan Investitsiya dasturiga va o'tkazilgan tanlov savdolariga muvofiq belgilangan tartibda shartnomalar tuziladi, qurilishlarning aniq va titul ro'yxatlari, kelgusi yillar loyihalash ishlarining aniq ro'yxatlari tasdiqdanadi.

Ta'kidlash joizki, Investitsiya dasturi yil davomida shakllantiriladi va bu jarayonda Vazirlik hamda qo'mitalar o'zlarining vakolatlari doirasida mas'ul bo'ladilar.

Investitsiya dasturida loyihani baholash qiymati, tugallanmagan qurilish, qurilishni tugallash hamda foydalanishga topshirish uchun moliyalashtirishga ehtiyoj, moliyalashtirishning tasdiqlangan manbalari to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Investitsiya dasturini ishlab chiqishda yirik va o'ta muhim loyihalar alohida, katta bo'lmagan bir turdagi loyihalar yaxlit kiritilishi mumkin (masalan: maktablar, qishloq vrachlik punktlari qurilishi va boshqalar). Investitsiya dasturi yig'ma jadvallar bilan tahliliy qismdan, aniq dasturdan va ustuvor investitsiya takliflarining yig'ma ro'yxatidan iborat bo'ladi.

Investitsiya dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishi bo'yicha barcha ishlarni O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi muvofiqlashtirib boradi. Investitsiya dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarori bilan tasdiqlanadi.

Investitsiya dasturining tahliliy qismi respublika iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'langan holdagi kapital qo'yilmalar hajmlari va moliyalashtirish manbalarini asoslashdan, dastur samaradorligini baholash, loyihalarni tanlab olish mezonlaridan iborat bo'ladi. Dasturning tahliliy qismi tarkibida investitsiyalarning takror ishlab chiqarish va texnologik tarkibini hisobga olgan holda mazkur dastur, iqtisodiyot sektorlari va tarmoqlari, moliyalashtirish manbalari va hududlar, amalga oshirish yo'llari bo'yicha kapital qo'yilmalar tarkibi belgilanadi.

Dasturning YaIM o'sishiga, iqtisodiyotning tarmoq va hududiy o'zgarishiga va import tarkibiga, ishlab chiqarish quvvatlarini va ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish hajmlariga ta'sirining prognozlashtirilgan natijalari hisob-kitob qilinadi. Dasturning barcha hisob-kitoblari tadrijiy tarzda, respublikani uch yillik davrda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish prognozlari va investitsiya loyihalarining aniq dasturi asosida ishlab chiqiladi.

Dasturning aniq ro'yxatiga markazlashtirilgan manbalar, hukumat kafolati ostida beriladigan xorijiy kreditlar va to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobiga amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari kiritiladi.

Dasturning aniq ro'yxati quyidagilardan iborat bo'ladi:

— iqtisodiyotni, ijtimoiy sohani va mamlakat mudofaa qudratini tarkibiy o'zgartirishni ta'minlovchi respublika iqtisodiyoti ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan markazlashtirilgan investitsiyalar limitlaridan;

— xorijiy investitsiyalar va hukumat kafolati ostida kreditlarni jalb etgan holda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining aniq dasturidan;

— to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etgan holda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining aniq dasturidan;

— ustuvor investitsiya takliflarining yig'ma ro'yxatidan iborat bo'ladi.

Ijtimoiy soha obyektlarining prognozlashtirilayotgan hajmlari dasturga yiriklashtirilgan, buyurtmachilar va obyektlar bo'yicha taqsimlanmagan holda kiritiladi.

Quyidagi loyihalarni amalga oshirishning birinchi yilida ularni aniq dasturga kiritishning majburiy shartlari hisoblanadi:

– belgilangan tartibda tasdiqlangan loyihaning (investitsiya loyihasining TIA, texnik-iqtisodiy hisob-kitoblari) mavjud bo'lishi;

– moliyalashtirish manbalarining va kreditlarning shartnomada belgilangan muddatda qaytarilishining tasdiqlanishi.

Aniq dasturni shakllantirish jarayoni har bir loyiha bo'yicha mufassal axborot tayyorlash, loyiha ustuvorligi bo'yicha tanlab olish va ro'yxatni shakllantirishdan iborat bo'ladi. Har bir loyiha (loyihalar guruhi) bo'yicha axborot buyurtmachi tomonidan tayyorlanadi hamda unda quyidagilar bo'ladi: belgilangan shakldagi loyiha pasporti; loyihani amalga oshirish reja-jadvali; aniq dasturni shakllantirish sanasida loyihani amalga oshirishning holati to'g'risidagi to'liq axborot.

Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihaning pasporti texnik tavsifnomani, atrof-muhitga ta'sirini baholashni, ishlab chiqarish va ijtimoiy mulohazalarga ko'ra samaradorlikni va amalga oshirish imkoniyatlarini baholashni, tashkiliy tadbirlarning ko'lamini, mahsulotga talab hajmi va xususiyatini, yechimning muqobil variantlari mavjudligini, shu jumladan, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni ta'mirlash yo'li bilan asosiy materiallar va ishchi kuchi resurslarining mavjudligini, investitsiya xarajatlari miqdorlarini o'z ichiga oladi. Aniq loyiha uni amalga oshirish maqsadga muvofiqligidan, uning iqtisodiy va moliyaviy samaradorligidan, ishlab chiqarish va ijtimoiy mulohazalarga ko'ra amalga oshirish imkoniyatlari va maqbulligidan, tarmoqni rivojlantirishning strategik vazifalariga muvofiqligidan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich tanlab olinadi, ya'ni:

– birinchi bosqichda loyiha aniq tarmoq va mintaqani rivojlantirish ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda oldindan baholanadi;

– ikkinchi bosqichda loyiha iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari va mintaqalarni rivojlantirish ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda tanlab olinadi.

Aniq dasturga iqtisodiy jihatdan samarasiz loyihalarni, shuningdek, ilgari jalb qilingan kreditlar bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzi bo'lgan korxonalar loyihalarini kiritish taqiqlanadi.

Quyidagilar birinchi bosqichda loyihaning ustuvorligini belgilashning mezonlari hisoblanadi: loyihaning tarmoqni rivojlantirish strategiyasiga muvofiqligi; moliyaviy va iqtisodiy samaradorlik; mahalliy xomashyodan va butlovchi buyumlardan foydalanish darajasi; tayyorlangan mutaxassislarning mavjudligi; loyihaning amalga oshirishga tayyorlanganlik darajasi; ishga tushirilgandan keyin foydalanish xarajatlari. Har bir mezonning muhimligi darajasi tarmoqni rivojlantirish strategiyasini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi tomonidan belgilanadi.

Ikkinchi bosqichda uch yillik davrda respublika iqtisodiyotidagi tarkibiy o'gartirishlar prognoziga muvofiq qo'shimcha ravishda quyidagi mezonlar hisobga olinadi: tarmoq (mintaqa)ning istiqboldagi prognoz o'sish sur'atlari; eksport salohiyatining prognoz o'sish sur'atlari; tarmoqning, umuman, respublika bo'yicha makroiqtisodiyot ko'rsatkichlariga ta'sirining o'zgarishi; tarkibiy omillar; ilgari qo'yilgan investitsiyalar samaradorligi; asosiy fondlar ahvoli va quvvatlardan foydalanish darajasi; loyihaning ijtimoiy ahamiyati. Ikkinchi bosqichda tanlab olish natijalariga ko'ra Dasturga kiritilgan obyektlarning aniq dasturi shakllantiriladi.

Investitsiya dasturini va investitsiya loyihalarini amalga oshirishning birinchi yili ko'rsatkichlari mavjud moliyaviy resurslar va boshqa resurslar bilan o'zaro bog'langan bo'lishi kerak hamda birinchi moliyaviy yilda o'zgartirilmaydi.

Investitsiya dasturini va investitsiya loyihalarini amalga oshirishning ikkkinchi va keyingi yillari ko'rsatkichlari har yili aniqlashtirilishi kerak, bunda boshlanmagan loyihalarning bir qismi yangi loyihalarga almashtirilishi mumkin.

Investitsiya dasturining yig'ma ro'yxatiga vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar korxonalar va tashkilotlarining ustuvor investitsiya takliflari kiritiladi. Buyurtmachilar tasdiqlangan investitsiya dasturi asosida vakolatli banklarda moliyalashtirishni rasmiylatirish uchun

har yili qurilishlarning aniq ro'yxatini va Dasturni amalga oshirishning ikkinchi va uchinchi yillariga kiritilgan obyektlar bo'yicha loyiha-qidiruv ishlarining aniq ro'yxatini aniqlashtiradilar.

Markazlashtirilgan manbalar va davlat korxonalari mablag'lari hisobiga amalga oshiriladigan qurilishlarning aniq ro'yxatlari Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishgan holda investorlar (buyurtmachilar) tomonidan tasdiqlanadi. Boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladigan qurilishlarning aniq ro'yxatlari investorlar (buyurtmachilar) tomonidan mustaqil ravishda tasdiqlanadi.

Kredit resurslarini jalb etgan holda amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining aniq ro'yxatlari tegishli kredit shartnomasi yoki kreditlovchi bankning yozma roziligi mavjud bo'lganda tasdiqlanadi.

Qurilishlarning aniq ro'yxati birinchi yil mobaynida tanlov savdolari yoki yirik va strategik muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirishni muvofiqlashtirish kengashining alohida qarorlari bo'yicha aniqlashtirilishi mumkin. Istisno hollarda, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tanlov savdolari natijalariga ko'ra, «boshqa xarajatlar» limiti hisobiga asbob-uskunalar xarid qilish limiti aniqlashtirilishiga yo'l qo'yiladi. Qurilishning titul ro'yxati tasdiqlangan limitlar doirasida qurilishning butun davriga tuziladi va dastur tasdiqlangandan keyin ikki oydan kechiktirilmasdan tanlov savdolari natijalariga ko'ra shakllantiriladi. Dasturdagi qurilishning titul ro'yxati investor tomonidan pudratchi bilan kelishgan holda tasdiqlanadi. Qurilishning tasdiqlangan ro'yxatida kapital qo'yilmalar limitlari investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun nazarda tutiladi, bunda qurilish-montaj ishlari, asbob-uskunalar xarid qilish, loyiha-qidiruv ishlari xarajatlari va boshqa xarajatlar (pudratchi va buyurtmachilar xarajatlari alohida ko'rsatiladi) qurilish yillari bo'yicha taqsimlangan holda ajratib ko'rsatiladi.

Tanlov savdolari natijalariga ko'ra belgilangan qurilish qiymati birinchi moliyaviy yilda xarajatlar qiymati ortishi prognozini hisobga olishi kerak. Birinchi moliyaviy yilda qurilishning titul ro'yxatida loyiha-qidiruv, qurilish-montaj ishlari ko'rsatkichlari aniqlashtirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Investitsiya dasturiga kiritish uchun takliflar tayyorlashda buyurtmachilar quyidagi tartibga amal qilishlari kerak:

– dasturni amalga oshirishning birinchi yiliga kelgusi yillar loyiha-qidiruv ishlarining aniq ro'yxati va moliyalashtirish bilan ta'minlangan (kelgusi yilga o'tuvchi va yangidan boshlanayotgan) qurilishlarning aniq ro'yxati tuziladi;

– dasturni amalga oshirishning ikkinchi yiliga unga kelgusi yillar loyiha-qidiruv ishlarining aniq ro'yxati va birinchi yildan o'tuvchi qurilishlarning prognoz ro'yxati va dasturni amalga oshirishning birinchi yilida loyiha hujjatlari tayyorlangan va tasdiqlangan, birinchi yilida tanlov savdolariga tayyorlanadigan yangidan boshlanadigan obyektlar kiritiladi;

– dasturni amalga oshirishning uchinchi yiliga unga kelgusi yillar loyiha-qidiruv ishlarining aniq ro'yxati va tanlov savdolari natijalariga ko'ra belgilangan, amalga oshirish muddatlarini hisobga olgan holda qiymati belgilangan tartibda aniqlashtirilgan birinchi va ikkinchi yildan o'tuvchi qurilishlarning prognoz ro'yxati, loyiha xujjatlari ikkinchi yildan tayyorlanadigan va tasdiqlanadigan, yangidan boshlanadigan obyektlar kiritiladi.

Xulosa qilib aytganda, Davlat investitsiya dasturi iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish orqali barcha resurslardan samarali foydalanish yo'li bilan respublikaning ustuvor tarmoqlari va ayrim mintaqalarini rivojlantirishga hamda strategik vazifalarini yechishga yo'naltirilgan tadbirlar majmuyi bo'lib, uni shakllantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, investitsiya loyihalarini tanlab olish, eng muhim ishlab chiqarishlarni faol qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlarni investitsiyalash, infratuzilmani rivojlantirish kabilar muhim ahamiyat kasb etadi.

7.2. Kapital qo'yilmalarni rejalashtirish. Muhim investitsiya takliflarining yig'ma ro'yxati. Investitsiya loyihalarining adres dasturlari, adres ro'yxatlari: ularni ko'rib chiqish va tasdiqlash tartibi

Davlat investitsiya dasturini tayyorlash ko'p bosqichli murakkab jarayonni tavsiflaydi va uni ishlab chiqishda, yuqorida ta'kidlaganimizdek, barcha vazirlik va tegishli idoralar qatnashadilar. Davlat investitsiya dasturi milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsi-

yalarni jalb qilishda, dasturga kiritilgan korxonalar faoliyati samaradorligini ta'minlash uchun qulay investitsiya muhitini barpo etishda muhim o'rin tutadi.

O'zbekistonda Investitsiya dasturining ustuvorliklarini belgilashda va mamlakatimizga xorij kapitalini jalb etishda davlatning ustuvorligi saqlanib kelinmoqda. Birinchi bosqichda (1992–1993-y.y.) islohotlar siyosatida keng investitsiyalar dasturi va davlat korxonalariga markazlashtirilgan kreditlar ajratish nazarda tutildi, bu kattagina budjet defitsitiga olib keldi. Ikkinchi bosqichda (1994–1996-y.y.) islohotlar siyosati budjet boshqaruvini kengaytirishga qaratilgan qattiq moliya siyosati bilan ajralib turdi. Islohotlarning uchinchi bosqichida (1997–1999-y.y.) savdo va valuta cheklashlarining kuchayishi, ochiq valuta kursining joriy qilinishi, moliya sektorini isloh qilish, soliq tizimini mustahkamlash, importni qat'iy cheklashlarning joriy qilinishi bilan tavsiflandi. Islohotlarning hozirgi bosqichida savdo, valuta cheklashlarini erkinlashtirish va soliq islohotlarini o'tkazish (asosan, soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini oshirish) qishloq xo'jaligi va moliya sektorini isloh qilish, yirik korxonalarni xususiylashtirish sur'atlarini jadallashtirish, iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish va yashashga qobil davlat korxonalarini qayta tashkil qilish hamda zarar ko'rib ishlaydiganlarni tugatish va boshqalarni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturida nazarda tutilgan kapital qurilishni mablag' bilan ta'minlash va uni kreditlash ishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kapital qurilishda xo'jalik munosabatlari mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida ko'rsatilgan tartibga asosan amalga oshiriladi. Unga muvofiq, investitsiya loyihasini markazlashtirilgan manbalar hisobiga mablag' bilan ta'minlash har qaysi obyekt bo'yicha ajratilgan kapital qo'yilmalar limitlari doirasiga qat'iy amal qilgan holda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishilgan qurilishlarning aniq mo'ljalli ro'yxati va qurilishlarning belgilangan tartibda tasdiqlangan titul ro'yxati asosida amalga oshiriladi.

Ustuvor yo'nalishlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

– birinchisi, ommaviy turarjoy qurilishi;

– ikkinchisi, zamonaviy kommunikatsiya vositalari, transport va aloqa vositalarini ishlab chiqarish, transport va axborot tarmoqlarini yaratish va modernizatsiya qilish;

– uchinchisi, yuqori texnologiyalar. Yuqori texnologik va jahon bozorlarida raqobatbardosh, import tovarlarining o'rnini bosa oladigan tovarlarni ishlab chiqarishni tashkil etish;

– to'rtinchisi, zaxiralarni tejovchi ekologik toza texnologiyalar. Mineral boyliklarni yerostidan qazib olish va tabiiy xomashyoni to'liq va kompleks qayta ishlash uchun eng yangi fan-texnika yutuqlaridan foydalanish;

– beshinchisi, fermerlik va dexqon xo'jaliklari tarmog'i, ishlab chiqarish, qayta ishlash, qadoqlash, transportirovka qilish, sotish va shifobaxsh qo'shilmalari bo'lgan ekologik va oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha andozalarga amal qilgan holda nazorat qilish texnologiyasini o'zlashtirib olgan qayta ishlovchi va savdo korxonalarning ko'magi asosida ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish.

2013-yilgi Investitsiya dasturida davlat budjeti mablag'lari hisobidan 2013-yilgi markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar limitlari, budjetdan tashqari Respublika yo'l jamg'armasi mablag'lari hisobidan markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar limitlari, budjetdan tashqari Respublika maktab ta'limi jamg'armasi mablag'lari hisobidan markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar limitlari hamda xalqaro moliya institutlari kreditlari hisobidan quriladigan umumta'lim maktablarining aniq manzilli ro'yxati, O'zbekiston Respublikasi Taraqqiyot va tiklanish jamg'armasi mablag'larini jalb etgan holda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining aniq manzilli dasturi, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash fondining mablag'lari hisobidan markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar limitlari hamda O'zbekiston Respublikasi hukumatining kafolati bilan xorijiy kreditlarni jalb etgan holda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining aniq manzilli dasturi tasdiqlandi.

Davlat investitsiya dasturlari O'zbekistonning o'rta va uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga asoslanadi. Davlat tomonidan tartibga solishning asosiy tamoyili qurilayotgan obyektlarga budjetdan moliyalashtirish orqali va imtiyozli tarzda tijorat banklari kreditlari orqali yordam ko'rsatishdan iborat. Investitsiya

takliflarini Davlat investitsiya dasturiga kiritishda va loyihalarning tanlovini tashkil etishda, odatda, har bir sektor doirasida davlat ustuvorliklariga, ulardan har birining texnik jihatlariga va moliyaviy qaytimiga birinchi o'rinda e'tibor beriladi.

Investitsiya dasturida nazarda tutilgan kapital qo'yilmalar doirasida investitsiya loyihalarini mablag' bilan ta'minlash buyurtmachilar tomonidan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi bilan belgilangan tartibda kelishilgan qurilishlarning aniq ro'yxatiga muvofiq amalga oshiriladi.

Davlat budjeti mablag'lari hisobiga mablag' bilan ta'minlash va kreditlash ishlari Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi tomonidan budjet mablag'larini ajratish buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan ish hajmlarini bajarish, asbob-uskunalar, butlovchi materiallar, buyumlar va konstruksiyalar yetkazib berish hamda mablag' bilan ta'minlash jadvaliga muvofiq Iqtisodiyot vazirligi bilan kelishilgan qurilishlarning aniq ro'yxatiga binoan amalga oshiriladi.

Kapital qo'yilmalarni budjet ajratmalari hisobidan qaytarish asosida ajratishda qarz mablag'lari, ularni qaytarish mexanizmi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, mablag' bilan ta'minlovchi bank muassasasi va buyurtmachi o'rtasida tuzilgan shartnoma bilan tartibga solib boriladi.

Budjet mablag'lariga bo'lgan ehtiyojni aniqlashda quyidagi xarajatlar hisobga olinadi: o'tgan yilda bajarilgan ishlar hajmi uchun kreditorlik qarzlarni to'lash; qurilishlarning aniq ro'yxatlariga kiritilgan obyektlarda bajariladigan ishlar bo'yicha joriy yilning hisobot oyidagi kreditorlik qarzlarni to'lash va boshq.

Davlat budjeti hisobidan mablag' bilan ta'minlashni rasmiylashtirish uchun buyurtmachilar mablag' bilan ta'minlovchi banklarga: loyihaning belgilangan tartibda tasdiqlangan TIA (loyiha-smeta hujjatlarini); Iqtisodiyot vazirligi bilan kelishilgan yangidan boshlanayotgan qurilishlarning yillar bo'yicha bo'lingan aniq ro'yxatlarini, keyingi yillarga o'tuvchi qurilishlarning aniqlashtirilgan aniq ro'yxatlarini; qurilishning barcha davri uchun bajarilgan ishlar uchun hisob-kitob shakllari ko'rsatilgan pudrat shartnomalarini; qurilishning yig'ma smeta hisob-kitoblarini; loyiha hujjatlari bo'yicha «Davarxitektqurilish» qo'mitasining

davlat idorasidan tashqari ekspertizasi va davlat ekologiya ekspertizasining xulosalarini taqdim etadilar.

Loyihalarni aniqlash va tayyorlashni tarmoq vazirliklari va hokimliklar bajaradilar. Loyiha takliflarini baholash va tanlashni ustuvorliklariga muvofiq toifalashtirish asosida Iqtisodiyot vazirligi ekspertlari amalga oshiradilar. Bular xarajatlar va foyda, moliyaviy va iqtisodiy yashovchanlik, bajarish bo'yicha malakaning mavjudligi kabi omillar hamda tanlashning boshqa mezonlari bo'yicha aniqlanadi. Loyiha takliflari baholanganidan keyin tarmoq limitlari, maqsadlari va boshqalar asosida toifalashtirish o'tkaziladi. Faqat ma'qullangan loyihalargina yillik budjetga kiritiladi.

O'zbekistonning 2009–2013-yilgi Investitsiya dasturi doirasida kapital qo'yilmalarning asosiy parametrlari tarkibida korxona mablag'lari hamda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar asosiy salmoqni egallaganligini quyidagi ma'lumotlaridan ko'rish mumkin (7.1-jadval).

7.1-jadval

O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturi doirasida kapital qo'yilmalarning asosiy parametrlari, mln so'mda[1]

Moliyalashtirish manbalari	2009-yil	2010-yil	2011-yil	2012-yil	2013-yil
Kapital qo'yilmalar, jami	**10458864**	**18220293**	**20721845**	**23679701**	**27123275**
Shu jumladan:					
1. Markazlashtirilgan investitsiyalar:	**2464960**	**3819784**	**4696491**	**5740892**	**6691366**
1.1. Budjet mablag'lari	902710	825000	950000	1059254,4	1300000
Shu jumladan:					
- yerlarning meliorativ holatini yaxshilash fondi	82710	92976	105000	115560	131000
1.2. Budjetdan tashqari jamg'armalar	572021	654930	911834	1431777	1876750
Shu jumladan:					
- respublika Yo'l jamg'armasi	241197	540192	609800	680796	921572
- bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi	38800	88272	139930	158147	218243
- maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasi (2012-yildan ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi)	292024	26466	162104	545836	623500
- oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish fondi (2012-yildan)	-	-	-	469976	113435

[1] Tegishli yillarda qabul qilingan Investitsiya dasturi ma'lumotlari asosida tuzildi.

1.3. Tiklanish va taraqqiyot fondi (so'mga ekvivalent hisobida)	305657	1372166	1353527	1432400	1632833
1.4. Hukumat kafolati ostida jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlar (so'mga ekvivalent hisobida)	684572	874711	1376130	1701901	1750783
Shu jumladan, qishloq joylarda uy-joy qurilishi uchun	-	-	171750	301564	250560
2. Markazlashtirilmagan investitsiyalar:	**7993904**	**14400509**	**16025354**	**17938809**	**20431910**
2.1. Korxona mablag'lari	4643000	7777700	7536261	6835725	8150655
2.2. Tijorat banklarining kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	560000	1 530000	2069185	3524824	3236108
Shu jumladan, AT «Qishloq-qurilish» bankning qishloq joylarda uy-joy qurilishi uchun mo'ljallangan imtiyozli kreditlari	-	256 300	196289	222070	426300
2.3. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar (so'mga ekvivalent hisobida)	1 963723	3 876 809	3835109	4340656	4563159
2.4. Aholi mablag'lari	827181	1 216 000	2584800	3237604	4481988

Xullas, xorijiy investitsiyalarni samarali o'zlashtirish orqali rivojlangan bozor iqtisodiyotini barpo etish bilan bog'liq ko'pgina vazifalarni hal etishga muvaffaq bo'lamiz. Uning amalga oshirilishi birgina qo'shimcha faoliyat va ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilishini ta'minlab qolmasdan, balki jamiyat hayotining haqiqiy darajasini ko'rsatib beruvchi aholi turmush farovonligining oshishiga va davlat boyligining ko'payishiga hamda uning iqtisodiy qudratini oshirishga xizmat qiladi.

Davlat investitsiyalari bilan bog'liq loyihalarni baholash va tanlash jarayonida har bir loyiha o'ziga xos sifat tomonlari bo'yicha tahlil qilinadi, quyidagi mezonlar asosida reyting baholash o'tkaziladi va ballar qo'yiladi: loyihaning milliy vazifalar va maqsadlarga muvofiqligi; manfaatdor shaxslarda loyihani bajarish uchun malaka va bilimlarning borligi; loyihadan ko'riladigan naflar; loyihaning moliyaviy va iqtisodiy yashovchanligi; loyihaning o'rtacha yillik ekspluatatsiyasi xarajatlari; loyihaning atrof-muhitga va aholini ish bilan bandligini ta'minlashga ta'siri.

Har bir loyiha bo'yicha Davlat investitsiyalar dasturida, qoida tarzida: davlat tomonidan moliyalashtirish (hukumatning moliyalashtirish va moddiy aktivlar ajratish bo'yicha majburiyatlari bilan birga) summasi; o'z mablag'lari (mahalliy sherikning va xorijlik sherikning mablag'lari alohida-alohida) summasi ko'rsatiladi.

Markazlashtirilgan manbalar hisobiga obyektni foydalanishga tayyor holda qurishni kreditlashda quyidagilar tijorat bankining kredit resurslari manbalari hisoblanadi: tasdiqlangan Investitsiya dasturi bo'yicha kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish limiti doirasida markazlashtirilgan manbalardan mablag'larning (avans to'langandan va 50 foiz miqdorida joriy moliyalashtirilgandan keyin) pudrat qurilish tashkilotining asosiy depozit hisob raqamiga xizmat ko'rsatuvchi bosh bankka vaqtinchalik asosida oyma-oy beriladigan qolgan qismi; xizmat ko'rsatuvchi bankning o'z mablag'lari va jalb qilinadigan mablag'lari.

Mablag' bilan ta'minlovchi organga buyurtmachi tomonidan quyidagilar taqdim etiladi: qurilishlarning aniq mo'ljalli ro'yxati (loyiha-qidiruv ishlarining aniq mo'ljalli ro'yxati); qurilishning titul ro'yxati; buyurtmachi bilan pudratchi o'rtasida tuzilgan shartnoma nusxasi; qurilish riskini sug'urtalash yuzasidan pudrat tashkiloti tomonidan tuzilgan shartnoma nusxasi va tanlov savdolari natijalari to'g'risida buyurtmachining hisoboti; har qaysi investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun ochilgan moliyalashtirishning har bir hisob raqami bo'yicha bank (hududiy g'aznachilik hisob raqamlaridan foydalangan holda davlat budjeti g'azna ijrosi bilan qamrab olingan mintaqalardan tashqari) rekvizitlari to'g'risidagi ma'lumotlar; davlat ekologiya ekspertizasi xulosasining nusxasi.

Mablag' bilan ta'minlovchi organ buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar asosida ushbu Nizomda nazarda tutilgan tartibda investitsiya loyihasini mablag' bilan ta'minlashni amalga oshiradi. Xizmat ko'rsatuvchi bank bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun buyurtmachiga har qaysi qurilish obyekti bo'yicha «talab qilib olinadigan» alohida ikkilamchi depozit hisob raqamlari ochiladi. Moliyalashtirish hisob raqamlaridan buyurtmachi ta'minoti bo'yicha xarajatlarga mablag' to'lanishiga yo'l qo'yilmaydi. Buyurtmachi ta'minotiga xarajatlar har oyda, alohida depozit hisob raqamidan belgilangan tartibda tasdiqlangan va moliyalashtiruvchi organlar tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Pudrat tashkilotlarining tanlov savdolarida ishtirokini ta'minlash uchun tijorat banklari tomonidan, agar ularning o'z aylanma mablag'lari obyekt bo'yicha ishlar qiymatining 20 foizidan kamni

tashkil etgan taqdirda, qurilish davomida aylanma mablag'larning etishmayotgan qismini belgilangan miqdorgacha to'ldirish uchun kredit ajratish to'g'risida kafillik berilishi mumkin.

Tanlov savdolari pudrat tashkiloti tomonidan yutib chiqilgan taqdirda unga kafolat bergan tijorat banklari ushbu tashkilotlarga qurilishning butun davrida ularni aylanma mablag'lar bilan ta'minlash maqsadida obyektni ishga tushirish bo'yicha shartnoma majburiyatlarini bajarish uchun obyekt qiymatining 20 foizigacha bo'lgan miqdorida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kredit beradi[1].

Pudrat tashkilotiga kredit berish uchun bank tomonidan buyurtmachini moliyalashtirish hisob raqamiga xizmat ko'rsatuvchi bankning ma'lumotnomasi asosida qurilishning har bir obyektiga alohida ssuda hisob raqami ochiladi.

Kredit va foiz stavkalari miqdorlari, kreditni qaytarish va u bo'yicha foizlar to'lash muddatlari va tartibi bank bilan pudrat tashkiloti o'rtasida tuzilgan kredit shartnomasida belgilanadi. Xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan moliyalashtirish hisob raqamidan pul mablag'larini o'tkazish buyurtmachi tomonidan to'lov topshirig'i taqdim etilgandan keyingi kun boshlanishidan kechikmay amalga oshiriladi. Xizmat ko'rsatuvchi bank qonun hujjatlariga muvofiq mablag'lar o'z vaqtida o'tkazilishi uchun javob beradi.

Investitsiya loyihasini amalga oshirish qatnashchilari o'rtasidagi hisob-kitoblar ular o'rtasida tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi. Hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun har oyda, hisobot davridan keyingi oyning beshinchi kunidan kechikmay, buyurtmachilar tomonidan moliya organiga mazkur Nizomga muvofiq tasdiqlovchi hujjatlar bilan birga belgilangan shakl bo'yicha markazlashtirilgan kapital qo'yilmalardan foydalanilishi to'g'risida hisobotlar taqdim etiladi.

Ta'kidlash joizki, investitsiyalar xususidagi qarorlar Davlat investitsiya dasturlari menejmentini tashkil qilish, ularni moliyalashtirish manbalari va investitsiya loyihalarini amalga oshirish

[1] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 12-sentyabrdagi 395-sonli qaroriga 2-ilova «Markazlashtirilgan manbalar hisobiga qurilishni tashkil etish, moliyalashtirish va kreditlash tartibi to'g'risida»gi nizom. Mazkur Nizomga quyidagilarga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.05.2004-yildagi 226-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.12.2007-yildagi PQ-744-sonli qarori.

moddiy resurslari bilan bog'liqlikda olib borilishi kerak. Davlat investitsiyalar dasturlari menejmenti resurslarni jalb qilish holatidan kelib chiqqan holda xalqaro darajada amalga oshirilishi lozim. Davlat darajasida investitsiya dasturlarining moliyaviy ta'minlash manbalari dasturi va ularni ta'minlaydigan moddiy resurslar dasturi tuzilishi talab etiladi.

Ta'kidlab o'tilgan nuqtayi nazardan O'zbekiston Respublikasi TIFMBning investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha xalqaro moliya institutlari bilan olib borgan amaliy ish tajribalari diqqatga sazovordir. Bank xalqaro moliya institutlari bilan aniq investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha hamkorlik qiladi. Mazkur bank investitsiyalarning asosiy oqimi vazifasini bajarib, ularning taqsimoti hamda ularga xizmat ko'rsatishda qatnashadi. Bank uchun loyihaviy moliyalashtirish kabi faoliyat turi ustuvor hisoblanadi. Investitsiya loyihalarini baholash va tanlab olishda iqtisodiyotning ustuvor sohalarida eksport potensialini o'stirishga va import o'rnini bosishga yordam beradigan, o'zini oqlaydigan, ekologik toza loyihalar ma'qul ko'riladi. Bu bank tizimida xorij kreditlarini jalb qilish va foydalanish hamda investitsiya loyihalarini saralash bo'yicha samarali tizim yaratilgan.

Davlat investitsiya dasturiga faqat TIAlar o'tkazilgan, smetalari tasdiqlangan, muqobil qarorlar asosida, moliyalashtirish manbalari bilan yuz foiz ta'minlangan, shu jumladan, tashqi moliyalashtirish manbalari bilan aniq ta'minlanishi belgilangan loyihalarni kiritish lozim.

Loyihani tanlash to'g'risidagi qaror har bir moliyalashtirish manbayi qiymatini alohida baholash va jami investitsiya kapitali tuzilmasi qiymatining narxini aniqlash asosida qabul qilinishi talab etiladi.

7.3. Investitsiya dasturlari asosida kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish

Investitsiya dasturini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va moliyalashtirish markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan moliyaviy mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi:

– *markazlashtirilgan investitsiyalar* (davlat budjeti mablag'lari; davlat budjetidan tashqari jamg'armalar mablag'lari; hukumat

kafolati ostida beriladigan xorijiy kreditlar; hukumat qarorlariga ko'ra belgilanadigan boshqa manbalar);

– *markazlashtirilmagan investitsiyalar* (mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar mablag'lari; tijorat banklarining, shu jumladan, xorijiy tijorat banklarining kreditlari; jismoniy shaxslar, shu jumladan, xorijiy jismoniy shaxslar mablag'lari; qonun hujjatlarga zid bo'lmagan boshqa manbalar).

Markazlashtirilgan investitsiyalar respublika xalq xo'jaligini tarkibiy qayta qurishni, respublikaning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish salohiyatini saqlab qolish va rivojlantirishni amalga oshirish, moliyalashtirishning boshqa manbalari hisobiga mumkin bo'lmagan ijtimoiy va boshqa muammolarni hal etishni ta'minlovchi respublika iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlarida asosiy fondlarni yaratish va ko'paytirish uchun foydalaniladi.

Markazlashtirilgan investitsiyalar faqat respublika iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlariga davlat maqsadli dasturlarini va davlatlararo bitimlarni amalga oshirishga, aholining ehtiyojmand qatlamlarini davlat tomonidan ijtimoiy muhofaza qilishni ta'minlash uchun uy-joy qurilishiga, suv xo'jaligi qurilishiga, aholi yashaydigan joylarning muhandislik infratuzilmasini rivojlantirishga, davlat boshqaruvi organlari, mudofaa va huquqni muhofaza qilish organlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va mustahkamlashga, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, sport, madaniyat va ijtimoiy infratuzilmaning boshqa tarmoqlari obyektlari qurilishiga, umumdavlat tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishga va tabiiy ofatlardan himoya qilish inshootlari qurilishiga ajratiladi.

Mablag' bilan ta'minlashni ochish uchun buyurtmachi tomonidan xizmat ko'rsatuvchi bankka (hududiy g'aznachilik hisob raqamlaridan foydalangan holda davlat budjeti g'azna ijrosi bilan qamrab olingan mintaqalardan tashqari) quyidagilar taqdim etiladi [1]: qurilishlarning aniq mo'ljalli ro'yxati (loyiha-qidiruv ishlarining aniq ro'yxati); qurilishning titul ro'yxati; buyurtmachi bilan pudratchi o'rtasida tuzilgan shartnoma nusxasi; pudrat tashkilotining qurilish riskini sug'urtalash yuzasidan shartnoma nusxasi; qurilish-montaj ishlarini bajarishga «Davarxitektqurilish»

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.12.2007 y. PQ-744-son Qarori tahriridagi xat boshi.

qo‘mitasining ruxsati; davlat ekologiya ekspertizasi xulosasining nusxasi.

Investitsiya loyihasini markazlashtirilgan manbalar hisobiga mablag‘ bilan ta’minlash har qaysi obyekt bo‘yicha ajratilgan kapital qo‘yilmalar limitlari doirasiga qat’iy amal qilgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishilgan qurilishlarning aniq mo‘ljalli ro‘yxati, kapital qo‘yilmalarning limitiga muvofiq obyektlar qurilishining aniq ro‘yxatida va qurilishning belgilangan tartibda tasdiqlangan titul ro‘yxati asosida amalga oshiriladi.

Belgilangan tartibda tasdiqlangan qurilishlarning aniq mo‘ljalli ro‘yxati kapital qo‘yilmalarning tasdiqlangan limitiga muvofiq obyektlar qurilishining aniq ro‘yxati nazarda tutilgan qurilish uchun banklarning kreditlarini jalb etishda pudratchi uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ajratilgan mablag‘lardan buyurtmachi tomonidan qurilishlarning tutil ro‘yxatida nazarda tutilmagan maqsadlarda foydalanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Tasdiqlanadigan limitlar doirasida alohida obyektlarni mablag‘ bilan ta’minlash yirik va strategik jihatdan muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan tasdiqlangan alohida sxemalar bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin.

Statistik ma’lumotlarga murojaat qiladigan bo‘lsak, 2002-yilda markazlashtirilgan investitsiyalar hajmi umumiy investitsiyalarning 43,6 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2010-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 18,5 foizni, 2011-yilda 22,6 foizni tashkil etdi. Budjet mablag‘lari hisobiga amalga oshirilayotgan investitsiyalar ulushi 2010-yilda 7,8 foiz, 2011-yilda 4,6 foizgacha kamaydi. Davlat kafolati ostida jalb qilingan investitsiyalar hajmini 2002-yildagi 19,5 foizdan 2010-yilda 3,7 foiz, 2011-yilda 6,6 foizgacha tushurishga erishildi. 2006–2011-yillarda Davlat budjeti mablag‘larining investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarining umumiy hajmidagi salmog‘i pasayish tendensiyasiga ega bo‘ldi. Bu davlatning iqtisodiyotga aralashuvining kamayib borayotganligi hamda katta miqdorda xorijiy investitsiyalarning jalb qilinayotganligi va korxonalarning o‘z mablag‘lari miqdorining oshib borayotganligi bilan izohlanadi.

Ma'lumki, iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishi bilan mulkchilikning turli ko'rinishdagi tashkiliy-huquqiy shakllari paydo bo'lib, investitsiya faoliyatini moliyalashtirishdagi davlat manbalari o'rnini nodavlat investitsiyalash manbalari egallab bormoqda. Bu davlat mulkining iqtisodiyotdagi salmog'i kamayib, mamlakat YaIM qiymatida nodavlat sektori daromadlarining ortishiga, kapital mablag'larning markazlashtirilgan taqsimotidan investitsiya qilishning bozor shakliga o'tishga olib keldi. Biroq, investitsiya kapitali tuzilmasi va investitsiya faoliyati subyektlari shaklining bozor iqtisodiyoti talablariga mos ravishda o'zgarishi investitsiya jarayonlarining faolashuvi degani emas. Qolaversa, davlatning investitsiya munosabatlarini amalga oshirishdagi ishtirokining qisqaruvi bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan bog'liq investitsiyaviy rejimning almashinuvi bilangina emas, balki iqtisodiy-moliyaviy yetishmovchilik, davlat daromadlarining keskin kamayishi oqibatida ham yuz beradi.

Shu tariqa, ustuvor tarmoqlarni markazlashtirilgan investitsiyalar hisobidan moliyalashtirishning imkoniyatlari chegaralanib, qisqarib borishi u bilan bog'liq muammolarni xususiy sektor orqali hal etishga bo'lgan talabni oshiradi. Biroq, hozircha xususiy sektordagi investitsiya faoliyati subyektlari miqdori va moliyaviy resurslari qanchalik ortmasin, ularning imkoniyatlari investitsiya faoliyatidagi mavjud muammolarni hal etish uchun yetarli emas. Shunga ko'ra, investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari tarkibida markazlashtirilgan investitsiyalar o'rnini tobora turli-tuman xususiy manbalar egallashi va natijada mazkur faoliyatning keng ko'lamda nomarkazlashuvi hamda uning qamrovi va samarasining ortishiga erishish lozim.

Quyidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha investitsiya loyihalariga markazlashtirilgan investitsiyalar ajratilishi mumkin:

– ishlab chiqarish yo'nalishi bo'yicha: mahalliy xomashyo va mineral resurslarni chuqur qayta ishlash ko'lamini kengaytirish, eksport salohiyatini rivojlantirishga mo'ljallangan rentabelli, yuqori texnologiyali, resurslarni tejovchi ishlab chiqarish infratuzilmasining zamonaviy tizimlarini rivojlantirish, iste'mol bozorlarini eng zarur tovarlar va xizmatlar bilan to'ldirish (yoqilg'i-energetika, metallurgiya, mashinasozlik, gaz, kimyo,

qayta ishlash sanoati, agrosanoat kompleksi, suv xo'jaligi qurilishi, formatsevtika sanoati va h.k.);

— noishlab chiqarish obyektlari bo'yicha: aholining ijtimoiy infratuzilma xizmatlariga bo'lgan birinchi navbatdagi ehtiyojlarini qondirish (sog'liqni saqlash, fan, ta'lim sohasi, madaniy-maishiy obyektlarni qurish), aholi uchun uy-joy qurilishi, magistral va ko'chalar, suv, gaz va energiya ta'minoti tarmoqlarini qurish.

Ayni vaqtda tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faolligining sezilarli darajada o'sishi, bank tizimi kredit imkoniyatlarining barqaror kengayib borishi hamda uzoq muddatli imtiyozli xorijiy investitsiya va kreditlarning jalb qilinishi hisobidan yalpi kapital mablag'larining jadal o'sishi investitsiyalarga yo'naltiriladigan davlat budjeti xarajatlari ulushini kamaytirish imkonini berdi.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan investitsiyalarning ahamiyati investitsiya faoliyati ishtirokchilariga qulay investitsiya muhitini yaratish, investitsiyalarni amalga oshirishning me'yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, ular faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan qonun-qoidalar ishlab chiqish, investitsiya faoliyatini tartibga solish va muvofiqlashtirishda ko'proq namoyon bo'ladi.

7.4. Investitsiya dasturini amalga oshirish ustidan nazorat (monitoring)

Monitoring investitsiya faoliyati ishtirokchilarining moliyaviy holatini baholash, uning balansini, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotini hamda mijozning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tavsiflovchi boshqa hujjatlarini tahlil qilish, tekshirib borish va nazorat qilish asosida amalga oshiriladi.

Monitoringning yana bir muhim tomoni kreditni qoplashning ikkilamchi manbayi — uning qaytarilishining ta'minotini tekshirish hisoblanadi.

Respublikamizda har yili yuzlab loyihalar moliyalashtirilmoqda. Bu loyihalar davlat budjeti mablag'lari, xalqaro kredit liniyalari mablag'lari, budjetdan tashqari jamg'armalar, tijorat banklari kreditlari, xorijiy va xususiy investorlar mablag'lari, korxonalar mablag'lari hisobidan moliyalashtirilar ekan, albatta, bu

mablag'larning qaytarilishi va ma'lum miqdorda ularning foyda bilan ta'minlanishi talab etiladi. Ushbu mablag'larning muayyan foydasi bilan qaytishligini aniqlash, tekshirib borish va tahlil qilib turish uchun kreditorlar tomonidan (tijorat banklari), shuningdek, mol yetkazib beruvchilar, xususan, lizing, sug'urta kompaniyalari va kafillik beruvchi tashkilotlar tomonidan loyihalarning monitoringi olib boriladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ham moliyalashtirilayotgan investitsiya loyihalari ustidan monitoring olib borishning umumiy tizimi joriy qilingan. Har bir moliyalashtiruvchi yoki kreditlashni amalga oshiruvchi tashkilotlar o'zlarining faoliyat turi va xususiyatlaridan kelib chiqib, o'zlariga xos bo'lgan monitoring o'tkazish tartibini ishlab chiqadilar va shu asosda faoliyat yuritadilar.

Monitoringni yuritishda quyidagilar ko'zda tutiladi:

– amalga oshirilmoqchi bo'lgan loyihada nima ishlab chiqarish ko'zda tutilganligi;

– ishlab chiqarish jarayonini bilishlik, ya'ni mahsulot ishlab chiqarish jarayonini boshidan oxirigacha kuzatib borish;

– ishlab chiqarish korxonasining tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik jihatdan asoslanishi va tashkil etilishi;

– loyihani moliyalashtirish manbalarini aniqlash va uni moliyalashtirishni amalga oshirish.

Monitoring olib borish bosqichlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash; olingan ma'lumotlar asosida korxonalarning moliyaviy-xo'jalik holatini tahlil etish; tahlil natijalari bo'yicha xulosalar qilish va takliflar berish.

Davlat investitsiya dasturining amalga oshirilishi monitoringi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 4-yanvardagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarning amalga oshirilishi ustidan davlat monitoringi to'g'risida»gi nizomga hamda 2005-yil 15-noyabrdagi 251–sonli qarorining 2-ilovasidan o'rin olgan «O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarni tayyorlash va ularning amalga oshirilishi ustidan davlat monitoringi to'g'risida»gi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Dasturning davlat monitoringi:

– respublika investitsiya dasturiga kiritilgan va birinchi navbatda, xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisobiga amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining o‘z vaqtida va samarali ro‘yobga chiqarilishini ta’minlash;

– davlat boshqaruvi organlarining, investitsiya jarayoni boshqa qatnashchilarining faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning investitsiya loyihalarini, ular to‘liq tugallangunga qadar, amalga oshirish bilan bog‘liq masalalarni o‘z vaqtida hal etish yuzasidan javobgarligini oshirish;

– investitsiya loyihalari harakatiga ularni amalga oshirishning barcha bosqichlarida to‘sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash va o‘rganish, ularni, shu jumladan, investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi bilan bog‘liq bo‘lgan turli xil masalalarni ko‘rib chiqish muddatlarini o‘zgartirish yo‘li bilan bartaraf etish bo‘yicha tezkor chora-tadbirlar ko‘rish;

– investitsiya loyihalari tasdiqlangan hajmlar va muddatlarga qat’iy rioya qilingan holda investitsiya loyihalari tashabbuskorlari va vakolatli banklar tomonidan mablag‘lar bilan o‘z vaqtida ta’minlanishi ustidan nazorat qilish;

– investitsiya loyihasi bo‘yicha xorijiy sheriklar oldida qabul qilingan majburiyatlarning bajarilishiga ko‘maklashish;

– investitsiya muhitini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalar va takliflar bo‘yicha ma’lumotlar bankini shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

Dasturning monitoringi har oyda statistika hisoboti va so‘rov yo‘li bilan Iqtisodiyot vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Dasturning monitoring natijalari Dasturning amalga oshirilishi to‘g‘risidagi har choraklik axborotlarni tayyorlashda hamda navbatdagi uch yillik davrga Dasturni shakllantirishda foydalaniladi.

Monitoring investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonigagina xos bo‘lmasdan, balki ularni moliyalashtirishgacha bo‘lgan davrlarda ham o‘tkaziladi. Loyihani moliyalashtirishga qadar o‘tkaziluvchi monitoringning ahamiyati shundaki, u loyihani moliyalashtirish davridagi monitoringga nisbatan afzalroq va ahamiyatlidir.

Chunki uning natijasida investorlarning loyihani amalga oshirishdagi maqsadlari oldindan ko‘proq ta’minlanish imkoniyatlari hosil qilinadi.

Loyihani moliyalashtirishga qadar o‘tkaziladigan monitoring quyidagilarni o‘z ichiga qamrab oladi: investitsiya konsepsiyalarini qidirish; loyihani boshlang‘ich tayyorlash; loyihani so‘nggi shakllantirish va uning texnik-iqtisodiy-moliyaviy afzalligini baholash; loyihani uzil-kesil ko‘rib chiqish va u bo‘yicha qarorlar qabul qilish.

Loyihaning ushbu bosqichlardan o‘tishi investitsiyalarning amalga oshirilishini ta’minlaydi. Bunday vaziyatni keltirib chiqarish uchun investitsiya g‘oyasini amalga oshirishning barcha jihatlari puxta tayyorlanishi va shunga mos biznes-reja (investitsiya loyihasi) ishlab chiqilishi lozim. Bunday loyiha salohiyatli (potensial) investorlar manfaatiga mos kelar ekan, demak, o‘tkazilgan tadqiqot ishlari ko‘zlangan natijaning hosil qilinishini ta’minlaganligini ko‘rsatadi.

Natijalar va o‘tkazilgan tahlillarning foydali hisoblanishi loyihani amalga oshirish va uni moliyalashtirishning eng yaxshi variantini tanlash to‘g‘risida qaror qabul qilish imkonini beradi. Ushbu bosqich yondashuvining afzalligi loyihani tayyorlashga sarflangan xarajatlarning samaradorligini ko‘rsatib berish va oshirishda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, ushbu bosqich eng ustuvor va samarali loyihani aniqlash va tanlab olish imkonini ham beradi-ki, bu istiqbolsiz deb topilgan loyihalarning o‘z vaqtida aniqlanishini va rad etilishini hamda yirik miqdordagi mablag‘larning behuda sarflanishining oldi olinishini ta’minlaydi. Loyihalarni bunday saralash hamisha muhim hisoblanadi.

Mablag‘lar kiritishga munosib biznes-g‘oyalarni qidirish va tanlash investitsiyalash bilan bog‘liq faoliyatning eng muhim boshlang‘ich nuqtasi hisoblanadi. Sababi, ushbu hol, oxir-oqibatda, investitsiya mablag‘larini safarbar etish asosiga aylanishi mumkin. Buning uchun loyihani boshlang‘ich tayyorlash ishlari puxta olib borilishi lozim.

Loyihani boshlang‘ich tayyorlash bosqichining vazifasi investitsiya loyihasining munosib biznes-rejasini ishlab chiqish, ya’ni har qanday tijorat faoliyati uchun umumiy masalani hal etishdan iboratdir.

So‘nggi qarorni qabul qilish uchun ma’lumotlarning barcha turlarini tayyorlash loyihani so‘nggi shakllantirish va moliyaviy afzalligini puxta baholash bosqichining asosiy mazmunini tashkil etadi. Bu bosqich faqat kerakli moliyaviy mablag‘larning yetarlicha aniqlik darajasida qat’iy ta’minlangan bo‘lishi mumkin bo‘lgan hollardagina amalga oshirilishi lozim.

So‘nggi bosqich loyihani uzil-kesil ko‘rib chiqish va loyihani moliyalashtirishning maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida yakuniy qaror qabul qilish hisoblanib, u loyihaning amalga oshirilishi bo‘yicha qaror qabul qilish uchun asos hisoblanuvchi baholash ishlarini o‘tkazishni nazarda tutadi.

Loyihaning sifati qanchalik yuqori bo‘lsa, uni baholash bo‘yicha shunchalik kam ish olib boriladi. Asosiy e’tibor loyihani moliyalashtirishni amalga oshiruvchi muassasa faoliyatiga qaratiladi. Agar firma tajribali va salohiyatli bo‘lsa, loyihaning tashkiliy-moliyaviy jihatdan muammolarining butunlay hal etilishi ta’minlanishi mumkin. Loyihani eng so‘nggi baholashda qo‘llaniladigan usullar tahlilning texnik, tijorat, bozor, boshqaruv, moliyaviy jihatlariga asoslanadi.

Shunday qilib, bank kreditlaridan foydalanish ustidan nazorat loyihaning samaradorligi va hayotiyligini boshlang‘ich tahlil etish uchun amalga oshiriladi. Bunday monitoring loyihani amalga oshirishdagi kelib chiquvchi muammolarning oldini olishga va loyihani moliyalashtirish jarayonidagi monitoringning ishonchli va jiddiy vaziyatlarni keltirib chiqaruvchi sabablarsiz, yengilroq o‘tkazilishiga imkon beradi.

Moliyalashtirish monitoringida quyidagi faoliyatlar amalga oshiriladi: to‘lov hujjatlarining tasdiqlangan obyekt smetasiga va foydali ishlatilishiga hamda shartnoma baholarini aniqlashning to‘g‘riligiga mos kelgandagi to‘lov obyektlariga ssuda hisob raqamidan ajratilgan har bir to‘lovni nazorat qilish; qurilish ketayotgan joyga borib mablag‘lardan maqsadli foydalanilayotganini har chorakda tekshirish; har choraklik statistik tahlilni o‘tkazish, moliyalashtirishning real va rejali jadvalini va qarz oluvchining kredit bo‘yicha to‘lovlarini nazorat qilish; kredit shartnomasi, loyiha monitoringining rejasi va texnik tartibi talablarga mos kelishini nazorat qilish; kredit bo‘yicha ta’minlanganlik holati va sifatini nazorat qilish; bank kreditiga bo‘lgan talabning o‘sishi yoki qisqarishi bilan bog‘liq risklarni hisobga olgan holda, qarz

oluvchining moliyaviy holatining o'zgarishini baholash; bozordagi iqtisodiy holatini baholash, loyihani amalga oshirishning tasdiqlangan strategiyasidan chetlanishini va loyihaning pul mablag'lari oqimi bashoratini uning real holatiga taqqoslash; korxonada rahbariyat va asosiy xodimlar tarkibidagi tashkiliy o'zgarishlarni nazorat qilish.

Loyiha jarayoni va obyektni ishga tushirish monitoringi quyidagi shakllar va yo'nalishlarda amalga oshiriladi: ssuda hisob raqamidan qilingan har bir to'lovda korxonadagi to'lov hujjatlarining obyektning tasdiqlangan smetasiga va foydali ishlatilishiga mosligini va shartnoma baholarining to'g'ri aniqlanganligini nazorat qilish; har chorakda statistik tahlil olib borish, moliyalashtirishning real va rejali jadvalining mosligini va kredit bo'yicha qarz oluvchining to'lovlarini tahlil qilish; qurilish obyektiga chiqish orqali kreditdan maqsadli foydalanilayotganini har chorakda tekshirib borish; shartnoma, texnik tartib talablari va loyiha monitoringi rejasining bajarilishini nazorat qilish.

Loyiha bo'yicha obyektni qurish va foydalanishga topshirishga qabul qilish jarayonlari monitoringi quyidagi tartibda amalga oshiriladi: qurilish muddatlarining uskunalarni keltirish va ularning ishlab chiqarish jadvaliga mos holdagi qurilish-montaj ishlari muddatlarini, ishlarni joriy etish jarayoni haqidagi hisobot ma'lumotlarini, tekshirish natijalarini bevosita o'rganish bilan bog'liqlikda, shuningdek, qurilishni olib borish saviyasining pasayish sabablarini aniqlash va iqtisodiy choralar qo'llash bilan hamda yuqori tashkilotlar va prokuratura organlari, xo'jalik sudlariga zarur hollarda ma'lumotlarini yetkazish yo'li bilan kuzatuvlarni nazorat qilish.

Pudratchi va buyurtmachilar tomonidan uskunalarni yetkazib berish, obyektni ishga tushirish bo'yicha qurilish-montaj ishlari va boshqa xizmatlar uchun tuzilgan shartnomalar bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini nazorat qilish.

Obyekt bo'yicha qurilish-montaj ishlari va xizmatlarni o'rnatilgan tartibda va sotib olingan uskunani inventarizatsiya qilish bo'yicha yilida kamida ikki marta sanoqli, o'lchovli va hisobli nazorat ishlarini olib borish. Uskunalarni ishga tushirishga qabul qilishda ishtirok etish va loyiha ko'rsatkichlarining loyihani amalga oshirish bo'yicha tasdiqlangan strategiyalariga mosligini nazorat qilish.

Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan monitoring:

– investitsiya loyihalari tashabbuskorlari tomonidan Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga taqdim etiladigan tasdiqlangan reja-jadvallarning bajarilishi to'g'risidagi axborotlarni;

– O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan hajmda va muddatlarda taqdim etiladigan O'zbekiston Respublikasi bo'yicha xorijiy investitsiyalar va kreditlar ishtirokidagi investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi to'g'risidagi yig'ma statistika axborotini;

– mavjud va potensial xorijiy investorlar faoliyatining me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish bo'yicha ularning takliflarini o'rganish asosida vaqti-vaqti bilan tayyorlanadigan investitsiya muhiti sharhini;

– manfaatdor vazirliklar va idoralar tomonidan taqdim etiladigan tezkor axborotlarni;

– markazlashtirilgan manbalar hisobiga amalga oshiriladigan loyihalarni o'z vaqtida mablag' bilan ta'minlash masalalari bo'yicha axborotlarni tahlil qilish va umumlashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yirik va strategik muhim investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi monitoringi Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan:

– tasdiqlangan reja-jadvallar bajarilishini, loyihalarni amalga oshirish yuzasidan zarur ishlar kompleksini olib borishning texnologik oshirish izchilligiga rioya etilishini nazorat qilish;

– TIAlarining asosiy qoidalarini ko'rib chiqish, loyihalarni amalga oshirish mumkinligi yuzasidan umumiy qarorlar qabul qilish;

– alohida yirik loyihalar, shu jumladan, TIAlar ko'rsatkichlariga nisbatan loyihalarning qimmatlashishi yoki arzonlashishi mumkinligini hisobga olgan holda bazaviy loyihalashtirishni tasdiqlash;

– markazlashtirilgan manbalar hisobiga ajratiladigan mablag'larning o'z vaqtida moliyalashtirilishini va ulardan samarali foydalanilishini ta'minlash, hukumat kafolati ostida jalb etiladigan qarz mablag'larining o'z vaqtida qaytarilishi ta'minlanishini nazorat qilish;

– manfaatdor vazirliklar va buyurtmachi idoralar tomonidan ishlab chiqilgan ehtiyot qismlar va komponentlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturlarini, shuningdek, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tashqi bozorlarga kirib borishi bo'yicha marketing dasturlarini ekspertizadan o'tkazish;

– ayrim strategik muhim va yirik loyihalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari, amaldagi qonun hujjatlari buzilgan holda amalga oshirilayotgan loyihalarni mablag' bilan ta'minlashni to'xtatib qo'yish, shuningdek, investitsiya dasturi bajarilishi barbod bo'lishiga yo'l qo'yuvchi vazirliklar va idoralar, korxonalar va buyurtmachi tashkilotlarning rahbarlarini javobgarlikka tortish yuzasidan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish.

Xullas, Davlat investitsiya dasturi monitoringi investitsiya loyihalari tashabbuskorlari tomonidan Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga taqdim etiladigan tasdiqlangan reja-jadvallarning bajarilishi to'g'risidagi axborotlarni, Davlat statistika qo'mitasi tomonidan Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan hajmda va muddatlarda taqdim etiladigan O'zbekiston Respublikasi bo'yicha xorijiy investitsiyalar va kreditlar ishtirokidagi investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi to'g'risidagi yig'ma statistika axborotni, mavjud va potensial xorijiy investorlar faoliyatining me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish bo'yicha ularning takliflarini o'rganish asosida vaqti-vaqti bilan tayyorlanadigan investitsiya muhiti sharhini, manfaatdor vazirliklar va idoralar tomonidan taqdim etiladigan tezkor axborotlarni, markazlashtirilgan manbalar hisobiga amalga oshiriladigan loyihalarni o'z vaqtida mablag' bilan ta'minlash masalalari bo'yicha axborotlarni tahlil qilish va umumlashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Nazorat savollari

➢ Davlat investitsiya dasturining mazmun-mohiyatini ifodalab bering?

➢ Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida Davlat investitsiya dasturining roli nimalarda namoyon bo'ladi?

➢ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining 2013-yilgi investitsiya dasturi to‘g‘risida»gi qarorining mazmun-mohiyatini bilasizmi?

➢ Investitsiya dasturiga ta’rif bering?

➢ Davlat investitsiya dasturi necha yilga shakllantiriladi?

➢ Investitsiya dasturini shakllantirishning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?

➢ Investitsiya dasturiga kiritiladigan loyihalarni tanlab olish qanday mezonlarga asosan amalga oshiriladi?

➢ Investitsiya dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishi bo‘yicha barcha ishlarni qaysi vazirlik muvofiqlashtiradi?

➢ Investitsiya dasturining tahliliy qismi qanday mezonlardan iborat bo‘ladi?

➢ Investitsiya dasturining aniq ro‘yxatiga qanday loyihalar kiritiladi?

➢ Investitsiya dasturining aniq ro‘yxati nimalardan iborat bo‘ladi?

➢ Investitsiya dasturining yig‘ma ro‘yxati deganda nimani tushunasiz?

➢ Investitsiya dasturiga kiritish uchun takliflar tayyorlashda buyurtmachilar qanday tartibga amal qilishlari kerak?

➢ Investitsiya dasturining ustuvor yo‘nalishlari nimalardan iborat?

➢ Davlat investitsiya dasturini moliyalashtirish qanday manbalar hisobiga amalga oshiriladi?

➢ Markazlashtirilgan investitsiyalarga qanday manbalar kiradi?

➢ Markazlashtirilmagan investitsiyalarga qanday manbalar taalluqli?

➢ Markazlashtirilgan investitsiyalardan qanday hollarda foydalaniladi?

➢ Qaysi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha investitsiya loyihalariga markazlashtirilgan investitsiyalar ajratilishi mumkin?

➢ Investitsiya dasturi monitoringi deganda nimani tushunasiz?

➢ Davlat investitsiya dasturining amalga oshirilish monitoringining huquqiy asoslarini bilasizmi?

VIII BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARINING MOLIYAVIY VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH

8.1. Investitsiya loyihalari samaradorligini baholashning mohiyati va ahamiyati

Davlat, korxona va tashkilotlarning muhim vazifalaridan biri investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish hisoblanadi. Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish muammosining mohiyati shundan iboratki, har bir xarajat birligiga – mehnat, moddiy, moliyaviy, ishlab chiqarish hajmi, xizmatlar va foyda, milliy daromadni oshirishga erishish lozim bo'ladi.

Ushbu mavzumiz, bevosita, investitsiya loyihalarining samaradorligi masalasiga daxldor ekan, eng avvalo, samara va samaradorlik tushunchalari mohiyati va mazmunini bilib olish foydadan holi bo'lmaydi.

Ma'lumki, makro va mikro iqtisodiyot va ularning sektorlarida «samara» va «samaradorlik» degan atamalarni tez-tez uchratish mumkin. Ular o'zlarining iqtisodiy mohiyati va mazmuniga qarab bir-birlaridan farqlanadi. «Samara» tushunchasi o'zida iqtisodiy jarayonning qandaydir biror bo'lagida (bo'g'inida) qo'llanilgan tadbirlarning bergan natijasini (ijobiy natijaga erishishni) o'zida aks ettiradi. Samara – mutlaq ko'rsatkich bo'lib, u ishlab chiqarishning iqtisodiy natijalarini ko'rsatadi. Samara hosil qilingan yalpi foyda va shu kabilar hisoblanadi. Samara faqat amalga oshirilgan tadbirlarning qanchalik foydaliligini bildiradi, xolos. Lekin qilingan xarajatlar o'zini qoplashi yoki qoplay olmasligi, foyda ko'rilgan yoki ko'rilmaganini bildira olmaydi. Bu savollarga faqat «iqtisodiy samaradorlik» ko'rsatkichigina javob berishi mumkin. Iqtisodiy o'sish samaradorligi ma'lum vaqt davomida erishilgan natijaning o'sganligi yoki kamayganligini o'zida aks ettiradigan ko'rsatkichdir.

Samaradorlik ko'rsatkichlari ishlab chiqarishda erishilgan samaraga asoslanib, ishlab chiqarish natijalari bilan shu natijalarni hosil qilish uchun sarf-xarajatlar o'rtasidagi nisbatni ifodalaydi.

Samaradorlikning turli jihatlarini, uni amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmini o'rganish milliy iqtisodiyotning asosini tashkil qiladi. Milliy iqtisodiyotda samaradorlikning o'ziga xos mazmuni ishlab chiqarishning ijtimoiy shakli, maqsadli yo'nalishi, ishlab chiqarish natijalarining o'ziga xosligi bilan belgilanadi.

Resurslardan oqilona foydalangan holda ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni to'la qondirish ishlab chiqarish samaradorligining bosh mezonidir.

Iqtisodiy samaradorlik deyilganda ishlab chiqarish hajmining oshishi, mehnat unumdorligining o'sishi, foyda olish, milliy daromadning o'sishi tushuniladi. Ijtimoiy samaradorlik[1] esa xalq turmush farovonligining oshishi, ularda ta'lim olish darajasining oshishi va boshqalarni anglatadi.

Samaradorlik (iqtisodiy va ijtimoiy) iqtisodiy yoki ijtimoiy samaraning unga erishish uchun qilingan xarajatlar nisbatini ifodalaydi. Matematik til bilan aytganda, u quyidagi tenglikni ifodalaydi[2]:

$$\text{Iqtisodiy samaradorlik} = \frac{\text{Samara (natija)}}{\text{Uni olish uchun qilingan xarajatlar yoki ishlatilgan resurslar}} \qquad (8.1)$$

Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari andozasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– milliy iqtisodiyot bo'yicha kengaytirilgan takror ishlab chiqarish qonunlarining amal qilish natijasini ifodalash;

– milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ijtimoiy ishlab chiqarishning umumiy samaradorligini aniqlash imkoniyatini yaratuvchi yagona uslubiyotni ishlab chiqish;

– samaradorlikning namoyon bo'luvchi shakllarini ifodalash;

– samaradorlik darajasi bilan bir qatorda unga ta'sir ko'rsatuvchi turli xil omillarni aniqlash.

---

[1] Bu yerda biz, eng avvalo, aholining hayot kechirishi va mehnat shart-sharoitlarining yaxshilanishi, ularning turli xil kasalliklar bilan kasallalanish darajasining pasayishi, aholining ta'lim olish darajasining o'sishi (yaxshilanishi) kabilarni nazarda tutayapmiz.

[2] Нешитой А.С. Инвестиции: Учебник. – 4-е изд. М.: «Дашков и К°», 2006. С. 118.

Iqtisodiy o'sish samaradorligi — erishilgan natijani unga erishish uchun sarflangan xarajatga solishtirish yo'li bilan aniqlanadi. Ma'lum davr ichida erishilgan natija jamiyat bo'yicha milliy mahsulot (sanoatda bir yil ichida ishlab chiqarilgan jami yalpi mahsulot) olinadi. Sarflangan xarajat hisoblab chiqiladi va jamlanadi. U holda iqtisodiy o'sish samaradorligi yalpi mahsulot qiymatining o'sishini xarajatlar nisbatiga solishtirish yo'li bilan aniqlanadi, ya'ni:

$$\text{Iqtisodiy o'sish samaradorligi} = \frac{\Delta \text{ Yalpi mahsulot qiymati (yoki o'sishi)}}{\text{Sarflangan xarajatlar}} \qquad (8.2)$$

Bu ko'rsatkich yordamida iqtisodiy o'sish samaradorligining ijobiy yoki salbiy tomoni aniqlanadi. Agar samaradorlik ma'lum vaqt, davrlar bo'yicha solishtirilsa uning o'sishi yoki kamayish holatini aniqlash imkoni yuzaga keladi.

Iqtisodiy o'sish samaradorligiga quyidagi omillar ta'sir qiladi: yalpi mahsulotning mehnat sig'imi; yalpi mahsulotning moddiy sig'imi; yalpi mahsulotning kapital sig'imi; yalpi mahsulotning investitsiya sig'imi.

Demak, iqtisodiy o'sish samaradorligi uni vujudga keltirgan sarflarga nisbatan qaraladi. Chunki bu sarflar natija degan umumiy qoidadan kelib chiqadi va baholanadi. Bu jihatdan qaralganda iqtisodiy o'sish samaradorligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\text{Iqtisodiy o'sish samaradorlik} = \frac{\text{Yalpi daromad o'sishi}}{\text{Mehnat sarfi + xomashyo sarfi + fond sarfi + investitsiyalar sarfi}} \qquad (8.3)$$

Bu formula yordamida yalpi mahsulot ishlab chiqarishda har bir sarflangan xarajat turiga qarab qanday nafga ega bo'lishganligini baholash va ularning iqtisodiy o'sish samaradorligidagi o'rnini aniqlash mumkin.

Kapital qo'yilmalarning samaradorligini baholash muammosi har doim ham dolzarb masala bo'lib kelgan va fan hamda amaliyotda bunga doimo e'tibor berilgan. Sobiq ittifoq davrida investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash nazariyasi-

ning shakllanishida muhim bosqich bo'lib, GOELRO[1] rejasining ishlab chiqilishi bo'lgan. Ushbu rejani ishlab chiqishda xalq xo'jaligi tarmoqlarini ta'mirlash va rivojlantirishning u yoki bu variantining iqtisodiy samaradorligini asoslash uchun umumiy iqtisodiy samaradorlik va taqqoslama samaradorlik ko'rsatkichlari qo'llanilgan.

Keyinchalik mamlakatda gidroelektr stansiyalari, metallni qayta ishlovchi zavodlar, temiryo'l magistrallari va boshqa yirik obyektlarning qurilishi kapital qo'yilmalarning iqtisodiy samaradorligini baholashni (aniqlashni) takomillashtirish zarurligini keltirib chiqaradi.

Sobiq ittifoq fanlar Akademiyasining Iqtisodiyot instituti tomonidan kapital qo'yilmalarning samaradorligini aniqlash sohasida ko'p yillar davomida ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Natijada akademik T.S.Xachaturov ilmiy boshchiligida kapital qo'yilmalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlashning namunaviy uslubiyoti hamda noishlab chiqarish sohasida xarajatlar samaradorligini aniqlashning vaqtinchalik uslubiyoti ishlab chiqildi[2]. 1990-yillarda boshqa uslubiyotlarni ishlab chiqishga harakatlar ham bo'lgan, biroq, ular muvaffaqiyatsiz yakun topib, amaliyotda keng ko'lamda qo'llanilmadi.

Akademik T.S.Xachaturov ilmiy boshchiligida ishlab chiqilgan kapital qo'yilmalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlashning namunaviy uslubiyoti Sobiq ittifoq fanlar Akademiyasining kapital qo'yilmalar va asosiy fondlarning iqtisodiy samaradorligini baholash bo'yicha Ilmiy Kengash tomonidan tasdiqlandi. So'ngra mazkur uslubiyot amaliyotda keng ko'lamda qo'llanildi va hozirgi kunda ham ushbu uslubiyotdan ma'lum darajada foydalanilmoqda. Buning asosida kapital qo'yilmalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash tamoyillari, samaradorlikning tarmoq me'yori koeffitsiyenti yordamida taqqoslama iqtisodiy samaradorlikni hisoblash yo'li bilan ularning absolut va nisbiy ko'rinishlardagi qoplanishini hisoblash usullari yotar edi[3]. Masalan, kapital qo'yilmalar iqtisodiy samaradorligining taqqoslama tahlili aniq xo'jalik va texnik vazifalarni (misol uchun yangi texnikani joriy qilish va

[1] Rossiyani elektrlashtirishning davlat rejasi.
[2] Нешитой А.С. Инвестиции: Учебник. – 4-е изд. М.: «Дашков и К°», 2006. С. 119.
[3] Eslatib o'tamiz, mazkur usullarni aniqlash tartibi darsligimizning 6-bobida ko'rib o'tilgan.

korxonani texnik jihatdan qayta qurollantirish tadbirlari bo'yicha turli variantlarni tanlashda) hal qilishning eng foydali variantlarini tanlashga asoslangandir. Ushbu ko'rsatkich qaysi variant boshqasidan ustunligini (samaradorligini) aniqlab beradi. Bunda eng kam xarajatli variant tanlanadi.

Biroq, ushbu uslublarda zarur bo'lgan ko'rsatmalar yo'q edi, ya'ni bular: bozor iqtisodiyoti uchun muhim bo'lgan vaqt omili, investitsiya loyihalarini amalga oshirishdagi noaniqlik (mavhumlik) va risklar, inflyatsiya sharoitidagi real va nominal qiymatlarni baholash kabilardir. Shuningdek, kapital qo'yilmalarning samaradorligini aniqlashda va baholashda iqtisodiy, ijtimoiy va ayniqsa, marketing jihatlari hamda loyiha ishtirokchilarining manfaatlari yetarlicha hisobga olinmas edi, pul oqimi tahlili, balans tahlili, amortizatsiya hisobi va boshqalarga bo'lgan e'tibor uning uchun xos emas edi. Yuqoridagi holatlarni hisobga olmaslik ma'muriy boshqarish davriga mos keladi, chunki unda davlat mulki hukmron hisoblanar va bu borada undan boshqa manfaatdorlar yo'q edi. Bundan tashqari, har bir loyiha davlat tomonidan belgilangan dasturlar orqali moliyalashtirilar, loyihaning samaradorligi, kreditning qaytarilishi unchalik ahamiyatga ega emas edi. Shuningdek, xususiy tadbirkorlikka sust e'tibor berilganligi insonlarning mustaqil biror-bir ish qilishlariga va faoliyat olib borishlariga yo'l bermas edi.

Ishlab chiqarishni rivojlantirish va jamiyat hayotining boshqa sohalari taraqqiyotini ta'minlashning yakuniy natijasi bo'lib, avvalo, inson va uning ehtiyojlari maydonga chiqadi. Shu sababdan ishlab chiqarishga yo'naltirilgan investitsiyalarning samaradorligini faqatgina iqtisodiy samaradorlik jihatidan emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik sifatida ham talqin etish zarur. Qolaversa, har qanday iqtisodiy jarayonning yakuniy natijasi ijtimoiy maqsadlarga erishish va ijtimoiy vazifalarni hal etish hisoblanadi. Shu boisdan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning o'zi asosiy maqsad bo'lib qolmasdan, balki ijtimoiy maqsadlarga erishish vositasi sifatida xizmat qilishini ta'minlashga birlamchi e'tibor qaratilishi zarurdir. Oxir-oqibatda, bozor iqtisodiyotida baholash ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikka erishish nuqtayi nazaridan qaralishi lozim.

Investitsiya loyihalarini moliyaviy tahlil etish ularning samaradorligini ochib berishda markaziy o'rinni egallaydi. Moliyaviy tahlil loyihadan keladigan samarani, uning har bir ishtirokchilarining maqsadlaridan kelib chiqib, loyihani amalga oshirishdagi erishishi lozim bo'lgan natijalarni qo'lga kiritish imkoniyatlarini ochib beradi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, investitsiya loyihasi, eng avvalo, ma'lum bir maqsadni ko'zlagan holda ko'pchilikning (loyiha ishtirokchilari va aholining) manfaatlarini e'tiborga olish bilan amalga oshirilishi lozim. Hozirgi iqtisodiy vaziyat, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishidagi vazifalar, investitsiya loyihasini amalga oshirishda bir necha manfaatlarning o'zaro to'qnash kelishi, jahon iqtisodiyotidagi eng yetuk tajribalarni O'zbekiston iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda joriy etish barcha sohalardagi kabi investitsiya loyihalari tahlilida ham uslubiy o'zgarishlarga erishishni taqozo etdi va uni muhim vazifa sifatida kun tartibiga qo'ydi.

Ushbu vazifani yechishda mualliflar V.Berens, P.Xavraneklarning «Руководство по оценке эффективности инвестиций» asarida investitsiya loyihalarining samaradorligini baholashda UNIDO uslubiyoti keng tadqiq etilgan bo'lib, bu uslubiyot loyihalarni tahlil etishda muhim o'rin tutadi. Ushbu uslubiyotda u yoki bu loyihani moliyalashtirishda qarorlar qabul qilish, shuningdek, investitsiya oldi tadqiqotlari uchun mo'ljallangan kapital qo'yilmalarning samaradorligini baholashning jahon tajribasi mufassal yozilgan. Bularning barchasi bozor tahlilining jihatlariga, shuningdek, TIAdagi savollarga, ya'ni xomashyo bazasini baholash, qurilish maydonini tanlash, loyihalashtirish va texnologiyalarni tanlash, investitsiya loyihalarini investorlarning o'z mablag'lari evaziga, shuningdek, tashqi moliyalash manbalari evaziga moliyalashtirishni ta'minlash, investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash (bular daromadlilikning ichki me'yori, sof diskontlashtirilgan daromad va h.k.) jarayonlariga tegishlidir.

Kelgusidagi sof foydaga qiziqish loyihaga mablag' qo'yuvchi har bir ishtirokchi tomon uchun umumiy bo'lsa-da, kutilayotgan foyda yoki daromad har xil baholanishi va farq qilishi mumkin.

UNIDO uslubiyoti bo'yicha moliyaviy tahlilning muhim jihatlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

– investitsiya qarorlarining asosiy mezonlari;
– qo'yilmalarni baholash va loyiha qaytimi;
– loyihaning hayotiylik davri va uni gorizont rejalashtirish;
– risk, noaniqlik va boshqalar.

Moliyaviy tahlil va loyihani so'nggi baholash loyiha bo'yicha talab qilinadigan qo'yilmalarni, kutilayotgan natijani, shuningdek, kelgusi sof foydani tahlil etish va baholashni (qiymatini) ko'zda tutadi. Ushbu maqsad uchun qo'llaniladigan usullar quyidagilardan iborat bo'ladi:

– loyihaning bashorat qilinish xususiyatlari haqqoniyligi tahlili;
– investitsiyaning amalga oshuvchanligiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi jiddiy o'zgarishlarni aniqlash bilan loyihalashtirilayotgan xarajat va daromadlarning tarkibi va ahamiyatliligini tahlil etish;
– investitsiyalardan keladigan daromad, ularning foydaliligi, samaradorligi orqali aks ettirilgan har yillik hosil qilingan va jamg'arilgan sof moliyaviy foydani aniqlash va baholash;
– vaqt omilining kapital qiymati, baholar va noaniqlik sharoitida (aniq loyiha bilan bog'liq bo'lgan risklar) qabul qilinadigan qarorlar munosabatini hisobga olish.

Shunday qilib, moliyaviy tahlilning maqsadi va andozasi shundan iboratki, u investitsiyalash va moliyalashtirishdagi barcha savollarning yechimi bilan bog'liq omillarni, shuningdek, loyihadagi barcha moliyaviy oqibatlarni tahlil qiladi, aniqlaydi va u bo'yicha tegishli qaror qabul qilish imkonini beradi.

Moliyaviy tahlilning asosiy jihatlari quyidagicha:

Birinchidan, sanoat investitsiya loyihalarining moliyaviy tahlili bu salohiyatli investorlar va loyiha tashabbuskorlariga (yaratuvchilariga) loyihadagi moliyaviy oqibatlarni ko'rsatish uchun yoki asosiysi texnik xarajatlarni yoki loyiha takliflarini tugallash uchun loyihani ishlab chiqishning oxirgi bosqichlarida amalga oshiriladigan alohida faoliyat emas. Moliyaviy tahlil texnologiya va ishlab chiqarish quvvati, loyihalashtirilayotgan korxonaning joylashgan joyi, resurslar, loyiha andozasi, marketing strategiyalarining mohi-

yati jihatidan aniqlanuvchi loyiha strategiyalarini ishlab chiqish va turli xil muqobillarini ko'zda tutishi lozim.

Ikkinchidan, moliyaviy tahlilni o'tkazish jarayonida qaror qabul qiluvchi investitsiyalarni baholash uchun turli xil mezonlarni qo'llashini ham hisobga olishi zarur. Bu analitikni shunday mezonlarni aniqlashga majbur qiladi va u investorlar talab qiladigan axborotlarni tayyorlash uchun unga muvofiq keluvchi usullarni tanlaydi. Masalan, investorlar past rentabellikda tezlashtirilgan amortizatsiyani afzal ko'rishi mumkin yoki hatto, kichik daromadlar sharoitida bosh raqobatchiga nisbatan bozordagi o'z ulushini kengaytirishni xohlashi mumkin, bunda uning strategiyasi mavjud firmaning yuqori rentabelliligini ta'minlashga xizmat qilsa, ajab emas. Bu yerda, nafaqat, qatnashuvchi tomonlarning, balki jamiyatning ham qiziqishini hisobga olish kerak. Jamiyatning qiziqishi shundaki, bunda ular investitsiya jarayonida cheklangan resurslarning samarali ishlatilishi va mamlakatning rivojlanishiga intiladilar. Qiziqishlarni nazorat qilish uchun turli xil ma'muriy va fiskal tadbirlar qo'llaniladi. Bu tadbirlar ham rag'batlantiruvchi, ham chegaralovchi bo'lib, loyihani baholash hamda moliyaviy tahlil jarayonlariga kiritilishi, aniqlanishi lozim.

Kapital qo'yishda foyda investitsiya qarorlarining bosh mezoni bo'lsa-da, u sanoat investitsiyalarida birdan-bir maqsad hisoblanmaydi, chunki moliyaviy resurslarni turli xil qimmatli qog'ozlarga ham joylashtirish mumkin. Biroq, sanoat loyihalarini TIAdagi maqsadlari yo'lida investitsiyalash, nafaqat, resurslarning uzoq muddatga qo'yilishi — foyda olishga yo'naltirilganligi sifatida, balki likvidlilikning ishlab chiqarish aktivlarida o'zgartirilishi sifatida ham qaraladi. Sanoat investitsiyalari bo'yicha qabul qilinadigan har qanday qarorlar investitsiya loyihalarining umumiy amalga oshishi bilan bog'liq bo'lgan quyidagi mezonlarga asoslanadi:

— ijtimoiy-iqtisodiy muhitga taalluqli loyihaning asosiy (korporativ) maqsadi bilan rivojlantirish maqsadlari o'rtasida hozirgi va keyingi davr mobaynida qandaydir bo'lishi mumkin bo'lgan qarama-qarshilik mavjudmi?

— loyihaning maqsadiga erishish uchun taklif qilingan loyiha va marketing strategiyalarning qanchalik muhimligi, nima uchun

taklif qilingan strategiya tanlandi, muqobil strategiyalar ham e'tiborga olinganmi?

– loyihaning tarkibi, ya'ni loyiha andozasi marketing konsepsiyasi, shuningdek, korxona tanlagan joylashish joyi qanchalik loyiha strategiyasiga va talab qilingan resurslarning mavjudligiga mos keladi?

– loyiha iqtisodiy resurslarni samarali ishlata oladimi, loyiha uchun talab qilinadigan asosiy resurslarni ishlatishning eng yaxshi variantlari bormi?

– loyihalashtirilayotgan barcha investitsion ishlab chiqarish va marketing xarajatlari ishonchlilik darajasidami va muvofiq keladigan chegaraga egami?

– loyiha hayotiyligining har qanday davrida to'lanadigan moliyaviy majburiyatlarni bajarish uchun milliy va xorijiy valuta bilan yetarlicha ta'minlanganmi – barcha investitsiya xarajatlari kapitalning mavjudligi bilan aniqlanuvchi moliyaviy chegaralarda yotadimi?

– jamg'arilgan har yillik va diskontlashtirilgan foyda gorizont rejalashtirishga loyiha tarkibi va ma'lumotlarni baholashdagi xatolarga, inflyatsiyaga, narxlarning nisbiy o'zgarishiga, shuningdek, ishga aloqador muhitning o'zgarishiga (raqobatchilar, iste'molchilar, bozor, mol yetkazib beruvchilar va jamoat siyosatiga) qanchalik sezgir, real pul kirim-chiqimlari va tegishli sof foyda tarkibi investorlar va moliyachilarning ko'zlagan maqsadlarining minimal talablariga mos keladimi?

– risklar mavjud sharoitda ularni nazorat qilish yoki boshqarish uchun qanday strategiya amal qiladi?

– risklarning moliyaviy natijalari qanday, ya'ni ular o'zi bilan birga investitsiya, marketing, ishlab chiqarish va moliyaviy xarajatlarga qo'shimcha xarajatlar olib keladimi yoki yo'qmi, yo bo'lmasa, kutilayotgan ishlab chiqarish, sotish hajmini, sotish narxlarini pasaytiradimi?

Shunday qilib, investitsiya qarorlarini qabul qilishning asosiy mezonlari nimalardan iborat ekanligini ko'rib chiqdik.

Investitsiya faoliyati subyektlari investitsiyalash haqida qarorlar qabul qilayotganda loyihalarning riskliligini, manbalarning joriy qiymatini, muqobil imkoniyatlarga ko'ra loyihaning jozibadorligini e'tiborga olishi lozim. Ular bunday qarorga

riskning maqbul darajasida kutilayotgan daromadlilikning tahlili asosida keladi. Shu narsa muhimki, investitsiyalash haqida qaror qabul qilinar ekan, asosiy e'tibor risklarni va kelgusi investitsiya daromadliligini hisobga ola bilishga qaratilishi zarur.

Investitsiyalash to'g'risida qaror qabul qilish uchun o'rganilayotgan ma'lumotlar majmuasi quyidagilardan tashkil topgan bo'lishi lozim:

– loyiha maqsadlari, uning mo'ljali, iqtisodiy muhit;

– marketing ma'lumotlari (sotish, raqobat muhiti, sotish dasturi va narx siyosati);

– moddiy xarajatlar;

– mehnat, ob-havo, ijtimoiy va boshqa omillarni hisobga olgan holda korxonaning joylashuv joyi;

– qurilish ishlari to'g'risida ma'lumot;

– ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarish;

– kadrlar masalasi;

– loyihani tashkil qilish jadvali;

– loyihani amalga oshirish davri bo'yicha moliyalashtirish hajmi;

– loyiha samaradorligini baholash.

Moliyaviy tahlil xarajatlar va daromadlar, aktivlar va passivlar bo'yicha tegishli tijorat ma'lumotlarini (shuningdek, tegishli moliyaviy resurslar, xizmatlar va tovarlar oqimi haqidagi ma'lumotlarni) tizimli tasavvur etish va qayta ishlashga asoslanadi. Xo'jalik faoliyati tahlili tizimi har doim korxonaning moliyaviy holatini, ya'ni balans hisobotlaridagi aktiv va passivlari, xarajatlar, majburiyatlar (hisobot davridagi) va sof daromad bo'yicha hisobotda ko'rsatilgan daromadlarini aks ettiradi. Bundan tashqari, bu hisob tizimi ishlab chiqarish va marketing xarajatlarini aniqlash uchun ham muhimdir, ya'ni sof daromad bo'yicha hisobot tuzishda, shuningdek, samarali moliyaviy rejalashtirish, mahsulotga bo'lgan narx kalkulyatsiyasi va xarajatlarni nazorat qilish uchun zarur.

Loyiha bo'yicha iste'mol etiladigan resurslar va ishlab chiqarilgan mahsulotlar fizik shaklga ega va bunda narxlar ularning qiymatlarini ko'rsatishda ishlatiladi.

Umuman olganda, TIAdagi maqsadlar uchun narxlar barcha gorizont rejalashtirishdagi ishlab chiqariladigan mahsulot va

iste'mol etiladigan resurslarning real iqtisodiy qiymatini ko'rsatib berishi lozim.

Narxlar (baholar) turli xil yo'llar bilan aniqlanishi mumkin, bu quyidagilarga bog'liq holda yuz beradi: bozor (aniq) yoki hufyona (noaniq) baholar bilan; absolut yoki nisbiy baholar bilan; joriy va doimiy baholar bilan.

Bu narxlar nimani anglatadi va ular moliyaviy tahlilda qanday ishlatiladi?

Bozor baholari yoki aniq narxlar — bu talab va taklif yoki davlat tomonidan aniqlanilishidan qat'iy nazar bozorda yuzaga chiqqan narxlar, boshqacha ifodalaganda, bu shunday narxlarki, bunda korxona ishlatiladigan resurslarni sotib oladi va mahsulotni sotadi.

Moliyaviy tahlilda bozor narxlari ishlatiladi. Lekin xarajat va daromadlarni iqtisodiy tahlil etish bosqichida bozor narxlari ishlab chiqarilgan mahsulot va ishlatiladigan resurslarning real iqtisodiy qiymatini aks ettira oladimi? Agar shunday bo'lmasa, ya'ni bozor narxlari buzib ko'rsatilgan bo'lsa, bunday holda iqtisodiy tahlil etish uchun hufyona (noaniq) narxlar ishlatiladi.

Absolut narxlar — bir mahsulot qiymatini absolut pul miqdorida ko'rsatib beradi, bu vaqtda nisbiy narxlar uning qiymati orqali boshqa mahsulotning qiymatini ko'rsatib beradi. Masalan, bir tonna ko'mirning absolut narxi 100 ming so'm deylik, neftning ekvivalent miqdori 300 ming so'm. Bunda ko'mirning nisbiy narxi neftga qayta hisoblanganda 0,33 koeffitsiyentni hosil qiladi, bu degani neftning nisbiy narxi ko'mir narxidan 3 marta yuqoridir. Absolut narx darajasi ishlab chiqaruvchanlikning o'zgarishi yoki inflyatsiya natijasida, loyihaning amal qilish muddati davomida o'zgarishi mumkin. Bu o'zgarish nisbiy narxning o'zgarishiga olib kelmasligi ham mumkin. Boshqacha so'z bilan aytganda, nisbiy narxlar ayrim hollarda absolut narxlar o'zgarganda ham o'zgarishsiz qolishi mumkin. Moliyaviy tahlil uchun absolut narxlar ham, nisbiy narxlar ham juda muhimdir.

Joriy va doimiy narxlar inflyatsiya natijasida vaqt mobaynida o'zgaradi, bu iqtisodiyotdagi narx darajasining umumiy o'sishi, deb ham tushuniladi. Agar inflyatsiya resurslar qiymatiga bir qancha ahamiyatli ta'sir etsa va narxlar mahsulotga ta'sir ko'rsatsa, bunday ta'sirni TIAda ko'zda tutilgan moliyaviy tahlilda

ko'rib chiqish lozim bo'ladi. Agar absolut narxlar keltirilayotgan resurslarga va mahsulotga nisbatan barqarorligicha qolsa, bunda doimiy narxlarda investitsiyalardan keladigan daromad va foydani yetarlicha aniq hisoblash mumkin bo'ladi. Agarda nisbiy narxlar o'zgarib tursa va mahsulot narxlariga nisbatan ishlab chiqarishga kiritilayotgan resurslar bahosi oshsa yoki aksincha bo'lsa, u holda ularning sof real pul oqimiga va foydaga tegishli ta'sirlari moliyaviy tahlilga kiritilishi mumkin.

Inflyatsiya loyihani amalga oshirish fazasida, ayniqsa, yillik yirik miqdordagi inflyatsiya darajasini jilovlash maqsadida qo'shimcha aksiyadorlik yoki qarz mablag'lari evaziga moliyalashtirish talab etilishi mumkin bo'lgan sabablarda, hatto, nisbiy baholar o'zgarmas bo'lib qolganda ham moliyaviy rejalashtirishda hisobga olinishi lozim. Giperinflyatsiya yuz berganda asosiy va aylanma kapitalni har yili qayta baholash lozim bo'ladi.

Aylanma kapitalni loyihalashtirishda mahalliy va import materiallarga, kommunal xizmatlarga, mehnat resurslariga va h.k.larga nisbatan turli xil risk darajalarini qo'llash lozim. Sotish bashorati, istiqboli, sotish hajmining yetarlicha loyihalashtirilmaganligiga kelsak, bunga narxlarning o'zgarishini oldindan to'g'ri ko'ra olmaslik sabab bo'ladi.

Qaror qabul qiluvchi shaxs uchun loyihani gorizont rejalashtirishni o'zining loyiha bilan bog'liq xo'jalik faoliyati sohasini boshqarish va nazorat qilish bo'yicha qarorlar qabul qilish yoki o'zining investitsiya yoki moliyaviy faoliyatini yo'lga qo'yishga nisbatan vaqt oralig'i sifatida aniqlash mumkin.

Qaror qabul qiluvchi shaxs tomonidan aniqlanadigan gorizont rejalashtirish loyiha hayotiyligini ham hisobga olishi lozim. Iqtisodiy hayot, ya'ni loyiha sof foydani yaratadigan davr, asosan, korxonaning asosiy texnik va texnologik hayot sikliga, ushbu sanoat tarmog'i va mahsulotning hayot sikliga, shuningdek, korxonaning o'z faoliyatida ishga aloqador muhitning o'zgarishiga moslashuvchanligiga bog'liqdir.

Loyihaning iqtisodiy hayotiy davrini aniqlashda turli xil omillarni baholashga to'g'ri keladi, bular quyidagilardir: talabning davomiyligi; xomashyoni saqlash va yetkazib berishning davomiyligi; texnik yuksalish darajalari; bino va uskunalardan foy-

dalanishning davomiyligi; muqobil investitsiyalash imkoniyatlari; boshqaruvdagi chegaralanishlar.

Shu narsa ravshanki, loyihaning iqtisodiy hayoti hech qachon uning texnik yoki yuridik hayotidan ko'p bo'lmaydi, u bundan kam bo'lishi yoki unga teng bo'lishi mumkin.

Loyihani rejalashtirishda faqat uning iqtisodiy hayoti ahamiyatli hisoblanadi.

Investitsiya loyihalarini baholash jarayonida gorizont rejalashtirish bilan loyiha hayotiyligi o'rtasidagi aloqadorlik, albatta, hisobga olinishi lozim.

Xulosa tarzida shuni qayd etish joizki, investitsiya qarorlarini qabul qilishda investitsiya loyihalarini baholash, tahlil qilish, tanlash va amalga oshirishning ilmiy asoslangan uslubiyotidan foydalanish muhim sanaladi. Shuningdek, investitsiyalar xususida qarorlar qabul qilinishida ularni moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash jarayonlarini shunday tashkil qilish kerakki, bunda ularning qiymatini minimallashtirish va joylashtiriladigan kapitalning foydaliligini oshirishga qodir manbalardan foydalanish yo'llarini baholash kerak bo'ladi. Investitsiya qarorlarining qabul qilinishi investitsiya kapitalining tuzilishi, uning muayyan vaqt davomida taqsimlanishi hamda pulning joriy qiymatini hisoblashga imkon beruvchi diskontlash koeffitsiyentlarini qo'llashni talab etadi.

Xullas, birinchidan, investitsiya qarorlarini qabul qilish loyihani amalga oshirishning asosini tashkil etadi va u bir qancha mezonlarga asoslanadi. Investitsiyalash to'g'risidagi qaror loyihaning maqsadga muvofiqligini tavsiflovchi tahliliy ma'lumotlarga asoslanib qabul qilinadi; ikkinchidan, investitsiya qarorlarini qabul qilishda asosiy ma'lumotlar bo'lib moliyaviy tahlil natijalari hisoblanadi. Moliyaviy tahlilning asosiy e'tibori qiymatga asoslangan iqtisodiy ko'rsatkichlarni baholashga asoslanganligi va ularga narxlarning jiddiy ta'sir ko'rsatishi bois loyiha bo'yicha narxlarni to'g'ri baholashning ahamiyati juda muhim hisoblanadi; uchinchidan, loyihani aniq hisob-kitoblar asosida to'g'ri gorizont rejalashtirish uning hayotiyligi davrini aniqlashga, uzaytirishga imkon beradi. Bundan tashqari, loyihaning hayotiyligini aniqlashda yana bir qator omillar ta'sirini to'g'ri hisobga olish ham lozim. Loyihaning hayotiylik davri (yashovchanligi)

qanchalik uzoq bo'lsa, undan olinadigan samara ham shunchalik yuqori bo'lishi mumkin.

8.2. Investitsiya loyihalarining samaradorligini baholashning an'anaviy usullari

Investitsiya loyihalarining samaradorligini baholashning an'anaviy usullari bo'lib, investitsiyalarni qoplash muddatini hisoblash usuli (PP) hamda investitsiyalarning buxgalteriya rentabelligini aniqlash usuli (rentabellik darajasi) (ARR yoki ROI) hisoblanadi.

Investitsiya loyihalarining samaradorligini baholashda qo'llaniladigan qoplash muddati va rentabellik darajasi usullari avvaldan ma'lum bo'lib, ular milliy va xorij amaliyotida to pul tushumlarining diskontlanishiga asoslangan usullarning keng qo'llanilishiga qadar asosiy ko'rsatkichlar sifatida amal qilib kelgan[1]. Ushbu usullarning soddaligi va tushunarliligi uning maxsus iqtisodiy bilimga, ko'nikmaga, malakaga, tayyorgarlikka va tajribaga ega bo'lmagan xodimlar o'rtasida ham keng qo'llanilishiga sabab bo'ldi. Hozirgi kunda tijorat banklari va boshqa kredit muassasalari salohiyatli qarz oluvchilarga investitsiya resurslarini taqsimlash shartlarini ma'lum qilishda, odatda, ushbu ikkita usuldan, ya'ni qoplash muddati va rentabellik darajasi ko'rsatkichlaridan foydalanmoqdalar.

Investitsiyalarning qoplash muddatini hisoblash usuli pul oqimlarini diskontlashga asoslangan usullardan farqli ravishda investitsiyalarning nominal miqdorda qaytarilishi mumkin bo'lgan davrni aniqlashga xizmat qiladi. Shunga ko'ra, bu usul investitsiya loyihasini amalga oshirishdan olinadigan daromadlar hisobiga qilingan investitsiya sarflarini qoplash davrini aniqlashga asoslangan. Qoplash muddatini aniqroq tushunadigan bo'lsak, bu loyihani yakunlash davridagi yoki umuman, undan olingan daromad investitsiyalar summasiga teng bo'lgandagi davrga tengdir.

Uni hisoblash formulasi quyidagicha:

$$PP = \frac{I_0}{CF_t^{(\Sigma)}}; \qquad (8.4)$$

[1] Akademik T.S.Xachaturov ilmiy boshchiligida ishlab chiqilgan kapital qo'yilmalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlashning namunaviy uslubiyoti ham an'anaviy usullarga taalluqli.

bu yerda: I_0 – boshlang'ich investitsiyalar; $CF_t^{(\Sigma)}$ – investtitsiya loyihasini amalga oshirishdan olingan yillik pul tushumi summasi U sof foydani yoki yillik daromad (D) va xarajat (X) o'rtasidagi (amortizatsiyasiz A) farqni ifodalaydi.

Qoplash muddatini hisoblashda ikkita yondashuv mavjud. Birinchi yondashuvda investitsiyalarning boshlang'ich summasi yillik tushumlarning (o'rtacha yillik) miqdoriga bo'linadi. Bu ko'rsatkich pul tushumlari yillar bo'yicha teng bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Qoplash muddatini hisoblashning ikkinchi yondashuvi investitsiya loyihasini amalga oshirishdan olinadigan pul tushumlari miqdorining o'sib boruvchi (farqli tushumlarning) yakuni (yig'indisi) sifatida izohlanadi. Ushbu usulning asosiy afzalliklari qoplash muddatini aniqlashda bajariladigan hisob-kitob ishlarining oddiyligi, qulayligi va tushunarliligidadir. Kamchiligi kelgusi davrlardagi pul tushumlarining qiymatini hisobga olishga qodir emasligi, shuningdek, uni investitsiya loyihasining daromadliligini aniqlashda qo'llab bo'lmasligidadir. Bu usul investorning qancha vaqt mobaynida o'z kapitali bilan riskka yo'l qo'yishini tasavvur qilishga yordam beradi.

Shunday qilib, investitsiya loyihasining qoplash muddati – bu shunday vaqtki, bunda loyihani amalga oshirishdan olinadigan tushumlar qilingan xarajatlarni qoplaydi.

Investitsiyalarning buxgalteriya rentabelligini aniqlash usuli (rentabellik darajasi) (ARR yoki ROI) buxgalteriya hisoboti ma'lumotlariga asoslangan holda aniqlanadigan o'rtacha daromadni investitsiyalarning o'rtacha yillik hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi. Bunda hisob-kitob ishlari foizlarni va soliqlarni to'lamasdan avvalgi foyda miqdoriga asoslangan holda amalga oshirilishi mumkin yoki u soliqlarni to'lagandan keyingi, lekin, foiz to'lovlarigacha bo'lgan daromadga asoslanadi. Eng yaxshisi, soliq to'langandan keyingi sof foyda miqdori tanlab olinganligi afzalroqdir, chunki u korxona ta'sischilari va investorlar oladigan haqiqiy foydani ifodalaydi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$ARR = \frac{Д\ (1 - C_c)}{\left(C_a^б - C_a^0\right)/2} \qquad (8.5),$$

bu yerda: D – foiz va soliq to'lovlarigacha yoki soliq to'lanib, foizlar to'langungacha bo'lgan daromad; S_s – soliq to'lash

stavkasi; S_a^b, S_a^o – aktivlarning ko'rib chiqilayotgan davriga bo'lgan boshlang'ich va oxirgi summasi, qiymati.

Mazkur usulni boshqacha yo'l bilan ham hisoblash mumkin. Buning uchun, avvalo, investitsiyalarning amortizatsiyasi me'yorini hisoblash lozim. U quyidagicha hisoblanadi:

$$\text{Amortizasiya} = \frac{I_0 - SV}{T} \qquad (8.6),$$

bu yerda: I_0 – boshlang'ich investitsiya; **SV** – qoldiq qiymat; **T** – loyiha muddati.

Bunday holda investitsiyalarning rentabellik darajasi (ARR)ni aniqlash formulasi quyidagi ko'rinishni kasb etadi.

$$\text{ARR} = \frac{\text{CF - Amortizasiya}}{I_0} x100\% \; ; \qquad (8.7),$$

bu yerda: **SF** – yillik pul tushumlari; I_0 – investitsiya xarajatlari.

Ushbu ko'rsatkichning afzalligi quyidagilardan iborat: hisob-kitobning sodda va tushunarliligi; loyihaning foydaliligini ko'rsatishi; loyihaning butun hayotiylik davrini ko'rsatishi. Kamchiliklari kelgusi pul tushumlarining qiymatini joriy vaqtga nisbatan hisobga olmasligidadir.

8.3. Investitsiya loyihalarida pul oqimlari tahlili. Investitsiyalarning samaradorligini diskontlash usullari asosida baholash

Jahon amaliyoti investitsiya loyihalarining samaradorligini baholash usullari ancha oldin ishlab chiqilganligi va ularning iqtisodiy hayotda keng qo'llanilayotganligini tasdiqlaydi. Mazkur usullar har qanday investitsiya loyihasining daromadliligini, samaradorligini, foydaliligini hamda ularning jalb etuvchanligini aniqlab bera oladi. Lekin, ayrim hollarda, investitsiya loyihalarini baholashda barcha usullarni qo'llash zaruriyati tug'ilmasligi ham mumkin. Bu usullarning qo'llanilishi tahlil qilinayotgan har bir loyihaning o'ziga xos jihati va xususiyatlarini inobatga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

Har qanday loyihaning moliyaviy-iqtisodiy jihatdan baholanishi pul oqimlari haqidagi ma'lumotlarga asoslanadi. Pul oqimlari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lmasdan turib, investitsiya loyihasining samaradorligini baholash mumkin emas. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, pul oqimlari haqidagi aniq ma'lumotlarni yig'ish juda muhim vazifa hisoblanadi.

Investitsiya loyihasini baholash loyihani amalga oshirishdan oldin bajarilishi sababli, pul oqimlari haqidagi ma'lumotlar ham oldindan rejalashtiriladi. Loyiha samaradorligini baholashda pul oqimlarini rejalashtirish va ularni hisobga olish jarayoni asosiy o'rinni egallaydi. Chunki ushbu jarayon investitsiya loyihalarining haqiqiy samaradorligini aniqlashga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli pul oqimlarini rejalashtirishda turli xil risklarni hisobga olish lozimdir. Masalan, sotish rejasida yoki ishlab chiqarish va xarajatlar rejasida biror-bir xatoliklarga yo'l qo'yilsa, u holda pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumotlar rejasi noto'g'ri ko'rinishga ega bo'ladi. Bu hol loyihaning samarasizligiga sabab bo'lishi mumkin.

Odatda, investitsiya loyihalari samaradorligini baholashda, ko'proq, pul tushumlariga katta e'tibor beriladi. Lekin, aslida, pul tushumlarining yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lishini ta'minlashda pul chiqimlarining, iqtisod qilingan xarajatlarning o'rni, kutilmagan xarajatlar hisobi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun pul oqimlarining kirim va chiqimlariga ta'sir etuvchi barcha omillarni oldindan hisobga olgan holda rejalashtirish loyihaning iqtisodiy samaradorligini ta'minlashga katta yordam beradi.

Pul oqimlari ma'lum komponentlardan tashkil topgan bo'lib, ular investitsiya loyihasini amalga oshirish davomida yillar bo'yicha taqsimlangan va bir-birini keltirib chiqaruvchi farqli ko'rsatkichlardan iborat bo'ladi. Investitsiya loyihasi pul oqimining dastlabki komponenti manfiy bo'ladi. Sababi, loyihani amalga oshirishda uni foydalanish fazasiga tayyorlash uchun investitsiyalash ishlari (qurilish-montaj ishlari, asbob-uskunalar va xomashyo sotib olish va boshq.) olib boriladiki, bu hol ma'lum miqdordagi pul mablag'larini sarflash zarurligini keltirib chiqaradi. Xuddi ana shu sarflar investitsiya loyihasi pul oqimining manfiy komponenti hisoblanadi.

Keyingi davrlarda pul oqimlari komponentlari yoki musbat yoki manfiy bo'lishi mumkin. Musbat komponent – bu ma'lum

bir yilda loyiha bo'yicha daromadlarning xarajatlardan ortiq bo'lib, to'lovlar qoldig'i (saldosi) musbat bo'lganligini bildiradi. Manfiy komponent – bu o'sha yil uchun investitsiya loyihasi bo'yicha umuman daromad (foyda) bo'lmaganligini yoki qo'shimcha investitsiya xarajatlari amalga oshirilganini ko'rsatadi.

Umuman, pul tushumlari va chiqimlarini tahlil etish investitsiya loyihalarini baholashda juda muhim sanaladi. Hisob-kitoblarda pul oqimlari barcha faoliyat turlari (operatsion, investitsiya va moliyaviy) bo'yicha hisobga olinadi. Pul tushumlari (kirimi) tarkibiga operatsion (joriy) faoliyat bo'yicha: mahsulot (ish, xizmatlar) sotishdan tushgan tushum; debitor qarzdorlikning o'sishi; keraksiz aktivlarni tugatishdan ko'rilgan daromad, shuningdek, investitsiya faoliyati bo'yicha: qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyadan olingan daromad; mamlakatdagi va xorijdagi o'zining filiallaridan tushgan tushum; keraksiz va ortiqcha aktivlarning sotilishi hamda moliyaviy faoliyat bo'yicha: aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotish; qarzlar va boshqa kreditlarni jalb etish shakllari kiradi.

Pul chiqimlari tarkibiga operatsion (joriy) faoliyat bo'yicha: ishlab chiqarish xarajatlari; ishchilar ish haqi; renta to'lovlari; sug'urta va boshqa to'lovlar; soliqlar, shuningdek, investitsiya faoliyati bo'yicha: asosiy kapital va aylanma mablag'lar zaxiralarini sotib olish; asosiy kapitalni ishchi holatida saqlash bo'yicha sarflar hamda moliyaviy faoliyat bo'yicha: olingan majburiyatlar bo'yicha foizlar va dividendlarni to'lash; obligatsiyalar va kreditlar bo'yicha majburiyatlarning asosiy qarzdorlik summasini qoplash kiradi.

Pul oqimlarini ifodalashda annuitet tushunchasi qo'llaniladi. Annuitet (inglizchadan tarjimasi – har yillik to'lov) bir xil davr mobaynida bir xil foiz stavka asosida bir xil to'lovlarning yoki pul oqimlarining kelib tushishini anglatadi. Annuitet muddatli va muddatsiz bo'ladi. Cheklangan vaqt oralig'i davomida teng miqdorli tushumga ega pul oqimlari muddatli annuitet, deb nomlanadi. Tushumlar teng vaqt oralig'iga bo'lingan davrlar oxirida amalga oshiriladi. Muddatli annuitetga (An) misol qilib, ijaraga berilgan obyektdan foydalanganlik uchun doimiy ravishda kelib tushuvchi to'lovlar (FV)ni aytsak bo'ladi. Bunda[1]:

[1] Чернов В.А. Инвестиционная стратегия: Учеб. пос. М.: «ЮНИТИ-ДАНА», 2003. С. 24.

$$FV_1 = FV_2 = \ldots FV_n = An, \quad (8.8)$$

Muddatsiz annuitetda pul tushumlarining davomiyligi uzoq vaqt mobaynida amal qiladi.

Umumiy holda, pul oqimlarini quyidagi tenglik bilan ifodalash mumkin[1]:

$$P = FV - X \quad (8.9)$$

bu yerda: **P** – pul oqimlari; FV – loyihani amalga oshirishdan kutilayotgan tushumlar; **X** – loyihani amalga oshirish bo'yicha xarajatlar.

Amaliyotda tadbirkorlarni va ularning hamkorlarini, nafaqat, pul oqimi, balki uning tarkibidagi sof pul oqimi ko'proq qiziqtiradi. Biz uni quyidagi formula bilan ifodalaymiz[2]:

$$SPO = FV - I - S - F_x + D_b \quad (8.9),$$

bu yerda: **SPO** – sof pul oqimi; **I** – ishlab chiqarish xarajatlari; **S** – soliq va boshqa ajratmalar; F_x – foydadan xarajatlar; D_b – boshqa kutilayotgan daromadlar, tushumlar va kompensatsiya.

Ushbu formula yoki tenglik pul oqimi elementlarini aniqlashda umumiy yondashuvni aks ettiradi. Bu tahlil maqsadi va korxonada qabul qilingan uslubiyotga ko'ra o'zgarishi mumkin.

Investitsiyalarning samaradorligini aniqlashda, asosan, quyidagi ko'rsatkichlar tahlil ostiga olinadi:

- moliyalashtirish manbalariga bo'lgan ehtiyoj;
- sof daromad;
- sof diskontlangan daromad;
- daromadlilik indeksi;
- diskontlashtirilgan investitsiyalarning daromadlilik indeksi;
- daromadlilikning ichki me'yori;
- qoplash muddati.

Shuningdek, investitsiyalarning samaradorligini aniqlashda hisobga olinadigan salbiy omillardan biri inflyatsiya ta'siri hisoblanadi. Agar inflyatsiya indeksi foiz stavkasi darajasidan yuqori bo'lsa, unda bank depozitiga joylashtirilgan pul mablag'larining real qiymati kelgusida hozirgidan ham pasayib ketadi. Bunda infyaltsiya bankka qo'yilgan pul mablag'larini «yeb ketadi».

[1] Ўша манба.
[2] Ўша манба.

Real foiz stavkasi (inflyatsiyani hisobga olgan holda) quyidagi formula bo'yicha aniqlanishi mumkin:[1]

$$FS_{real} = \frac{1 + FC_{nom}}{1+I} - 1 \qquad (8.10)$$

bu yerda: FC_{nom} – nominal foiz stavkasi; I – inflyatsiya indeksi

Masalan, yillik 20 foiz nominal stavkada bank depozitiga pul mablag'lari joylashtirildi, inflyatsiya indeksi yillik 10 foizni tashkil etadi. Yuqoridagi formulani ushbu misolga qo'llab, real foiz stavkasini aniqlash mumkin[2]:

$$FS_{real} = \frac{1+0,20}{1+0,10} - 1 = 0,9\% \qquad (8.11)$$

Agar inflyatsiya indeksi nominal foiz stavkasidan yuqori bo'lsa, masalan, foiz stavkasi 20 %, inflyatsiya indeksi 22 %ga bo'lsa, u holda

$$FS_{real} = 20\ \% - 22\ \% = -2\%$$

Bu holatda joylashtirilgan mablag' qiymati inflyatsiya ta'sirida 2 foizga kamayadi. Bundan kelib chiqadiki, joriy davrda (bugun) olingan aniq qiymatlik (1 so'm) kelajakda olinadigan qiymatlikdan yuqoridir. Xorijiy mamlakatlarda investitsiyalarning samaradorligini baholash bo'yicha yagona uslubiyot mavjud emas. Har bir korporatsiya mavjud va to'plangan tajribalar, moliyaviy resurslarning mavjudligi kabilardan kelib chiqib, o'zlarining yondashuvini yoki uslubiyotini ishlab chiqadilar.

Investitsiyalash oddiy va murakkab foizlarda amalga oshiriladi. Agar investitsiyalangan kapital har yili boshlang'ich investitsiyalangan kapitaldan (PV) talab qilingan daromadlilik me'yori r ga teng PVr natija bilan ko'paysa, bunda investitsiyalar oddiy foizlarda amalga oshirilgan bo'ladi. Bu holda investitsiyalangan kapitalning miqdori n yildan so'ng quyidagiga teng bo'ladi:

$$FV_n^{pr} = PV + PV_r + \ldots + PV_r = PV\,(1+nr) \qquad (8.11)$$

[1] Непитой А.С. Инвестиции: Учебник. – 4-е изд. М.: «Дашков и К°», 2006. С. 127.
[2] Ўша манба.

Agar navbatdagi yillik daromad investitsiyalangan kapitalning boshlang'ich summasidan emas, balki investor tomonidan investitsiyalangan kapitalga ilgari hisoblangan, lekin talab qilinmagan foizlarni qamrab olgan umumiy summadan hisoblansa, bu holda investitsiyalar murakkab foizlarda amalga oshirilgan bo'ladi. Bunda investitsiyalangan kapital miqdori quyidagiga teng bo'ladi:

– birinchi yil oxirida

$$FV_1 = PV + PVr = PV\ (1+r)$$

– ikkinchi yil oxirida

$$FV_2 = FV_1 + FV_1r = FV_1\ (1+r) = PV\ (1+r)^2$$

– n – yil oxirida

$$FV_n = PV\ (1+r)^n \qquad (8.12)$$

Investitsiyalarning murakkab foizda amalga oshirilishi uning oddiy foizda amalga oshirilganligiga qaraganda foydaliroqdir. Buni quyidagi tengsizlik isbotlab beradi:

$$(1+r)^n > 1 + nr, \text{ ya'ni } n > 1 \text{ bo'lganda } FV_n^{pr} > FV_n \qquad (8.13)$$

Murakkab foiz qo'llanilganda daromad olib keluvchi kapital doimo o'sib boradi, bu investorning (pul tikkan shaxsning) mablag'larini investitsiyalangan joyda qoldirishdan manfaatdorligini oshiradi.

$(1+r)^n$ belgisi foizlarni o'stiruvchi omil, deb nomlanadi. Foizlarni o'stiruvchi omil pul birligining (so'm, AQSh dollari, yevro va boshq.) ma'lum davrdan so'ng belgilangan foiz stavkasida qanchaga teng bo'lishini ko'rsatadi.

Bank amaliyotida qisqa muddatli ssudalar (bir yilgacha) bo'yicha oddiy foizlar qo'llanilganda n ko'rsatkich sifatida yil ichidagi davrlar (kun, oy, chorak, yarim yillik) olinadi. Masalan, 4 mln so'm miqdorida yillik 10 foiz bilan 1 oyga ssuda berildi, deylik. Bunda qaytarish zarur bo'lgan to'lovlar miqdorini yuqoridagi formula (8.11) asosida aniqlaymiz:

$$FV_n = 4\ [1 + (30 / 360) \times (10 / 100)] = 4{,}03 \text{ mln so'm.}$$

Investor uchun, odatda, qaror qabul qilishning asosiy mezoni bo'lib, nafaqat, investitsiyalarning foydaliligi, shuningdek, o'z

mablag'ining muayyan foiz stavkasida qanchalik tez qaytishi ham hisoblanadi. Shuning uchun investorlar qo'ygan mablag'ining qancha yillik foiz bilan necha yilda qaytarib olish imkoni mavjudligiga ko'proq qiziqadilar. Aks holda ular loyihani investitsiyalashni qat'iy rad etadilar. Masalan, agar biz bankka yillik 10 % daromad stavkasi ostida 100 so'm pul qo'ysak, u holda bir yildan so'ng kiritilgan summa (FV – kelgusi qiymat) FV_1 = 100 + 100 x 0,10 = 110 yoki 100 x (1 + 0,10) = 110 so'mni tashkil etadi. Agar bankdagi pul qaytarib olinmasa, ikkinchi yilda yakuniy summa quyidagini tashkil qiladi.

$FV_2 = (100x(1+0,10) \text{ x } (1+0,10)) = 100 \text{ x } (1+0,10)^2 = 100 \text{ x } 1,21 = 121$ so'm.

Investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy baholash mablag'larni real aktivlar bilan operatsiyalarga kiritishning mumkin bo'lgan variantlarini tanlash va asoslash jarayonida markaziy o'rinni egallaydi. Loyihaning boshqa barcha ijobiy tavsiflarida quyidagi talablar ta'minlanmagan bo'lsa, u hech qachon amalga oshirishga qabul qilinmaydi:

– tovar va xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar hisobiga qo'yilgan mablag'larning qoplanishi;

– firma xohlagan darajadan past bo'lmagan investitsiyalar rentabelligini ta'minlovchi foydaning ko'rilishi;

– firma uchun muvofiq bo'lgan davrda investitsiyalarning qoplanishi.

Investitsiya operatsiyalarining bunday natijalariga erishishning realligini aniqlash har qanday loyihaning moliyaviy-iqtisodiy ko'rinishlarini baholashning asosiy vazifasi hisoblanadi. Baholash bir qancha omillar va ta'sirlarga bog'liq holda vujudga keluvchi birmuncha murakkab masala hisoblanadi. Birinchidan, investitsiya xarajatlari uzoq davr (bir necha yil) ichida bir marta yoxud bir martadan ortiq amalga oshiriladi; ikkinchidan, investitsiya loyihalarini amalga oshirishdan natijalar olish jarayoni ham uzoq (barcha holatlarda bir yildan yuqori) bo'ladi; uchinchidan, operatsiyalarning uzoq davr amalga oshirilishi investitsiyalarning barcha jihatlarini baholashda noaniqlikning o'sishiga va xatolikning yo'l qo'yilishiga olib keladi.

Ushbu omillarning mavjudligi yo'qotishning mumkin bo'lgan minimum darajasi bilan asoslangan qarorlarni qabul qilishga

imkon beruvchi investitsiya loyihalarini baholashning maxsus usullarini ishlab chiqish zarurligini vujudga keltiradi.

Diskontlash usuli pul mablag'larining qiymati muayyan vaqtda bir xil emasligi, ya'ni bugungi bir so'm bir yildan keyingi bir so'mga teng emasligi bois paydo bo'ldi. Bunday munosabatga sabab, garchi inflyatsiya to'g'risidagi fikr, birinchi navbatda, tug'ilsa ham, inflyatsiya hisoblanmaydi. Bunga birmuncha fundamental sabab bo'lib, olingan daromad hisobida bir yildan so'ng katta summaga o'sishini ta'minlashga qodir tijorat operatsiyalariga kiritilgan (bankdagi depozitni ham hisobga olgan holda) pul hisoblanadi. Bu haqiqat moliyaviy operatsiyalar aksiomasi hisoblanadi va investitsiya loyihalarini tahlil qilish va iqtisodiy asoslashning butun mexanizmini nazarda tutadi.

Pul oqimlarini diskontlash kelgusidagi pul mablag'lari qiymatini joriy vaqtga keltirishni anglatadi. Diskontlash murakkab (oddiy) foizlarning teskari hisoblanish jarayoni hisoblanadi. Bunda murakkab foizlar foiz stavkalarining hisoblanishi yordamida kreditning boshlang'ich summasining joriy davrdan kelgusi davrga o'sib borishini ta'minlaydi, diskontlashda kelgusi pul mablag'lari joriy vaqtga keltiriladi (8.1-rasm).

Joriy	Jarayon	Kelgusi
Chiquvchi summa foiz stavkasi	O'sishi →	Qaytuvchi summa
Keltirilgan summa	← Diskontlashtirish	Qaytuvchi summa Diskont stavkasi

8.1-rasm. **O'sish va diskontlash jarayonining mohiyati**

Uzoq muddatli moliyaviy operatsiyalarda diskontlash koeffitsiyenti qo'llaniladi. Ushbu koeffitsiyent kelgusi pul qiymatining zamonaviy (bugungi) qiymatini aniqlash imkonini beradi va uni quyidagi tenglik bilan ifodalash mumkin[1]:

$$v = \frac{1}{(1+r)^n} \qquad (8.14)$$

bu yerda: **v** – diskontlash koeffitsiyenti; **r** – foiz stavkasi (daromadlilik stavkasi); **n** – davr (pul mablag'larining ishlatilish davri yoki yillar soni).

[1] Чернов В.А. Инвестиционная стратегия: Учеб. пос. М.: «ЮНИТИ-ДАНА», 2003. С. 29.

Pul mablag'larining zamonaviy qiymati qanchalik past bo'lsa, foyda me'yori shunchalik yuqori va daromadni olish muddati uzoqroq bo'ladi. Masalan, 100 ming so'mning zamonaviy qiymati uning 3 foizlik daromad me'yori va 5 yillik daromad olishdagi o'sish sharoitida – 86,26 ming so'mni, 5 foizli daromad me'yori va 5 yil muddatda – 78, 35 ming so'mni, 5 foizli daromad me'yori va 20 yillik muddatda – 37,69 ming so'mni tashkil qiladi.

Diskontlash koeffitsiyenti miqdor ko'rsatkichi har doim birdan kichik bo'ladi. Masalan, 3 foizli daromad me'yori va investitsiyalarni ekspluatatsiya qilish muddati 10 yilga teng bo'lganda: 1 so'mning kelgusi qiymati $(1 + 0,03)^{10}$ yoki 1,343992 ga teng bo'ladi, diskontlash koeffitsiyenti $1 / (1 + 0,03)^{10}$ yoki 0,74409 teng bo'ladi. Demak, 10 yil muddatdan so'ng 1 ming so'm olish uchun hozirgi kunda taxminan 0,75 ming so'mga ega bo'lish kifoya qilinadi.

Bundan kelib chiqadiki, kelgusi pul tushumlarining (FV) zamonaviy qiymati (PV) quyidagicha ifodalanadi:

$$PV = FV_v \qquad (8.15)$$

Masalan, korxona 9 yilga kapital qo'yishning birmuncha daromadli shaklini tanlashi lozim. Ushbu korxona bozorda 40 ming so'mga avtomobil sotishi mumkin va sotishdan olingan ushbu mablag'ni bankka omonat sifatida yillik 15 foiz stavkada murakkab foizlar ko'rinishida qo'yishi mumkin. Avtomobilni ekspluatatsiya qilishda 9 yildan so'ng uning qoldiq qiymati 10 ming so'mni tashkil qildi. Avtomobildan foydalanishdan keladigan yillik daromad o'rtacha 12 ming so'mni tashkil qiladi.

Ushbu masalani yechish uchun korxona 9 yildan so'ng avtomobilni ekspluatatsiya qilishdan olishi lozim bo'lgan sof pul oqimini aniqlash lozim. Bu avtomobilning qoldiq qiymati va avtomobil ekspluatatsiyasi davrida olinadigan yillik daromadlar yig'indisiga teng bo'ladi:

$$FV = 12 \times 9 + 10 = 118 \text{ ming so'm.}$$

Olingan miqdor avtomobilni ekspluatatsiya qilishda investitsiyalarni amalga oshirish natijasining kelgusi pul qiymatiga teng bo'ladi.

Yillik 15 foiz stavka bilan bankka qo'yilgan summaning kelgusi qiymatini (daromadni) aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$FV_n = PV\,(1+r)^n \qquad (8.16)$$

bu yerda: **PV** – qo'yilgan mablag' (kelgusi miqdorning zamonaviy qiymati); **r** – bank foiz stavkasi.

$$r = 15 / 100 = 0{,}15$$

$$FV_n = 40\,(1 + 0{,}15)^9 = 141 \text{ ming so'm.}$$

Hisob-kitoblardan ko'rinadiki, ushbu korxonada avtomobil ekspluatatsiyasi mablag'ni yillik 15 foiz bilan bankka joylashtirishdan keladigan daromadga qaraganda kamroq daromad olib keladi. Shu bois korxona uchun avtomobilni sotib, sotishdan tushgan mablag'ni bank depozitiga joylashtirishi foydaliroqdir.

Rejalashtirilgan daromadlarni olish uchun boshlang'ich investitsiyalar hajmini aniqlashda diskontlashtirish jarayoni qo'llaniladi, ya'ni diskontlashning ikkinchi ko'rinishi bo'lib, pul qiymatining teskari hisoblanishi, ya'ni kelgusida muayyan summani olish uchun bugun qancha investitsiyalash lozimligini aniqlash hisoblanadi.

Bugun investitsiya qilingan mablag'larning kelgusi qiymatini hisoblash jarayoni diskontlash deb nomlanuvchi moliyaviy hisoblanishlarning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Bunday yondashishning iqtisodiy mantig'i xuddi kelgusida muayyan katta miqdordagi summani olish imkoniyatiga ega bo'lish uchun bugun biz to'lashga tayyor bo'lgan shunday summani topishga urinish kabi tushuntirilishi mumkin.

Masalan, korxona 7 yildan so'ng 10 foizli daromad me'yorida 35 ming so'mga ega bo'lish uchun bugun qancha mablag'larni investitsiyalashi lozimligini aniqlashi zarur. Bu vazifani yechish uchun kelgusi qiymatning zamonaviy miqdorini hisoblash lozim bo'ladi, ya'ni:

$$PV = FV_v = FV\,\frac{1}{(1+r)^n} = \frac{FV}{(1+r)^n} = \frac{35}{(1+0{,}1)^7} = 17{,}961 \text{ ming so'm}$$

bu yerda: **FV** – investitsiyalarning kelgusi qiymati; **r** – investitsiyalarning daromadlilik me'yori; **n** – yillar soni.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, investitsiyalash uchun 17,961 ming so‘m zarur bo‘ladi.

Masalan, korxona avtomobil ekspluatatsiyasidan 8 yil davomida yiliga 14 ming so‘m daromad olishi mumkin. Korxona pulni 8 yilga yillik 20 foizli daromad bilan bankka qo‘yganida mashinani ekspluatatsiya qilish natijasidagidan kam bo‘lmagan miqdorda daromadga ega bo‘lish uchun avtomobilni sotishdan oladigan minimal summasi qanchani tashkil etishi lozim bo‘ladi. Avtomobilning qoldiq qiymati 8 yildan so‘ng 10 ming so‘mga teng bo‘ladi. Ushbu vazifani yechish uchun korxona avtomobilni ekspluatatsiya qilish natijasida 8 yildan so‘ng olishi lozim bo‘lgan sof pul oqimini aniqlash lozim bo‘ladi. Bu avtomobilning qoldiq qiymati va avtomobil ekspluatatsiyasi davrida olinadigan yillik daromadga teng bo‘ladi:

$$FV = 8 \times 14 + 10 = 122 \text{ ming so‘m.}$$

Olingan miqdor avtomobilni ekspluatatsiya qilishda investitsiyalarni amalga oshirish natijasining kelgusi pul qiymatiga teng bo‘ladi.

Olingan mablag‘larni bankka yillik 20 foizli stavka bilan joylashtirish uchun avtomashinani sotishning minimal bahosini aniqlash maqsadida 20 foizli daromad stavkada mashinadan foydalanishdan olinishi ko‘zda tutilgan tushumlarning zamonaviy (hozirgi) qiymatini topishga to‘g‘ri keladi:

$$PV = \frac{FV}{(1+r)^n} = \frac{122}{(1+0,2)^8} = 28,373 \text{ ming so‘m}$$

$r = 20/100 = 0,2$,

bu yerda: r – bank foiz stavkasi (o‘lchov ulushi); n – bankka mablag‘ qo‘yilgan holatda pulli summada daromadlar keltiruvchi yillar soni (hisob-kitob davrlari).

Yuqorida keltirilgan sharoitda bankka mablag‘larni joylashtirishdan avtomobilni ekspluatatsiya qilishdagidan kam bo‘lmagan miqdorda daromadga ega bo‘lish uchun korxona avtomobilni 28,373 ming so‘mdan kam bo‘lmagan bahoda sotishi lozim bo‘ladi.

Moliyaviy bitimning oddiy turini ko‘rib chiqamiz – muayyan PV summaning muayyan t vaqtdan keyin FV summa bilan

qaytishi sharti bilan bir martalik qarzga berilishini ko‘rib chiqamiz. Shu kabi bitim samaradorligi ikki miqdorning biri bilan tavsiflanishi mumkin:

– kelgusi pul tushumlari FVning qo‘yilmalarning dastlabki summasi PVga nisbatan o‘sishi darajasi bilan:

$$r(t) = \frac{(FV - PV)}{PV} \qquad (8.17)$$

– qo‘yilmalarning dastlabki summasi PVga nisbatan kelgusi pul tushumlari FVning pasayishi darajasi bilan:

$$d(t) = \frac{(FV - PV)}{FV} \qquad (8.18)$$

Moliyaviy hisoblardagi birinchi ko‘rsatkich yana quyidagi nomlar bilan ataladi: foiz o‘sishi, foiz stavkasi, daromadlilik me’yori, ikkinchisi – diskont, diskontlash stavkasi, diskontlash koeffitsiyenti. Shunisi ravshanki, ikkala stavka o‘zaro bog‘liqlikka ega, ya’ni:

$$r(t) = \frac{d(t)}{[1-d(t)]} \quad \text{yoki} \quad d(t) = \frac{r(t)}{[1+ r(t)]} \qquad (8.19)$$

Ikkala ko‘rsatkich ham foizlarda yoki o‘lchov ulushida aks ettirilishi mumkin. Mazkur formulalardagi farq taqqoslash bazasi uchun qanday miqdor olinishida namoyon bo‘ladi: (8.17) formulada boshlang‘ich summa, (8.18) formulada qaytuvchi summa.

Ayrim iqtisodiy adabiyotlarda diskontlash stavkasi d(t) va diskontlanadan ko‘paytma v ni bir xil – diskontlash koeffitsiyenti deb nomlashadi. Diskontlash stavkasi (diskontlash koeffitsiyenti) d(t) va diskontlanadan ko‘paytma (diskontlash koeffitsiyenti) v o‘rtasidagi farq shu bilan izohlanadiki, kelgusi (qaytuvchi) qiymat FVning diskontlash stavkasi d(t) ga ko‘paytmasi kelgusi pul tushumlari FVning hisob-kitobda zamonaviy (dastlabki) summa PVga kamayishidagi pul miqdoriga teng, ya’ni:

$$FV_{d(t)} = FV - PV \qquad (8.20)$$

FV_y ni hisoblab topish kelgusi pul tushumi FVning zamonaviy qiymati PV ni beradi, ya'ni:

$$FV_y = PV \tag{8.21}$$

Diskontlash koeffitsiyenti qo'yilmalar bo'yicha yoki qimmatli qog'ozlari bilan operatsiyalarda davlat banki tomonidan ta'minlanadigan moliyaviy investitsiyalar rentabelligining kafolatlangan yoki xavfsiz, deb nomlanuvchi darajasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. U investor tomonidan o'rnatilgan foiz stavkasiga yoki u tomonidan investitsiyalangan kapital bo'yicha olishni rejalashtirilgan daromadga teng bo'lishi mumkin.

Daromad me'yori formulasi (8.17) ushbu operatsiya yakuni bo'yicha investor nazarda tutgan summani aniqlab beradi. Amaliyotda bu ko'rsatkich, aksariyat hollarda, kapital kiritilgan biznes turi bilan bog'liq risk darajasiga bog'liq bo'ladi. Odatda, biznes qanchalik riskli hisoblansa, daromad me'yori darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Davlat qimmatli qog'ozlariga yoki davlat bankiga yo'naltirilgan qo'yilmalar past riskli hisoblanadi, biroq, bunda daromad me'yori nisbatan past bo'ladi.

Yuqoridagi formula (8.17)dan foydalangan holda to'lov qaytishining ko'zda tutilgan summasini hisoblab topish mumkin:

$$FV = PV + PV\ r(t) = PV[1 + r(t)] \tag{8.22}$$

Investitsiya loyihasini tahlil etish nazariyasi umumiy holatda ishonchli va obyektiv xulosaga olib keluvchi analitik usullar va ko'rsatkichlarning muayyan tizimidan foydalanishni ko'zda tutadi. Ko'p hollarda, investitsiya loyihalarini baholashda ikki guruhga umumlashtiriluvchi oltita usuldan foydalaniladi:

– birinchi guruh – bu diskontlash konsepsiyasini qo'llashga asoslangan usullar, ya'ni sof joriy qiymat usuli, foydaning ichki me'yori usuli, investitsiyalarning rentabelligi usuli va diskontlangan qoplash muddati usuli;

– ikkinchi guruh – bu diskontlash konsepsiyasini qo'llashni nazarda tutmaydigan baholash usullari: qoplash muddatini hisoblash usuli va investitsiyalarning buxgalteriya rentabelligini aniqlash usuli.

Odatda, investitsiya loyihalarining amalga oshirilishiga ularning jalb etuvchanlik xususiyati sabab bo'ladi. Loyihalarning bunday xususiyati, ko'proq, ularning yuqori foyda yoki samara keltirishiga asoslanadi. Shuningdek, investitsiya loyihasining jalb etuvchanligi loyihani amalga oshirish bo'yicha risklarning mavjud emasligi yoki ularga barham berilganligi, loyihaning yuqori foydani ta'minlash imkoniyati va uning ishonchliligi hamda hayotiyligi kabi jihatlari bilan ham belgilanadi.

Loyihaning jalb etuvchanligini baholash usullari uning barcha xususiyatlarini ochib bera olmasa ham, baribir, eng asosiysi, loyihaning haqiqiy samaradorligini aniqlashda asosiy xizmat vazifasini o'taydi.

Loyiha bo'yicha mavjud risklarning yo'qotilishi investor boyliklarini sug'urtalash, mulkni garovga qo'yish yoki kafolatlar berish, kerakli huquqiy ta'minotning mustahkamligi kabi masalalarning hal etilishi bilan ta'minlanganligini loyiha samaradorligini baholash usullarida hisobga olib bo'lmasa-da, lekin ma'lum darajada risk va inflyatsiya, soliq va foiz stavkalari ta'sirini oldindan mumkin qadar hisobga olish imkoniga ham ega.

Loyihaning jalb etuvchanligini baholash usullarining har biri o'ziga xos yetarlicha kamchiliklarga ega bo'lsa-da, biroq, loyihaning samaradorligini, uning jalb etuvchanligini aniqlashda birbirini to'ldiruvchi vazifani o'tashi bilan uni amalga oshirishning maqsadga muvofiqligini aniqlashda umumiy va to'liq ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Barcha usullar investitsiya loyihalarining absolut jalb etuvchanligini aniqlash usullari sifatida ko'rib chiqiladi.

Investitsiyalarning absolut jalb etuvchanligi to'g'risida fikr yuritganimizda biz kompaniyaning boshqa investitsiyalash imkoniyatlari amalga oshirilishi chegaralanmagan va ajratilgan holatdagi loyiha sifatiga qarab, har qanday loyihani ko'rib chiqishi kerakligini nazarda tutamiz. Biroq, real hayotda taqdim etiladigan ko'pchilik investitsiya loyihalari ziddiyatli va qarama-qarshi hisoblanadi, ya'ni firmaning bir va boshqa maqsadiga erishishning turli xil yo'llari nazarda tutiladi. Ayrim hollarda, masala faqat investitsiyalarning nisbiy jalb etuvchanligi to'g'risida borishi mumkin. Bundan tashqari, tahlil etilgan investitsiya loyihalari bilan

bog'liq bo'ladigan harakatlar va natijalarni ham nazarga olmoq zarur bo'ladi.

Jahon amaliyotida investitsiya loyihalarini baholashning diskontlashga asoslangan usullaridan foydalanish 80–90-yillardan boshlab keng qo'llanilgan va o'zining ijobiy natijalarini bergan. Ushbu usullardan, asosan, bank ekspertlari keng foydalanishgan. Masalan, YETTB bu usullar yordamida loyihalarni baholashning o'z versiyalarini ishlab chiqqan. Shuningdek, Jahon banki, XVF va boshqa ko'plab nufuzli xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan ham o'z yo'nalishi va xususiyatiga ega bo'lgan baholash uslubiyoti ishlab chiqilgan. Hozirda mamlakatimizda ham ushbu usullardan, asosan, tijorat banklarida foydalanish keng yo'lga qo'yilgan va qo'yilmoqda. Masalan, TIFMB, Asakabank, Agrobank, Ipak-yo'li banklarida investitsiya loyihalarini baholashda ulardan samarali foydalanilmoqda. Bunda, ayniqsa, diskontlash usullarini UNIDO dasturi asosida tuzilgan kompyuter versiyalari orqali qo'llash bilan aniq va to'g'ri qarorlar qabul qilishga erishilmoqda.

Pul mablag'larini (investitsiya loyihalari bo'yicha pul oqimlarini) diskontlashga asoslangan baholash usullaridan biri investitsiyalarning sof joriy qiymatini aniqlash usuli hisoblanadi (NPV). Ayrim zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda bu usul sof keltirilgan qiymat, sof diskontlangan daromad yoki sof zamonaviy qiymat, deb ham ataladi. Biroq, ularning barchasi bir ma'no va mazmunga ega. Bu usul ikkita xususiyatdan, ya'ni:

– har qanday firma o'z boyligini (qiymatini) maksimallashtirishga intilishidan;

– turli xil vaqtdagi xarajatlar bir xil qiymatga ega bo'lmasligidan kelib chiqadi.

Kapital qo'yilmalarning sof keltirilgan qiymati (NPV) diskontlashtirilgan sof pul xarajatlari va tushumlarining yig'indisi sifatida hisoblanadi. Ijobiy NPV investitsiya loyihasidan qaytim diskontlashtirishning ma'lum bir stavkasidan yuqori ekanligini ko'rsatadi. NPVning kamchiligi diskontlashtirish stavkasini hisoblashning shartligi bilan belgilanadi. Investorga boshqa loyihadan ko'ra shu loyihaga mablag'larni qo'yishi foydali hisoblanadi. Bunda NPVning o'lchami diskontlashtirish stavkasining uncha katta bo'lmagan o'zgarishiga ta'sirchan bo'ladi. NPVning

hisoblanishi ma'lum darajada ishlab chiqarishni innovatsion yangilash, investitsiya loyihasi mumkinligini baholashga mo'ljal bo'lib xizmat qiladi[1].

Sof joriy qiymat – investitsiyalash obyektidan foydalanish davrida oldindan qat'iy belgilangan va o'zgarmas foiz stavkasi (me'yori)da olinadigan daromadlar va qilinadigan xarajatlarning alohida muayyan davrdagi barcha kirim va chiqimlarining diskontlashtirilishi yo'li bilan olingan va ular o'rtasidagi farqni ifodalovchi qiymatdir. Uning mohiyati shundaki, yillik sof pul oqimi miqdori har bir davr uchun loyihani amalga oshirishning boshlang'ich yiliga keltiriladi va u, oqibatda, o'zini pul miqdorida sof joriy qiymat yoki sof diskonlashtirilgan daromad (diskontlashtirilgan daromad va xarajatlar o'rtasidagi farq) sifatida namoyon etadi. Shuning uchun ham sof joriy qiymat muayyan vaqt oralig'i bo'yicha xarajatlar va daromadlarning farqlanishi bilan izohlanadi. Shundan kelib chiqib, investitsiyalarning muqobil variantlarini to'g'ri baholash uchun pulning o'z vaqtidagi qiymati hisobga olinishi qat'iy talab etiladi. Bunda har bir investitsiya qiluvchi subyekt shuni nazarda tutish kerakki, pul mablag'larining tushumi vaqt bo'yicha taqsimlangan bo'ladi, shuning uchun pul mablag'lari k – koeffitsiyent yordamida diskontlanadi, ana shu koeffitsiyent (stavka) investor tomonidan qilingan xarajat uchun to'lanadigan summa (foiz) hisoblanadi.

Sof joriy qiymatni hisoblash firmaning investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonining asosi hisoblanadi[2]. Uni hisoblash quyidagicha: eng avvalo, kerakli diskontlash stavkasi tanlab olinadi, so'ngra loyihadan kutilayotgan daromadlarning joriy qiymati va ushbu loyiha uchun talab etilayotgan investitsiyalarning joriy qiymati hisoblab chiqiladi, keyin barcha daromadlarning sof joriy qiymatidan barcha investitsiyalarning sof joriy qiymati ayirib tashlanadi. Olingan farq, natija sof joriy qiymat hisoblanadi. Bu usul ekvivalent kelgusi daromadlarning joriy qiymatini aniqlash uchun diskontlashning loyiq topilgan stavkasini aniqlashga imkon beradi. Agar tahlil qilinayotgan investitsiya loyihasining diskontlash stavkasi kapital uchun foizdan katta bo'lsa, demak, sof joriy

[1] Vaxobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. T.: «Noshir», 2011. – B. 269.

[2] Роберт С. Пиндайк, Дэниел Л. Рубинфельд. Микроэкономика. Калифорнийский Университет, Беркли, пер. с англ. М.: «Дело», 2001. С. 605-610.

qiymat noldan katta bo'ladi (ijobiy) va bunda loyiha samarali, deb baholanadi. Agar bu stavka kapital uchun foizdan kichik bo'lsa, u holda loyiha samarasiz, deb topiladi va sof joriy qiymat nolga teng yoki undan kichik bo'ladi. Uni hisoblash formulasi quyidagicha:

$$NPV = \frac{CF_1}{(1+k)^1} + \frac{CF_2}{(1+k)^2} + \ldots + \frac{CF_t}{(1+k)^t} - I_0 = \sum_{t=1}^{n} \frac{CF_t}{(1+k)^t} - I_0 \qquad (8.23)$$

bu yerda: **NPV** – sof joriy qiymat; **k** – diskontlash stavkasi; $\mathbf{I_0}$ – boshlang'ich investitsiya; $\mathbf{CF_t}$ – t davr oxirida kelib tushgan pul oqimi (tushumi).

Diskont stavkasi me'yori kapital bozoridagi uzoq muddatli ssudalar bo'yicha foiz stavkasiga yoki ssuda oluvchi tomonidan to'lanadigan foiz stavkasiga, haqiqatda, teng bo'lishi kerak. Boshqacha ifodalaganda, diskont me'yori investorning o'zi uchun undan pasti (kichigi) samarasiz, deb hisoblagan minimal foyda me'yori bo'lishi kerak. Bu ko'rsatkich investitsiyalar hayotiyligi davrida, haqiqatan ham, daromadlilikni hisoblashdagi qo'llanilgan darajaga yetishishligini ko'rsatib beradi. Shu sababli u vaqt va daromadlilik darajasiga bog'liq bo'ladi. U muqobil loyihalarni taqqoslashda katta rol o'ynaydi.

Investitsiya loyihalari bo'yicha daromadlarni (tushumlarni) yillar bo'yicha bashorat qilayotganda loyiha bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish hamda ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan tushumlarni imkoni boricha to'liq hisobga olish lozim. Agar loyihani amalga oshirish davri tugashi davomida aylanma mablag'larning bir qismining ishlatilishdan (oborotdan) holi bo'lishi (chiqarib olinishi) yoki asbob-uskunalarning tugatilish qiymati ko'rinishida mablag'lar tushumi rejalashtirilayotgan bo'lsa, u holda ular davrlar bo'yicha daromadlar ko'rinishida hisobga olinishi lozim. Agar investitsiya loyihasi yillar davomida moliyaviy resurslarning ketma-ket investitsiyalanishini talab etsa, u holda sof joriy qiymat usulini hisoblash quyidagicha bo'ladi:

$$NPV = \sum_{t=1} \frac{CF_{t(}}{(1+k)^t} - \sum_{t=1}^{n} \frac{I_t}{(1+k)^t} \qquad (8.24)$$

bu yerda: $\mathbf{I_t}$ – t davrdagi investitsiyalar sarfi.

Sof joriy qiymatni hisoblashda, odatda, doimiy stavka qo'llaniladi. Ammo ba'zi-bir vaziyatlarda, masalan, hisob (foiz)

stavkasining o'zgarishi kutilayotgan paytda yillar bo'yicha individual diskontlash stavkasidan foydalanish lozim. Bu hol hisoblash ishlarini, ya'ni haqiqiy sof joriy qiymatni topishni birmuncha qiyinlashtiradi.

Investitsiya loyihasi samaradorligining sof joriy qiymat asosida hisoblanishi turli vaziyatlarda iqtisodiy ratsional qaror qabul qilish imkonini yaratadi. Shu sababli bu usul jahon amaliyotida keng tarqalgan.

Investitsiya loyihalarini sof joriy qiymat usuli asosida baholashdan olingan natija, ya'ni sof joriy qiymat ijobiy miqdorga ega bo'lsa (NPV>0), u holda investitsiyalarning rentabelligi diskont miqdoridan yuqori bo'ladi, NPV=0 holatda loyiha rentabelligi diskont stavkasiga (minimal qoplash me'yoriga) teng bo'ladi, agar NPV<0 bo'lsa, loyiha rentabelligi minimal miqdordan past bo'ladi. Birinchi ikki holatda investitsiya loyihasini amalga oshirish mumkin. Bunda birinchisi investor kapitalining o'sishi ta'minlanishini ko'rsatsa, ikkinchisi ko'paymasligini ham, kamaymasligini ham bildiradi. Uchinchi holatda investitsiya loyihasini amalga oshirishni rad etishga to'g'ri keladi. Sababi, bunday holat loyihadan kutiladigan daromad, natijani olish imkonini bermaydi.

Investitsiya loyihasini amalga oshirish bo'yicha qaror qabul qilishda muqobil loyihalarning samaradorligiga ham e'tiborni qaratish lozim bo'ladi. Buning uchun investitsiyalarning muqobil variantlari taqqoslama baholanishi lozimdir.

Bundan tashqari, amaliyotda, ayrim hollarda, loyihalar bo'yicha ko'riladigan zararlarni (birinchi va ikkinchi yili muayyan zararlar ko'rilishi mumkin bo'lgan hollarda) diskontlash usuli ham mavjud bo'lib, u har qanday xarajatlarni yagona bir muddatga keltirishga o'xshagan bo'ladi:

$$NPV = -\frac{CF_1}{(1+k)} - \frac{CF_2}{(1+k)^2} + \frac{CF_3}{(1+k)^3} \ldots - I \qquad (8.25)$$

Umuman olganda, sof joriy qiymat usuli boshlang'ich investitsiya miqdorining, ya'ni investor boyligining qanchalik o'sishini miqdoriy jihatdangina ko'rsata oladi, xolos. Lekin investitsiyalashning naqadar samaradorligini aniqlashda miqdoriy o'zgarishlar va natijalarning o'zi yetarli hisoblanmaydi. Buning uchun investitsiyalarning qanday nisbiy o'sishga egaligini va uning darajasini

aniqlash uchun boshqa baholash usullaridan foydalanishga to‘g‘ri keladi.

Investitsiya loyihalarining samaradorligini diskontlashning foydaning ichki me’yori usuli (IRR) — bu pul tushumlarining diskont qiymati pul chiqimlarining diskont stavkasiga teng bo‘lgandagi daromadlilik darajasi. Boshqacha ifodalaganda, loyihadan olingan sof tushumlarning diskontlangan qiymati investitsiyalarning diskontlangan qiymatiga, sof joriy qiymat nolga teng bo‘lgandagi diskont me’yoridir. Ichki foyda me’yori loyiha NPVsi nolga teng bo‘lgandagi diskontlashtirish stavkasidan iborat. Har ikkala ko‘rsatkich ham bir necha ko‘p yildan so‘ng katta daromad keltiruvchi investitsiya loyihasi uchun bir xil ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Investor va kreditor uchun kutilayotgan daromadlarning muddatlar bo‘yicha taqsimlanishi muhim va shuning uchun ham agar daromadlar riskning vaqt bo‘yicha uzoqlashishiga muvofiq ravishda tez o‘sishi inobatga olinadigan bo‘lsa, bu omil yanada muhim hisoblanadi.

Bu ko‘rsatkichni aniqlash uchun sof joriy qiymatni aniqlashda ishlatilgan formuladan foydalaniladi va sof joriy qiymat nolga tenglashadigan minimal foiz stavkasi topiladi. Aynan shu foiz stavkasi foydaning ichki me’yori usuli deb nomlanadi. Bu usul iqtisodiy adabiyotlarda rentabellikning ichki me’yori, qoplash yoki samaradorlik koeffitsiyenti, kapital qo‘yilmalarning chegaraviy samaradorligi deb ham yuritiladi.

Foydaning ichki me’yori usuli sof joriy qiymat usuli kabi pul mablag‘larini diskontlash tamoyilidan foydalanishga asoslangan. U loyihadan kutiladigan daromadlarning sof joriy qiymati uni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan investitsiyalarning joriy qiymatiga teng bo‘lgandagi diskontlash stavkasi to‘g‘risida ma’lumot beradi va aynan mana shu qiymatdagi diskont stavkasi investitsiyalardan kutilayotgan foydaning ichki me’yorini anglatadi.

Iqtisodiy tabiatiga ko‘ra, foydaning ichki me’yoriga quyidagilarni yaqin tutish mumkin:

— banklar tomonidan o‘zining jamg‘arma hisob raqamlari bo‘yicha daromadlilikning haqiqiy yillik stavkasini;

— yil davomida bir martadan ortiq qarzlarni qoplash kuchidagi murakkab foiz sxemasi bo‘yicha hisoblangan bir yillik ssuda uchun haqiqiy foiz stavkasini.

Agar tahlil qilinayotgan loyiha bo'yicha diskontlash stavkasi kapital uchun foizdan yuqori bo'lsa, u holda sof joriy qiymat noldan katta va loyiha samarali bo'ladi. Agar bu stavka kapital uchun foizdan kichik bo'lsa, u holda loyiha samarasiz deb topiladi, uning sof joriy qiymati noldan kichik bo'ladi. Demak, diskontlash stavkasining shunday miqdorini topish kerakki, bunda sof joriy qiymat nolga teng bo'lsin. Aynan mana shu holatda yuqoridagi formuladagi k ko'rsatkich foydaning ichki me'yori IRR miqdorini ifodalaydi.

Foydaning ichki me'yorini aniqlash vazifasi birmuncha qiyin bo'lib, u investitsiyalarning bir yoki undan ko'p marta amalga oshirilishiga, loyihadan olingan pul tushumlarining, hech bo'lmasa, bir marta yoki boshida salbiy bo'lishligiga va ushbu pul tushumlarining miqdoran bir xil bo'lmasligiga asoslanadi. Uni hisoblash formulasini quyidagi tenglamada ifodalash mumkin:

$$NPV = \sum_{t=1}^{n} \frac{CF_t}{(1+k)^t} - I_0 = 0 \qquad (8.26)$$

Bu yerda k miqdorni topish lozim bo'ladi. Topilgan miqdor foydaning ichki me'yori deb nomlanadi. Bu me'yor sof joriy qiymat nolga teng bo'lib, investitsiya loyihasi firmaning boyligi o'sishini ta'minlamasligini va uning kamayishiga ham yo'l qo'ymasligini ko'rsatadi.

Foydaning ichki me'yori usulini aniqroq tushunib olish uchun uni quyidagi formulada keltiramiz:

$$y = f(k) = \sum_{t=1}^{n} \frac{CF_t}{(1 = IRR)^t} \qquad (8.27)$$

Bu yerda IRR o'rniga k miqdorni olsa ham bo'ladi.

Investitsiya loyihalari samaradorligini tahlil qilishda IRRni hisoblashning ahamiyati quyidagicha: IRR loyihadan kutilayotgan daromadlilikni ko'rsatadi va qilinishi mumkin bo'lgan maksimal xarajatlar chegarasini belgilab beradi, ya'ni IRR olinayotgan kredit bo'yicha bank foiz stavkasining yuqori chegarasini ko'rsatadi, ayni shu foiz chegarasidan yuqori miqdorga ega bo'linganda loyiha daromad keltiradi.

Shunday holatlar ham bo'lishi mumkinki, investorning o'zi investitsiya loyihasini moliyalash uchun biror subyektdan muayyan foiz ostida kredit olishi mumkin. Bu paytda loyihadan kutiladigan natija kredit uchun foizdan, albatta, yuqori bo'lishi lozim yoki investor o'zining maqsad qilgan foydasini olish darajasini ham biladi. Aynan mana shu ikki holat: ya'ni kredit uchun foiz yoki foyda olish darajasi, odatda, barerli (to'siqli) koeffitsiyent (HR), deb ham nomlanadi. Bu ko'rsatkich foydaning ichki me'yoridan tafovut qilishi shart. Bunda HR o'rtacha tortilgan kapital qiymati (kredit uchun foiz yoki kiritilgan kapital uchun qaytarilishi zarur bo'lgan minimum, foyda) sifatida ham qaraladi. Taqqoslash natijalariga asoslanib, menejer qaror qabul qiladi. IRR va HRlarni taqqoslash natijasida ular orasida quyidagi bog'liqlik hosil bo'ladi:

– agar IRR > HR – loyiha samarali hisoblanadi va u foydalanish uchun qabul qilinadi;

– agar IRR < HR – loyiha zararli bo'lib, uni amalga oshirib bo'lmaydi;

– agar IRR = HR – ixtiyoriy yechimni qabul qilish mumkin, ya'ni loyihani amalga oshirishdan zarar ham, foyda ham ko'rilmaydi.

Pul tushumlarining shakllanish sxemasi bir xil bo'lgan hollarda loyihalarni foydalilik darajasi bo'yicha taqqoslash to'g'ri yechim qabul qilishni yengillashtiradi. Bu ko'rsatkich qanchalik yuqori bo'lsa, loyiha shunchalik yaxshi, deb topiladi.

Odatda, sof joriy qiymat ko'rsatkichi ijobiy miqdorga ega bo'lsa va loyihani amalga oshirishdan olingan natija investitsiya qilingan kapitalning o'sishiga olib kelsa, bunday investitsiya loyihasi amalga oshirilish uchun qabul qilinadi. Agar investitsiyalar faqat jalb qilingan mablag'lar evaziga amalga oshirilsa va bunda foydaning ichki me'yori kreditdan foydalanganlik uchun to'lanadigan foiz stavkasiga teng bo'lsa, u holda olingan daromad qo'yilgan mablag'larni qoplaydi, lekin, investor foyda olmaydi. Agar foydaning ichki me'yori va foiz stavkasi o'rtasidagi farq ijobiy bo'lsa va foydaning ichki me'yori foiz stavkasidan yuqori bo'lsa, u holda investitsiya faoliyati samarali, deb tan olinadi va aksincha, agar foydaning ichki me'yori olingan kredit bo'yicha foiz stavkasidan kichik bo'lsa, u holda investitsiyalar samarasiz

hisoblanadi. Investitsiya loyihalari kapitalni muqobil variantlar bo'yicha foydalanishdagi daromadlilik darajasidan kichik bo'lmagan foydaning ichki me'yoriga ega bo'lganda, u amalga oshirishga qabul qilinadi. Bunda foydaning ichki me'yori va foiz stavkasi taqqoslanishi yo'li bilan investitsiya faoliyatining foydaliligi yoki samarasiz ekanligi aniqlanadi.

Bundan kelib chiqadiki, agar investor jalb qilingan kredit mablag'larini foydaning ichki me'yoriga teng foiz ostida va uni muayyan muddatga investitsiya loyihasiga joylashtirsa, u holda loyihani amalga oshirish yakunida investor olgan kredit summasini foizlari bilan to'liq qaytaradi va u qo'shimcha daromadga ega bo'lmaydi. Agar investor loyihaga o'z va qarz mablag'larini joylashtirsa va bunda uning o'rtacha olingan qiymati foydaning ichki me'yoriga teng bo'lsa, u holda hisobot davrining oxirida kredit va u bo'yicha foizlarni to'lagandan so'ng, kredit uchun o'rnatilgan foiz stavkasi miqdorida qo'shimcha daromadga ega bo'ladi. Va, nihoyat, agar investor loyihaga faqat o'z mablag'larini joylashtirsa, u holda muayyan davrdan so'ng investor bankga o'z mablag'larini qo'ygandagi foiz stavkasiga teng miqdordagi foydaning ichki me'yori darajasida daromad oladi. Shuning uchun investitsiya loyihasida foydaning ichki me'yori kapital qiymati bilan taqqoslanganda qanchalik yuqori bo'lsa, loyiha shunchalik jozibali va samarali hisoblanadi.

Ma'lumki, har bir investitsiya loyihasini amalga oshirishdan eng asosiy maqsad foyda olishdir. Umuman, jamiyatda bo'lib o'tadigan barcha moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar asosini foyda tashkil etadi. Shu sababli, ko'p hollarda, moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar foydaliligini bilish maqsadida rentabellik ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Umumiy holda, bu ko'rsatkich xo'jalik faoliyatidan olingan yoki kelib tushgan tushumni mahsulot tannarxiga bo'lish orqali hisoblab topiladi. Investitsiya rentabelligini baholash usuli ham mantiqan xuddi shunday aniqlanadi. Ammo, undan farqi shuki, bunda ma'lum foiz ostida diskontlangan pul tushumlari diskontlangan investitsiya xarajatlariga bo'linadi. Odatda, xarajatlar, ko'pincha, boshlang'ich investitsiya xarajatlaridan tashkil topadi.

Investitsiyalarning rentabelligi usuli (PI) diskontlashtirilgan daromadlarning diskontlashtirilgan investitsiya xarajatlariga nisba-

tini hisoblab topishga asoslangan. U qanday holatda investor boyligi o'sishi mumkinligini ko'rsatib beradi va quyidagicha aniqlanadi.

$$PI = \left[\sum_{t=1}^{n} \frac{CF_t}{(1+k)^t} \right] / I_0 \qquad (8.28)$$

bu yerda: I_0 – boshlang'ich investitsiyalar; CF – t davrda olingan pul tushumlari.

Investitsiya rentabelligi ko'rsatkichi firma (yoki investor) mablag'lari (boyligi) 1 so'm hisobida qanday hollarda o'sishini aniqlash imkonini beradi. Bu o'sish olingan yuqori daromad hisobiga ta'minlanadi.

Agar investitsiya sarflari turli davrlarda (uzoq) amalga oshirilsa, formula quyidagicha tus oladi:

$$PI = \left[\sum_{t=1}^{n} \frac{CF_t}{(1+k)^t} \right] / \left[\sum_{t=1}^{n} \frac{I_t}{(1+k)^t} \right] \qquad (8.29)$$

bu yerda: I_t – t yildagi investitsiyalar.

Yuqoridagi formuladan ko'rinib turibdiki, sof joriy qiymatning ikkita qismi o'zaro taqqoslanayapti (daromad va investitsiya qismi), agar muayyan diskont me'yorida rentabellik «1»ga (100 %) teng bo'lsa, u holda keltirilgan (diskontlangan) daromad keltirilgan xarajatga tengligi va sof joriy qiymat nolga tengligi kelib chiqadi.

Ushbu va sof joriy qiymat ko'rsatkichlarini taqqoslama baholash shuni ko'rsatadiki, sof joriy qiymat o'sishi bilan investitsiyalar rentabelligi ham o'sadi va aksincha. Agar rentabellik ko'rsatkichi «1»ga teng yoki undan kichik bo'lsa, loyiha rad etilishi kerak, chunki u qo'shimcha foyda keltirmaydi. NPV = 0 da foydalilik indeksi hamisha 1 ga teng bo'ladi.

Shuning uchun loyihani amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida qaror qabul qilishda ulardan ixtiyoriy birini qo'llash yetarli hisoblanadi, biroq, taqqoslama bahoda har ikkalasi ham ishlatiladi.

Oddiy bo'lib ko'rinishiga qaramasdan loyihalarning rentabelligini aniqlash muammosi muayyan qiyinchiliklar bilan ham bog'liqdir. Bu hol, ayniqsa, investitsiyalar turli xil valutada, turli

xil vaqtda (bir qancha yillar oralig'ida) amalga oshirilganda uni aniqlash muammosining paydo bo'lishida kuzatiladi.

Investitsiyalarning rentabellik ko'rsatkichi avvallari qo'llanilgan kapital qo'yilmalarning samaradorligi koeffitsiyentidan shunisi bilan farq qiladiki, bunda daromad sifatida baholash jarayonida joriy qiymatga keltirilgan pul oqimi qatnashadi. Investitsiyalar rentabelligi ko'rsatkichi, nafaqat, taqqoslama baholash uchun, shuningdek, loyihani amalga oshirishga qabul qilishdagi mezon sifatida ham qo'llaniladi.

Umuman, investitsiyaning rentabellik ko'rsatkichi natijasi yordamida loyiha bo'yicha quyidagicha xulosa qilish mumkin:

– agar PI > 1 bo'lsa, u holda investitsiya loyihasini amalga oshirish mumkin;

– agar PI < 1 bo'lsa, u holda investitsiya loyihasini amalga oshirishga qabul qilib bo'lmaydi;

– agar PI = 1 bo'lsa, u holda investitsiya loyihasi foyda ham, zarar ham keltirmaydi.

Investitsiya loyihalarining samaradorligini aniqlashning qoplash muddati usulini (an'anaviy baholash usulini) yuqorida ham ko'rib o'tgan edik. Qoplanish muddati ko'rsatkichi investitsiya loyihasidan olingan daromadlar boshlang'ich investitsiyalardan (birlamchi kapital qo'yilmalardan) oshgandagi yillar soniga qarab aniqlanadi. Hisoblashning ma'lum soddaligiga qaramasdan, bu ko'rsatkich investitsiya loyihasining riskligini puxta baholaydi hamda NPV va IRR bilan birgalikda investitsiyalarning optimal maqsadga muvofiqligini baholashga imkon beradi[1].

Lekin mazkur usulning kelgusi davrlardagi pul tushumlarining qiymatini hisobga olmasligi uni diskontlashtirilgan usullar yordamida ham hisoblash zarurligini taqozo qiladi.

Buning uchun diskontlashtirishni hisobga olgan holda investitsiyalarni qoplash muddatini (DPP) hisoblash ishi diskontlashgan yillik pul tushumlarini diskontlangan investitsiyalarga bo'lish orqali amalga oshiriladi.

Buning uchun, eng avvalo, PP – investitsiyalarni qoplash muddati quyidagi tenglik bajarilishi sharti asosida hisoblanadi:

[1] Vaxobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. T.: «Noshir». 2011. – B. 269-270.

$$\sum_{t=1}^{n} ACI(t) = I_0 \qquad (8.30)$$

bu yerda: $\mathbf{I_0}$ – boshlang'ich investitsiyalar; **ACI(t)** – t davrdagi pul tushumlari.

Endi investitsiyalarning diskontlashtirilgan qoplash muddatini (DPP) hisoblaymiz. U quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$DPP = \frac{I_0}{DCF^{(\Sigma)}} \qquad (8.31)$$

bu yerda: $\mathbf{I_0}$ – boshlang'ich investitsiyalar; $\mathbf{DCF^{(\Sigma)}}$ – diskontlashtirilgan yillik pul tushumlari.

Xulosa qilish mumkinki, investitsiyalarning diskontlashtirilgan qoplash muddati ularning diskontlashtirilmagan qoplash muddatiga qaraganda biroz uzoq vaqtni tashkil etdi.

Bu investitsiyalarning diskontlashtirilgan qoplash muddatining kelgusi pul tushumlari va investitsiyalarning joriy qiymatini hisobga olishi bilan izohlanadi. Demak, investitsiyalarning diskontlashtirilgan qoplash muddati bo'yicha hisoblash usuli qilingan investitsiyalarning joriy (real) qiymati bo'yicha to'liq qoplanish muddatini tavsiflab beradi va shu jihatdan u investitsiyalarning qoplash muddati usulidan farqli ravishda afzalroq hisoblanadi.

Shuni qayd etish joizki, investitsiyalarni diskontlashtirilgan qoplash muddati ko'rsatkichi ularning sof joriy qiymatda to'liq qoplanishining aniq davrini tavsiflab beradi. Kamchiligi qilingan investitsiya qoplangandan so'ng uning samaradorligini ko'rsatib bera olmaydi va uni loyihaning foydaliligini aniqlashda qo'llab bo'lmaydi.

Nazorat savollari

- «Samara» va «samaradorlik» tushunchalarini izohlab bering?
- Iqtisodiy o'sish samaradorligi, deganda nimani tushunasiz? U qanday aniqlanadi?
- Investitsiya loyihasini moliyaviy tahlil etishning zarurligi nimada va uning asosiy maqsadini tushuntirib bera olasizmi?

➢ Investitsiya loyihalari samaradorligini baholash uslubiyotidagi qanday o'zgarishlarni bilasiz va uning sababi nimalardan iborat, deb o'ylaysiz?

➢ UNIDO uslubiyoti bo'yicha investitsiya loyihasini moliyaviy tahlil etishning muhim jihatlarini sanab bering?

➢ Moliyaviy tahlilni o'tkazishning asosiy jihatlarini tushuntirib bera olasizmi?

➢ Loyihani moliyaviy baholash orqali qanday ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin?

➢ Loyihani amalga oshirishda investitsiya qarorlari qanday o'rin tutadi?

➢ Investitsiya qarorlarini qabul qilish nimalarga asoslanib amalga oshiriladi?

➢ Investitsiya qarorlari qabul qilish uchun qanday ma'lumotlarga ega bo'lish talab etiladi?

➢ Investitsiyalar samaradorligini an'anaviy baholash usullariga qanday usullar tegishli?

➢ Banklarda loyihalarni an'anaviy baholash usullaridan foydalanish holati qanday?

➢ Investitsiyalarni qoplash muddatining mohiyatini bilasizmi?

➢ Investitsiyalarni qoplash muddatini aniqlash formulasini bilasizmi?

➢ Investitsiyalarni qoplash muddatini aniqlashga nechta yondashuv mavjud?

➢ Investitsiyalarni qoplash muddati usulining afzalligi va kamchiligi nimalardan iborat?

➢ Investitsiyalarning buxgalteriya rentabelligi usulining ahamiyati nimada?

➢ Investitsiyalarning buxgalteriya rentabelligi qanday formula orqali hisoblanadi?

➢ Investitsiyalarning buxgalteriya rentabelligi usulining qanday afzalliklari mavjud?

➢ Pul oqimi deganda nimani tushunasiz?

➢ Pul oqimlari qanday tasniflanishi mumkin?

➢ Pul tushumlari va chiqimlari qanday guruhlarga bo'linadi?

➢ Loyihaning amalga oshirilishi uchun qanday talablar ta'minlangan bo'lishi lozim?

➢ Diskontlash tushunchasi nima?

➢ Diskontlash usulining paydo bo'lish sababini nimada, deb o'ylaysiz?

➢ Diskontlash koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

➢ Kelgusi qiymat deganda nimani tushunasiz?

➢ Joriy qiymat deganda nimani tushunasiz?

➢ Annuitet tushunchasi nimani anglatadi?

➢ Annuitetning kelgusi qiymati hisobini topish formulasi qanday ko'rinishga ega?

➢ Annuitetning joriy qiymati hisobini qanday formula orqali bajarish lozim?

➢ Investitsiyalarning samaradorligiga inflyatsiya indeksi qanday ta'sir ko'rsatadi.

➢ Real foiz stavkasi qanday aniqlanadi?

➢ Investitsiya loyihalarining jalb etuvchanligi deganda nimani tushunasiz?

➢ Investitsiya loyihalarini baholash usullari nechta guruhga ajratiladi?

➢ Investitsiyalarni diskontlash konsepsiyasi asosida baholashning qanday afzalliklari mavjud?

➢ Investitsiya loyihalarini an'anaviy baholash usullari yordamida baholashning pul mablag'larini diskontlash usulida baholashdan qanday farqli tomonlari mavjud?

➢ Investitsiya loyihalariga ularni baholash usullaridan to'liq foydalanmagan holda ishonchli baho berish mumkinmi?

➢ Sof joriy qiymat usulining ta'rifini aytib bering?

➢ Sof joriy qiymatni hisoblash formulasi qanday ko'rinishga ega?

➢ Sof joriy qiymatning o'zgarishi qanday miqdorga bog'liq?

➢ Investitsiya xarajatlari bir necha marta amalga oshirilganda sof joriy qiymatni aniqlash formulasi qanday ifodalanadi?

➢ Foydaning ichki me'yori qanday ko'rsatkich hisoblanadi?

➢ Foydaning ichki me'yorini aniqlash qanday amalga oshiriladi?

➢ Qanday sharoitlarda foydaning ichki me'yori ko'rsatkichi yordamida to'g'ri qaror qabul qilish mumkin bo'ladi?

➢ Foydaning ichki me'yori va foiz stavkasi o'rtasidagi munosabatga qarab, investitsiya loyihasi to'g'risida qanday qarorga kelish mumkin?

➢ Pul oqimini diskontlashga asoslangan baholashning investitsiyalar rentabelligi usuli qanday maqsadda qo'llaniladi?

➢ Investitsiyalar rentabelligini hisoblash formulasini bilasizmi?

➢ Investitsiyalar rentabelligini hisoblash ko'rsatkichi qanday xulosalarga olib keladi?

➢ Investitsiyalar rentabelligi ko'rsatkichi turli miqdorlarga ega bo'lishiga asoslanib loyiha bo'yicha qanday qarorlar qabul qilinadi?

➢ Investitsiyalarni amalga oshirishning turli davrlarga taalluqligi hollarida investitsiyalar rentabelligi formulasi qanday ko'rinish kasb etadi?

➢ Investitsiyalar rentabelligi va sof joriy qiymat ko'rsatkichlari o'rtasida qanday aloqadorlik mavjud?

➢ Diskontlashning qoplash muddati usulini hisoblash formulasi qanday ko'rinishga ega?

➢ Diskontlashning qoplash muddati usuli nima maqsadda qo'llaniladi?

➢ Diskontlashning qoplash muddati investitsiyalarni qoplash muddatidan nimasi bilan farq qiladi?

➢ Diskontlashning qoplash muddati usulining qanday afzalliklari mavjud?

IX BOB. INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARI VA USULLARI

9.1. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari

Moliyalashtirish deganda korxona va tashkilotlarni, turli iqtisodiy dasturlarni va iqtisodiy faoliyat turlarini, qurilayotgan obyektlar va qurilishlarni zarur bo'lgan moliyaviy resurslar bilan ta'minlash tushuniladi.

Mamlakatimizda investitsiya faoliyatini amalga oshirishdagi eng asosiy masala – ularni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, ya'ni moliyalashtirish masalasidir. Hozirgi zamon ilmiy qarashlarida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish mexanizmi o'z mohiyatiga ko'ra ikki muhim jihati bilan ajralib turadi. Birinchidan, mikrodarajada moliyalashning bozor mexanizmi amal qiladi; ikkinchidan, makroiqtisodiy darajada davlatning iqtisodiy mexanizmi ham mavjud bo'ladi. Shu sababli investitsiya loyihalarini moliyalash faqat olinadigan foyda motivlaridan (sabablaridan) tashqari milliy iqtisodiy rivojlanish maqsadiga muvofiq keladigan mezonlar bo'yicha ham baholanadi, lekin, bularning iqtisodiyotdagi roliga har xil qaraladi, u yoki bu ilmiy yo'nalishlar vakillari ularning ahamiyatini turlicha talqin qiladi. Shu sababli investitsiyalash mexanizmlari to'g'risida turli tasavvurlar beradigan eng barqaror talqinlarni ko'rib o'tishga to'g'ri keladi.

Keynschilik va monetar yondashuvlar bunga yaxshi misoldir. Keynschilik qarashlari «bozor tizimi o'z-o'zidan, mustaqil holda yetarli darajada barqarorlikka ega emas va muayyan vaziyatlarda tizimli tenglik zarbiga ro'para keladi», deb hisoblaydi. Keynschilik yo'nalishidagi olimlar bunday holatni bartaraf etish uchun davlat, xususan, hukumat organlari tomonidan makroiqtisodiy mazmundagi chora-tadbirlar majmuyi qo'llanilishi zarurligini uqtiradilar. Bunday yondashuvda bozor kuchlarining qudrati va uning samarasi ta'siri to'g'risidagi tasavvurlar rad etiladi, raqobat

erkinligi qayta yaratish jarayonlarida o‘z-o‘zidan va doimiy yuksalishni ta’minlab bera olmasligi ta’kidlanadi.

Adolat nuqtayi nazaridan shuni aytish zarurki, bu qarashlarda, birinchi navbatda, davlatning aralashuvi chegaralari, doirasi belgilab qo‘yiladi. Bu qarashlar J.Keyns tomonidan aniq ifodalab berilgan: «Bizning pirovard maqsadimiz o‘zimiz yashab turgan xo‘jalik tizimi doirasida markaziy hokimiyat tomonidan ongli nazorat qilish yoki boshqarish mumkin bo‘lgan o‘zgaruvchan kattalik (qiymat)larni tanlab olish bo‘lishi mumkin»[1]. Demak, bu o‘rinda davlatning aralashuvi darajasini belgilashdagi asosiy mezon — mavjud xo‘jalik tizimining izdan chiqishiga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risidagi aqidadir.

Ikkinchi yo‘nalish «monetar qarashlar, aksincha, kapitalistik bozor iqtisodiyoti negizida xo‘jalikni muvozanat holatiga keltiradigan va mavjud ishlab chiqarish resurslaridan to‘la foydalanishni ta’minlaydigan qudratli ichki mexanizm bor», degan fikrga asoslanadi. Ayrim hollarda monetarizmni «Xususiy xo‘jalik o‘z negiziga ko‘ra barqaror va resurslardan eng samarali foydalanishga muvofiq keladigan narxlar ko‘lami va mahsulotlar hajmi nisbatini yaratish tendensiyalariga ega» degan tezis bilan tenglashtiradilar. Sof bozor mexanizmi faoliyatida tanglik holatiga olib keladigan kamchiliklar faqat davlatning aralashuvi va hukumat tomonidan o‘tkaziladigan iqtisodiy siyosatdagi xatoliklari bilan bog‘lanadi. Aytilgan g‘oyalar xo‘jalik aloqalarining davlat tomonidan tartibga solinishini talqin qilishda katta ahamiyatga ega. Eng muhimi, bu harakatlarda bozor investitsiya mexanizmining faoliyat ko‘rsatishi muammosi o‘rtaga qo‘yiladi.

Har ikkala qarashlarda ham bozor mexanizmi eng muhim umuminsoniy, iqtisodiy qadriyat tarzida e’tirof etiladi. Uning yashash huquqiga hech qanday shubha bilan qarash yo‘q. Qarashlardagi asosiy farqlar davlat boshqaruvining zarurligi, miqyosi va yo‘nalishlari masalalarida yuzaga chiqadi. Lekin investitsiyalash mexanizmi muammolari hisobga olinadigan bo‘lsa, xuddi shu masalaga qarashlardagi tafovutlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli respublikadagi yuz berayotgan investitsiya jarayonlarini asosli holda baholash uchun monetar va keynschilik yondashuvlari xulosalarini batafsilroq ko‘rib o‘tishga harakat

[1] Кейнс Дж.М. Избранные произведения / Пер. с англ. М.: «Экономика», 1993. С. 33.

qilamiz. Keynschilik qarashlarida yalpi talab va taklifning muvozanati muammolariga katta e'tibor beriladi.

Yalpi talab muammosi muhimroq bo'lib, u ikki asosiy tarkibiy tuzilma – iste'mol uchun va investitsiyalar uchun xarajatlar masalasi muhim o'rinda turadi. Yalpi talab taklifga muvofiq bo'lganda va to'liq bandlikni ta'minlagan holdagina samarali bo'lishi mumkin. Davlat olib boradigan iqtisodiy siyosatning asosiy zaruriy ahamiyati ham samarali talabni shakllantirishdan iborat. Chunki sof bozor mexanizmining o'zi bajara olmaydigan masalalarda davlatning aralashuvi zaruratga aylanadi. Samarali talabni shakllantirish masalasida bu talabning jamg'armalar hajmining kengayishi bilan qoplanadigan investitsiya qismi g'oyat muhim ahamiyatga ega, ya'ni investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishning asosiy omiliga aylanadi va davlatning iqtisodiy siyosatida bu masalaga alohida e'tibor berilishi kerak.

Investitsiyalarni moliyalashtirishning bozor mexanizmi, umuman, bozor iqtisodiyotining rivoji va muvozanatini ta'minlash nuqtayi nazaridan g'oyat muhim funksional rol o'ynaydi. Uning tub mohiyati bir tomondan, aholi va tadbirkorlar ma'qul deb bilgan xatti-harakatlar (foiz me'yoridagi tendensiyalar va kutiladigan foyda haqidagi tasavvurlarga muvofiq shakllanadi), ikkinchi tomondan, milliy iqtisodiyotda investitsiya jarayonlarini faollashtirish bo'yicha davlat chora-tadbirlarining samaradorligi bilan belgilanadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida moliyalashtirish manbalarining tanqisligi vujudga keldi.

Investorlar investitsiya faoliyatini, asosan, o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirishga harakat qiladilar va o'z mablag'lari yetmagan taqdirda banklardan, korxonalardan hamda boshqa subyektlardan qarz olishlari mumkin. Shuningdek, ular aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar chiqarishlari, davlat va mahalliy organlardan qaytarmaslik sharti bilan mablag'lar olishlari mumkin. Mikroko'lamda investitsiyalarning manbalari turlichadir.

Umuman olganda, investitsiya loyihalarini moliyalash manbalari turlichadir. Masalan, Rossiya davlatida investitsiyalarni moliyalashtirish quyidagi mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi:

– investorlarning o'z moliyaviy resurslari va ichki xo'jalik zaxiralari (sof foyda, amortizatsiya ajratmalari, fuqaro va yuridik shaxslarning jamg'armalari va boshqalar);

– investorlarning qarzga olgan moliyaviy mablag'lari (bank kreditlari, budjet ssudalari va boshqalar);

– investorlarning jalb qilgan moliyaviy mablag'lari (aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlar chiqarishdan olingan mablag'lar);

– qaytarishlik va qaytarmaslik asosida taqdim qilinadigan budjet mablag'lari;

– budjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari;

– xorijiy investorlar mablag'lari[1].

Shuni ham e'tirof etish kerakki, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalarini to'rt guruhga ham ajratish mumkin, ya'ni: korxonalarning o'z moliyaviy mablag'lari (foyda, amortizatsiya ajratmasi va boshqalar); korxonalarning qarzga olgan moliyaviy mablag'lari (obligatsiyali qarzlar, korxona, bank va budjet va nobudjet fondlari kreditlari); korxonalarning chetdan jalb qilgan moliyaviy mablag'lari (aksiya sotishdan tushgan mablag'lar, huquqiy shaxslar va fuqarolarning har xil badallari); budjetning investitsiya mablag'lari (respublika va mahalliy budjet mablag'lari).

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalarining bunday guruhlanishi ma'lum kamchiliklaridan holi emas. Sababi, investor qo'yadigan investitsiya resurslari o'zining va boshqa xo'jalik subyektlarining jamg'armasi bo'lishi mumkin. Demak, investitsiyalash manbasini korxonalarning o'z resurslari va chetdan yoki qarzga olingan resurslarga ajratish mumkin. Rivojlangan mamlakatlarda, jumladan, Yaponiyada investitsiyalash manbayining xuddi shunday guruhlanishini ko'rish mumkin. Bozor munosabatlari rivojlangan sharoitda ham ayrim hudud va sohalarda (qishloq xo'jaligida) faoliyat ko'rsatadigan tadbirkorlarga budjetdan investitsiyalash maqsadlariga mablag'lar ajratiladi. Ammo, chetdan olingan resurslar tarkibida budjet mablag'lari o'ziga xos xususiyatga ega. Ularni investitsiya jarayonining boshqa subyekti bo'lmish davlat dastlab jamg'aradi va so'ngra tadbirkorlarga investitsiya qilish uchun beradi, lekin, uni qaytarib olmaydi. Shuning uchun ham umumiy manbalar tarkibida budjetning investitsiya mablag'larini alohida guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir.

Respublikamiz bozor iqtisodiyotiga o'tishi bilan investitsiyalashning o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lgan manbalari rivojlanmoqda. Bunday manbalarga xorijiy investorlarning mab-

[1] Бочарев В.В. Методы финансирования инвестиционной деятельности предприятий. М.: Финансы и статистика, 1998. с. 36.

lag'lari kiradi. Xorijiy investorlarning mulkka egalik qilish munosabatiga qarab, ular qo'yadigan mablag'larni guruhlash lozim. Agar xorijiy investorlar o'z resurslarini qo'yishlari bilan korxonalarga butunlay egalik qilsalar yoki qo'shma korxonalar tuzib, ularga qo'ygan resurslari doirasida egalik qilsalar, ularning mablag'larini investorlarning o'z moliyaviy resurslari guruhiga qo'shish lozim. Ammo, ularning investitsiyalari qarz tariqasida bo'lsa, bu resurslar investorlarning qarzga olingan moliyaviy resurslari guruhiga qo'shilishi lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarini quyidagi guruhlarga ajratamiz:

— investorlarning o'z resurslari (foyda, amortizatsiya ajratmasi, yuridik shaxslar va fuqarolarning pul jamg'armalari va badallari, aksiyalardan tushgan mablag'lar va boshqalar);

— investorlarning qarzga olgan resurslari (korxonalar, tijorat banklari, nobudjet fondlari kreditlar, obligatsiyali, sertifikatli, vekselli va boshqa xil qarzlar, budjet ssudalari);

— budjetning investitsiya resurslari (respublika va mahalliy budjet mablag'lari).

Davlat o'zining iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, mudofaa, huquqni himoya qiluvchi va boshqa funksiyalarini bajarishda investitsiyalarni budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirishni amalga oshiradi. Davlat kapital qo'yilmalarni moliyalashtirishni amalga oshirish orqali iqtisodiyotda tarkibiy qayta qurishga, sohalar va hududlardagi rivojlanish tafovutlarini kamaytirishga, yagona iqtisodiy muhitni vujudga keltirishga erishishi mumkin. Davlat investitsiyalaridan davlat korxonalari, shuningdek, davlat dasturlarini amalga oshirishda qatnashuvchi yuridik shaxslar foydalanishlari mumkin.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirishda bir qancha tamoyillarga amal qilinishi lozim, jumladan: budjet resurslari maqsadga muvofiq ishlatilishi lozim; minimal xarajat qilingan holda maksimal darajada iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikka erishish kerak; qurilish va pudrat tashkilotlariga budjet mablag'larini rejaning bajarilishiga qarab hamda ilgari berilgan budjet mablag'larini qanday ishlatganlariga qarab berish zarur.

Budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirilayotgan investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholashda har bir loyiha qatnashchisining manfaatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar-

ning asosiy baholash mezoni bo'lib: yalpi va sof milliy mahsulotning hamda milliy daromadning o'sishi; foydaning oshish hajmi; turli xildagi ijtimoiy xizmatlar bahosining tushishi hajmi hisoblanadi.

Budjet resurslari, odatda, qurilish va pudrat tashkilotlariga rejani bajarishlariga qarab beriladi. Bu mablag'larni taqsimlashni buyurtmachi o'zaro kelishgan holda, qurilish-montaj ishlari uchun to'lovlarni bajarilgan ishlarni qabul qilish bayonnomasi asosida amalga oshiradilar. Asbob-uskunalar va materiallar sotib olish xarajatlari buyurtmachiga berilgan schet-fakturasi bo'yicha amalga oshiriladi. Xizmat xarajatlari ular bajarib bo'linganidan keyin buyurtmachiga berilgan schet-fakturalar bo'yicha amalga oshiriladi.

Davlat ehtiyojlari uchun amalga oshirilayotgan qurilishlar va obyektlar qaytarib berishlik va qaytarib bermaslik shartlari asosida moliyalashtiriladi. Respublika budjeti hisobidan qaytarib bermaslik shartlari asosida moliyalashtirish iqtisodiyotning yangi tarmoqlarini rivojlantirish, shuningdek, mudofaa, sog'liqni saqlash, ekologiya, ta'lim va boshqa shu kabi sohalarga tegishli loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan bo'ladi. Bunday moliyalashtirishni amalga oshirishda iqtisodiy samaradorlikka erishish yoki tijorat maqsadlari ko'zlanmaydi, unda ijtimoiy ahamiyati inobatga olinadi. Aksincha, qaytarib berishlik shartlari asosida moliyalashtirish iqtisodiy samaradorlikka erishish hamda tijorat maqsadlarini ko'zlagan holda amalga oshiriladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, investitsiya loyihasini amalga oshirishning boshlang'ich bosqichlarida davlat tomonidan ko'rsatilgan har qanday yordam loyiha uchun juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun qaytarib berish shartlari asosida budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish, odatda, bir qancha imtiyozlar, masalan, soliq imtiyozlari va kreditlashdagi imtiyozlar bilan amalga oshiriladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda jismoniy va yuridik shaxslarning o'z moliyaviy mablag'lari ahamiyati kattadir. Rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida agar investitsiya xarajatlarini moliyalashtirishning umumiy hajmida korxona o'z mablag'lari hissasi 60 foiz va undan yuqori ulushga erishsa, bunday xo'jaliklarda o'zini-o'zi moliyalashtirish darajasi yuqori hisoblanadi. Ayni vaqtda, bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan iqtisodiy erkinlik o'zini-o'zi moliyalashtirishni bildiradi. Bu tor ma'noda korxonaning ichki pul manbalari hisobidan bo'lishini bildirsa, keng ma'noda,

bundan tashqari qarz olish hisobidan o‘z moliyaviy resurslarini ko‘paytirish demakdir. Mazkur tamoyil korxona investitsiyalarini taqsimlanmagan foyda va amortizatsiya ajratmalari hisobidan amalga oshirishini bildiradi. Hozir rivojlanayotgan mamlakatlarda o‘zini-o‘zi moliyalashtirish mablag‘lari korxona moliyaviy resurslarining [1] 70 foizini tashkil qilsa, uning 3/7 qismi taqsimlanmagan foyda, 4/7 qismi amortizatsiya ajratmasidir.

Investitsiya faoliyatini amalga oshirishda o‘z mablag‘larining hissasi yuqori bo‘lishi uchun korxonalarga davlat qulay moliyaviy sharoit yaratib berishi lozim. Korxonaning jami investitsiyalar tarkibida (bir yil ichida barcha investorlar tomonidan qo‘yilgan hamma shakl va turdagi investitsiyalar) o‘z mablag‘larining ulushini o‘zini-o‘zi moliyalashtirish koeffitsiyentini qo‘llash orqali aniqlash mumkin. U quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{o'} = O'M : JI \qquad (8.32)$$

bu yerda: $K_{o'}$ – o‘zini-o‘zi moliyalashtirish koeffitsiyenti; **O‘M** – korxonaning o‘z mablag‘lari; **JI** – jami investitsiyalar.

Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning nazariy jihatlari qator iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Masalan, prof. Ya.Mirkinning fikriga ko‘ra[2], investitsiyalarni moliyalashtirishning real, istiqbolli shakli kompaniyalarning jamg‘armalarini ikkilamchi bozordan aksiyadorlik kapitaliga joylashtirishni ko‘paytirish hisoblanadi, ammo, investitsiyalarni moliyalashtirishning bu manba darajasi juda past.

Iqtisodiyot sohasida Nobel mukofotining laureati U.Shcharp[3] ham investitsiya loyihalarini fond bozori orqali moliyalashtirish mexanizmiga alohida e’tibor qaratadi. Uning fikriga ko‘ra, qimmatli qog‘ozlarning daromadliligi va riskliligi o‘rtasidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqaga ega bo‘lgan oqilona investitsiya strategiyasi investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning asosi hisoblanadi. Moliyaviy vositachilar (tijorat banklari, jamg‘arma va kredit uyushmalari, sug‘urta kompaniyalari, o‘zaro yordam fondlari,

---

[1] Iqtisodiy adabiyotdagi turli yondashuvlarni tahlil qilish va ularni umumlashtirish asosida korxonalarning moliyaviy resurslari mazmunini quyidagicha ta’riflash mumkin: o‘zlik va jalb qilingan mablag‘lardan tashkil topib, moliyaviy majburiyatlarni bajarishga, faoliyatni tashkil etish va kengaytirish bilan bog‘liq xarajatlarni amalga oshirishga hamda iqtisodiy foyda olishga mo‘ljallangan moliyaviy mablag‘lar yig‘indisiga korxonaning moliyaviy resurslari deyiladi.

[2] Миркин Я. Рынок ценных бумаг России: воздействие фундаментальных факторов, прогноз и политика развития. М.: «Альпина Паблишер», 2002. С. 117.

[3] Шарп У. и др. Инвестиции. Пер. с англ. М.: «ИНФРА-М», 2001. С. 9-10.

pensiya fondlari), korporatsiyalarning fond bozoridan qo'shimcha mablag'lar jalb qilish imkoniyatini bilvosita ta'minlaydi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan D.G'ozibekovning ilmiy izlanishlarida investitsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlarining ayrim elementlari tahlil qilingan. Olim fikriga ko'ra, «...investitsiyalarni moliyalashtirish jarayonida bank krediti rolining oshishi, moliyalashtirish natijalari uchun korxonalar mas'uliyatini kuchaytiradi, chunki kreditning ahamiyati oshishi bilan bank kredit risklari majmuyining darajasi oshadi. Shuning uchun davlat korxonalariga nisbatan davlat budjetidan investitsiya ajratish belgilangan va past darajadagi imtiyozli foiz stavkalari asosida davlat moliya institutlari tizimi tomonidan boshqariladigan arzon kreditga aylantirilib, uni tender asosida taqsimlash bozor talabiga mos keladi».[1]

Prof. D.G'ozibekov bank kreditini investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbasi sifatida e'tirof etmoqda. Bu to'g'ri, chunki, kreditning qaytarib berish va foiz to'lash tamoyillari undan foydalanuvchilarni olingan kreditdan samarali foydalanishga majbur qiladi. Ammo, D.G'ozibekovning davlat korxonalariga belgilangan va past imtiyozli stavkalarda arzon kreditlar ajratish va ularni tender asosida taqsimlash xususidagi taklifi, fikrimizcha, munozaralidir. Birinchidan, davlat korxonalariga imtiyozli foiz stavkalarida kreditlarning berilishi, xususiy korxonalarni ularga nisbatan teng bo'lmagan raqobat muhitiga tushirib qo'yadi; ikkinchidan, ularning bozor stavkasi kredit resurslarining harakatini tartibga soluvchi regulyator bo'lib xizmat qiladi va bu stavka milliy ssuda kapitallari bozorida shakllanadi. Shu sababli, kreditlarni tender asosida taqsimlash maqsadga muvofiq emas.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda lizing investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ichki va tashqi bozorlar uchun qattiq raqobat sharoitida asbob-uskunaning texnik xususiyatlarinigina emas, ayni vaqtda mazkur asbob-uskunalar iste'molchilariga qo'yiladigan moliyaviy shartlar, shuningdek, qo'shimcha xizmatlar ham tobora ahamiyatli bo'lib bormoqda. Iste'molchilarning bunday qo'shimcha talablarini moliyalashtirishning istiqbolli usuli bo'lgan lizing to'la-to'kis qondirishi mumkin.

[1] G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: «Moliya», 2003. – B. 131.

Tadbirkorlik tuzilmalarida moliyaviy resurslar cheklangan sharoitda lizing an'anaviy moliyalashtirish usullari o'rnini bosadigan muqobil investitsiyalash usuliga aylanadi. Kreditlashdan farqli o'laroq, lizing munosabatlari sharoitida egalik qilish, foydalanish. tasarruf etish huquqi mulkdorlik huquqidan farqlanadi.

Kreditlash sharoitida qarz beruvchining investitsiyalari o'z risklariga ega bo'lgan bank krediti hisobidan amalga oshiriladi. lizing sharoitida investitsiyalar lizing beruvchi tomonidan amalga oshiriladi, qarz oluvchi foizlar va amortizatsiya ajratmalari tarzidagi joriy chiqimlarni bo'yniga oladi. Kreditlash sharoitida kreditni so'ndirish pul shaklida amalga oshiriladi, lizing sharoitida bu ish kompensatsiya xizmatlari ko'rsatish, mahsulot berish tarzida amalga oshirilishi mumkin. Kreditlash so'ndirish manbalari jihatidan ham lizingdan farq qiladi. Xullas, investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda lizing muqobil usul sifatida bir qator afzalliklarga egadir.

Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning ilmiy asoslangan iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish zaruriyati kuchaymoqda. Mazkur mexanizm investitsiya faoliyatida ish yurituvchi korxonalarda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish ehtiyojlarini ularning ishlab chiqarish dasturidagi belgilangan muddat va miqdordagi pul mablag'lari bilan ta'minlashning muhim vositasi sifatida xizmat qilishi lozim. Bunda mulk shaklidan qat'iy nazar barcha korxonalar, shu jumladan, qo'shma korxonalar moliyalashtirishning bozor tamoyillariga asoslangan manbalaridan foydalanishda teng imkoniyatlarga ega bo'lishlari zarur.

Investitsiya faoliyatini real investitsiyalashning quyidagi manbalarini ajratib ko'rsatish mumkin (9.1-rasm).

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda aytish mumkinki, moliyalashtirish deganda investitsiya loyihalarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash tushuniladi. Bu jarayonlarda, albatta, moliyaviy resurslarni taqdim etuvchilar o'z faoliyatini ma'lum tartib va qoidalar asosida amalga oshiradi. Shundan kelib chiqib, moliyalashtirish mexanizmiga moliyalashtirish munosabatlari va moliyalashtirish muassasalarining yig'indisi sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. Chunki bu yerda asosiy obyektiv qism — moliyalashtirish munosabatlari bazis (asos) sifatida qatnashmoqda. Boshqa qismlar ushbu asos ustiga quriladi. Moliyalashtirish muassasalari mexanizmning boshqa qismi sifatida qatnashadi, ya'ni u barcha pul va

kredit oqimlarini boshqarib turadi. Lekin, bu ta'rifni ham to'liq, deb bo'lmaydi.



9.1-rasm. **Investitsiya faoliyatini real investitsiyalashning manbalari**

Chunki unda moliyalashtirish muassasalarining amaliyotda pul va kredit aloqalarini boshqaruvchi qismi faoliyati qamrab olinmagan. Bizningcha, moliyalashtirish mexanizmi quyidagi uchta qismni tizim sifatida mujassamlashtira olgandagina yaxlit va obyektiv bo'ladi (9.2-rasm):



9.2-rasm. **Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmi**

– moliyalashtirish munosabatlari;
– moliyalashtirish muassasalari;

– moliyalashtirish tizimi.

Bu tarkibiy qismlar doimo o‘zaro bog‘liqlikka ega va bu uzviylikdan yaxlitlik kelib chiqadi. Biroq, bunda qaysi qismdan qaysi qism kelib chiqishini belgilab olish lozim bo‘ladi.

Fikrimizcha, bunda boshlang‘ich qism (bo‘g‘in) bo‘lib, moliyalashtirish munosabatlari xizmat qiladi. Ya’ni asos (bazis) rolini o‘tovchi moliyalashtirish munosabatlari paydo bo‘lgandan keyingina, ikkilamchi bo‘g‘in – moliyalashtirish muassasalarini tarkib toptirishga ehtiyoj tug‘iladi.

Ushbu muassasalar, o‘z navbatida, moliyalashtirish munosabatlarini boshqaradi. Bu boshqaruvni amalga oshirish uchun ushbu muassasalar tomonidan uchinchi bo‘g‘in bo‘lmish moliyalashtirish tizimi ishlab chiqiladi va u maxsus, alohida tizim sifatida faoliyat yuritadi.

Xullas, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning nazariy jihatlari iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha talqin etiladi, biroq, moliyalashtirishning tarkibiy qismlari moliyalashtirish munosabatlaridan, moliyalashtiruvchi muassasalardan hamda moliyalashtirish tizimidan iborat bo‘ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, investitsiya faoliyatini moliyaviy ta’minlash tizimini 9.1-jadval orqali ifodalash mumkin.

9.1-jadval

Investitsiya faoliyatini moliyaviy ta’minlash tizimi

INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIYAVIY TA’MINLASH TIZIMI	**I. MOLIYA-KREDIT MUASSASALARI VA MOLIYAVIY XIZMATLAR KO‘RSATUVCHI INFRATUZILMALAR:** - tijorat banklari; bankdan tashqari kredit tashkilotlari (kredit uyushmalari, lombardlar, mikrokredit tashkilotlari); - budjetdan tashqari jamg‘armalar; - lizing kompaniyalari; - xalqaro moliya institutlari, xalqaro tashkilotlar va xorijiy banklar; - donor tashkilotlar, homiylik tashkilotlari; - sug‘urta kompaniyalari; - konsalting firmalari; injiniring kompaniyalari; axborot-maslahat markazi; - auditorlik firmalari, huquqiy maslahatxonalar, reklama agentliklari, savdo-vositachilik tuzilmalari, birjalar va boshqalar.

INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIYAVIY TA'MINLASH TIZIMI

II. MOLIYALASHTIRISH YO'NALISHLARI VA OB-YEKTLARI:

- moliyalashtirish yo'nalishlari: tijorat banklarining Imtiyozli kreditlash maxsus jamg'armasi; budjetdan tashqari jamg'armalarning imtiyozli kreditlari; yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlariga dastlabki (boshlang'ich) sarmoyani shakllantirishga yo'naltirilgan kreditlar; tijorat banklarida mavjud barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan ajratiladigan kreditlar va lizing xizmatlari; dehqon va fermer xo'jaliklarini bo'lg'usi hosilni hamda yer uchastkasiga bo'lgan ijara huquqini garovga olgan holda beriladigan imtiyozli kreditlar; oilaviy tadbirkorlikni tashkil etish maqsadlari uchun beriladigan imtiyozli kreditlar;
- moliyalashtirish obyektlari: uskuna va jihozlar, texnikalarni sotib olish va o'rnatish; turli xil maqsadlarga mo'ljallangan bino-inshootlarni barpo etish, qurilish, investitsiya loyihalarining texnik-iqtisodiy asosnomasini ishlab chiqish; tovarlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni moliyalashtirish va boshqalar.

III. MOLIYALASHTIRISH MANBALARI VA USULLARI:

- moliyalashtirish manbalari: o'z mablag'lari (foyda, amortizatsiya ajratmalari, jamg'armalari va boshq.); banklarning qarz mablag'lari, jumladan, xorijiy kreditlar; lizing; budjet mablag'lari; budjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari; to'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar; qarindosh-urug' mablag'larini jalb qilish va boshq.;
- moliyalashtirish usullari: o'zini-o'zi moliyalashtirish; budjetdan moliyalashtirish; loyihaviy moliyalashtirish; aralash moliyalashtirish; sindikatli kreditlash, qimmatli qog'ozlar hisobiga moliyalashtirish, mikromoliyalashtirish, lizing asosida moliyalashtirish, venchurli moliyalashtirish va boshqalar.

VI. MOLIYALASHTIRISH MAQSADLARI, TAMOYILLARI VA SHARTLARI:

- moliyalashtirish maqsadlari: asosiy kapitalni yangilash, aylanma mablag'larni tashkil qilish, mehnat faoliyatini rag'batlantirish va mehnat daromadining doimiy manbayini yuzaga keltirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va kengaytirish, shu jumladan, qishloq xo'jaligi texnikasini sotib olish, fermerlik inshootlarini qurish, chorvachilik, parrandachilikni rivojlantirish; bevosita ishlab chiqarish sohasi, ya'ni

	mahsulotlar ishlab chiqarish, xomashyo va materiallarni tubdan qayta ishlash, hunarmandchilikni rivojlantirish, kasanachilik mehnatini tashkil etish, binokorlik materiallari ishlab chiqarish va qurilish; aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish va maishiy xizmat ko'rsatishni tashkil etish, turizm sohasini rivojlantirish va boshqalar. - moliyalashtirish tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlari hamda shartlari: muddatlilik, to'lovlilik, ta'minlanganlik, qaytarilishi, maqsadlilik; kredit olish uchun kredit buyurtmasi; pul oqimi tahlili majburiy tarzda ko'rsatilgan biznes-reja; kreditning qaytarilish ta'minoti va qonunchilikka oid boshqa hujjatlar.

Jadvalda ifodalanganidek, O'zbekistonda investitsiya faoliyatini moliyaviy ta'minlash tizimi o'z tarkibiga: moliya-kredit muassasalari va moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi infratuzilmalarni; moliyalashtirish manbalari va usullarini; moliyalashtirish yo'nalishlari va obyektlarini hamda moliyalashtirish maqsadlari, tamoyillari va shartlarini qamrab oladi. Shunday qilib, investitsiya faoliyati o'zining aniq tasniflash mezonlari va yo'nalishlariga ega bo'lgan faoliyat turi hisoblanib, uni moliyalashtirish: qimmatli qog'ozlar; xorijiy investitsiyalar; tijorat banklari va xalqaro moliya institutlar mablag'lari hisobidan ulush qo'shish orqali moliyalashtirish mexanizmi yoki kredit liniyalari: sinditsiyalashtirilgan kreditlar; loyihaviy moliyalashtirish; venchurli moliyalashtirish; korporativ moliyalashtirish; lizing orqali moliyalashtirish kabi mexanizmlar majmuyi hisobiga amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, investitsiya faoliyatini moliyaviy ta'minlash, o'z mohiyatiga ko'ra, mikrodarajada moliyalashtirishning bozor mexanizmini hamda makroiqtisodiy darajada davlatning iqtisodiy mexanizmini qamrab oladi.

9.2. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'z mablag'lari (foyda, amortizatsiya ajratmalari, maqsadli tushumlar va boshqalar)

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona mablag'lari investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning eng muhim manbasi foyda hisoblanadi. «Foyda» kategoriyasining mazmuni uning manbalari, omillari va iqtisodiy subyektlarning samarali ishlab chiqarish

faoliyati maqsadlarini to'liq aks ettirgan holda turli iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan va foyda nazariyalari ishlab chiqilgan. Jumladan, merkantilistlar (Uilyam Stafford, Tomas Men, Antonio Serra va boshq.) foyda muomala sohasida, masalan, tashqi savdoda mahsulot ichki bozorga nisbatan yuqoriroq narxda sotilganda yuzaga keladi[1], deb hisoblaganlar. Fiziokratlar (Fransua Kene, Ann Robyer, Jak Tyurgo) fikricha, foyda faqat qishloq xo'jaligida yaratiladi, ya'ni tabiat kuchlari ta'sirida iste'mol qiymatlari ishlab chiqarish xarajatlaridan oshib ketadi[2]. Klassik iqtisodiy maktab vakillari (Adam Smit, David Rikardo) ta'kidlashicha, foyda kapitalist tomonidan o'zlashtiriladigan mehnat mahsulidir. Qiymatning mehnat nazariyasidan kelib chiqib, aytish mumkinki, foyda yollanma ishchi mehnatiga to'lanmagan mahsulotdir. A.Smit qo'shimcha qiymat kelib chiqishining haqiqiy sababini aniqlashga yaqinlashgan, chunki foyda kapitalist bilan bevosita bog'langan, bunda ishchi o'z mehnat samarasini kapitalist bilan bo'lishiga majbur bo'ladi. Bu holatda foyda yangi paydo bo'lgan qiymat bilan ish haqining farqi ayirmasidir: ishchiga u hosil qilingan tovarning bir qismi tegadi, xolos. Qolgan qismini kapitalist foyda sifatida oladi. Amalda foyda qo'shimcha qiymatdir[3]. Ta'kidlash joizki, A.Smit fiziokratlardan farqli ravishda qo'shimcha mahsulot faqat qishloq xo'jaligida, iste'mol qiymatlarining ortishi hisobigagina emas, balki xodimning mehnati yaratgan yangi qiymatdir, degan to'g'ri xulosaga keladi.

Jon Styuart Mill foyda to'g'risidagi savolni tushuntirib berishda D.Rikardo qarashlariga tayanadi. Foydaning vujudga kelish sababini: «foyda ayirboshlash natijasida emas, balki mehnatning unumdorlik kuchi natijasida vujudga keladi»[4], deb tushuntiradi.

Prof. A.O'lmasov va A.Vahobovlar fikricha: «foyda – bu kapital va tadbirkorlik faoliyati uchun ular sohibiga tegadigan pul mukofotidir»[5]. Mualliflar ta'kidlashicha, foyda tadbirkorlik daromadi, deb talqin etilganda tadbirkorning kapitali va uning qobiliyati keltirgan daromad tushuniladi. Foyda – bu tadbirkorlik

[1] Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. T.: «Fan va texnologiya», 2007. – B. 60-63.
[2] Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. T.: «Fan va texnologiya», 2007. – B. 71-78.
[3] Ўша манба. B. 84-85.
[4] Ўша манба. B. 104.
[5] O'lmasov A., Vahobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T.: «Sharq», 2006. – B. 179-181.

faoliyati uchun bizneschilar oladigan mukofot bo‘lib, uni tadbirkorlik qobiliyati va biznesga qo‘yilgan kapital keltiradi. Tadbirkorlik qobiliyati uchun olinadigan foyda me’yordagi foyda hisoblanadi va xarajatlar tarkibiga kiradi. Kapital uchun tegadigan foyda iqtisodiy foyda bo‘lib, daromadning jami xarajatlardan ortib qolgan qismi bo‘ladi.

Rus olimlaridan V.Kovalev «foydani – daromadlar va xarajatlar o‘rtasidagi farq»[1], sifatida talqin qiladi. N.Zayats fikricha: «foyda – bu iqtisodiy kategoriya bo‘lib, xo‘jalik faoliyati sohasida yaratilgan daromadni tavsiflaydi va ishlab chiqarishning turli omillarini (mehnat, kapital, tabiiy resurslar, tadbirkorlik qobiliyati) birlashtirish natijasidir»[2].

Yuqoridagilarni umumlashtirib ifodalasak, foyda korxona iqtisodiy faoliyatining yakuniy pirovard natijasi bo‘lib, korxonaning samarali faoliyati va rentabelligini ifodalovchi asosiy moliyaviy ko‘rsatkich hisoblanadi. Moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan va faoliyatning yakuniy natijasi hisoblangan, tushum bilan xarajatlar o‘rtasidagi ijobiy farqni ifodalovchi iqtisodiy kategoriya foyda hisoblanadi.

Foyda – yaratilgan yangi, qo‘shimcha qiymat, u barcha maqsad va harakatlarning negizi bo‘lib, uni hosil qilish, unga erishishning esa turli yo‘llari, vositalari, omillari mavjuddir.

Ideal holatda muayyan bir faoliyatni amalga oshirish evaziga foydani hosil qilish birmuncha oson va qulay, oddiyroq va yuqori natijalidek ko‘rinadi.

Biroq, amalda bunday bo‘lavermaydi. Bunga foyda ko‘rsatkichining o‘zgarishiga ta’sir etuvchi turli shart-sharoitlarning vujudga kelishi sababdir. Shunga ko‘ra, iqtisodiy ko‘rsatkichlarning har qanday davrdagi o‘zgarishi turli ko‘rinishdagi ko‘pgina omillarning ta’siri ostida yuzaga keladi. Foyda miqdoriga ta’sir etuvchi turli ko‘rinishdagi omillarning mavjudligi o‘sha davrda xo‘jalik faoliyati samaradorligini oshirish imkoniyatlarini qidirish, asosiy yo‘nalishlarini aniqlash uchun juda muhim ahamiyat kasb etishi nuqtayi nazaridan ularning tasniflanishini talab etadi.

---

[1] Ковалев В.В. Курс финансового менеджмента: учеб. М.: «Проспект», 2008. С. 180.

[2] Финансы предприятий. Учебник. Под ред. Заяца Н.Е. - Минск.: «Высшая Школа», 2005. С.113-114.

Korxona foydasi, asosan, uch manba – mahsulotlarni sotishdan olingan tushum, boshqa tovarlar realizatsiyasidan olingan foyda va realizatsiya qilinmagan operatsiyalardan olinmagan daromadlar hisobidan tashkil topadi. Mahsulot tannarxiga kiradigan xarajatlar va tannarxda hisobga olinmaydigan xarajatlar miqdori va darajasining o'zgarishi korxona foydasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning quyidagi ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi[1]:

– *mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda*, bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi:

– *asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda*, bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o'rtasidagi tafovut va plyus asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar sifatida aniqlanadi:

– *xo'jalik faoliyatidan olingan foyda*, bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plyus moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan daromadlar va minus zararlar sifatida hisoblab chiqiladi:

– *soliq to'langungacha olingan foyda*, u umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda plyus favqulodda (ko'zda tutilmagan) vaziyatlardan ko'rilgan foyda va minus zarar sifatida aniqlanadi:

– *yilning sof foydasi*, u soliq to'langandan keyin xo'jalik yurituvchi subyekt ixtiyorida qoladi.

Sotishdan tushgan sof tushum tarkibiga yuklab jo'natilgan mahsulot, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun xaridor (buyurtmachi) hisob-kitob hujjatlari bo'yicha haq to'lashdan tushgan mablag'lar summasi, shuningdek, korxonaning bankdagi hisobvarag'iga, korxonaning kassasiga amalda kelib tushgan pul mablag'lari summasi va sotilgan mahsulotga to'lash uchun soliqqa tortish davri tugash sanasigacha tushgan boshqa tushumlar kiradi. Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi tarkiban ishlab chiqarishga sarflangan moddiy xarajatlar, ishlab chiqarish tarzidagi mehnatga haq to'lash xarajatlari, ishlab chiqarishga doir ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, asosiy fondlar va ishlab chiqarish tarzidagi

[1] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli qaroriga ilova qilingan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi nizom.

nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi hamda ishlab chiqarishga doir boshqa xarajatlardan tashkil topadi.

Davr xarajatlariga boshqaruv bilan bog'liq xarajatlar, mahsulotni sotish xarajatlari va umumxo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar kiradi.

Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'z mablag'lari tarkibidagi amortizatsiya ajratmalari muhim manba hisoblanadi. Ma'lumki, ishlab chiqarish jarayonida asosiy kapital eskiradi. O'zining texnik xarakteristikasini asta-sekinlik bilan yo'qotib boradi. Mashina, asbob-uskuna va boshqalar eyiladi, eskiradi, arzonlashadi, o'z qiymatini yo'qotib boradi. Asosiy kapitalning mahsulotga ko'chgan qiymati kelajakda uni yangilash maqsadida jamg'ariladi. Ana shu jamg'arma amortizatsiya fondini tashkil qiladi. Jamg'arilgan amortizatsiya fondi yangi vositalarni sotib olish imkonini beradi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z mahsulotlarini (xizmatlarni) realizatsiya qilish chog'ida pul shaklidagi amortizatsiya fondi shakllanib boradi va undan investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda foydalanadilar.

9.3. Jalb etilgan mablag'lar evaziga investitsiya faoliyatini moliyalashtirish (qimmatli qog'ozlar va bank kreditlari)

Hozirgi iqtisodiy sharoitda jalb etilgan mablag'lar hisobiga investitsiya faoliyatini moliyalashtirish, asosan, qimmatli qog'ozlar[1], xorijiy investitsiyalar va bank kreditlari hisobiga amalga oshirilmoqda. Aytish joizki, bank kreditlari qarz mablag'lari tarkibiga kiritilsa ham, bu manbani jalb qilingan mablag'lar tarkibiga kiritish mumkin, chunki bank krediti investitsiya faoliyatini moliyalashtirish uchun chetdan, kredit muassasalaridan jalb qilinadi.

Investitsiya qilishda turlicha vositalar qo'llanilishi mumkin: pul, valuta, kredit, qimmatli qog'ozlar, mulk (moddiy va nomoddiy), turli tovar, xomashyolar va h.k. Bular ichida qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish investorning talablarini qondirishning eng samarali va keng tarqalgan yo'llaridan biri hisoblanadi.

[1] Investitsiya faoliyatini qimmatli qog'ozlar hisobiga moliyalashtirish masalalari darslikning 10-bobida batafsil ko'rib chiqilgan.

Qimmatli qog'ozlar bozori, bir tomondan, iqtisodiyotning xo'jalik subyektlari uchun moliyaviy ta'minlanish manbayi bo'lsa, ikkinchi tomondan, aholi va xo'jalik subyektlarining bo'sh turgan mablag'larini iqtisodiyotga faol jalb etuvchi, pul mablag'larini qayta taqsimlovchi mexanizmdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotning yangidan vujudga kelayotgan va faoliyat yuritayotgan tarmoqlarini rivojlantirish uchun turli shakldagi va hajmdagi investitsiyalar kerak bo'ladi. Zamonaviy bozor iqtisodiyotida qimmatli qog'ozlar bozori – iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilari o'rtasida pul vositalarini samarali qayta taqsimlovchi mexanizm vazifasini bajarmoqda.

Investitsiya resurslarini moliya bozori imkoniyatlaridan foydalangan holda foyda olish uchun yo'naltirish investorlarning eng asosiy maqsadli vazifasi hisoblanadi. Uning boshqa vazifasi – o'zining investitsiya faoliyati jarayonida investitsiyalarining daromadliligini oshirib borish va risklilik darajasini pasaytirishdir. Bunda moliya bozori investorning vazifalarini va investitsiya siyosatini samarali amalga oshirishida, yetarli darajada rivojlangan bo'lishida katta rol o'ynaydi va muhim funksiyani bajaradi.

Jahon amaliyotining ko'rsatishicha, xo'jalik subyektlarining innovatsion taraqqiyotini moliyalashtirish manbalari tuzilmasida markaziy o'rinni qimmatli qog'ozlar bozorining dastaklari egallaydi. Qimmatli qog'ozlar vositasida investitsiyaviy moliyalashtirish investorlar mablag'larining muomaladagi qimmatli qog'ozlarga sarflanishini anglatadi hamda qimmatli qog'ozlar bozorida ochiq va erkin faoliyatini tavsif etadi. Xo'jalik subyektlarining innovatsiya ehtiyojlarini moliyalashtirishning barcha turidan qimmatli qog'ozlar vositasidagi investitsiyaviy moliyalashtirish investitsiyalarni sarflash obyektlari tavsifining xususiyatlari va investitsiya jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarning murakkab mexanizmi bilan ajralib turadi.

Jalb etilgan mablag'lar hisobiga investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning muhim manbalaridan biri bu to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisoblanadi. Bo'sh turgan mablag'larni aksiyadorlik jamiyatlariga yoki davlat budjetiga yo'naltirish qo'shimcha mablag'ga bo'lgan ehtiyojni qondirishga olib keladi. Mana shunday vaziyatlarda pul mablag'larini qayta taqsimlaydigan samarali iqtisodiy mexanizm kerak bo'ladi.

O‘zbekistonda xorijiy investorlarni jalb qilishda portfelli investorlar o‘z kapitalini fond bozorlari orqali yo‘naltirib, milliy iqtisodiyotni, shu jumladan, investitsiya faoliyatini obyektiv baholaydi va raqobatli moliyalashtiradi. Shu bilan ular mablag‘larini bir loyihaga to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiya qiluvchi investorlardan farqlanadi. Bevosita investor uchun investitsiya loyihasi tarixi va kredit oluvchi kompaniya bilan sheriklik hissiyoti katta ahamiyatga ega bo‘lib, portfelli investor (strategik-portfelli investorlardan tashqari, chunki ular tarmoq kompaniyalariga bozor konyunkturasiga qarab, ko‘pincha, o‘zlarining rivojlanish tartiblarini belgilab beradi) uchun bu masalalar unchalik ahamiyat kasb etmaydi.

Investitsiya faoliyatini qimmatli qog‘ozlar yordamida moliyalashtirishning qarama-qarshiligi va murakkabligi, investitsiya dasturlari emitentlarining turli xarakterliligi va yo‘naltirilganligi investorlarning manfaatlari keng miqyosdaligidandir. Ularning ayrimlari uzoq muddatli va ishonchli daromadlar olishga intilib, to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarga urg‘u berishadi, buning uchun ular o‘zlarini qiziqtirgan korxonalarning kamida 10 foiz aksiyalarini sotib olishlari shart. Boshqa investorlar, qarama-qarshi o‘laroq, portfel investitsiyalarni afzal ko‘rishadi. Bunda ular investitsiya portfelini turli emitentlarning qimmatli qog‘ozlaridan tashkil etish hisobiga diversifikatsiyalaydilar, shu bilan birga, o‘zlariga to‘g‘ri keladigan risk darajasini pasaytiradilar va daromadlarning barqaror darajasiga erishadilar. Portfel investitsiyalarning maxsus funksiyasi bo‘lib, qimmatli qog‘ozlar portfeli egasiga o‘z qo‘yilmalarini diversifikatsiyalash imkonini berish orqali risklarni to‘plash va tarqatib yuborish, kurs va turli qimmatli qog‘ozlar tebranishlarini bartaraf etishga xizmat qiladi.

Portfel investorlarning maqsadlari va strategiyalarining tahlilidan kelib chiqib, ularni strategik portfel va spekulyativ portfel investorlarga ajratish mumkin. Ular o‘rtasidagi asosiy farq ushbu guruh investorlarining maqsadga yo‘naltirilganligidan kelib chiqadi. Agar strategik portfel investorlar korxonalarning kam daromad keltirishiga qaramasdan uzoq muddatli istiqboldagi rivojlanishga yo‘naltirib mablag‘larni joylashtirsalar, spekulyativ investorlarning strategiyalari qimmatli qog‘ozlar bozorini o‘zining samarali holatidan chetlashishi natijasida kelib chiqadigan arbitraj

imkoniyatlarini hisobga olish va faol (qisqa muddatli) foydani olishga yo'naltiriladi. Ya'ni spekulyativ investorlar ular tomonidan sotib olingan qimmatli qog'ozlarning birja kurslarining o'sishi yoki pasayishidagi o'yin hisobiga foyda olish va sotib olingan, sotilgan qimmatli qog'ozlarning qiymatlari farqi hisobiga daromad olishga intiladilar. Bu kategoriyadagi investorlar qimmatli qog'ozlarga uzoq muddatli egalik qilish hamda bo'sh resurslarni bitta emitentning aksiya va obligatsiyalariga qo'yishga qiziqmaydilar.

Strategik portfel investorlar ishlab chiqarishni restrukturizatsiyalash va ishlab chiqarilayotgan mahsulotning assortimentini yangilash jarayonlarida faol qatnashadilar, spekulyativ portfel investorlar qimmatli qog'ozlarning talab va taklifi nisbati farqidan kelib chiqadigan arbitraj bitimlarni afzal ko'rishadi. Shu bilan birga, strategik portfel investorlarga past darajadagi risk to'g'ri keladi, chunki ular emitentlarning investitsiya potensialini sinchiklab o'rganishadi va ular faoliyati samaradorligini oshirish imkoniga egadirlar. Ammo, shuni unutmaslik kerakki, strategik investorlarning daromadlilik darajasi spekulyativ investorlarga nisbatan pastroqdir, chunki investorlar ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini keskin oshirishni ta'minlashga yoki o'zlarining qimmatli qog'ozlarining investitsiyaviy potensialini keskin oshirishga tayyor bo'lmaydilar.

Investitsiya bozorining faol qatnashchisi sifatida institutsional investorlar namoyon bo'lib, ular bu faoliyat bilan professional asosda, investitsion biznesga o'zlarining bo'sh mablag'larini aksiyalar bo'yicha yuqori dividendlarni, ulushli qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizlarni yoki ularni qayta sotish operatsiyalaridan daromadlarni olish maqsadida jalb etishadi.

Institutsional investorlar qimmatli qog'ozlar portfelini ularning kotirovkalarining fundamental prognozlariga va emitentlari biznesining raqobatbardoshligini uzoq va o'rta muddatli rejada baholashga asoslanib, shakllantirishadi. Shundan so'ng ushbu portfelni daromadga erishish va risk darajasini pasaytirish maqsadida qimmatli qog'ozlarni sotish yoki xarid qilish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish orqali boshqaradi.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining asoslari yaratilib, bozor institutlari infratuzilmasi faol faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozoriga xorijiy investitsiyalarni jalb etish

jarayonlari soddalashtirilgan. O'zbekistondagi barqaror makroiqtisodiy vaziyat, iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi manzilli tadbirlarni moliyalashtirishga yetarli mablag'larning mavjudligi respublikaga 2009-yil oxirida kelgan Xalqaro valuta jamg'armasi missiyasi tomonidan yuqori baho beriladi.

Iqtisodiyotning makroiqtisodiy barqarorlashuvida jiddiy o'zgarishlarning mavjudligi, birinchidan, budjet taqchilligining mavjud emasligi davlatning qimmatli qog'ozlar ichki bozorida yirik qarzlarni olish ehtiyojini yo'qotdi. Ikkinchidan, yuqori likvidli va daromadli davlatning ishonarli qarz vositalari bozorining qisqarib borishi bilan investorlar korporativ qimmatli qog'ozlar bozoriga e'tibor berishga majbur bo'ladilar. Mamlakat kompaniyalarida moliya bozoridan moliyaviy resurslarni mobilizatsiya qilish mexanizmi sifatida foydalanish imkoniyati vujudga keldi.

Korxonalarning investitsiya faoliyati rivojlanishi ehtiyojlari uchun investitsiya resurslarini mobilizatsiya qilishning yirik manbalaridan biri – qimmatli qog'ozlar bozori instrumentlari yordamida jalb qilinayotgan xorijiy investorlarning mablag'lari hisoblanadi. Mamlakat ichida makroiqtisodiy indikatorlarning barqaror sur'atlarda o'sib borishi, xususiylashtirilgan aksiyadorlik korxonalarining strategik xorijiy investorlarda mablag' sarflash obyekti sifatidagi jozibadorligini oshirdi.

Jalb etilgan mablag'lar hisobiga investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda bank kreditlari muhim o'rin tutadi. Kredit iqtisodiy kategoriya bo'lib, ijtimoiy munosabatlarning aniq bir ko'rinishi sifatida yuzaga chiqadi. Kredit har qanday ijtimoiy munosabat emas, balki ijtimoiy ishlab chiqarish mahsuli, qiymatning hosil bo'lishi, qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalovchi kategoriyadir. Iqtisodiy kategoriya sifatida kreditning mohiyati ko'pgina iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganib chiqilgan va ular tomonidan turlicha fikrlar bildirilgan. Lotincha «kredit» so'zining aynan tarjimasi ishonish, ishonmoq degan ma'nolarni anglatadi va buning asosida qaytarish yoki qoplash sharti bilan qandaydir qiymatlik yoki pul mablag'larini berish yotadi. Iqtisodchi olim A.O'lmasov kreditning mohiyatini quyidagicha ta'riflaydi: «kredit – pulni ma'lum shartlarga rioya etgan holda qarzga berish va uni qarzga

olib ishlatishni bildiradi»[1]. Yo.Abdullayev va T.Boboqulovlar «kredit deganda o'z egalari qo'lida vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini boshqalar tomonidan ma'lum muddatga haq to'lash sharti bilan qandaydiy qiymatlik yoki pul mablag'larini berish yotadi.

Shuni alohida e'tirof etish kerakki, investitsiya qo'yish maqsadida korxonalarning kreditdan foydalanish imkoniyati foiz stavkalariga bog'liqdir. Agar mablag' qo'yishdan olinadigan sof foyda uni bank depozitiga qo'yish evaziga ko'riladigan sof foydadan yuqoriroq bo'lishi ta'minlansa, investitsiyalash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Investitsiya loyihalarini kredit bilan ta'minlashni faollashtirishda quyidagilarga ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir: investitsiya faoliyatini kreditlovchi subyektlarning faolligini oshirishda ma'lum imtiyozlar berish va ularga ushbu faoliyatda ishtirokini yaxshilash maqsadida tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar mavjudligini ta'minlash; investitsiya loyihalarini amalga oshirishda loyihalash bosqichlarini imkon qadar qisqartirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish; lizing kreditidan faol foydalanish va boshqalar. Demak, hukumat Markaziy bank orqali qulay foiz satvkalarini shakllantirishi kerak. Foiz stavkasining pasayishi bilan xo'jalik subyektlarining investitsiya jarayonidagi faolligini oshirish imkoniyatlari kengayadi. Biroq, shuni alohida ta'kidlash lozimki, kredit uchun foiz stavkasini pasaytirishning ham ma'lum chegarasi bor. Kredit uchun foiz stavkasining minimal chegarasi depozitlarga to'lanadigan foiz darajasi bilan belgilanadi. Depozit stavkalarining pasaytirlishi kredit resurslarini bank muassasalariga jalb qilishni susaytiradi. Bu, o'z navbatida, investitsiyalash manbalaridan biri bo'lgan kreditlar hajmiga salbiy tasir etib, investitsiya faolligini susaytirishi mumkin. Shu sababli hukumat tijorat banklarining depozit siyosatiga ta'sir qilish orqali foiz stavkalarining darajasini shakllantiradi.

Ta'kidlash joizki, investitsiya faoliyatini qarz mablag'lari evaziga moliyalashtirishda xalqaro moliya institutlarining kredit liniyalari ham muhim o'rin egallaydi. O'zbekiston mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirib, bir qancha xalqaro moliyaviy institutlar bilan o'zaro foydali aloqalar

[1] O'lmasov A. Iqtisodiyot asoslari. T.: «Mehnat», 1997. – B. 159.

o‘rnata boshladi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, kengaytirish uchun huquqiy asoslarini yaratib bergan asosiy qonun hujjatlari qabul qilindi. Xullas, xalqaro moliyaviy institutlarning kredit resurslaridan foydalanishdan ko‘zlangan maqsad xorijiy uskunalar va texnologiyalarni harid qilishni, shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va mahalliy xomashyo resurslarini qayta ishlashni nazarda tutuvchi investitsiya loyihalarini amalga oshirish bilan bog‘liq dastlabki ishchi kapitali sarflarini moliyalashtirishdan, tadbirkorlarning istaklari bo‘yicha ishlab chiqilgan namunaviy va xususiy loyihalar asosida eksportga mo‘ljallangan mahsulotlar, xalq iste’mol tovarlari va shu kabilarni ishlab chiqarishdan iborat.

Iqtisodiyotimizga investitsiyalarni jalb qilish masalasida xalqaro moliyaviy institutlar xususiy sektorga alohida e’tibor bermoqdalar. Dunyoning ko‘plab mamlakatlaridagi xalqaro moliyaviy institutlar, jumladan, Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK), YETTB, OTB, Germaniya rivojlanish kredit agentligi (KfV), OPEK fondi kabilar, aynan, xususiy tarmoqni rivojlantirish uchun investitsiya kiritishga tayyor ekanliklari shundan dalolat beradi. Buning sababi shuki, xususiy tarmoqni rivojlantirish davlat mulkchiligiga asoslangan totalitar tuzumdan xususiy mulkchilik tamoyillari amal qiladigan demokratik jamiyatga o‘tish jarayonining uzviy qismi bo‘lib, o‘ta muhim va hal qiluvchi o‘rin tutishini unutmasligimiz kerak. Aynan mulkchilik shaklining o‘zgarishi iqtisodiyot va jamiyat hayotida ortga qaytarib bo‘lmaydigan jarayonlar va o‘zgarishlar uchun mustahkam zamin, mustahkam asos yaratadi. Shundagina jamiyat hayotida ishlab chiqarish va ishlab chiqarish munosabatlarini tashkil etishning, mehnatga munosabatning tamomila yangicha tamoyillari amal qila boshlaydi.

O‘zbekiston YETTBga 1992-yilda a’zo bo‘ldi. Mazkur bankning asosiy faoliyat yo‘nalishi Markaziy va Sharqiy Yevropa hamda MDH mamlakatlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, rejali iqtisodiyot sharoitida yashagan mamlakatlarda bozor munosabatlarini shakllantirish, monopoliyani tugatish hamda davlat korxonalarini xususiylashtirish, xususiy mulkchilikni shakllantirish hamda ushbu mamlakatlarning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi jarayonini tezlashtirishga qaratildi.

1993-yilda TIFMB bilan YETTB o'rtasida kredit bitimining tasdiqlanishidan boshlab xorijiy kredit liniyalarini O'zbekistonda kichik biznes investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga dastlabki jalb etish boshlandi. Bu bitimga muvofiq O'zbekiston hukumatining kafolati ostida jami 60 mln AQSh dollari miqdorida kredit ajratildi. Kredit liniyasi uch yillik imtiyozli davrni ham qo'shgan holda 13-yillik muddatga berildi.

YETTB respublikamizda zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy qilib, sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yuvchi, shuningdek, import o'rnini bosuvchi va valutada o'zini oqlaydigan kichik biznes investitsiya loyihalarini moliyalashtirmoqda. O'zbekistonning YETTB bilan hamkorligi mamlakatimizda xususiy sektorni rivojlantirish va kengaytirish, kichik biznes loyihalariga kreditlar ajratish, shuningdek, bozor infratuzilmasini taraqqiy ettirish kabi vazifalarga qaratilgandir. YETTBning XII yig'ilishi Toshkentda o'tkazilganligi respublikamizda kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda, moliya sohasini rivojlantirishda hamda banklarning ushbu bank bilan o'zaro manfaatli hamkorligi yanada rivojlanishida o'z ta'siriga ega bo'ldi.

Bundan tashqari, respublikamiz OTB bilan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish sohasida o'zaro keng hamkorlik qilmoqda. O'zbekiston 1995-yil 31-avgustda OTBning to'liq a'zosi bo'ldi. OTB – yirik mintaqaviy hukumatlararo kredit tashkiloti bo'lib, unga a'zo bo'lgan barcha mamlakatlar rivojlanish dasturlarini moliyalashga mo'ljallangan. OTBning O'zbekistondagi faoliyatida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

OTB faoliyati rivojlanishining hozirgi zamon tendensiyalarida quyidagilarni ustuvor yo'nalish sifatida alohida qayd etib o'tish joiz. Jumladan:

– respublikaning eksport qudratini rivojlantirish va yanada mustahkamlash, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirish;

– eksport imkoniyatini kengaytirish, jahon bozoriga kirib borish uchun, avvalo, qimmatli xomashyoni qayta ishlash negizida tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalarni rivojlantirish;

– tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish, xo'jalik ishlarini yurituvchi subyektlarga xorijiy sheriklar bilan bevosita aloqalar o'rnatishda o'z mahsulotlarini chet ellarda sotishda ko'proq erkinlik berish, tovarlarni eksport va import qilishda birmuncha imtiyozli tartibni joriy qilish borasida aniq maqsadni ko'zlab siyosat o'tkazish;

– xorijiy sarmoyalarni respublika iqtisodiyotiga keng ko'lamda jalb etish uchun zarur huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda boshqa shart-sharoitlarni yaratish;

– xalqaro moliyaviy munosabatlarning tarkibiy majmuyini vujudga keltirish;

– xalqaro huquq va xalqaro moliyaviy munosabatlar sohasida malakali mutaxassislar tayyorlashni tashkil etish.

Respublikada investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash uchun xalqaro moliyaviy institutlar ajratayotgan valuta mablag'larini tadbirkorlar tomonidan o'zlashtirish borasida KfV kredit liniyasi yetakchi o'rinni egallamoqda. KfV kredit liniyasi 1997-yili ochilgan bo'lib, uning boshlanishidagi umumiy miqdor 5 mln nemis markasini tashkil qilgan edi. Mazkur liniya bo'yicha kreditlar eksportga yo'naltirilgan va import mahsulotlar o'rnini bosa oladigan mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan loyihalarga berilgan. Hozirgi kunda KfV kredit liniyasi TIFMB, «Ipak-yo'li» aksiyadorlik-innovatsion tijorat banki va boshqa banklar orqali o'z ishini olib bormoqda.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda XMK ham faol qatnashmoqda. XMK Jahon banki tarkibiga kiradi, lekin, Xalqaro qayta qurish va taraqqiyot banki hamda Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasidan farqli o'laroq, yuridik va moliyaviy munosabatlarga nisbatan mustaqil bo'lib, o'zining ishchi xodimlariga va turli davlatlarda o'zining vakolatxonalariga ega. XMKsi 1956-yilda rivojlanayotgan davlatlardagi xususiy sektor loyihalarini moliyalashtirish, kompaniyalarning xalqaro moliya bozorlariga chiqishiga yordamlashish, korxonalarga maslahat xizmatlari va texnika yordami ko'rsatish maqsadida tashkil etilgan. Respublikamiz XMKga 1994-yilda a'zo bo'ldi. XMKning xususiy biznesni investitsiyalash va kreditlashdagi asosiy hamkorlari Braziliya, Tailand, Filippin va Xitoy hisoblanadi. XMK savdo-vositachilik operatsiyalariga kredit bermaydi. XMKning O'zbekistondagi strategiyasi

moliyalash manbalari va texnik ekspertiza olib borishni kengaytirish yo'li bilan investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash va moliyalashtirish, O'zbekistonda kuchli va samarali moliya sektorini barpo etish jarayoniga ko'maklashish va moliyaviy xizmatlar turini kengaytirish hisoblanadi. Mazkur korporatsiyaning kreditlari ham import asbob-uskuna va texnologiyalarni xarid qilishga yo'naltiriladi, shuningdek, maslahat berish va boshqa moliyalash manbalarini jalb qilish hamda lizing bozorini rivojlantirishda faol ishtirok etadi.

Istiqbolda xalqaro moliyaviy institutlarining kredit resurslarini respublikaga kengroq jalb qilish va ularni samarali o'zlashtirish maqsadida Vatanimizga yuqori sifatli texnika-texnologiyalarni yetkazib beruvchi investorlarga nisbatan «ochiq eshik»lar siyosatini olib borish, tashqi va ichki iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish, bevosita xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilishni ta'minlovchi ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlarni yanada takomillashtirish, ajratilayotgan xorijiy kreditlardan to'liq foydalanish maqsadida kredit olish uchun taqdim etilayotgan TIAlarni puxta-pishiq ishlab chiqish, investorlarning qo'ygan kapitali va ularning huquqlarini himoyalashni kafolatlashni yanada kuchaytirish lozim.

Xorijiy investorlar investitsiyalar kiritish to'g'risida qaror qabul qilishda, birinchi navbatda, o'z manfaatlaridan kelib chiqadi va o'zga mamlakatdagi turli-tuman qo'shimcha risklarni ham hisobga oladilar. Albatta, investitsiya loyihalarini xorijiy investitsiya va kreditlari hisobiga samarali moliyalashtirish, eng avvalo, zamonaviy, istiqbolli korxonalar barpo etilishiga, resurstejam texnologiyalarning qo'llanilishiga, ijtimoiy muammolarning hal etilishiga imkon beradi. Bu, o'z navbatida, safarbar etilayotgan investitsiya resurslarining, xorijiy valutadagi kreditlarning samarali o'zlashtirilishini ta'minlash maqsadida monitoring tizimini kuchaytirish talabini kun tartibiga qo'yadi.

Ayni vaqtda respublikamizda investitsiya faolligini ta'minlovchi erkin kapital bozori shakllanganicha yo'q. Shu sababli, investitsiyalarni moliyalashtirishda bozor mexanizmlaridan foydalanish sustligicha qolmoqda hamda investitsiyalarni bilvosita moliyalashtirish mexanizmlarining keng ishlatilishi hamon bank risklari darajasi yuqoriligicha qolayotganligini tasdiqlamoqda.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiya qilish bosqichida mamlakatimizga investitsiyalarni moliyalashtirish tarkibida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. 2000–2011-yillar mobaynida respublikamizda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarining umumiy hajmida Davlat budjeti mablag'lari salmog'ida pasayish, aholi va korxonalar mablag'lari, tijorat banklari kreditlari salmog'ida o'sish tendensiyasi kuzatildi (9.2-jadval).

Bu davlatning iqtisodiyotga aralashuvi tobora qisqarib borayotganligidan, korxonalarning o'z mablag'lari hajmi ortib, ularning moliyaviy barqarorligi oshayoganligidan dalolat bermoqda.

9.2-jadval

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning tarkibi, foiz hisobida

Ko'rsatkichlar	Yillar								
	2004	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013
Jami	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Davlat byudeti mablag'lari	14,4	10,7	9,0	9,0	8,1	7,8	6,5	5,1	5,8
Korxona va aholi mablag'lari	54,6	60,0	59,0	53,9	46,9	47,3	50,2	50,9	47,0
Xorijiy investitsiya va kreditlar	25,1	19,0	22,8	25,8	32,4	28,8	25,1	24,0	23,1
Tijorat banklarining kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	4,1	3,4	3,1	5,0	5,2	9,1	11,1	11,0	13,7
Byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari	1,8	6,9	6,1	6,3	7,4	7,0	7,1	9,0	10,4

O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb etilgan xalqaro investitsiyaviy kreditlar uzoq muddatli bo'lib, ularning aksariyat qismini qaytarish davri 2003-2008-yillarga to'g'ri keldi. Bu, ularning salmog'ida pasayish tendensiyasini yuzaga keltirmoqda. Bank

kreditlarining investitsiyalarni moliyalashtirish hajmidagi salmog'i juda past ekanligi investitsiyalarni moliyalashtirish jarayonida mamlakat banklari ishtiroki sust ekanligidan dalolat beradi. Fikrimizcha, bu salbiy holatning mavjudligi respublikamiz tijorat banklarida uzoq muddatli resurslarning yetishmasligi va banklarning kapitallashuv darajasining past ekanligi bilan izohlanadi. Masalan, 2010-yilning 1-yanvar holatiga tijorat banklari kapitalining YaIMdagi salmog'i 6 foizni tashkil qildi. Holbuki, bu ko'rsatkich o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida 8 foizdan kam bo'lmasligi lozim. 2004-2011-yillar mobaynida budjetdan tashqari jamg'armalar mablag'larining investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari umumiy hajmidagi salmog'ida o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Bu, budjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari investitsiyalarni moliyalashtirish jarayoniga faol tarzda jalb etilayotganligidan dalolat beradi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish borasida amalga oshirilgan ijobiy ishlar natijasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va o'zlashtirish dinamikasida yuqori o'sish sur'atlari ta'minlanmoqda.

Ta'kidlash joizki, jalb etilgan mablag'lar hisobiga investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda bugungi kunda qimmatli qog'ozlar bozori hamda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushi oshib bormoqda va aksincha, bank kreditlarini jalb qilish holati talab darajasida emas. Bu jalb qilingan mablag'lar tarkibida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda bank kreditlarining rolini oshirish talabini keltirib chiqaradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa sifatida qayd etish joizki:

– birinchidan, investitsiya faoliyatini jalb qilingan mablag'lar hisobiga moliyalashtirish, asosan, qimmatli qog'ozlar bozori orqali, xorijiy investitsiyalar hamda bank kreditlari asosida amalga oshirilmoqda;

– ikkinchidan, so'nggi yillarda davlatimiz tomonidan investitsiya faoliyatini rivojlantirishga bo'lgan e'tiborning kuchayishi investitsiya faoliyatini jalb qilingan mablag'lar hisobiga moliyalashtirish tarkibida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarning hamda bank kreditlarining ulushi oshishiga olib keldi;

– uchinchidan, bugungi kunda investitsiya faoliyatini jalb qilingan mablag'lar hisobiga moliyalashtirishda xalqaro moliya institutlari faol ishtirok etib, mamlakatimizga zamonaviy texnika-texnologiyalarni olib kelib, intensiv rivojlanishni yo'lga qo'ymoqda;

– to'rtinchidan, milliy iqtisodiyotimizga jalb etilgan investitsiyalar hajmi barqaror sur'atlarda o'sib bormoqda va uning tarkibida markazlashtirilmagan investitsiyalar ulushi ham jadal sur'atlarda o'sib bormoqda, bu ijobiy holat bo'lib, mamlakatda YaIM barqaror sur'atlarda o'sib borishi uchun shart-sharoit yaratmoqda;

– beshinchidan, investitsiya faoliyatini jalb qilingan mablag'lar hisobiga moliyalashtirishni rivojlantirishga inflyatsiyaning mo'tadil darajasi, barqaror iqtisodiy o'sish, siyosiy barqarorlik, islohotlarning ketma-ketligi va samaradorligi, Davlat investitsiya dasturlarining jozibadorligi kabi omillar ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

9.4. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish usullari

Moliyaviy resurslarni jalb etish imkoniyati nuqtayi nazaridan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ikki usuli: tashqi va ichki manbalarga asoslangan moliyalashtirish farqlanadi. Moliyalashtirishning tashqi manbalariga davlatning maxsus imtiyozli kreditlari (Davlat mulk qo'mitasi, Bandlik jamg'armasi, Dehqon va fermer xo'jaliklari jamg'armalari, Mikrokreditbankning maxsus resursi va h.k.); tijorat banklari kreditlari (Imtiyozli kreditlash maxsus jamg'armasi); qimmatli qog'ozlar chiqarish va sotishdan tushgan mablag'lar; xorijiy kredit liniyalari mablag'lari va boshqalar kiradi.

Moliyalashtirishning ichki usulidan foydalanishda moliyaviy resurslar tashkil topish manbalari sifatida quyidagilar maydonga chiqadi: foyda, oborotdan tashqari aktivlarni sotish, mol yetkazib beruvchilardan olingan kreditlar, debitorlik qarzlarining kamayishi, amortizatsiya ajratmalari, tadbirkorlarning jamg'armalari va boshqalar. Ayrim holatlarda muhim moliyalashtirish manbayi sifatida mol yetkazib beruvchilardan olingan kreditlardan foydalanish mumkin, biroq, bunda mol yetkazib beruvchilar bilan yaxshi munosabatlar saqlanishi va ta'minotning barqarorligi buzilmasligi lozim.

Tashqi moliyalashtirishning har qanday usulida korxona qarz olish hisobiga yoki aksiyalar chiqarish yo'li bilan moliyalashtirishni tashkil etadi. Tashqi manbalardan jalb etilgan mablag'lar quyidagi uch xil baholash mezoniga asoslanadi: mablag'lardan imkon boricha foydalanish vaqti, xarajatlar miqdori (qarz kapitali qiymati), korxona ustidan nazoratning darajasi.

Investitsiya loyihalarini qarz mablag'lari hisobiga moliyalashtirish moliyalashtirishning ssuda vositalaridan foiz to'lash hisobiga foydalanishni xususiyatlovchi usulga asoslanadiki, uning miqdori mahsulot hajmi va korxona foydasi bilan bevosita bog'langan. Ssuda yordamida moliyalashtirish olinadigan qarz qaytarilishi ta'minlanishi uchun mulkiy aktiv bo'lishini talab etadi. Aksiyalar chiqarish yordamida moliyalashtirish uning oldindan ta'minlanishini talab etmaydi, biroq, sarmoyachi uchun korxona mulkiga ma'lum miqdorda egalik qilish huquqini beradi. Investor o'z ulushiga mos tarzda korxona foydasida va aktivlarni boshqarishda qatnashadi.

Ko'pincha, korxonani moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyoj ham, qarz olish ham aksiyalar chiqarishning birligida qondiriladi.

Korxonani moliyalashtirishda aksiyalar chiqarishga raqobatdosh bo'lgan manba bank kreditidir. Bank krediti faqatgina mulk yoki oborot aktivlarining garovi asosida beriladi. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni bu usulda amalga oshirishda kredit uchun foiz to'lovlari, kreditlarning qaytarilish muddati va tartibini hisobga olish lozimki, bu omillar o'ta qattiq shartlarda qo'yiladi.

Qarz mablag'larini banklardan tashqari yana turli moliya-kredit institutlari (lizing kompaniyalari, ipoteka banklari, ishlab chiqarish zaxiralari yoki debitorlik qarzlari evaziga moliyalashtirish bilan shug'ullanuvchi ulgurji mol yetkazuvchi tashkilotlar yoki faktoring kompaniyalari) ham berishlari mumkin.

Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish turli usullar bilan amalga oshiriladi. Uni 9.3-rasm orqali ifodalaymiz.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning umumiy summasi asosiy (loyiha-qidiruv ishlari, maydon tayyorlash, qurilish, texnologiya hamda uskuna-jihozlar sotib olish, montaj, xodimlarni o'qitish va boshqalar) va aylanma (xomashyo, materiallar, chetdan xarid qilinadigan yarim fabrikatlar, yoqilg'i,

energiya, mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish xarajatlari va boshqalarni) kapitalga qilinadigan xarajatlardan tashkil topadi.



9.3-rasm. **Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish usullari**[1]

Shunday qilib, investitsiya faoliyati o'zining aniq tasniflash mezonlari va yo'nalishlariga ega bo'lgan faoliyat turi sifatida uni moliyalashtirish quyidagi:

– qimmatli qog'ozlar bozori orqali moliyalashtirish;

– xorijiy investitsiyalar asosida moliyalashtirish;

– tijorat banklari va xalqaro moliya institutlar mablag'lari hisobidan ulush qo'shish orqali moliyalashtirish mexanizmi yoki kredit liniyalari orqali moliyalashtirish;

– sinditsiyalashtirilgan kreditlar asosida moliyalashtirish mexanizmi;

– investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish mexanizmi;

– venchurli moliyalashtirish;

– korporativ moliyalashtirish;

– lizing orqali moliyalashtirish kabi mexanizmlar majmuyi hisobiga amalga oshiriladi.

Investitsiya loyihalarini venchurli moliyalashtirish – yuqori risk holatida moliyalashtirish hisoblanadi. Venchurli moliyalashtirish, asosan, zamonaviy texnika, texnologiya va yangi turdagi ishlab chiqarishlarga joylashtiriladi. Venchur operatsiyalari (riskli operatsiya) – kapital qo'yilmalar shaklidagi pul operatsiyalari

[1] G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: «Moliya», 2003. – B. 80.

hamda qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar – ilmiy-tadqiqotlar, loyiha-konstruktorlik ishlanmalari, kashfiyotlar yaratish va joriy qilish, yangi texnologiyalarni joriy qilishni moliyalashtirish bilan bog'liq bo'ladi. Bunday moliyalashtirish, asosan, innovatsion banklar va venchur firmalari (fondlari) tomonidan amalga oshiriladi.

Shuningdek, investitsiyalarni moliyalashtirishning bozor mexanizmlariga xos bo'lgan aralash shakldagi moliyalashtirish, xo'jalik subyektlari va aholining bo'sh mablag'larini to'g'ridan to'g'ri investitsiya obyektiga yo'naltirish, budjetdan tashqari jamg'armalarning mablag'lari evaziga moliyalashtirish kabilarni ham kiritish mumkin.

Nazorat savollari

- Investitsiya faoliyatining moliyaviy ta'minoti deganda nimani tushunasiz?
- Hozirgi zamon ilmiy qarashlarida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish mexanizmi qanday xususiyatlar bilan ajralib turadi?
- Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmi qanday xususiyatlarga ega?
- Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning davlat mexanizmi qanday xususiyatlarga ega?
- Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning qanday manbalarini bilasiz?
- Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish tarkibidagi o'z mablag'larga qanday manbalar taalluqli?
- Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish tarkibidagi jalb qilingan mablag'lariga qanday manbalar taalluqli?
- Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish tarkibidagi qarz mablag'lariga qanday manbalar taalluqli?
- Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish tarkibidagi budjet mablag'lariga qanday manbalar taalluqli?
- Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda xorijiy investorlar mablag'lari o'rni va ahamiyatini izohlab bering?
- Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning nazariy jihatlari qaysi iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan?

➢ Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish mexanizmi deganda nimani tushunasiz?

➢ O'zbekistonda investitsiya faoliyatini moliyaviy ta'minlash tizimi o'z tarkibiga nimalarni qamrab oladi?

➢ Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda foydaning o'rni va ahamiyatini yoritib bera olasizmi?

➢ Korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning qanday ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi?

➢ Kredit deganda nimani tushunasiz?

➢ Iqtisodiy adabiyotlarda kreditning mazmun-mohiyatiga qanday ta'riflar berilgan?

➢ Kreditning qanday tamoyillari mavjud?

➢ Kreditning qaysi bir muhim jihatlarini ajratib ko'rsatish mumkin?

➢ Investitsiya faoliyatini moliyaviy ta'minlashda qimmatli qog'ozlar bozorining o'rni va ahamiyatini izohlab bering?

➢ Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda xalqaro moliya institutlarining o'rni va ahamiyatini qanday izohlaysiz?

➢ Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda lizing kreditining xususiyatlari nimada, deb hisoblaysiz?

➢ Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning qanday usullarini bilasiz?

➢ Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning tashqi manbalariga nimalar kiradi?

➢ Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning ichki manbalariga nimalar kiradi?

➢ Investitsiya loyihalarini qarz mablag'lari hisobiga moliyalashtirish nimalarni nazarda tutadi?

➢ Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda bankdan tashqari kredit tashkilotlarining rolini izohlab bering?

➢ Sinditsiyalashtirilgan kreditlar asosida moliyalashtirish deganda nimani tushunasiz?

➢ Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish mexanizmini qanday izohlaysiz?

➢ Venchurli moliyalashtirishning xususiyatlarini aytib bering?

X BOB. INVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISHDA MOLIYAVIY VOSITALAR

10.1. Moliyaviy vositalar, ularning mohiyati, turlari va xususiyatlari

O'zbekiston iqtisodiyotini barqarorlashtirish, tashqi iqtisodiy aloqalar ko'lamini kengaytirish va investitsiyalar salmog'ini oshirishda moliyaviy investitsiyalar katta ahamiyat kasb etadi. Biroq, jahon inqirozi sharoitida bu turdagi investitsiyalarni jalb qilishda qator muammolar yuzaga kelishi mumkin va buning bir qancha sabablari bor.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda turli moliyaviy vositalardan keng foydalaniladi. Moliyaviy vositalar turlari va xususiyatlari, chiqarilishi va muomalasi, iqtisodiy samaradorligi, iqtisodiy-huquqiy munosabatlarni belgilashi, bajaradigan funksiyalari bilan farqlanadi.

Keng ma'noda moliyaviy vositalar moliya tizimi va uning tarkibiy bo'g'inlarida qo'llaniladigan vositalar, usul, usul elementlari, investitsiya vositalari (qimmatli qog'ozlar) va ularning muomalasini amalga oshirish va tartibga soluvchi vositalarni o'z ichiga oladi. Bundan kelib chiqib, moliyaviy vositalarni uch guruhga ajratish mumkin:

– budjet-soliq siyosati va uni samarali tashkil etish bilan bog'liq vositalar;

– pul-kredit siyosati va uni samarali tashkil etish bilan bog'liq vositalar;

– investitsiya faoliyati va uning samaradorligini ta'minlovchi vositalar.

Biz, darslikning ushbu bobida faqat investitsiya faoliyati, uning samaradorligini ta'minlovchi va moliyalashtiruvchi moliyaviy vositalarga to'xtalib o'tamiz.

Moliyaviy vositalar investitsiyalash jarayonida qo'llaniladigan turli xildagi moliyaviy elementlar, operatsion sikllar, qimmatli qog'ozlar va ularning hosilalaridir. Investitsiya maqsadi va investitsiyalarni samarali boshqarish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turli xususiyatlarga ega bo'lgan moliyaviy vositalar qo'llanilishi mumkin.

Moliyaviy vositalar vaqt o'tishi bilan uzluksiz takomillashib borishi yoki qandaydir qo'shimcha funksiyaga ega bo'lishi yoki mazmunan va shaklan o'zgarishi tabiiy holatdir.

Moliyaviy vositaning ekvivalentlik xususiyati bevosita va bilvosita, real va nisbiy bo'lishi mumkin.

Moliyaviy vositalarning tovarliligi xususiyati uni boshqa turdagi tovarlardan (ko'chmas va intellektual mulk, xomashyo va shu kabilar) farqli kimningdir (iqtisodiyot subyektlari) tomonidan chiqarilishi, moliya bozorida muomalada bo'lishi, unda maxsus funksiyalarni bajarishi bilan belgilanadi.

Moliyaviy vositalarning tovar sifatidagi asosiy maqsadlaridan biri foyda olish bo'lganligi uchun kapitalni (jamg'armani) orttirish – bir vaqtning o'zida kapital qo'yilmalar uchun mo'ljallangan bozor hamdir.

Pul mablag'lari moliyaviy vositalarning har qanday turiga qo'yilishi (yo'naltirilishi) mumkin. Buning barcha holatlarida yo'naltirilgan pul mablag'lari vaqt mobaynida o'z orttirmasiga (yoki zarariga) ega bo'lishi, ya'ni foyda yoki zarar keltirishi mumkin.

Demak, moliyaviy vositalar moliyaviy resurslarni investorlardan iste'molchilarga tomon va aksincha, yo'nalishda harakat qilishini ta'minlovchi vositalar hisoblanadi.

Moliyaviy vositalar yordamidagi resurslar harakati quyidagi omillarga bog'liq[1]:

– moliyaviy vositalarning daromadlilik va risk darajasi;

– moliyaviy vositalarni soliqqa tortish shart-sharoitlari;

– moliyaviy vositalarning real bazis bilan ta'minlanganligi va shu asosda iqtisodiyot va moliya bozorining ekvivalentligi;

– tanlangan rivojlanish modeli;

– makro - mikroiqtisodiy barqarorlik;

[1] Шохъязамий Ш.Ш. Финансовый рынок и ценные бумаги. Книга 1. Учебник. – Т: «Iqtisod-moliya», 2005. С. 13, 31-34.

– moliyaviy vositalar bozoriga ta'sir etuvchi boshqa omillar.

Moliyaviy vositaning quyidagi funksiyalarini ta'kidlash mumkin:

– o'ziga xos bozor orqali moliyaviy resurslarni (kapitalni) iqtisodiyotda (iqtisodiyot subyektlari o'rtasida) samarali taqsimlash va qayta taqsimlash;

– bir vaqtda iqtisodiy va yuridik mazmunni o'zida mujassamlashtirgan holda uning egasi, chiqaruvchisi va davlat o'rtasidagi iqtisodiy-huquqiy munosabatlarni belgilash;

– o'z egalariga kapitalga egalik qilish huquqi bilan birga boshqa ma'lum qo'shimcha huquqlarni berish;

– alohida tovar sifatida muomalada bo'lish, bozor konyunkturasini va unda biznes sifatini belgilash; uning chiqaruvchisi va bozor holati to'g'risida informatsiya bilan ta'minlash;

– investitsion aktiv va jamg'arma sifatida xizmat qilish;

– risk sharoitida kapital bo'yicha daromad olishni, kapitalni qaytarilishini ta'minlash va h.k.

Zamonaviy moliya bozori moliyaviy vositalarning turli xillari bilan mujassamlashgan bo'lib, ularni bir necha belgilar asosida tasniflashni taqozo etadi.

Muomalaga chiqarilish maqsadi – to'lov va pul aylanmasi uzluksizligini ta'minlash, investitsiyalarni jalb qilish va ular bo'yicha daromad olish yuzasidan mos ravishda: pul-kredit siyosatini amalga oshirishning qarz munosabatlarini mujassamlashtiruvchi moliyaviy vositalar (davlat va bank vositalari), qarz (davlat va korporativ maqsadda) va ulush (korporativ maqsadda) munosabatlarini ifodalovchi investitsiyaviy moliyaviy vositalar.

Qimmatli qog'oz – bu, umuman olganda, monetizatsiyalashgan (pul bilan ta'minlangan) real bazisga ekvivalent qiymatga va xususiyatlarga ega bo'lgan, o'ziga xos bozordagi moliyaviy munosabatlarni belgilovchi, shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi, moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishi va qayta taqsimlanishini ta'minlovchi, muayyan hollarda ma'lum shakllarda daromad keltiruvchi vosita sifatida har xil turlarda, shakl va mazmunlarda namoyon bo'ladigan ham investitsiya kapitali (aktiv, maxsus fond jamg'armasi boyligi, qimmatli qog'ozlar portfeli), ham to'lov vositasi, ham alohida fond bozori tovaridir.

Qimmatli qog'ozlar – hujjatlar bo'lib, ular bu hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o'tkazish imkoniyatini nazarda tutadi. Qimmatli qog'ozlarning qiymati O'zbekiston Respublikasi milliy valutasida ifodalanadi. Qimmatli qog'ozlarga aksiyalar, obligatsiyalar, xazina majburiyatlari, depozit va jamg'arma sertifikatlari, veksellar, shuningdek, hosila qimmatli qog'ozlar kiradi.

Qimmatli qog'ozlar ularni chiqargan shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki zayom munosabatlarini tasdiqlovchi dividend yoki foizlar ko'rinishida daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga berish imkoniyatini nazarda tutuvchi hujjatlardir. Ko'rinib turibdiki, bunda ularning ekvivalentlilik xususiyati inobatga olinmagan. Qimmatli qog'oz – bu shu qog'oz egasining qimmatli qog'ozni chiqargan shaxsda qarzi yoki mulkida ulushi borligini tasdiqlovchi hujjat.

Iqtisodiy qonunlarning deyarli barcha jumlalarida qimmatli qog'oz – hujjat sifatida talqin qilingan. Biroq, jahon amaliyoti bilan tanish bo'lgan har bir mutaxassisga shu narsa ma'lumki, rivojlangan mamlakatlarda katta miqdordagi qimmatli qog'ozlar aynan qog'ozlar, blanklarni talab qilmaydigan naqdsiz shaklda chiqariladi.



10.1-rasm. **O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra amal qilish huquqi mavjud qimmatli qog'ozlar**

Mulkiy huquq bu u bo'yicha iqtisodiy o'zaro munosabatlar subyektlari mol-mulkka, tovar-moddiy boyliklariga, pul mablag'-lariga da'vogarlik qilishi mumkin bo'lgan huquqdir.

Nomulkiy huquq bu, masalan, aksiyadorning kompaniyaning umumiy yig'ilishida ovoz berish, emitentning faoliyati haqida axborot berilishini talab qilish va h.k. huquqidir.

Korxona ixtiyorida bo'lgan qimmatli qog'ozlarning barchasi investitsion portfel deyiladi.

Shuni qayd etish lozimki, qimmatli qog'ozlarning mohiyati ular bajarilishi kerak bo'lgan funksiyalarida namoyon bo'ladi. Qimmatli qog'ozlarning bajarishi lozim bo'lgan quyidagi funksiyalari e'tirof etilgan: investitsiya, rag'batlantiruvchi, xususiylashtiruvchi, inflyatsiyaga qarshi turuvchi. Ijtimoiy himoya qiluvchi qimmatli qog'ozlarning investitsiya funksiyasi mohiyati shundan iboratki, qimmatli qog'ozlar ayrim olingan tarmoqlarda vujudga keltirilishi mumkin bo'lgan kapital qo'yilmalar va moliyaviy taqchillikning oldini olishga yordam beradi; texnikaviy va qayta rekonstruksiyani amalga oshirishga imkon beradi; bozor infratuzilmasi obyektlarining me'yorida ishlashini ta'minlaydi. Qimmatli qog'ozlarning mazkur funksiyasi jihatidan ham ular investitsiyalar tarkibining elementi bo'lib hisoblanadi.

10.2. Birlamchi moliyaviy vositalar. Hosilaviy moliyaviy vositalar

Moliyaviy vositalar (qimmatli qog'ozlar)ni birlamchi moliyaviy vositalar va hosilaviy moliyaviy vositalarga ajratish mumkin. Birlamchi moliyaviy vositalarga aksiyalar, obligatsiyalar, depozit va jamg'arma sertifikatlari, veksellar va boshqa vositalarni kiritish mumkin. Ular investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda birlamchi vositalar sifatida ishtirok etadi hamda firmaning investitsiya faolligini belgilashda muhim o'rinni egallaydi.

Aksiya – o'z egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividend tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'oz.

Aksiya o‘zining faqat unga tegishli sifatlari bilan har xil turdagi qimmatli qog‘ozlar ichida alohida o‘rin tutadi.

Eng avvalo, bu — amal qilish muddati belgilanmagan qimmatli qog‘oz bo‘lib, u uni chiqargan aksiyadorlik jamiyati amal qilib turgan yil mobaynida muomalada bo‘lishi mumkin. Aksiya egasi aksiyadorlik jamiyati tugatilgan hollarda uning mol-mulkini taqsimlashda ishtirok etish huquqiga ega.

Aksiyalar bo‘yicha olingan daromad — dividend, deb nomlanadi. Dividend, odatda, aksiyadorlik jamiyatining foydasiga bog‘liq bo‘ladi. Agar kompaniya hisobot yili natijalariga ko‘ra katga foydaga ega bo‘lsa, unda katta dividend to‘lash imkoniyati bo‘ladi va aksincha. Agarda foyda mutlaqo bo‘lmasa, dividend to‘lanmasligi mumkin. Biroq, umumiy qoidalardan istisno hollar ham mavjud.

Ayrim iqtisodchilar, umuman, aksiyaga xaridor qancha pul to‘lashga tayyor bo‘lsa, uning narxi shuncha, deb hisoblashadi. Biroq, aksariyat mamlakatlarning aksiyalarida nominal qiymat baribir ko‘rsatiladi.

Aksiyalarga nominal qiymatning belgilanishi fond bozori endigina rivojlanib borayotgan O‘zbekiston uchun ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan. Bu, birinchidan, nominal qiymat qimmatli qog‘oz egasiga aynan ruhiy ta’sir ko‘rsatadi va unga bu oddiygina mavhum majburiyat emas, balki ma’lum bir miqdordagi mulkiy unvon, deb hisoblashga asos bo‘ladi. Bundan tashqari, chiqarilgan aksiyalarning nominal qiymatidan aksiyadorlik jamiyatining ustav sarmoyasi vujudga keladi. Aksiyalarni nominal qiymatisiz chiqarish, shubhasiz, hisobga olishda qiyinchiliklar tug‘dirgan bo‘lar edi. Va, nihoyat, aksiyalarni ikkilamchi bozorda sotishdagi nominal hamda kurs qiymati o‘rtasidagi ijobiy farq salohiyatli sarmoyador uchun kompaniyadagi ishlar ahvoliga nisbatan ayrim xulosalarni chiqarish imkonini beradi, bu qimmatli qog‘ozlarni xarid qilish haqida qaror qabul qilishda juda muhimdir.

Turli mamlakatlarda aksiyalarning eng kam (minimal) nominal qiymatlari turlicha belgilangan. Aksiyaning bozorda sotiladigan narxi aksiya kursi[1], deb nomlanadi. Bu aksiyalar bahosining

[1] Aksiya kursi – aksiyaning bozor narxi. Aksiya kursi aksiya keltiradigan dividend miqdoriga to‘g‘ri mutanosib va bank foizi darajasiga teskari mutanosiblikda o‘zgaradi. Aksiya kursi aksiya nominalidan (aksiyada ko‘rsatilgan

asosiy shaklidir. Ushbu narx aksiyaning real qiymatini belgilab beradi. Aksiyalar kursi aksiya bo'yicha olinadigan dividendga bevosita bog'liq bo'lsa, ssuda foizining me'yoriga nisbatan teskari munosabatda bo'ladi. Aksiyalar kursi – bu kapitallashtirilgan dividend bo'lib, u pul sarmoyasi summasiga tenglashtiriladi, ushbu kapital bankka qo'yilgan yoki qarzga berilgan holda aksiya bo'yicha olinadigan dividendga teng miqdorda daromad keltiradi. Kurs bahosiga dividend va qarz me'yoridan tashqari, boshqa omillar ham ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston hududida chiqariladigan aksiyalar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Ochiq aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari, ular ochiqchasiga muomalaga chiqariladi va keyinchalik boshqa aksiyadorlarning roziligisiz qo'ldan-qo'lga o'tishi mumkin hamda yopiq aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari, bular birlamchi joylashtirilishida oldindan ajratib olingan sarmoyadorlar o'rtasida taqsimlanadi va faqat kompaniya umumiy yig'ilishining roziligi bilan qo'ldan-qo'lga o'tishi mumkin.

2. Egasining nomi yozilgan va ko'rsatuvchi egalik qiladigan aksiyalar. O'zbekistonda ko'pchilik aksiyalar egasining nomi yozilgan shaklda chiqariladi.

3. Oddiy va imtiyozli.

Imtiyozli aksiyalarning umumiy nominal qiymati kompaniya ustav sarmoyasining 20 foizidan oshmasligi kerak.

Erkin iqtisodiyot sharoitida aksiyalarning jahon amaliyotida juda ko'plab turlari mavjud bo'lib, ma'lum ma'noda ular aksiyalar bozorining jozibadorligi va muomalasi jarayonida investorlar va emitentlarning o'zaro munosabatlarini belgilaydi.

Obligatsiya (lot. obligatio – majburiyat) – bu uning egasi qarz berganligidan guvohlik beruvchi va unga ushbu qimmatli qog'ozning nominal qiymatini unda ko'rsatilgan muddatda belgilangan (qat'iy) foiz to'langan holda qoplash majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog'oz. Aksiyadan farqli ravishda obligatsiya emitentning mol-mulkiga nisbatan mulk unvoni hisoblanmaydi. U ovoz berish va boshqarish huquqini bermaydi.

---

summadan) yuqori yoki past bo'lishi mumkin, bu talab va taklifga bog'liq. Aksiya kursini emitent emas, bozor belgilaydi. Aksiya kursi quyidagicha belgilanadi: Ak = Dv : Bf x 100, bunda: Ak – aksiya kursi; D_v – dividend; B_f – bank foizi. Aksiya narxining birjada belgilanishi birja kotirovkasi deyiladi.

Obligatsiya – bu bir shaxsning (sarmoyador-kreditorning) boshqa bir shaxsga (emitent-qarzdorga) mablag'larni foydalanish uchun berganligi (kredit) haqidagi guvohnoma. Obligatsiyalar ma'lum muddatga chiqariladi va so'ndirilishi shart. Emitentning faoliyati tugatilganda ularning egalari qimmatli qog'ozlar boshqa turlarining egalariga qaraganda an'anaviy tarzda ustunlikka ega bo'ladi.

Davlat obligatsiyalari. Davlat qimmatli qog'ozlari – O'zbekiston Respublikasining g'azna majburiyatlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organ tomonidan chiqariladigan obligatsiyalar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari.

Obligatsiyalar o'zida kredit munosabatlarini aks ettiradi, bunda davlat qarzdor, aholi yoki korxona va tashkilotlar kreditor sifatida ishtirok etadi (davlat krediti). Bugungi kunda davlat obligatsiyalari obligatsiyalarning eng keng tarqalgan turidir. Davlat obligatsiyalari emissiyasini hukumat, aksariyat hollarda, davlat budjeti taqchilligini qoplash maqsadida amalga oshiradi. Bevosita davlat obligatsiyalari operatsiyalari bilan kredit muassasalari shug'ullanadi. Foizlarni to'lash manbasi – davlat xazinasiga korxonalardan soliq ko'rinishida kelib tushadigan, amalga oshirilgan qo'shimcha qiymatdir. Davlat obligatsiyalari, odatda, mamlakatning mol-mulki, boyligi bilan kafolatlangan va shuning uchun ham investitsiya aktivlarining eng ishonchli turi hisoblanadi. Davlat obligatsiyalari bo'yicha olingan daromadlar soliqqa tortilmaydi. Shuning uchun ular bo'yicha foiz stavkalari korporatsiyalarning eng birinchi darajali obligatsiyalari bo'yicha to'lanadigan foiz stavkalariga qaraganda past. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda jami davlat qarzining katta qismini aynan turli yillarda chiqarilgan obligatsiyalar tashkil etadi.

Korxonalar obligatsiyalari tijorat krediti va munosabatlarining asosiy quroli bo'lib, unda bir turdagi korxonalar qarzdorlar, boshqa korxonalar yoki aholi kreditorlar bo'lishadi.

Korxonalar obligatsiyalari sanoat korxonalarini kreditlash jarayonlarida, ya'ni banklar berilgan kreditlarga qarshi ulardan yanada mayda summalarga bo'lingan qarz majburiyatlari (obligatsiyalar)ni olgan yillarda paydo bo'ldi. Sanoat obligatsiyalari o'rniga beriladigan bunday kredit, ko'pincha, bank kreditining boshqa

turlariga qaraganda arzonroq bo'lgan. Sanoat obligatsiyalari bo'yicha, odatda, ancha yuqori foizlar to'lanar edi. Chunki obligatsiyalar bo'yicha foiz to'lovlarini korxonaning soliqqa tortiladigan foydasidan chiqarib tashlash mumkin bo'lib, aksiyalar bo'yicha dividendlar soliqqa tortilar edi.

Moliyalash vositasi sifatida obligatsiyalar o'zlarining ustun tomonlari bilan bir qatorda kamchiliklariga ham ega. Sanoat obligatsiyalari bo'yicha qat'iy foiz kompaniya uchun doimiy xarajatlarning o'sishini anglatadi. Tanglikka uchragan davrlarda bunday xarajatlar dividendlardan farqli ravishda, emitent uchun juda sezilarlidir, chunki dividendlar kompaniyaning daromadlariga qarab ancha past darajada belgilanishi yoki umuman, to'lanmasligi ham mumkin.

Belgilangan daromadga ega bo'lgan korxonalar obligatsiyalarining jozibadorligi shunda namoyon bo'ladiki, ular aksiyalardan farqli o'laroq, o'z nominal qiymatidan past bo'lgan kursda sotilishi mumkin, masalan, 1000 so'm o'rniga 970 so'mga. Shuningdek, obligatsiyalarni so'ndirish nominal bo'yicha emas, balki ancha yuqori bo'lgan bozor narxida o'tkazilishi to'g'risida kelishuvga erishish ham mumkin, masalan, 1000 so'm o'rniga 1025 so'mdan.

Korxona obligatsiyalarini chiqarish to'g'risidagi qaror korxona ma'muriyati tomonidan, aksiyadorlik jamiyati obligatsiyalarini chiqarish to'g'risidagi qaror ijroiya organ (boshqaruv) tomonidan qabul qilinadi. Qaror tegishli bayonnoma bilan rasmiylashtirilishi kerak. Korxonalar tomonidan, asosan, ustav fondini shakllantirish hamda to'ldirish, zararlarni qoplash uchun obligatsiyalar chiqarilishiga yo'l qo'yilmaydi.

G'azna majburiyatlari. O'zbekiston Respublikasining g'azna majburiyatlari – emissiyaviy qimmatli qog'ozlar egalari O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga pul mablag'lari kiritganliklarini tasdiqlovchi va bu qimmatli qog'ozlarga egalik qilishning butun muddati mobaynida qat'iy belgilangan daromad olish huquqini beruvchi emissiyaviy qimmatli qog'ozlar.

O'zbekistonda g'azna majburiyatlarining quyidagi turlari chiqariladi:

1. Uzoq muddatli – 5 yil va undan ortiq muddatga chiqarilishi
mumkin (xalqaro amaliyotda ular BOND degan nomni olishgan).

2. O'rta muddatli – 1 yildan 5 yilgacha bo'lgan muddatga chiqariladigan (NOTE).

3. Qisqa muddatli – 1 yilgacha, 3, 6 va 9 oygacha bo'lgan muddatga chiqariladigan (BILL).

Uzoq muddatli va o'rta muddatli xazina majburiyatlarini chiqarish to'g'risidagi qaror O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan, qisqa muddatlilarni chiqarish qaror Moliya vazirligi tomonidan qabul qilinadi.

O'z tabiatiga ko'ra, xazina majburiyatlari davlat obligatsiyalariga juda yaqin. Amalda xazina majburiyatlari jismoniy shaxslar uchun chiqariladigan davlat obligatsiyalaridan boshqa narsa emas, ular bo'yicha daromadlarni qimmatli qog'ozlarga egalik qilishning butun muddati davomida olish mumkin.

Depozit sertifikatlari. Depozit sertifikati (ingl. Certificate of deposite) – bankka qo'yilgan omonat summasini va omonatchining (sertifikat saqlovchining) omonat summasini hamda sertifikatda shartlashilgan foizlarni sertifikatni bergan bankdan yoki shu bankning istalgan filialidan belgilangan muddat tugaganidan keyin olish huquqini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz. Depozit sertifikatlari o'tgan asrning 60-yillardan boshlab AQSh va Buyuk Britaniyada omonat depozit guvohnomasining bir turi, kredit muassasasiga pul qo'yilganligini tasdiqlovchi hujjat sifatida faol taraqqiy etdi. Ushbu hujjat orqali omonat talab qilib olinishi mumkin. Yuqorida qayd etilgan mamlakatlarda muddatli muomalada bo'ladigan depozit sertifikatlarini chiqarish keng tarqaldi, ular omonatchilar tomonidan dillerlarga emas, balki bankka foizlarning yo'qotilishi bilan sotilishi yoki o'tkazma yozuvlar yordamida bir shaxsdan ikkinchi shaxsga qayta sotilishi mumkin. Bunday sertifikatlar AQShda yirik summalarga chiqariladi. 100 mingdan 1 mln AQSh dollarigacha. Sarmoyador sifatida yirik korxonalar, horijiy omonatchilar, mahalliy hokimiyat idoralari ishtirok etishi mumkin. Sertifikatlar, ayniqsa, ularning soliq to'lashga qabul qilinishi tufayli juda ommabop bo'lib qoldi.

Sertifikatning muomalada bo'lish muddati berilgan sanadan boshlab uning egasi omonatni talab qilib olish huquqini oladigan

sanagacha hisoblanadi. Agar sertifikat bo'yicha depozit va omonatni olish muddati kechiktirilsa, u holda bunday sertifikat u bo'yicha talab qilib olinadigan hujjat hisoblanadi, ushbu sertifikat bo'yicha bank uning egasining birinchi talabiga ko'ra zudlik bilan unda ko'rsatilgan summani to'lash majburiyatini oladi.

Veksellar. Veksel (nemischa «Wechsel») — veksel beruvchining yoki vekselda ko'rsatilgan boshqa to'lovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga muayyan summani to'lashga doir sharsiz majburiyatini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz. Oddiy veksel (solo veksel) — bu qarzdorning (veksel beruvchining) muayyan pul summasini ko'rsatilgan muddatda kreditorga (birinchi oluvchisiga) to'lash majburiyatini ifodalovchi hujjat. O'tkazma veksel (tratta) — bu veksel beruvchi kreditor (trassant)ning qarzdor (trassat)ga ma'lum pul summasini ko'rsatilgan muddatda uchinchi shaxs birinchi oluvchi (remitent)ga to'lashi buyrug'ini ifodalovchi hujjat. O'tkazma veksel, agar u qarzdor — trassat tomonidan akseptlanmagan bo'lsa, qonuniy kuchga ega bo'lmaydi. Aksept (to'lash uchun rozilik) yozma ravishda vekselning ustki tomonida amalga oshiriladi. Aksept umumiy yoki chegaralangan (qisman) bo'lishi mumkin. Qismli aksept — bu qarzdorning veksel valutasi bir qismini to'lash uchun yozma ravishdagi roziligidir. Veksel akseptlanmagan hollarda yoki u bo'yicha to'lovdan bosh tortilsa, veksel bo'yicha da'vo qilinishi mumkin. Bunda uning egasida veksel bo'yicha majburiyatga ega bo'lgan oldingi shaxslarga regress, ya'ni qaytarma talab tartibida to'lash huquqi paydo bo'ladi.

Veksel majburiy rekvizitlarga ega bo'lishi lozim, ulardan hech bo'lmaganda bittasining yo'qligi vekselni haqiqiy bo'lmasligiga olib keladi.

Oddiy vekselning boshqa qarz majburiyatlaridan farqi quyidagilardan iborat: veksel o'tkazma yozuv bo'yicha qo'ldan-qo'lga o'tkazilishi mumkin; vekselda ishtirok etuvchi shaxslar veksel bo'yicha birgalikda javobgarlikka ega, qaytmaslik yozuvini qayd etuvchi shaxslar bundan mustasno; imzolarga guvohlik berish uchun notarial idoraga kelish talab etilmaydi; veksel belgilangan muddatda to'lanmagan hollarda notarial noroziligini qo'zg'atish zarur; veksel mavxum pul hujjati hisoblanadi va shu sababli zakalat, garov yoki jarima bilan ta'minlanadi.

O'tkazma vekselning oddiy vekseldan asosiy farqi shundan iboratki, u qimmatliklarni bir shaxs ixtiyoridan boshqa shaxs ixtiyoriga o'tkazish uchun mo'ljallangan. O'tkazma vekselni berish (trassirovka qilish) – aksept va u bo'yicha to'lov kafolati majburiyatini o'z zimmasiga olish demakdir. Bundan shu narsa kelib chiqadiki, uni boshqa shaxsga trassirovka qilish faqat agar trassant (veksel beruvchi) trassat (to'lovchi)da o'z ixtiyorida trassirovka qilinayotgan veksel summasidan kam bo'lmagan qimmatlikka ega bo'lgan vaziyatda mumkin bo'ladi. Oddiy vekseldan farqli o'laroq, o'tkazma vekselda ikkita emas, balki uchta shaxs qatnashadi: veksel beruvchi (trassant); veksel bilan birga u bo'yicha to'lovni talab qilish huquqini oluvchi dastlabki xaridor (yoki veksel egasi); to'lovchi (trassat), unga veksel egasi to'lovni amalga oshirishni taklif etadi (vekselda bu «to'lang» degan so'z bilan ifodalanadi). Bu yerda trassantning majburiyati shartli ravishda belgilanadi. U, bordi-yu to'lovchi (trassat) veksel summasini to'lamasa, ushbu summani to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Shunday qilib, oddiy vekselda to'lovchi vekselni beruvchi bo'lsa, o'tkazma vekselda trassat, deb nomlanuvchi alohida shaxs to'lovchi hisoblanadi. Uning nomi matnda majburiylar safiga kiritilishi tasodif emas, chunki u veksel (aksept)ni qabul qilganidan so'ng oddiy vekselda veksel beruvchi holatini egallaydi.

Hosilaviy moliyaviy vositalar (HMV) – o'z egalarining boshqa qimmatli qog'ozlarga nisbatan huquqlarini yoki majburiyatlarini tasdiqlovchi va yuridik shaxslar tomonidan emitentning opsionlari, qimmatli qog'ozlarga doir fyucherslar va boshqa moliyaviy vositalar tarzida chiqariladigan qimmatli qog'ozlar. HMV – bu shartnomalar bo'lib, ular bo'yicha bir tomon qimmatli qog'ozlarning ma'lum bir miqdorini ma'lum muddatda kelishilgan narxda sotib olish yoki sotish huquqi yoxud majburiyatini oladi. Ko'pincha, bazis aktivi (ya'ni shartnoma asosida yotuvchi qimmatli qog'oz) sifatida aksiyalar va obligatsiyalar ishtirok etadi.

HMV opsionlar, fyucherslar va varrantlar ko'rinishida chiqarilishi mumkin.

Opsion (nemischa «option») – emitentning muayyan miqdordagi qimmatli qog'ozlarini opsionda ko'rsatilgan muddatda

qat'iy belgilangan narxda sotib olish huquqini tasdiqlovchi emissiyaviy qimmatli qog'oz. Opsionning o'ziga xos xususiyati shundaki, uning egasi qimmatli qog'ozning o'zini xarid qilmaydi, balki uni sotib olish yoki sotish huquqiga ega bo'ladi. Bunda u o'zining xarid qilish yoki sotish huquqidan foydalanishi, yo bo'lmasa, undan voz kechishi mumkin. Opsion shartnomasida ikki tomon ishtirok etadi: opsion xaridori (egasi) – ma'lum miqdordagi qimmatli qog'ozlarni sotib olish yoki sotish huquqiga ega bo'ladigan shaxs hamda sotuvchi (ustiga yozuvchi) – tegishli ravishda ushbu qimmatli qog'ozlarni sotish yoki xarid qilish majburiyatini o'z zimmasiga oluvchi shaxs.

Barcha opsionlar ikki xilga bo'linadi. Xarid qilish uchun opsion «koll opsion» (sall) va sotish uchun opsion – put opsion (rut). Xarid qilish opsioni (sall) kelajakda hosila qimmatli qog'oz tomonidan belgilangan shartlarda bazis aktivini sotib olish huquqini beradi. Sotish opsioni (rut) o'z egasiga kelajakda bazis aktivini hosila qimmatli qog'oz shartlariga muvofiq sotish huquqini beradi.

Opsionning turlaridan biri varrant (varrant) hisoblanadi. Varrant – bu uning egasi ma'lum muddat davomida yoki ma'lum bir kunda varrantlar emitenti tomonidan dastlabki chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni xarid qilish huhuqini olganligini tasdiqlovchi hujjat. Shunday qilib, varrantlarni chiqarish bazis aktivini tashkil etuvchi qimmatli qog'ozlarni chiqarish bilan bog'lanadi. Varrantning bazis aktivi bo'lgan qimmatli qog'ozlarning bir nashri faqat varrantning bitta nashriga huquq beradi.

Varrant emitentlari varrantlarning dastlabki egalariga ularni xarid qilish uchun teng narx shartlarini ta'minlashi kerak. Varrantlar egalari uchun qimmatli qog'ozlarning joylashtirish narxi ushbu qimmatli qog'ozlarni varrantlar egasi bo'lmagan sarmoyador tomonidan joylashtirilishi narxidan farq qilishi mumkin. Varrantlar bilan operatsiyalar qimmatli qog'ozlarning birja va birjadan tashqari bozorlarida bajarilishi mumkin.

Fyuchers (futures) – o'zida nazarda tutilgan muddatda muayyan miqdordagi qimmatli qog'ozlarni qat'iy belgilangan narxda sotib olish yoki sotish majburiyatini tasdiqlovchi emissiyaviy qimmatli qog'oz. Fyuchers shartnomalari birjalarda sotiladigan qimmatli qog'ozlarga ham, tovarlarga ham taqdim

etilishi mumkin. Fyucherslarning asosiy belgisi – narxining aniqligi va ijro etishning majburiyligidir. Fyucherslar shartnoma bo'yicha sotib olinadigan qimmatlikka egalik qilish huquqining bir qo'ldan boshqa qo'lga zudlik bilan o'tkazilishini nazarda tutmaydi. Fyucherslar yordamida qonun bilan kafolatlangan majburiyat sotib olinadi, bu bitim sifatida rasmiylashtirilishi mumkin. Fyuchersning o'ziga xos belgisi shundan iboratki, ular mazkur qimmatliklar (sotuvchilarda yoki umuman) ayni yilda bormi yoki yo'qmi, undan qat'iy nazar, sotilishi mumkin.

Fyucherslarning opsionlar bilan o'xshash tomoni shundaki, ularning ikkalasi ham fond boyliklarini kelajakda sotib olish imkonini beradi. Farqlarga kelsak, ular quyidagilardan iborat: fyucherslar oldi-sotdi hujjati sanalmaydi; fyuchers fond boyliklarini yetkazib berish qatiy majburiyatidir; fyuchers belgilangan muddat tugashi bilan majburiy hisob-kitobni talab qiladi; fyuchers bo'yicha xatar opsionnikiga qarganda ancha yuqori, chunki fyuchers xaridori opsion xaridoridan farqli o'laroq, opsion bo'yicha yo'qotilgan mukofotga qaraganda ancha katta summani yo'qotishi mumkin.

O'zbekistonning qonun hujjatlariga ko'ra, fyuchers – bu ma'lum qimmatli qog'ozlarni shartnomada belgilangan narxda ma'lum kelajak sanada sotib olish yoki sotish uchun so'zsiz majburiyatni tasdiqlovchi qimmatli qog'oz (shartnoma).

10.3. Qimmatli qog'ozlarni joylashtirish evaziga moliyalashtirish manbalarini jalb etish

Ma'lumki, qimmatli qog'ozlar vositasida investitsiyalarni moliyalashtirish jahon amaliyotida keng tarqalgan. Moliyaviy investitsiyalarning asosini qimmatli qog'ozlar va ularning hosilalari tashkil etadi. Qimmatli qog'ozlar o'zining investitsion jozibadorligi orqali firma va kompaniyalarning bozor faolligini belgilovchi vositalar ham hisoblanadi.

Maxsus reyting agentliklari kompaniyalarning qimmatli qog'ozlarining sifati, ta'minlanganligi, daromadliligi va ishonchliligiga qarab uning investitsiya faolligiga baho beradilar va investorlarning qiziqishiga sabab bo'luvchi yoki kompaniyaning

qimmatli qog'ozlari bozor narxiga ta'sir ko'rsatuvchi ko'rsatkichlarni tegishli tahlillar asosida e'lon qiladilar.

Qimmatli qog'ozlarning asosiy (fundamental) xususiyatlariga aylanuvchanlik, likvidlilik va risk kiradi. Aylanuvchanlik – bu qimmatli qog'ozning bozorda xarid qilinishga va sotilishga, shuningdek, ko'pchilik hollarda, boshqa tovarlar muomalasini osonlashtiruvchi mustaqil to'lov vositasi sifatida qo'llanishiga qodirligidir. Barchaga ma'lum bo'lgan P – T (pul – tovar), T – P (tovar - pul) metamorfozalarida qimmatli qog'ozlar ham tovar sifatida, ham pul sifatida qatnashishi mumkin. Qimmatli qog'ozlar ma'lum ma'noda tovar hisoblanadi, u o'z qiymatiga va iste'mol qiymatiga ega. Ushbu alohida turdagi tovarning qiymati bir qancha omillarga bog'liq, masalan, ular tomonidan keltiriladigan daromadning hajmi, ssuda foizining me'yori, nisbatan yuqori kurs bo'yicha sotilishi mumkinligi, korxonani boshqarishda ishtirok etish imkoniyati va hokazolar.

Likvidlilik – bu qimmatli qog'ozning uning egasi uchun deyarli zarar keltirmagan holda tez sotilish, pul mablag'lariga aylanish qudratidir. Likvidlilikka ta'sir ko'rsatadigan omillar uchta guruhga: a) umumiqtisodiy omillar; b) mazkur mamlakatda qimmatli qog'ozlar bozorini tashkil qilish darajasi bilan bog'liq omillar; v) emitentning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq omillarga bo'linadi.

Qimmatli qog'ozlarni joylashtirish evaziga moliyalashtirish manbalarini jalb etish, asosan, korporativ qimmatli qog'ozlar bozori segmentida yaxshi rivojlangan. Aksiyalar emissiyasi orqali investorlarning vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'larini investitsiya faoliyatiga, korxona ustav kapitalini oshirishga yo'naltirish orqali ulush munosabatlariga asoslangan huquqiy-iqtisodiy mexanizm shakllanadi. Obligatsiyalar emissiyasi orqali emitent investitsiya faolligini oshirish, yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun qarz munosabatlariga asoslangan mablag'larni jalb etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Qimmatli qog'ozlarni joylashtirish, asosan, birlamchi bozorlarda amalga oshiriladi, Ularning muomalasi (qayta oldi-sotdisi) ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorida olib boriladi. Ushbu jarayonlarni tashkil etish individual yoki institutsional shakllarda amalga oshiriladi. Jahon amaliyotida, asosan, ularni

tashkil etish investitsiya muassasalari orqali amalga oshiriladi. Ular birlamchi va ikkilamchi bozorlarda birjaviy va nobirjaviy operatsiyalarni professional tarzda amalga oshiradilar. Shuningdek, xalqaro integratsiyalashgan global miqyosdagi operatsiyalar ham amalga oshiriladiki, ular orqali jahon miqyosidagi kapitallarning harakati hamda investitsiya jarayonlarini kuzatish va ularga baho berish mumkin.

Har qanday bozor makonini ikki qutbga bo'lish mumkin. Ulardan birida kapital yetkazib beruvchilar - bo'sh pul mablag'lariga ega bo'lgan va ularni saqlash hamda ko'paytirishni istovchi yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, davlat turadi. Ikkinchisida yangi ishlab chiqarishni boshlash, ishlar, xizmatlar ko'rsatish yoki ishlab turgan quvvatlarni zamonaviylashtirish, kengaytirish, qayta ta'mirlash uchun zarur bo'lgan boshlang'ich yoki qo'shimcha kapitalga muhtoj bo'lgan bozor subyektlari turadi.

Kapitalning iste'molchilari sifatida korxonalar, tashkilotlar, aholi, shuningdek, davlat ham ishtirok etishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlar bozorining muassasaviy infratuzilmasi umumiy va maxsus tabaqalarga bo'linadi. Umumiy infratuzilmani namoyon qiluvchi tashkilotlarga qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar qilishda umumiy yordamchi vazifani bajaruvchi muassasalar kiradi.

Ularsiz qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarining faoliyat ko'rsatishi mumkin bo'lmagan yoki murakkablashgan bo'lar edi. Bularga axborot agentliklari, nashriyot, gazeta va jurnallar (matbuot), tele va radiokompaniyalar, tijorat banklari, auditorlik tashkilotlari, notarial, yuridik hamda advokatlik idoralari, sug'urta kompaniyalari kiradi.

Qimmatli qog'ozlar bilan tuziladigan bitimlarga xizmat ko'rsatishga ko'maklashuvchi vazifalarni bajarish uchun ularga qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshirishga ruxsat beruvchi maxsus litsenziyalarning zarurati yo'q. Ayni paytda bunday tashkilotlar davlat boshqaruvi organlarining, xususan, Markaziy bank (tijorat banklari), Moliya vazirligi (auditorlik va sug'urta kompaniyalari), Adliya vazirligi (advokatlik, yuridik va notarial idoralar), Davlat matbuot qo'mitasi (nashriyotlar, gazetalar, jurnallar)ning maxsus faoliyat turini

amalga oshirish bo'yicha litsenziyalariga ega bo'lishi kerak. Mazkur subyektlarning faoliyati ushbu holatda qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilariga kredit-hisob-kitob xizmatlarini ko'rsatish, emitentlar hisobi va moliyaviy hisobotlarining ishonchliligi hamda umumiy belgilangan me'yorlarga mos kelishini tasdiqlash, qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdisi, almashuvi, sovg'a qilinishi shartnomalarini tasdiqlash, ular bilan bajariladigan operatsiyalarni sug'urtalash, sarmoyadorlarni va fond boyliklari bilan professional faoliyat yurituvchi shaxslarni bozordagi vaziyatdan xabardor qilish va hokazolardan iborat bo'ladi.

Investitsiya muassasalariga investitsiya vositachilari (brokerlar, dillerlar), investitsiya maslahatchilari, investitsiya fondlari, boshqaruvchi kompaniyalar, qimmatli qog'ozlar egalarining reyestrlarini saqlovchilar, depozitariylar, hisob-kitob kliring palatalari, qimmatli qog'ozlarning nominal egalari kiradi.

Qimmatli qog'ozlarning birja bozori - bu qimmatli qog'ozlar bilan fond bozori doirasida uyushgan tarzda savdo qilish sohasidir. Fond birjasi qimmatli qog'ozlar bilan fond birjasi doirasida savdo qilish uchun shart-sharoitlarni ta'minlovchi alohida muassasa bo'lib, unda savdo faqat qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari tomonidan maxsus qoidalar bo'yicha olib boriladi.

Birja savdolarida ishtirok etish uchun faqat ma'lum yil mobaynida barqaror moliyaviy-xo'jalik mavqeyiga, salmoqli nizom jamg'armasi va aktivlar hajmiga ega bo'lgan, shuningdek, birja tomonidan belgilangan ayrim boshqa talablarga javob beradigan emitentlarning aksiyalariga ruxsat etiladi.

Qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari bozori – bu fond birjasidan tashqarida qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilish sohasidir. Birjadan tashqari bozor uyushmagan bozorni va uyushgan bozorning bir qismini o'z ichiga oladi. Qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari uyushgan bozori – bu qimmatli qog'oz bilan, odatda, o'rta va kichik kompaniyalar qimmatli qog'ozlari savdolariga kirishga ruxsat etilgan maxsus kompyuter tizimlari doirasida savdo qilishdir. Birjadan tashqari uyushgan bozorlarga misol tariqasida NASDAQ (National Association of Securities Dealers Automated Quotations – Investitsion dilerlar milliy assotsiatsiyasining avtomatik kotirovkasi tizimi) Investitsion

dilerlar milliy assotsiatsiyasi tizimini (AQSh), SESDAQ (Singapore Stock Exchange Dealing and Automated Quotation Sistem) Singapur fond birjasi qoshidagi avtomatik kotirovka va diling tizimini, «XETRA» Angliya–Germaniya tizimini keltirish mumkin. O'zbekistonda qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari uyushgan bozori 1998-yil 1 iyunda amalga kiritilgan «Elsis-Savdo» birjadan tashqari elektron tizimi orqali amalga oshiriladi.

Qimmatli qog'ozlarning xalqaro bozori – bu jahon miqyosida qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilish (norezidentlar o'rtasida qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi bo'yicha operatsiyalar bajarish) sohasi. Bunday savdoning mumkinligi, birinchidan, ushbu sohada hukumatlararo (ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama) kelishuvlarning mavjudligi bilan, ikkinchidan, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish (bitimlarni tuzish va ro'yxatga olish, bitim, kliring, pul hisob-kitoblarining ko'rsatkichlarini taqqoslash, qimmatli qog'ozlarni boshqa shaxsga o'tkazish)ning yagona qoidalari mavjudligi bilan ifodalanadi. Qimmatli kog'ozlar bilan xalqaro savdo qilish natijasida kapital bir mamlakatdan ikkinchisiga oqib keladi. Bunda emitentlar va sarmoyadorlar bitim ishtirokchilari sifatida, ham bir tomondan, ham ikkinchi tomondan, yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, davlatning o'zi qatnashishi mumkin. Yevroobligatsiyalar va yevroaksiyalar bilan savdo qilish qimmatli qog'ozlarning xalqaro bozoriga misol bo'lishi mumkin. Xalqaro kelishuvlar bo'yicha bitimlar chet el qimmatli qog'ozlari bilan savdo qilish uchun maxsus seksiyalarga ega bo'lgan fond birjalarida, shuningdek, birjadan tashqari bozorda tuziladi. Nyu-York, London, Tokio, Frankfurt shaharlari qimmatli qog'ozlar bilan xalqaro savdo qilishning eng yirik markazlari hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlarning xalqaro bozori birlamchi va ikkilamchi bozorlarga bo'linadi. Birlamchi bozorda bir mamlakatning emitenti qimmatli qog'ozlarni boshqa mamlakatda joylashtiradi. Yaponiya, Angliya va AQSh davlatlari obligatsiya zayomlari bo'yicha eng yirik zayom egalari hisoblanadi. Zayomni joylashtirish uchun yetakchi menejer tanlab olinadi. Obligatsiyalar chiqarishning kafolat guruhi va sotish guruhi tuzilib, ular qimmatli qog'ozlar obunasini hamda ushbu qimmatli qog'ozlarning keyinchalik o'zlarining mijozlari bo'lgan

sarmoyadorlarga sotilishini ta'minlaydi. Birinchi toifali zayom egalari uchun tashkilotchilarga to'lanadigan vosita haqining miqdori, shu jumladan, sotish, joylashtirish kafolati va agentlik vositasi haqi jami zayom summasining 1,5 foizidan 2,5 foizigacha bo'lgan qismini tashkil qiladi.

Ikkilamchi bozorda qimmatli qog'ozlar maxsus moliya muassasalari orqali qayta sotiladi. Turli mamlakatlarning yirik sug'urta kompaniyalari, tijorat va markaziy banklari obligatsiyalarning ikkilamchi xalqaro bozoridagi bitimlarning ishtirokchilari bo'lib xizmat qiladi.

10.4. Aksiyadorlik kapitali hisobiga investitsiya faoliyatini moliyalashtirish

O'zbekiston mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab davlat korxonalari negizida ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish, ilgari barpo etilgan yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlarini ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirish, bir vaqtning o'zida davlatga tegishli bo'lgan aksiyalar ulushini qisqartirish, fond bozorini tashkil etish va unda xususiylashtirilayotgan korxonalar aksiyalarini joylashtirish, qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish yo'li bilan aholini iqtisodiy islohotlar jarayoniga keng jalb etish hamda aholi tomonidan o'z mablag'larining aksiyalarga samarasiz qo'yilishi tufayli sodir bo'ladigan yo'qotishlar xatarini kamaytirish maqsadida investitsiya fondlari tizimini yaratish mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida tan olindi.

Davlat korxonalarini xususiylashtirish jarayonida barpo etilgan ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlarining ustav sarmoyasini shakllantirishda quyidagi aksiyalar paketlarini shakllantirish nazarda tutildi: davlat, mehnat jamoasi, xorijiy hamkor, fond birjalari va qimmatli qog'ozlarning boshqa bozorlarida erkin sotilishga mo'ljallangan aksiyalar paketlari.

Aynan 1994-yilning bahoridan boshlab O'zbekistonda davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalarning butun majmualari va guruhlarini qisqa muddatlarda aksiyalashtirishni nazarda tutuvchi keng ko'lamli xususiylashtirish jarayoni boshlandi.

Keng ko'lamdagi xususiylashtirish dasturining maqsadi quyidagilardan iborat bo'ldi: jamiyatni iqtisodiy isloh qilish jarayoniga aholining keng qatlamini jalb etishga yo'naltirilgan siyosiy maqsadlar; aksiyalar paketlarini sarmoyadorlar turli toifalarining ma'lum guruhlari o'rtasida joylashtirish yo'li bilan mol-mulkni adolatli taqsimlash usullarini qidirishdan iborat bo'lgan ijtimoiy maqsadlar; bozorni va iqtisodiyotdagi raqobatni rivojlantirish maqsadida katta miqdordagi korxonalarning jadal sur'atlarda xususiylashtirilishini ta'minlovchi iqtisodiy maqsadlar.

O'zbekistondagi xususiylashtirishning eng muhim xususiyati shundaki, mulkni davlat tasarrufidan chiqarishdan kelib tushadigan mablag'larning katta qismi xususiylashtirish davridan keyin korxonalarni qo'llab-quvvatlashga va tadbirkorlikni rivojlantirishga sarflanmoqda. Butun ikkinchi bosqich davomida davlat mulkining xususiylashtirilishi natijasida kelib tushgan pul mablag'lari sobiq Ittifoqning deyarli barcha mamlakatlarida bo'lganidek, budjetga yo'naltirilmasdan, balki maxsus budjetdan tashqari jamg'armaning hisob raqamlarida to'plandi. Aksiyalarning davlat ulushi bo'yicha dividendlar xususiylashtirilgan korxonaning to'liq ixtiyorida qoldirildi va ularning ishlab chiqarishini yangilash hamda texnik jihatdan qayta jihozlanishiga yo'naltirildi.

Qimmatli kog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish va kengaytirish, sarmoyadorlarning faolligini oshirish maqsadida respublika hukumati tomonidan shu narsa belgilab quyilganki, 1997-yilning aprelidan boshlab davlat o'z ulushini saqlab qolgan ochiq aksiyadorlik jamiyatlarida ustav sarmoyasini shakllantirishda aksiyalar paketlari quyidagicha taqsimlanadi: davlat ulushi – 25 foizgacha; mehnat jamoasining ulushi – 25 foizgacha; xorijiy sarmoyadorga sotiladigan ulush – kamida 25 foizgacha; qolgan qismi – erkin savdoga qo'yiladi. Bunda hukumat xorijiy sarmoyadorlar ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalar paketlarini tender shartlari asosida qayta taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilish huquqiga ega.

Hozirgi kunda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishdan kelib tushadigan mablag'larning bir qismi xususiylashtirilayotgan korxonalarning ixtiyorida qolishi mumkin. Bunda xususiylashtirilayotgan korxonalar ushbu mablag'lardan faqat texnik jihatdan qayta jihozlanish, ishlab chiqarishni

yangilash va aylanma mablag'larini to'ldirish maqsadlarida foydalanishi mumkin. Ushbu mablag'larga quyidagilar kiradi: davlat mulki qo'mitasi va xususiylashtirilayotgan korxona o'rtasidagi asosiy qarz summasi majburiyatlarni taqqoslash hujjatiga muvofiq emissiya risolasiga binoan mehnat jamoasining ulushi bo'yicha aksiyalarni sotishdan tushgan mablag'lar; emissiya risolasiga muvofiq erkin sotuv ulushi va xorijiy sarmoyador ulushi bo'yicha aksiyalarni sotishdan tushgan mablag'lar; emissiya risolasiga muvofiq belgilangan tartibda davlat ulushi aksiyalarini sotishdan tushgan mablag'lar.

Xususiylashtirilayotgan korxona unga davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishdan kelib tushishi lozim bo'lgan mablag'larni olishdan rasmiy tarzda voz kechishi mumkin. Bunday holatda ushbu mablag'lar O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga yo'naltiriladi.

Aksiyadorlik jamiyatlari ma'lum ma'noda mas'uliyati cheklangan jamiyat bo'lib, u bilan ko'pgina umumiylikka ega bo'lishiga qaramay (Fuqarolik kodeksiga ko'ra, ularning ikkalasi ham xo'jalik jamiyatlaridir), ular o'rtasida qator farqlar mavjud. Birinchi farq – aksiyadorlik jamiyatining tashkil etilishi, faoliyati va uni boshqarishning mufassal reglamentlanishidan iborat. Aksiyadorlik jamiyatlarining yuqorida qayd etilgan korxonalardan ikkinchi muhim farqi shundan iboratki, aksiyadorlik jamiyatlari ishtirokchilarning alohida maqomini tasdiqlovchi qimmatli qog'ozlar (aksiyalar)ni chiqaradi, bu qog'ozlarning muomalada bo'lishi tufayli aksiyadorlik jamiyatlariga birgalikda egalik qiluvchilar tarkibining o'zgarib turishi ancha tez va oson kechishi mumkin. Agar aksiyadorlik jamiyati ishtirokchisining jamiyat a'zolari safidan chiqishi faqat unga tegishli aksiyalarning sotilishi bilan rasmiylashtirilsa, mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchisi unga o'zi qo'shgan payning qaytarib berilishidan tashqari, jamiyatning ustav sarmoyasidagi uning ulushiga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish huquqiga ega.

Aksiyadorlik jamiyatini boshqarish boshqa tashkiliy shakldagi korxonalarni boshqarishdan o'zining murakkabligi va ko'p bo'g'inliligi (aksiyadorlar yig'ilishi, kuzatuv kengashi, boshqaruv) bilan farq qiladi, bu unga o'zini-o'zi nazorat qilish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Boshqa tashkiliy shakldagi korxonalardan

farqli o'laroq, aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvning ancha samarali tizimiga ega, chunki faqat aksiyadorlik jamiyatigina nazoratning bir necha darajasiga ega. Birinchi daraja — bu jamiyatning ijroiya organi faoliyatini nazorat qiluvchi kuzatuv kengashi. Ikkinchi daraja — bu jamiyatning ijroiya organi va kuzatuv kengashi faoliyatini nazorat qiluvchi aksiyadorlar yig'ilishi. Bundan tashqari, jamiyat aksiyadorlari safidan tuzilgan taftish komissiyasi faoliyat ko'rsatadi. Boshqa tashkiliy shakldagi korxonalardan farqli ravishda, aksiyadorlik kompaniyasi majburiy tarzda (qonun bo'yicha) mustaqil auditorni yollashi shart, u aksiyadorlik jamiyatining hisobot davridagi ishini baholaydi.

Aksiyadorlik shaklining ustunligi shundan iboratki, u global miqyosdagi masalalarda korxonaning faoliyatini tashkil etish va uni boshqarish sohasida bir tomonlama qarorlarning qabul qilinishi ehtimolini eng kam (minimal) holatga keltiradi. Barcha eng muhim masalalar aksiyadorlar umumiy yig'ilishida qabul qilinadi. Har bir aksiyador u yoki bu qaror uchun o'z ovozini berish va aksariyat hollarda, u yoxud bu masala bo'yicha o'zining fikrini bildirish imkoniyatiga ega.

Boshqa tashkiliy-huquqiy shakldagi korxonalarga qaraganda, aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarni chiqarish yo'li bilan katta pul va boshqa mablag'larni safarbar qilish, shuningdek, korxona sarmoyasini shakllantirishga har xil sarmoyadorlarni (eng katta sarmoyadorlardan tortib, to mayda sarmoyadorlargacha) jalb etish imkoniyatiga ega. Aksiyalarning qo'shimcha emissiyasini amalga oshirish yo'li bilan sarmoyani doimiy ravishda ko'paytirib borish imkoniyati ham aksiyadorlik jamiyatlarining o'ziga xos muhim xususiyatlaridan sanaladi.

Aksiyadorlik shaklining eng muhim ijobiy farqi shuki, mehnat jamoasining har bir a'zosi — korxona aksiyadori — ish haqi bilan bir qatorda dividend ko'rinishida qo'shimcha daromad olishi mumkin. Ushbu holat aksiyadorni o'zining mehnati natijasidan yanada manfaatdor bo'lishiga olib keladi.

Aksiyadorlik jamiyatining ustav fondi bir xil nominal qiymatdagi aksiyalarning ma'lum miqdoriga bo'lingan bo'lishi lozim. Ustav fondi uning kreditorlari manfaatlarini kafolatlovchi mol-mulkning eng kam miqdorini belgilab beradi. Hozirda ochiq va yopiq aksiyadorlik jamiyati ustav fondining eng kam miqdori

400 ming AQSh dollari yoki unga muvofiq keluvchi rasmiy davlat kursidagi so'm miqdoridan kam bo'lmasligi zarur. Aksiyadorlik kompaniyasining faoliyati jarayonida uning ustav fondi ko'paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Aksiyadorlik jamiyati ustav fondini ko'paytirish yoxud kamaytirish haqidagi qaror aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan yoki, agar bu ustavda ko'rsatilgan bo'lsa, kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

Dividendlar va ularni to'lash tartibi. Dividend foydaning soliqlar va majburiy to'lovlar to'langanidan, qayta investitsiya amalga oshirilganidan so'ng aksiyadorlar jamiyati ixtiyorida qoladigan, aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanishi kerak bo'lgan qismi. Jamiyat aksiyalarning har bir turi bo'yicha e'lon qilingan dividendlarni to'lashi shart. Aksiyadorlar jamiyatining umumiy yig'ilishi qaroriga binoan dividend pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari bilan to'lanishi mumkin. Dividend aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Jamiyat yilning har choragida, har yarim yilda yoki yiliga bir marta joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida, agar tegishli qonun va jamiyat ustavida o'zgacha qoida belgilanmagan bo'lsa, qaror qabul qilishga (e'lon qilishga) haqlidir.

Aksiyalarning har bir turi bo'yicha oraliq dividendlar (yilning har bir choragi bo'yicha, yarim yillik dividendlar) to'lash, dividend miqdori va uni to'lash shakli to'g'risidagi qaror jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi. Aksiyalarning har bir turi bo'yicha yillik dividendlar to'lash, dividendning miqdori hamda uni to'lash shakli to'g'risidagi qaror jamiyat kuzatuv kengashining tavsiyasi asosida aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Yillik dividendlarning miqdori jamiyat kuzatuv kengashi tavsiya etgan miqdordan ko'p va to'langan oraliq dividendlardan kam bo'lishi mumkin emas. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi aksiyalarning muayyan turlari bo'yicha dividend to'lamaslik to'g'risida, shuningdek, imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'liq bo'lmagan miqdorda dividendlar to'lash haqida qaror qabul qilishga haqli, bunday aksiyalar bo'yicha dividend miqdori ustavda belgilab qo'yiladi.

Dividendlar jamiyatning joriy yildagi sof foydasidan to'lanadi. Muayyan turdagi imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar jamiyatning maxsus mo'ljallangan fondlari hisobidan to'lanishi mumkin.

Dividendlar to'lash vaqtida, birinchi navbatda, imtiyozli aksiyalar bo'yicha, so'ngra oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lanadi. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha qat'iy belgilangan dividendlarni to'lash uchun yetarli miqdorda foyda mavjud bo'lgan taqdirda jamiyat mazkur aksiyalarni saqlovchilarga dividendlar to'lashni rad etishga haqli emas.

Nazorat savollari

- Moliyaviy vositalar, deganda nimani tushunasiz?
- Moliyaviy investitsiyalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi rolini qanday baholaysiz?
- Moliyaviy vositalarning xususiyatlarini ifodalab bera olasizmi?
- Moliyaviy vositalarni qanday guruhlarga ajratish mumkin?
- Moliyaviy vositalar yordamidagi resurslar harakati qanday omillarga bog'liq bo'ladi?
- Moliyaviy vositalarning qanday funksiyalarini bilasiz?
- Moliyaviy vositalarni qanday belgilar asosida tasniflash mumkin?
- Qimmatli qog'ozlarning iqtisodiy mohiyatini ifodalab bering?
- O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi qonunida qimmatli qog'ozlarga qanday ta'rif berilgan?
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra amal qilish huquqi mavjud qimmatli qog'ozlarning turlarini bilasizmi?
- Birlamchi moliyaviy vositalarga nimalar kiradi?
- Hosilaviy moliyaviy vositalargachi?
- Aksiya deganda nimani tushunasiz?
- Aksiyalar bo'yicha olingan daromad nima, deb nomlanadi?
- O'zbekiston hududida chiqariladigan aksiyalar qanday turlarga bo'linadi?
- Imtiyozli aksiya deganda nimani tushunasiz?

- Obligatsiyaning iqtisodiy mohiyatini izohlab bering?
- Davlat obligatsiyalari qanday xususiyatlarga ega?
- Korporativ obligatsiyalar kimlar tomonidan chiqariladi?
- Rendit nima?
- G'azna majburiyatlari deganda nimani tushunasiz?
- O'zbekistonda g'azna majburiyatlarining qanday turlari chiqariladi?
- Depozit sertifikatlari nimani anglatadi? Uning qanday turlari mavjud?
- Vekselning iqtisodiy mazmunini tushuntirib bering? Uning qanday turlari mavjud?
- Opsion nimani anglatadi? Uning qanday turlari mavjud?
- Fyucherslarning opsionlar bilan qanday o'xshash tomonlari mavjud?
- O'zbekistonning qonun hujjatlariga ko'ra, fyuchers deganda nima nazarda tutiladi?
- Qimmatli qog'ozlarning investitsiyalarni moliyalashtirish manbayi sifatidagi xususiyatlarini bilasizmi?
- Qimmatli qog'ozlarni joylashtirish evaziga moliyalashtirish manbalarini jalb etish qanday amalga oshiriladi?
- Qimmatli qog'ozlarning birlamchi bozori va ikkilamchi bozori to'g'risida nimalarni bilasiz?
- Qimmatli qog'ozlarning birja bozori deganda nimani tushunasiz?
- Qimmatli qog'ozlarning xalqaro bozori deganda nimani tushunasiz?
- Aksiyadorlik kapitali hisobiga investitsiya faoliyatini moliyalashtirish xususiyatlarini izohlab bering?
- Aksiyadorlik jamiyatlari deganda qanday muassasalar tushuniladi?

XI BOB. INVESTITSIYA FAOLIYATINI KREDITLASH

11.1. Xo'jalik yurituvchi subyektlar investitsiya faoliyatini kreditlashning obyektiv zaruriyati

Jamiyat faoliyatining o'ta muhim jihati – bu ishlab chiqarishdir. Ishlab chiqarish jarayonida iqtisodiy resurslar ishlatiladi, mahsulotlar va xizmatlardan iborat hayotiy ne'matlar yaratiladi. Ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini moddiy va mehnat omillari ta'minlaydi. Ishlab chiqarishning bu omillar bilan bir tekisda ta'minlanishi muammodir va bu masala o'z yechimini kredit orqali topadi. Kredit tovar-pul munosabatlari mavjud sharoitdagi takror ishlab chiqarish jarayonining ajralmas bir qismi bo'lib, tovar ishlab chiqarish kredit munosabatlari vujudga kelishining tabiiy asosi hisoblanadi. Kreditning vujudga kelishini, nafaqat, ichki iste'mol uchun tovar ishlab chiqarish doirasidan emas, balki, asosan, yuridik jihatdan mustaqil, bir-biriga mulkdor sifatida qarama-qarshi turuvchi va iqtisodiy munosabatlarga kirishishga tayyor tovar egalari faoliyat ko'rsatayotgan muomala doirasidan qidirish kerak.

Ishlab chiqarish fondlarining doiraviy aylanishidagi va fondlarning bir marta aylanishidagi qiymatning harakati kredit munosobatlari paydo bo'lishining iqtisodiy asosini tashkil qiladi.

Bizga ma'lumki, korxonalarning ishlab chiqarish fondlari (qiymat shaklidagi mehnat vositalari va predmetlari) muayyan bir muddatda pul (P), ishlab chiqarish va tovar (T) shakllarida bo'lishi mumkin.

Korxona ishlab chiqarish fondlarining doiraviy aylanishini quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$$P - T \ldots \text{Ishlab chiqarish} \ldots T^{I} - P^{I}$$

Fondlar doiraviy aylanishining birinchi bosqichida (P—T) pul fondlarining ishlab chiqarish fondlariga aylanishi sodir bo'ladi.

Bunda mavjud pul mablag'lariga mehnat predmetlari va vositalari sotib olinadi. Fondlar aylanishining ikkinchi bosqichida ishlab chiqarish jarayoni sodir bo'lib, bunda tayyor mahsulotni yaratish ro'y beradi, mahsulot ko'rinishi tovar ko'rinishini oladi, ishlab chiqarish vositalari qiymatiga yangi qiymat qo'shiladi. Uchinchi bosqichda ($T^I - P^I$) tayyor mahsulot sotiladi. Tovar o'zining boshlang'ich pul shakliga o'tadi, lekin, bunda tovar ham, pul ham o'zining ishlab chiqarish jarayonidan oldingi holatiga nisbatan qiymat jihatdan va miqdor jihatdan ortgan holda bo'ladi. Mahsulotni sotgandan keyin olingan pul fondlari, o'z navbatida, yana xarajat qilinadi, yani yangi ishlab chiqarish jarayoni uchun yangi ishlab chiqarish vositalari sotib olinadi, ish haqi to'lanadi va boshqa xarajatlarga sarflanadi. Shunday qilib, aylanma mablag'larning aylanishi qayta-qayta takrorlanaveradi va fondlarning doiraviy aylanishi vujudga keladi.

Fondlarning har bir individual doiraviy aylanishi ijtimoiy takror ishlab chiqarishning bir qismi sifatida boshqa doiraviy aylanishlar bilan uzviy bog'langan.

Asosiy fondlar qiymati harakati jarayonida resurslarning ishlab chiqarishdan bo'shatilishi ko'zga tashlanadi. Ma'lumki, ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish jarayonida uzoq muddat xizmat qiladi va ularning qiymati tovar mahsuloti qiymatiga asta-sekin o'tib boradi. Asosiy fondlarning asta-sekin eskirish qiymati o'z o'lchami bo'yicha korxonaning yangi vositalar sotib olish hajmini ta'minlay olmaydi.

Fondlarning aylanishida asosiy fondlarning o'zgaruvchan harakati ro'y beradi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, bunda ba'zi korxonalarda bo'sh pul mablag'lari to'planib qoladi, boshqalarida esa katta xarajatlarga ehtiyoj tufayli mablag'lar yetishimovchiligi yuzaga keladi.

Xuddi shunday vaziyat aylanma fondlari harakatida ham vujudga keladi. Bu yerda ularning uzluksiz aylanishidagi tebranishlar yanada xilma-xildir. Dastavval, bu tebranishlar ishlab chiqarishning mavsumiyligi, mahsulot ishlab chiqarish davri bilan mahsulotni sotish vaqti bir-biriga mos kelmasligi tufayli vujudga keladi.

Fondlarning doiraviy aylanishidagi tebranishlar zamirida ishlab chiqarish vaqti bilan mahsulotlarni sotish vaqtining mos kelmay qolishidan vujudga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf

etuvchi munosabatlarning paydo bo'lishi tabiiy holga aylanadi. Bu munosabatlar mablag'larning vaqtincha bekor turib qolishi bilan bu mablag'larga bo'lgan ehtiyoj o'rtasidagi qarama-qarshilikni bartaraf etadi. Bunday munosabatlar, odatda, kredit munosabatlari, deb yuritiladi.

Investitsiya loyihalarining moliyalashtirish manbalari tarkibida bank kreditlari muhim o'rin egallab, ular samarali o'zlashtirilishi orqali ilg'or texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarish joriy etiladi, yangi mahsulot turlari ishlab chiqariladi va yo'lga qo'yiladi, shuningdek, yangi korxonalarning barpo etilishiga, yangi ish o'rinlarining ko'payishiga erishiladi.

Ta'kidlash joizki, investitsiya loyihalarini kreditlash keng shakllarda tassavvur etiladi. Ularni kreditlashda kredit munosabatlarining subyektlari va obyektlariga, foiz stavkasiga va kreditning harakat doirasiga qarab kreditning quyidagi shakllari qo'llaniladi: davlat krediti; bank krediti; iste'mol krediti; tijorat krediti va xalqaro kredit.

O'zbekistonda ham investitsiya faoliyati taraqqiyotida bank kreditlarining ahamiyati oshib bormoqda. Iqtisodiyotda yangi ish o'rinlarini yaratish, mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish va xizmatlar ko'rsatish doirasini kengaytirish, aholining o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish investitsiya loyihalarini moliyalashtirish bilan chambarchas bog'liqdir.

Shuni aytib o'tish kerakki, har qanday mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasi haqida shu mamlakat tadbirkorlari uchun ajratilayotgan qisqa va uzoq muddatli kreditlarning salmog'iga qarab ma'lum tushunchaga ega bo'lish mumkin. Uzoq muddatli kreditlar salmog'ining ko'pligi beriladigan qarzlarning ishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilayotganligidan va bu bilan bog'liq qurilish obyektlarining ko'payayotganligidan, ya'ni investitsiya sohalariga berilayotganligidan darak beradi. Qisqa muddatli kreditlarning foiz miqdori nisbatan yuqori, qaytarish muddati nisbatan qisqa bo'lgani sababli ushbu mablag'ning, ko'proq, savdo va umumiy ovqatlanish sohasida ishlatilayotganligidan dalolat beradi. Uzoq muddatli kreditlar salmog'ining kamligi ishlab chiqarish sohasi rivojlanmay turgan bir vaqtda tadbirkorlar tomonidan yetkaziladigan mahsulot miqdorini

oshirmay faqat sotish narxi oshishiga hamda iqtisodiy ahvolning yanada mushkullashishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, korxonalarning xo'jalik hisobida ish yuritishida ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash, korxonaning asosiy va aylanma fondlarining doiraviy aylanishining to'xtab qolishiga yo'l qo'ymaslik, korxonalarning moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasining maromiyligini saqlash, korxonalar tomonidan tovar mahsulotini sotganda sotilgan tovar uchun to'lov summasini olish obektiv va subektiv sabablar tufayli kechiktirilgan holatda kreditning zarurligi kelib chiqadi.

11.2. Investitsiya faoliyatini uzoq muddatli kreditlash

Hozirgi vaqtda investitsiya loyihalarini uzoq muddatli kreditlar evaziga moliyalashtirishning ahamiyati keskin ortmoqda va unga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning tasdig'i sifatida mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov tomonidan: «banklar zimmasiga investitsiya faoliyatini kengaytirish vazifalari yuklangani sababli ularning ishini tubdan qayta tashkil etish lozim. Birinchi navbatda, bu borada investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish va moliyalashni tashkil etish bo'yicha tijorat banklarining maxsus xizmatlarini mustahkamlash zarur» [1], deb ta'kidlanishi hamda 2009-yil 28-iyulda «Tijorat banklarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko'paytirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorining qabul qilinganligini qayd etish mumkin.

Ushbu qarorga ko'ra, tijorat banklarining investitsiya faoliyatini kengaytirish sohasida eng muhim vazifalar belgilab berildi. Jumladan:

– yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha banklarning kredit hamda investitsiya siyosatini va investitsiya loyihalarini uzoq muddatli kreditlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, buning asosida banklarning uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlash;

[1] Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: «O'zbekiston», 2009. – B. 54.

– loyiha hujjatlari, ularning moliyaviy jihatdan o‘zini qoplashi va rentabelligini chuqur tahlil qilish asosida investitsiya loyihalarini puxta tanlab olish, kompleks baholash hamda sifatli ekspertiza qilishni ta’minlash;

– investitsiya loyihalarini moliyalashga o‘z moliya mablag‘larini sarflash va ulardan samarali foydalanish, loyihalarning amalga oshirib borilishini doimiy monitoring qilish, qo‘yilgan mablag‘larning o‘z vaqtida va to‘liq qaytarilishini ta’minlash;

– tavakkalchilik, garovlar va ta’minlashning boshqa turlari bozor qiymatini puxta baholashni hisobga olgan holda, berilgan kreditlarning o‘z vaqtida hamda to‘liq qaytarilishini ta’minlaydigan ishonchli mexanizmlardan keng foydalanish;

– investitsiya faoliyatini amalga oshirayotgan banklar bo‘linmalarini professional tayyorlangan yuqori malakali kadrlar bilan mustahkamlash, investitsiya loyihalarini tanlab olish, ekspertiza qilish va amalga oshirish masalalari bo‘yicha bank mutaxassislarini qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish sifatini tubdan yaxshilash.

Uzoq muddatli kreditlar, asosan, kapital qo‘yilmalarni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni moliyalashga beriladi. Respublikamiz mahalliy banklaridan TIFMB, Asakabank, O‘zsanoatqurilishbanki, Agrobank kabilar investitsiya loyihalarini uzoq muddatli va samarali kreditlashda salmoqli o‘rinni egallaydi.

Investitsiya loyihalarini uzoq muddatli kreditlar evaziga moliyalashtirishning ahamiyati va afzalliklari haqida so‘z borganda uning quyidagi g‘oyat muhim jihatlarini ajratib o‘tish maqsadga muvofiq: u iqtisodiy o‘sishni moliyalashtirishning ajralmas qismidir; tadbirkorlik sohasida korxonalar faoliyatining ko‘pgina yo‘nalishlariga imkon beradi; rivojlanish strategiyasini belgilaydi; raqobatbardosh mahsulot yaratish va ishlab chiqarishda cheklangan resurslardan samaraliroq foydalanishga yordam beradi. Umuman olganda, uzoq muddatli moliyalashtirish ishlab chiqarishni tashkil etish uslubi va usullarini o‘zgartirib, iqtisodiy rivojlanishni xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali olib boradi. Bunday moliyalashtirish shakli turli milliy iqtisodiyotlar sharoitiga yaxshi moslashadi, mulkchilikning turli shakllariga mansub xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati yanada samarali bo‘lishiga yordam beradi, xo‘jalik amaliyotida asta-sekin, bosqichma-bosqich

iqtisodiy o'sish manbalarini kengaytirishga, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini oshirishga, milliy takror ishlab chiqarishni har tomonlama erkinlashtirishga imkon beradi, xususiy sektorni investitsiyalash imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Ma'lumki, uzoq muddatli kreditlar o'z kapitali va mustqil balansiga, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektlarga ajratiladi, bunda zarar ko'rib ishlaydigan, nolikvid balansga ega bo'lgan hamda moliyaviy nobarqaror ishlayotgan korxonalarga kreditlar ajratilishiga ruxsat berilmaydi.

Banklar tomonidan kreditlashning tashkil etilishida amal qilinuvchi tamoyillarning asosiy mazmuni va xususiyatlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Kreditning qaytib berish tamoyili. Bu tamoyil uzoq muddatli kreditning tub mohiyatini ifodalab, kreditning mustaqil iqtisodiy kategoriya ekanligining shartidir. Tijorat banki tomonidan loyihalarni moliyalashtirish uchun ajaratiladigan mablag' bankka o'z vaqtida qaytarilishi lozim, mabalag'larni qaytarishning iqtisodiy asosi sifatida mablag'larning uzluksiz doimiy ravishda aylanishi hisoblanadi. Qaytarib berishlilik ikkiyoqlama jarayonni ifoda etadi, u kreditor uchun ham, qarz oluvchi uchun ham bir xil darajada muhimdir.

Qiymatning qaytuvchi harakatida huquqiy tomoni ham muhimdir. Muayyan bir muddatga beriladigan qiymatga egalik huquqi kreditordan qarz oluvchiga o'tmaydi.

Qarzga beriladigan qiymat faqat muayyan bir muddatgina o'z egasi qo'lidan uzoqlashadi, lekin egasini o'zgartirmaydi.

Bo'sh turgan resurslarni akkumulyatsiya qiluvchi banklar bu resurslardan o'z resurslari sifatida foydalana olmaydi. Bank qarzga beruvchi mablag'ning egasi bo'lib, korxona, tashkilot, alohida shaxslar hisoblanadi.

Qaytarib berishlilik muayyan shartnomada o'zining o'rnini topadi.

Qaytarib berishlilik obyektiv belgi hisoblanadi. Kreditning qaytarib berishlilik jihati uni boshqa iqtisodiy kategoriyalardan, shu jumladan, moliyadan farq qilish imkoniyatini beradi.

2. Kreditning muddatligi. Bu tamoyil kredit beruvchidan olingan kreditni o'z vaqtida qaytarib berish muddatini, ya'ni

kreditning qanday muddatga berilganligi bilan xarakterlanadi. Bunda shu muddatlilik tamoyiliga ko'ra kredit uzoq va qisqa muddatli kreditlarga bo'linadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2004-yil 17-iyuldagi 478-sonli yo'riqnomasiga asosan respublikamiz bank amaliyotidagi o'rta muddatli kreditlar toifasi bekor qilindi. Unga ko'ra, o'rta muddatli kreditlar ham uzoq muddatli kreditlar toifasiga kiritildi.

Kreditning muddatlilik tamoyili qarzdor uchun qulay bo'lgan har qanday vaqtda emas, balki kredit bitimida ko'rsatilgan ma'lum muddatda kreditning qaytarilishi zarur ekanligini bildiradi. Kreditning muddatliligi har ikkala tomon, kreditor va qarz oluvchi uchun muhimdir. Agar kreditor qarzni foizi bilan o'z vaqtida qaytib olsa, uni egasiga o'z vaqtida qaytarish yoki yana kreditga berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Qarz oluvchi kreditni samarali ishlatib, uni o'z vaqtida kreditorga qaytarish va shu bilan shartnomadagi jazo choralaridan qutilishidan manfaatdor. Kreditning muddati bo'yicha kredit shartnomasida ko'rsatilgan shartlarning buzilishi natijasida qarz beruvchi qarz oluvchiga iqtisodiy choralar (jarimalar shaklida, kredit bo'yicha foiz darajasini oshirish, kreditning muddatini qisqartirish va boshqa)ni qo'llashi mumkin. Bu choralar ham yordam bermagan hollarda qarz beruvchi moliyaviy talablarni xo'jalik sudi orqali undirib olishi mumkin. Kreditning muddatliligi kelib tushuvchi boyliklarni tejamli va qayta ishlatish muddatiga, ishlab chiqarilgan mahsulotni jo'natish muddatiga, tovarlarni sotish muddatiga va pirovard natijada, aylanma fondlarning doiraviy aylanishining tezligiga bog'liqdir.

Uzoq muddatli kreditlar iqtisodiy munosabatlarning belgilangan tizimi sifatida boshqa pulli munosabatlardan farq qiladi, ya'ni pulning harakati qaytarib berish sharti bilan amalga oshiriladi. Uzoq muddatga kredit ajratishda muddatlilik tamoyili ikki xil xarakterga ega. Birinchidan, qarz mablag'lari mohiyati vaqtincha foydalanishga berilgan mablag'larning qaytarilishligini bildiribgina qolmay, balki bu qaytarilishning aniq muddatlarini belgilashni ham taqozo etadi. Kreditning muddati bir tomondan, foydalanishga berilayotgan resurslarning bo'sh turish muddati bilan belgilansa, ikkinchi tomondan, qarz oluvchining mablag'larga bo'lgan vaqtinchalik ehtiyojlarining muddatiga

bog'liq bo'ladi. Uzoq muddatli kreditdan foydalanish muddati qarzga olingan mablag'larni qaysi davrgacha foydalanishni hisobga olgan holda belgilanadi.

3. Kreditning ta'minlanganligi. Ta'minlanganlik – kredit berilishiga asosan qarz oluvchining mulki, moddiy boyliklar zaxiralari, ko'chmas mulk, ishlab chiqarish xarajatlari summasiga mos kelishi bilan belgilanadi. Bu, o'z navbatida, kreditning muddatida qaytarilishini kafolatlaydi. Olingan kredit mablag'lari korxonada ishlab chiqarish zaxirasi, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot hamda mavjud moddiy boyliklarni ta'minlash uchun beriladi. Bu tamoyilga asosan korxonalarga berilgan ssudalar yoki tomonlar majburiyatlari real ta'minlanadi. Ssudaning o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash uchun, kredit shartnomasiga ko'ra, qarz oluvchi olingan qarzni o'z vaqtida qaytara olmasa, u holda garovni sotish choralari ko'riladi. Uzoq muddatli kreditlar ta'minlanganlik sifatida, odatda, asosiy fondlar (bino, asbob-uskunalar) hisoblanadi, bu asosiy vositalar qarz oluvchiga tegishli bo'lishi lozim. Uzoq muddatli kreditlar uchun belgilanadigan foiz stavkasi qisqa muddatli kreditlar uchun belgilanadigan foiz stavkasidan katta bo'ladi, bu nomutanosiblik kredit berishdagi risk darajasiga bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrdagi yangi tahrirdagi «Garov to'g'risida»gi qonunida loyihalarni moliyalashtirishda garov ta'minotining tartib-qoidalari belgilab berilgan. «Garov to'g'risida»gi qonunning birinchi moddasiga ko'ra, «bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo'lgan huquqni majburiyatlarni ta'minlash uchun berishi» garov hisoblanadi. Garovga ko'ra, qarzdor (garovga qo'yuvchi) garov bilan ta'minlangan majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditor (garovga oluvchi) bu majburiyat bo'yicha garovga qo'yuvchi tomonidan garovga qo'yilgan mol-mulkning qiymatidan boshqa kreditorlarga qaraganda imtiyozli suratda qanoatlantirilishiga haqli bo'ladi.

Qonun bo'yicha haqiqiy bo'lgan har qanday majburiyatning: zayom, bank krediti, ijara, oldi-sotdi, yuklarni tashish va huquqning har qanday subyektlari (jismoniy va yuridik shaxslar, davlat) o'rtasidagi boshqa majburiyatlarning bajarilishi garov bilan

ta'minlanishi mumkin. Majburiyat pul birliklarida (milliy yoki xorij valutasida) ifodalangan bo'lishi lozim.

Qarzni qaytarmaslikning oldini olish maqsadida qarz oluvchi bankka quyidagi ta'minot turlarini taqdim etadi:

– mulk yoki qimmatli qog'ozlar garovi;

– bank yoki sug'urta tashkilotining kafolati;

– uchinchi shaxsnig kafilligi;

– sug'urta kompaniyasining qarz oluvchi tomonidan kredit to'lanmasligi xatarini sug'urta qilish to'g'risidagi sug'urta varaqasi.

Garov shartnoma yoki qonunlarga ko'ra vujudga keladi. Garovning vujudga kelishini nazarda tutuvchi qonunda qanday majburiyatga ko'ra va aynan qaysi mol-mulk garovda turgan, deb e'tirof etilishi lozimligi ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Har qanday mol-mulk, shu jumladan, ashyolar va mulkiy huquqlar (talablar) garov predmeti bo'lishi mumkin. Garov to'g'risidagi shartnomada, qonun asosida vujudga keladigan garovga nisbatan qonunda garovga qo'yuvchi kelgusida qo'lga kiritadigan ashyolar va mulkiy huquqlar garovi nazarda tutilishi mumkin. Agar shartnomada yoki qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, mol-mulkka nisbatan garov huquqi mol-mulkning narsalarini va tarkibiy samarasini ham o'z ichiga oladi. Garovga qo'yilgan mol-mulkdan foydalanish natijasida olingan samara, mahsulot va daromadlarga nisbatan garov huquqi shartnomada nazarda tutilgan hollarda tatbiq etiladi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlar amaliyotida yuqori likvidlilik darajasiga ega bo'lgan garov obyektlari birinchi toifali garov obyektlari deb qaraladi va ularga quyidagilar kiradi: yer, hukumatning qimmatli qog'ozlari, Markaziy bankda qayta hisobga olinadigan trattalar, korxonalarning hukumat tomonidan kafolatlangan qimmatli qog'ozlari.

Rivojlangan xorijiy davlatlar amaliyotida, xususan, G'arbiy Yevropa davlatlari xo'jalik amaliyotida sanoat korxonalarining hukumat tomonidan kafolatlangan obligatsiyalari mavjuddir. Har qanday qimmatli qog'oz to'lovining hukumat tomonidan kafolatlanishi uning likvidlilik darajasini oshiradi.

Qimmatli qog'ozlarni garovga olish hisobiga berilgan investitsiya kreditlari bo'yicha garov obyektini sotishda ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasini ssudaning to'lanmagan qiymatidan

chegirmaslik banklarning investitsiya krediti berish salohiyatiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Kreditning ta'minlanganlik tamoyili qarz oluvchi o'ziga olgan majburiyatlarni buzish sharoitida qarz beruvchining mulkdorlik manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydi va o'zining amaliy aksini kreditni biror garov yoki moliyaviy kafolat asosida berishda topadi. Bu umumiqtisodiy barqarorlik davrida, ayniqsa, muhimdir.

4. To'lovlilik tamoyili. Bu tamoyil aylanma fondlarning doiraviy aylanishini, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini ta'minlovchi to'lov resurslari summasini avanslashtirish zaruriyatidan kelib chiqadi.

Bu tamoyilga asosan, korxonalar foydalanilgan qarz mablag'lari uchun kreditorga foiz shaklida to'lovni o'tkazadilar. Kreditning to'lovliligi uni to'liq summada o'z egasiga qaytarilishinigina emas, shu bilan birga kredit uchun foiz shaklidagi to'lov bilan qaytarilishini ifodalaydi. Demak, kreditor o'z mablag'larini hech vaqt o'z hajmida qaytarib olish sharti bilan bermaydi, bunda u mablag'ni qarzga berganligi uchun muayyan to'lov talab qiladi (foizsiz imtiyozli kreditlar bundan mustasno).

Kreditning to'lovliligi, nafaqat, banklar xo'jalik hisobi statusiga, shu bilan birga, korxonalarni bevosita foydasi bilan bog'liq xo'jalik hisobiga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Kredit uchun haq to'lashning iqtisodiy mohiyati qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasidagi qo'shimcha olingan foydaning taqsimlanishini qayd qilishda namoyon bo'ladi. Ko'rib chiqilayotgan tamoyilning amaliyotda uchta asosiy funksiyasini bajaruvchi bank foizi me'yorini o'rnatish jarayonida namoyon bo'ladi: huquqiy shaxslar foydasining va jismoniy shaxslar daromadining taqsimlanishi; ishlab chiqarishni tartibga solish va ssuda kapitalining taqsimlanishi orqali tarmoq, tarmoqlararo va xalqaro miqyosda aylanishi; iqtisodiyot rivojlanishining inqirozli bosqichida bank mijozlarining pul mablag'larini inflyatsiyadan himoyalash va boshqalar.

Ssuda foizining stavkasi ssuda kapitalidan olingan yillik daromad summasining berilgan kredit summasiga nisbati bilan aniqlanib, kredit resurslarining bahosi sifatida namoyon bo'ladi.

5. Kreditning maqsadliligi. Bu tamoyilning mohiyati shundaki, qarz oluvchi tomonidan olingan kreditlar aniq bir maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Kreditning qaysi maqsadga yo'naltirilganligi, masalan, tovar-moddiy boyliklar sotib olishga yoki biror ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashga va hokazoga, aniq biror obyektga maqsadli yo'naltirilganligi korxona bilan bank o'rtasida tuziladigan kredit shartnomada ko'rsatilgan bo'ladi. Korxona olgan kreditini faqatgina kredit shartnomasida ko'rsatilgan ishni bajarishga sarflashi kerak. Bunda kredit muayyan, aniq obyektga: ishlab chiqarish xarajatlariga, ishlab chiqarish zaxiralariga, tayyor mahsulotga, jo'natilgan tovarlarga, hisob-kitob hujjatlariga va hokazolarga beriladi.

Kreditni maqsadli yo'naltirish tamoyili qarz oluvchi zimmasiga pul mablag'larini faqat rejada ko'rsatilgan maqsadlar uchun sarflashi ko'zda tutiladi. Uzoq muddatli kredit maqsadli tarzda aniq qurilish obyektlari va asbob-uskunalarni sotib olish uchun beriladi.

Yuqorida keltirilgan tamoyillar kreditning iqtisodiy kategoriya sifatida mavjud bo'lishi va harakat qilishining muhim tomonlarini o'zida ifodalaydi.

Uzoq muddatli kreditlar asbob-uskuna, qurilmalarni sotib olish yoki qurilish kabi uzoq muddatli investitsiyalarni moliyalashtirish uchun yo'naltiriladi. Odatda, qarz oluvchi ma'lum loyiha bo'yicha smeta xarajatlaridan kelib chiqib, yirik kredit summasini olish uchun bankka murojaat qiladi, so'ng kreditni qismlarga bo'lib to'lash majburiyatini oladi, bunday to'lovlar har oyda yoki chorakda amalga oshiriladi. Bunda uzoq muddatli kreditlar korxonaning kelgusidagi pul mablag'lari oqimiga asoslanadi, ushbu to'lovlar yordamida kreditning bosqichma-bosqich to'lanishi amalga oshiriladi. Kredit uchun qisman to'lovlar qarz oluvchining naqd pullari tushumi va chiqimining barqaror sikli asosida tuziladi.

Uzoq muddatli kreditlar muddatli kreditlar ichida risklilik darajasi eng yuqori bo'lgan kredit bo'lib, uni loyihaviy kredit deb ham atash mumkin. Bunday kreditlar korxonaga kelgusidagi naqd pul tushumini ta'minlovchi – asosiy kapitalning to'ldirilishini moliyalashtirish uchun zarur. Bunga misol sifatida neftni qayta ishlash, shaxta, elektrostansiyalar kabi yirik inshootlarning

qurilishini kreditlashni keltirish mumkin. Loyihalar bo'yicha kredit risklari quyidagilardan iborat: korxona qurilishi uchun talab etiladigan materiallar shartlarining nomutanosibligi, kamomadi; loyiha amalga oshirilayotgan joydagi hukumat qonunlari, farmonlarining loyihaga to'sqinlik qilishi; kredit uchun belgilanadigan foiz stavkasining keskin o'zgarishi.

Ta'kidlash joizki, kredit shartnomasi qarz munosabatlarining o'ziga xos, mustaqil turidir va uning o'ziga xos asosiy talablari mavjud. Bular: kredit maqsadli bo'lishi shart; kreditning yig'indisi aniq belgilangan bo'lishi kerak; kreditning qoplash tartibi aniq ko'rsatilgan bo'lishi lozim; kreditning muddati ko'rsatilishi shart; kredit berganligi uchun bank oladigan haq ko'rsatilish lozim.

11.3. Xo'jalik yurituvchi subyektlar aylanma mablag'larini kreditlash xususiyatlari

Aylanma mablag'lar (vositalar) – korxona (xo'jalik)ning faoliyatini moliyalash uchun foydalanadigan pul mablag'lari. Aylanma mablag'lar aylanma ishlab chiqarish fondlari va muomala fondlaridan tashkil topadi. Aylanma ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarish jarayonida bir marta ishtirok etadi, har bir ishlab chiqarish davrida butunlay iste'mol qilinadi, o'z natural shaklini o'zgartiradi, uning qiymati ishlab chiqarilayotgan mahsulotga to'liq o'tadi va mahsulot sotilishi bilan pulga aylanadi (xomashyo, materiallar, kelgusi davr xarajatalari, arzon baho anjomlar va b.).

Muomala fondlari – mahsulotning korxonadan chiqib, to sotilishiga qadar muomala jarayonida band bo'lgan vositalar (sotuvga chiqariladigan tayyor mahsulot qiymati, kassadagi naqd pul mablag'lari va bankdagi hisobvaraqda turgan mablag'lar). Aylanma fondlarning muomala fondlari bilan birikishi, iqtisodiy jihatdan asosli bo'lib, mablag'larning muomala va ishlab chiqarish sohalarida taqsimlanishini nazorat etishga imkon beradi.

Hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish, pul muomalasini barqarorlashtirish asosida milliy pul birligini mustahkamlashning asosiy yo'llaridan biri – ishlab chiqarishni rivojlantirish va uni takomillashtirishdan iborat. Ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va uning samaradorligini oshirish, xomashyo,

materiallar, yoqilg'i, energiya va boshqa resurslardan to'g'ri foydalanish, ularni ishlab chiqarishda qo'llash, iqtisodlilik tamoyiliga rioya qilish, material xarajatlarini kamaytirish, arzon, lekin, sifatli materiallarni ishlab chiqarishda qo'llash yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Shuni ta'kidlash lozimki, ishlab chiqarishni tashkil qilish va uning samaradorligini oshirish, avvalambor, aylanma mablag'lardan to'g'ri foydalanishga bog'liq bo'ladi.

Har bir xo'jalik o'z ishlab chiqarishini tashkil qilishi, ishlab chiqarish vositalarini sotib olish uchun ma'lum qiymatni avanslashtirishi kerak. Ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash uchun avanslashtirilgan qiymat ishlab chiqarish va muomala sohasida doimiy ravishda aylanib turishi zarur.

Aylanma mablag'lar asosiy vositalardan farq qilib, bir ishlab chiqarish jarayonida o'zining qiymatini to'la ravishda mahsulot tannarxiga o'tkazadi. Aylanma mablag'larning korxona uchun umumiy miqdori yuqori tashkilotlar, ya'ni tegishli vazirlik tomonidan belgilanadi. Materiallarning har bir turi bo'yicha me'yoriy miqdori korxona tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Har bir ishlab chiqarish korxonasida mahsulot ishlab chiqarish to'xtovsiz davom etib turishida belgilangan me'yoriga rioya qilish muhim ahamiyatga ega.

Xo'jalik yuritishning yangi tizimi sharoitida aylanma mablag'lardan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, xo'jasizlikka qarshi kurash, mahsulot tannarxida moddiy xarajatlar ulushini kamaytirib borish masalalariga alohida e'tibor beriladi. Jumladan, aylanma mablag'lar tarkibidagi moddiy resurslarni to'g'ri, tejamli sarflash xalq xo'jaligini yanada rivojlantirishda, aholining moddiy farovonligini oshirishda muhim omildir.

Aylanma aktivlar iqtisodiy kategoriya sifatida bir necha xususiyatlarga ega. Shulardan biri - aylanma ishlab chiqarish va muomala aktivlari uchun avanslashtirilgan qiymatlarning bir iqtisodiy kategoriya – aylanma aktivlar kategoriyasiga birlashishidadir. Ba'zi iqtisodchilar aylanma aktivlarga iqtisodiy kategoriya sifatida qaramaydilar. Ularning fikricha, aylanma fondlargina iqtisodiy kategoriya sifatida tovar ishlab chiqarish jarayonining asosini tashkil qiladi. Aylanma aktivlarning yana bir xususiyati – ularning tashkil qilinishi va ulardan foydalanishdir.

Aylanma aktivlarning aylanishini boshlash uchun, avvalambor, avanslashtirilgan qiymatga ega bo'lish lozim.

Aylanma aktivlar korxona balansining aktiv qismida ko'rsatilib, quyidagi tarkibiy guruhlarga bo'linadi:

– 1-guruh, tovar-moddiy boyliklar, bularga ishlab chiqarish zaxiralari, tayyor mahsulot va tovarlar kiradi;

– 2-guruh, ishlab chiqarish xarajatlari, bularga tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davr xarajatlari va boshqalar kiradi;

– 3-guruh, pul mablag'lari, bularga kassadagi pul mablag'lari, valuta mablag'lari, hisob-kitob raqamidagi pul mablag'lari, boshqa hisob raqamlaridagi pul mablag'lari kiradi;

– 4-guruh, debitorlar, bularga xaridor va buyurtmachilar bilan hisoblashishlar, bo'nak to'lovlari, budjet bilan hisob-kitoblar, xodimlar bilan hisob-kitoblar, sho'ba korxonalar bilan hisob-kitoblar, uyushma korxonalar bilan hisob-kitoblar, ta'sischilar bilan hisob-kitoblar va boshqa debitorlar kiradi.

Aylanma aktivlar o'zining qaysi tarmoqqa qarashli ekanligiga qarab, aylanishi davrida ma'lum xususiyatlarga ega bo'ladi. Aylanma aktivlarning aylanish davridagi xususiyati xo'jalik subyektining qaysi tarmoqqa taalluqli ekanligiga bog'liq. Mavsumiy tarmoqlar (qishloq xo'jaligi, tayyorlov, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi tarmoqlar)da aylanma aktivlarning aylanishi bir tekisda kechmaydi. Chunki bu tarmoqlarga aylanma aktivlarga bo'lgan ehtiyoj yil fasliga, mavsumga qarab turlicha bo'ladi. Masalan, qishloq xo'jaligida bahor, yoz oylarida aylanma aktivlarga bo'lgan talab oshishi, kuzga kelib aylanma aktivlarga bo'lgan talab kamayishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi va shunga o'xshagan boshqa tarmoqlarda aylanma aktivlarga bo'lgan talab bank kreditini jalb qilish yo'li bilan qoplanishi mumkin. Mavsum bilan bog'liq bo'lmagan tarmoqlar (sanoat, savdo, ta'minot va boshqalar)da aylanma aktivlarning aylanishi (mahsulot sotib olish, ishlab chiqarish va sotish jarayonini amalga oshirish) bir maromda kechishi mumkin. Shunga qaramasdan nomavsumiy tarmoqlarda ham materiallarning mol yetkazib beruvchidan kelib tushishida, tovar ortiqcha yoki kam kelib tushganda, transport bo'yicha qiyinchiliklar bo'lganda, import mollar ko'p miqdorda kelib tushganda, tayyor mahsulotni sotish jarayoni va boshqalarda

aylanma mablag'larga bo'lgan talab bank krediti hisobidan qoplanishi mumkin.

Xo'jalik subyektlarining aylanma aktivlari quyidagi manbalar hisobidan tashkil qilinadi: korxonaning o'z aylanma mablag'lari; bank kreditlari; kreditor qarzlari va boshqa manbalar.

Xo'jalik subyektlari ishlab chiqarish va tovarlarni sotish jarayonini bir maromda olib borish uchun tovar-moddiy boyliklar va ishlab chiqarish xarajatlarining minimal miqdorida o'z aylanma mablag'lariga ega bo'lishi kerak. Korxonaning o'z aylanma mablag'lari uning kapitalida o'z ifodasini topadi. Ustav kapitali, asosan, foyda hisobidan yoki qo'shimcha aksiyalar chiqarish va sotish hisobidan ko'paytirib boriladi. Korxonaning o'z kapitalining miqdori qancha yuqori bo'lsa, uning faoliyati shunchalik boshqa kreditorlarga bog'liq bo'lmaydi, ya'ni o'z aylanma mablag'larining yuqori salmog'i korxonaning moliyaviy jihatdan mustaqilligidan dalolat beradi.

Aylanma aktivlarning ikkinchi manbasi — bank krediti va boshqa qarz mablag'lari hisoblanadi. Korxona faoliyatini bir maromda olib borish uchun o'z aylanma mablag'lari yetarli bo'lmasa, oborotga qisqa muddatli bank kreditlari jalb qilinishi mumkin. Xo'jaliklar faoliyatida bunday ahvol mavsumiy va vaqtinchalik zaxiralar hamda xarajatlarni qoplash, akkreditiv [1] ochish va boshqa hisob-kitoblarni amalga oshirish jarayonida va boshqa shunga o'xshash holatlarda yuzaga keladi.

Xo'jalik subyektlarining aylanma aktivlarini tashkil qilishda kreditning rolini quyidagilar bilan ifodalash mumkin:

— kreditning xo'jalik oborotida ishtirok etishi aylanma mablag'larni iqtisod qilishga olib keladi;

— kredit xo'jaliklar faoliyatida uchrab turuvchi mavsumiy ehtiyoj, boshqa holatlar bilan bog'liq bo'linishlarning oldini olishga yordam beradi;

— kredit ishlab chiqarish, tayyorlov va sotish jarayonini tezlashtiradi va hajmini oshiradi;

---

[1] Akkreditiv (lot. accredo – ishonaman) – 1) naqd pulsiz hisob-kitoblar olib boriladigan bank hisobvarag'i; 2) tomonlar o'rtasida tuzilgan shartnomaga ko'ra amalga oshiriladigan o'zaro hisob-kitob turi. Unda qarz beruvchi o'ziga tegishli to'lovlarni akkreditiv topshirig'ida ko'zda tutilgan shartlar va muddatlarda tegishli bank orqali olib turadi; 3) nomiga yozib berilgan shaxsga kredit muassasasidan ko'rsatilgan summani olish huquqini tasdiqlovchi qimmatli qog'oz.

– kredit o‘z vaqtida hisob-kitoblarni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi;

– bank korxonalarga kredit berish yo‘li bilan ularning faoliyati yaxshilanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, aylanma mablag‘ (aktiv)lar xo‘jalik subyektlari faoliyatining asosi bo‘lib, bank tomonidan beriladigan kreditlarning aksariyat qismi aylanma aktivlarga yo‘naltiriladi. Shu tufayli har bir xo‘jalik subyekti aylanma aktivlarini to‘g‘ri tashkil qilmog‘i, ulardan foydalanishda samaradorlikka erishmog‘i lozim bo‘ladi.

11.4. Investitsiya faoliyatida ipoteka krediti

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining yuzaga kelishida ipoteka inqirozining hal qiluvchi rol o‘ynaganligi, O‘zbekiston iqtisodiyoti va bank tizimi rivojlanishining hozirgi bosqichida ipotekali kreditlash amaliyotining mukammal emasligi uni jahon moliyaviy inqirozi oqibatlarini hisobga olgan holda takomillashtirish zarurligini belgilab berdi.

Xorijiy davlatlarda ipotekali kreditlash tijorat banklarida kreditlash faoliyatining mustaqil yo‘nalishiga aylangan. Jahon tajribasi guvohlik berishicha, ipotekali kreditlash AQShda XX asrning 30-yillarida, Kanada va Germaniyada 40-50-yillarida, Argentina va Chilida 70-80-yillarida bank tizimini inqirozdan chiqarish, sanoat ishlab chiqarishini jonlantirish imkonini bergan. Shuningdek, 2008-yildagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi banklarning ipotekali kreditlash amaliyotini tartibga solish va takomillashtirish masalasiga tubdan jiddiy yondashish zaruriyatini keltirib chiqardi. Prezidentimiz iborasi bilan aytganda buning sababi shundaki: «Ushbu inqiroz Amerika Qo‘shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro‘y bergan tanglik holatidan boshlandi. So‘ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya’ni to‘lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi»[1].

Bugungi kunda hukumat tomonidan aholining uy-joy bilan ta’minlash, uy-joy qurish masalalariga katta e’tibor qaratilmoqda.

[1] Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. T.: «O‘zbekiston», 2009. – B. 4.

Ayniqsa, qishloq joylarda xususiy uy-joylar qurilishining amalga oshirilishi aholi ijtimoiy farovonligining oshishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2013 yilda qishloq joylardagi 353 ta massivda umumiy maydoni 1 million 500 ming kvadrat metr bo'lgan 10 mingta shinam uy-joylar barpo etildi, bu ko'rsatkich 2012 yildagiga nisbatan 17 foizga ko'pdir. Ushbu maqsadlar uchun qariyb 650 million dollar qiymatidagi mablag' yo'naltirildi. Buning 106 million dollari Osiyo taraqqiyot bankining kredit mablag'laridir[1].

Umuman aytganda, qishloq joylarda uy-joy qurilishini rivojlantirishning 2015-yilgacha mo'ljallangan tasdiqlangan dasturini amalga oshirish ishlariga 2,2 mlrd AQSh dollari qiymatidagi mablag' yo'naltirish ko'zda tutilmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining «Ipoteka to'grisida»[2] Qonunida: «ipoteka ipoteka to'grisidagi shartnoma asosida (shartnoma asosidagi ipoteka) yoki qonun asosida (qonun asosidagi ipoteka) vujudga keladi». Ipoteka to'grisidagi shartnoma bo'yicha bir taraf – ipoteka bilan ta'minlangan majburiyat bo'yicha kreditor bo'lgan garovga oluvchi shu majburiyat bo'yicha o'zining qarzdorga nisbatan pul talablari boshqa tarafning – garovga qo'yuvchining garovga qo'yilgan ko'chmas mulki qiymatidan ipotekaga qo'yuvchining boshqa kreditorlariga qaraganda imtiyozli qanoatlantirilish huquqiga ega bo'ladi.

Umuman aytganda, qishloq joylarda uy-joy qurilishini rivojlantirishning 2015-yilgacha mo'ljallangan tasdiqlangan dasturini amalga oshirish ishlariga 2,2 mlrd AQSh dollari qiymatidagi mablag' yo'naltirish ko'zda tutilmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining «Ipoteka to'g'risida»gi[3] qonunida: «ipoteka ipoteka to'g'risidagi shartnoma asosida (shartnoma asosidagi ipoteka) yoki qonun asosida (qonun asosidagi ipoteka) vujudga keladi». Ipoteka to'g'risidagi shartnoma bo'yicha bir taraf – ipoteka bilan ta'minlangan majburiyat

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi: 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. // «Toshkent oqshomi» gazetasi, 2014 yil 20 yanvar, №13. – B. 2.

[2] O'zbekiston Respublikasining 2006 yil 4 oktyabrdagi «Ipoteka to'grisida»gi Qonuni. N O'RQ-58. Qonunchilik palatasi tomonidan 2006 yil 28 iyunda qabul qilingan va Senat tomonidan 2006 yil 25 avgustda ma'qullangan.

[3] O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 4-oktyabrdagi «Ipoteka to'g'risida»gi qonuni. N O'RQ-58. Qonunchilik palatasi tomonidan 2006-yil 28-iyunda qabul qilingan va Senat tomonidan 2006-yil 25-avgustda ma'qullangan.

bo'yicha kreditor bo'lgan garovga oluvchi shu majburiyat bo'yicha o'zining qarzdorga nisbatan pul talablari boshqa tarafning – garovga qo'yuvchining garovga qo'yilgan ko'chmas mulki qiymatidan ipotekaga qo'yuvchining boshqa kreditorlariga qaraganda imtiyozli qanoatlantirilish huquqiga ega bo'ladi.

Ipoteka kreditining iqtisodiy mohiyatini ochib berishda qiymat, talab va taklif qonunlarining ipotekali kreditlash amaliyotida namoyon bo'lish shakllarini nazardan qochirmaslik lozim. Ipoteka krediti yuqorida qayd qilganimizdek, qiymatning harakati sifatida o'zining qiymatiga va iste'mol qiymatiga ega bo'lib, uning qiymati foiz stavkasi shaklida namoyon bo'ladi. Ipoteka kreditlari foiz stavkalarining ko'tarilishi ular qiymatining oshishini bildiradi. Bu unga bo'lgan talabning oshishi tufayli yuzaga keladi, ya'ni talab va taklif qonunining ipotekali kreditlash amaliyotida namoyon bo'lishining alohida bir shakli hisoblanadi. Shuningdek, ipoteka kreditlariga bo'lgan talabning kamayishi yoki uy-joy taklifining oshishi ipoteka kreditlarining bahosi pasayishiga olib keladi. Bu yerda talab va taklif qonunining ipotekali kreditlash amaliyotida namoyon bo'lish shakli yuzaga keladi.

Ipotekali kreditlash bank kreditlarining boshqa turlaridan sezilarli darajada farqlanuvchi mustaqil kreditlash sohasi hisoblanadi. Mazkur farqlar, bizning fikrimizcha, quyidagilarda namoyon bo'ladi:

– ipoteka kreditlarining asosiy qismi uzoq muddatliligi;
– kredit oluvchi uchun muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etishi;
– kredit riski darajasining nisbatan pastligi;
– kreditlashning maxsus dastaklari qo'llanilishi;
– kreditlashning muddatli jarayoni ekanligi;
– kredit summasi ko'chmas mulkning qiymati, ariza beruvchining daromadi, dastlabki badalning miqdori, ipoteka dastagini tanlash va tanlangan dastakni sug'urtalashning zarurligi hamda kredit oluvchiga berilgan imtiyozlar va subsidiyalarga bog'liq ravishda belgilanishidan iborat.

O'zbekiston Respublikasida 1996-yilga qadar aholining individual uy-joy qurilishini Xalq banki orqali kreditlash amaliyoti mavjud edi. Xalq bankida resurslarning yetishmasligi muammosi mavjud bo'lganligi sababli mazkur kreditlar kichik miqdorda berilar edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 24-martdagi №PF-1739-sonli «O‘zbekiston Respublikasida uy-joy qurilishida islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoniga muvofiq, «Ipotekabank» (avvalgi Uyjoyjamg‘armabank) tomonidan Toshkent shahrida va respublikamizning qator shaharlarida aholining pul mablag‘larini jalb qilish asosida uy-joy qurilishini kreditlash amalga oshirila boshlandi.

Ko‘chmas mulk egalariga ipoteka kreditlari berilishi mumkin. Ular ham oddiy, ham ixtisoslashgan ipoteka banklari tomonidan beriladi. Bu hozirda xorij amaliyotida keng tarqalgan bo‘lib, hatto, ba’zi manbalarda kreditning alohida shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Bizning mamlakatimiz amaliyotida bu faqatgina 1996-yildan boshlab tarqala boshladi. Xususiylashtirish jarayonining rivojlanishi, mulkka egalik asoslarining qonunlashtirilishi ipoteka kreditining yanada ravnaq topishiga olib keladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 6 maydagi «Ipoteka krediti berishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi[1] Qarorida Jamg‘armaning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilab olindi:

– ipoteka krediti berishni rivojlantirish uchun xalqaro va xorijiy moliya institutlarining uzoq muddatli kreditlari, investitsiya hamda grantlarini, Jamg‘arma mablag‘larini to‘ldiradigan boshqa manbalarni jalb etish va jamlash;

– ipoteka krediti berishda ishtirok etadigan «Ipotekabank» aksiyadorlik tijorat banki hamda boshqa banklar yakka tartibda qarz oluvchilarga o‘z ehtiyojlari uchun uy-joylar qurish, rekonstruksiya qilish va xarid qilishga kreditlar berishi uchun ana shu banklarga shartnoma asosida kredit liniyalari ochish;

– Jamg‘arma tomonidan banklarga beriladigan mablag‘lardan faqat maqsadli foydalanilishi monitoringini ta’minlash;

– Jamg‘arma tushumlari va uning mablag‘laridan foydalanishning yillik hamda chorak balanslarini shakllantirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning tashabbusi bilan tashkil etilgan «Ipoteka krediti berishni qo‘llab-quvvatlash» jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan aholiga uy-joy sotib olish uchun imtiyozli 5 foizli kreditlar ajratish ko‘zda

[1] Mazkur qarorga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 20-sentabrdagi PQ-185-sonli qaroriga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilgan.

tutilgan edi. Lekin, bu jihat, ya'ni imtiyozli kreditlar berish ipoteka krediti bilan shug'ullanuvchi banklarning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir qiladi. Ikkinchi tomondan aholining salmoqli qismi bozor stavkalarida ipoteka kreditlari olish imkoniga ega emas. Ushbu muammoni hal qilish respublikamizda ipotekali kreditlash amaliyotini takomillashtirish yo'lidagi muhim qadam bo'ladi. Prezidentimiz I.A.Karimovning 2005-yil 16-fevraldagi «Uy-joy qurilishi va uy-joy bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida ushbu muammo o'z yechimini topdi. Mazkur qarorga muvofiq, jamg'arma tomonidan banklararo bozordan jalb qilingan mablag'lar uchun to'lanadigan foiz stavkasi bilan imtiyozli ipoteka krediti foiz stavkasi o'rtasidagi salbiy marja qoplab beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari» asarida banklarning ipotekali kreditlash amaliyotini yanada takomillashtirish, birinchi navbatda, qishloq joylarda uy-joy qurilishini kreditlashni rivojlantirishning maqsadga muvofiqligini asoslab berdi. Ushbu asarda, qishloq joylarda uy-joy qurilishi hajmini oshirish, mavjud infratuzilmani kengaytirish uchun qishloq qurilishi bo'yicha hududiy bo'limlarga ega ixtisoslashgan bank tashkil etish masalasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir, deb ta'kidlanadi[1].

Mamlakatimiz Prezidentining mazkur asarida qishloq joylarda uy-joy qurilishini kreditlashni rivojlantirish bo'yicha belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30 martdagi ««Qishloq qurilish bank» aksiyadorlik-tijorat bankini tashkil etish to'g'risida»«gi PQ-1083-sonli qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan ushbu bankning ustav kapitalini shakllantirish uchun ajratiladigan mablag'lar tasdiqlangan namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibdagi uy-joy qurilishini moliyalashtirishga maqsadli tarzda yo'naltiriladi. Bu ipoteka kreditlari hajmining sezilarli darajada oshishiga olib keladi.

[1] Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: «O'zbekiston», 2009. – B. 44.

Ipotekali kreditlash amaliyotini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash bir vaqtning o'zida ikki vazifani, ya'ni aholi uchun ipoteka kreditlarining maqbul foiz stavkalarini ta'minlash va ipoteka kreditlari berayotgan banklarning moliyaviy holatiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltirmaslik vazifasini bajarishni ko'zda tutadi.

Ipoteka kreditining iqtisodiy kategoriya ekanligi korxonalar, davlat va xususiy sektorga mansub iqtisodiy munosabatlar subyektlari kapitallarining harakati, pul shaklidagi kapitalning doiraviy aylanishi natijasida yuzaga keladigan bo'sh kapitalning miqdori bilan unga bo'lgan ehtiyoj o'rtasidagi qarama-qarshilikning mavjudligi, iste'mol xususiyatiga ega ekanligi, kreditni berishda kreditor ssuda kapitaliga bo'lgan egalik huquqini saqlab qolishi kabi holatlarda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, ipotekali kreditlash bank kreditlarining boshqa turlaridan farqlanuvchi mustaqil kreditlash sohasi hisoblanadi va mazkur farqlar ipoteka kreditlari aksariyat qismining uzoq muddatliligi, kredit oluvchi uchun muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etishi, kredit riski darajasining nisbatan pastligi, kreditlashning maxsus dastaklari qo'llanilishida namoyon bo'ladi.

11.5. Korxonalarning kreditga layoqatliligi ko'rsatkichlari va kreditni rasmiylashtirish tartib-qoidalari

Ma'lumki, har bir korxona o'z faoliyatini to'g'ri rejalashtirishi, nazorat qilishi va kredit mablag'laridan oqilona foydalana olishi uchun moliyaviy hisobotlar tahlilini bilishi lozim. Chunki har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt ma'lum bir iqtisodiy munosabatga kirishar ekan, u avvalo, o'zining va hamkorining (korxona va bank) to'lovga layoqatlilik darajasi bilan qiziqadi. Korxona moliyaviy barqarorligini aniqlash uning ta'sischilari va boshqa investorlar uchun ham muhimdir.

Qarz oluvchining moliyaviy holatining tahlili o'z ko'lami jihatidan o'ta yirik va murakkab masaladir. Shu boisdan moliyaviy holat tahlilida aniq maqsadning qo'yilishi mazkur masalaning aniqlashtirilishi va amaliy jihatdan hal qilinishi imkoniyatini belgilaydi. Ta'kidlash joizki, moliyaviy koeffitsiyentlar xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy ahvolini ko'zguda aks ettiruvchi

vosita emas, balki bir necha ko'rsatkichlarni jamlash hamda nisbatlash asosida mazmun va ifodaga ega bo'lish usulidir.

Qarz oluvchi uchun investitsiya qarorlarini qabul qilish juda qiyin vazifa hisoblanadi. Bunda asosiy mezon korxona qiymatlarini oshirish mezonlariga qaratiladi. Uning omillari bo'lib korxona daromadlari o'sishi, moliyaviy risk yoki ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishi, korxona ishlari samaradorligi darajasini oshirish hisoblanadi.

11.1-jadval

Qarz oluvchining pul oqimi tavsifi

Korxona faoliyati turi	Foyda (kirim)	Xarajatlar (chiqim)
Investitsiya faoliyati	- asosiy vositalarni sotish; - nomoddiy aktivlarni sotish; - uzoq va qisqa muddatli investitsiyalarni sotish; - oborot kapitalining kamayishi hisobiga tushumlar	- kapital qo'yilmalar; - nomoddiy aktivlarni sotib olish; - oborot kapitalining o'sishi hisobiga xarajatlar; - uzoq va qisqa muddatli investitsiyalarni sotib olish
Operatsion faoliyat	- mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan kelib tushgan pul mablag'i; - operatsion faoliyatning boshqa pul tushumlari	- material, tovar, ish va xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilarga to'langan pul mablag'lari; - xodimlarga va ular nomidan to'langan pul mablag'lari; - operatsion faoliyatning boshqa pul to'lovlari
Moliyaviy faoliyat	- aksiyalar chiqarishdan yoki xususiy kapital bilan bog'liq bo'lgan boshqa instrumentlardan kelgan pul tushumlari; - olingan foizlar va dividendlar; - moliyaviy faoliyatning boshqa pul tushumlari, shu jumladan, qarzlar bo'yicha pul tushumlari	- xususiy aksiyalar sotib olingandagi pul to'lovlari; - to'langan foizlar va dividendlar; - uzoq va qisqa muddatli kreditlar va qarzlar bo'yicha to'lovlar; - lizing bo'yicha to'lovlar; - moliyaviy faoliyatning boshqa to'lovlari

Qarz oluvchi faoliyatining moliyaviy natijalari tahlili, odatda, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– tahlil qilinayotgan joriy davrda har bir ko‘rsatkich o‘zgarishlarini aniqlash;

– tegishli ko‘rsatkichlar tarkibi, ularning o‘zgarishini o‘rganish;

– moliyaviy natijalar bo‘yicha ko‘rsatkichlar o‘zgarishi dinamikasini tahlil etish.

Qarz oluvchilarning moliyaviy holati ko‘rsatkichlari tizimini ikkita yirik guruhga: absolut va nisbiy ko‘rsatkichlarga bo‘lib o‘rganish mumkin (11.1-rasm).



11.1-rasm. **Qarz oluvchilarning moliyaviy holatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar**

Qarz oluvchilarning moliyaviy holatini tavsiflovchi mazkur ko'rsatkichlarni aniqlash uslubiyotini ko'rib chiqish darsligimizning maqsadidan chetga chiqadi. Chunki ushbu ko'rsatkichlarni o'rgatuvchi maxsus fanlar mavjud bo'lib, talabalar ana shu fanni o'zlashtirishlarida bevosita ularni aniqlash uslubiyoti bilan yaqindan tanishib oladilar.

Korxonaning kreditga layoqatliligi, to'lovga qobilligi – bu uning uzoq muddatli qarzlar va ular bo'yicha foizlarni o'z vaqtida qaytara olish, qarzga xizmat ko'rsatishni ta'minlay olish imkoniyati. Korxona qanchalik kreditga layoqatli, to'lovga qobil bo'lsa, u shunchalik bankrotlikdan himoyalangan hisoblanadi.

Jahon amaliyotida mijozning kreditga layoqatliligi kredit munosabatlarining maqsadga muvofiqligini aniqlashdagi asosiy baholash obyektlaridan biri hisoblanadi.

Qarz mablag'lari qaytarilishining imkoniyati ikki usulda: mijozning ma'naviy sifatlari hamda moliyaviy ko'rsatkichlar asosida aniqlanadi. Mijozning ma'naviy sifatlariga faoliyat sohasi, bozorda ish olib borish qobiliyati, ssudani qaytarish uchun mablag'ni halol (vijdonan) ishlab topish mumkinligi taalluqlidir. O'tgan asrda Fransuz bankiri Lo ta'kidlashicha: «Biz mijozlarning halolligiga, vijdonan ish yuritishiga asosiy e'tiborni qaratib, ularga ishonch bildiramiz – bu bizning aldanib qolmasligimizga ishonch beradi»[1].

Shunday qilib, qarz oluvchining kreditga layoqatliligi, dastlab mijozning ma'naviy sifatlariga hamda qarzni qaytarish uchun olgan mablag'larni qaytarish imkoniyatlariga asoslanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning kreditga layoqatlilikni hisoblashda likvidlik, qoplash, moliyaviy faollik (moliyaviy leveraj) va moliyaviy mustaqillik ko'rsatkichlar (koeffitsiyentlar)idan foydalaniladi.

1. «Likvidlilik» atamasi lotincha «Liquidus»[2] so'zidan olingan bo'lib «oquvchan», «suyuqlik» ma'nosini anglatadi.

Tushunchaning iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, bu moddiy qiymatliklarning va boshqa aktivlarning tezda sotilishi va pulga aylanishini ifodalaydi.

---

[1] Банковское дело / Под ред. Проф. О.И.Лаврушина. М.: «Банковский и биржевой научный центр», 1992. С. 143.

[2] Борисов А.Б. Большой экономический словарь. Издание 2-е переработанное и дополненное. М.: «Книжный мир», 2006. С. 362.

Jahon iqtisodiy amaliyoti ko'rsatishicha, likvidlilik muammosi doimo mavjud. Ya'ni qarz oluvchilar faoliyatining samaradorligi – ularning majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olishlari bilan belgilanadi. Qarz oluvchilar o'z imidjini saqlab qolishi uchun, eng avvalo, ularning likvidliligi va to'lov qobiliyati mustahkam bo'lishi lozim.

Qarz oluvchilarning ishonchliligi deganda, ularning o'z mijozlari oldidagi majburiyatini, ya'ni birinchi talab bilanoq amalga oshirish layoqatiga ega bo'lgan faoliyatini tushunamiz. Ishonchlilikka erishish uchun qarz oluvchilar likvidli va to'lov qobiliyatiga ega bo'lishlari lozim.

Qarz oluvchilar faoliyatini tadqiq etishda ularning likvidliligi bilan to'lov qobiliyati tushunchalari o'rtasida qanday umumiylik va farqlar mavjud ekan, degan savol tug'ilishi tabiiy. Qarz oluvchilar likvidliligi bilan to'lov qobiliyati tushunchalarining o'xshash jihatlari bo'lsa-da, ular o'rtasidagi chegaraga aniqlik kiritish talab etiladi. Ya'ni ushbu chegara o'zi mavjudmi yoki mohiyati jihatidan bir xil tushunchalarmi? Ayrim mualliflar «to'lov qobiliyati» tushunchasiga qarz oluvchining kreditorlari oldidagi o'z majburiyatlarini ko'rsatilgan muddatda va to'liq hajmda bajara olish qobiliyati deb, «likvidlilik»ka qarz oluvchining pul shaklidagi majburiyatlarini o'z muddatida bajara olishini ta'minlash qobiliyati, deb ta'rif berishgan[1]. Ushbu holatda to'lov qobiliyati muddatida bajarilishi ta'minlanadi, deya fikr bildirganlar. To'lov qobiliyatiga ega qarz oluvchi deganda, o'z majburiyatlarini to'liq bajarish layoqatiga ega bo'lgan qarz oluvchi tushuniladi. O'z muddatida majburiyatini bajaradigan qarz oluvchilar likvidli hisoblanadi.

Likvidlilik – qarz oluvchilar majburiyatlarni kerakli vaqtda, ya'ni talab etilgan vaqtda bajara olish qobiliyati. To'lovga qobiliyatlilik qarz oluvchilar majburiyatlarini bajara olish qobiliyatidir[2]. Likvidlik koeffitsiyenti qarz oluvchining xo'jalik oborotidan pul mablag'larini tezkorlik bilan bo'shatib olish va qarz majburiyatlarini qaytarish imkoniyatini aniqlash uchun mo'ljallangan, ya'ni bu ko'rsatkich korxonaning qisqa muddatli

[1] Muhiddinov D., Kim A. Tijorat banki likvidliligini boshqarishda yangilik. // «Bozor, pul va kredit», 2000. – №3. – B. 21.

[2] Никитина Т.В. Банковский менеджмент. – СПб.: «Питер», 2002. С. 76.

majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish imkoniyatini baholashga imkon beradi. U aylanma mablag'larning qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati orqali aniqlanadi. Unga joriy, muddatli va absolut likvidlik ko'rsatkichlari kiradi.

Joriy likvidlik ko'rsatkichi korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash uchun mablag'lari yetarliligini tavsiflab beradi va quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{jl} = (PM + MAM) : M_{km}^{1} \qquad (11.1)$$

bu yerda: K_{jl} – joriy likvidlik koeffitsiyenti; **PM** – pul mablag'lari va ularga tenglashtirilgan mablag'lar (likvidli qimmatli qog'ozlar va jalb qilingan debitorlik qarzlari); **MAM** – moddiy aylanma mablag'larning qiymati; M_{km} – qisqa muddatli majburiyatlar.

Oson sotiluvchi talabnomalar deyilganda qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar va debitor qarzlar tushuniladi, faqat balansdagi boshqa debitorlar (muddati o'tgan debitor qarzlar (1 yil)) bandi bunga kirmaydi. Likvidlik koeffitsiyenti qisqa muddatli majburiyatlarni qoplashga faqat pul mablag'larigina emas, jo'natilgan tovarlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun xaridorlardan tushishi kutilayotgan mablag'larning yetarliligi yoki yetishmasligini ko'rsatadi. Shu o'rinda qayd etish joizki, aksariyat hollarda, korxona omborxonasida sotilmay qolgan sifatsiz mahsulotlar to'planib qolishi hisobiga qoplash yuqori darajani tashkil etadi. Likvidlik koeffitsiyenti esa past bo'ladi. Odatda, bunday korxonalarda pul oqimi zaif bo'ladi, lekin bu ko'rsatkichlar uning dinamikasini kuzatish imkonini bermaydi.

Joriy likvidlik koeffitsiyentining darajasi 2 dan kichik bo'lmasligi lozim. Shunday bo'lishiga qaramasdan, G'arb iqtisodiyotida umumqabul qilingan andozalarga muvofiq joriy likvidlik koeffitsiyenti 1 dan 2 gacha bo'lishiga ham yo'l qo'yiladi. Bu shuni anglatadiki, aylanma mablag'lar 50 foizga qisqarishi mumkin va shunda ham qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash uchun yetarli bo'ladi. Joriy likvidlik koeffitsiyenti ma'lum bir sana uchun aniqlanib, uni quyidagi tenglik bilan ifodalash mumkin:

$$K_{jl} = A_a : QP \geq 2^{2} \qquad (11.2)$$

[1] Vahobov A.V. Malikov T.S. Moliya. Darslik. T.: «Noshir», 2011. – B. 190.
[2] Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. T.: «Noshir», 2011. – B. 208.

bu yerda: $\mathbf{K_{jl}}$ – joriy likvidlik koeffitsiyenti; $\mathbf{A_a}$ – aylanma aktivlar (balansning ikkinchi bo'limi); **QP** – qisqa muddatli passivlar (kelgusi davr daromadlarisiz).

Muddatli likvidlik ko'rsatkichi birmuncha likvid bo'lgan aylanma aktivlarning qisqa muddatli majburiyatlarga nisbatini ifodalaydi:

$$K_{mud} = (P + QQ + DQ) : M_{km} \qquad (11.3)$$

bu yerda: $\mathbf{K_{mud}}$ – muddatli likvidlik koeffitsiyenti; **P** – hisobvaraqlaridagi va kassadagi pullari; **QQ** – likvidli qimmatli qog'ozlar; **DQ** – mobilizatsiya qilingan debitorlik qarzlari; $\mathbf{M_{km}}$ – qisqa muddatli majburiyatlar.

Bu ko'rsatkich 0,7 dan 0,8 oralig'ida ijobiy hisoblanadi.

Absolut likvidlik ko'rsatkichi korxonadagi mavjud majburiyatlarni qisqa muddat ichida to'lash imkoniyatlarini ifodalaydi va quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{abs} = (P + QQ) : M_{km} \qquad (11.4)$$

bu yerda: $\mathbf{K_{abs}}$ – absolut likvidlik koeffitsiyenti.

Bu ko'rsatkich 0,2 dan 0,25 oralig'ida ijobiy hisoblanadi.

Rossiya davlatida likvidlik ko'rsatkichlarini quyidagi miqdorlari bo'yicha qo'llash tavsiya etiladi: joriy likvidlik – 1,5-2; muddatli likvidlik – 0,7-0,8; absolut likvidlik – 0,2-0,25[1].

Absolut likvidlik koeffitsiyenti eng likvidli aktivlarning (pullar va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar) qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati orqali aniqlanadi va uning formulasini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$K_{abs} = (PM + MQ) : QP \geq 0,2^{2} \qquad (11.5)$$

bu yerda: **Kabs** – absolut likvidlik koeffitsiyenti; **PM** – pul mablag'lari; **MQ** – qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar; **QP** – qisqa muddatli majburiyatlar (kelgusi davr daromadlarisiz).

2. Qoplash koeffitsiyenti (to'lovga qobillik koeffitsiyenti) qisqa muddatli majburiyatlarni to'lash uchun likvidli aktivlarning yetarliligini aniqlash imkonini beradi va quyidagi aniqlanadi:

$$K_{tq} = (\sum P_m : M) \geq 1 \qquad (11.6)$$

---

[1] Колтынюк Б.А. Инвестиционное проектирование объектов социально-культурной среды: Учебник. – СПб.: «Михайлова В.А.», 2000. С. 177-178.

[2] Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. T.: «Noshir», 2011. – B. 208.

bu yerda: $\mathbf{K_{tq}}$ – to'lovga qobillik koeffitsiyenti; $\mathbf{\sum P_m}$ – barcha pul mablag'lari; **M** – uzish muddati kelgan to'lovlar bo'yicha majburiyatlar.

Qisqa muddatli likvid mablag'larga hisob raqamidagi pul mablag'lari, valuta mablag'lari, kassadagi pullar, qaytarish muddati uch oygacha bo'lgan qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar, debitorlar: mol yetkazib beruvchi va xaridorlar bilan hisoblashishlar, budjet bilan hisoblashishlar, xodimlar bilan mehnat haqi yuzasidan hisoblashishlar, uyushgan va sho'ba korxonalar bilan hisoblashish va boshqa debitorlar kiradi. Qisqa muddatli majburiyatlarga esa: qisqa muddatli qarz va kreditlar, mol yetkazib beruvchilar bilan hisoblashishlar, budjetga bo'lgan qarz, mehnat haqi yuzasidan qarzlar, uyushgan va sho'ba korxonalarga bo'lgan qarzlar va boshqa kreditorlar kiradi. Korxonalarning uzoq muddatga olgan qarz va kreditlarni qaytarish muddati uch oydan kam qolgan bo'lsa, bunday majburiyatlar ham qisqa muddatli deb qaralishi mumkin.

Bu koeffitsiyent ikkidan katta bo'lganda korxonalar moliyaviy holati muvaffaqqiyatli deb baholanadi va bunday korxonalarga qarz berish ishonchlidir.

3. Kreditlarni jalb qilishda moliyaviy leverajdan foydalanish katta ahamiyatga ega. Korxonaning aylanmasidagi qarz mablag'larini jalb qilish evaziga samaradorlikning o'sishiga moliyaviy leveraj deyiladi. Moliyaviy leveraj xo'jalik yurituvchi subyektlar qarz kapitalining o'z kapitaliga nisbatini ko'rsatuvchi moliyaviy faollik koeffitsiyenti orqali ifodalanadi. Shuningdek, bu ko'rsatkich korxonaning tashqi qarzlarga bog'liqligini tavsiflab beradi. Uning miqdori qanchalik yuqori bo'lsa, korxonaning bankrotlik riski shuncha yuqori bo'ladi va pul mablag'lari taqchilligi mavjud bo'ladi. Bozor talablariga ko'ra bu ko'rsatkich 1 dan oshmasligi lozim va u quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{mf} = K_q : K_{o'}.^1 \qquad (11.7)$$

bu yerda: $\mathbf{K_{mf}}$ – moliyaviy faollik koeffitsiyenti yoki moliyaviy leveraj; $\mathbf{K_q}$ – qarz kapitali; $\mathbf{K_{o'}}$ – o'z kapitali.

4. Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti (K_{mm}) korxona o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun o'z mablag'lari bilan

[1] Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. T.: «Noshir», 2011. – B. 175.

ta'minlanganligini xarakterlaydi yoki xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zlik mablag'lar manbasi bilan ta'minlanganlik holatini aks ettiradi. Bu ko'rsatkich muhtorlik koeffitsiyenti, deb ham ataladi va aniqlanish tartibi quyidagicha:

$$O'MMTk = (O'MM : BPj) \times 100\ \% \qquad (11.8)$$

bu yerda: **O'MMTk** – o'zlik mablag'lar manbasi bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti; **O'MM** – o'zlik mablag'lar manbasi; **BPj** – balans passivining jami.

O'zlik mablag'lari manbasiga ustav, qo'shilgan va rezerv kapitallari, taqsimlanmagan foyda, maqsadli tushum va fondlar, kelgusi davr sarflari va to'lovlari uchun rezervlar, kelgusi davr daromadlari kiradi.

Bu koeffitsiyent 0,3 yoki 30 % dan kam bo'lmasligi lozim, aks holda, kreditni qaytarish imkoniyati kamayadi va risk kuchayadi. Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti 0,6 yoki 60 %dan yuqori bo'lgan korxonalarda kreditning qaytarilish imkoniyati yuqori bo'ladi yoki kreditning qaytarilishi xavfi minimumga keltirilgan, deb baholanadi. Bu koeffitsiyentning investorlar va kreditorlar nuqtayi nazaridan yetarlicha moliyaviy barqarorlik holatini ta'minlovchi maqbul darajasi 50-60 foiz darajasida bo'lishi lozim[1].

Lekin shuni alohida ta'kidlash kerakki, kreditga layoqatlilikni aniqlashda xo'jalik yurituvchi subyektlarning xususiyati, qaysi tarmoqqa tegishli ekanligi hisobga olinmaydi. Masalan, hech qachon savdo tashkiloti bilan ishlab chiqarish korxonasini solishtirib bo'lmaydi yoki dehqon va fermer xo'jaligi bilan xizmat ko'rsatish korxonasini taqqoslab bo'lmaydi va h.k. Aksariyat hollarda, savdo tashkiloti 10-25 foiz asosiy vositalariga ega bo'ladi, ishlab chiqarish korxonalarida asosiy vositalar 60-70 foizni tashkil etadi, ya'ni bu ikki tashkilotda moliyaviy natijalar qanday bo'lishidan kat'iy nazar, muhtorlik (moliyaviy mustaqillik) ko'rsatkichi ishlab chiqarish korxonasida yuqori bo'ladi. Boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha ham bir qancha nomutonosibliklarni misol keltirish mumkin. Demoqchimizki, kreditga layoqatlilikni belgilashda xo'jalik yurituvchi subyektlar tarmoqlar bo'yicha tasniflansa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

[1] Непитой А.С. Инвестиции. Учебник. – 4-е изд. М.: «Дашков и К°», 2006. С. 165.

Korxonalar aylanma mablag'lari aylanishini o'rganish orqali kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari yanada to'lg'aziladi. Aylanma kapitalning foydalanish samaradorligini xarakterlovchi umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar aylanma mablag'lar aylanishining soni va aylanma mablag'lar bir marta aylanishining uzoqligi hisoblanadi va ular quyidagicha hisoblanadi:

$$A_{am} = T : Q_u \quad (11.9)$$

$$U_{1a} = K_s : A_{am} \quad (11.10)$$

bu yerda: A_{am} – aylanma mablag'larning aylanuvchanligi; **T** – realizatsiyadan olingan tushum; Q_u – aylanma mablag'larning yillik o'rtacha qoldig'i; U_{1a} – aylanma mablag'lar bir marta aylanishining uzunligi; K_s – tahlil davridagi kunlar soni.

Kreditga layoqatlilikni o'rganishda qo'shimcha ravishda o'ziga qarashli aylanma mablag'lar manbasi bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi ham e'tiborga olinadi. Bu ma'lumot quyidagicha aniqlanadi:

$$A_{MTO'M} = O'_{MM} + U_{MQK} - U_{MA} \quad (11.11)$$

bu yerda: $A_{MTO'M}$ – aylanma mablag'larga tegishli o'zlik manbalari; O'_{MM} – o'zlik mablag'lar manbalari; U_{MQK} – uzoq muddatli qarz va kreditlar; U_{MA} – uzoq muddatli aktivlar.

Balans ma'lumotlari bo'yicha aylanma mablag'larga tegishli o'zlik manbalar manfiy son chiqsa, ya'ni o'zlik mablag'lar manbasiga nisbatan uzoq muddatli aktivlar ko'p bo'lsa, bunday balans nolikvid, deb hisoblanadi va kredit so'rovchi xo'jalik subyektiga qarz berilmaydi.

Qoida tariqasida, likvidlik va moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentlari miqdorlariga qarab hamda qarz oluvchilar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar natijalariga asoslanib, ularning kreditga layoqatliligi toifalarga ajratiladi. Uni quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin:

11.2-jadval

Qarz oluvchilarning kreditga layoqatliligi bo'yicha toifalarga bo'linishi

Ko'rsatkichlar	1-toifa	2-toifa	3-toifa
Qoplash koeffitsiyenti	$K_q \geq 2,0$	$2,0 > K_{tq} \geq 1,0$	$1,0 > K_q$

Likvidlik koeffitsiyenti	$K_l \geq 1,5$	$1,5 > K_l \geq 1,0$	$1,0 > K_l$
Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	$K_{mm} \geq 60\ \%$	$60\ \% > K_{mm} \geq 30\ \%$	$30\ \% > K_{mm}$

Birinchi toifaga kiritilgan qarz oluvchilarga kredit umumiy asoslarda beriladi. Ularga nisbatan imtiyozli kreditlash tartibi qo'llanilishi mumkin.

Ikkinchi toifaga oid qarz oluvchi subyektlarga kredit umumiy asoslarda beriladi va agar qo'shimcha ijobiy ko'rsatkichlar bo'lsa, imtiyozlar berilishi mumkin. Qo'shimcha ko'rsatkichlari manfiy bo'lgan qarz oluvchilar moliyaviy jihatdan beqaror hisoblanib, ularning faoliyati va kreditning qaytarilishi qo'shimcha nazorat qilinadi, garov talablari kuchaytiriladi, foiz stavkalari oshiriladi, kreditdan foydalanish muddatlari cheklanadi va h.k.

Uchinichi toifaga mansub qarz oluvchilar kredit qobiliyatiga ega emas, deb hisoblanadi va ularga kamdan-kam hollarda faqat likvidli mol-mulk garovga qo'yilganda kredit beriladi, bunda yuqori foiz stavkasi belgilanadi.

Kredit qobiliyati uchinchi toifadan past bo'lgan qarz oluvchilarga banklar kredit bermaydi.

Qarz oluvchi subyektlarda moliyaviy faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi va ichki omillarni o'rganish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Bunda balans, debitor-kreditorlik qarzlar holati, zaxira va xarajatlar tahlili kabilar chuqur tahlil qilinadi.

Shunday qilib, ayrim moliyaviy ko'rsatkichning boshqa ko'rsatkichlar o'zgarishi xususiyatiga mos holda yaxshilanishi yoki yomonlashuvi qarz oluvchi moliyaviy holatiga berilgan bahoni o'zgartirishi mumkin.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti davlatlarida mijozlarning kreditga layoqatliligini aniqlashda kreditlashning uchta «S» usuli qo'llaniladi va bunda mijozning xarakteri (boshqa banklar bilan amalga oshirgan hisob-kitob aloqalari, korxona obro'si v h.k.), imkoniyati (kreditni qaytarish manbalari va h.k.) hamda aksiyadorlik kapitali, korxonaning olgan foydasi, pul oqimlari, ta'minot (asosiy vositalari) miqdorlarini aniqlashga alohida ahamiyat beriladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, hisoblab chiqilgan mazkur ko'rsatkichlar, o'z mohiyatiga ko'ra, o'ziga xos xususiyatga egadir va har qanday korxona moliyaviy holatiga absolut baho berish uchun mezon bo'lib hisoblana olmaydi. Bu ko'rsatkichlardan ularni me'yoriy daraja bilan taqqoslash uchun foydalanish mumkin.

Qarz oluvchilarning kredit paketini tahlil qilish vaqtida bank ularning kredit qobiliyatida, nafaqat, kredit bitimining turli jihatlarini, balki qarz oluvchilarning kredit tarixini, shuningdek, korxona rahbarining obro'-e'tiborini ham inobatga oladi.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti davlatlarining tajribasidan kelib chiqqan holda, mijozlarning kreditga layoqatliligini aniqlashda kreditlashning uchta «S» usuliga amal qilinishi kreditlash jarayonini soddalashtirishga imkon beradi. Bular: «S» – Charakter – mijozning xarakteri, ya'ni kreditlashdan oldin uning haqqoniyligi, boshqa banklar bilan munosabati, korxona obro'si hamda yashash tarzlariga e'tibor qaratish lozim bo'ladi; «S» – Capability – imkoniyat, boshqaruv xodimlarining qobiliyati, tajribasi hamda ushbu sohadagi malakasi, kreditni qaytarish manbalari, uzoq muddatli aktivlarini sotish hamda foydalilik ko'rsatkichlari; «S» – Capital – kapital, korxona rahbarlarining shaxsiy mol-mulklari, aksiyadorlik kapitali, korxonaning olgan foydasi, pul oqimlari, ta'minot (asosiy vositalari) miqdorlarini aniqlashdan iborat.

Qarz oluvchilarning moliyaviy holatini baholashda qarz oluvchining kreditga layoqatliligini baholashda:

– qarz oluvchi faoliyati va u tomonidan amalga oshirilayotgan loyihasiga alohida yondashish;

– qarz oluvchilarning kreditga layoqatliligini baholashda bank xodimlarining malaka va tajribalarini oshirish;

– qarz oluvchining investitsiya loyihalarini baholashda kompyuter dasturlaridan ongli ravishda foydalanish (bank xodimlari qarz oluvchi balans hisobotlari to'g'ri tuzilganligini aniqlagandan keyingina kompyuter dasturlaridan foydalanishi lozim);

– qarz oluvchining kreditga layoqatliligini foydalilik va moliyaviy barqarorlik mezonlari asosida baholash maqsadga muvofiqdir;

– kreditga layoqatlilikni aniqlashda kreditlashning uchta «S» usulini qo'llash: «S» – Charakter; «S» – Capability; «S» – Capital).

Banklarning xo'jalik yurituvchi subyektlarini kreditlash jarayonini 5-bosqichga bo'lib o'rganish mumkin.

Ma'lumki, investitsiya loyihalarini kreditlash jarayonining *1-bosqichida* xo'jalik yurituvchi subyektlar kredit olishi uchun bankka quyidagi hujjatlarni: kredit buyurtmasi; qarz oluvchining biznes-rejasi; buxgalterlik balansi, debitorlik va kreditorlik qarzlar haqidagi ma'lumotlar, moliyaviy natijalar haqida hisobot (dehqon xo'jaliklari bundan mustasno) hamda ta'minot shakllaridan birini taqdim etadilar. Tijorat banki xodimlari xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan suhbatlashish jarayonida uning huquqiy-tashkiliy tuzilmasini, faoliyatni qachon boshlaganligini va qanday faoliyat bilan shug'ullanishini, korxona rahbarining ustav sarmoyasidagi ulushini, subyektning daromadliligini, asosiy mol yetkazib beruvchi va xaridorlar haqidagi ma'lumotlarni, mahsulot qanday shartlar asosida sotilishini, subyektning kreditni qaytarishni rejalashtirishini, majburiyat ijrosi hamda mijozning kredit tarixini o'rganish kabi savollarni o'rganib chiqadi.

2-bosqich eng muhimi bo'lgani holda qarz oluvchining kreditga layoqati tahlil etiladi va sinflarga ajratiladi hamda ma'lum mezonlar bo'yicha kreditni qaytarishga qobilligi o'rganiladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarining moliyaviy holati tahlil etilib, kreditga layoqatlilik darajasi ijobiy baholangan taqdirda kredit loyihasi kredit xodimining yozma xulosasi bilan kredit qo'mita hukmiga havola etiladi va *3-bosqich* boshlanadi. Kredit, shuningdek, qarz oluvchi subyektga taalluqli hujjatlar to'plami kredit xodimining yozma xulosasi bilan birga kredit qo'mita a'zolari tomonidan o'rganib chiqiladi. Kredit qo'mitaga taqdim etilgan kredit loyihasini kreditlash mumkin yoki mumkin emasligi haqida belgilangan tartibda yozma qaror qabul qilinadi. Qaror natijasiga qarab, kredit shartnomasi tuziladi yoki kredit loyihasiga bank tomonidan kredit ajratilmasligi haqida yozma rad javobi beriladi.

Kredit loyihasiga kredit ajratish mumkinligi haqida kredit qo'mitasining ijobiy qarori qabul qilingan taqdirda bank-mijoz

o‘rtasida kredit shartnomasi tuziladi. Chunki bank-mijoz ko‘rinishidagi munosabatlarning har qanday ko‘rinishi shartnoma asosida yuzaga keladi. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga muvofiq (744-modda) kredit shartnomasi bo‘yicha bir taraf – bank yoki boshqa kredit tashkiloti (kreditor) ikkinchi tarafga (qarz oluvchiga) shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va shartlar asosida pul mablag‘lari (kredit) berish, qarz oluvchi olingan pul summasini qaytarish va uning uchun foizlar to‘lash majburiyatini oladi. Kredit shartnomasi yozma shaklda tuzilishi shart.

*4-bosqich*da bankda qarz oluvchi uchun maxsus hisobraqam ochiladi va kredit mazkur hisob raqamiga o‘tkaziladi hamda kredit shartnomasi shartlari bajarilishi nazorat qilinadi. Bu bosqichning asosiy maqsadi kredit mablag‘laridan samarali foydalanishni ta’minlash, foiz to‘lovlarining o‘z vaqtida to‘lab borilishini, shuningdek, kreditning belgilangan vaqtida qaytarilishini ta’minlashdan iboratdir.

Kredit va unga hisoblangan foizlarni to‘lab borish majburiyati shartlarining buzilishi tasodifan yoki darrov yuzaga kelmaydi. Aynan mana shu nazorat jarayonida tajribali bank xodimi tomonidan korxonada yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlarning to‘g‘ri baholanishi kredit riskining yuzaga kelishiga olib keluvchi omillarning ancha ilgariroq aniqlanishiga olib keladi. Bu hol xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatidagi iqtisodiy uzilishlarni, shuningdek, shartnoma shartlarining buzilishiga olib keluvchi holatlarni bartaraf etish choralarini ko‘rish imkonini beradi. Majburiyat ijrosining buzilish holatlarining oldini oluvchi tadbirlarni bank muassasasi ancha ilgariroq ilg‘ashi lozim, chunki vaziyat nazoratdan chiqib ketsa, bank, nafaqat, kredit va unga hisoblangan foiz to‘lovlari doirasida zarar ko‘radi, balki:

– kredit va unga hisoblangan foizlarning qarzdor tomonidan to‘lanmaslik riskining ortib borishi kreditlash amaliyotlarida yo‘qotishlar miqdorining ortib borishiga, omonatchi va investorlarning bank bo‘limiga nisbatan ishonchining yo‘qolishiga olib keladi;

– daromad keltiruvchi aktivlarning «o‘lik» aktivlarga aylanishiga;

– ma'muriy xarajatlarning ortishiga (kreditni undirish borasidagi xarajatlar);

– bank daromadsizligi oqibatida mutaxassis kadrlarning ko'chishi yoki boshqa bank muassasasiga o'tib ketishi yuzaga keladi.

Bu holatlar bank faoliyati va obro'siga katta zarar keltiradi. Bunday holatning oldini olish uchun bank quyidagilarga e'tibor berishi maqsadga muvofiqdir: belgilangan muddat va tartibda hisobotlarning taqdim etilmasligi (qarzdor faoliyatida hisob siyosatining qarovsizligidan, tashlab qo'yilganligidan dalolat); debitorlik qarzining o'sib ketishi; jami aktivdagi qisqa muddatli aktivlar ulushining kamayib ketishi; likvidlik ko'rsatkichining pasayib ketishi; asosiy fondlarning jami aktivlar tarkibidagi ulushining ortib ketishi; savdo tushumining kamayishi; muddati o'tgan qarzlar miqdorining ortib borishi; operatsion faoliyatda zararning yuzaga kelishi va boshqalar.

Mazkur holatlarning moliyaviy hisobotlar asosida aniqlanishi, darhol qarzdor faoliyatini joyida tahlil etish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Va, nihoyat, *5-bosqich*da berilgan kreditning ishlatilishi ustidan monitoring ishlari olib boriladi. Kredit berilgan paytdan boshlab, qarz oluvchining kreditga layoqatliligini tahlil etishdan kam ahamiyatga ega bo'lmagan kredit monitoringi jarayoni boshlanadi. Kredit olgan bank mijozlari o'z qonun va qoidalariga ega bo'lgan bozor muhitida, raqobatchilik sharoitida faoliyat yuritadi. To'g'ri rivojlanish strategiyasini tanlab olmagan, bozor sharoitlariga moslashmagan korxonalar o'z pozitsiyalarini boy beradilar. Kredit berilgan paytda rivojlanish istiqboliga ega bo'lgan ssuda oluvchi bir necha oydan so'ng obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida qiyin moliyaviy ahvolga tushib qolishi mumkin. Natijada bank kreditining qaytarilmasligi xavfi yuzaga kelishi mumkin. Tijorat banklarining ssuda operatsiyalari muqarrar ravishda kredit foizlari va boshqa turdagi risklar bilan bog'liq. Bunday paytda, kredit inspektorining ssuda holatini uning butun muddati davomida doimiy ravishda nazorat qilib borishi, o'z vaqtida yuzaga kelayotgan muammolardan darak beruvchi «signal»larni aniqlashi juda muhim ahamiyatga ega. Muammoli ssuda birdaniga yuzaga kelmaydi. Tajribali moliyachi tashvishli «signal»larni

mijozning ssudani qaytara olmasligi yaqqol namoyon bo'lishidan ancha oldin ilg'ab olishi mumkin. Bundan tashqari, mijozning moliyaviy simptomlarini ular og'ir, surunkali kasallikka aylanmasdan ilgari, ya'ni boshlang'ich davrida bartaraf etishi mumkin.

11.6. Investitsiya faoliyatini kreditlashda foiz siyosati

Davlat foiz siyosati orqali investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri bo'lgan bank kreditlaridan foydalanish uchun qulay sharoit yaratib, tadbirkorlarning investitsiya qo'yish (investitsiyalash) jarayonlariga faol ta'sir qiladi.

Tijorat banklarining kreditlari uchun foiz stavkalari yuqori bo'lishining asosiy sabablaridan biri inflyatsiya darajasining nisbatan yuqoriligi hisoblanadi. Bu holat baholarning yoppasiga o'sishida yaqqol namoyon bo'ladi.

Bizga ma'lumki, inflyatsiya darajasi yuqori, ayniqsa, o'zgaruvchan bo'lgan sharoitda istiqboldagi rivojlanishni moliyaviy jihatdan rejalashtirish qiyinlashadi, kapitalning qisqa muddatli savdo operatsiyalariga oqib o'tishi yuz beradi, investitsiya qilish hajmi kamayadi va kreditning foiz stavkalari ko'tariladi. Yuqori foiz stavkalari sharoitida investitsiya loyihalari o'zini oqlamaydi. Inflyatsiyaning uzluksiz o'sishi investorlarni murakkab ahvolga solib qo'yadi. Shu munosabat bilan respublika Markaziy banki inflyatsiya darajasini pasaytirish uchun muomaladagi pul massasining keskin o'sishiga yo'l qo'ymaydigan restruksion siyosatni qo'lladi. Natijada, 2011-yilda yillik inflyatsiya darajasi 7,8 foizni tashkil qildi. Ta'kidlash joizki, investitsiya faoliyatini foiz siyosati orqali rag'batlantirishda inflyatsiya darajasining pasayishi muhim ahamiyatga egadir.

Foiz stavkalari qancha bo'lishi kerakligini aniqlash uchun ular kim tomonidan va qanday belgilanishini aniqlab olmoq kerak. Ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlar bank kreditlari uchun olinadigan va o'z nazarlarida yuqori bo'lgan foiz stavkalarini Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi bilan bog'laydilar. Biroq, O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunining 28-moddasiga muvofiq, banklar foiz stavkalarini belgilashda mustaqil ekanligi, ya'ni «foiz stavkalari banklar tomonidan mustaqil belgilanishi va faqatgina davlat

dasturlarini moliyalash uchun Markaziy bank tomonidan beriladigan kreditlar uchun Markaziy bank foiz stavkalarining eng yuqori miqdorini belgilashi mumkinligi va bunda resurslar uchun to'lov va bank xarajatlarini qoplash uchun bank marjasi hisobga olinishi» belgilab qo'yilgan. Markaziy bank foiz stavkalarining eng kam miqdorini qayta moliyalash stavkasiga bog'liq qilib qo'ymaydi. Qayta moliyalash stavkasi monetar siyosat vositasi bo'lib, milliy valuta va narxlar darajasining barqarorligini ta'minlaydi. Tijorat banki o'zi beradigan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini o'zlarining ichki kredit siyosatidan kelib chiqib o'rnatadilar.

Shuni eslab qolish kerakki, bankning pul berishdan maqsadi pul qilishdir. Shuning uchun bank kreditni qancha stavka bilan yoki foiz marjasi bilan bera olishini hamda undirilishi kerak bo'lgan vositachilik haqlarini ko'rib chiqishi muhim.

Kredit foiz stavkalari hisoblash usuliga muvofiq, oddiy va murakkab foiz stavkalariga bo'linadi. Oddiy foiz stavkasida foizlarni hisoblash asosiy qarzning qoldiq summasidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Murakkab foiz stavkasida hisoblangan foizlar asosiy qarz qoldig'iga qo'shilib foizlar hisoblanadi.

To'lash shakliga ko'ra foizlar oddiy va diskontlangan shaklda bo'lib, oddiy foizlarda kredit bo'yicha foizlarni to'lash olingan kreditni qaytarish grafigiga muvofiq amalga oshriladi. Diskontlangan foizlar kredit berilgan vaqtda ushlab qolinadi va jadval asosida shartnomada qayd etilgan muddatda asosiy qarz summasi qaytariladi.

Banklar va qarz oluvchilar o'rtasidagi kredit shartnomasiga muvofiq, kredit foiz stavkasi ikki usulda o'rnatilishi mumkin, ya'ni qayd etilgan foiz stavkasi kredit shartnomasiga muvofiq o'zgarmaydi va bozor stavkalari o'zgarishi bunda hisobga olinmaydi.

Suzuvchi foiz stavkalari banklarning foiz stavkalari o'zgarishi riskini kamaytirish va ularni boshqarishda qo'l keladi. Banklar tomonidan investitsiya faoliyatini kreditlashda suzuvchi foiz stavkalarining qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki tijorat banklari kreditlari qadrsizlanishi, kelajakda foiz stavkalari o'zgarishi natijasida yuzaga keluvchi foiz risklarini boshqarishga imkon beradi.

Inflyatsiya darajasini hisobga olgan holda kredit foiz stavkalarini nominal va real foiz stavkalariga ajratamiz. Nominal foiz stavkasi rasmiy e'lon qilinadigan va shartnomalarda belgilanadigan foiz stavkasi hisoblansa, real foiz stavkasida inflyatsiya darajasi hisobga olinadi.

Quyidagi jadval ma'lumotlariga ko'ra, tahlil qilingan davr mobaynida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasi 2006-2011-yillarda, deyarli, o'zgarmasdan qolganligi kuzatiladi. Bu tijorat banklari depozitlari va kreditlari foiz stavkalari barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi (11.3-jadval).

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, Markaziy banklar diskont stavkasi orqali tijorat banklarining kredit siyosatiga ta'sir etish yo'li bilan muomaladagi pul massasini nazorat qilib boradi. Mamlakatimizda markazlashtirilgan kreditlarning respublikamiz tijorat banklari kredit resurslari umumiy hajmidagi ulushining ozligi Markaziy bankning tijorat banklari kredit portfellariga ta'siri kuchaytirilishini va banklarning investitsiya faolligi oshirilishini taqozo etadi. Tijorat banklari investitsiya faolligini cheklovchi va kredit bahosi yuqori bo'lishiga sabab qayta moliyalashtirish stavkasi yuqorili bilan bog'liq.

11.3-jadval

O‘zbekistonda pul-kredit siyosatining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi[1]

Ko‘rsatkichlar	2004-yil	2005-yil	2006-yil	2007-yil	2008-yil	2009-yil	2010 yil	2011 yil
Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining yillik darajasi	18,0	16,0	14,0	14,0	14,0	14,0	14,0	12,0
Yillik inflyatsiya darajasi	3,7	7,8	6,8	6,8	7,8	7,4	7,4	7,8
Markaziy bankning so‘mdagi depozitlar bo‘yicha majburiy zaxira stavkasi, %	20	15	15	13	15	15	10,5-15	10,5-15
Tijorat banklarining krediti, mlrd so‘m	3572	3853	4095	4754	6322	8558	11539,0	15651,5
So‘mda berilgan qisqa muddatli kreditlarning o‘rtacha yillik foiz stavkasi	21,2	18,8	19,4	18,5	16,4	15,9	13,8	13,2
So‘mda berilgan uzoq muddatli kreditlarning o‘rtacha yillik foiz stavkasi	17,6	14,9	16,4	15,5	16,8	15,9	13	11,8

[1] O‘zbekiston iqtisodiyoti. Axborot va tahliliy sharh. davriy nashrlar va O‘zbekiston Markaziy banki ma’lumotlari.

Hozirgi vaqtda Yaponiyada qayta moliyalashtirish stavkasi 0-0,10 foiz, AQShda 0-0,25 foiz, yevrohududga kiruvchi mamlakatlarda 1,0 foiz bo'lib, qator o'tish iqtisodiyoti va rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 5-10 foizni tashkil etmoqda[1]. O'zbekistonda inflyatsiyani 7-9 foiz darajasida saqlash maqsadida qayta moliyalashtirish stavkasi 12 foiz miqdorida ushlab turilibdi. Fikrimizcha, qayta moliyalashtirish stavkasining pasayish tendensiyasini davom ettirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, mamlakatimizda inflyatsiya jilovlangan bo'lib, diskont stavkasini tushirish ham, muomalada pul massasi ko'payishi ham inflyatsiya muammosini vujudga keltirmaydi.

O'zbekistonda tijorat banklarining majburiy zaxira me'yorlari dinamikasi pasayish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. 2013-yilda pul massasining maqsadli parametrlaridan kelib chiqqan holda tijorat banklari tomonidan uzoq muddatli depozitlar jalb qilinishini yanada rag'batlantirish maqsadida majburiy zaxiralar me'yori, yuridik shaxslarning muddati 1 yilgacha bo'lgan depozitlari uchun – 15 foiz, muddati 1 yildan 3 yilgacha bo'lgan depozitlari uchun – 12 foiz,muddati 3 yildan ortiq bo'lgan depozitlari uchun – 10,5 foiz miqdorida o'zgartirilmasdan qoldirildi.

AQSh, Yaponiya, Germaniyada pul massasining 90 foizdan ko'prog'ini tijorat banklari kreditlari tashkil etadi. Umuman, mamlakatimiz tijorat banklari kreditlari hajmi boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan ham qiyosiy taqqoslaganda past ekanligi kuzatiladi.

O'zbekiston tijorat banklari kreditlarining umumiy summasi 2001-yili 1970 milliard so'mni tashkil etib, bu YaIMning 39,9 foizini tashkil etgan edi. 2011-yilga kelib bu ko'rsatkich 15651,5 milliard so'mni tashkil etgani holda, YaIMning 23,5 foiziga teng bo'ldi. Ya'ni tijorat banklari kreditlari o'sish dinamikasi YaIMning o'sish dinamikasidan ortda qolmoqda. Pul massasida tijorat banklari kreditlarining salmoqli mavqega ega ekanligini e'tiborga oladigan bo'lsak, ularning o'sish sur'atlari YaIMdan ortda qolayotganligi iqtisodiyotda pul taqchilligi kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

[1] Akramov X. O'zbekiston Respublikasi qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishiga makroiqtisodiy siyosatning ta'siri. Iqt. fan. nom. ilm. daraj. ol. uchun yoz. diss. avtoref. T.: «Moliya-iqtisod», 2010. – B. 13.

Bank krediti bo'yicha foiz stavkasining miqdori bank o'z depozitlariga to'lashi kerak bo'lgan foizlardan, kredit berish bilan bog'liq operatsiya xarajatlaridan, shuningdek, budjetga daromadlar va aksiyadorlarga dividendlar to'lashni ta'minlaydigan marjadan tashkil topadi. Foydalanilayotgan mablag'lardan har biri foiz stavkalari darajasiga va ularning o'zgarish sur'atlariga ta'sir qiladi. Markaziy bank kreditlash hajmlarini kamaytirish kerak bo'lganda qayta moliyalashtirish daraja va sur'atlarini ko'taradi va korxonalar hamda xususiy shaxslar mablag'larini o'zlashtirishni rag'batlantirish kerak bo'lganda pasaytiradi. Tijorat banklari resurslariga va foiz stavkalariga samarali ta'sir etish uchun Markaziy bank quyidagi asosiy vositalardan foydalanadi: ochiq bozordagi amaliyotlardan, qayta moliyalash stavkalaridan va majburiy zaxiralash bo'yicha talablardan.

Markaziy bank «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi qonuniga muvofiq hamda pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlaridan kelib chiqadigan vazifalarga asoslanib, kreditlar joylashtirish (sotish) va jalb etish (sotib olish) yo'li bilan tijorat banklarini qayta moliyalash amaliyotini amalga oshirishi mumkin. Tijorat banklarini qayta moliyalash kreditlarning miqdori, shuningdek, qayta moliyalash stavkasi Markaziy bankning joriy vaqtga mo'ljallangan pul-kredit siyosatining maqsadli vazifalariga muvofiq belgilanadi.

Qayta moliyalash stavkasi deganda Markaziy bank tomonidan belgilanadigan foiz stavkasi tushuniladi. Shu stavka bo'yicha tijorat banklari Markaziy bankdan kredit olishlari mumkin va u tijorat banklarining foiz siyosatiga ta'sir qiladi. Tijorat banklari o'z mijozlariga qisqa muddatli kreditlar berishda qayta moliyalash stavkasini 1,5 marta oshirishga haqli emaslar.

Markaziy bank qayta moliyalash stavkasini oshirish bilan tijorat banklariga beriladigan yangi kreditlarni qimmatlashtirib yuboradilar. Lekin qayta moliyalash stavkalari o'sishi bilan ularda resurslarni yuqoriroq foiz bilan jalb etish imkoniyati paydo bo'ladi. Demak, bu mablag' egalariga ularni omonatga (depozitga) qo'yishda va shu bilan pulning talab bozoridagi ta'sirini kamaytirishda foydali bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonuniga muvofiq, banklar Markaziy bankda

majburiy zaxiralar saqlashlari lozim. Majburiy zaxira me'yori Markaziy bank tomonidan belgilanadi. Ajratmalar miqdori turi va muddatiga bog'liq bo'ladi. Majburiy zaxiralar fondiga ajratmalar me'yorining oshirilishi shunga olib keladiki, jalb etilayotgan depozitlarning bir qismi majburiy zaxiralar fondiga o'tkazib yuboriladi va shu sababli, banklarda resurslar kam qoladi. Binobarin, bu resurs qimmatlashadi (kreditlar bo'yicha foiz stavkasi o'sadi), jalb etiladigan resurslar ham qimmatlashadi. Amaliy faollik to'sib qo'yiladi, talab bozoridagi tazyiq kamayadi. Bu inflyatsiyaning pasayishiga olib keladi. Majburiy zaxiralar fondiga ajratmalar me'yori pasayganda teskari jarayonlar sodir bo'ladi. Garchi Markaziy bankka majburiy zaxiralar fondiga ajratmalar me'yorini o'zgartirish huquqi berilgan bo'lsa-da, u bu huquqdan kamdan-kam foydalanadi. Bu mutlaqo asoslidir. Xorijiy amaliyot guvohlik berishicha, «Majburiy zaxiralar fondiga ajratmalar me'yorini har qanday o'zgartirish foiz stavkalari miqdorida, bank kreditining qulayligida jiddiy siljishlarga sabab bo'lishi mumkin»[1]. Ajratmalar ko'paytirilganda resurslarni samarasiz foydalanishlarga jalb etish hollari sodir bo'ladi. Shuning uchun Markaziy bank majburiy zaxiralar fondiga ajratmalar stavkasini yilda faqat bir marta o'zgartiradi. Bugungi kunda u bank jalb etgan omonatlar va depozitlarning o'rta hisobda 20 foizini tashkil etadi. O'zgartirish pasaytirish tomonga amalga oshiriladi. Shu bilan tijorat bankining kreditlash imkoniyati kengayadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 28-iyuldagi «Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko'paytirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1166-sonli qaroriga asosan, 2015-yilgacha tijorat banklariga foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar berildi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining majburiy zaxiralar me'yori ushbu qarorga muvofiq, tijorat banklarining yuridik mijozlari depozitlari bo'yicha quyidagicha tabaqalashtirildi: muddati 1 yildan 3 yilgacha bo'lgan depozitlar bo'yicha - umumjoriy etilgan me'yorning 80 foizi miqdorida; muddati 3 yildan ortiq depozitlar bo'yicha umumjoriy etilgan me'yorning 70

[1] Питер С.РОУЗ. Банковский менеджмент. Пер. с англ. 2-е изд-во. М.: «Дело ЛТД», 1995. С. 90.

foizi miqdorida belgilanadi. Bunday holat, albatta, tijorat banklarining investitsiya kreditlari berish salohiyatini yanada oshiradi va amaliyotini rivojlantiradi.

11.7. Kreditdan foydalanish ustidan bank monitoringi

Kredit bankning asosiy daromad manbayi hisoblanadi va bir vaqtning o'zida riskni yuzaga keltirishning asosiy sababi hamdir. Shuning uchun zamonaviy talablarga javob beruvchi tijorat banklari kredit monitoringini amalga oshiradilar, ya'ni banklar qonun hujjatlariga, kredit shartnomasiga va bankning ichki kredit siyosatiga muvofiq berilgan kredit mablag'laridan foydalanilishining monitoringini olib boradilar.

Monitoring, eng avvalo, loyihani moliyalashtirishga mablag' berish bitimiga tegishli barcha hujjatlarni va ularning shartlari bajarilishini, ularning bank-kredit siyosatiga, qabul qilingan me'yorlar va tartiblarga muvofiqligini davriy tekshirib borishni o'z ichiga oladi. Monitoringning mazmuni «ko'zgu» degan ma'noni ham anglatadi. Kredit monitoringi o'z tarkibiga kreditni qaytarish bo'yicha nazorat va kreditni o'z muddatida va to'liq hajmda qaytarilishi yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish va qabul qilish tizimini qamrab oladi.

Bank amaliyotida kredit monitoringining turli usullaridan foydalaniladi. Biroq, ularning barchasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Kredit qaytarilishini davriy tekshirish. Odatda, har 30, 60 va 90 kunda barcha yirik miqdordagi kreditlar tekshiriladi, kichik kreditlar tanlanma asosda tekshiriladi.

2. Kredit shartlarining bajarilishini tekshirish maqsadida kredit nazorati bosqichlari ishlab chiqiladi, shu jumladan, qarz oluvchining moliyaviy holatidagi o'zgarishlar ham baholanadi.

3. Kreditlashda ichki auditni o'tkazish.

Kredit monitoringi ssuda ahvolini nazorat qilishi, uning maqomidagi o'zgarishlarni va tegishli choralarni ko'rish tizimini ko'zda tutadi. Uning maqsadi asosiy qarz va u bo'yicha hisoblangan foizlarning o'z muddatida qoplanishini ta'minlashdan iborat. Shuningdek, mazkur monitoringning yana bir muhim tomoni kreditni qoplashning ikkilamchi manbayi – uning

qaytarilishi ta'minotini tekshirish hisoblanadi. Agar ta'minot mulk garovidan iborat bo'lsa, bank xodimlari bunday mulkning mavjudligi, maqbulligi, yetarliligi, sifati, saqlash sharoitlarini (iloji boricha har oyda) muntazam ravishda tekshirib borishlari zarur.

Monitoringning navbatdagi bosqichi qarzdorning moliyaviy layoqatini baholash bo'lib, uning balansini, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotini hamda mijozning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tavsiflovchi boshqa hujjatlarini tahlil qilish asosida amalga oshiriladi.

Investitsiya loyihalarida monitoringning yana bir muhim tomoni kreditni qoplashning ikkilamchi manbayi - uning qaytarilishining ta'minotini tekshirish hisoblanadi.

Investitsiya loyihalarida monitoringning turlarini 11.2-rasm orqali ifodalash mumkin.

Unga ko'ra monitoring, nazariy jihatdan, joriy va muammoli kreditlar monitoringiga ajratiladi. Joriy monitoringning boshlanishi loyiha bo'yicha xulosani, asbob-uskunalarni olib kelish bitimini, kredit shartnomasini va monitoring rejasini o'z ichiga oladigan hujjatlarni qabul qilishdan boshlanadi. Qarz oluvchi bilan savol-javob o'tkaziladi va qarz oluvchi bankka loyihaning TIAni taqdim etadi.



11.2-rasm. **Investitsiya loyihalarida monitoringning turlari**

Investitsiya loyihalarida monitoring olib borish bosqichlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

– korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash;

– olingan ma’lumotlar asosida korxonalarning moliyaviy-xo‘jalik holatini tahlil etish;

– tahlil natijalari bo‘yicha xulosalar qilish va takliflar tayyorlash.

Investitsiya loyihalarida monitoring investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonigagina xos bo‘lmasdan, balki ularni moliyalashtirishgacha bo‘lgan davrlarda ham o‘tkaziladi. Loyihani moliyalashtirishga qadar o‘tkaziluvchi monitoringning ahamiyati shundaki, u loyihani moliyalashtirish davridagi monitoringga nisbatan afzalroq va ahamiyatliroq hisoblanadi. Chunki uning natijasida investorlarning loyihani amalga oshirishdagi maqsadlari oldindan ko‘proq ta’minlanish imkoniyatlari hosil qilinadi.

Shunday qilib, investitsiya loyihalarida monitoring loyihaning samaradorligi va hayotiyligini boshlang‘ich tahlil etish uchun amalga oshiriladi. Bunday monitoring loyihani amalga oshirishdagi kelib chiquvchi muammolarning oldini olishga va loyihani moliyalashtirish jarayonidagi monitoringning ishonchli va jiddiy vaziyatlarni keltirib chiqaruvchi sabablarsiz, yengilroq o‘tkazilishiga imkon beradi.

Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning monitoringini olib borish bilan bankning «Loyihalarni moliyalashtirish monitoringi» bo‘limi yoki «Kredit» bo‘limi xodimlari shug‘ullanadi. Bu bo‘lim ham bankning boshqa bo‘limlari kabi o‘zining Nizomiga ega bo‘ladi. Bo‘lim faoliyati bankning moliyachi-maslahatchilari tomonidan ishlab chiqilgan loyihalar monitoringini o‘tkazish tartibi bo‘yicha Nizomga asoslanadi. Ushbu Nizomda joriy monitoringni o‘tkazishning to‘liq jarayoni, qarz oluvchining moliyaviy ahvolini baholash usullari, turli xil moliyaviy koeffitsiyentlarni hisoblash usullari, muammoli kreditlarning monitoringini o‘tkazish tartibi, tahliliy usullar va ushbu holatlarni hal etishga doir maslahatlar keltirilgan bo‘ladi. Bu bo‘lim faoliyatining asosiy maqsadi ssuda hisob raqamidan to‘lov hujjatlarining qilingan to‘lovlarga mosligini nazorat qilish, obyekt joylashgan joyga chiqish bilan birga

kreditdan maqsadli foydalanilganligini tekshirish, bajarilgan ishlarning nazorat o'lchamlarini o'tkazish va qurilish muddatidan qat'iy nazar yilda kamida ikki marta sotib olingan uskunalarni inventarizatsiya qilish hisoblanadi.

Moliyalashtirish monitoringida quyidagi faoliyatlar amalga oshiriladi:

– to'lov hujjatlarining tasdiqlangan obyekt smetasiga va foydali ishlatilishiga hamda shartnoma baholarini aniqlashning to'g'riligiga mos kelgandagi to'lov obyektlariga ssuda hisob raqamidan ajratilgan har bir to'lovni nazorat qilish;

– qurilish ketayotgan joyga borib kreditdan maqsadli foydalanilayotganini har chorakda tekshirish;

– har choraklik statistik tahlilni o'tkazish, moliyalashtirishning real va rejali jadvalini va qarz oluvchining kredit bo'yicha to'lovlarini nazorat qilish;

– kredit shartnomasi, loyiha monitoringining rejasi va texnik tartibi talablarga mos kelishini nazorat qilish.

Loyiha jarayoni va obyektni ishga tushirish monitoringi quyidagi shakllar va yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

– ssuda hisob raqamidan qilingan har bir to'lovda korxonadagi to'lov hujjatlarining obyektning tasdiqlangan smetasiga va foydali ishlatilishiga mosligini va shartnoma baholarining to'g'ri aniqlanganligini nazorat qilish;

– har chorakda statistik tahlil olib borish, moliyalashtirishning real va rejali jadvalining mosligini va kredit bo'yicha qarz oluvchining to'lovlarini tahlil qilish;

– qurilish obyektiga chiqish orqali kreditdan maqsadli foydalanilayotganini har chorakda tekshirib borish;

– kredit shartnomasi, texnik tartib talablari va loyiha monitoringi rejasining bajarilishini nazorat qilish.

Qurilish jarayoni va obyektni ishga tushirish monitoringi quyidagi shakl va yo'nalishlarda olib boriladi:

– qurilish muddatlarining uskunalarni keltirish va ularning ishlab chiqarish jadvaliga mos holdagi qurilish-montaj ishlari muddatlarini, ishlarni joriy etish jarayoni haqidagi hisobot ma'lumotlarini, tekshirish natijalarini bevosita o'rganish bilan bog'liqlikda, shuningdek, qurilishni olib borish saviyasining pasayish sabablarini aniqlash va iqtisodiy choralar qo'llash bilan

hamda yuqori tashkilotlar va prokuratura organlari, xo'jalik sudlariga zarur hollarda ma'lumotlarini yetkazish yo'li bilan kuzatuvlarni nazorat qilish;

– pudratchi va buyurtmachilar tomonidan uskunalarni yetkazib berish, obyektni ishga tushirish bo'yicha qurilish-montaj ishlari va boshqa xizmatlar uchun tuzilgan shartnomalar bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini nazorat qilish;

– obyekt bo'yicha qurilish-montaj ishlari va xizmatlarni o'rnatilgan tartibda va sotib olingan uskunani inventarizatsiya qilish bo'yicha yilida kamida ikki marta sanoqli, o'lchovli va hisobli nazorat ishlarini olib borish;

– uskunalarni ishga tushirishga qabul qilishda ishtirok etish va loyiha ko'rsatkichlarining loyihani amalga oshirish bo'yicha tasdiqlangan strategiyalariga mosligini nazorat qilish.

Monitoring bo'yicha ishni rejali tashkil etish va loyihalarning amalga oshirilishini nazorat qilish uchun bank tomonidan barcha loyihalar bo'yicha monitoring rejalarini bir xil tizimga keltirish talab etiladi. Shu bilan birga loyihaning amalga oshirilishi bo'yicha loyiha monitoringi rejasi ishlab chiqiladi. Kreditning himoyasi tashkil etilishini ko'zda tutgan holda monitoring rejasi kreditlash bo'limidagi mutaxassislar (ekspertlar) bilan monitoring bo'limi mutaxassislari o'rtasida birgalikda kreditning barcha davriga tuziladi.

Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan hisobotlar asosida loyiha monitoringi bo'yicha mutaxassislar loyiha holatini moliyaviy-iqtisodiy tahlildan o'tkazadilar:

– korxonaning har oyda Davlat statistika qo'mitasining joylardagi bo'limlari va boshqarmalariga ishlab chiqarish faoliyati haqidagi topshiradigan oylik jadvalli hisobotlari;

– qarz oluvchining choraklik moliyaviy-iqtisodiy holati bo'yicha hisoboti. Bunda loyihaning iqtisodiy holatini tahlil qilish bo'yicha ma'lumotlar bazasini bir tizimga keltirish zarur;

– loyiha monitoringi bo'yicha mutaxassislar tomonidan choraklik moliyaviy-iqtisodiy hisobotlar tahlili asosida kreditlarni anketalash o'tkaziladi va kredit reytingi aniqlanadi, loyihalar monitoringi boshqarmasiga risklar darajasini bir xil tizimga keltirish va zaxiralarni shakllantirish uchun erkin axborotlar taqdim etiladi;

– kreditlardan maqsadli foydalanishni tekshirish har chorakda ish o'rnida tekshirish dalolatnomasini tuzish orqali amalga oshiriladi. Kreditlardan maqsadli foydalanish bo'yicha ma'lumotlar monitoring boshqarmasi tomonidan berib boriladi;

– loyihani o'zlashtirish bo'yicha kreditlarning jadvalli o'zlashtirish muddatlari oylar bo'yicha taqqoslanadi;

– kreditning ta'minlanganligi bo'yicha nazorat. Har bir aniq kredit uchun alohida garovga qo'yilgan mulkni tekshirish dalalotnomasi va har chorakda garovga qo'yilgan mulkning holati haqidagi dalalotnoma ishlab chiqiladi;

– hamma manfaatdor subyektlarga loyihalar rivoji, kreditlar va ularning foizlari qaytarilishi haqida hisobotlar tuzish va ularni taqdim etish;

– qarz oluvchining so'mdagi mablag'larini erkin almashinuvchi valutaga konvertatsiya qilish bo'yicha ishlarni amalga oshirish. Ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun xomashyo va materiallar sotib olish maqsadida mablag'larni konvertatsiya qilish, hujjatlarni tayyorlash, miqdoriy ko'rsatkichlar bo'yicha hisob-kitoblarni tekshirish;

– xomashyo sotib olish va tayyor mahsulotlarni sotish maqsadida marketing izlanishlarini (tadqiqotlarini) doimiy ravishda olib borish;

– mahsulotlarning omborda turib qolish sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

– qarz oluvchining aylanma mablag'lari holatini doimiy ravishda o'rganish va uni bir maromda saqlashi uchun chora-tadbirlar ko'rish va hattoki, kreditlar berish.

Banklar amaliyotida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish monitoringi ularning kredit siyosatlariga muvofiq ishlab chiqilgan «Investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash va moliyalashtirishga ajratilgan kreditlarni monitoring qilish tartib to'g'risida»gi nizom asosida amalga oshiriladi.

Uni 11.3-rasm orqali ifodalash mumkin. Unga ko'ra, monitoring: dastlabki monitoring; joriy monitoring va kreditni qaytarish davridagi monitoring turlariga bo'linadi.



11.3-rasm. **Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish monitoringini o'tkazish tartibi**

Xullas, tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning turli bosqichlarida monitoring nazariy jihatdan joriy monitoring va muammoli kreditlar monitoringiga, amaliy jihatdan dastlabki monitoring, joriy monitoring va kreditni qaytarish davridagi monitoring turlariga bo'linadi. Shunday bo'lsa-da, bosh maqsad investitsiya loyihasini amalga oshirish va moliyalashtirish bo'yicha kompleks nazorat olib borish hamda kreditlarning qaytmasligi riskini pasaytirishdan iboratdir.

Hozirgi paytda iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilayotgan bank kreditlari hajmi oshishi, bank kreditidan foydalanayotgan turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidagi mijozlar miqdori ko'payishi va banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona joylashtirish hamda ularning samaradorligini oshirish, berilgan kreditlar va ular bo'yicha hisoblangan foizlarni to'liq va o'z vaqtida undirib olishni ta'minlash bank kredit portfeli ustidan doimiy monitoring olib borishni talab etmoqda. Bank kredit

portfeli ustidan monitoring o‘rnatishni kredit xatarining oldini olishning eng birinchi sharti deb qarash lozim.



11.4-rasm. **Muammoli kreditlar kelib chiqish sabablarining tasniflanishi**

Chunki har qanday tajribali bank xodimi bilan ishlanmasin, ular tomonidan monitoring ishlari olib borilmas ekan kredit riskini kamaytirishning iloji yo‘q.

Xulosa qilib aytganda, banklarda loyihalarning hayotiyligini (yashovchanligini) ta’minlashda monitoring joriy va muammoli kreditlar monitoringi shaklida olib boriladi. Joriy monitoring loyihani amalga oshirish uchun muhim bo‘lgan hujjatlashtirish ishlarining amal qilishi bilan boshlanadi va olib boriladi.

Muammoli kreditlar monitoringi bank tomonidan taqdim etilgan kreditning qaytarilmaslik ehtimoli paydo bo'lgan hollarda amalga oshiriladi.

Bank-mijoz kredit munosabatlarida yakdillikka erishish va qarzdor ustidan yetarlicha monitoring o'rnatish uchun banklar amaldagi kredit berish qoidalari asosida kreditlashni rasmiylashtirish va majburiyat ijrosini ta'minotning ikkilamchi manbalari asosida amalga oshirish bilan chegaralanib qolmasligi lozim.

Nazorat savollari

- Iqtisodiy kategoriya sifatida kreditning mohiyatini izohlab bering?
- Kreditning tamoyillarini bilasizmi?
- Iqtisodchi olimlar tomonidan kredit tushunchasiga qanday ta'riflar berilgan?
- Hozirgi kunda kreditning qanday turlari amal qiladi?
- Xo'jalik yurituvchi subyektlar investitsiya faoliyatini kreditlashning obyektiv zarurligi nimalarda namoyon bo'ladi?
- Kredit munosabatlari deganda nimani tushunasiz?
- Kreditning zarurligini ifodalovchi qanday omillarni bilasiz?
- Sizningcha, kreditning mohiyatiga ta'rif berayotganingizda nimalarga e'tibor berish zarur?
- Kreditning harakat bosqichlari deganda nimani tushunasiz?
- Rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida bank kreditlarining investitsiya faoliyatini rag'batlantirishdagi rolini izohlay olasizmi?
- Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda bank kreditlarining roli va ahamiyati nimalarda ko'rinadi?
- Tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar tarkibida investitsiya kreditlari salmog'ining yuqoriligi nimadan dalolat beradi?
- Kreditning maqsadlilik, ta'minlanganlik, muddatlilik, qaytarishlilik va to'lovlilik tamoyillarining har biriga izoh bering?
- Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda garov ta'minoti deganda nimani tushunasiz?
- Investitsiya loyihalarini uzoq muddatli kreditlashdagi ta'minot turlarini bilasizmi?

➢ Xo'jalik yurituvchi subyektlar aylanma mablag'larini kreditlash xususiyatlarini aytib bering?

➢ Aylanma mablag'lar mohiyatini ifodalab bering?

➢ Xo'jalik subyektlarining aylanma aktivlari qanday manbalar hisobidan tashkil qilinadi?

➢ Korxonalarning o'z aylanma mablag'lari qanday manbalardan tashkil topadi?

➢ Xo'jalik subyektlarining aylanma aktivlarini tashkil qilishda kreditning rolini qanday ifodalash mumkin?

➢ Aylanma aktivlardan foydalanishning samaradorlik ko'rsatkichlarini bilasizmi?

➢ Ipoteka krediti deganda nimani tushunasiz?

➢ O'zbekiston Respublikasining «Ipoteka to'g'risida»gi qonuni qachon qabul qilingan? Ushbu Qonunning maqsad va vazifalarini bilasizmi?

➢ Ipotekali kreditlashning bank kreditlarining boshqa turlaridan farqlanuvchi xususiyatlari bormi?

➢ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida uy-joy qurilishida islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni mazmun-mohiyatini va unda belgilangan vazifalarni bilasizmi?

➢ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ipoteka krediti berishni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorining mazmun-mohiyatini izohlab bering?

➢ Korxonalarning kreditga layoqatliligi deganda nimani tushunasiz?

➢ Korxona moliyaviy holatini xususiyatlovchi qanday ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin?

➢ Likvidlik ko'rsatkichlariga qanday ko'rsatkichlar taalluqli va ularning har birini ifodalab bera olasizmi?

➢ Likvidlik va to'lovga qobillik ko'rsatkichlarini farqlab bera olasizmi?

➢ Rivojlangan bozor iqtisodiyoti davlatlarida mijozlarning kreditga layoqatliligini aniqlashda qanday usullar qo'llaniladi?

➢ Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda kredit shartnomasida nimalar aks ettiriladi?

➢ Kreditdan foydalanishi ustidan bank monitoringi bosqichlarini bilasizmi?

➢ Investitsiya faoliyatini moliyaviy ta'minlashda banklarning rolini izohlab bering?

➢ O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonuniga ko'ra mamlakatimiz tijorat banklari qanday operatsiyalarni amalga oshiradilar?

➢ Investitsiya loyihalari bo'yicha muammoli kreditlar deganda nimani tushunasiz?

➢ Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda muammoli kreditlarni keltirib chiqaradigan omillarni izohlab bera olasizmi?

➢ O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra qanday kreditlar muammoli kreditlar sifatida tasniflanadi?

➢ Muammoli kreditlarning kelib chiqish sabablarini qanday guruhlarga ajratish mumkin?

➢ Sizning fikringizcha, muammoli kreditlarni qanday qilib yumshatish yoki oldini olish yoxud bartaraf etish mumkin?

XII BOB. INVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISHNING LIZING MEXANIZMI

12.1. Lizingning iqtisodiy tabiati, mazmuni va mohiyati

O'zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarning yuzaga kelishi, iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi va tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi asosiy kapitalni shakllantirish, yangilash uchun qo'shimcha moliyaviy resurslarni izlashni talab etadi. Ichki moliyaviy resurslarning cheklanganligi milliy iqtisodiyotda investitsiyalarni moliyalashtirishning noan'anaviy manbalarini izlash zaruratini keltirib chiqaradi. Moliyalashtirishning ana shunday samarali vositalaridan biri lizingdir. Lizing investitsiyalar olib kelishning muhim omili, desak mubolag'a bo'lmaydi. Xalqaro tajribadan ko'rinadiki, lizing xizmatlari bozori Yaponiya, Koreya va Xitoy iqtisodiy taraqqiyotida eng muhim omil bo'ldi. Shunday ekan, lizingning o'zi nima? U qanday xususiyatlarga (afzalliklarga) ega? degan savol tug'ilishi, tabiiydir.

Lizing tushunchasi odamzodga ko'p asrlardan buyon yaxshi ma'lum, vaholanki, «lizing» (lease) atamasi u paytlarda hozirgidek ma'noni anglatmas edi. Lizing bitimlari mohiyatining ochilishi uzoq davrlarga, aytaylik, Aristotel zamonasiga (eramizdan avvalgi 384-322-yy.) borib taqaladi. Aynan Aristotel: «Boylik mulkka egalik qilishda emas, balki undan foydalanishdadir», degan g'oyani o'zining «Notiqlik san'ati» («Ritorika») asari boblaridan biriga sarlavha qilib olgan edi. Bu asarda u foyda olish uchun biror-bir mulkka egalik qilish juda ham shart emas, faqat undan foydalanish huquqiga ega bo'lish va samarali foydalanishning kifoya qilishi asoslab beriladi.

O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini moliyalashning yangi usulini keng qo'llash, shuningdek, lizingning jahon tajribasidan to'g'ri foydalanish uchun lizing munosabatlarining mohiyatini anglash lozim bo'ladi. Lizing mohiyatini to'g'ri tushunish uchun

uning tabiatini atroflicha o‘rganish, zamonaviy bozor iqtisodiyotida uni keng tatbiq etishda va rivojlantirishda huquqiy, iqtisodiy va boshqa sharoitlarni yanada kengroq yaratish zarur.

Aslida lizing inglizcha «Lease» so‘zidan olingan bo‘lib, mulkni vaqtinchalik «ijaraga olish va berish» ma’nosini anglatadi. Ma’lumki, lizing oddiy ijara emas, ijaradan farqli o‘laroq, unda, qoidaga ko‘ra, uchta subyekt qatnashadi: uskunalarni yetkazib beruvchi, lizing (moliya) kompaniyalari va foydalanuvchilar. Har qanday murakkab iqtisodiy tushuncha singari lizingning ham ko‘plab ta’riflari mavjud. Lekin bugungi kungacha ham lizingning mazmun-mohiyatini aniq, yaxlit ifodalovchi ta’rifi mavjud emas.

Iqtisodchi olimlar orasida «lizing – ijara haqidagi oddiy kengaytirilgan bitim yoki ijaraning butun muddati mobaynida ijaraga oluvchining mulkka egalik huquqi saqlangan ijara shartnomasi» yoki «Lizing ijara munosabatlarining alohida turi», deb hisoblovchilar ham mavjud[1].

Chet el iqtisodiy adabiyotlarida lizingning boshqacha ta’riflari ham uchraydi. Ba’zi iqtisodchilar lizingni ko‘char va ko‘chmas mulkni uzoq muddatga foydalanish huquqini beruvchi moliyaviy operatsiya turi[2], deb hisoblaydilar.

Ingliz tilida tezkor (operativ) va moliyaviy lizing tushunchalari mavjud. Bizning qonunchilikka ko‘ra, operativ lizing «ijara» degan ma’noni anglatadi, moliyaviy lizing «moliyaviy ijara» yoki «lizing» ma’nosini anglatadi[3].

Yuqorida keltirilgan ta’riflarni umumlashtirib, moliyaviy lizing munosabatlarining biror-bir tomonigina bayon etilganligini ko‘rish mumkin, lekin moliyaviy lizingning iqtisodiy mohiyatini to‘liq ifodalash bo‘yicha fikrlar yetarlicha emas. Bizning fikrimizcha, moliyaviy lizing munosabatlari paydo bo‘lgan moliyaviy-iqtisodiy muhitni hisobga olish, shuningdek, lizing yuzaga kelgan va rivojlangan mamlakatlardagi makroiqtisodiy vaziyatni idrok etish lozim bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Lizing to‘g‘risida»gi qonuniga ko‘ra, lizing tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: «Lizing (moliyaviy ijara) ijara munosabatlarining alohida turi bo‘lib, unda

---

[1] Ричард Брейли, Стюарт Майерс. Принципы корпоративных финансов. Пер. с англ. М.: ЗАО «Олимп-Бизнес», 1997. С. 715-732.

[2] Казимагамедова А.А., Гаджиев А.А. Деньги, кредит, банки: Учебник. М.: «Экзамен», 2007. С. 232-233.

[3] Жарковская Е.П. Банковское дело. М.: «Омега-Л», 2006. С. 253.

bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing obyektini) mulk qilib sotib oladi va uni shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun lizing oluvchiga o'n ikki oydan ortiq muddatga beradi».

Bunda lizing shartnomasi quyidagi shartlardan biriga muvofiq bo'lishi kerak:

– lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing obyekti lizing oluvchining mulki bo'lib o'tadi;

– lizing shartnomasining muddati lizing obyektining xizmat muddatidan ortiq bo'ladi yoki lizing shartnomasi muddati tugagach, lizing obyektining qoldiq qiymati uning boshlang'ich qiymatining 20 foizidan kamni tashkil etadi;

– lizing oluvchi lizing obyektini qat'iy belgilangan narxda yoki lizing shartnomasi muddati tugaganda aniqlanadigan narxda sotib olish huquqiga ega;

- lizing shartnomasi davridagi to'lovlarning umumiy summasi lizing obyekti qiymatining 90 foizidan ortiq bo'lsa.

Agar lizing shartnomasida yuqorida ko'rsatilgan talablardan (shartlardan) birortasi nazarda tutilmagan bo'lsa, lizingning bunday turi operativ lizing hisoblanadi.

Lizingda ijaraga olinadigan mol-mulkni berib qo'yish, shartnomaga haq to'lash, lizing oluvchining mol-mulkka vaqtinchalik egalik qilish va undan foydalanish kabi ijaraning umumiy belgilari, shuningdek, faqat lizing uchun xos bo'lgan belgilar – shartnomada uch subyektning (lizing beruvchi, lizing oluvchi, sotuvchi), albatta, ishtirok etishi, shartnoma munosabatlari majmuyining mavjudligi, lizing obyektini lizingga berish uchun lizing beruvchi tomonidan maxsus sotib olinishi mavjud. Shu tariqa, lizing (moliyaviy ijara) investitsiya faoliyatining bir turi sifatida belgilanadi, bu uning iqtisodiy mohiyatini ancha yorqinroq aks ettiradi, chunki lizing kreditlar hisobiga moliyalash va asosiy vositalarga investitsiyalarning boshqa turlari bilan bir qatorda korxonaning kapital qo'yilmalarini moliyalash usullaridan biri hisoblanadi. Lizing operatsiyalarini moliyalash uchun lizing beruvchilar, nafaqat, o'zining, balki qarz mablag'larini ham ishlatish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O‘zbekiston Respublikasida lizing faoliyatiga nisbatan litsenziya talablari qo‘yilmagan, bu uning kelajakda ravnaq topishi uchun mutlaq ijobiy omil hisoblanadi.

Lizing obyektiga qonunning 3-moddasida ham, Fuqarolik kodeksining 588-moddasida ham berilgan ta’rif lizing obyekti uchun xos bo‘lgan belgilardan biri – lizing oluvchi tomonidan undan faqat tadbirkorlik faoliyatida foydalanishni ko‘zda tutadi. Lizingning bank kreditidan asosiy farqi mulkchilik huquqining egalik qilish va foydalanish huquqidan ajratilishidir. Korxonalar uchun bank kreditlarini olishdan ko‘ra lizing shartnomasini tuzish orqali lizing kreditini olish qulayroqdir. «Ko‘pgina mamlakatlarda lizing munosabatlarini qo‘llash tadbirkorlarga bank krediti hisobiga uskunalarni sotib olishga qaraganda 20-30 foiz kam xarajat qilish imkonini beradi»[1].

Ma’lumki, lizing uch taraflama (sotuvchi – lizing beruvchi – lizing oluvchi) yoki ikki taraflama (lizing beruvchi – lizing oluvchi) lizing shartnomasi bo‘yicha amalga oshiriladi. Lizing beruvchi va sotuvchi o‘rtasida ikki taraflama lizing shartnomasi tuzilayotganida qo‘shimcha ravishda lizing obyektining oldi-sotdi shartnomasi tuziladi [2]. Basharti, lizing shartnomasi yuqorida ko‘rsatilgan talablarning hech bo‘lmasa bittasiga javob bergan taqdirda, uni moliyaviy ijara – lizing sifatida qabul qilish va ular lizing shartnomasini tuzishda, albatta, inobatga olinishi lozim bo‘ladi.

Lizing deganda tadbirkorlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan alohida (maxsus) ijara munosabatlarining negizidagi mulkiy munosabatlarni amalga oshirish usuli va tashkil etish shaklini tushunish lozim. Lizing munosabatlari o‘zining iqtisodiy mazmuniga ko‘ra qarz berish va qarz olish asosida ijara munosabatlarining alohida shakli hamda o‘zaro bog‘liq iqtisodiy-huquqiy munosabatlarni aks ettiradi. Shu bilan birga, lizing munosabatlari tadbirkorlikni rivojlantirishga, ayniqsa, kichik biznes korxonalarini oyoqqa turg‘azishga ko‘maklashuvchi iqtisodiy munosabatlarning murakkab, o‘zaro chambarchas qovushgan, o‘zaro bog‘langan tizimidir.

---

[1] Васильев Н.М. и др. Лизинг как механизм развития инвестиций и предпринимательства. М.: «ДеКА», 1999. С. 45.

[2] O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-apreldagi «Lizing to‘g‘risida»gi qonuni.

Biznesning samarali bo'lishiga erishishda lizing munosabatlarining asosiy xususiyatlarini ajratib olish muhim hisoblanadi. Ushbu xususiyatlarga quyidagilarni kiritish mumkin: lizing asosida xususiy kapitalga egalik qilish imkonining bo'lishi; o'zga mulkdan samarali foydalanish orqali ortiqcha mablag' sarflamaslik; lizingga olingan ko'char va ko'chmas mulkka egalik qilish, undan foydalanish va lizing muddati tugagach uni tasarruf etish; ortiqcha investitsiya jalb qilmasdan, risksiz kapital investitsiyasini amalga oshirish; qo'shimcha mablag' kiritmasdan, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish; mulkning saqlanishi, ishlatilishini doimiy nazorat qilish va ulardan samarali foydalanish; raqobat jarayonida manyovr qilish imkoniyatidan foydalanish.

Bir vaqtning o'zida lizing o'zida quyidagi xususiyatlarni ham mujassam etadi:

– lizing – mol-mulkni ijaraga olish va sotib olish asosida vaqtinchalik foydalanishga berish bo'yicha ishlarning mulkiy munosabatlari majmuasi;

– lizing oluvchi lizing beruvchi tomonidan sotib olingan mulkni o'z ixtiyori bilan foydalanish uchun oladi. Daromad olib, qarzlarni lizing beruvchiga to'lab boradi. Odatda, lizing operatsiyasining vaqti tugashi bilan mulk lizing oluvchining mulki bo'lishi mumkin;

– lizing tadbirkorlik faoliyatidagi muayyan majburiyatlar turi bo'lib, unda ortiqcha yoki jalb qilingan moliyaviy mablag'lar mulkni investitsiyalashga, shartnomaga muvofiq, huquqiy va jismoniy shaxslarga ma'lum muddat va to'lov asosida foydalanishga yo'naltiriladi.

Shunday qilib, iqtisodiyotda mulkdan foydalanishning yangi shakli – moliyaviy ijara (lizing) vujudga keldi va rivojlana boshladi. Lekin lizing oddiy ijara munosabatlaridan o'zining ham nazariy, ham amaliyotda qo'llanishi jihatidan birmuncha farq qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida lizing amaliyotlarining kundan-kunga kengayib borayotganligi hamda uning turli xildagi shakllari qo'llanilayotganligi sababli, lizing tushunchalariga aniqlik kiritish va uning tub mohiyatini ochib berish muhim ahamiyatga egadir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy lizing munosabatlariga mikroiqtisodiy va makroiqtisodiy jihatdan yondashish maqsadga

muvofiq bo'ladi. Umumiy holda, lizingning ahamiyati lizing ishtirokchilari uchun quyidagilarda namoyon bo'ladi: sotuvchi yoki lizing obyektini ishlab chiqaruvchi tovarlarini oldindan berilgan buyurtmalar asosida sotish imkoniyatiga ega bo'ladi va uning tovarlari bozorining chaqqon bo'lishiga olib keladi, shu bilan birga uning doimiy aylanmasi (oboroti)ni ta'minlaydi; oldindan berilgan talab (buyurtma)lar asosida ishlab chiqarishni aniq reja asosida boshqarish imkoniyatlari yaratiladi; lizing oluvchiga (lizing obyektidan foydalanuvchi) o'z pul mablag'larini tejashga yordam beradi yoki uning to'lov qobiliyatini mustahkamlaydi; bir yo'la ortiqcha mablag'lar sarflamasdan, ishlab chiqarishini davom ettiradi, shu bilan birga, asosiy fondlarini yangilab oladi; ishlab chiqarish obyektidan samarali foydalanishga majbur qiladi; lizing oluvchining ishlab chiqarish quvvatini oshiradi, asosiysi, lizing sharofati bilan u keyinchalik shu mulk sohibiga aylanadi; lizing talablari bankdan shu maqsadlarda kredit olishga qaraganda birmuncha yengil va shu lizing obyekti kredit ta'minoti sifatida qabul qilinishi mumkin bo'ladi; lizing beruvchi (lizing kompaniyasi yoki banklar)ning daromadini oshiradi, foyda olishni va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantiradi; daromad keltiruvchi operatsiyalari va investitsiyalari hajmini oshiradi.

12.2. O'zbekiston Respublikasida lizing munosabatlarining huquqiy asoslari

O'zbekistonda lizingning huquqiy asoslari Fuqarolik Kodeksining ikkinchi qismi 6-bandida mustahkam belgilab qo'yilgan va unda lizing moliyaviy ijara deb atalgan. Xususan, 1995-yil 25-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining birinchi qismi, 1996-yil 29-avgustda ikkinchi qismi tasdiqlandi. Ushbu Fuqarolik Kodeksining 34-bobidagi oltinchi band to'liq lizingga, ya'ni «Moliyaviy ijara»ga bag'ishlangan bo'lib, jami 13 ta moddadan iborat bo'lgan ushbu bandlarda lizing shartnomasi, obyekti, subyekti, lizing to'lovlari, tomonlarning majburiyatlari, javobgarliklari, huquqlari va qator boshqa masalalar qamrab olingan.

Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va milliy iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida O'zbekiston hukumati tomonidan mamlakatda lizing biznesini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratildi. Dastlab O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 5-yanvardagi 6-sonli qaroriga muvofiq respublikada birinchi «O'zbek Lizing Interneyshnl» aksiyadorlik jamiyati tashkil etilib, uning asosiy vazifalari qilib quyidagilar belgilangan edi:

– texnik uskunalarni barcha mulk shaklidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarga lizingga berish uchun ular xaridini va ulardan foydalanishni uzoq muddatli moliyalashtirish;

– eksport salohiyatini oshirish va import o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida O'zbekiston iqtisodiyotining nufuzli tarmoqlariga lizing doirasida yuqori texnologiyalarni jalb qilish;

– kichik tadbirkorlikni rivojlantirish, xalq iste'moli tovarlari va xizmatlari ishlab chiqarishini o'stirish uchun lizing xizmatlarining keng doirasini taqdim etish;

– respublikada lizing operatsiyalarini o'tkazish uslubiyotini va lizing xizmatlari bozorini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish va boshqalar.

Ushbu sohadagi yuzaga keladigan munosabatlarni huquqiy tartibga solish asosini 1999-yil 14-aprelda qabul qilingan va 2002-yil 13-dekabrda o'zgartirishlar kiritilgan «Lizing to'g'risida»gi qonun tashkil qiladi.

Respublikada lizing munosabatlarining rivojlanishi hamda tijorat banklarining moliyaviy xizmat turlarini kengaytirish hamda kichik va xususiy biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida ishlab chiqilgan va Markaziy bank Boshqaruvi tomonidan 1999-yil 7-mayda tasdiqlangan, Adliya vazirligida 1999-yil 20-iyulda 776-son bilan ro'yxatdan o'tgan «O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan moliyaviy lizingni o'tkazish tartibi to'g'risida»gi nizom muhim rol o'ynadi. Ushbu hujjat tijorat banklarining lizing bozorida faoliyat yuritishi tartib-qoidalarini belgilab, bank mijozlari bo'lmish kichik va xususiy biznes subyektlariga tijorat banklari tomonidan lizing xizmatlarini ko'rsatish uchun mavjud huquqiy asoslarni yanada mustahkamladi.

Ayni vaqtda O'zbekistonda lizing sohasi rivojini ta'minlashga imkon beruvchi qonun va me'yoriy hujjatlarning qabul qilinganligi lizing xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarining oshishida muhim omil bo'lmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 28-avgustdagi «Lizing faoliyatini rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3122-sonli Farmoniga[1] muvofiq 2002-yil 1 sentabrdan boshlab:

– lizing to'lovlari – qo'shilgan qiymat solig'idan;

– lizingga berish uchun O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan texnologiya uskunalari – vakil bankning tegishli tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda bojxona to'lovidan va qo'shilgan qiymat solig'idan;

– xo'jalik yurituvchi subyektlar – lizing oluvchilar lizingga berilgan mulkka soliq to'lashdan lizing shartnomasi amal qiladigan muddatgacha ozod qilinadi. Lizing beruvchini soliqqa tortish chog'ida u lizingga berish uchun mulk xarid qilishga olgan kreditlar foizi hamda belgilangan boshqa to'lovlarning summasi uning jami daromadidan chegirib tashlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 587-moddasida lizing shartnomasi to'g'risida quyidagicha ta'rif berilgan: «Lizing shartnomasi bo'yicha lizing beruvchi (ijaraga beruvchi) bir taraf lizing oluvchi (ijaraga oluvchi) ikkinchi tarafning topshirig'iga binoan sotuvchi uchinchi taraf bilan undan lizing oluvchi uchun mol-mulk sotib olish haqida kelishish majburiyatini oladi, lizing oluvchi esa buning uchun lizing beruvchiga lizing to'lovlarini to'lash majburiyatini oladi»[2].

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 587-moddasidan 599-moddasigacha lizinga ajratilgan. Jumladan, 587-moddada ta'kidlanishicha, lizing shartnomasi lizingni moliyaviy ijara sifatida nazarda tutadi va lizing obektini xarid qilish uchun faqat lizing beruvchi o'z mablag'laridan foydalanishni ko'zda tutar edi. O'zbekiston Respublikasining «Lizing to'g'risida»gi qonuniga kiritilgan o'zgartirishlar asosida «o'z mablag'lari hisobidan...» so'zidan

[1] Mazkur Farmon O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 17-iyundagi PF-4116-sonli Farmonining 2-ilovasiga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan. http://www.norma.uz.

[2] O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi. T.: «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi», 2003. – B. 233.

keyin «va jalb etilgan mablag'lar» so'zlari qo'shildi va Fuqarolik Kodeksining 587-moddasining matni yangi tahrirda bayon etildi. Chunki ba'zi bir hollarda lizing beruvchi lizing obyektini o'z mablag'lari hisobidan sotib ololmaslik hollari ham uchrab turadi, shunday holllarda lizing kompaniyalari bank kreditlari va boshqa qarz beruvchi tashkilotlardan mablag'larni jalb qilib muammoni hal qiladi, bu lizing kompaniyalarining ishlarini yanada rivojlantiradi. Shuning uchun ham bu masala «Lizing to'g'risida»gi qonunda to'liq o'z aksini topgan.

Fuqarolik Kodeksining 587-599-moddalari, asosan, «Lizing to'g'risida»gi qonunga mos ravishda tuzilgan va o'zaro nomutanosibliklar «Lizing to'g'risida»gi qonun chiqishi bilan va qayta yangi tahrirda o'zgartirishlar kiritilib o'zgartirilgan. Bu moddalarda ham, asosan, lizingning mohiyati, belgilari, shartnomalarining tuzilishi, lizing obektlari, subektlari, o'zaro nizolar va kelishmovchiliklarni hal qilish masalalari va boshqalar bayon qilingan.

Lizingning asosiy g'oyasi mol-mulkni qo'lga kiritish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidan ajratishdan iborat. Chunki ba'zi lizing shartnomalariga muvofiq ijara muddati tugagandan keyin lizing obekti qaytariladi, shuning uchun ham uni egalik qilish, qo'lga kiritish, uni to'liq tasarruf etish huquqlarini bunday hollarda qo'llab bo'lmaydi.

«Lizing to'g'risida»gi qonunda lizing shartnomasi bo'yicha lizing beruvchi bilan lizing oluvchining bir shaxs timsolida ko'rishga yo'l qo'yilmasligi ta'kidlanadi, chunki qonunda aytib o'tilganidek, lizing munosabatlarida uchta shaxs qatnashishi kerak bo'lib, ulardan biri lizing obektini sotuvchi, lizing obektini lizinga beruvchi lizing kompaniyasi va lizing obektini lizinga oluvchi, ya'ni lizing munosabatlaridan foydalanuvchilar bo'lishi kerak. Shuning uchun ham lizing oluvchi va lizing beruvchi bir shaxs bo'lmasligi lozim.

Lizing munosabatlari ishlab chiqarishning muhim omillaridan iborat. Bir tomondan, mehnat va kapital birgalikda lizing subyektlarining qatnashishida budjetni shakllantiradi. Bundan, o'z navbatida, jamoaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari echiladi, ikkinchi tomondan, takror ishlab chiqarishni rivojlantirish va bozorni zaruriy mahsulot bilan ta'minlashga imkon bo'ladi.

Lizing oluvchi (korxona) ikki tomonlama ijtimoiy-iqtisodiy maqomga ega bo'ladi, ya'ni o'z ixtiyori bilan va mustaqil tashkilot sifatida faoliyat yuritadi hamda uni, nafaqat, o'zining ishlab chiqarishini takomillashtirish qiziqtiradi, balki ishlab chiqarish faoliyat doirasidan kelayotgan daromad ham uning bosh maqsadini tashkil etadi. Bunda ilmiy-texnika taraqqiyotining tezlashishi ham ta'minlanadi.

Lizing oluvchi lizing shartnomasini tuzish uchun uning asosiy depozit hisobvarag'iga xizmat ko'rsatayotgan bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:

– lizing buyurtmasi;

– lizing obyektining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari va uning sotuvchisi to'g'risidagi ma'lumotnoma;

– lizingning butun davrini o'z ichiga olgan pul oqimi tahlili ko'rsatilgan biznes-reja;

– oxirgi hisobot sanasiga tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasi tomonidan qabul qilingan buxgalterlik balansi (1-shakl), moliyaviy natijalari haqida hisobot (2-shakl), muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzdorlik haqidagi ma'lumotnoma (2a-shakl), 90 kundan ortiq muddatdagi qarzdorlikni solishtirish dalolatnomalari.

Lizing beruvchi banklar lizing berish yuzasidan qaror qabul qilish uchun lizing oluvchidan uning lizing to'lovlarini amalga oshirish imkoniyatlarini baholash uchun zarur bo'lgan hujjatlarni so'rab olishlari mumkin.

Lizing kompaniyalariga ularga ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari ochgan tijorat banklari tomonidan import asosida lizing obyektlarini yetkazib berish bilan bog'liq lizing xizmati ko'rsatilishi mumkin.

Buyurtma lizing beruvchi bank tomonidan ko'rib chiqilayotganda quyidagilarning tahlili amalga oshiriladi: buyurtma beruvchi daromadlarining lizing to'lovlarini amalga oshirish uchun yetarliligi; buyurtmada bayon etilgan ma'lumotlarning bir-biriga zid emasligi; lizing beruvchi bank oldidagi majburiyatlar buyurtma beruvchi tomonidan o'z vaqtida bajarilishi imkoniyatining mavjudligi.

Lizing obyekti shartnomaga muvofiq lizing beruvchi bank tomonidan lizing obyektini sotib olishga, lizing obyektini yetkazib

berish va belgilangan maqsadda foydalanish uchun uni yaroqli holga keltirish bilan bog'liq va boshqa xarajatlarini qaytarish hamda lizing daromadi (foizi) to'lovini amalga oshirish ta'minoti vazifasini bajarishi mumkin.

Lizing beruvchi lizing operatsiyasini amalga oshirish natijasida sarflangan mablag'larning qaytarilishi va lizing foizi to'lanishining kafolati sifatida lizing oluvchidan boshqa ta'minot shakllarini taqdim etishni talab qilishi mumkin.

Lizing foiz stavkalari miqdori lizing oluvchi va lizing beruvchi bank o'rtasidagi o'zaro kelishuvga ko'ra lizing shartnomasida belgilanadi.

Lizing oluvchining buyurtmasi bo'yicha lizing beruvchi bank tomonidan lizing operatsiyasini amalga oshirish yoki oshirmaslik to'g'risida qaror qabul qilish muddati buyurtma bankka kelib tushgan kundan boshlab 30 ish kunidan, mikrolizing [1] operatsiyasini amalga oshirish bo'yicha 10 ish kunidan oshmasligi lozim.

Lizing operatsiyasini amalga oshirish asoslantirilgan holda rad etilgan taqdirda, lizing beruvchi bank lizing oluvchiga bu haqda rad etish sababini asoslagan holda yozma shaklda ma'lum qilishi shart. Lizing operatsiyasini amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, bu haqda lizing oluvchiga bildiriladi hamda lizing beruvchi bank va lizing oluvchi o'rtasida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda lizing shartnomasi tuziladi.

Lizing obyekti hisoblangan mol-mulk bo'yicha tuziladigan bitimlar qonunga muvofiq lizing shartnomasi notarial tasdiqlanishi lozim.

Fermer xo'jaliklariga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi mashina-traktor parklariga qishloq xo'jaligi mashinalarini lizingga berish borasidagi lizing shartnomalari 10 yilgacha bo'lgan muddatga tuziladi.

Lizing shartnomasida lizing shartnomasi amal qilishi boshlangandan to tugagunga qadar lizing obyektining qiymati bo'yicha vujudga keladigan o'zgarishlarni inobatga olib, lizing to'lovlari summasiga taraflarning kelishuviga binoan tegishli

[1] Mikrolizing masalasi ushbu bobning eng so'nggi paragrafida yoritilgan.

qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish shartlari ko‘zda tutilishi mumkin.

Lizing oluvchilar lizing obyektini lizing shartnomasi muddati tugashidan oldin istalgan vaqtda lizing obyektining qoldiq qiymatini va hisoblangan lizing foizi to‘lovini amalga oshirgan holda lizing obyektini o‘z mulkiga aylantirishi mumkin. Lizing obyekti qoldiq qiymati va hisoblangan foizlar to‘lovi to‘laligicha amalga oshirilgan kundan boshlab lizing shartnomasi shartlari to‘la bajarilgan hisoblanadi.

Lizing shartnomasi tuzilganidan so‘ng lizing beruvchi bank va sotuvchi o‘rtasida lizing obyektining oldi-sotdi shartnomasi tuziladi. Bunda lizing beruvchi bank sotuvchiga mol-mulk muayyan lizing oluvchiga berish uchun sotib olinayotganligini bildirishi shart.

Lizing obyektini foydalanishga qabul qilish dalolatnomasi imzolanib, mulkka egalik qilish va undan foydalanish huquqi lizing oluvchiga o‘tganidan so‘ng lizing operatsiyasi amalga oshirilgan hisoblanadi. Lizing shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, lizing obyekti sotuvchi tomonidan bevosita lizing oluvchiga u turgan joyda topshiriladi. Foydalanishga qabul qilish dalolatnomasi lizing oluvchi tomonidan rasmiylashtiriladi va lizing beruvchi bank, lizing oluvchi hamda sotuvchi tomonidan imzolanadi. Lizing obyekti yetkazib berilmagan, to‘liq yetkazib berilmagan, yetkazib berish muddati o‘tkazib yuborilgan yoki sifati talab darajasida bo‘lmagan lizing obyekti yetkazib berilgan taqdirda, agar shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, lizing oluvchi:

– lizing to‘lovini amalga oshirishni kechiktirish;

– yetkazib beriladigan lizing obyektidan voz kechish;

– lizing shartnomasining bekor qilinishini lizing beruvchidan talab etish;

– lizing shartnomasini bajarmaslik yoki tegishlicha bajarmaslik natijasida yetkazilgan zararlarni to‘lashni lizing beruvchidan talab qilishga haqlidir.

Lizing beruvchi bank har bir lizing operatsiyasi bo‘yicha lizing yig‘ma jildini shakllantiradi. Lizing yig‘ma jildda quyidagi hujjatlar bo‘lishi lozim: lizing oluvchining buyurtmasi; lizing shartnomasi; lizing oluvchining oxirgi hisobot sanasiga

buxgalteriya balansi; lizing oluvchining lizing bo'yicha biznes-rejasi; lizing oluvchining to'lov qobiliyati va uning biznes-rejasining samaradorligi to'g'risida lizing beruvchi bankning xulosasi; sug'urta kompaniyasining lizing obyektini sug'urta qilinganligi to'g'risidagi sug'urta polisi; lizing beruvchining lizing obyektini lizing oluvchiga yetkazib berilishi to'g'risidagi buyurtmasi; lizing obyektining oldi-sotdi shartnomasi; lizing obyektini foydalanishga qabul qilish dalolatnomasi; lizing obyektiga sotuvchi tomonidan berilgan texnik kafolat; lizing operatsiyasi hamda ta'minoti xarakteridan kelib chiqqan holda olingan boshqa hujjatlar.

Lizing shartnomasi yuzasidan qo'shimcha kelishuv tuzilgan taqdirda, u ham lizing oluvchining lizing yig'ma jildiga tikib qo'yiladi. Lizing oluvchi lizing shartnomasida belgilangan muddat davomida lizing obyektiga egalik qilish va undan foydalanish huquqini oladi. Lizing oluvchi tomonidan lizing shartnomasi bo'yicha o'zida paydo bo'lgan huquq, majburiyat va boshqa manfaatlarni uchinchi shaxsga o'tkazish (qo'shimcha lizing)ga faqat lizing beruvchining yozma roziligi asosida ruxsat etiladi. Lizing oluvchi sotuvchi tomonidan lizing obyektiga berilgan texnik kafolatdan foydalanadi. Lizing obyektining o'z vaqtida yetkazib berilishi va butlanishi hamda uni o'rnatishga doir majburiyatlarning bajarilishi bo'yicha sotuvchidan talab qilish huquqini lizing oluvchi o'z zimmasiga olishi lizing shartnomasida belgilanishi mumkin.

Lizing beruvchida tijorat nuqtayi nazaridan lizing bitimi quyidagicha tusda bo'ladi: lizing beruvchining kelishuv asosidagi umumiy xarajatlari quyidagi tenglik bilan izohlanadi:

$$LT = BQ + KT + QT \qquad (12.1)$$

bu yerda: **KT** – kredit resurslaridan foydalanganlik uchun to'lov, so'mda; **QT** – qo'shimcha xizmatlar uchun to'lov, so'mda; **BQ** – lizing shartnomasi predmeti hisoblangan mulkning balans qiymati, so'mda.

Lizing bitimi asosida lizing oluvchining lizing to'lovlari xarajatlari quyidagicha hisoblanadi:

$$LT = A + KT + KoT + QT + BB \qquad (12.2)$$

bu yerda: **A** – lizing beruvchida joriy yilda hisobga olinadigan amortizatsiya ajratmalari miqdor o'lchovi, so'mda; **KoT** – lizing shartnomasi asosida lizing beruvchining komission mukofot puli, so'mda; **BB** – bojxona boji, so'mda; **KT** – kredit resurslaridan foydalanganlik uchun to'lov, so'mda; **QT** – qo'shimcha xizmatlari uchun to'lov, so'mda;

O'zbekiston tijorat banklarida lizingga foizlar hisoblash O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004-yil 30 yanvarda 1306-son bilan ro'yxatga olingan Markaziy bankning 25/8-sonli «Tijorat banklarida foizlarni hisoblash to'g'risida»gi nizomga ko'ra quyidagi formula orqali hisoblanadi va balansda kunlik aks ettirib boriladi:

$$Lf = (Lq \times Fs \times Ka) : 365 \qquad (12.3)$$

bu yerda: **Lf** –lizingning foizi; **Lq** – lizingning so'ndirilmagan qoldiq summasi; **Fs** – foiz stavkasi; **Ka** – lizingdan foydalanilgan amaldagi kunlar soni.

Ma'lumki, lizing beruvchining mulkdan foydalanish xarajatlari lizing to'lovlari asosida to'liq kompensatsiyalanmaydi, ya'ni qoplanmaydi. Kompensatsiya summasi shartnoma muddati va mulk amortizatsiyasi muddatiga bog'liq holda shartnomada oldindan belgilangan bo'ladi. Agar, amortizatsiya muddati shartnoma muddatidan oshib ketsa, bunda mulkning amortizatsiya muddati tugashiga qadar lizing beruvchida qoldiq qiymatida o'z mulki bo'lib qolaveradi. Komission mukofot to'lovi lizing beruvchi xarajatlarini qoplash manbayi bo'lib xizmat qiladi. Lekin, bu aniq bitim bilan bog'liq emas va foyda manbayini shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Demak, lizing beruvchining manfaatli qiziqishini lizing bitimi tashkil etadi. Bunda iqtisodiy foydali manfaatdorlik yotadi. Endi lizing oluvchiga kelsak, bunda u lizing asosida o'z xarajatlarini mulkdan foydalanish chog'ida olinishi mumkin bo'lgan daromadi bilan bir o'lchamga keltirishi kerak. Shu bois, bitimni tuzish, tayyorlashda investitsiya loyihasi (biznes-reja) holida aniq va ravshan, detallashgan holda sinchiklab o'rganilib, ishlab chiqilgandan so'ng tomonlarning roziligi olinadi.

Faqat moliyaviy lizing shartnomasida lizing oluvchi huquqida lizing mulkini sotib olish ko'zda tutilishi mumkin. Bu huquqni

amalga oshiruvchi yuridik va texnik jarayonlarga tegmagan holda, uning iqtisodiy tabiatiga nazar tashlasak. Lizing oluvchi lizing mulkini lizing beruvchiga sotib olish qiymatini shartnoma muddati davomida yoki muddatidan avval to'lash asosida o'ziniki qilib olishi mumkin. Sotib olish bahosi, agar shartnomada sotib olish oldindan ko'rsatilgan bo'lsa yoki shartnomadagi tomonlarning maxsus kelishuvi asosida o'rnatilgan tartibda aniqlanadi. Sotib olish bahosi sifatida mulkning qoldiq qiymati yoki bozor narxida shunday yoxud shunga o'xshash mulk bahosi xizmat qiladi. Har qanday holatda ham, lizing mulkidan foydalanish lizing oluvchi uchun foyda keltiradi.

Lizing obyektlarini to'g'ri ta'riflash lizing munosabatlari mohiyatini ochib berishda muhim jihat hisoblanadi. Xorij va mamlakatimizda nashr etilayotgan iqtisodiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, muayyan vaziyatga bog'liq tarzda lizing obyekti bo'lib, har qanday ko'chmas va ko'char mulk hisoblanishi mumkin. Bular, amaldagi tasnifga ko'ra asosiy vositalar bo'lishi lozim, bozorda erkin muomalada bo'lishi ta'qiqlangan mulklar bundan istisno. O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq lizing obyekti bo'lib, har qanday foydalanilmay turgan mulk, shu jumladan, korxona, mulkiy majmua, bino, inshoot, uskuna, transport vositasi va boshqa tadbirkorlikda foydalanish mumkin bo'lgan ko'chmas hamda ko'char mulk lizing obyekti bo'lishi mumkin. Shu bilan bir vaqtda, deyarli barcha, ayniqsa, lizingdan foydalanish keng tarqalgan mamlakatlar qonunchiligida lizing obyekti bo'lish xususida qator cheklovlar mavjud. Masalan, O'zbekiston Respublikasining «Lizing to'g'risida»gi qonunida yer maydonlari va boshqa tabiiy obyektlar, shuningdek, erkin muomalada bo'lishi qonunchilik yo'li bilan ta'qiqlangan yoki muomalada bo'lishning alohida tartibi belgilangan mulklar lizing obyekti bo'la olmasligi ta'kidlangan. Shu bilan birga, mazkur qonunda alohida tartibda muomalada bo'lish talab etiladigan mulklar ro'yxati keltirilmagan, bu, o'z navbatida, amaldagi qonunchilikka tegishli o'zgartish kiritishni talab etadi. Iqtisodiy adabiyotlarda lizing obyektlari turli belgilarga asosan tasniflanadi (12.1-rasm).

Lizing munosabatini amalga oshirish jarayonidagi huquqiy munosabatlar o'z ichiga tovar krediti va investitsiyasini, oldi-sotdi

huquqiy munosabatini, ijara munosabatini va mulkiy kafolat munosabatini oladi, lizing bitimi asosiy ishtirokchilari o'rtasida shakllanadi. Ular o'rtasidagi yuqorida keltirilgan huquqiy munosabatlar majmuyi qarzga olish va investitsiyalash, tovar krediti va ijara munosabatlari, lizing mulklarini sotib olish shartlari, lizing bitimlari sug'urtasi va ularni soliqqa tortish lizing to'lovlarini amalga oshirish bilan bog'liq holda yuzaga keladi.



12.1-rasm. **Mulk turi bo'yicha lizing obyektining tasnifi**

Lizing xizmatlarini rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 26 apreldagi «Lizing xizmatlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 199-sonli qarori amaliy qadam bo'ldi. Ushbu qarorga ko'ra, lizing oluvchilar soliq solinadigan daromadlar (foyda)ni aniqlashda 2009-yil 1-yanvargacha lizingga olingan asosiy vositalar bo'yicha jami daromadidan amortizatsiya ajratmalari jami summasini, shu jumladan, qonun hujjatlariga muvofiq tezlashtirilgan usul bilan hisoblangan summani chegirib tashlash huquqiga ega bo'lgan edilar. Sohani rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni tahlil qilib, ekspertlar, tahlilchilar va sharhlovchilar O'zbekistonning lizing xizmatlari bozorini istiqboli porloq, deb baholadilar.

12.3. Lizingning turlari

Lizingning eng ko‘p tarqalgan turlarini quyidagicha guruhlash taklif etilgan:

– operativ yoki xizmat ko‘rsatuvchi lizing;
– moliyaviy, kapital yoki to‘g‘ri lizing;
– qaytariladigan lizing[1].

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimida lizingning, asosan, tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishidagi raqobat natijasida vujudga kelishi, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini iqtisodiy jihatdan rag‘batlantirish va ularda ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash vazifasini bajarishi lozimligini ta’kidlash mumkin. Natijada tadbirkorlikning rivojlanishi tijorat banklari tomonidan bajariladigan moliyaviy lizing operatsiyalari va ularni hisobga olishga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

Tijorat banklarida, odatda, moliyaviy lizing operatsiyalari uch tomonlama bo‘lganligidan har uchchala tomon uchun ham qulay hisoblanadi. Birinchidan, lizing oluvchi o‘z mablag‘larini birdaniga to‘liq sarflamasdan, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va shu bilan birga keyinchalik lizing mulkiga ega bo‘lish imkoniga ega bo‘ladi. Lizing oluvchi uchun yana bir muhim tomonlaridan biri – lizing sharti asosida olingan jihozlardan foydalanish jarayonida olingan daromadlari hisobidan lizing to‘lovlarini shartnomada kelishilgan muddatlarda asta-sekinlik bilan to‘lab boradi. Ikkinchi tomon – ishlab chiqaruvchi (sotuvchi)da lizing obyektini sotish mumkin bo‘ladi. Natijada ishlab chiqaruvchida sotiladigan lizing obyekti (ko‘chmas mulklar, tovarlar, uskunalar va boshqalar)ning savdosi to‘xtab qolmaydi. Uchinchi tomon – tijorat banklari uchun resurslaridan samarali foydalanish imkoniyati yaratiladi. Ya’ni har uchchala tomonning ham manfaatlari lizing munosabatlarida uyg‘unlashadi.

Birinchi tomon – lizingga beruvchi lizing shartnomasi bo’yicha lizing obyektini keyinchalik lizing oluvchiga berish maqsadida sotib oladigan bank yoki boshqa lizing kompaniyasi yoki ularning sho’’ba kompaniyalaridir. Ikkinchi tomon – lizing oluvchi lizing shartnomasi bo’yicha lizing obyektiga vaqtinchalik egalik qilish va foydalanish uchun oladigan subyektlardir.

[1] Казимагамедова А.А., Гаджиев А.А. Деньги, кредит, банки: Учебник. М.: «Экзамен», 2007. С. 232-233.



12.2-rasm. **Lizingning tasniflanishi**[1]

[1] G'ozibekov D.G'., Sobirov O.Sh., Mo'minov A.G., Quljonov O.M. Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti. T.: «Fan va texnologiya», 2004. – B. 55.; Haydarov Sh.U., Ortiqov X.A., Tuxsanov X.A. Lizing: tan olish va

Ikkinchi tomon – lizing oluvchi lizing shartnomasi bo'yicha lizing obyektiga vaqtinchalik egalik qilish va foydalanish uchun oladigan subyektlardir. Uchinchi tomon – ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) lizing beruvchiga lizing obyektini sotuvchi yuridik yoki jismoniy shaxslardir.

Uchinchi tomon – ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) lizing beruvchiga lizing obyektini sotuvchi yuridik yoki jismoniy shaxslardir.

Moliyaviy lizing G'arb mamlakatlarida XX asrning 80-yillariga kelib jadal rivojlana boshladi. Rivojlangan mamlakatlarda investitsiyalarning 25-30 foizi lizing operatsiyalariga to'g'ri keladi. Shuningdek, yangi turdagi mahsulotlardan 80 foizga yaqini aynan lizing asosidagi uskunalarda ishlab chiqarilmoqda.

Moliyaviy lizing o'z xususiyatiga ko'ra mulkni pirovardida uzoq muddatli ijaraga berish hamda undan vaqtinchalik foydalanish uchun xarid qilish asosida boshqa subyektga topshirish bilan bog'liq mulkiy munosabatlar majmuyini tashkil etadi. Moliyaviy lizing sharoitida lizing obyektining buxgalteriya balansida hisobga olinishi, soliq majburiyatlari va moliyaviy hisobotlarda qanday aks ettirilishi muhim ahamiyatga ega. Shunga ko'ra bugungi kunda xalqaro miqyosda lizing (moliyaviy ijara) quyidagi umumiy belgilariga qarab tasniflanadi:

– lizing obyekti lizing shartnomasining muddati tugashi bilan lizing oluvchining xususiy mulkiga o'tadi;

– lizing obyektidan foydalanish muddati shartnoma muddatidan ko'proq bo'lishi nazarda tutiladi;

– lizing oluvchi lizing obyektini bozor bahosidan past bahoda yoki lizing shartnomasi muddati tugaganidan so'ng belgilanadigan, shuningdek, qoldiq qiymat bo'yicha sotib olish huquqiga ega bo'ladi;

– lizing shartnomasi davrida lizing to'lovlarining umumiy summasi (soliqlardan tashqari) lizing obyekti qiymatiga teng yoki undan ortiq bo'lishi lozim;

– ijaraga berilgan lizing obyektining foydalanish xususiyatlarini lizing oluvchi qayta o'zgartirmasligi lozim.

---

baholash va uning hisobi. T.: «NORMA» MChJ, 2006. – B. 248. asarlaridan foydalanilib, mualliflar tomonidan tuzildi.

Yanada kengroq ma'noda yondashadigan bo'lsak, moliyaviy lizing lizing shartnomasi va kelishuvidan tashqari texnika va uskunalar yetkazib berish, qarzga berish hamda sug'urtalash shartnomalarini o'z ichiga oluvchi mulkiy munosabatlar majmuyidir.

12.4. Lizing krediti – asosiy kapitalga qaratilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbayi

Respublikamizda 2004-yil iyul oyiga qadar lizing kreditlarining resurs manbayi bo'lib tijorat banklarining o'rta va uzoq muddatli kreditlari hisoblanar edi. Biroq, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2004-yil 17 iyuldagi 478-sonli yo'riqnomasiga asosan respublikamiz bank amaliyotidagi o'rta muddatli kreditlar toifasi bekor qilinganligi sababli, tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlari lizing operatsiyalarini moliyalashtirish manbayi bo'lib xizmat qiladi.

Respublikamizda tijorat banklarining lizing operatsiyalari, yuqorida ta'kidlaganimizdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank Boshqaruvining 2006-yil 21 oktabrdagi 25/6-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Tijorat banklarida lizing operatsiyalarini amalga oshirish va ularning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risida»gi nizomi asosida amalga oshiriladi va tartibga solinadi. Mazkur Nizomga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2007-yil 26 martdagi 1648-1-son, 2007-yil 9 iyuldagi 1648-2-son hamda 2007-yil 27 noyabrdagi 1648-3-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qarorlariga muvofiq tegishli o'zgartirishlar kiritilgan. Ushbu Nizomda lizing moliyaviy ijara sifatida e'tirof etilgan va unga quyidagicha ta'rif berilgan: lizing (moliyaviy ijara) – bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing obyektini) mulk qilib sotib olishni va uni shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun lizing oluvchiga o'n ikki oydan ortiq muddatga berishni nazarda tutadigan ijara munosabatlarining alohida turi.

Shunisi xarakterliki, respublika Markaziy bankining «Tijorat banklarida lizing operatsiyalarini amalga oshirish va ularning

buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to‘g‘risida»gi nizomida lizing to‘lovlari va minimal lizing to‘lovlari tushunchalari o‘rtasida farqning mavjudligi e’tirof etilgan. Lizing to‘lovlari sifatida lizing beruvchining lizing obyektini olish uchun qilgan xarajatlarining hammasi yoki ko‘p qismi, shuningdek, lizing obyektini yetkazib berish va belgilangan maqsadda foydalanish uchun uni yaroqli holga keltirish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlarning lizingga oluvchi tomonidan qoplanishi hamda lizing beruvchi daromadi yig‘indisi olingan. Minimal lizing to‘lovlari deganda lizing oluvchi yoki uning kafolatchisi (kafili) tomonidan lizing shartnomasiga ko‘ra lizing beruvchiga uning lizing obyektini sotib olish va uni yaroqli holga keltirish bilan bog‘liq xarajatlari, lizing daromadi (foizi) qo‘shilgan holda lizing muddati davomida to‘lanishi lozim bo‘lgan summasining tushunilishi e’tirof etilgan.

Nizomning 11-bandida lizing obyekti shartnomaga muvofiq ta’minot vazifasini bajarsa, u holda lizing obyekti lizing oluvchi tomonidan lizing beruvchi bank foydasiga yo‘qolish va shikastlanish hodisalaridan ixtiyoriy sug‘urta qilinishi va bu to‘g‘risida sug‘urta polisi bankka taqdim etilishi shart.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning, shu jumladan, kichik biznes subyektlarining tijorat banklariga lizing krediti so‘rab qilingan murojaatiga javob qaytarish muddati Nizomda aniq belgilab qo‘yilgan. Bu lizing operatsiyalarini amalga oshirish muddatlarini tezlashtirishga xizmat qiladi.

Ayni vaqtda lizing krediti asosiy kapitalga qaratilgan investitsiyalarni moliyalashtirishning muhim manbayi bo‘lib, bunda lizing kompaniyalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Respublikamiz hududida faoliyat yuritayotgan lizing kompaniyalari texnika va texnologiyalarni lizing asosida sotib olish maqsadida milliy va xorijiy valutalarda lizing kreditlari beradi. 2002-2013-yillar mobaynida lizing xizmati ko‘rsatuvchi kompaniyalar soni 15 tadan 99 taga ko‘paydi.

Mazkur davr oralig’ida, ya’ni 2002 yilda amalga oshirilgan lizing operatsiyalari hajmi 6,7 mlrd. so’mni tashkil etgan bo’lsa, 2013 yilda bu ko’satkich 805,2 mlrd. so’mga teng bo’ldi va 120,2 barobarga oshdi[1].

[1] O’zbekiston lizing beruvchilar uyushmasining 2002-2013 yil yakunlari bo’yicha yillik hisobotlari ma’lumotlari. // Ula.uz

O'z navbatida, bu holat lizing bitimlari portfeli hajmining ham dinamikasiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. 12.3-rasm ma'lumotlaridan shuni kuzatish mumkinki, so'nggi yilladda, ya'ni tahlil qilingan 2005-2013 yillar davomida lizing bitimlari portfeli hajmi muntazam ravishda oshib borgan.



12.3-rasm. **O'zbekistonda lizing bitimlari portfeli dinamikasi, mlrd. so'mda**[1]

Bozor islohotlari natijasida bank, kredit muassasalari va korxonalar ilgari iqtisodiyotimizda qo'llanilmagan ko'pgina moliyaviy dastaklardan foydalana boshladilar. Respublikamizda birinchilardan bo'lib, lizing xizmatlari bozorida ishlay boshlagan «Baraka» universal lizing kompaniyasi hozirgi kunda O'zbekistonning vakili sifatida nufuzli xalqaro tashkilot «LEASUROPE» lizing kompaniyalari uyushmalari Yevropa Federatsiyasida muxbir a'zo bo'lib qatnashmoqda. Ushbu lizing tuzilmalarini shakllantirishda rivojlangan xorij tajribalaridan samarali foydalanildi. Chunki, rivojlangan mamlakatlarning tajribasida lizing kompaniyalari tomonidan mavjud asosiy vositalarni texnik qayta qurollantirish va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish borasidagi ko'plab ishlar amalga oshirilgan.

Xullas, O'zbekiston Respublikasida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini lizing asosida moliyalashtirishda tijorat banklari va lizing kompaniyalarining faoliyati muhim o'rin tutadi. Tijorat banklari tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarga berilgan brutto kreditlarning umumiy hajmida lizing kreditlari nisbatan kichik salmoqni egallaydi. Bu lizing operatsiyalarining rivojlanish darajasining past ekanligidan dalolat beradi. Lizing

[1] O'zbekiston lizing beruvchilar uyushmasining 2002-2013 yil yakunlari bo'yicha yillik hisobotlari ma'lumotlari. // Ula.uz.

kompaniyalari tomonidan berilayotgan kreditlarning asosiy qismi ularning o‘z mablag‘lari hisobidan berilayapdi, bu, ularning lizing kreditlari berish imkoniyatini oshirishga to‘sqinlik qilmoqda.

Xalqaro lizing amaliyotida lizing obyektining o‘zi lizing krediti summasiga nisbatan 75 foizdan oshmagan marjinal qiymatda garov sifatida qabul qilinadi. Buning natijasida kredit riski darajasi keskin pasayadi. Chunki lizing obyekti talab nisbatan barqaror bo‘lgan uskuna, mashina yoki qo‘zg‘almas mulk shaklida bo‘ladi. Lizingga oluvchi lizing shartnomasi shartlarini buzgan taqdirda, lizing obyekti undan olib qo‘yilishi va uchinchi shaxsga lizing shartnomasi asosida berilishi mumkin.

12.5. Moliyaviy lizingning zamonaviy ilg‘or texnologiya, uskuna va jihozlarni joriy etishdagi qulayliklari

Umuman olganda, lizing mamlakat iqtisodiyotining o‘sishini ta’minlovchi muhim moliyaviy mexanizmlardan biri sifatida tan olingan. Ayni vaqtda, lizing yordamida zamonaviy ilg‘or texnologiya, uskuna va jihozlarni joriy etish masalalari ijobiy hal etiladi. Bunga uning qator afzalliklari (qulayliklari) imkon beradi.

Lizing oluvchi uchun lizingning afzalliklari quyidagilardan iborat:

– lizing 100 foizli moliyalashni nazarda tutadi va barcha qarz summalarining darhol qaytarilishini talab etmaydi;

– lizing lizing oluvchining moliyalanadigan aktivga bo‘lgan ehtiyojiga aniq muvofiqlikda moliyalashni ta’minlaydi. Bu kichik qarzdorlar uchun juda foydali. Chunki ular, odatda, juda katta kompaniyalar kabi ssudalar yoki tiklanadigan kredit vositasida shunchalik qulay va egiluvchan moliyalanishi mumkin emas. Lizing bitimi lizing oluvchining o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olgan holda tuzilishi mumkin;

– uzoq muddatli moliyaviy rejani amalga oshirish mobaynida moliyaviy imkoniyatlar sezilarli darajada cheklanadi. Lizing bunday cheklanishlarni engish imkonini beradi, shuningdek, investitsion va moliyaviy rejalashtirishda yuqori harakatchanlikka yordam beradi;

– lizing bir vaqtning o‘zida aktivlarni xarid qilish va moliyalashtirish masalalarini hal qilish imkonini beradi;

– lizing vositasida aktivlarni xarid qilish «moliyalashtirishning oltin qoidasi»ga rioya etadi, unga ko‘ra, moliyalashtirish aktivdan foydalanishning butun muddati davomida amalga oshirilishi kerak. Agar xarid qilishda qarz mablag‘laridan foydalanilsa, unda aktivdan foydalanish muddati tugaguniga qadar qarzni qaytarish talab etiladi;

– lizing oluvchi moliyalashtirish jadvali bo‘yicha lizing to‘lovlarini amalga oshirib, asbob-uskunani xarid qilganga qaraganda moliyaviy rejaning juda yuqori barqarorligini ta’minlagan holda kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirish xarajatlari bilan mahsulotlarni sotish, ishlarni bajarish va xizmatlarni ko‘rsatishdan olingan tushumni muvofiqlashtirishda katta imkoniyatga ega bo‘ladi;

– investitsiya qilingan mablag‘larning qaytarilishi ta’minlanadigan qismi lizing beruvchining mulki bo‘lmish lizing predmeti sanalishi tufayli, uning ushbu aktivlarni sotib olish bo‘yicha lizing shartnomasi ssudalar olishga qaraganda oddiy bo‘ladi;

– lizingdan foydalanishda lizing oluvchi ushbu aktivni sotib olganga qaraganda katta ishlab chiqarish quvvati bilan ishlashi mumkin. Vaqtinchalik bo‘shagan moliyaviy resurslarni u boshqa maqsadlarga (qo‘shimcha xomashyo sotib olishga, reklamaga, ikki smenali ishni tashkil qilishga va shu kabilar) ishlatishi mumkin;

– odatda, davlat siyosati lizing operatsiyalarini qo‘llab-quvvatlashga va kengaytirishga yo‘naltirilganligi sababli lizing mahsulotlarni sotish, ishlab chiqarishni kengaytirish, ishlarni bajarish va xizmatlarni ko‘rsatish orqali uzoq vaqt xizmat qiladi;

– kam daromadlilik hollarida lizing oluvchi foydani imtiyozli soliqqa tortish imkoniyatini beradigan qaytarma lizingdan foydalanishi mumkin;

– shartnoma muddati oxirida lizing predmetining yuqori tugatish qiymatining olinish imkoniyati, ko‘p hollarda, lizing oluvchilar tomonidan lizingni qabul qilish uchun muhim hisoblanadi.

Lizing obyekti hisobidagi afzalliklar quyidagilardan iborat:

– lizing oluvchi tomonidan to‘lanadigan lizing to‘lovlarining foizlar ko‘rinishidagi qismi unda xarajatlar tarkibida hisobga olinadi, ya’ni ularni to‘lashga mablag‘lar soliqqa tortiladigan foyda tarkib topgunga qadar shakllantiriladi;

– lizing mulkining hisobi va amortizatsiyasi lizing oluvchi tomonidan amalga oshiriladi. Lizing muddati, odatda, lizing predmetining amortizatsiya davriga mos keladi, lekin lizing shartnomasi muddati, odatda, undan uzun bo'ladi. Lizing muddati qancha uzun va tegishlicha, mulkning qoldiq qiymati qancha kam bo'lsa, mulkdan foydalanish sharoiti va undan keyinchalik foydalanish erkin bo'ladi.

Lizing kompaniyalari uchun lizingning afzalligi quyidagilardan iborat:

– lizingga beriladigan mol-mulkka egalik huquqi muayyan soliq imtiyozlarini beradi. Soliqqa tortiladigan foydaning yuqori darajasi bilan kompaniyalar xuddi shunday mol-mulkni sotib olishga kredit bo'yicha foizlarga qaraganda lizing to'lovlarining juda past stavkasi orqali foydani soliqqa tortishning imtiyozli tizimi bilan soliq imtiyozlarining bir qismini lizing oluvchidan olib qo'ymaydi;

– modomiki, lizingga beriladigan mol-mulk lizing beruvchining egaligida qolar ekan, u uni noishlab chiqarish maqsadlarida (masalan, kredit mablag'lari qaytarilishining qo'shimcha ta'minoti sifatida) ishlatishi mumkin;

– sotuvchi lizing beruvchining nomidan mijozlarga lizing yordamida o'z mahsulotlarini yetkazib berishni moliyalashtirishni taqdim etadigan bitim tuzish yo'li bilan lizing beruvchi tarafidan lizing predmeti sotuvchisiga sotishda yordam berish;

– pul kreditidan farqli ravishda mol-mulk shaklidagi investitsiyalar mablag'larning qaytarilmaslik tavakkalchiligini pasaytiradi, chunki lizing beruvchi ularga bo'lgan mulk huquqini saqlab qoladi;

– lizing operatsiyalarini tayyorlash va o'tkazishda lizing beruvchi asosiy rol o'ynaydi. Ushbu xizmatlarning qiymati lizing beruvchi vositachilik haqining kattagina ulushini egallaydi;

– lizing beruvchi lizingga berilgan mol-mulkni garovga qo'yib yoki lizing to'lovlarini talab qilish huquqidan kechib, faoliyatni davom ettirish va kengaytirish uchun qo'shimcha moliyaviy resurslar topish imkoniyatiga ega bo'ladi;

– lizing moliyaviy resurslarni bevosita moddiy aktivlar sotib olishga yo'naltiradi, shu bilan birga kredit mablag'laridan maqsadga muvofiq foydalanish masalasini echadi;

– lizing vositasida ishlab chiqarish uskunasiga investitsiyalar lizing bo'yicha majburiyatlarni qoplovchi daromadning yuzaga kelishini kafolatlaydi.

Lizing mulkini sotuvchi uchun lizingning afzalligi quyidagilardan iborat:

– lizing obyektini sotuvchi o'z mahsulotlarini sotishda qo'shimcha imkoniyatlarga ega bo'ladi;

– sotuvchi uchun bitimning tavakkalchiligi kam bo'lib ko'rinadi, chunki lizing beruvchi lizing to'lovlari orqali mol-mulk qiymatining qaytarilish tavakkalchiligini o'ziga oladi.

12.6. Xalqaro moliyaviy lizingning iqtisodiyotni modernizatsiya qilishdagi o'rni

Xalqaro lizing lizingning alohida bir turi bo'lib, bunda tomonlarning hech bo'lmaganda birortasi (yoki hammasi turli mamlakatlardan) boshqa mamlakatga tegishli bo'ladi yoki tomonlarning biri xorijiy firma bilan qo'shma kapitalga egadir. Ayni vaqtda xalqaro lizing biznesi ichki lizingga nisbatan ancha kech rivojlangan. Xalqaro lizing operatsiyalarining rivojlanishiga quyidagi omillar ta'sir etgan: ko'pchilik mamlakatlarda kredit olish shartlarining og'irligi, banklar tomonidan foiz stavkalarini oshirishlari, lokal moliyaviy inqirozlar, ba'zi mamlakatlar soliq tizimining beqarorligi va boshqalar. Shuningdek, xalqaro lizing munosabatlarini yo'lga qo'yish va rivojlantirish butun iqtisodiyot uchun muhim ahamiyat kasb etadi: lizing bo'yicha import qilingan xorijiy asosiy vositalar qiymati mamlakat tashqi balansida aks ettirilmaydi va bu holat lizing oluvchi mamlakatning moliyaviy holatini baholashda ijobiy ahamiyat kasb etadi; mamlakatga eng ilg'or texnologiyalarning kirib kelishi rivojlanadi.

Jahonda xalqaro lizing operatsiyalari keng ko'lamda rivojlangan bo'lsa-da, mamlakatimizda uning rivojlanishi mustaqillikdan so'ng keng tus ola boshladi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi moliya bozorida xorijiy kapital ishtirokida bir necha yirik qo'shma lizing kompaniyalari faoliyat yuritmoqda.

Xalqaro lizing shakllarini tahlil qilishda uning bevosita (to'g'ridan to'g'ri) va bilvosita (egri) lizing turlarini ajratishimiz

mumkin. Bevosita lizingda lizing beruvchi bo'lib bevosita mulk egasining o'zi bitimning amalga oshirilishida ishtirok etishi shart. Bilvosita lizingda ijaraga berilayotgan mulk egasi – uchinchi tomonning ishtirok etishi shartdir.

Xalqaro lizingni kreditlash usuli bo'yicha muddatli va qayta tiklanuvchi lizinglarga ajratish mumkin. Muddatli lizingda ijara bir marotaba amalga oshiriladi. Qayta tiklanadigan lizingda lizing shartnomasi bitimning birinchi muddati tugashi bilan qayta tiklanadi. Shuningdek, xalqaro lizingni operatsion va moliyaviy lizinglarga bo'lish mumkin. Operatsion lizingda korxonalar asbob-uskunaga mulk huquqini olmasdan turib, undan foydalanish uchun shartnoma tuzadilar. Moliyaviy lizing deb, asbob-uskunani ijaraga olayotgan firma keyinchalik uni qoldiq qiymatda to'la sotib olishiga aytiladi. Bunga misol qilib, samolyotlarni lizingga berishni ko'rsatish mumkin. Odatda, lizingga berishni aviakompaniya taklif etadi. O'z navbatida, u takliflarini bir qancha lizing kompaniyalari va banklarga tanishish hamda ma'lumot uchun yuboradi. Keyin ular o'zlarini kreditlash shartlarini va o'zlariga mos variantlarini matbuotda keng miqyosda e'lon qiladilar. Bank (bir o'zi yoki konsorsiumdagi boshqa banklar bilan hamkorlikda) lizing bo'yicha maxsus kompaniyani tashkil etadi. Lizing kompaniyasi foydasiga samolyotni sotish shartnomasini tuzish huquqi beriladi va u huquqiy jihatdan mulkning egasi bo'lib hisoblanadi. Kompaniya faqatgina ma'lum operatsiyani amalga oshirish davri uchun tashkil qilinadi va odatda, operatsiya tugagandan so'ng uning faoliyati tugatiladi. Masalan, Fransiya davlatida samolyotlarni lizingga berish sohasida bir qancha o'nlab maxsus kompaniyalar faoliyat yuritadilar. Aviakompaniya ixtisoslashgan kompaniyaning foydasi uchun samolyotni sotib olish huquqini beradi. Bu huquq shartlari aviakompaniya bilan samolyot yetkazib beruvchi o'rtasida oldindan kelishiladi va samolyotni sug'urtalash o'z hisobiga amalga oshiriladi. Bank tomonidan kreditlashning asosiy shartidan biri bo'lib, bankka sug'urtalash sertifikatini takdim qilish hisoblanadi.

Xalqaro lizing operatsiyalaridan jahon amaliyotida harakatlanuvchi mulk lizingi keng tarqalgan. U o'ziga juda ko'p obyektlarni biriktirgandir. Ularning asosiy guruhlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

– transport vositalari (yuk tashuvchi avtomobillar, yengil avtomobillar, samolyotlar, kemalar va shu kabi transport vositalari);

– televizion va masofaviy texnik-elektron aloqalar vositalari;

– stanoklar;

– qurilish texnikasi;

– kompyuterlar va ma'lumotlarni qayta ishlash vositalari;

– sanoat, ya'ni ishlab chiqarish asbob-uskunalari, mexanizmlar;

– litsenziya, nou-xau, kompyuter dasturlari va shu kabilar.

Xalqaro amaliyotda xalqaro lizing shartnomalarining quyidagi shakllari ishlab chiqildi.

1. Andozali lizing. Lizingning bu shaklida asbob-uskunani ishlab chiqargan shaxs uni lizing kompaniyasiga o'zi mustaqil tarzda sotadi. Lizing kompaniyasi asbob-uskunani iste'molchiga ijaraga beradi. Asbob-uskunani ishlab chiqaruvchi va uni lizingga oluvchi o'rtasidagi lizing shartnomasi bo'yicha huquqiy munosabatlar o'rnatilmaydi. Bu yerda asbob-uskunaga texnik xizmat ko'rsatish masalasi to'liq hal etilmagan. Bu holda asbob-uskunani ishlab chiqargan shaxs bilan lizing oluvchi o'ziga xizmat ko'rsatish uchun alohida bitim tuzishi lozim. Bunga asosiy sabab, lizing kompaniyasi texnik xizmat ko'rsatish masalalariga aralashmaydi.

2. Sof lizing. Bunda asbob-uskunalardan foydalanish bilan bog'liq asosiy majburiyatlar lizing oluvchi bo'yniga tushadi. U soliqlar va har xil yig'imlarni, to'lovlarni hamda asbob-uskunalardan foydalanish bilan bog'liq barcha xarajat va sug'urta to'lovlarini to'laydi. Lizing oluvchi asbob-uskunani ishga soz holatda saqlashi lozim. Shu bilan birga, u ijara muddati tugaganda, lizing beruvchiga asbob-uskunaning o'rtacha eskirishini hisobga olib, yaxshi holatda qaytarishi shartdir. Lizing beruvchi lizing oluvchi olgan mulkdan foydalanishi bilan bog'liq harakatlarga javob bermaydi. Lekin, u asbob-uskuna ishlatilayotgan mamlakatdagi hukumat va boshqa tashkilotlar tomonidan bo'lishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlar uchun javobgardir.

3. Qaytariluvchi lizing – «liz-bek». Tijorat nuqtayi nazaridan lizingning bu shakli firma mablag'larga kuchli ehtiyoj sezganda qo'llaniladi. Uning asosiy xususiyati bo'lib, firmaning moliyaviy holatini yaxshilashga samarali vosita sifatida namoyon bo'lishidir.

Bu operatsiyaning mazmuni shundan iboratki, asbob-uskunaning egasi asbob-uskunani lizing kompaniyasiga sotadi va so'ngra undan shu asbob-uskunani ijaraga oladi, ya'ni asbob-uskunani sotgan shaxs lizing oluvchiga aylanadi. Bunday operatsiyalar, asosan, muomalada oldin ham bo'lgan asbob-uskunalarga nisbatan qo'llanilishi qayd etiladi.

4. Yaxlit lizing. Bu lizingning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lib lizing oluvchi uchun lizing beruvchi tomonidan qo'shimcha xizmatlarning taklif etilishi hisoblanadi. Lizingning bu shakli qimmat. Chunki lizing beruvchi asbob-uskunani yetkazib berish bilan birga ta'mirlash, sug'urtalash, ba'zi vaqtlarda ishlab chiqarishni boshqarish yoki yoqilg'i bilan ta'minlash kabi ishlarni ham amalga oshiradi. Odatda, lizingning bu turi yangi asbob-uskunalarni, xususan, kompyuterlar, samolyotlar va boshqa murakkab mashina hamda mexanizmlarga nisbatan qo'llaniladi.

5. To'la xizmatli lizing. Bu lizing yaxlit lizingga o'xshab ketadi, biroq, shartnomada bir qancha ko'shimcha xizmatlar ko'rsatishi ko'rib chiqiladi. Masalan, lizing beruvchi asbob-uskunani sotib olish masalalarini tadqiq qiladi. Bu asbob-uskunani ishlatish uchun zarur bo'lgan xomashyo, materiallar bilan ta'minlaydi. Shu bilan birga, asbob-uskunadan foydalanish uchun malakali mutaxassislar yollab beradi va boshqa bir qator xizmatlarni ko'rsatadi.

6. Asbob-uskunaning qoldiq qiymati lizingi. Lizingning bu shakli oldindan foydalanilgan asbob-uskunalarning ijarasi bilan bog'liq va u dilerlar (savdo agentlari) tomonidan keng foydalaniladi. Lizingning mazkur turi, odatda, 1 yildan 3-4 yilgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga oladi.

7. Mol yetkazib beruvchiga lizing. Bu ijara shakli «liz-bek» lizingi shakliga o'xshaydi. Asbob-uskunani yetkazib beruvchi ikki yoqlama vazifani bajaradi, ya'ni u asbob-uskunadan foydalanuvchi bo'lmasa ham asbob-uskunaning sotuvchisi va ijaraga oluvchisi bo'lib hisoblanadi. Ijaraga oluvchi, albatta, sub ijarachini topishi va asbob-uskunani sub ijaraga topshirishi kerakdir. Buning uchun ijaraga beruvchining roziligi shart bo'lmasa-da, asbob-uskunani sub ijaraga topshirish shart bo'lib hisoblanadi.

8. Qayta tiklanuvchi lizing. Lizing operatsiyasining bu shaklida lizingga berilgan asbob-uskuna vaqti-vaqti bilan yangi

takomillashgan asbob-uskunaga almashtirib turilishi lozim. Bu model asosan, EHMlar lizingida keng tarqalgandir. Chunki undagi investitsiya jarayoni (bozorda yangi, takomillashgan turlarining ko'payish davri, vaqti, muddati) juda qisqa sanaladi.

9. Vendor lizing (tayyorlovchilar yoki ishlab-chiqaruvchilar kooperatsiyasi). Bu yerda lizing kompaniyasi bo'lib bank yoki lizing kompaniyasi bilan birga asbob-uskunani ishlab chiqargan firma ham qatnashishi mumkin. Bu model, qoida bo'yicha bozorda juda qimmat bahodagi asbob-uskunani olib chiqishda foydalaniladi. Bunda ishlab chiqaruvchi (tayyorlovchilar) o'zlariga mijozni qidirish va lizing obyektiga xizmat ko'rsatish majburiyatini oladilar, lizing kompaniyasi loyihani ishlab chiqish, ma'muriy masalalarni hal qilish, maslahat berish xizmatlari kabi operatsiyalarni amalga oshiradi.

Xalqaro lizing xizmatlarining jahon bozori — ikkinchi jahon urushi davridan keyin quyidagi omillarni hisobga olgan holda shakllanishi va rivojlanishi boshlandi: likvid mablag'lar hajmining to'liq yetishmasligi; investitsiyani optimallashtirishni talab qiluvchi raqobatning kuchayishi; ishlab chiqarish kengaytirilishi uchun korxonalarda yetarli mablag'lar ajratilishida uning foydasining chegaralanganligi; iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, xususan, investitsiya o'sishiga shart-sharoit yaratilishi uchun hukumat va moliyaviy organlar tomonidan lizing operatsiyalari rivojlanishiga hukumat organlarining ko'maklashishi.

Hozirda jahon bozorida xalqaro lizing operatsiyalariga talab juda katta. Chunki lizing bitimida ishtirok etayotgan tomonlar o'zi uchun ustunlikka yoki yanada to'g'rirog'i, afzalliklarga ega. Lizing oluvchi tomon uchun afzalliklarni quyidagicha ifodalash mumkin:

— lizing ishlab chiqarishni amalga oshirish, uning hajmi ko'payishini ta'minlaydigan asbob-uskunaga egalik qilish uchun kapital to'lovini amalga oshirish yoki kapital qo'yilmaning muzlashishi kabi holatlardan ozoddir;

— ijaraga olinayotgan mulkning zarar ko'rish yoki yo'qolish riski uning egasida, ya'ni lizing beruvchida bo'ladi;

— asbob-uskunani ta'mirlash va unga xizmat ko'rsatish uning egasi tomonidan amalga oshiriladi. Gap bu yerda murakkab

asbob-uskuna haqida borayapti va shubhasiz, ijrochi o'zi unga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega emasdir;

– lizing asbob-uskunani almashtirish va zamonaviylashtirishni osonlashtiradi, shuningdek, ijarachiga zamonaviy asbob-uskunadan foydalanish imkoniyatini beradi;

– to'lovlar bir vaqtda amalga oshirilmaydi, balki kelishilgan muddatlarda qismlarga bo'lib to'lanadi;

– lizing – soliqqa tortilish nuqtayi nazaridan juda ham samaralidir (ya'ni soliq bo'yicha bir qator imtiyozlarga ega);

– lizing moliya-kredit operatsiyasi sifatida sotib oluvchiga kreditdan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Xususan, kredit muassasalaridan kredit olish imkoniyati bo'lmaganda uning ahamiyati ortadi;

– lizingda ijara to'lovi, asbob-uskuna korxonaga o'rnatilganidan va ma'lum miqdorda ishlab chiqarishga erishilganidan keyin amalga oshirilishida namoyon bo'ladi.

Xalqaro lizing bozorining shakllanishi, unga yangi tarmoq va sohalarning qo'shilishi, shuningdek, xalqaro lizing munosabatlarida qatnashayotgan mamlakatlar sonining ortishi, jumladan, MDH va boshqa bozor iqtisodiyotiga o'tib borayotgan davlatlarning qo'shilishi munosabati bilan mazkur davlatlarning tashqi iqtisodiy faoliyatlaridagi ishtirokini muvofikdashtirishda lizing operatsiyalarini tartibga solish muammosini huquqiy jihatdan hal etish vazifasi turibdi. Mamlakat iqtisodiyotini tiklashda xalqaro lizingning o'rni va ahamiyatini oshirish bilan birga, lizing biznesini milliy darajada ham nazariy, ham amaliy jihatdan boyitish zarurati yuzaga kelmoqda.

1998-yilning may oyida Kanadaning Ottava shahrida «Xalqaro moliyaviy lizing to'g'risida»gi Konvensiya qabul qilindi. Konvensiyadan ko'zlangan asosiy maqsad – moliyaviy lizing bo'yicha asosiy terminologiyani aniqlash va umumlashtirish hamda lizing bitimida ishtirok etadigan hamma tomonlarning o'zaro munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solishdan iborat edi. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, Konvensiyaning asosiy qismi – lizing munosabatlarining turkumlanishi va tavsifining asosiy jihatlari yoritib berildi.

Konvensiyada lizing bo'yicha quyidagi tamoyillar aks ettirilgan:

— kelajakda lizing oluvchi o‘ziga asbob-uskunani yetkazib beruvchini mustaqil ravishda tanlaydi;

— lizing kompaniyasida asbob-uskunani sotib olish, ya’ni lizing obyektining oldi-sotdisi amalga oshirilishida asbob-uskunani yetkazib beruvchi tomonga uskunaning keyinchalik ijaraga berish uchun olinayotganligi maqsadida ekanligi bildiriladi;

— lizing bo‘yicha to‘lovlarning hisob-kitobi — amortizatsiyaning qabul qilingan shartlari asosida amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, yuqorida qayd qilingan Konvensiya uch tomon ishtirok etishini ko‘zda tutuvchi klassik lizingdan kelib chiqib, bitimlarni aniqlaydi va tartibga soladi. Mazkur Konvensiya «qaytariladigan lizing» deb nom olgan ikki tomonlama o‘rnatilgan lizing bitimlarini o‘z ichiga olmaydi. Shuningdek, shaxsiy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan lizing ham mazkur Konvensiya tomonidan tartibga solinmaydi.

Konvensiyadagi asosiy masala — lizing beruvchi, lizing oluvchi va asbob-uskunalarni yetkazib beruvchilarning mulkiy javobgarliklarining hissasiga qaratilgan. Lizing oluvchining mulkiy huquqlarining himoyasi uni vaqtincha foydalanishga olingan mulkning egasi ekanligidan kelib chiqiladi. Qabul qilingan Konvensiyada lizing beruvchining lizing oluvchi oldidagi javobgarlik hissasi lizing beruvchi tomondan lizing oluvchiga asbob-uskunani yetkazib beruvchini tanlashda aralashishi yoki lizing obyektining alohida ixtisoslashuvi bilan chegaralangan. Konvensiyaning shu qismi bilan bir qator davlatlarning huquqiy amaliyotlari mos kelmaydi. Mazkur qarama-qarshilikni bartaraf etish maqsadida Konvensiya javobgarlik masalalarini milliy xususiyatlardan kelib chiqib muvofiqlashtirishga ruxsat beradi.

Konvensiya, lizing oluvchining boshqa tomondan mulkiy huquqini himoya qilish bilan birga, agarda mulkdan foydalanuvchidan tashqari, boshqa bir uchinchi shaxs ko‘proq foyda olsa, bu holda to‘liq javobgarlik mulkning egasiga o‘tishini ko‘rsatadi. Agarda bu holat foydalanuvchining harakati natijasida yuzaga kelsa, u holda inobatga olinmaydi.

Xalqaro lizing operatsiyalarining amalga oshirilishida tuziladigan bitim yoki shartnomalarda an’anaviy xalqaro kredit operatsiyalari yoki tashqi savdo shartnomalaridagi oldi-sotdilarga

nisbatan bitimda qatnashayotgan tomonlarning soniga taalluqli holatda ularga nisbatan sezilarli darajada ko'pgina o'ziga xoslik va turli-tuman shart-sharoitlar yuzaga keladi. Xalqaro lizing bitimlarida o'ziga xos xususiyat bo'lib andozalashtirish emas, balki alohidalik xarakterliligi hisoblanadi. Lizing sohasi bo'yicha mutaxassis bitta shaxsning o'zida yaxshi huquqshunosni, moliyachini, buxgalterni, ishbilarmon-tadbirkorni hamda asbob-uskuna turlari bo'yicha ma'lum darajada bilimga ega bo'lgan mutaxassislarni jamlashi kerak.

Xalqaro lizing bitimining tarkibi beshta asosiy bo'g'indan iborat:

– lizing beruvchi, lizing oluvchi va mol yetkazib beruvchi davlatlarning qonunchiligidagi huquqiy bilimlarni, xususan, fuqarolik huquqini hamda tijorat va soliq siyosati;

– harakatlarni hisobga olgan holda qo'yilmalar qiymatini hisoblash va ehtimoli kuchli risklarni aniqlash, asosiy moliyalashtirish sharoitlari doirasida moliyaviy tahlil etish;

– lizing obyekti sifatida qatnashayotganda bozorning joriy konyunkturasi va asbob-uskuna narxini tashkil qilish mexanizmini o'rganish;

– lizing operatsiyalari bo'yicha buxgalterlik hisob va hisobotlari doirasidagi bilim va amortizatsiya siyosatini tahlil etish;

– lizing loyihasini texnik ekspertiza qilish uchun qanday mutaxassislar jalb qilish kerakligini, asbob-uskuna ishlab chiqargan korxona bilan suhbat o'tkazish va undan asbob-uskunadan texnik jihatdan foydalanishning kafolatini olish hamda lizing davri bo'yicha asbob-uskunadan foydalanilishi ustidan davomli nazoratni amalga oshirish va shu kabilar.

Xalqaro lizing operatsiyasini amalga oshirishda lizing kompaniyasi ko'pgina tashkiliy ishlarni amalga oshirishi lozim. Xususan, lizing kompaniyasi samarali faoliyat yuritishi uchun lizing operatsiyalarini keng reklama qilishi va lizing oluvchiga uning yutuqlarini va foydaliligini ko'rsata olishi, to'g'rirog'i, ishontirishi lozim.

Xalqaro lizing bo'yicha investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish jarayonida ma'lum turdagi asbob-uskunalarga bo'layotgan talab va taklifni, bozor infratuzilmasini va uning asosiy an'analarini tahlil qilish lozim. Shuningdek, bozordagi asbob-

uskunaga bo‘layotgan talabning yoki narxlarning tebranishiga, lizing xizmatiga tegishli boshqa tariflar va baholar (ta’mirlash ishlari, texnik xizmat)ni, transport tariflarini, elektr-energiya va shu kabi omillarni hisobga olish lozim. Lizing kompaniyalari o‘z faoliyatini aniq bir tarmoqga ixtisoslashtirishga intiladilar (masalan, qurilish, transport, sanoatning ma’lum turlari, qishloq xo‘jaligi sanoati, savdo va shu kabilar).

«Xalqaro moliyaviy lizing to’grisida»gi Konventsiyasiga muvofiq lizing bilan bog’liq mulkni sug’urtalash shartnomasida quyidagilar sug’urtalanadi: yo’qotishlar, etishmovchilik yoki ma’lum bir mulkning zararlanish riski; hayotga, sog’liqqa yoki boshqa shaxslar mulkiga zarar etkazish oqibatlari riski; tadbirkorlik faoliyatida o’z majburiyatlarining kontragentlar tomonidan buzilishi oqibatida ko’riladigan zararlar riski yoki bu faoliyatning shartlari tadbirkorga tegishli bo’lmagan holatda ham o’zgarishi. Shu bilan birga, kutilayotgan daromadlarni ololmay qolish riski ham sug’urtalanadi.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, xalqaro lizing iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda muhim o‘rin egallab, asosiy ishlab chiqarish vositalarini yangilash va zamonaviylashtirish imkonini beradi. Bunda u bo‘yicha investitsiya loyihalari tahlili xalqaro lizing operatsiyalaridan foydalanishning samaradorligini oshirishda juda katta ahamiyat kasb etadi.

12.7. Lizing to‘lovlari summasini aniqlash. Lizing munosabatlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibi

Xorij iqtisodiy adabiyotlarida [1] lizing to‘lovi hisob-kitobiga yondashish o‘zining uslubiy tavsifiga ko‘ra xilma-xil bo‘lib, bular mohiyatan bir-biridan o‘z mazmuni va umumiy lizing to‘lovining har bir unsurini belgilash usullariga ko‘ra farqlanadi. Masalan, lizing to‘g‘risidagi Rossiya qonunchiligida[2] lizing to‘lovini belgilash usulida lizing to‘lovi tarkibiga lizing shartnomasi xizmati bo‘yicha lizing beruvchi to‘laydigan qo‘shilgan qiymat solig‘i ham hisobga olinadi. Bu soliq miqdori amortizatsiya ajratmasi, kredit

[1] Чекмарева Е. Лизинговый бизнес. М.: «Экономика», 1993.; Прилуцкий Л. Лизинг. Правовые основы лизинговой деятельности в Российский Федерации. М.: «Ось-89», 1996.

[2] Васильев Н. М., Катырин С. Н., Леже Л. Н. Лизинг как механизм развития инвестиций и предпринимательства. М.: «ДеКА», 1999. С. 212.

resurslari uchun to'lov, lizing beruvchi komission mukofoti, lizing shartnomasida ko'zda tutilgan lizing beruvchining qo'shimcha xizmati to'lovi kabi lizing stavkasiga qo'shiladigan shunday to'lovlar umumiy miqdoridan hisoblab chiqariladi.

O'zbekiston Respublikasining «Lizing to'g'risida»gi qonunida quyidagilar lizing to'lovi tarkibiga kiritilgan [1]: lizing obyekti amortizatsiyasining tegishli qismining qiymati; lizing bitimi bo'yicha lizing beruvchining chiqimlari; lizing beruvchi daromadi (marjasi). Ya'ni lizing to'lovlari lizing beruvchining lizing obyektini olish uchun qilgan xarajatlarining hammasi yoki ko'p qismi, shuningdek, lizing obyektini yetkazib berish va belgilangan maqsadda foydalanish uchun uni yaroqli holga keltirish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari lizing oluvchi tomonidan qoplanishidan hamda lizing beruvchining daromadidan iborat bo'ladi.

Lizing to'lovlari shartnomaning butun amal qilish muddatiga taqsimlanadi va bo'lib-bo'lib to'lanadi. Lizing to'lovlarining miqdorlari va davriyligi lizing shartnomasi bilan belgilanadi.

Yuqorida bayon etilganlar bilan bog'liq ravishda, lizing stavkasi (lizing to'lovi)ga qo'shiladigan unsurlar tarkibini aniqlash va lizing to'lovi unsurlarini hisoblash usulini takomillashtirish zarurati yuzaga chiqadi.

Lizing to'lovi tarkibiga quyidagi unsurlar kiritilishi lozim: lizing mulki amortizatsiyasi; lizing bitimini amalga oshirish uchun lizing oluvchi jalb etadigan kredit resurslari uchun to'lov; komission mukofot; risk mukofoti; lizing beruvchi lizing oluvchiga qo'shimcha xizmat ko'rsatganligi uchun to'lov; agar lizing beruvchi sug'urtalagan bo'lsa, lizing mulkini sug'urtalagani uchun to'lov.

Lizing to'lovlari lizing mulkini foydalanishdan keladigan foydadan amalga oshirilishini, ya'ni ijara to'lovi hisoblanishni hisobga olib, ular amalda soliqqa tortilishi kerak emas. Lizing bo'yicha to'lovlar qayd etilgan bo'ladi, chunki ular shartnomada belgilanadi va valuta kursi o'zgarib turishiga va o'rta muddatli hamda uzoq muddatli kreditlash bo'yicha bank foizlari o'zgarishiga bog'liq emas.

[1] O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 14 apreldagi «Lizing to'g'risida»gi qonuni. 22-modda.

Muqobillik bo'lgan holda, ya'ni ssuda yordamida lizing olish yoki uni lizingga olishdan birini tanlash imkoni bo'lganda lizing oluvchi yuqorida qayd etilgan usulning har biri bo'yicha qilinadigan sarflarni qiyoslashi lozim. Bunday paytda uslubiy ma'noda jiddiy muammo yuzaga keladi: bu qiyosni qanday amalga oshirish kerak; qachon to'lovlar miqdori bir xil bo'ladi, lekin bunda vaqt bo'yicha farqlanish bir xilda hisoblanmaydi. Bu murakkab masalani hal etishda, to'lovlarning moliyaviy muqobilligini hisobga olish zarur. Ayni bir vaqtga keltirilgan to'lovlar muqobil bo'lib, bir-biriga teng keladi. To'lovlarni vaqt bo'yicha yagona davrga keltirish jarayoni diskontlash deyiladi, buning natijasida olingan miqdor sof joriy qiymat, deb ataladi. Lizing mulkini olishning yuqorida keltirilgan ikki talqinini qiyoslash uchun quyidagilarni hisobga oluvchi to'lovning sof joriy qiymatini hisoblab chiqadi: har bir variantning soliq imtiyozi; amortizatsiya imtiyozidan foydalanish imkoni; texnika xizmati bo'yicha lizing beruvchi chiqimi; qoldiq qiymatga bo'lgan huquq.

Qarzning, bank ssudasi yoki lizing yordamida olinadigan mulkni olish variantining qiyosiy samarasi xususida bir qarorga kelishda sarflarni vaqt bo'yicha me'yorga keltirish (diskontlash foizi) alohida ahamiyat kasb etadi. Lizing samaraliligi moliyaviy ko'rsatkichi barcha soliqlar to'langandan keyingi pul mablag'i harakatlanishining tahlili yordamida baholanadi. Mazkur qiymatlarga turli mamlakatlardagi qonunchilik xususiyati, soliqqa tortish tizimi, foiz siyosati ta'sir etadi. AQSh bozorida, masalan, lizing iqtisodiy samarasini baholashda lizing bitimi umumiy qiymati, moliyaviy lizing stavkasi, foydaning kutilayotgan me'yori belgilanadi. Lizing yordamida sotib olish varianti bilan bank krediti hisobiga uskunalar sotib olishda shakllanadigan foyda me'yorini qiyoslash asosida u yoki bu variant foydasiga baholash amalga oshiriladi.

Lizing beruvchining lizing bitimi samarasini baholashi mulkka egalik qilish va undan foydalanish, shuningdek, risklar qiyosiy darajasini e'tiborga olib olinadigan pul mablag'i joriy qiymatidan soliq to'langandan so'ng lizingdan tushadigan pul mablag'i joriy qiymatini qiyoslashga asoslanadi. Lizing lizing oluvchi nuqtayi nazaridan katta moliya leverijini ta'minlaydi, ya'ni u soliq imtiyozlarini lizing mulkidan foydalanuvchidan kapital yetkazib

beruvchi zimmasiga o'tkazadi. Agar bu tomonlar turli soliq imtiyozlari sharoitida bo'lsa, bunda ular o'zlari o'rtasida tuziladigan lizing bitimini tuzish va amalga oshirish hisobiga oladilar.

Lizingning umumiy samarasiga lizing to'lovlarini to'lash usuli va davriyligi ham ta'sir etadi. Lizing to'lovlarini teng ulushlarda to'lash, ayniqsa, kamayib boruvchi miqdorlarda to'lash lizing beruvchi uchun qulay, oshib boruvchi miqdorlarda to'lash lizing oluvchi uchun qulay.

Sof joriy qiymat asosida lizing to'lovlari bo'lajak qiymatlariga keltirish yo'li bilan diskontlash asosida kutilayotgan natijalarni qiyoslash lizing yakuniy samarasini baholashda eng muhim hisoblanadi. Shu munosabat bilan lizing samaraliligini baholashda mulk (sotib olish, bank krediti, ijara) olishning turli variantlari bo'yicha investitsiya loyihalari ko'rsatkichlarining butun majmuyini ularni vaqt va qiymatning yagona davriga keltirish yo'li bilan qiyoslash lozim bo'ladi.

Turli mamlakatlarning lizing hisob-kitob tizimlari har xilligi bilan tavsiflanadi, bu kapital bozorining rivojlanish darajasi, sarmoyador va qarz beruvchilar miqdori, inflyatsiya darajasi, tashkilotlar o'lchamlari va turlicha tashkiliy-huquqiy tuzilmasi bilan izohlanadi.

Lizing muddati boshlanguniga qadar lizing oluvchi va lizing beruvchi lizing to'lovlari jadvalini (tartibini) kelishib oladilar. Unda lizing beruvchining daromadi summasi, lizing obyekti qiymatini qoplash va ularning lizing muddati davomida taqsimlab chiqilishi bo'yicha majburiyatlari ham aks ettiriladi.

Obyektning lizingga berilishi (olinishi) vaqtida lizing beruvchining daromadi va lizing oluvchining lizing foizlari bo'yicha xarajatlari buxgalteriya hisobida aks ettirilmaydi. Ular to'lov amalga oshirilgan vaqtdan va pullarning kelib tushish sanasidan qat'iy nazar lizing to'lovlari jadvali (tartibi)ga ko'ra tegishli hisobot davrlarida hisoblab yoziladi.

Lizing beruvchining daromadlari lizing shartnomasining amal qilish muddati davomida davrlar bo'yicha bo'linishi va lizing to'lovlari jadvalida (tartibida) lizing shartnomasining har bir davri uchun so'ndirilmagan majburiyatlarning qoldig'iga nisbatan doimiy daromadni belgilash maqsadida aks ettirilishi kerak.

Har bir davr uchun so‘ndirilmagan majburiyatlarning qoldig‘iga nisbatan doimiy foizlar stavkasini belgilash maqsadida lizing bo‘yicha foizlar shartnoma muddati davomida davrlar bo‘yicha bo‘linishi va lizing to‘lovlari jadvalida (tartibida) aks ettirilishi kerak.

Eng kam lizing to‘lovlari lizing oluvchi tomonidan to‘lanadigan lizing muddati mobaynidagi lizing to‘lovlari summasi va lizing obyektining kafolatlangan qoldiq qiymatidir. Agar lizing oluvchi lizing obyektini uning xarid qilinishi sanasida bo‘lgan joriy qiymatidan past bahoda sotib olish niyatida bo‘lsa, eng kam ijara to‘lovlari jami lizing muddatiga bo‘lgan lizing to‘lovlari va lizing shartnomasida nazarda tutilgan lizing obyektining sotib olish summasidan tashkil topadi.

Kafolatlangan qoldiq qiymat bu lizing oluvchi yoki u bilan bog‘liq uchinchi taraf tomonidan kafolatlanadigan (majburiyat bilan mustahkamlangan), lizing shartnomasining boshidayoq belgilab berilgan lizing obyekti qiymatining bir qismidir, kafolatlanmagan qoldiq qiymat – realizatsiya qilinishini lizing beruvchi kafolatlamaydigan yoki u faqat lizing beruvchi bilan bog‘liq taraf bilangina kafolatlangan lizing obyekti (lizing shartnomasi boshida belgilab berilgan) qiymatining bir qismidir.

Eng kam ijara to‘lovlarining diskontlangan qiymati – bu lizing shartnomasida nazarda tutilgan foiz stavkasiga yoki qarz kapitaliga bo‘lgan o‘sib boruvchi foiz stavkasiga teng bo‘lgan diskontlangan stavka bo‘yicha tuzatilgan, lizing muddatining boshiga bo‘lgan eng kam lizing to‘lovlarining joriy qiymati.

Lizing obyektining joriy qiymati - bu ma’lum bir sanaga bo‘lgan amaldagi bozor narxlari bo‘yicha lizing obyektining qiymati yoki mazkur lizing obyektining xarid qilinishi yoki bitimning xabardor qilingan, bunday bitimni sodir etishni xohlovchi, bir-biriga aloqador bo‘lmagan taraflar o‘rtasida sodir etilishi hollarida majburiyatlarning bajarilishi uchun yetarli bo‘lgan summa.

Eng kam lizing to‘lovlarining diskontlangan qiymatini hisob-kitob qilish chog‘ida diskontlanadigan omil bo‘lib, agar uni aniqlash imkoniyati mavjud bo‘lsa, lizing shartnomasida nazarda tutilgan foiz stavkasi hisoblanadi. Aks holda, lizing oluvchining

qarz kapitaliga bo'lgan o'sib boruvchi foiz stavkasidan foydalaniladi.

Lizing shartnomasida nazarda tutilgan foiz stavkasi – bu lizing muddatining boshida eng kam lizing to'lovlari va kafolatlanmagan qoldiq qiymat summasining lizing obyekti joriy qiymati bilan diskontlangan qiymat tengligini ta'minlab beradigan diskont stavkasi.

Qarz kapitaliga bo'lgan o'sib boruvchi foiz stavkasi – bu lizing oluvchining mana shunday lizing shartnomasi bo'yicha to'lashga to'g'ri keladigan foiz stavkasi yoki (agar bu ko'rsatkichni aniqlashning imkoni bo'lmasa), lizing oluvchi mol-mulkni sotib olish uchun zarur mablag'larning qarzga olishi (xuddi mana shunday muddatga va shu kabi ta'minotga ega) hollarida qabul qilinishi mumkin bo'lgan lizing muddati boshiga bo'lgan stavka yoki bundaylarni aniqlashning imkoni bo'lmaganda lizing muddati boshiga bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy qayta moliyalash stavkasi.

Lizing to'lovlari shartlari. Mulkdan foydalanish va uni qaytarish. Aytaylik, R qiymatga ega bo'lgan uskuna n yilga ijaraga berilyapti. Uning qoldiq qiymati (ijara muddati oxirida) Sni tashkil etadi. Ijara to'lovlari oqimi vaqt omilini hisobga olgan holda eskirish qiymatiga teng bo'lishi lozim. Ijara to'lovi yilda bir marotaba yilning oxirida to'lanadigan bo'lsa, uskunalarga safarbar etilgan mablag'larni belgilangan me'yorda ta'minlovchi bir marotabali ijara to'lovi quyidagi formula asosida aniqlanadi.

$$R = \frac{P - Sv^n}{a_{n;i}} \qquad (12.4)$$

Bu yerda: **R** – yillik ijara to'lovi; $a_{n;i}$ – yillik doimiy daromadni taqqoslash uchun keltiriladigan koeffitsiyent (belgilangan vaqtdagi bo'lajak daromadning bugungi qiymatini aniqlash koeffitsiyenti); **V** – ko'paytiruvchi diskont.

Bunda ijara to'lovi uskuna qiymati, qabul qilingan daromadlilik me'yoriy va ijara muddatiga bog'liq bo'lyapti. Formulada ijara to'lovlari bir marotaba yil oxirida to'lanishi ko'zda tutilgan. Agarda to'lov shartlari boshqacha bo'lsa, unda boshqa koeffitsiyent qo'llaniladi. Formulada ijara to'lovi faqat

uskunani ijaraga topshirishda ko'zlangan daromad me'yori asosida kelib chiqadigan hajmni aniqlab beradi. Agarda ijara shartnomasida uskunaning uning egasi tomonidan ta'mirlanishi ko'zda tutilgan bo'lsa, unda ushbu xarajatlar ijara to'lovida inobatga olinadi.

Hisob-kitobda inobatga olinayotgan daromadlilik me'yori, albatta, uskunaning amortizatsiya me'yoridan yuqoriroq bo'lishi tabiiy holdir. Qabul qilingan daromadlilik me'yori (i) bilan amortizatsiya me'yori (a) farqi ijara operatsiyasining taxminiy real daromadligini ko'rsatadi.

Lizing operatsiyalarining asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Lizing loyihasiga oid shart-sharoitlarni o'rganish: lizing loyihasini dastlabki o'rganish va lizing oluvchini kompaniyaning mavjud barcha shart-sharoitlari bilan tanishtirish, lizing oluvchining kreditga bardoshligi va moliyaviy ahvolini tahlil qilish, lizing loyihasini kompleks ekspertizadan o'tkazish.

2. Lizing to'lovlarini kafolatlash zarur bo'lgan holatda – garov shartnomasini tuzish, kafolat va kafillikka oid hujjatlarni rasmiylashtirish, lizing shartnomasi va zarurat tug'ilganda uskunani yetkazib beruvchi, lizing oluvchi va kompaniya o'rtasida bosh shartnomalar, lizing obyektini yetkazib berish xususida shartnomalar, sug'urta shartnomalarini tayyorlash, uskunani qabul qilib olish va uni foydalanish uchun topshirishga doir dalolatnomani imzolash bilan bog'liq bitimlarni yuridik jihatdan rasmiylashtirish.

3. Lizing to'lovlarini to'lashni nazorat qilish, monitoring o'tkazish, shuningdek, lizing obyektini lizing beruvchiga qaytarish yoki unga egalik qilish huquqini lizing oluvchi subyektga o'tkazish.

Respublika tijorat banklari bugungi kunda mamlakatda amalga oshirilayotgan lizing operatsiyalarining faol ishtirokchilaridir. Banklar tomonidan amalga oshirilayotgan lizing amaliyotlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1999-yil 20 iyulda 776-son bilan davlat ruyxatiga olingan «O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan moliyaviy lizing o'tkazish tartibi to'g'risida»gi nizom talablari asosida tartibga solinmoqda.

Respublikada birinchi lizing operatsiyasi 1993-yilda TIFMB tomonidan «O'zbekiston havo yo'llari»ga xorij kompaniyalaridan lizing orqali samolyotlar xarid qilish bo'yicha amalga oshirilgan. Bugungi kunda mazkur bankning lizing operatsiyalari summasi 600 mln AQSh dollaridan oshib ketdi. Milliy bank bilan birgalikda hozir yana 15 ta tijorat banki shunday samarali moliya operatsiyalarini amalga oshirmoqda. Shu bilan birga, tijorat banklari bevosita o'z mijozlariga lizing xizmatlari ko'rsatish bilan bir qatorda, lizing kompaniyalari faoliyatlarini kreditlash bilan ham shug'ullanishmoqda.

Tijorat banklari tomonidan amalga oshirilgan lizing operatsiyalarining o'sishiga 2002-yil 28 avgustda «Lizing faoliyatlarini rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni ta'sir ko'rsatdi. Prezident farmoni lizing xizmatlarini amalga oshirishni bank krediti bo'yicha belgilangan soliqqa tortish sharoitlari bilan tenglashtirib berdi. Bunday holat, o'z navbatida, tijorat banklari uchun lizing operatsiyalar bo'yicha olinadigan daromadlarni ko'paytirish imkoniyatini ochib berdi.

Lizing kompaniyalar, asosan, o'zining resurslari va ta'sischilar kreditlari hisobidan operatsiyalarini amalga oshiradilar.

Boshqa mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, O'zbekiston banklari ham lizing sohasining rivojlanishi natijasida berilgan imtiyozlardan foydalanish va arzon resursga ega bo'lish maqsadida lizing bozoriga kirib kelmoqdalar.

O'tgan yillar davomida lizingga berilgan mulklar ichida asosiy o'rinlarni qishloq xo'jaligi texnikasi va yo'lovchi tashish transporti egalladi. Bu rivojlanib borayotgan respublikamiz uchun eng asosiylari bo'lmish qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish va aholiga xizmat ko'rsatish sohalari uchun lizingning o'rni naqadar beqiyosligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, lizing davlatlar uchun eng asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan bo'lmish aholi bandligi masalasini echishda ham eng ishonarli va qulay vosita ekanligini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasidagi qonunchilik hujjatlari bilan idoraviy me'yoriy hujjatlar o'rtasidagi mutanosiblik tijorat banklari tomonidan bajariladigan lizing operatsiyalari hisobining muvofiqliligiga, tijorat

banklari mablag'laridan to'g'ri foydalanishga, mamlakatning bozor iqtisodiyotiga o'tishi jarayonida tadbirkorlik subyektlarini yanada rag'batlantirish va shu yo'l bilan ishlab chiqarish ko'lamining kengayishiga olib keladi.

Nazorat uchun savollar

- Lizingning iqtisodiy tabiati, mazmuni va mohiyatini ifodalab bera olasizmi?
- O'zbekiston Respublikasining «Lizing to'grisida»gi Qonuniga ko'ra lizing tushunchasiga qanday ta'rif berilgan?
- Iqtisodchi-olimlar tomonidan lizingning mazmun-mohiyatiga qanday ta'rif berilgan va unga munosabatingizni bildira olasizmi?
- Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda lizingning qanday zarurligi va afzalliklari mavjud?
- Lizing funktsiyalarini va turlarini bilasizmi?
- Lizing obyekti nimalar bo'lishi mumkin?
- Lizing oluvchi uchun lizingning afzalliklarini bilasizmi?
- Lizing kompaniyalari uchun lizingning qanday afzalligi bor?
- Lizing mulkini sotuvchi uchun lizingning afzalligi bilasizmi?
- Lizing shartnomasi qanday shartlardan biriga muvofiq bo'lishi kerak?
- Lizing mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga qanday ta'sir ko'rsatadi?
- O'zbekiston Respublikasida lizing munosabatlarining huquqiy asoslarini bilasizi?
- Lizing krediti bilan bank kreditining asosiy farq qiluvchi xususiyati nimada?
- Lizing krediti - asosiy kapitalga qaratilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbai to'grisida qanday fikr va pozitsiyaga egasiz?
- Xalqaro lizing deganda nimani tushunasiz?
- Lizing to'lovlari deganda nimani tushunasiz?
- O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatuvchi qanday lizing kompaniyalarini bilasiz?

XIII BOB. INVESTITSIYALARNI LOYIHAVIY MOLIYALASHTIRISH

13.1. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirishning mazmuni va mohiyati. Yirik investitsiya loyihalarini loyihaviy moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida ustuvor tarmoqlarda investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirishni rivojlantirishning zarurligini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

– birinchidan, investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish yirik obyektlar barpo etish bilan bog'liq katta xarajatlarni moliyalashtirishni ko'zda tutadi;

– ikkinchidan, loyihaviy moliyalashtirishda investitsiya resurslari birlashib, yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish va moliyalashtirishga safarbar etiladi;

– uchinchidan, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida yirik ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirish kompleks ekspertizaning yoki loyihaviy tahlilning tegishli tartibda amalga oshirilishini talab qiladi;

– to'rtinchidan, moliyalashtirishda risklarni ishtirokchilar o'rtasida taqsimlash orqali loyiha samaradorligini ta'minlaydi.

So'nggi yillarda loyihaviy moliyalashtirishning iqtisodiyot taraqqiyotidagi, uning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirishdagi roli nihoyatda dolzarbligidan kelib chiqib, mamlakatimizda loyihaviy moliyalashtirishni rivojlantirishning huquqiy va institutsional asoslarini takomillashtirish borasida talaygina ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2005-yil 15 apreldagi «Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida: «tijorat banklarida investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish va investitsiya kreditlari ajratish bo'yicha kollegial qarorlar qabul qilish tartibini kuchaytirish, banklarning loyihalarni

investitsiyalash, investitsiya kreditlari berish va ularga xizmat ko'rsatish masalalari bilan shug'ullanuvchi tarkibiy bo'linmalarini yuqori malakali kadrlar bilan mustahkamlash hamda Bank-moliya akademiyasida loyihalarni moliyalash fakulteti va bank xodimlari malakasini oshirish kurslarini ochish» [1] kabi vazifalar belgilab berilgan edi. Shuningdek, ushbu qarorda bank tizimidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish va erkinlashtirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida, birinchidan, tijorat banklari barqarorligini mustahkamlash va oshirish, ikkinchidan, banklarni kapitallashtirish, ularning ustav jamg'armalari va aylanma mablag'larini ko'paytirish, kredit portfellarini sog'lomlashtirish va daromadini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'rish, uchinchidan, tijorat banklarini to'liq xususiylashtirish, bank va lizing xizmatlarining to'laqonli bozorini shakllantirish, xalqaro bank va moliya kapitalini keng ko'lamda jalb etgan holda qo'shma banklar tashkil qilish, to'rtinchidan, pul-kredit siyosati vositalarini, jumladan, loyihalarni moliyalashni yanada takomillashtirish, beshinchidan, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarda, investitsiya dasturlarini amalga oshirishda, birinchi galda, iqtisodiyotning real tarmoqlariga investitsiya kiritish uchun mablag'lar jalb etishda tijorat banklarining faol ishtirok etishi belgilab berildi.

Eng muhimi, tijorat banklariga xalqaro bank me'yorlariga muvofiq sinditsiyalashtirilgan kreditlarni amaliyotga keng tatbiq qilish, jumladan, xorijiy bank kapitalini jalb etish yo'li bilan investitsiya dasturlarini amalga oshirishda faol ishtirok etish tavsiya qilindi.

Albatta, bunday vazifalar va chora-tadbirlarning izchil ijrosining ta'minlanishi, o'z navbatida, loyihaviy moliyalashtirish xususiyatlarini va amaliyotini chuqur tadqiq etish talabini kun tartibiga qo'yadi. Ta'kidlash joizki, loyihaviy moliyalashtirish moliyalashtirishning eng taraqqiy etgan zamonaviy shakllaridandir. Shunday ekan, loyihaviy moliyalashtirishning mazmuni nimadan iborat, unga qanday ta'rif-tavsif berish mumkin? Bu xususda turlicha fikrlar mavjud. Masalan, Doyche bank (Germaniya)ning tarkibiy moliyalashtirish boshqarmasi xodimlarining fikricha: «loyihaviy moliyalashtirish – bu loyiha

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 15-apreldagi «Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 56-sonli qarori.

bo'yicha asosiy vositalarni sotib olish, tashkil etish yoki qurilishni moliyalashtirish bo'lib, unda kreditor, asosan, quyidagilarga e'tibor beradi:

– kreditni qaytarish manbasi sifatida loyihani tatbiq etish natijasi bo'yicha olinadigan sof pul oqimiga (mablag'larning qaytish darajasiga);

– loyihani moliyalashtirish uchun berilgan kreditning xavfsiz qaytishini ta'minlaydigan manbasiga, ya'ni mijozning qobiliyatiga – garov, kafolat va boshqa ta'minotlarga».

Loyihaviy moliyalashtirish – bu investitsiya loyihalarini kreditlashning bir turi bo'lib, kreditor bu loyihani amalga oshirish bilan bog'liq risklarni qisman yoki to'liq o'z zimmasiga oladi. Agar banklarning oddiy kredit operatsiyalarida, eng avvalo, qarzdorning kreditga qobiliyatliligini o'rganishga, uning moliyaviy va iqtisodiy holatini, shuningdek, garov sifatida foydalanadigan mol-mulklarini baholashga asosiy ahamiyat berilsa, loyihaviy moliyalashtirishda loyihaviy tahlilga e'tibor qaratiladi. Loyihaviy tahlilning obyekti loyihaviy hujjatlar, ya'ni investitsiya loyihasining TIAsi hisoblanadi va u loyihaning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini, loyiha bo'yicha xarajatlarni aniqlash, moliyalashtirish manbalari va risklarni baholashdek o'z maqsadiga ega bo'ladi.

Prof. D.G'ozibekovning fikricha: «Loyihaviy moliyalashtirish o'zining murakkab moliyaviy munosabatlari bilan (sinditsiyalashtirilgan kredit yoki qarz berishda ko'p tomonlarning qatnashishi) kreditorga moddiy kafolatlar berish, loyihalar evaziga ishlab chiqariladigan mahsulotlarni xarid qilish bo'yicha uzoq muddatli kontraktlar asosida moliyalashtirishni amalga oshirish bilan loyihalarni moliyalashtirishdan tubdan farq qiladi» [1]. Loyihaviy moliyalashtirishda ishlab chiqariladigan mahsulotni oldindan belgilangan narxlarda (ularga o'zgarishlar kiritish sharti bilan), qarzlarni uzish bo'yicha risklarni ishtirokchilar o'rtasida taqsimlash va ancha pasaytirish bilan sotib olish ko'zda tutiladi. Bunday kontraktlar qarzning ishonchli ta'minotiga aylanadi.

Rossiyalik iqtisodchi olim D.Morozovning mulohazalariga ko'ra: «Loyihaviy moliyalashtirish – bu loyihani turli shakllarda

[1] G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: «Moliya», 2003. – B. 73.

kreditlash. Bunda kreditlarning qaytarilishi ta'minoti loyihadan keladigan daromadlardir»[1], degan fikrni ilgari suradi.

Loyihaviy moliyalashtirishning boshqa moliyalashtirish turlaridan asosiy farqi shundaki, bunda kreditni qaytarishning manbayi bo'lib, loyihani amalga oshirish natijasida olingan daromad (foyda) hisoblanadi. Tijorat yoki investitsiya kreditlarida kreditning qaytarish manbasi bo'lib, qarzdorning umumiy faoliyatidan olgan doromadi bo'lishi mumkin. Loyihani amalga oshirish orqali ko'rilgan qo'shimcha daromad kreditni qaytarishning asosiy manbayi bo'lib hisoblanadi. Agarda loyihani amalga oshirish orqali qo'shimcha daromad olinmasa yoki loyiha bo'yicha ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish orqali iqtisodga erishilmasa, bunday moliyalashtirishni loyihaviy moliyalashtirish, deb bo'lmaydi, u biznes-reja asosida amalga oshiriladigan moliyalashtirish hisoblanadi[2].

Odatda, loyihaviy moliyalashtirish deganda, bank tomonidan kreditlashning maxsus turi tushunilib, u quyidagi xususiyatlariga ko'ra ajralib turadi. Birinchidan, ajratilgan kredit nisbatan yirik (katta hajmdagi) asosiy vositalarni (asbob-uskunalar, yer uchastkalari, qurilish-montaj ishlari) sotib olishga beriladi. Ikkinchidan, loyiha mavjud bir muddatga hisob-kitob qilingan bo'lib, bu zaruriyat tug'ilganda loyiha tashkilotchilaridan alohida amalga oshish kuchiga ham ega. Uchinchidan, loyihadagi asosiy vositalar yoki ulardan foydalanish evaziga keladigan daromadlar kredit bo'yicha foizlar to'lanmaganda kreditor olib qo'yishi mumkin bo'lgan garov mulki sifatida xizmat qiladi.

Avvalambor, loyihaviy moliyalashtirishning asosi bo'lib mustaqil va maqsadlari aniq belgilangan loyihalar hisoblanadi. Loyiha natijasi bo'yicha olingan sof pul oqimining miqdori shunday belgilanishi lozimki, kelgusida ko'zda tutilmagan xarajatlarni ham hisobga olish imkoniyati bo'lsin. Loyiha ko'p sonli loyiha ishtirokchilarining talabi va manfaatlarini qondirishi zarur. Loyiha risklarini uning ishtirokchilari o'rtasida mos taqsimlash imkoniyati mavjud bo'lishini ko'zda tutishi zarur.

[1] Морозов Д.С. Проектное финансирование: управление рисками и страхование. М.: «Анкил», 1999. – С. 21.
[2] O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankining «Loyihaviy moliyalashtirishni tashkil etish tartibi to'g'risida»gi nizomi. 2000 yil 5 avgust.

Loyihaviy moliyalashtirishda yuqori darajali risklarning bo'lishini hisobga olgan holda kreditorlar risklarni samarali boshqarishni ta'minlashga harakat qiladi.

Loyihaviy moliyalashtirish orqali moliyalashtirilgan loyihalar, asosan, iqtisodiyotning quyidagi tarmoq va sektorlarida ishtirok etishi mumkin: telekommunikatsiya; transport; foydali qazilmalarni qazish; energetika; qayta ishlovchi va boshqa ayrim tarmoqlarda.

Loyihaviy moliyalashtirishda quyidagi ishlarni bajarish juda muhimdir, ya'ni loyihaviy moliyalashtirishning bosqichlari quyidagicha: texnik; tijorat; tashkiliy; iqtisodiy; huquqiy; moliyaviy; ekologik tahlil.

Loyihaning texnik tahlilida loyiha o'zining boshlang'ich smeta xarajatlariga mos holda amalga oshirilishi tahlil qilinadi. Loyihaviy moliyalashtirishda qarzdorlar tajribali ekspert-injenerlarning tavsiyasiga amal qiladi. Bunday ekspertlarning xulosasi texnik hisobot shaklida tavsiya etilishi va quyidagi holatlarni o'zida qamrab olishi mumkin:

– zarur investitsiya miqdorini;

– kelgusidagi zarur investitsiyalarni (ko'zda tutilmagan xarajatlarni va favqulodda zararlarni qo'shgan holda);

– loyihaning qaytimi uchun zarur vaqt. Zararsizlik (zarar ko'rmaslik) nuqtasi; elektr energiya, suv va boshqa xarajatlar qiymati;

– loyihada ishlash uchun xodimlarni o'qitish imkoniyati;

– loyiha mahsulotini sotish bozorining mavjudligi.

Loyihalarning iqtisodiy va moliyaviy tahlili jarayonida loyiha barcha olingan kreditlar bo'yicha o'z vaqtida hisob-kitoblar uchun yetarli foydaga ega bo'ladimi?, degan savolga javob olish zarurdir.

Pul oqimining tahlili loyihaning iqtisodiy samaradorligini aniqlash asosi bo'lib hisoblanadi. Pul oqimi o'z tarkibiga quyidagilarni qamrab oladi: loyiha egalarining aksiyadorlik kapitaliga dastlabki investitsiya qo'yilmalarini va kreditorlarning qarz mablag'larini; olingan foydani; sarf-xarajatlarni.

Kreditorlar loyihaning iqtisodiy sezgirligini jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan sof qoplash koeffitsiyenti (Coverage Ratio) va umumiy qoplash koeffitsiyenti (Annual Coverage Ratio) kabi ko'rsatkichlar orqali aniqlashlari mumkin.

Loyihaviy moliyalashtirishda xomiylar faoliyati, risklar va ularning taqsimlanishi tahlil etiladi. Bu bosqichda kreditorlar rahbarlarning faoliyati va ularning imidjini, loyiha ishtirokchilari uchun xatarlarning taqsimotini o'rganadi.

Loyihaviy moliyalashtirish o'zining loyihalash falsafasiga ega. Unda loyihani joylashtirish mamlakati, faoliyat sohasi, sektor, kompaniya, rivojlanish rejasi va boshqalar, loyihaning asosiy tavsiflari, investitsiyalar bayoni, xomashyo yetkazib berish, ya'ni ta'minotchilar ishtiroki, atrof-muhitga ta'siri, loyiha mahsuloti bozori va marketing (mijozlar ishtiroki) nazarda tutiladi. Shu bilan birga, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, loyihaviy moliyalashtirish loyihaviy tahlil o'tkazilishini, bu tahlilda boshqalar bilan bir qatorda sinditsiyalashtirilgan kreditlarni qaytarish tahlilini ham ko'zda tutadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2005-yil 16-iyuldagi 15/4-sonli qarori bilan tasdiqlangan 613-sonli yangi tahrirdagi «Tijorat banklari tomonidan yirik investitsiya loyihalarini sinditsiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirish tartibi to'g'risida»gi nizomda sinditsiyalashtirilgan kredit — bir necha banklar tomonidan yirik investitsiya loyihalarini birgalikda kreditlash tushunilib, bunda yirik investitsiya loyihasi — umumiy qiymati tijorat banklarining birinchi darajali kapitalining 25 foizidan oshadigan investitsiya loyihasi nazarda tutilgan. Bank sindikati sinditsiyalashtirilgan kredit berish borasida ikki yoki undan ortiq banklar o'rtasidagi o'zaro kelishuvdir. Bu kredit turi loyihani bir kreditor tomonidan moliyalashtirish uchun talab qilinadigan resurslar hajmini ta'minlashning iloji bo'lmaganida yoki kreditor uchun ehtimoli bo'lgan risk darajasi qabul qilinishi mumkin bo'lganidan bir necha marta ortib ketadigan bo'lsa, qo'llaniladi.

«Sindikatlashtirish» tushunchasi sindikatlashtirmoq, sindikat turib birlashtirmoq, sindikatga uyushtirmoq ma'nolarini anglatib, investitsiyalarni moliyalashtirish tizimida yirik investitsiya loyihalarini (qiymati 10 mln AQSh dollari va undan yuqori bo'lgan) birgalikda moliyalashtirishni tashkil etish usullaridan biridir. Bu kredit turining zaruriyati qiymati yuqori bo'lgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda risk darajasining yuqoriligi bitta bank tomonidan jami zarur bo'lgan summani moliyalashtirish imkoniyatini bermaydi. «Sindikatlashtirilgan kreditning o'ziga xos

xususiyati bir necha kreditorlarning mavjudligi, kredit summasi va risklarning ishtirokchi banklar o'rtasida taqsimlanishidadir»[1].

Investitsiya loyihalarining uzoq muddatli bank kreditlarini loyihaviy moliyalashtirishning ayrim holatlardagi kichik bir shakli sifatida qarash mumkin. Bunga quyidagi omillar sabab bo'ladi:

– birinchidan, tijorat banklarining nuqtayi nazaridan loyihaviy moliyalashtirish doirasidagi kredit operatsiyalari yuqori riskli operatsiya hisoblanadi. Loyihaviy moliyalashtirish tizimida bank qarzdorga regress huquqisiz kredit beradi. Kreditni qaytarish va foizini to'lash manbasi bo'lib, investitsiya loyihasini amalga oshirishdan oladigan daromad hisoblanadi. Tijorat banklari risklarni qabul qilganligi uchun mukofot tariqasida yuqori foiz oladi. Shu tariqa bank yuqori riskni sug'urta qiladi;

– ikkinchidan, loyihaviy moliyalashtirishda asosiy e'tibor investitsiya loyihalarida risklarni baholash va uni pasaytirishga qaratiladi. Bunda banklar o'zining xodimlari bilan va maslahatchilarni jalb etgan holda investitsiya loyihasining samaradorligini, pul oqimi dinamikasini, mahsulot sotish istiqbolini, loyiha risklarini baholaydi;

– uchinchidan, loyihani amalga oshirishda quyidagi ko'pgina ishtirokchilarning qatnashishi ko'zda tutiladi: loyiha tashabbuskori; loyiha kompaniyasi; maslahatchilar; pudratchilar; uskunani yetkazib beruvchilar; sug'urta kompaniyalari va kafolatchi banklar; kreditorlar va h.k. Loyihaviy moliyalashtirishda loyiha kompaniyalarining mavjudligi uning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi. Loyiha kompaniyalari loyihani amalga oshirish sharoitida loyiha homiylari tomonidan tashkil etiladi. Agar oddiy kredit operatsiyalarida bank qarzdorning oldingi davrdagi moliyaviy faoliyatining natijalari bilan qiziqsa, investitsiya loyihasini hayotga tatbiq etishda bank asosiy e'tiborni loyiha samaradorligini baholashga va loyiha kompaniyasining faoliyatini ta'minlovchi kafolat masalalariga e'tibor beradi. Olingan kredit ta'sischilarning balansida emas, balki loyiha kompaniyasining balansida o'z aksini topadi. Bu usul «balansdan tashqari» («of balance sheet»), deb nomlanadi;

[1] Karimov N.G'., Angelidi M.S. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish tizimida sindikat asosida kreditlashtirish (Savollar va javoblar). T.: TMI, 2005. – B. 6.

– to‘rtinchidan, loyihaviy moliyalashtirishda kreditor asosiy e’tiborni loyihani amalga oshirish jarayonining nazoratiga qaratadi, ko‘p hollarda, bu funksiya kreditorlar tomonidan amalga oshirilsa, ayrim hollarda, buning uchun maxsus kompaniyalar taklif etiladi. Maxsus kompaniya qarzdor bilan tuzilgan shartnoma asosida loyihani amalga oshirish jarayoni ustidan doimiy nazorat olib boradi, qarzdor, o‘z navbatida, bu kompaniyaga bajarilgan ishlar xususida davriy hisobot berib turadi;

– beshinchidan, loyihaviy moliyalashtirish bozorida banklar turli vazifalarni bajaruvchi sifatida ishtirok etishi mumkin: bank-kreditor sifatida; kafolatchi va moliyaviy maslahatchi sifatida; lizing instituti sifatida va h.k.;

– oltinchidan, yuqori risk sababli kredit bo‘yicha foiz ham yuqori bo‘ladi, shuningdek, ortiqcha komission xarajatlar (loyihani baholash uchun, moliyalashtirishni tashkil etish uchun, monitoring uchun komissiya haqlari) mavjudligi; loyiha oldi ishlari bo‘yicha xarajatlarning ko‘pligi; to‘liq ishlab chiqilgan loyiha oldi hujjatlarisiz bank moliyalashtirish arizasini ko‘rib chiqmasligi; qarzdor faoliyati ustidan bank tomonidan qattiq nazorat o‘rnatilganligi. Shuning uchun ham, ko‘p hollarda, qarzdor investitsiyalarni moliyalashtirishning oddiy an’anaviy shaklidan foydalanishni lozim ko‘radi.

Loyihaviy moliyalashtirishning mazmun-mohiyati bu regressiz yoki qarzdorga bo‘lgan kreditning chegaralangan regressida yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun maqsadli kreditlash bo‘lib, bunda qarz oluvchining to‘lov majburiyatlarining ta’minoti sifatida investitsiya faoliyati davomida to‘plangan pul mablag‘lari hisoblanishida namoyon bo‘ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, loyihaviy moliyalashtirishning o‘ziga xos xususiyatlarini 13.1-rasm orqali ifodalaymiz.

Loyihaviy moliyalashtirishda turli investor va kreditorlarning mablag‘lari ishtirok etib, mablag‘larning sindikatlashuvi ro‘y beradi. Shu jihatdan ham loyihaviy moliyalashtirishni sindikat-lashgan kreditlashtirish, deb atashimiz ham mumkin. Hozirda yevrokredit bozorida harakat qiluvchi bank sindikat va konsorsiumlarining loyihalarni moliyalashtirishdagi roli kundan-kunga o‘sib bormoqda. Mamlakatimizda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda ham yevrokreditlar va boshqa rivojlangan xorij

banklarining kreditlari, xorijiy investorlarning mablag'lari, respublika aksiyadorlik tijorat va xususiy banklarining kreditlari ishtirok etmoqda.



13.1-rasm. **Loyihaviy moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari**

Shunday qilib, loyihaviy moliyalashtirishning mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini umumlashtirib, quyidagilarni qayd etishimiz mumkin:

– loyihaviy moliyalashtirishning asosiy turi bu – sindikatlashgan kreditlash bo'lib, unda turli investor va kreditorlar o'z riski va mablag'lari bilan ishtirok etadi;

– loyihaviy moliyalashtirish obyekti bo'lib, aniq maqsadni ko'zlagan, iqtisodiy va moliyaviy jihatdan samarali bo'lishi rejalashtirilgan loyihalar hisoblanadi;

– loyihaviy moliyalashtirishda risklar moliyalashtiruvchilar o'rtasida taqsimlanadi va asosiy e'tibor risklarni minimallashtirish maqsadiga qaratiladi;

– loyihaviy moliyalashtirishda kreditni qaytarishning manbasi bo'lib, loyihani amalga oshirish natijasida olingan daromad hisoblanadi va kreditning ta'minlanganligi nuqtayi nazaridan

loyihaviy moliyalashtirish boshqa moliyalashtirish turlaridan farq qiladi;

– loyihaviy moliyalashtirishda eng asosiy jarayon loyiha hujjatlarining texnik-iqtisodiy, moliyaviy, ekologik tahlili hisoblanib, uning qanchalik chuqur va saviyali o'tkazilishi loyihaning kelgusidagi istiqbolini belgilab beradi.

13.2. Loyihaviy moliyalashtirishning asosiy ishtirokchilari va ularning funksiyalari. Loyihaviy moliyalashtirish turlari. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirishni tashkil etish

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida loyihaviy moliyalashtirishni rivojlantirish o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etadi. Uning iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirishdagi roli, ko'p jihatdan, loyihaviy moliyalashtirishning xususiyatlari, amalga oshirish bosqichlaridan kelib chiqadi.

Risklarni moliyalashtiruvchilar o'rtasida taqsimlash va minimallashtirish maqsadiga asoslangan loyihalarni tatbiq etish loyihaviy moliyalashtirish asosida olib boriladi. Bunday moliyalashtirish resurs bazasining sifatini, manbalarni jalb etish qiymatlarini aniqlash, resurslarni va jalb etilayotgan mablag'larning foydalanish va qoplanish muddatlarini, ularning samaradorligini aniqlash imkoniyatlarini beradi. Shuningdek, bu tashqi va ichki omillarning ta'sir darajasini, o'z va o'zga mablag'larni, uchinchi tomon investitsiyalari, ta'minotchilar, mijozlar, davlat va xalqaro tuzilmalar ustidan monitoring olib borish imkoniyatini beradi. Loyihaviy moliyalashtirish o'z mohiyati bilan moliyalashtirish rejasida nazarda tutilgan ichki va tashqi resurslar manbalari hisobiga moliyalashtiriladigan aralash, korporativ moliyalashtirish va kreditlashdan tubdan farq qiladi.

Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida loyihaviy moliyalashtirishning o'rni va ahamiyati loyihaviy moliyalashtirishda olib boriladigan tahlil ishlariga bevosita bog'lanadi. Loyihaviy moliyalashtirish loyiha tahlili o'tkazilishini bu tahlilda boshqalar bilan bir qatorda sindikatlashgan kreditlarni qaytarish tahlilini ham nazarda tutadi. Shuningdek, baholash resurslarni jalb etish narxlarini, resurslardan foydalanish muddatlari, jalb qilingan

mablag'larni qo'yish va qoplanish davri, rentabellik darajasi va ularning sifatiga ichki hamda tashqi omillar majmuyining ta'sirini aniqlash asosida o'tkaziladi.

Loyihaviy moliyalashtirishning ahamiyati o'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlarda har bir kreditor uchun alohida kredit risklarini pasaytirib, jiddiy muammolarni hal qilish imkoniyatlarini beradi. Loyihaviy moliyalashtirish loyihani amalga oshirishni kuzatib borishning maxsus tizimiga ega bo'ladi. Bunda o'z fondlaridan, qarzga olingan mablag'lardan, boshqalarning investitsiyalaridan foydalanish, ta'minotchilar, mijozlar, xalqaro tuzilmalar faoliyati bo'yicha monitoring o'tkazishni nazarda tutadi. Monitoring, shuningdek, investitsiya jarayoni ishtirokchilarining joriy faoliyatini, dastlabki moliyalashtirish tuzilmasini, hisobkitoblarning foydaliligini, sindikatlashgan kreditlarni qaytarish grafigini va qarzni uzish shartlarini kuzatib borishni ham qamrab oladi.

Loyihaviy moliyalashtirish investitsiyalarni moliyalashtirishning maxsus mexanizmi, resurslar manbalarini baholash hamda tahlil qilish, moliyalashtirishning o'ziga xos tamoyil va usullari, sindikatlashgan kreditni qoplashning o'z shartlari, shuningdek, loyihalarni boshqarish usullariga ega. Bunday moliyalashtirish subzayomlar asosida qarzlarni shakllantirish va subkreditlar berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Loyihaviy moliyalashtirish asosini korporativ manfaatlar mushtarakligi negizida ishtirokchilarning o'zaro murakkab moliyaviy munosabatlari tashkil qiladi.

Loyihaviy moliyalashtirish, odatda, jahondagi turli mintaqalarda qo'shma korxonalar, ular sho'balarini tashkil qilish maqsadida yirik xarajatlarni moliyalashtirishni ko'zda tutadi. Bunda loyihalarni moliyalashtirish asosiy faoliyatdan alohida, xarajatlarni moliyalashtirish uchun katta mablag'larni jalb etish yo'li bilan amalga oshiriladi. Loyihaviy moliyalashtirishning bunday mexanizmi yordamida kreditlashdagi risklar minimallashtiriladi. Loyihaviy moliyalashtirishda qarz bevosita loyiha tashabbuskoriga emas, balki sinditsiyalashgan kredit ishtirokchilari nazoratida bo'lgan institutga beriladi, u, o'z navbatida, mablag'larni loyihani amalga oshirish uchun javobgar bo'lgan sho'ba korxonaga yoki qo'shma korxonaga o'tkazadi. Sinditsiyalashgan kreditni beruvchi institut, odatda, loyiha natijasi bo'yicha

mahsulotni kelajakda yetkazib berish hisobidan avans to'lovlarini amalga oshiradi. Bu mahsulotni kontrakt bo'yicha moliya institutidan bosh kompaniyaning boshqa korxonasi sotib oladi.

Shunday qilib, loyihaviy moliyalashtirishda sinditsiyalashtirilgan kreditni jalb qilish murakkab o'zaro majburiyatlarni va oxir-oqibat, bosh kompaniyaning yoki uning asosiy sho'ba kompaniyalaridan birining bevosita majburiyatlarini keltirib chiqaradi. Bunda: sinditsiyalashtirilgan kredit ishtirokchilari qarzni qoplash uchun moddiy kafolatlar yetishmay qolgan hollarda risklarni o'zaro taqsimlash to'g'risida kelishib oladilar va loyihani amalga oshirish bilan bog'liq risklarning belgilangan qismini o'z zimmalariga oladilar. Korporativ manfaatlarni ko'zlaydigan tomon (bosh kompaniya) o'zining boshqa aktivlari bilan qarz uchun javob bermaydi.

Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirishda qatnashish imkoniyatiga ega bo'lgan ishtirokchilarning, turli mablag' egalarining loyihani amalga oshirishdagi vazifalarini bilish loyihaga mablag'larni samarali birlashtirishga ko'mak beruvchi va yuqori natijalarga eltuvchi muhim omil hisoblanadi.

Loyihaviy moliyalashtirishning jahon amaliyotida turlicha usullari va manbalari mavjud bo'lib, har bir davlat o'z iqtisodiy va investitsiya siyosati, bozor mexanizmining amal qilish darajasiga qarab, bu usullardan foydalanadi.

Loyihaviy moliyalashtirishni kerakli tartibda tashkil etish uchun bank tomonidan maxsus mas'uliyatli shaxs – loyiha menejeri tayinlanadi. Loyiha menejeri loyihaning amalga oshirilishi va uning monitoringi bo'yicha mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.

Loyihani moliyalashtirish uchun kreditlar faqatgina loyiha iqtisodiy, moliyaviy, texnik va ekologik ko'rsatkichlari bilan bankning talabiga javob bersagina taqdim qilinadi. Qarz oluvchi korxona yuridik shaxs sifatida kerakli tartibda tashkil etilgan bo'lishi va davlat ro'yxatidan o'tgan bo'lishi kerak.

Loyiha menejeri bank risklarini kamaytirish hamda uni qarzdor va bank o'rtasida adolatli taqsimlash maqsadida qarzdorning loyihaga qo'shgan o'z mablag'lari ulushini ko'paytirishga harakat qilishi lozim. Bunda loyihaning umumiy qiymatida qarzdorning o'z mablag'lari ulushi loyiha qiymatining 30 foizidan kam

bo'lmasligi kerak. Qarzdorning moliyaviy holati talab darajasida bo'lishi, uning faoliyatida loyihani samarali amalga oshirishga salbiy ta'sir etuvchi bankrotlik yoki boshqa sud bilan bog'liq jarayonlar xavfi bo'lmasligi kerak.

Loyihaviy moliyalashtirish qarz oluvchining asosiy fondlarini yaratish yoki sotib olish hamda investitsiya bilan bog'liq bo'lgan ishchi kapitalni tashkil etish maqsadida amalga oshiriladi.

Loyihaviy moliyalashtirishda kreditlar quyidagi maqsadlar uchun berilmaydi:

– ustav kapitalini tashkil etish uchun;

– riski haddan tashqari baland bo'lgan, shuningdek, tabiatga, atrof-muhitga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatadigan loyihalarga;

– ishlab chiqarishda va amaliyotda hali qo'llanilmagan yangi texnologiya va texnologik jarayonlarni qo'llashni ko'zda tutuvchi loyihalarga va h.k.

Loyihaviy moliyalashtirishni jahon amaliyoti tajribasidan kelib chiqqan holda moliyalashtirish tartibiga qarab, ikki turga bo'lish mumkin[1]:

– parallel moliyalashtirish;

– bosqichma-bosqich moliyalashtirish.

Birinchi tur moliyalashtirish amaliyotda «Hamkorlikda (qo'shma) moliyalashtirish» deb ham ataladi. Bunda yuqori ahamiyatga ega bo'lgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun bir nechta kredit muassasalari qarz mablag'lari ajratadi. Bosqichma-bosqich moliyalashtirishda yuqori nufuzga ega bo'lgan bankning qatnashish zarurligi talab qilinadi.

Loyihaviy moliyalashtirishning parallel moliyalashtirish shakli banklarga, bir tomondan, me'yorlarga amal qilgan holda kredit berish imkoniyatini bersa, ikkinchi tomondan, kredit risklarini pasaytiradi. Ko'p hollarda loyihani moliyalashtirish tashabbuskori sifatida nufuzga ega bo'lgan tijorat bankining yoki xalqaro moliya institutlarining ishtirok etishi qarzdorning o'z vaqtida kreditni qaytarishiga qo'shimcha kafolat beradi. Kredit shartnomasiga qilingan qo'shimchalarda agar qarzdor moliyalashtirishda ishtirok etayotgan biror kreditor oldidagi to'lov majburiyatini bajarmasa bosh kreditor kreditni muddatidan oldin undirib olish huquqiga

[1] Karimov N.G'., Angelidi M.S. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish tizimida sindikat asosida kreditlashtirish (Savollar va javoblar). T.: TMI, 2005. – B. 17.

ega bo‘ladi. Hamkorlikda moliyalashtirishning ikki shakli ko‘p qo‘llaniladi: mustaqil parallel moliyalashtirish, bunda har bir bank qarz oluvchi bilan kredit shartnomasi tuzadi va investitsiya loyihasida o‘ziga tegishli bo‘lgan qismini moliyalashtiradi (sub-loyiha); ko‘pchilik bo‘lib hamkorlikda moliyalashtirish, bunda barcha kreditorlar to‘planib bitta sindikatga birlashadilar; yagona kredit shartnomasi tuziladi; kredit shartnomasini tayyorlash va imzolashni bank-menejer amalga oshiradi; keyingi bosqichda kredit shartnomasini amalga oshirish ustidan nazoratni hamda zarur hisob-kitob operatsiyalarini sindikat tarkibidagi maxsus bank-agent ma’lum miqdordagi komission haq evaziga amalga oshiradi.

Bugungi kunda loyihaviy moliyalashtirishning ikkinchi turi keng tarqalgan. Loyihaviy moliyalashtirishning bosqichma-bosqich moliyalashtirish turi yirik nufuzli bankning ishtirokida amalga oshiriladi[1]. Bunday nufuzli birinchi toifali tijorat banklari investitsiya loyihalarining ekspertizasi bo‘yicha tajribali muta-xassislarning mavjudligi, bank olamida yuqori nufuzga egaligi, kreditlash imkoniyatining yuqoriligi tufayli loyihalarni kreditlash uchun ko‘plab arizalar kelib tushadi. Biroq, yirik banklar ham har doim bu loyihalarni ularning balansiga salbiy ta’sir etishi mumkinligi yoki boshqa sabablar oqibatida moliyalashtira olmaydi. Shuning uchun, ko‘p hollarda, bu banklar loyihani kreditlashning tashabbuskori sifatida faoliyat yuritishi mumkin. Investitsiya loyihasining samaradorligini baholagani uchun va kredit shartnomasini ishlab chiqqani uchun tashabbuskor bank komission haq oladi. Kredit berilgandan so‘ng tashabbuskor bank shartnoma bo‘yicha qarzdorga nisbatan o‘z talabini boshqa kreditorga beradi. Bu qayd qilingan loyihaviy moliyalashtirish turlarida asosiy o‘rin tashabbuskorlarga – bank sifatida ishtirok etuvchi yirik tijorat banki va xalqaro moliyaviy institutlar zimmasiga to‘g‘ri keladi.

Ta’kidlash joizki, loyihaviy moliyalashtirishning asosiy sharti – uning firma asosiy faoliyatidan alohidalashganligidadir va kreditorga moddiy kafolatlarning berilishidadir. Qo‘shimcha tadqiqotlar va huquqiy ta’minotning ortib borishi bilan loyihaviy

[1] Karimov N.G‘., Angelidi M.S. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish tizimida sindikat asosida kreditlashtirish (Savollar va javoblar). T.: TMI, 2005. – B. 17.

moliyalashtirish yirik loyihalarga xarajat qilish uchun katta mablag'ga zarurat bo'lganda ma'noga ega bo'ladi. Loyihaviy moliyalashtirish, odatda, quyidagi ko'rinishlarda amalga oshiriladi: bevosita zayom (qarz) ko'rinishida; bevosita zayom olishga nisbatan muqobil variantda (mahsulot bilan hisob-kitob qilish), ya'ni to'lash; loyihani tugallash kafolati bilan ta'minlanadigan zayom (qarzlar) berish; loyihaning har qanday bosqichida mulk egasiga nisbatan kreditorning regress (qaytarish talabi) huquqisiz.

Regressiz kredit, ya'ni majburiyatlarsiz beriladigan kreditda banklar bosh kompaniyadan loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun hamma choralarni ko'rishi haqida umumiy kafolatni talab qilishi mumkin.

Loyihaviy moliyalashtirish bosh kompaniyaning bevosita kredit olishiga qaraganda qator afzalliklarga ega: kreditor uchun shartnoma bitimlari yoki real aktivlar loyihaning sug'urta ta'minoti bo'lib xizmat qiladi; loyiha bo'yicha ayrim o'ziga xos risklarni bosh kompaniya tomonidan kreditorga yuklash imkoniyatini beradi; kreditor loyihalar bo'yicha risklarni o'z zimmasiga oladi; katta qiymatli loyiha uchun sinditsiyalashtirilgan kreditni olish ushbu maqsadga bevosita kredit olishdan nisbatan osonroqdir.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida loyihaviy moliyalashtirishning o'rni va ahamiyati, eng avvalo, loyihani tahlil qilish va amalga oshirishning hamda monitoring qilishning maxsus tizimiga ega ekanligi, loyiha bo'yicha risklarning minimallashtirilishi, pirovardida, investitsiya loyihalarining muvaffaqiyatli tatbiq etilishiga imkon beradi.

13.3. Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida loyihaviy moliyalashtirishni tashkil etish va amalga oshirishning xorij tajribalari

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlar loyihaviy moliyalashtirishni tashkil etish va amalga oshirishning boy tajribalariga ega. Shu nuqtayi nazardan iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning loyihaviy moliyalashtirish yuzasidan tajribalarini chuqur o'rganish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy mamlakatlarda loyihaviy moliyalashtirish deganda aniq bir yirik investitsiya loyihasini moliyalashtirish tushunilib, bunda kreditor kreditni qaytarib olish uchun asosiy e'tiborni loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirishdan olinadigan sof foyda va pul oqimlariga (Cash-Flow) qaratadi. Pul oqimlari mohiyati jihatidan pul mablag'larining tushumi va to'lovlarni ifodalaydi[1]. Kredit, qoida tariqasida, loyihaning aktivlari hisobiga ta'minlanadi.

Loyihaviy moliyalashtirishda kreditor uchun kredit berishning asosi bo'lib, loyihadan olinadigan kelgusi daromadlar hisoblanadi. Bu daromadlarga loyihani samarali amalga oshirish (ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat)ni sotish) natijasida erishiladi. Kreditor nuqtayi nazaridan investitsiya loyihasi umumiqtisodiy samara berishi lozim, ya'ni ishlab chiqariladigan mahsulot xaridorgir yoki unga talab bo'lishi, shu bilan bir vaqtda qarz oluvchining ham iqtisodiy manfaatdorligi, ya'ni o'z kapitalining daromadliligi ta'minlanishi lozim. Shuni ham ta'kidlash joizki, loyihaviy moliyalashtirish venchurli moliyalashtirishdan tubdan farq qiladi. Loyihaviy moliyalashtirish shunda amal qiladiki, bunda investitsiya loyihasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishidagi mavjud risklar kreditorlar va qarz oluvchilar, shuningdek, loyiha ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanadi.

Loyihaviy moliyalashtirishning Germaniya tajribasida investitsiya loyihasini amalga oshirishda loyihalashtiruvchilar, uskuna yetkazib beruvchilar, tijorat banklari, iste'molchilar ishtirok etib, ular bir-biri bilan bevosita hamkorlikda loyihaviy moliyalashtirishni amalga oshiradilar

Germaniyada loyihaviy moliyalashtirish, asosan, quyidagi sohalarda qo'llaniladi: sanoat ishlab chiqarishi uchun resurslarni qazib olish; qimmatli (oltin) metallarni qazib olish; yoqilg'i-energetika sanoatini rivojlantirish; yirik elektrostansiyalar qurilishi; yirik sanoat obyektlarini qurish; infratuzilmani rivojlantirish va boshqalar.

Mazkur sohalardagi investitsiya loyihalari uch bosqichga asoslanib amalga oshiriladi:

– investitsiya oldi bosqichi;

– investitsiya bosqichi;

[1] Беренс В., Хавранек П.М. Руководство по оценке эффективности инвестиций: Пер. с. англ. М.: АОЗТ «Интерэксперт», «ИНФРА-М». 1995. С. 391.

– ekspluatatsiya bosqichi.

Har bir bosqichda kreditor uchun turli risklar mavjud bo'ladi. Loyihaviy moliyalashtirishda qarz oluvchi uchun juda qattiq talablar qo'yiladi. Masalan, qarz oluvchining o'z kapitalining minimal miqdori loyiha umumiy qiymatining 25 foizini tashkil qilishi kerak. Shu bilan birga, investitsiya loyihalari amalga oshirilish davri, mablag'lar hajmi, o'z kapitalini investitsiyalash shakllari bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Kreditor, qoida tariqasida, investitsiyalashda qarz oluvchining o'z mablag'larining investitsiya oldi bosqichida o'zlashtirilishini kutadi. Loyihaviy moliyalashtirishda, avvalo, qarzga olingan mablag'lar qaytariladi, so'ngra o'z mablag'lari qaytadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda loyihaviy moliyalashtirish o'z xususiyatiga ega. Ko'p hollarda, ular konsessiya shartnomasiga asoslanadi va bu shartnomaning mazmuni shundan iboratki, konsessioner (loyihachi kompaniya) kelishilgan davr mobaynida (20, 30 va undan ortiq yillarga) investitsiya faoliyatining obyektini qurish, moliyalashtirish, boshqarish va xizmatini tashkil etish bilan bog'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. So'ng obyekt davlatga (davlat korxonasi) topshiriladi. Konsessiya davrida konsessioner obyektdan foydalanib, daromad oladi, investitsiya loyihasini moliyalashtirish bo'yicha xarajatlarini qoplaydi. Loyihalarni moliyalashtirishning bunday usuli so'ngi vaqtlarda sanoati rivojlangan mamlakatlarda ham ko'p infratuzilmali loyihalarni moliyalashtirish sxemasining tarkibiy qismi hisoblanadi.

So'nggi davrlarda «loyiha obligatsiyalari» deb nomlanuvchi qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqaruvchi va joylashtiruvchi moliyaviy kompaniya va banklar ham loyihaviy moliyalashtirishning asosiy ishtirokchilariga aylangan. Dastlabki vaqtlarda bunday obligatsiyalarni muomalaga chiqarish investitsiya loyihalari boshlang'ich davridan moliyalashtirish uchun emas, balki bankdan olingan loyihaviy kreditni qayta moliyalashtirish maqsadida amalga oshirilar edi.

Hozirgi vaqtda G'arbiy Yevropa davlatlari, AQSh va Yaponiya tijorat banklarining loyihalarni moliyalashtirish mexanizmi keskin rivojlanib ketdi. Ayni vaqtda bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarda loyihalarni moliyalashtirish mexanizmi samarali ishlamayapti, kreditlash shakllaridan to'laqonli foydanilmayapti. Bu

mamlakatlarning ko'pchiligida bank kreditlarini olish murakkab jarayonga aylangan. Banklarda loyihaviy moliyalashtirishni rivojlantirishga iqtisodiy va siyosiy omillarning ta'siri yaqqol seziladi. Inflyatsiya darajasining yuqori ekanligi, korxonalarning to'lovga layoqatlilik darajasining pastligi, banklarning resurs bazasining zaifligi tijorat banklarida loyihaviy moliyalashtirishning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan umumiy sabablardir.

Loyihaviy moliyalashtirish, odatda, jahondagi turli mintaqalarda qo'shma korxonalar, ular sho'balarini tashkil qilish maqsadida katta xarajatlarni moliyalashtirishni ko'zda tutadi. Bunda loyihalarni moliyalashtirish asosiy faoliyatdan alohida, xarajatlarni moliyalashtirish uchun katta mablag'larni jalb etish yo'li bilan amalga oshiriladi. Loyihaviy moliyalashtirishning bunday mexanizmi yordamida kreditlash risklari minimallashtiriladi. Loyihaviy moliyalashtirishda qarz bevosita loyiha tashabbuskoriga emas, balki sinditsiyalashtirilgan kredit ishtirokchilari nazoratida bo'lgan institutga beriladi, u, o'z navbatida, mablag'larni loyihani amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan sho'ba korxonaga yoki qo'shma korxonaga uzatadi.

Xorijiy mamlakatlarda loyihaviy moliyalashtirish tizimida tijorat banklari qarz oluvchiga regress huquqisiz kredit bergani holda kreditni qaytarish va foizlarini to'lash manbasi bo'lib, investitsiya loyihasini amalga oshirishdan olinadigan daromad va loyiha taalluqli aktivlar hisoblanadi. Tijorat banklari risklarni qabul qilganligi uchun mukofot tariqasida yuqori foiz oladilar. Shu tariqa tijorat banklari yuqori riskni sug'urta qiladi. Shuningdek, loyihaviy moliyalashtirishda asosiy e'tibor investitsiya loyihalarining risklarini baholashga va uni pasaytirishga qaratiladi. Bunday holda asosiy rolni yetakchi bank o'ynaydi, u o'zining xodimlari bilan va maslahatchilarni jalb etgan holda investitsiya loyihasining samaradorligini, pul oqimi dinamikasini, mahsulot sotish istiqbolini, loyiha risklarini baholaydi. Loyihaviy tahlil loyihaviy moliyalashtirishda eng asosiy ahamiyatga ega bo'lgan jarayondir. Loyihani amalga oshirishda ko'pgina ishtirokchilarning (loyiha tashabbuskori, loyiha kompaniyasi, maslahatchilar, pudratchilar (bosh pudratchi, subpudratchi), uskunani yetkazib beruvchilar, sug'urta kompaniyalari va kafolatchi banklar, kreditorlar (banklar)va h.k.) qatnashishi ko'zda tutiladi.

Loyihaviy moliyalashtirish sxemasidan foydalanilganda mijoz uchun quyidagi moliyaviy imtiyozlar mavjud, ya'ni mijoz kredit bo'yicha asosiy qarzni qaytarishda imtiyozli davrdan foydalanadi, kam hollarda imtiyozli davr foiz to'lovlari kechiktirilishi uchun ham beriladi.

Loyihaviy moliyalashtirish (sindikatlashgan kreditlash)da foiz stavkalari differensiatsiyasi tamoyilining mohiyati quyidagilardan iborat. Kredit foiz stavkalari differensiatsiyasi «loyihaviy sikl» [1] bosqichiga bog'liq ravishda amalga oshiriladi, yuqori stavka investitsiya bosqichida ishlatiladi, pastrog'i loyihaviy siklning ekspluatatsiya bosqichida ishlatiladi.

Loyihaviy moliyalashtirish (sindikatlashgan kreditlar)da mijozning kredit bo'yicha to'lov majburiyatlariga ta'minot sifatida quyidagilarni kiritish mumkin: bank kafolatlari; loyihada mahsulot sotishdan tushumning ajratilishi; davlatning turli ko'rinishdagi qo'llab-quvvatlashi («stendbay» rezerv kreditlari, subordinatsiyalashgan qarzlar, kafolatlar, ishonchnomalar va h.k.).

Loyihaviy moliyalashtirishga ixtisoslashgan banklar, odatda, butun bir rasmiy va norasmiy xususiyatlari asosida arizalarni ajratadilar va tanlov tizimini tashkil qiladilar. Arizalarni dastlabki ko'rib chiqish quyidagi rasmiy xususiyatlariga ko'ra amalga oshiriladi: loyihaning qaysi tarmoqqa tegishliligi; loyihadagi investitsiyalarning umumiy summasi va so'ralayotgan kredit miqdori; loyihaning asoslanganlik darajasi (TIA, biznes-reja, texnik hujjatlar va boshqalarning mavjudligi); olingan kredit bo'yicha qarzdorning to'lov majburiyatlarining kafolatlanganlik yoki boshqa ta'minot turlarining mavjudligi; investitsiya loyihasining turi (asbob-uskuna, mavjud ishlab chiqarish quvvatini tarkibiy qayta tiklash, ishlab chiqarishni kengaytirishga mo'ljallanganligi); qarz oluvchining moliyaviy ahvoli va boshqalar. Bu qayd qilingan rasmiy holatlar bankning ichki boshqaruvi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lishi kerak.

Norasmiy mezonlar qatoriga quyidagilar kiradi: loyihaning tijorat hayotiyligi; qarz oluvchining umumiy iqtisodiy holati; loyihani amalga oshirishdagi texnik, moliyaviy, ekologik va boshqa risklar. Loyiha risklarini turlicha tasniflash mumkin:

[1] Loyihaning yaratilishidan uning tugatilishigacha bo'lgan vaqt oralig'i bilan aniqlanadi va loyiha sikli quyidagi uch bosqichdan iborat bo'ladi: investitsiya oldi; investitsiya; ekspluatatsiya.

birinchidan, loyiha faoliyatining bosqichlari bo'yicha turkumlash: investitsiya oldi bosqichidagi, investitsiya (qurilish) bosqichidagi, ishga tushirish ishlari bosqichidagi, ishlab chiqarish bosqichidagi risklar. Ikkinchidan, loyiha qatnashchilarining loyiha faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillari (risk omillari)ga ta'sir ko'rsata olish yoki olmaslik mezoniga ko'ra tasniflash. Ushbu nuqtayi nazardan risklarni: ichki (endogen) va tashqi (ekzogen) risklarga ajratish mumkin. Tashqi risklarga siyosiy va fors-major risklarini misol keltirish mumkin va bu risklar loyiha faoliyatining barcha bosqichlarida mavjud bo'ladi. Uchinchidan, risklardan himoyalanish imkoniyatlari nuqtayi nazaridan tasniflash: sug'urtalanadigan risklar; sug'urtalanmaydigan risklar.

Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida loyihaviy moliyalashtirishni tashkil etish va amalga oshirishning xorij tajribalarini umumlashtirish asosida quyidagicha xulosa qilish mumkin:

– rivojlangan mamlakatlar amaliyotida yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda tijorat banklarining sinditsiyali kreditlash amaliyotidan keng foydalaniladi;

– o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida tijorat banklarining kreditlari investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarining umumiy hajmida kichik salmoqni egallaydi;

– AQSh va Yaponiya davlatlari tijorat banklarida investitsiyalarni moliyalashtirishning asosiy manbayi bo'lib, muddatli va jamg'arma depozitlari hisoblanadi.

Loyihaviy moliyalashtirishning xorij tajribalarini umumlashtirish asosida mamlakatimizda uning namoyon bo'lish tendensiyalarini kuzatishimiz mumkin, xususan, loyihaviy moliyalashtirishda davlatning kuchli moliyaviy va soliq siyosati, loyihaviy moliyalashtirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yuzasidan keng tadbirlar tizimining amal qilishi; qulay va manfaatli investitsiya muhitining yaratilishi va h.k.

13.4. Loyihaviy moliyalashtirish asosida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini texnik-iqtisodiy asoslash va baholash uslubiyoti tahlili

Loyihaviy moliyalashtirish asosida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini TIA g'oyaning paydo bo'lishidan boshlab uning

moddiylikka aylanishigacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladi va bu jarayon uch bosqichdan iborat bo'lib, investitsiya oldi bosqichi (boshlang'ich bosqich), investitsiya va ekspluatatsiya bosqichlariga bo'linadi.

Loyihaviy moliyalashtirishning dastlabki bosqichida uning TIAsi ishlab chiqiladi, uni moliyaviy-iqtisodiy baholash ishlari amalga oshiriladi, investitsiyani amalga oshirish uchun imkoniyatlar tahlil qilinadi hamda loyihani amalga oshiruvchi korxonaning moliyaviy holati baholanadi. So'ngra kapital qo'yilmalar va investitsiyalash amalga oshiriladi, shartnomalar tuziladi, loyiha bo'yicha qurilish ishlari olib boriladi, uskunalar sotib olinadi va ishlab chiqarishga tayyorlash ishlari o'tkaziladi. Loyihaviy moliyalashtirishning oxirgi bosqichida loyiha quvvati ishga tushiriladi va mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqariladi.

Loyihaviy moliyalashtirishning investitsiya oldi bosqichida TIA ishlari amalga oshiriladi va u eng asosiy bosqich hisoblanadi. Loyihaviy moliyalashtirishda TIA mavjud ishlab chiqarish omillariga, mahalliy bozor va ishlab chiqarish shart-sharoitlariga bog'langan bo'lishi lozim. Tahlil natijalari xarajatlar, daromadlar va sof foyda qismini yaqqol ko'rsatib berishi lozim. TIAni ishlab chiqish tadqiqot natijasida aniqlangan kerakli moliyaviy mablag'lar yetarli darajadaligi ma'lum bo'lgandagina amalga oshirilishi lozim.

TIAni ishlab chiqish loyihaviy moliyalashtirishning dastlabki bosqichida amalga oshiriladi. Ushbu bosqich investitsiyalarni loyihalashtirishga taalluqlidir. Loyihaviy moliyalashtirishning dastlabki bosqichida bajariladigan ishlarni quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Loyihani amalga oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi:

- investitsiyalash uchun kerak bo'ladigan mablag'lar hajmi va salohiyatli investorlar;
- loyihani amalga oshirishning ichki va tashqi shart-sharoitlarini baholash;
- loyiihani amalga oshirish imkoniyatlarini makro va mikroiqtisodiy darajada tahlil qilish.

2. Loyihani asoslashning tayyorgarlik bosqichi:

- loyihani mavjud muqobillar bilan solishtirgandagi dastlabki asoslash;
- qo'shimcha (funksional) tadqiqotlar;

- loyihani texnik-iqtisodiy asoslash;
- loyihani amalga oshirishga kelishish va tasdiqlash (ishchi hujjatlar).

3. Loyihani baholash va investitsiya qilish to‘g‘risida qaror qabul qilish:
- yakuniy qaror sifatida loyihani ijtimoiy-iqtisodiy baholash;
- investitsiyalashning salohiyatli manbalarini aniqlash;
- investitsiyalashning tadbirlarini ishlab chiqish

Loyihaviy moliyalashtirishning dastlabki bosqichida amalga oshiriladigan ishlar qiymati UNIDO ma’lumotlariga ko‘ra, «kapital qo‘yilmalar umumiy summasida 0,8 foizdan 5 foizgachani tashkil etadi»[1].

Loyihaviy moliyalashtirishning dastlabki bosqichida amalga oshiriladigan xarajatlar loyiha umumiy qiymatining foizi hisobida taxminan quyidagilarni tashkil etadi: «loyiha imkoniyatlarini tadqiq etish – 0,2-1,0 foiz; dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash – 0,25-1,5 foiz; texnik-iqtisodiy asoslash – 1,3-3,0 foiz»[2].

Loyihaviy moliyalashtirishning dastlabki bosqichida bo‘lg‘usi loyihalashtirish obyektining imkoniyatlari o‘rganiladi. Korxona (investor, loyiha tashkilotchisi) loyihaga investitsiya qilish to‘g‘risida dastlabki qarorni qabul qiladi va qurilishi kerak bo‘lgan obyektga rahbarni (boshqaruvchi, direktorni) tanlaydi. Loyihani amalga oshirishning turli xil variantlarini o‘rganish, loyihani texnik-iqtisodiy va uning samaradorligini baholashni korxona o‘z kuchi bilan yoki maxsus tashkilotlar, masalan, loyihachi, arxitektor, qurilish tashkiloti, maslahatchi firmalarning ko‘magida amalga oshirishi mumkin.

So‘nggi yillarda ko‘pgina rivojlangan davlatlar investitsiya loyihalarini rejalashtirishni UNIDO uslubiyotiga muvofiq standartlashtirdilar. Rivojlangan davlatlarda investitsiyalarga ko‘maklashuvchi sanoat korxonalari, maslahat firmalari, banklar va tashkilotlar ham investitsiya loyihalarining TIAni ishlab chiqish va baholashda UNIDO uslubiyotini qo‘llashmoqda. Bu bejis emas, albatta. 1978 yilda UNIDO tomonidan «Руководство по оценке эффективности инвестиций» asari nashr qilingandan keyingi yillar davomida unda yoritilgan uslubiy yondashuvlarning 18 tilga

[1] Колтынюк Б.А. Инвестиционные проекты: Учебник. – СПб.: «Михайлова В.А.», 2000. С. 31.
[2] Колтынюк Б.А. Инвестиционные проекты: Учебник. – СПб.: «Михайлова В.А.», 2000. С. 49.

tarjima qilinganligi va butun dunyoda qo'llanilayotganligi bunga misoldir[1]. Uning asosiy maqsadi rivojlanayotgan davlatlarda TIAni standartlashtirishga ko'maklashish va investitsiya takliflari sifatini oshirishdir. Shundan so'ng UNIDO tomonidan taklif qilingan TIAni tayyorlashga bo'lgan yondashuvlar investitsiyalarga ko'maklashuvchi tashkilotlar, banklar, davlat vazirliklari va boshqa oliy ta'lim muassasalari, shuningdek, maslahat firmalari va investorlar tomonidan qabul qilindi.

UNIDO uslubiyoti bozor sharoitlariga o'tish davri iqtisodiyoti uchun juda foydalidir. Ushbu uslubiyot, nafaqat, yangi investitsiyalar uchun, balki korxonalarni modernizatsiya qilish, kengaytirish va sog'lomlashtirish loyihalari uchun ham juda qo'l keladi. UNIDO uslubiyotini joriy etish (qo'llash) investorlar, qo'shma korxonalar bo'yicha hamkorlar, maslahat firmalari, uskuna yetkazib beruvchilar uchun ham foydali bo'lib, hamkorlarning bir-biri bilan o'zaro aloqalarini yengillashtiradi va investitsiya takliflari sifatini yaxshilashga ko'maklashadi. Aytish mumkinki, UNIDO uslubiyotining keng tarqalishi investitsiya takliflari hamda TIA sifatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Hozirda loyihalarni tayyorlash va baholash uchun UNIDOning dasturli vositalari keng qo'llanilmoqda. Ular orasida COMFAR[2] alohida ahamiyatga ega. COMFAR – bu loyiha tahlili uchun zarur bo'lgan turli xil iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlarni aniqlashda, shuningdek, moliyaviy va iqtisodiy tahlil uchun (personal kompyuterlarga kiritilgan maxsus dasturlar asosida) qo'llaniladigan standartlashtirilgan imitatsion model.

Loyihaviy moliyalashtirishda qo'llaniladigan UNIDO uslubiyoti (Loyihaviy moliyalashtirishda qo'llaniladigan kompyuter modeli –COMFAR[3]) quyidagi bo'limlardan iborat:

– loyihaning qisqacha izohi;

– loyihaning asosiy g'oyasi;

---

[1] Mazkur asar ingliz tilida nashr qilingandan so'ng BMT (Birlashgan millatlar tashkiloti)ning UNIDO tashkiloti uni arab, xitoy, fransuz, rus va ispan tillariga tarjimasini ta'minladi. Mazkur kitobdan foydalanuvchilar ham uni chexiya, dari, fors, nemis, grek, vengyer, yapon, laso, portugal, serbo-xarvat, turkiya va vetnam tillariga tarjimasini tayyorladilar.

[2] Investitsiya loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslashlarini ishlab chiqish uchun UNIDOning maxsus kompyuter modeli. COMFAR UNIDOning mulki hisoblanadi va mualliflik huquqi bilan himoyalangan. Undan foydalanish bo'yicha litsenziya UNIDOning Sanoat operatsiyalari bo'limi tomonidan beriladi.

[3] Беренс В., П.М.Хавранек. Руководство по оценке эффективности инвестиций: Пер. с англ. перер. и дополн. М.: «Интерэксперт», «Инфра-М», 1995. С. 9.

– bozor tahlili va marketing konsepsiyasi;
– xomashyo va uni yetkazib beruvchilari;
– loyihaning joylashish joyi, qurilish maydoni va atrof-muhitga ta'siri;
– loyihalashtirish va texnologiyalar;
– loyihaning tashkiliy masalalari va xarajatlar;
– mehnat resurslari;
– rejalashtirish va loyihani amalga oshirish budjetini ishlab chiqish;
– moliyaviy tahlil va investitsiyalarni baholash.

Bugungi kun banklar amaliyotida loyihaviy moliyalashtirish tizimida investitsiya loyihalarini baholash UNIDO uslubiyotiga asosan amalga oshirilmoqda. Bunda moliyaviy tahlilning asosiy jihatlari, ya'ni investitsiya qarorlarining asosiy mezonlari, loyiha qaytimini baholash, gorizont rejalashtirish va loyihaning hayotiyligi (yashovchanligi), shuningdek, risk va noaniqliklar tahlil qilinadi. Undan keyin xarajatlar tahlili, xo'jalik faoliyati tahlilining asosiy tamoyillari, investitsiyalarni baholash usullari (diskontlash va an'anaviy usullar), moliyalashtirish, moliyaviy ko'rsatkichlar, moliyaviy samaradorlik, moliyaviy tahlil va noaniqlik sharoitida loyihani baholash jarayonlari to'liq ko'rib chiqiladi.

Loyihaviy moliyalashtirishda, asosan, quyidagilar:
– moliyaviy tahlilning maqsadi;
– moliyaviy tahlilning asosiy jihatlari va investitsiyalarni baholash tushunchasi (qatnashuvchi tomonlar manfaati, jamiyat manfaati, investitsiya qarorlarining asosiy mezonlari, xo'jalik faoliyati tahlili, ishlatiluvchi resurslar va ishlab chiqariladigan mahsulotlarga qo'yiladigan narxlarni aniqlash, risk va noaniqlik);
– xarajatlar bahosi tahlili (umuminvestitsiya xarajatlari, asosiy kapitalga xarajatlar, sof aylanma kapital xarajatlari, tovar-moddiy zaxiralar, ishlab chiqarish xarajatlari, to'g'ri va egri xarajatlar, marketing xarajatlari);
– xo'jalik faoliyati tahlili bo'yicha asosiy hisobot turlari (sof daromad to'g'risida hisobot, balans hisobotlari, pul oqimlari);
– investitsiyalarni baholash usullari (real mablag'lar oqimi konsepsiyasi, real mablag'lar oqimi hisobi va uning aniqlanishi, real pul mablag'lari oqimini diskontlash, diskontlashning asosiy usullari (sof diskontlangan daromad, daromadlilik indeksi,

daromadning ichki me'yori), an'anaviy usullar (qoplash davri, oddiy yoki yillik foyda me'yori);

– loyihalarni moliyalashtirish (moliyalashtirish manbalari, ya'ni aksiyador kapitali, qarz mablag'i hisobiga moliyalashtirish, lizing, kapital qiymati, moliyalashtirish sohasidagi qonunchilik, moliyaviy tashkilotlar);

– moliyaviy ko'rsatkichlar va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari, noaniqlik sharoitida moliyaviy baholash (sezgirlik tahlili, zararsizlik tahlili, ehtimollik tahlili, inflyatsion risklarini baholash);

– iqtisodiy baholash kabi tadbirlar amalga oshiriladi.

Loyihalarni baholashda UNIDO uslubiyoti moliyaviy tahlil qilishning maqsadi va uning asosiy jihatlarini, investitsiya qarorlari qabul qilish mezonlarini, loyihaning hayotiyligi va gorizont rejalashtirishni, asosiy kapitalga investitsiya xarajatlari va sof aylanma kapitalni, ishlab chiqarish va marketing xarajatlarini, uzluksiz pul oqimini, investitsiya loyihalarining samaradorligini baholashning diskontlash usullarini hamda risk va noaniqlikni tahlil qilishni ko'zda tutadi.

13.5. Investitsiya loyihalarini sindikatli kreditlash xususiyatlari. Investitsiya loyihalarini sindikatli kreditlashni tashkil etish

Ma'lumki, loyihaviy moliyalashtirishda bir necha moliyalash manbalari ishtirok etadi. Bular qatoriga qarz mablag'lari, o'z mablag'lari, davlat budjeti mablag'larini kiritish mumkin.

Ta'kidlash joizki, hozirda bank amaliyotida loyihaviy moliyalashtirish sindikatli kreditlash asosida amalga oshirilmoqda.

Bank amaliyotida sindikatli kreditlash borasida TIFMB, Asakabank va boshqa yirik tijorat banklari boy tajribalarga ega.

Sindikatli kreditlashda bir necha tijorat banklari tomonidan yirik investitsiya loyihalarini birgalikda kreditlashda loyiha bo'yicha barcha risklar loyiha ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanadi. Loyihaviy moliyalashtirishda kredit berish ikki yoki undan ortiq banklar o'rtasida o'zaro kelishuv asosida amalga oshiriladi.

Sindikatli kreditlashda yetakchi bank muhim o'rin tutadi. yetakchi bank sindikatli kreditlash tashabbusi bilan chiqqan va zimmasiga ishtirokchi-banklar nomidan kredit hujjatlarini yuritish

mas'uliyati yuklatilgan qarz oluvchining asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga xizmat ko'rsatuvchi bankdir. Ishtirokchi bank loyihaviy moliyalashtirishda qatnashuvchi bankdir .

Shuni alohida qayd etish joizki, sindikatli kreditlash faqat yuridik shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Sindikatli kreditlashda kreditni berish qarz oluvchi va ishtirokchi banklar o'rtasida tuziladigan kredit bitimlari asosida amalga oshiriladi. Kredit berish muddati yirik investitsiya loyihalarining qoplanish muddatiga bog'liq holda kredit shartnomasida belgilanadi. Biroq, zarar ko'rib ishlovchi, nolikvid balansga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga hamda samarasiz investitsiya loyihalarini taqdim qilgan xo'jalik subyektlariga kreditlar berilmaydi. Kredit olgandan keyin moliyaviy ahvoli yomonlashgan qarzdordan berilgan kreditlarni o'rnatilgan tartibda muddatidan avval undirib olish chora-tadbirlari ko'rilishi lozim. Bu qoida kredit shartnomasida, albatta, qayd etilgan bo'lishi kerak.

Sindikatli kreditlashda kreditdan foydalanganlik uchun foiz stavkasi miqdori kredit to'g'risidagi kelishuv shartlariga ko'ra qarz oluvchi va ishtirokchi banklar o'rtasida tuziladigan kredit shartnomasi asosida belgilanadi. Sindikatli kreditlash qarz oluvchi o'ziga xizmat ko'rsatuvchi bankka yirik kredit berishni so'rab murojaat qilganidan keyin, bank kreditlash uchun lozim bo'lgan standart tadbirlarni: o'zining ichki kredit siyosatiga mos ravishda mijozning kreditga qobilligi tahlilini, biznes-reja tahlilini, kredit qaytarilishining ta'minlanganligi tahlilini va boshqalarni amalga oshiradi. Sindikatli kreditlashni amalga oshirishning mumkinligi to'g'risida kredit qo'mitasi qaror qabul qilgan taqdirda, bank bir vaqtning o'zida ushbu bitimga boshqa banklarni jalb etadi hamda sinditsiyalashtirilgan kreditlash tashkilotchisi sifatida bank sindikatini tashkil etish haqida qaror qabul qiladi.

Sindikatli kreditlashda kreditni berishga xorijiy banklar va boshqa xorijiy moliyaviy institutlar jalb etilishi mumkin. Bu holda moliyalashtirishni amalga oshirish xorijiy banklar va moliyaviy institutlar bilan tuzilgan bitimlarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish maqsadida kredit olish uchun, qarz oluvchi yetakchi bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi: kredit buyurtmasi; loyihaning TIAsi; qarz oluv-

chining bank hisobvarag'iga pul tushumlari (pul oqimi) taxmini, albatta, ko'rsatilgan biznes-reja; qarz oluvchining kreditga layoqatliligini aniqlash uchun Davlat soliq xizmatining mahalliy (tuman) organi tomonidan tasdiqlangan 1, 2, 2a-shakllardagi oxirgi 3 yillik moliyaviy hisoboti; yetakchi bankning moliyalashtirishni tashkil etishga doir ichki qoidalarida ko'zda tutilgan boshqa (kredit evaziga sotib olinadigan texnika-texnologiyaning tavsifi) hujjatlar.

Olingan kreditni qaytara olmaslik riskining oldini olish maqsadida qarz oluvchi tez va erkin sotilish talablariga javob beradigan ta'minotga ega bo'lishi kerak. Yirik investitsiya loyihasini moliyalashtirish maqsadida xorijiy bank yoki boshqa moliyaviy institutlar ishtirokida sinditsiyalashtirilayotgan kredit amalga oshirilayotgan bo'lsa, kreditni qaytarish majburiyatining ta'minoti sifatida hukumat kafolati taqdim etilishi mumkin. Ta'minot turlaridan biri kreditni qaytarish ta'minoti sifatida ishtirokchi banklar talab qilayotgan summani qoplash uchun yetarli bo'lmasa, qarz oluvchi yetakchi bank roziligi bilan uning etishmayotgan qismini qoplash uchun qo'shimcha ravishda ta'minot turlarining biri yoki bir nechtasini bir-birini to'ldirishi asosida taqdim etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining «Garov to'g'risida»gi qonuniga muvofiq, muomaladan chiqarilgan buyumlardan tashqari, har qanday mulk, shu jumladan, buyumlar va mulkiy huquqlar (talablar), qimmatli qog'ozlar (ishtirokchi banklar emitent bo'lgan qimmatli qog'ozlardan tashqari) va boshqalar garov predmeti bo'lishi mumkin. Bunda garov shartnomasi bir tomondan qarz oluvchi va ikkinchi tomondan ishtirokchi banklar tomonidan imzolanadigan shaklda tuziladi. Kafolat Fuqarolik kodeksining 299-moddasiga muvofiq kafolat beruvchining yetakchi va ishtirokchi banklar oldidagi yozma majburiyati shaklida rasmiylashtiriladi. Yozma majburiyat yetakchi bankda saqlanadi. Kafillik Fuqarolik kodeksining 292-moddasiga muvofiq, yetakchi va ishtirokchi banklar-benifitsiarlar foydasiga kafil, yetakchi, ishtirokchi banklar va qarz oluvchi tomonidan imzolanadigan yozma shakldagi kafillik shartnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Bank sindikati kredit jildidagi barcha hujjatlarni ko'rib chiqib, kredit berish to'g'risida qaror qabul qilganidan, yetakchi hamda

har bir ishtirokchi bankning sinditsiyalashtirilgan kreditdagi ulushi aniqlangandan keyin, yetakchi va ishtirokchi banklar va qarz oluvchi o'rtasida kredit shartnomasi imzolanadi. Kredit shartnomasida kreditning umumiy summasi, maqsadi, foiz stavkasi, muddati, har bir ishtirokchi bank tomonidan ajratiladigan kredit miqdori, kredit maqsadsiz ishlatilganligi aniqlanganda ishtirokchi banklar tomonidan ko'riladigan jazo choralari va jarimalar, kredit shartnomada belgilangan muddatlarda ajratilmagan hollarda ishtirokchi banklarga nisbatan qo'llaniladigan jarima miqdori va boshqalar belgilangan bo'lishi shart. Kredit yig'ma jildi yetakchi bankda yuritiladi va unda saqlanadi. Kredit yig'ma jildining nusxasi har bir ishtirokchi bankda saqlanadi.

Sindikatli kreditlash asosida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish har bir ishtirokchi bank tomonidan Markaziy bankning Adliya vazirligida 2000-yilning 2 martida 906-raqam bilan davlat ro'yxatiga olingan «O'zbekiston Respublikasi banklarida kredit hujjatlarini yuritish tartibi to'g'risida»gi nizom (yangi tahriri) asosida barcha zarur loyiha-smeta va boshqa hujjatlar nusxalari yetakchi bankka taqdim etilgandan keyin boshlanadi.

Sindikatli kreditlashdagi monitoring jarayonida yetakchi bank va har bir ishtirokchi bank tomonidan qarzdorning xo'jalik-moliyaviy faoliyati, uning tomonidan tuzilgan shartnomalarga (buyurtmalarga) muvofiq mahsulot yetkazib berish majburiyatlarining bajarilishi, ishlab chiqarish hajmi, noishlab chiqarish xarajatlari va yo'qotishlar, muomala chiqimlari, foyda, o'z aylanma mablag'larining mavjudligi dinamikasi, tovar-moddiy boyliklar zaxiralari ahvoli, aylanma mablag'larning aylanishi, barcha bank hisobvaraqlaridagi harakatlarni tahlil qiladi va ushbu ko'rsatkichlarni qarzdorning kredit yig'ma jildida umumlashtirib boradi. Bankka taqdim etilgan garovning holati va kreditdan samarali hamda maqsadli foydalanilishi kredit shartnomasida kelishilgan shartlarga muvofiq joyiga chiqib o'rganiladi.

Sindikatli kreditlashda kredit bo'yicha o'z vaqtida to'lanmagan hisoblangan foizlarni undirish va kreditni qaytarish yetakchi va ishtirokchi banklar tomonidan ularning mazkur kredit umumiy summasidagi ulushiga mos holda qarzdorning asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'ida mavjud mablag'lar hisobidan, kredit shartnomasida belgilangan tartibda va muddat-

larda undiriladi. Hisoblangan foizlar va kredit qoldig'i bo'yicha barcha majburiyatlarini bajarish uchun qarz oluvchining mablag'lari yetarli bo'lmagan taqdirda kredit uchun hisoblangan foizlar va kredit qarzi qoldig'ini to'lash bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlikni qaytarish Fuqarolik kodeksining 784-moddasiga muvofiq belgilangan navbat tartibida amalga oshiriladi.

Qarz oluvchi tomonidan asosiy qarzni va unga hisoblangan foizlarni kredit shartnomasida kelishilgan muddatda qaytarilmasa, yetakchi bank boshqa ishtirokchi-banklar bilan kelishilgan holda sudga murojaat qilmasdan, undirishni mustaqil ravishda garov predmetiga qaratishga haqlidir.

Ta'kidlash joizki, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida loyihaviy moliyalashtirishni rivojlantirish tijorat banklarining kapitallashuv darajasiga ham bog'liqdir. Chunki, banklar kapitallashuvini ta'minlash orqali ularning investitsiya kreditlari berish salohiyatini oshiradi. Bu yirik investitsiya loyihalarini loyihaviy moliyalashtirish asosida amalga oshirish imkonini beradi. Davlatimiz rahbarining 2007-yil 12-iyulda qabul qilgan «Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bu boradagi ishlar ko'lamini kengaytirish imkonini berdi.

Banklarning kapitaliga aholi, tadbirkorlik subyektlari, investorlarning bo'sh pul mablag'larini jalb qilish uchun qo'shimcha aksiyalar chiqarish va ularni fond bozorida faol joylashtirish hisobiga banklarning kapitallashuv darajasini oshirish, tijorat banklarining o'z kapitali hisobidan yangi zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil qilish hamda mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashdagi investitsiya jarayonlarida keng ishtirok etish, shu asosda raqobatbardosh, eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish nazarda tutilgan.

Xalqaro investitsiya kreditlarini jalb qilish va ularni qaytarish jarayonidagi moliyaviy risklar doimo mavjud bo'ladi, risklarning ayrim turlari paydo bo'ladi va kuchayadi, boshqa bir turlari astasekin kamayib boradi va yo'qolib ketadi. Kredit riskining kuchayishi xalqaro investitsiya kreditlarini jalb qilish va ulardan samarali foydalanish jarayoniga ikki tomonlama salbiy ta'sir ko'rsatadi:

– banklar tomonidan berilgan investitsiya kreditlarining qaytmasligi natijasida tijorat banklarining resurs bazasiga va kreditlash salohiyatiga ziyon etadi;

– kredit riskining kuchayishi korxonalarning kreditorlar oldidagi nufuzi pasayishiga olib keladi, bu, ularning boshqa xalqaro investitsiya kreditlari olish imkoniyatini keskin pasaytiradi.

Nazorat savollari

➢ Loyihaviy moliyalashtirishning mazmun-mohiyati nimadan iborat?

➢ Qaysi iqtisodchi olimlarning loyihaviy moliyalashtirishga bergan ta'riflarini bilasiz?

➢ Loyihaviy moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini sanab bering?

➢ Milliy iqtisodiyot taraqqiyotini ta'minlashda loyihaviy moliyalashtirishning rolini izohlab bering?

➢ Loyihaviy moliyalashtirishning boshqa moliyalashtirish turlaridan asosiy farqi nimada?

➢ Loyihaviy moliyalashtirishning xorij tajribalari bo'yicha qanday ma'lumotlarga egasiz?

➢ Loyihaviy moliyalashtirishning manbalarini sanab bering?

➢ Loyihaviy moliyalashtirishning moliyaviy sxemalarini qanday turlarga ajratish mumkin?

➢ Investitsiya loyihalarini bosqichma-bosqich moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyati qanday ?

➢ Loyihaviy moliyalashtirish sxemasidan foydalanilganda mijoz uchun qanday moliyaviy imtiyozlar mavjud?

➢ Loyihaviy moliyalashtirish (sindikatlashgan kreditlash)da foiz stavkalari differensiatsiyasi tamoyilining mohiyati nimadan iborat?

➢ Loyihaviy moliyalashtirishda qo'llaniladigan kompyuter modeli (COMFAR) to'g'risida nimalarni bilasiz?

➢ Kreditning ta'minlanganligi nuqtayi nazardan loyihaviy moliyalashtirish boshqa moliyalashtirish turlaridan nimasi bilan farq qiladi?

➢ Sindikatlashtirilgan kreditning qanday turlari mavjud?

➢ Sinditsiyalashtirilgan kreditning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari nimada?

➢ Tashkilotchi bank va ishtirokchi banklar uchun sinditsiyalashlgan kreditning qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud?

➢ Qarzdor uchun sindikat asosida kredit olishning qanday qulayliklari bor?

➢ Sindikat asosida kreditlashtirish moliyalashtirishning boshqa turlaridan nimasi bilan farq qiladi?

XIV BOB. INNOVATSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH

14.1. Innovatsiya va innovatsiya faoliyati tushunchasi

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida bozor munosabatlari rivojlanishi iqtisodiyot tarmoqlarining doimo o‘zgarayotgan muhitga, raqobatning kuchayishiga moslashib borishini talab etadi. Buning uchun tarmoqlarda innovatsiya faoliyatining rivojlanishi, unga qaratilgan mablag‘lar sarfining ko‘payib borishiga erishish lozim bo‘ladi. Bu borada innovatsiya muhitiga sarflangan mablag‘lar alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mahsulot raqobatbardoshligini oshirish uchun mamlakat tadbirkorlaridan jahon bozorlarida mustahkam o‘rin egallashlari, yuqori texnologiyani mujassamlashtirgan holda yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni ta’minlashlari talab qilinadi.

«Investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunida innovatsiya investitsiyalari jumlasiga texnika va texnologiyalarning yangi avlodini ishlab chiqish va o‘zlashtirishga qo‘shiladigan investitsiyalar kirishi ta’kidlanadi. Demak, «innovatsiya» tushunchasi, birinchi navbatda, yangilik degan ma’no-mazmunni ifodalaydi.

«Innovatsiya» tushunchasi «yangilik», «yangilik yaratuvchi», «yangiliklarni joriy qilish» tushunchalari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Innovatsiya (ing. innovations – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta’minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llanilishidir[1].

[1] O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. Tahrir hay’ati: M.Aminov, T.Daminov, T.Dolimov va b. T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi». Davlat ilmiy nashriyoti. 2002. – B.169.

Innovatsion investitsiyalashning nazariy asoslari iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodchi olimlar, ekspertlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan va teshigli ilmiy-nazariy xulosalar, tavsiyalar shakllantirilgan.

A.Busiginning fikriga ko'ra, innovatsiya – bu asosiy kapital (ishlab chiqarish fondlarini) yoki ishlab chiqarilayotgan mahsulotni ilm-fan, texnika, texnologiyalar asosida yangilash. Innovatsiya hozirgi zamon ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi qonuniy va obyektiv jarayondir. Tadbirkorlik amaliyotida innovatsiya qanday shaklda bo'lishidan qat'iy nazar, innovatsiya jarayonini qo'llaydi. Ayrim holatlarda ishlab chiqarish qisman emas, balki to'liq innovatsiyaga asoslanadi, natijada yangi tovar qat'iy yangi tasnifga va xususiyat yoki foydalanishda ifodalanadi[1].

R.Fatxutdinovning xulosasi bo'yicha, innovatsiya – bu yangilikni tatbiq etishning yakuniy natijasi bo'lib, obyekt boshqaruvini o'zgartirish ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ekologik va boshqa ko'rinishdagi samaradorlikdir. Yangilik fundamental, amaliy tadqiqotlarning ma'lum bir faoliyatida uning samaradorligini oshirish uchun ishlab chiqilgan yoki tajribaviy ishdir. Yangilik quyidagi yo'nalishda hujjatlashtiriladi: yangilik, ixtirochilik, patentlar orqali, tovar belgisi, yangilik takliflarini berish, yangi yoki texnologik jihatdan takomillashtirilgan mahsulot, boshqaruv yoki ishlab chiqarishni tashkil etish, ishlab chiqish jarayoni yoki ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirish, nou-xau, ixtirochilik taklifi, ilmiy yondashuv yoki ularning shartlari va marketing tadqiqotlari orqali olingan natijalardan tashkil topgan, deb hisoblaydilar[2].

P.Draker ta'kidlaydiki, tadbirkorlarning innovatsion fikrlashlari bir-biridan farqlanadi. Innovatsiyalashtirish bu tadbirkorlikning ixtisoslashgan yo'nalishidir. Har bir tadbirkor o'zining ishlab chiqarish obyektida innovatsion tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadi. Shu bilan birga, ixtisoslashgan innovatsiya faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlar, umuman, tadbirkorlik faoliyatining hamma yo'nalishlariga ilm-fan va texnika taraqqiyotida qo'lga kiritgan yangiliklari bilan, ishlab

[1] Бусыгин А.В. Предпринимательства. М.: «Дело», 2001. С. 176.
[2] Фатхутдинов Р.А. Инновационний менеджмент. М.: «Интел-Синтез», 2000. С. 9.

chiqarish jarayonini takomillashtirish usullarini tashkil qilish asosida xizmat qiladi[1].

Iqtisodchi olimlar va mutaxassislarning yuqorida keltirilgan fikrlari, xulosalaridan ko'rinadiki, innovatsiya – bu yuqori iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida ishlab chiqarish jarayoniga ilg'or ilm-fan yutuqlarini joriy etish yo'li bilan yangi tovarlar yaratish yoki ishlab chiqarilayotgan tovarlar sifatini oshirish.

K. Frimen 1987-yilda «Milliy innovatsiya tizimi» tushunchasini kiritdi. «Milliy innovatsiya tizimi» turli institutlarning birgalikda yoki alohida tarzda yangi texnologiyalarni yaratishga hissa qo'shgan va hukumat a'zolarining yangi siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishiga ta'sir etuvchi innovatsiya jarayonidir. Bu o'zaro bog'langan institutlar tizimi bo'lib, ular «bilimlar, yangiliklar va yangi texnologiyalarni tashkil etish, saqlash va uzatishni amalga oshiradilar», deb hisoblagan[2].

Innovatsiya o'zgarishlarini besh yo'nalish bo'yicha ifodalash mumkin. Bular: yangi texnika va texnologik jarayonlar yoki ishlab chiqarishni yangi bozor asosida ta'minlash; yangi xususiyatlarga ega bo'lgan yangi mahsulotlarni ishlab chiqishni amalga oshirish; yangi xomashyodan foydalanish; ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish va uni yangi innovatsiya tovarlari bilan ta'minlash; yangi iste'mol bozorlarini ochishdan iborat.

N.Marenkov ta'kidlaydiki, investitsiya va innovatsiya siyosati o'zaro bog'liqdir. Chunki investitsiya siyosati iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlovchi asosiy kapital manbayi bo'lsada, uning ma'lum qismi innovatsion investitsiya sifatida iqtisodiyotning tarkibiy jihatini takomillashtirish va sifatini yaxshilashda faol qatnashadi. Texnologik innovatsiya, yangilik kiritish, innovatsion faoliyatning yakuni, iqtisodiyotga mablag' sarflash bilan bog'liq bo'lgan texnika-texnologiyaning yangilanishini ta'minlaydigan jarayondir[3].

M.Saidovning fikriga ko'ra, innovatsiya, avvalo, iqtisodiyotni rivojlantirishga qo'yilmalarning samaraligi bilan tavsiflanadi, ishlab chiqarishdagi mavjud oldingi avlod texnikasi va

---

[1] Дракер П.Ф. Рынок: как выйти в лидеры. Практика и принципы. М.: «Бук Чембер Интернешнл», 1999. С. 41.

[2] Metcalfe S. The Economic Foundations of Technology Policy: Equilidrium and Evotutionary Perspectives. In: Stoneman P. (ed). Handbook of the Economics of Innovation and Technical Change. London, Blackwell, 1995.

[3] Маренков Н.Л. Инвестиции для студентов вузов. – Ростов-на-Дону: «Феникс», 2004. С.103-220.

texnologiyasini ancha samarali, ekologik sof va resurslarni tejashga imkon beruvchi ishlab chiqarish vositalari bilan almashtirishni ifodalaydi. Innovatsiya faoliyati (yangiliklarni joriy etish) ishlab chiqarish yangi texnologiyalari negizida raqobatbardosh mahsulot (tovar) turlarini yaratish jarayoni. Bu jarayon g'oyaning paydo bo'lishi, uning maqsadini aniqlash va amalga oshirishdan to ishlab chiqarishni tashkil etish, mahsulot chiqarish, uni sotish va iqtisodiy samara olishgacha bo'lgan ishlarni o'z ichiga oladi[1].

Bir guruh mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining xulosasiga ko'ra: innovatsiya - yangiliklarni ishlab chiqarishga joriy etish, yangi texnologiyaning birinchi marta tijorat asosida qo'llanilishi. Intensiv iqtisodiy o'sish resurslaridan yanada samarali foydalanishga asoslangan iqtisodiy o'sish. Uning yetakchi omili fan va texnika taraqqiyotining oxirgi talablariga javob beradigan dastgoh, yangi texnologiyalar bilan qayta jihozlash bilan erishish yoki maqsadga ishlab chiqarish maydonini kengaytirish hisobiga emas, balki unda qo'llaniladigan resurslarning sifatini oshirish orqali erishilmoqda[2].

Chunki innovatsiya natijalari ilm-fan va texnika sohasida ma'lum bir yangiliklarning nazariy kashf etilishi va amaliyotda qo'llanilishi oqibatida iqtisodiyot samarali rivojlanishi mumkin.

Innovatsiya yutuqlarining iqtisodiy natijalari ishlab chiqarish jarayonida moddiy resurslarni, mahsulot birligiga sarflanadigan jonli va buyumlashgan mehnatni tejashni, kishi boshiga mehnat unumdorligining o'sib borishini, atrof-muhitning ekologik jihatdan ifloslanish darajasini kamaytirishni ta'minlashda, ijtimoiy sohada, ishlab chiqarishda band bo'lganlarning ish haqlari va daromadlarining o'sib borishida, kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalash darajalarining, ijtimoiy infratuzilmalarning rivojlanib borishida ifodalanadi.

Innovatsiya ishlab chiqarishning ichki subyektlari o'rtasidagi munosabatlarning takomillashib borishiga ta'sir etadi. U ishchi o'rinlarini ko'paytirishda, ishlab chiqarish xodimlarining mehnat qilish sharoitlarini yaxshilashda, ularni har tomonlama yetuk xodim sifatida faoliyat olib borishlari uchun zarur bo'lgan ijtimoiy

[1] Saidov M.H. Oliy ta'lim iqtisodiyoti, investitsiyalari va marketingi. T.: «Moliya», 2003. – B. 74.
[2] Qodirov A., Sotivoldiyev A., Muftaydinov Q. Iqtisodiyot nazariyasi: tayanch iboralar va tushunchalar. T.: ToshDTU, 2003. – B. 49-146.

infratuzilmalarning takomillashib borishida ifodalanadi. Innovatsion investitsiyalashtirish davlatning ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyotining mikro va makroiqtisodiy darajada rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Innovatsion investitsiyalashtirish innovatsiya jarayoni amalga oshuvining asosi bo'lib, u kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish tarkibiy tuzilishlarining takomillashuviga ta'sir etish asosida mikro va makroiqtisodiy barqarorlikni shakllantirish va foydaning o'sib borishini ta'minlaydi.

Innovatsiya ishlab chiqarish jarayonida band bo'lgan, o'zining ma'naviy va jismoniy qiymatlarini yo'qotgan asosiy ishlab chiqarish vositalarini, texnika va texnologiyalarini yangilashni ilm-fan va texnika yutuqlariga asoslangan holda amalga oshirishni ta'minlaydi.

Keng ma'noda innovatsiya deganda yangi texnologiyalar, mahsulot va xizmat turlari, ishlab chiqarish, moliya, tijoratga oid, ma'muriy yoki boshqacha xususiyatga ega bo'lgan tashkiliy-texnikaviy va ijtimoiy-iqtisodiy yechimlar ko'rinishidagi yangiliklardan daromad olib foydalanish tushuniladi. Innovatsiya — bu yangi texnologiyalarda mujassamlashgan bilimlar, nou-xau, ishlab chiqarishning takomillashgan texnologiyalarini qo'llash bilan bog'liq, nisbatan samarali salohiyatga ega bo'lgan yangi ishlab chiqarishlar, xizmatlar ko'rsata oladigan jarayonlarning salbiy oqibatlarini tugatish maqsadida olib borilayotgan faoliyat. Demak, innovatsiya faoliyati — bu xo'jalik yurituvchi subyektlarning samarali faoliyat yuritishlari uchun yangi bilimlarni egallash va ularni amaliyotda qo'llash bilan bog'liq faoliyat.

Innovatsiya jarayoni deganda: iqtisodiyotning har qanday subyektlarining innovatsiya ishini olib borishi, tugatilgan ilmiy izlanishlar va ishlab chiqarish natijalarini amalga oshirish jarayoni; yangi mahsulot va muammolarni ishlab chiqarish, ularni bozorda va keyingi diffuziyalarda amalga oshirishdagi maqsadiga *yo'naltirilgan amallar zanjirini tashkil etadi; ilmiy g'oyaning amalda foydalanish darajasiga yetkazilishi va iqtisodiy samara bera* boshlashi, ya'ni iqtisodiy mazmun kasb etishini anglatuvchi jarayon tushuniladi. Innovatsiya jarayoni — bu ilmiy-nazariy bilimning innovatsiyaga aylanish jarayoni. Ya'ni uni innovatsiyaning g'oya ko'rinishidan aniq mahsulot, texnologiya yoki

xizmat ko'rinishiga o'tishi va amaliyotga tatbiq etilishi bilan bog'liq ketma-ket hodisalar zanjiri sifatida tasavvur etish mumkin.

Innovatsiya natijalari innovatsiya jarayoni orqali yaratilgan yangi kashfiyot yutuqlarini ishlab chiqarish jarayonida qo'llash asosida yangi qiymatga, sifatga ega bo'lgan mahsulotlarda ifodalanadi. Innovatsion investitsiyalar xarajatlari, asosan, yangi mahsulotlarga, ishlab chiqarish texnikalari yoki texnologiyalariga qo'shiladi, iste'mol mahsulotlari sifatida ko'rinishi innovatsiya jarayonining asosiy omili hisoblanadi.

Innovatsiya faoliyati turli shakllarda tasavvur etiladi. Masalan, innovatsiya faoliyati – bu ilmiy-tadqiqot va qayta ishlov natijalarini nomenklaturani yangilash va kengaytirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot (tovar va xizmat) sifatini yaxshilash, texnologiyani takomillashtirish uchun foydalanishga yo'naltirilgan faoliyat yoki innovatsiyani yuzaga keltiruvchi to'liq kompleks, ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijorat chora-tadbirlari kompleksi yoxud fan-texnika bilimlarini qo'llash, kengaytirish, rivojlantirish va yaratish bilan bog'liq ilmiy-texnik faoliyat.

Butun dunyoda ilmiy-texnik taraqqiyot iqtisodiyotni, uning tarmoqlarini, korxonalarni rivojlantirishning yetakchi omili sifatida tan olinadi. Xorij va milliy adabiyotlarda bu holat innovatsiya jarayoni va faol investitsiyalash jarayoni bilan bog'lanadi.

Mamlakatda investitsiya jarayonlarini va innovatsiya faoliyatini boshqarishning qat'iy tizimi amal qilishi lozim. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning har qanday «modeli» qator asosiy maqsadlarga qaratilishi lozim: innovatsiya faolligini rag'batlantirish; ilmiy-texnik salohiyatni rivojlantirish; mamlakatning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash va eng muhimi, fuqarolarning turmush farovonligini oshirish uchun qulay iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlarni yaratish.

14.2. Innovatsiyalarga qaratilgan investitsiyalar: o'ziga xos xususiyatlari va samaradorligini baholash uslubiyoti

Innovatsiya investitsiya mablag'larining bir qismi takomillashtirilgan yoki yangi ishlab chiqarilgan texnika va texnologiyalarda ifodalanib, iqtisodiy jarayon bilan uzviy ravishda bog'liq bo'ladi. Investitsiya mablag'lari iqtisodiy kategoriya sifatida ishlab

chiqarish subyektlarida o'zgarayotgan texnologik, ijtimoiy-ekologik va boshqa xususiyatlarning umumlashgan holatdagi o'zgarishlarini ifoda etsa, innovatsion investitsiyalashtirish faqat ishlab chiqarish yoki ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish va ko'rsatish jarayonida bo'layotgan yangi sifat o'zgarishlarini o'zida ifoda etadi.

Ilm-fan va texnika taraqqiyotisiz milliy iqtisodiyotni bozor munosabatlariga asoslangan holda shakllantirish va to'liq erkinlashtirilgan raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyotini barpo etishni tasavvur qilib bo'lmaydi. Respublikada innovatsiya yangiliklarini shakllantirish va ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ilm-fan va texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirishni jahon standartlari talablari darajasida takomillashtirishning asosiy yo'li uni rivojlantirish uchun ajratilayotgan innovatsion investitsiya mablag'lari miqdoriga bog'liq. Innovatsiya jarayonini rivojlantirish uchun yo'naltiriladigan investitsiyalar davlat, xususiy tadbirkorlik subyektlari va xorijiy davlatlar hamda tadbirkorlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Innovatsiya investitsiyalari, asosan, ishlab chiqarish subyektlaridami yoki maxsus innovatsiya faoliyatini olib boruvchi subyektlardami, odatda, innovatsiya loyihasini ifoda etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsiya faoliyatini moliyalashtirish davlatning muhim investitsiya tadbirlaridan biri bo'lib, quyidagi strategik vazifalar bajarilishini ta'minlaydi:

– fan-texnikaning ilg'or yutuqlari amaliyotga tatbiq etilishi orqali milliy iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan texnologik qayta qurilishini ta'minlash;

– mamlakat iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishida fan-texnika va innovatsiya salohiyatini saqlab qolish va rivojlantirish.

Har qanday ishlab chiqarish subyekti ma'lum sifat va iqtisodiy natijaga erishish uchun korxona bo'yicha o'zining ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan xo'jalik-tadbirkorlik rejasini, ya'ni ilmiy-texnika taraqqiyotini ta'minlash tadbirlarini ishlab chiqadi. Bu tadbirlar umumlashgan holda tadbirkorlik obyekti bo'lgan korxonaning yoki maxsus innovatsiya faoliyati bilan shug'ullanuvchi venchur korxonalarning innovatsiya loyihalarini tashkil etadi.

Innovatsiya tadbirkorligi faoliyati o'zining shakllanish modellariga ega, ular quyidagilardan iborat:

– ishlab chiqarish subyektlari ichida maxsus innovatsiya jarayonlari bilan shug'ullanuvchi va uning natijalarini ishlab chiqarishga tatbiq etuvchi subyektning bo'lishi;

– tashqi muhit ta'sirida ma'lum bir yo'nalishda innovatsion tarzda ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish uchun innovatsiya jarayonlari bilan shug'ullanuvchi subyektlarga xo'jalik bitimlari asosida buyurtma berish;

– innovatsiya jarayonini amalga oshirish uchun tadbirkor-subyektlar tomonidan ularning ixtiyorida maxsus sho'ba venchur korxonalarni tashkil etish bilan va qo'shimcha tashqi subyektlarni jalb etish bilan qo'shma korxonalar tarzida amalga oshirish.

Innovatsion investitsiyalashtirishni amalga oshirish innovatsiya faoliyatiga bog'liq. Innovatsiya faoliyati turli omillar, uslublar va boshqaruv asosida ilmiy xodimlar tomonidan yangi ishlab chiqarish texnikalari, texnologiyalari, yangi mahsulotlar sifatida yoki ishlab chiqarish mehnatini tashkil etishning yangi shakli sifatida, ishlab chiqarish jarayonini moliyalashtirishni, ilm-fan va texnika taraqqiyotini muvofiqlashtirish, iqtisodiy manfaatdorlik omillarini tashkillashtirish asosida ilm-fan va texnika taraqqiyotini rivojlantirish orqali ishlab chiqarishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligining o'sib borishini ta'minlaydi.

Innovatsiya iqtisodiy kategoriya ekanligi uning ishlab chiqarish jarayonida iqtisodiy samara olishni ta'minlay oladigan holatini ifoda etadi. Innovatsiya investitsiyalari ishlab chiqarish va investorlar daromadlarining o'sib borish manbayi bo'lishi bilan birga, ularning ijtimoiy shart-sharoitlarini yaxshilash vazifasini ham bajaradi.

Albatta, innovatsiya investitsiyalari qiymati o'z-o'zidan foyda keltirmaydi. Uning foyda keltirishi tadbirkorlar va investorlarning investitsiyalashtirish, innovatsiya muhitini yaxshilash bo'yicha tanlab olgan usulning to'g'ri va obyektivligi darajasiga bog'liq.

Innovatsiya jarayonini tashkil etish kutilmagan xavf-xatarlardan holi emas. Shuning uchun uning oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirib borish zarur.

Innovatsiya mahsulotlarining tovar holatida rivojlanishi bozor iqtisodiyotining talab va taklif qonunidan kelib chiqqan holda talab va taklifni muvofiqlashtirishda faol qatnashadi.

Innovatsiya ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Investitsiya mablag'laridan ajratilgan innovatsiya kapitali ishlab chiqarish jarayonining takomillashib va kengayib borishini ta'minlaydi. Shuning uchun jamiyatning ishlab chiqarish vositalariga va iste'mol buyumlariga bo'lgan talablarini qondirish uchun investitsiya mablag'laridan innovatsiyani rivojlantirish uchun zarur bo'lgan mablag'lar miqdorini ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda shakllantirish kerak.

Innovatsiya iqtisodiy kategoriya ekanligini nazariy jihatdan tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

– innovatsiya faoliyati innovatsiya, innovatsiya jarayoniga nisbatan keng ma'noga ega bo'lib, ilm-fan va texnika yangiliklarini ishlab chiqarishga tatbiq etishni ifoda etadi. Innovatsiya faoliyati innovatsiya va innovatsiya jarayonini to'liq qamrab oladi;

– innovatsiya ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish uchun yo'naltirilgan innovatsiya mablag'larining asosiy qismi bo'lib, ishlab chiqarish subyektlarining asosiy ishlab chiqarish mablag'larida mujassamlashadi.

Innovatsiya loyihalarini moliyalashtirish innovatsiya loyihalarining samaradorligi bilan bog'liq. Ammo, innovatsiya loyihalarining samaradorligini oshirishda investitsiya loyihalarining samaradorligini aniqlash uslubiyoti talabga javob bermaydi. Buning asosiy sababi innovatsiya loyihalarini amalga oshirishda qatnashuvchi xodimlarga nisbatan innovatsion investitsiyalashtirishda ko'proq xodimlar qatnashadi.

Innovatsiya jarayonida investorlar, ilmiy-tadqiqot institutlari, tajribaviy loyihalashtirish, yangi mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar faol qatnashadilar. Albatta, shuni aytish lozimki, innovatsiya loyihalarini amalga oshirish, ishlab chiqarishga yangilik kiritish bilan bog'liqdir. Innovatsion investitsiyalashtirishning asl maqsadi ilmiy-tadqiqot va yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishdan iboratdir. Yangilikni qo'llashdan maqsad ilg'or iqtisodiy natijalarga erishishdir. Ammo, unga uslubiy tavsiyalar yetarli darajada ishlanmagan.

Innovatsiya faoliyati samaradorligini aniqlashda, nafaqat, olinayotgan daromadni, balki undan uzoq muddat foydalanishning ta'minlashini ham aniqlash zarur.

Innovatsiya faoliyatini tashkil etish samaradorligini ikkiga, ya'ni innovatsiya yutuqlarini ishlab chiqarishda qo'llash va ishlab chiqarish yangiliklarini sotishdan kelgan samaradorlikka bo'lib o'rganish zarur.

Innovatsiyani tashkil qilishning innovatsiya faoliyatidagi samaradorligini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

1. Iqtisodiy samaradorlik: yangilikni litsenziyalashtirishdan kelgan foyda; yangilikni ishlab chiqarishga qo'llashdan olingan foyda; ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi va sotilishining o'sishi; ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishning o'sishi; ishlab chiqarishga sarf etilgan investitsiyalarni qoplash muddatining;

2. Ilmiy-texnikaviy samaradorlik: ro'yxatga olingan ilm-fan va texnika yo'nalishidagi ixtirolar; iqtisodiyot taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan yangi innovatsiya texnologiyalarini ko'payishi; ishlab chiqarish jarayonida yangi ishlab chiqarish texnologiyalarining ko'payishi; ishlab chiqarish, mehnatni tashkil etish darajasining o'sishi; ishlab chiqarishni avtomatlashtirilgan holda boshqaruvning o'sishi.

Innovatsiya faoliyatini tashkil etishning iqtisodiy samaradorligi ishlab chiqarish subyektlari tomonidan resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Natijada u yalpi ishlab chiqarish hajmining va mahsulot sifatining oshishiga olib keladi. Bu mehnat unumdorligining, qaytimlari samaradorligining o'sib borishida ifodalangan bo'lib, u ishlab chiqarishga sarf etilgan mablag'larning aylanma harakatini tezlashtirishga va ishlab chiqarayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga imkon beradi.

Innovatsiya yangiliklarini ishlab chiqarish jarayonida qo'llashning samaradorligi ishlab chiqarish subyektlarining ijtimoiy va ekologik samaradorligining o'sib borishiga olib keladi.

1. Ijtimoiy samaradorlik: innovatsiya bo'limlari xodimlari manfaatdorliklarining o'sishi; ishlab chiqarish xodimlarining fiziologik talablarini qondirishning o'sishi; ishlab chiqarish xodimlari faoliyatlarida mehnat xavfsizligi darajasining o'sishi; ishlab chiqarish xodimlarining ma'naviy va ijtimoiy manfaatdorliklarining o'sishi; ishlab chiqarish xodimlari malakalari, kasbiy

mahoratining o'sishi; ishlab chiqarish xodimlarining mehnat qilish va dam olish sharoitlarining yaxshilanishi; ishlab chiqarish xodimlari, ularning oila a'zolari yashash darajalarining o'sishini;

2. Ekologik samaradorlik: yangiliklarni qo'llash asosida atrof-muhitni muhofaza qilishning o'sishi; ishlab chiqarish chiqindilarining kamayishi; ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning ekologik sifatlarining yaxshilanishi; ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan shovqinlarni va tebranishlarni kamaytirish; ishlab chiqarish jarayonida ekologik muhitni yaxshilash hisobiga ekologik holatni buzganlik uchun to'lovlarning kamayishini nazarda tutadi.

Innovatsiya yangiliklarining ijtimoiy samaradorligi innovatsiya faoliyati bilan shug'ullanayotgan xodimlarning manfaatdorligini ta'minlasa, ekologik samaradorlik innovatsiya yangiliklarini qo'llash asosida tabiat muhitini himoya qilish va ekologik jihatdan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatining yuqori darajada bo'lishi hisobiga ta'minlanadi.

Buni innovatsion investitsiyalashtirish loyihalarining TIA natijasida eng barqaror, maqbul loyihalarni taqqoslama va mutlaq samaradorligini e'tiborga olgan holda tanlab olish mumkin.

Albatta, innovatsiya samaradorligi mutlaq ko'rsatkichga asoslangan holda aniqlanishi zarur, ammo, bu loyihalarning samaradorlik darajalarini solishtirish orqali eng muqobil variantini qabul qilish, oqibatda, mutlaq samaradorlikning o'sib borishini ta'minlashi mumkin.

Innovatsiya samaradorligini aniqlashda, nafaqat, innovatsiya loyihalarining samarador shakllariga, balki uning ishlab chiqarish subyektlarining xo'jalik va moliyaviy faoliyatlariga bo'lgan ta'sirini ham e'tiborga olish zarur. Innovatsiya samaradorligini aniqlash innovatsiya yangiliklariga sarf etilgan umumiy xarajatlar miqdori va uning natijalaridan foydalanish davri bo'yicha aniqlash zarur.

Innovatsiya samaradorligini quyidagi formula orqali hisoblash mumkin[1]:

$$И_{нс} = \frac{И_{нф}}{И_{нт}} \cdot 100\% \qquad (14.1)$$

[1] Крылов Э.И., Власова В.М., Журавкова И.В. Анализ эффективности инвестиционной и инновационной деятельности предприятия. М.: Финансы и статистика, 2003. С. 325.

bu yerda: I_{ns} – innovatsiya samaradorligi, foizda; I_{nf} – innovatsiya foydasi, so'mda; I_{nx} – innovatsiya xarajatlari, so'mda.

Innovatsiya yangiliklarining samaradorligini aniqlashda innovatsiya loyihalarini bir necha variantlarda o'rganib, ularning eng samaradorligini tanlab olish iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi.

Innovatsiya yangiligi samaradorligini aniqlashda ishlab chiqarish, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik samaradorlik talablariga javob beradigan innovatsiya loyihasi ustida ish olib borish maqsadga muvofiqdir.

Fikrimizcha, innovatsiya samaradorligini aniqlashda yangilikdan foydalanishdan keladigan foydaga ikki yoqlama qarash zarur. Birinchidan, innovatsiya samaradorligi innovatsiya xarajatlarining to'liq qoplanishini ta'minlashi zarur bo'lsa, ikkinchidan, undan foydalanish natijasida kutiladigan foyda miqdorini olishni ta'minlashi lozim.

Innovatsiya samaradorligi innovatsiya faoliyatini amalga oshirish orqali aniqlanishi mumkin. Innovatsiya faoliyatini amalga oshirmasdan turib, innovatsiya samaradorligini aniqlash mumkin emas. Innovatsiya faoliyati samaradorligini quyidagi formula orqali aniqlash o'rinli[1]:

$$\Phi_n = \frac{C_\phi + K_\phi}{y} \cdot 100\% \qquad (14.2)$$

bu yerda: $\mathbf{F_n}$ – foyda normasi, foizda; $\mathbf{S_f}$ – sof foyda, so'mda; $\mathbf{K_f}$ – olingan kreditlarga to'lanadigan mablag'lar, foizda; **U** – umumiy innovatsiya xarajatlari, so'm hisobida.

Innovatsiya samaradorligi innovatsiya investitsiyasi samaradorligi bilan uzviy bog'liqdir.

Innovatsiya samaradorligini makroiqtisodiyot darajasida quyidagi formula asosida aniqlash mumkin[2]:

$$U_{smq} = Ya_{smq} + I_{smq} + Ya_{fsm} \qquad (14.3)$$

bu yerda: $\mathbf{U_{smq}}$ – umumiy sof mahsulot qiymati, so'm hisobida; $\mathbf{Ya_{smq}}$ – yangilikni kiritish hisobiga olingan sof mahsulotni sotish qiymati, so'm hisobida; $\mathbf{I_{smq}}$ – ishlab chiqarish

[1] Крылов Э.И., Власова В.М., Журавкова И.В. Анализ эффективности инвестиционной и инновационной деятельности предприятия. М.: Финансы и статистика, 2003. С. 325.

[2] Крылов Э.И., Власова В.М., Журавкова И.В. Анализ эффективности инвестиционной и инновационной деятельности предприятия. М.: Финансы и статистика, 2003. С. 315.

jarayonida olingan sof mahsulot qiymati, so'm hisobida; Ya_{fsm} – yangilikdan foydalanishda sof mahsulot olish qiymati, so'm hisobida.

Albatta, bu samaradorlik yil hisobiga aniqlanadi. Bu umumiy sof mahsulot hajmi va amortizatsiya xarajatlarini o'zida ifodalaydi.

Innovatsiya samaradorligini aniqlashga nisbatan innovatsiya yangiliklarining samaradorligini aniqlashda ko'proq e'tiborni eng yaxshi, maqbul variantga qaratish zarur.

Innovatsiya samaradorligining o'sib borishi innovatsiya investitsiyalashtirish samaradorligining shakllanishiga ta'sir etadi.

Innovatsiya investitsiyasi samaradorligi innovatsiya yangiligini yaratish bilan bog'liq xarajatlar va uning hisobiga ishlab chiqarish jarayonida yil hisobida hosil qilingan yangilik quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$I_{ich} = I_{mq} - M_h \quad (14.4)$$

bu yerda: I_{ich} – innovatsiyaning yil hisobiga ishlab chiqarish xarajatlari,so'm hisobida; I_{mq} – yangilik hisobiga yil bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati, so'm hisobida; M_h – yil bo'yicha yangi mahsulot ishlab chiqarishga sarf etilgan moddiy xarajat, so'm hisobida.

Yangilikni ishlab chiqarishga qo'llash asosida sof mahsulotni ishlab chiqarishni quyidagi formula asosida hisoblash mumkin [2]:

$$I_{chs} = I_{ich} - I_{su} \quad (14.5)$$

bu yerda: I_{chs} – ishlab chiqarilgan sof mahsulot, amortizatsiya qiymatlari bilan yil bo'yicha, so'm hisobida; I_{su} – ishlab chiqarilgan sof mahsulotning amortizatsiya qiymatlari bilan yil bo'yicha o'sishi, so'm hisobida.

Yil bo'yicha yangilikni qo'llash asosida olingan sof mahsulot qiymatini quyidagi formula orqali hisoblash mumkin:

$$I_{sm} = M_x - A \quad (14.6)$$

bu yerda: I_{sm} – ishlab chiqarilgan sof mahsulot; M_x – yil bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan moddiy xarajatlar,

[1] Крылов Э.И., Власова В.М., Журавкова И.В. Анализ эффективности инвестиционной и инновационной деятельности предприятия. М.: Финансы и статистика, 2003. С. 320.

[2] Крылов Э.И., Власова В.М., Журавкова И.В. Анализ эффективности инвестиционной и инновационной деятельности предприятия. М.: Финансы и статистика, 2003. С. 321.

so‘m hisobida; A – ishlab chiqarish jarayonida yillik ajratilgan amortizatsiya mablag‘lari, so‘m hisobida.

Bir yil ichida innovatsion investitsiyalashtirish asosida hosil bo‘lgan sof mahsulotni quyidagi formula yordamida hisoblash mumkin:

$$S_f = Ya_{sm} - I_{sf} \qquad (14.7)$$

bu yerda: S_f – sof mahsulot, so‘m hisobida; Ya_{sm} – innovatsiya yangiligi hisobiga bir yilda ishlab chiqarilgan yalpi sof mahsulot, so‘m hisobida; I_{sf} – innovatsiya sof mahsuloti, so‘m hisobida.

Yil davomida yaratilgan umumiy yalpi sof mahsulot qiymatidan yillik innovatsiya orqali yaratilgan sof mahsulot qiymatini ayirish orqali yillik innovatsiya asosida ishlab chiqarilgan sof mahsulotni aniqlash mumkin.

Bir yillik innovatsiya foydasini quyidagi formula orqali hisoblash mumkin[1]:

$$F = Ya_{sm} - I_x - I_{xi} = F_1 + A_1 \qquad (14.8)$$

bu yerda: F – yillik foyda, so‘m hisobida; Ya_{sm} – innovatsiya yangiligi hisobiga yaratilgan yalpi sof mahsulot, so‘m hisobida; I_x – yil bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlar, so‘m hisobida; I_{xi} – innovatsiya faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan ish haqi xarajatlari, so‘m hisobida; F_1 – yangilikni ishlab chiqarish jarayonida qo‘llash asosida olingan foyda, so‘m hisobida; A_1 – yangilikni ishlab chiqarishga qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan yillik amortizatsiya ajratmalari, so‘m hisobida.

Innovatsiya yangiliklarini ishlab chiqarishga qo‘llash asosida bir yil ichida olingan foydani quyidagi formula orqali hisoblash mumkin[2]:

$$F = F_1 - F_0 \qquad (14.9)$$

Bu yerda: F – foyda; F_1 – innovatsiya yangiligini qo‘llash hisobiga olingan foyda, yil hisobiga, so‘mda; F_0 – Innovatsiya yangiligini qo‘llamasdan olingan foyda, yil hisobiga, so‘mda.

---

[1] Крылов Э.И., Власова В.М., Журавкова И.В. Анализ эффективности инвестиционной и инновационной деятельности предприятия. М.: Финансы и статистика, 2003. С. 322.

[2] Крылов Э.И., Власова В.М., Журавкова И.В. Анализ эффективности инвестиционной и инновационной деятельности предприятия. М.: Финансы и статистика, 2003. С. 322.

Innovatsion investitsiyalashtirish jarayonini amalga oshirish orqali ishlab chiqarishda qo'llanilayotgan innovatsiya yangiliklari mahsulotlar ishlab chiqarish xarajatlarining pasayib borishini ta'minlaydi va uni quyidagi formula asosida hisoblab chiqish mumkin[1]:

$$T = \frac{Я_{см}}{Я_{смо}} * T_н - T_{н1} = Я_{со} - Я_с \qquad (14.10)$$

bu yerda: **T** – ishlab chiqarish xarajatlarining tejamkorligi, so'm hisobida; $\mathbf{Ya_{sm}}$ – innovatsiya yangiligi hisobiga bir yil ichida yalpi sof mahsulotni ishlab chiqarish, so'm hisobida; $\mathbf{Ya_{smo}}$ – bir yil ichida yalpi ishlab chiqarilgan mahsulot, so'm hisobida; $\mathbf{T_n}$ – me'yoriy tannarx, so'm hisobida; $\mathbf{T_{n1}}$ – innovatsiya yangiligini qo'llash asosidagi tannarx, so'm hisobida; $\mathbf{Ya_{so}}$ – umumishlab chiqilgan mahsulot tannarxi, so'm hisobida; $\mathbf{Ya_s}$ – yangilikni qo'llash asosida hisoblab chiqilgan tannnarx, so'm hisobida.

Innovatsiya investitsiyasi samaradorligini innovatsiya yangiligini ishlab chiqarish jarayoniga qo'llash natijasida olingan tejamkorlik ko'rsatkichlari orqali ham aniqlash mumkin.

14.3. Innovatsiya faoliyati – tadbirkorlik taraqqiyotini yuksaltirish omili sifatida. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning innovatsiya faoliyati

Ma'lumki, iqtisodiy nazariyada, jumladan, «Iqtisodiyot nazariyasi» darsligida: «tadbirkorlik mohiyatan biznesning asosiy turi. Ammo har qanday biznesni tadbirkorlik, deb bo'lmaydi. Buning uchun biznes yaratuvchilik belgilariga ega bo'lishi lozim»[2], deb e'tirof etiladi. Bundan ko'rinadiki, yaratuvchanlik tadbirkorlikning asosiy xususiyatini ifodalaydi va shu bilan «biznes»dan farqlanadi. Agar innovatsiyani «yangiliklarni joriy etish» mazmunida talqin qiladigan bo'lsak, innovatsiya tadbirkorlikning tub mohiyatini ifodalaydi.

Innovatsiya iqtisodiyotning asosiy iqtisodiy kategoriyalaridan biri bo'lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida alohida ahamiyatga egadir. Erkin raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti sharoitida

[1] Ўша манба.
[2] O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. T.: «Sharq», 2006. – B. 142.

iqtisodiyotning innovatsiya asosida rivojlanishini eng samarali tanlab olingan yo'l, deb hisoblash mumkin.

Korxonaning innovatsiya faoliyati mahsulot (xizmat) ishlab chiqarish texnologiyalari, asosiy vositalarni yangilashdan iborat harakatlari yig'indisi hisoblanadi. Ilmiy adabiyotda innovatsiya faoliyati yangiliklarning amaliyotga birinchi bo'lib joriy etilishi, ya'ni bu yangiliklarning tijorat asoslarida amalga oshirilishi sifatida tushuniladi[1]. Korxonalar faoliyatida mahsulot innovatsiyasi (yangi mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish) va ishlab chiqarish jarayoni innovatsiyasi (yangi texnologiya va ishlab chiqarish usullaridan foydalanish) farqlanadi.

Aniq mahsulot, texnologiyalar, bozorlar, boshqarish uslublariga oid alohida yangiliklarning joriy etilishi korxona menejerlaridan ma'lum sharoitlarning ta'minlanishini talab etadi: birinchidan, xodimlarda yangi ish turlarini bajarishlarida ma'lum ko'nikmalar hosil qilish; ikkinchidan, innovatsiya faoliyatiga butun korxonani ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida yo'naltira olish. Mazkur jarayonda boshqarish obyekti sifatida korxona xodimlari chiqadi, chunki innovatsiya faoliyati kishilarning ijodiy qobiliyatlari va kuchlarining namoyon bo'lishidan iboratdir. Bundan shu narsa kelib chiqadiki, innovatsiya faoliyatining rivojlanishi nuqtayi nazaridan menejmentning asosiy vazifasi sifatida xodimlarda mavjud ijodga, yaratuvchanlikka, yangiliklarni joriy etish va ularni amalga oshirish uchun qulay sharoitlarni ta'minlashga qodir bo'lgan potensial imkoniyatlarni aniqlash maydonga chiqadi.

Innovatsiya faoliyati qator xususiyatlarga ega va yangiliklarni ishlab chiqarishga joriy etayotgan deyarli har bir kichik korxona uning tashkiliy muammolariga duch keladi. Bunday muammolarga quyidagilarni kiritish mumkin: ilmiy-texnikaviy yoki tashkiliy yangiliklarni yaratish va shakllantirish muammolari; mavjud g'oyalarni aniq yo'nalishlar bo'yicha tatbiq etish (loyihalarning tayyorlanishi, tashkiliy-me'yoriy hujjatlar) muammolari; yangiliklarning tashqi va ichki muhitga moslashuvini ta'minlash muammosi. Bu muammo ham tajribalar o'tkazish davomida, ham bu yangilikni ishlab chiqarishga keng joriy etish davomida vujudga

[1] Макаркин Н.П., Шаборкина Л.В. Инновационный менеджмент: Уч.пос. – Саранск: «Мордовск», 2003. С. 29.

keladi; yangilikni ishlab chiqarishga joriy etish va ommaviy takror ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish muammolari.

Yuqorida ta'kidlanganidek, korxona innovatsiya faoliyatida mahsulot innovatsiyasini va texnologik innovatsiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin. Mazkur innovatsiyalarning korxonalar iqtisodiy maqsadlariga erishishlaridagi ta'sir yo'nalishlari qanday? degan asosli savol tug'iladi. Mahsulot innovatsiyalari korxonaga nisbatan yangi mahsulot birligi hamda ilgarigi mahsulot sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash hisobiga ularning haqiqiy sotish bahosini tannarx bilan bog'lash orqali foydani ko'paytirish imkonini beradi.

Korxonaning yangi mahsulotlarni yuqori baholarda, haqiqatda, sota olishi ikki shartning bajarilishi bilan bog'liq: yangi mahsulotning haqiqatda mavjud qondirilmayotgan talabga mos tushishi; yangi mahsulotga bo'lgan talab darajasining faol marketing siyosati orqali o'sishi.

Biroq, umumiy holda ma'lum uzoq vaqt davomida korxona yuqori sotish bahosi orqali qo'shimcha foyda olish imkoniyatini ushlab tura olmaydi. Bunga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin: bozorda aynan shu mahsulotni ishlab chiqaruvchi raqobatchilar yangi mahsulotni qulay tijorat asoslarida sotib, bozordagi bahoga ta'sir o'tkazishlari mumkin; garchi mavjud bozor monopol tovar bozori bo'lganda ham mablag'larning bir tarmoqdan boshqa tarmoqqa kirib kelishining moliyaviy mexanizmlari amal qilishi orqali mazkur tovar bozorida yangi ishlab chiqaruvchi firmalar paydo bo'lishi mumkin. Shuning uchun rivojlangan bozor muhitida yangi mahsulot turining sotish baholarini oshirish hisobiga olinadigan yuqori foyda cheklangan istiqbolga ega. Bunday taraqqiyot asoslariga umid qilish korxonaga barqaror tarzda yuqori foyda olishga va yangi ishlab chiqarishning to'xtab qolishi yoki boshqa sohaga qayta ixtisoslashuvidagi zararlardan istisno bo'lishga imkon bermaydi.

Shu bilan birga, yangi mahsulot birligi bahosining yuqoriligi va rentabelligi omilini butunlay inkor etib bo'lmaydi, chunki bu omil vaqtincha bo'lsa ham, yangi mahsulot bozorida tanho hukmronlik, raqobatbardosh korxonalarning kuchli ta'siridan birmuncha yengillashishga imkoniyat yaratadi. Bu imkoniyat yangi mahsulot turini ishlab chiqarishga ruxsatnoma-patentlar

olish va shunga asosan ma'lum hududda uni ishlab chiqarishga monopol egalik qilishlari yoki ma'lum vaqt ichida mazkur yangi mahsulotning muhim texnologik yechimlarini maxfiy nou-xau sifatida qat'iy tijorat sirida ushlab turishlarida namoyon bo'ladi. Har qanday holatda ham bu yerda innovatsiyaga vaqtinchalik monopol egalik qilish haqida fikr yuritilmoqda. Mazkur vaqtinchalik monopol egalik qilish muddati ichida raqobatchilar mazkur mahsulotni ishlab chiqarish texnologiyasini o'zlashtirib, «parallel» ruxsatnomalar olishlari, maxfiy texnik ma'lumot asosida mahsulotni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishlari mumkin. Nihoyat, raqobatchilar to'g'ridan to'g'ri ruxsat beruvchi firmadan yangi mahsulotga litsenziya (patent) va uning texnologiyasini sotib olishlari mumkin.

Ma'lumki, rivojlangan davlatlarda ixtiro erkinligi sharoitida patentlarni o'z nomidan ko'ra, ko'proq, o'zi ishlayotgan firma nomiga rasmiylashtirish keng tarqalgan. Buning sabablari quyidagilarda ko'rinadi: mehnat kelishuvlarida shunday majburiyatlar ko'rsatilganligi; firmada qo'shimcha to'lovlar va mukofotlarning kattaligi; litsenziyani sotishdagi qiyinchiliklarni tushunib yetish (texnologiyani yetkazib berish, montaj ishlari, ishga tushirish va h.k.); kishilarda o'z shaxsiy ishini boshlashni istamaslik.

Rivojlangan mamlakatlarda davlat o'z tadbirlari tizimida innovatsiyaga monopol egalik qilish nisbatan uzoqqa cho'zilmasligini hisobga olib, bu sohada tanho hukmronlik bilan kurashishgina emas, balki davlat tomonidan himoya etiladigan patent tizimini kiritish bilan uni rag'batlantirishga harakat qilmoqda.

Umuman olganda, bir tomondan, yangi mahsulot va uni ishlab chiqarish texnologiyasi sohasida vaqtincha tanho hukmronlikka intilish korxonalarning mahsulotni yangilash bilan faol shug'ullanishlari uchun yetarli omildir. Boshqa tomondan, bunday tanho hukmronlikning vaqtinchalik xususiyatdaligi mamlakat iqtisodiyotini izdan chiqarmaydi, balki rivojlanish garovi bo'ladi. Albatta, shunday korxonalar borki, ular o'z innovatsion tanho hukmronligini iloji boricha uzoqroq muddatda saqlab qolishga urinadi. Buning uchun ular o'z yangiliklarini iloji boricha qator mayda texnik yechimlarga ajratib, ularning har biri uchun patent tizimini qo'llaydi, ko'p sonli huquqshunoslarga ega bo'lib, o'z patentlarini nazorat qilish agentliklarini tuzadi, korxona ichida

va tashqarisida o'ta maxfiylik muhitini kuchaytiradi. Biroq, bularning hammasi katta mablag'larni talab qiladi. Masalan, AQShda har bir patentning ro'yxatdan o'tkazilishi uchun (ekspert to'lovini ham qo'shganda) 3-7 ming AQSh dollari to'lanishi lozim; patentlarni o'z kuchida saqlab turishi uchun ularning har biriga 0,7-1,0 ming AQSh dollari miqdorida davlatga to'lov to'lanadi [1]. Bundan tashqari, patentlashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish va texnologiyalarni joriy etishga litsenziyalarni sotishdan doimiy tarzda qat'iy norozilik ko'rsatilishida raqobatchi korxonalar tanho hukmronlikka qarshi sudga murojaat etishlari va majburiy tarzda litsenziyalarni sotib olishlari mumkin (bu holat, ayniqsa, Buyuk Britaniya davlati uchun xos).

Rivojlangan davlatlarda tanho hukmron ishlab chiqaruvchilarga qarshi qonunchilikda faqat tanho hukmron firmaning bozorning katta qismini nazorat qilayotganligini keltirishgina kifoya qilmaydi. Bunda asosiy narsa — tanho hukmron firmaning o'z hukmronligini ta'qiqlangan usullarda (masalan, bozorga raqobatdosh korxonalarni kiritmaslik, ularga qat'iy tarzda litsenziyalarni sotmaslik va h.k.) himoya etishidir.

Mahsulot innovatsiyalarida korxona quyidagi holatlarda mahsulot sotish hajmini oshirish hisobiga foydani ko'paytirish imkoniga ega bo'ladi:

— mavjud tovar bozorida korxona yaratgan va taklif etayotgan yangi mahsulotning yuqori samaradorligi, xaridorgirligi hisobiga raqobatdosh korxonalar xaridorlarini ham o'ziga ag'darib olish evaziga mahsulot sotish hajmini oshirish;

— yangi mahsulot ishlab chiqarish bilan oldindan amal qilayotgan va to'ldirilmagan bozor segmentida mavjud talabni qondirish hisobiga mahsulot sotish hajmini oshirishga erishish;

— xaridorlarga mutlaqo yangi mahsulotni tavsiya etish bilan raqobatchi korxonalarda hali mavjud bo'lmagan yangi bozor yaratish hisobiga mahsulot sotish hajmini oshirish.

Mahsulot sotish hajmini oshirishning yuqoridagi ikki usuli aniq xaridorlar va ularning guruhlariga nisbatan mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish hisobiga ta'minlanadi.

[1] Chandra Prasanna. Financial Management. Theory and Practice. Third Edition. – New Delhi: Tata Mc Graw-Hill Publishing Company Limited, 2005. – P. 243.

Korxonalar mahsulotining raqobatbardoshligi to'rt asosiy omil bilan belgilanadi: mahsulot sifati; mahsulot bahosi; olingan ishlab chiqarish buyurtmalari bo'yicha mahsulot yetkazish muddatlari; mahsulot ishlab chiqaruvchi tomonidan ta'minlanishi lozim bo'lgan mahsulotning ishlatilishi jarayonidagi texnik xizmatning to'laligi, sifati, operativligi va qiymati.

Mahsulot ishlab chiqarishdagi mazkur ko'rsatkichlarning yaxshilanishiga korxona innovatsiya faoliyati xizmat qiladi. Bunda quyidagi holatlarga alohida e'tibor bermoq lozim. Birinchidan, yangi mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishda uning sifatini oshirish, undagi iste'molchilar uchun ahamiyatli bo'lgan iste'mol xislatlarini yaxshilashdan iborat. Ikkinchidan, yangi mahsulot (boshqa barcha teng iqtisodiy sharoitlarda) qanchalik arzon bo'lsa, shunchalik raqobatga chidamli bo'ladi. Bu, o'z navbatida, uning tannarxi pasayishini talab qiladi. Uchinchidan, iste'molchilarning mahsulot o'lchamlari va sifat belgilariga ko'ra tabaqalashtirilishi maqsadga muvofiqdir. Bunga dastlabki marketing izlanishlari (tadqiqotlari) orqali erishiladi. To'rtinchidan, korxona bozordagi ishlatilmayotgan imkoniyatlardan foydalanishga yanada yuqoriroq konstruktorlik va texnologik yangiliklarni joriy etish hisobiga erishishi mumkin. Beshinchidan, yangi mahsulotni ishlab chiqarishga joriy etish uchun real imkoniyatlarni hisobga olgan holda uni yuqori ishonchli sifatda va foydalanish uchun qulay shaklda iste'molchiga tavsiya etiladi. Texnologik innovatsiyalar korxonalarning foydani ko'paytirishga qaratilgan maqsadli faoliyati bo'lib, u quyidagi omillar vositasida ta'minlanadi: ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxining pasaytirilishi; mahsulot sifatining yaxshilanishida tannarxning ortiqcha o'sishiga yo'l qo'ymaslik; talab mavjud mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish hajmining mavjud quvvatlarda yoki yangi yaratilayotgan, lekin, yanada unumliroq quvvatlarda o'sishini ta'minlash; eski texnologiyalar yordamida tayyorlanish imkoni bo'lmagan, tijorat asoslari istiqbolli bo'lgan yangi mahsulotlarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratish va boshqalar.

Davlatning korxonalar innovatsiya faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan tadbirlari tizimida mazkur faoliyat bilan bog'liq xarajatlarning mahsulot tannarxiga kiritilishi, ya'ni soliqlardan ozod etilishini, tijorat banklarining innovatsiya kreditlarini hamda

moliyaviy fondlar, xorijiy sarmoyachilarning korxonalar innovatsiya loyihalarini moliyalashtirishdagi ishtiroki alohida ajralib turadi.

Korxonalar innovatsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari ichida korxona o'z mablag'lari, turli moliyaviy fondlardan ajratmalar va budjet dotatsiyasining imkoniyatlari ancha cheklanganligini hisobga olib, hozirgi kundagi muhim ahamiyatga ega bo'layotgan manba – tijorat banklarining innovatsiya kreditlarini kengroq ko'rib o'tamiz.

Tijorat banklarining, nafaqat, ssuda kapitallari bozorida, balki tovarlar bozorida ham to'laqonli ishtiroki ular tomonidan innovatsiya kreditlari berish amaliyotida ta'minlanadi. Bu kreditlarning berilishi yangilikni ifodalovchi istiqbolli g'oya ishlab chiqilishidan to uning ishlab chiqarishga joriy etilishi va ularning natijalarining bozorda sotilishigacha bo'lgan jarayonlarni moliyalashtirish bilan bog'liqdir. Bu yerda shunday loyihalar haqida gap boradiki, ularning amalga oshishi aniq foyda olishni yoki hech bo'lmaganda, xarajatlarni qoplash imkonini berishi lozim, ya'ni bunda kreditning qaytarilmay qolish riski darajasi yuqoridir (bunday risk, odatda, moliyalashtiruvchi tomonga tegishli bo'ladi). Shuning uchun tijorat banklarining hamda boshqa potensial sarmoyachilarning innovatsiya krediti yuzasidan operatsiyalari yuqori riskli operatsiyalar toifasiga kiradi.

Tadbikorlik subyektlari o'z innovatsiya g'oyalarini amalga oshirish uchun moliyaviy imkoniyatlarini hisobga olib, kreditga muhtojligini aniqlagach, tegishli hujjatlar bilan bankka ariza yozadi. Moliyalashtirilishi lozim bo'lgan arizalar iqtisodiy hisobkitoblar, chizmachilik, konstruktorlik ishlari, eksperimental natijalari va namunalari bilan birga bo'lishi bank ishonchini qozonishdagi muhim shartlar hisoblanadi. Bank muassasasi topshirilgan hujjatlar va loyihalarni atroflicha texnik-iqtisodiy ekspertiza tekshiruvidan o'tkazib, bunda g'oyaning texnologik imkoniyatlari, patent olish mumkinligi haqidagi xulosalar tekshiriladi. Shartnoma asosida jalb etilgan ekspertlarning ijobiy xulosasi olingach, g'oya egasi bo'lmish korxona va bank o'rtasida har ikki tomon huquqi va majburiyatlari, foydaning taqsimlanishi, moliyalashtirish shartlari kabi holatlar ko'rsatilgan bitim imzolanadi.

Tadbikorlik subyektlari imkoniyatlariga qarab innovatsiya g'oyasining bozorga yetkazilishi va muvaffaqiyatli amalga oshirilishi bilan bog'liq vazifalarni bank zimmasiga ham yuklashi mumkin. Bu holatda bank muassasasi mazkur yangilikni o'zlashtirishga kirisha oladigan korxonalarni va zarur xomashyolarni qidirib topish bilan, kerakli uskunalar sotib olish bilan, reklama faoliyatini va mahsulotni sotishni tashkil etish bilan ham shug'ullanadi. Albatta, bu vazifalar faqatgina boshlang'ich ishning yaxshi natija berishiga to'la ishonch hosil qilingandagina amalga oshiriladi. Mazkur yangilik ishlab chiqarishga joriy etilishidan tushgan foydaning taqsimlanishi shartnomada ko'rsatilgan nisbatlarda amalga oshiriladi. Albatta, moliyalashtiruvchi tomonning ulushi har qanday sharoitda kredit uchun foiz to'lovlari bilan va hatto, agar kredit muddatida qaytarilmasa, oshirilgan foiz to'lovlari bilan cheklanibgina qolmasdan, balki uning foydada ishtirok etishini ham o'z ichiga oladi.

Hozirgi sharoitda kichik biznes korxonalari innovatsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlashning tashkiliy shakllari va yo'nalishlarining hududiy muammolari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu munosabat bilan kichik biznes korxonalari innovatsiya faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni takomillashtirishning quyidagi yo'nalishlarini alohida ta'kidlash mumkin:

– kichik biznes korxonalariga ko'maklashuvchi hududiy markazlar ochish orqali tashkiliy maslahat yordamlari ko'rsatish. Bunday markazlar qator masalalar bo'yicha zarur ma'lumotlar berishdan to kredit olishga ko'maklashish va to'g'ridan to'g'ri moliyaviy yordam ko'rsatishgacha bo'lgan xizmatlarni berishi mumkin;

– mahalliy budjetdan maqsadli subsidiyalar, soliq imtiyozlari (mahalliy soliqlar doirasida) va moliyaviy kafolatlar berish orqali moliyaviy yordam ko'rsatish. Mahalliy ma'muriyat siyosati mahalliy soliq stavkalarini pasaytirish orqali kichik biznes korxonalari kredit-moliya faoliyatini rag'batlantirish va murakkab masalalarni hal etishda ularga texnik yordam ko'rsatishga asoslanmog'i lozim. Innovatsiya loyihalarining istiqboliga ko'ra kichik biznes korxonalarini budjet orqali moliyalashtirish masalasi ham qo'yilishi mumkin;

– tarmoq mahkamalari, mahalliy ma'muriyat va yirik korxonalar bilan kichik biznes korxonalari o'rtasidagi bitimlar va buyurtmalar tizimini takomillashtirish. Kichik korxonalarga yirik tarmoq mahkamalari va mahalliy ma'muriyat idoralari innovatsiya loyihasining yaratilganidan to uning natijalari sotilgunga qadar bo'lgan barcha bosqichlari uchun bitimlar tuzishga ko'maklashishlari mumkin;

– innovatsiya biznesining «o'z-o'zidan rivojlanishi»ni ta'minlovchi va ishchan faollikni rag'batlantiruvchi turli tashkilotlar majmuyidan iborat bo'lgan infratuzilmasining yaratilishi orqali kichik biznesning innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish. Bunday infratuzilmaga hududlarda tuzilgan tashkilot va agentliklarni kiritish mumkin: iqtisodiy taraqqiyotning maxsus fondlari; tadbirkorlar uyushmalari va ittifoqlari; biznes-inkubatorlari; investitsiya kompaniyalari; sug'urta kompaniyalari va nodavlat pensiya fondlari.

Mazkur tashkilotlar innovatsiya faoliyatining barcha bosqichlarida tegishli darajada ko'maklashishlari lozim.

Innovatsiya jarayonini amalga oshirishdan maqsad investitsiyalashtirish sifatining o'zgarishini ta'minlagan holda subyektlar olayotgan foydaning o'sib borishini ta'minlashdan iboratdir.

Chunki har qanday iqtisodiy jarayon ishlab chiqarish jarayonida mavjud bo'lgan ishlab chiqarish resurslarini iqtisodiy mahsulotlarga aylantirish bilan bog'liqdir. Bu jarayon bozor iqtisodiyoti sharoitida erkin raqobatga asoslangan ishlab chiqarishda subyektlarning o'zlari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarining raqobatbardosh bo'lishini ta'minlashlari, mavjud resurslarni iste'mol mahsulotlarga aylantirishning ilg'or texnika va texnologiyalariga asoslanishini talab etadi. Bu jarayon ma'lum bir vaqtni talab etadi. Innovatsiya mablag'larining ishlab chiqarish omillariga aylanishida ikki xil xususiyat mavjud. Innovatsiya investitsiyasi mablag'larining asosiy qismi yangi ishlab chiqarish binolarini, ishlab chiqarish vositalarini hozirgi zamon fan va texnika yutuqlari asosida tashkil etish bilan bog'liq bo'lsa, qolgan qismi ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan yangi xomashyolarni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'ladi. Innovatsiya investitsiyasi mablag'larining ishlab chiqarish vositalarida ifodalangan qismi o'z qiymatlarining uzoq muddatlarda amortizatsiya mablag'lari orqali

qoplanishi bilan innovatsiya jarayonlarini bozor talablari asosida qisqa muddatlarda yangilashda ma'lum qiyinchiliklarni tug'diradi. Xomashyolarda innovatsiya investitsiyasi mablag'laridan foydalanish biroz yengilroq holda amalga oshiriladi. Chunki bu innovatsiya mablag'larining doiraviy harakati birmuncha tezdir. Innovatsion investitsiyalashtirishni bazisli, ya'ni fundamental innovatsiya investitsiyalashtirishga va innovatsiya jarayonlarini takomillashtirish bilan bog'liq innovatsion investitsiyalashtirishga, ya'ni qisman yangilanishga asoslangan innovatsiya investitsiyasi xarajatlariga bo'lish mumkin. Bazisli innovatsiya investitsiyasi xarajatlari, asosan, ilm-fan va texnika taraqqiyotida yuqori darajadagi yutuqlar bilan, yangi texnika va ishlab chiqarish texnologiyalari bilan ifodalanadi. Innovatsiya jarayonini yaxshilash bilan bog'liq bo'lgan investitsiya, asosan, o'rtacha ahamiyatga ega bo'lgan ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lib, u fan va texnikaning muqobil rivojlanishi davrida o'rtacha doirada yangiliklarni kashf etish va uni tatbiq etishda ifodalanadi. Qisqa muddatda o'zining iqtisodiy ahamiyatini yo'qotgan texnika va texnologiyalarni ma'lum darajada takomillashtirishda ifodalanadi. Innovatsiya jarayoni uzoq muddatni qamrab olishi kerak.

Innovatsiya jarayonlarining rivojlanish bosqichlari quyidagilarni qamrab oladi:

– innovatsiya fikrlarining rivojlanishi;

– eng samarali innovatsiya fikrlarini aniqlash;

– innovatsiya fikrlarini amalga oshirishni iqtisodiy baholash;

– innovatsiya fikrlarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy xarajatlarni biznes-rejada asoslash;

– innovatsiya fikrlarini amalga oshirish biznes-rejasini ekspertlar tomonidan baholash;

– innovatsiya rejalar asosida namunaviy mahsulotni ishlab chiqarish va uni bozor talablari asosida sinash;

– bozorda sinalgan mahsulotlarni ishlab chiqarishni tartiblashga zarur bo'lgan o'zgartirishlarni kiritish va ularning bozordagi harakatlarini ishlab chiqish;

– sinalgan innovatsiya mahsulotlarining ishlab chiqarish jarayonini yo'lga qo'yish va ularning bozordagi sotilishini ta'minlash.

Yuqoridagilarga asoslanib, innovatsiya jarayoni bozor iqtisodiyoti sharoitida iste'mol talablari ta'sirida qisqa muddatlarda o'zining yangiliklari bilan tavsiflanadigan jarayon bo'lib, uning harakati uzluksiz ravishda takomillashgan holda amalga oshirib boriladigan turli yo'nalishlardagi harakatlarni o'zida ifoda etadi, deb hisoblaymiz. Buning asosiy sababi bozor munosabatlari sharoitida innovatsiya qo'yilmalarining erkin harakati natijasida iqtisodiy subyektlar o'rtasida erkin raqobat darajasi kuchayib borishidir.



14.1-rasm. **Innovatsiya jarayonini amalga oshirish xususiyatlari**

14.4. Innovatsiya strategiyasining mohiyati. Korxonalarda innovatsiya strategiyasini shakllantirish

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida shart-sharoitlar o'zgaruvchanligining tezligi korxonalar tomonidan yashab qolish va taraqqiyotning strategik yo'nalishlarini tanlash zaruratini tug'diradi. Atrofiicha o'ylab, har tomonlama puxta va aniq maqsad bo'yicha ishlab chiqilgan strategiya[1] korxonaga o'z taraqqiyotining moliyaviy imkoniyatlarini to'g'ri baholash va o'z faoliyatining istiqbolli yo'nalishlariga mablag'larni safarbar eta olish uchun sharoitlar yaratadi.

Innovatsiya strategiyasi texnologik imkoniyatlar (tashqi va ichki), bozor maqsadlari, shuningdek, firma raqobatli pozitsiyalarining funksiyalarini ham anglatadi.

Korxona moliyaviy strategiyasi korxonani boshqarishning moliyaviy va strategik jihatlarining uyg'unlashuvi bo'lib, korxona moliyaviy taraqqiyotining uzoq istiqboldagi bosh yo'nalishini ifodalaydi. Strategiya moliyaviy boshqaruv muammolari qo'yilishiga strategik yondashuv va ushbu muammolarni yechishga dasturiy-maqsadli yondashuvni birlashtiradi.

Korxona foydasini o'stirish darajasi va dinamikasiga ko'ra moliyaviy strategiyaning quyidagi turlari farq qiladi:

1. Tez o'sish strategiyasi.
2. Barqaror rivojlanish strategiyasi.
3. Moliyaviy sog'lomlashtirish strategiyasi.

Hozirgi sharoitda korxonani moliyaviy sog'lomlashtirish strategiyasini tanlash har jihatdan dolzarblik kasb etadi hamda korxonalarning asosiy qismini yanada qiziqtiradi, chunki korxonalar barqaror rivojlanishga yoki tez o'sishga erishishlari uchun, avvalo, moliyaviy sog'lom bo'lishlari lozim. Shu

---

[1] Ma'lum bir vazifalar yechimiga qaratilgan tadbirlar majmuyidir. Investitsiya strategiyasi deganda korxonada barqaror yuqori foyda darajasini, buyurtmalar portfelining o'sishini, likvidlilik va muqobil risk darajasining saqlanishini ta'minlashga qaratilgan investitsiya resurslaridan oqilona foydalanishning uzoq muddatli bosh dasturi tushuniladi. Investitsiya strategiyasi – bu korxonaning moliyalashtirishdagi o'z mablag'lari va qarz mablag'larini olish imkoniyatlari ega bo'lgandagi istiqbolda tanlab olgan rivojlanish yo'llaridir. Investitsiya strategiyasiga quyidagicha izoh berish mumkin: maqsadlar vazifalarni belgilaydi, strategiya esa ularni yechish usulidir. Sarmoyani ishlatishning birmuncha samarali usullarini aniqlash investitsiya strategiyasini ishlab chiqishni taqozo etadi. Investitsiya strategiyasining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi: investitsiya loyihasining maqsadga muvofiqligini asoslash; mavjud muqobillardan optimal loyihani tanlash; muayyan davr oralig'ida loyihaning samaradorligini baholash va foydaliligini ta'minlash. Manba: Чернов В.А. Инвестиционная стратегия: Учеб. пос. для вузов. М.: «ЮНИТИ-ДАНА», 2003. – С. 6.

munosabat bilan korxona moliyaviy strategiyasini tanlashning asosiy tamoyillarini ajratib ko'rsatish muhimdir:

1. Moliyaviy strategiya korxona faoliyatining umumiy jihatlari bilan muvofiqlashuvi lozim:

a) moliyaviy strategiya korxona nizomidagi asosiy maqsadlarga mos kelishi kerak;

b) moliyaviy strategiya korxona umumiy rivojlanish strategiyasiga hamda uning alohida yo'nalishlariga mos kelishi zarur;

v) korxona moliyaviy strategiyasi uning alohida bo'limlari va sohalari bo'yicha tashkil etilgan moliyaviy javobgarlik markazlari hamda daromadlar va xarajatlar budjetlari istiqbolidagi taxminlarga zid kelmasligi lozim;

g) moliyaviy strategiya korxona kuchi bilan amalga oshadigan va nazorat qilina oladigan bo'lishi, ya'ni korxonaning kutilayotgan imkoniyatlariga mos kelishi lozim;

d) moliyaviy strategiya korxona moliyaviy faoliyatining evolutsion xususiyatini saqlab qolishi lozim;

e) moliyaviy strategiya korxona moliyaviy faoliyatining bosh muammolarini hal etishga qaratilishi zarur;

2. Moliyaviy strategiya tarkibiy qismlari ichki bog'lanishga ega bo'ladi:

a) moliyaviy strategiya moliyaviy maqsadlar, ularga erishish vositalari va darajalarining yaxlit tizimidir;

b) moliyaviy strategiya turli funksional elementlarning korxona faoliyatini ta'minlashga qaratilgan birgalikdagi harakatidir;

v) moliyaviy strategiya risk darajasini baholash bilan uzviy bog'liqdir;

g) moliyaviy strategiya korxonaning buxgalteriya hisobi va hisoboti hamda daromadlar va xarajatlar budjeti haqidagi ma'lumotlar asosida tashkil etiladi va amalga oshiriladi;

d) moliyaviy strategiya korxona tub vazifalarining mazmunan va shaklan ifodalanishidir;

Moliyaviy strategiya tashqi muhit bilan muvofiqlashuvi lozim:

a) moliyaviy strategiya tashqi muhit imkoniyatlarini hisobga olishi lozim;

b) moliyaviy strategiya ham makroiqtisodiy qonunlarga, ham mikroiqtisod talablariga asoslanmog'i zarur.

Korxona o'z oldiga aniq maqsad qo'yar ekan, unga erishish strategiyasini belgilaydi. Biroq, amaliyotda strategik usul va uslublarning yig'indisidan foydalanish o'z-o'zidan avtomatik tarzda muvaffaqiyatlarni ta'minlay olmaydi, chunki strategiyani ishlab chiqish va qo'llash hali ko'zlangan samarani olishni kafolatlamaydi.

Umuman, korxona moliyaviy strategiyasining tanlanishi mustahkam hisob-analitik ta'minotga asoslanmog'i lozim. Korxona tomonidan tanlangan moliyaviy strategiyaning hisob-analitik asoslanishi jarayoni moliyaviy tahlil yakunlariga ko'ra amalga oshiriladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida foyda olish va o'z moliyaviy resurslarini ko'paytirish har qanday korxonaning asosiy maqsadi hisoblanadiki, bu narsa moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojlarni, ularni tashkil etish manbalarini aniqlashni, ularni ko'paytirishning ichki zaxiralarini qidirib topishga qaratilgan moliyaviy strategiyani ishlab chiqishni talab etadi.

Tanlangan moliyaviy strategiya korxona taraqqiyotining mukammal yo'nalishini belgilaydi va tuzilgan moliyaviy holat hamda moliyaviy resurslarning o'zgarishi taxmini yordamida korxona bilan bozorning boshqa vositachilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda risk darajasini oldindan kamaytira olishni ta'minlaydi.

Moliyaviy strategiyani ishlab chiqish kichik biznes subyektlari faoliyatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kichik biznes korxonalari moliyaviy strategiyasini ishlab chiqishda qaror qabul qilish algoritmi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Ma'lumotlarni yig'ish.

2. Tashqi cheklashlar va rag'batlar tizimi ta'sirini hisobga olish.

3. Korxona ichki taftishi (auditi)ni o'tkazish va korxonaga tashqi ijtimoiy-iqtisodiy muhitning ta'sirini baholash orqali korxona strategik maqsadlarini ikkiyoqlama nazorat qilish.

4. Korxonaga muqobil moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqish va baholash uchun korxona sof foydasining abstrakt-mantiqiy

imitatsion modeli va moliyaviy strategiyasi matritsalaridan foydalanish.

5. Strategik moliya rejasi ko'rinishida aniq bir strategiyani tanlash va amalga oshirish.

Investitsiya faoliyatida strategik yo'nalishlarni ishlab chiqish bu faoliyatni amalga oshirish siyosatiga asoslanadi.

Korxona investitsiya faoliyatida strategik yo'nalishlarni ishlab chiqishda quyidagi vazifalar hal qilinadi:

1. Korxona rivojlanishida investitsiya turlarining o'zaro nisbatini aniqlash.

2. Korxona investitsiya faoliyatining tarmoq yo'nalishini belgilash.

3. Investitsiya faoliyatining hududlar yo'nalishini belgilash.

Korxona rivojlanishida investitsiya turlarining o'zaro nisbatini aniqlash – bu korxona faoliyati funksional yo'nalishi bilan o'zaro bog'liq. Ko'p hollarda, investorlar o'zlarining investitsiya faoliyatini fond bozorida amalga oshiradilar. Bunda investorlar uchun qimmatli qog'ozlar bozorida o'z mablag'larini investitsiya qilish yaxshi samara berishi mumkin. Ularning uzoqqa mo'ljallangan investitsiya faoliyatining asosiy shakli aksiya, obligatsiyalar va boshqa xil qimmatli qog'ozlar bo'lishi mumkin.

Bu vaqtda ba'zi bir korxonalar (investorlar) real investitsiyalarga mablag'lar sarflashni o'zlari uchun maqsad qilib qo'yishadi. Bu kelajakda korxona asosiy fondlarini yangilash, texnik qayta jihozlash bilan yangi raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga zamin yaratadi. Bu, o'z navbatida, korxonaning yangi tovar va hududiy bozorlarga kirishiga imkon beradi.

Bunday korxonalarning investitsiya faoliyatidagi ishtiroki qisqa muddatli, ya'ni vaqtinchalik bo'sh mablag'larini bu investitsiya turiga qisqa muddatli yo'naltirish yoki ma'lum bir korxona moliya-xo'jalik faoliyati ustidan nazorat o'rnatishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Investitsiya strategiyasi asosiy bir faktor sifatida kompaniyaning iqtisodiy rivojlanish strategiyasida samarali yo'nalish hisoblanadi. Kompaniyaning investitsiya strategiyasini tuzish jarayoni bir qancha bosqichlarda amalga oshiriladi (14.2-rasm).

Dastlabki bosqich uni tuzishdagi umumiy muddatni belgilash hisoblanadi. Bu muddat qator shartlardan kelib chiqadi. Asosiy

sharti bo'lib investitsiya bozoridagi iqtisodiy yo'nalishlarni oldindan aytib borish hisoblanadi.

Keyingi shart kompaniya qabul qilgan iqtisodiy strategiyaning davomliligidir. U belgilangan yo'nalishdan chiqmaydi va bo'ysinuvchilik xarakteriga ega bo'ladi. Yana bir shartlardan biri uning ma'lum bir sohaga mansubligidir va oxirgi shart kompaniyaning hajmi hisoblanadi.



14.2-rasm. **Korxona investitsiya strategiyasini tuzish jarayonining asosiy bosqichlari**

Ikkinchi bosqich investitsiya strategiyasining maqsadini belgilash. Bu tizimning umumiy iqtisodiy maqsadidan kelib chiqadi.

Uchinchi bosqich investitsiya faoliyati strategiyasini amalga oshirishning samarali yo'llarini ishlab chiqish. Bu ikki yo'nalishda o'z aksini topadi:

– investitsiya faoliyati strategiya yo'nalishini ishlab chiqish;

– investitsiya resurslari strategiyasini ishlab chiqish hisoblanadi.

Bu bosqich juda murakkab hisoblanib, u keyingi taqsimotlarni to'laligicha qamrab oladi.

To‘rtinchi bosqich investitsiya strategiyasini amalga oshirish muddatlarini aniqlashtirish. Bu vaqtlardagi ichki va tashqi sintronizatsiyadan iborat bo‘ladi.

a) tashqi sintronizatsiya kompaniyaning umumiy iqtisodiy strategiya yo‘nalishi bilan investitsiya strategiyasini amalga oshirish vaqtidagi moslashuvni bildiradi.

b) ichki sintronizatsiya alohida yo‘nalishdagi investitsiyalarni o‘zaro amalga oshirish vaqtidagi muvofiqlikni o‘z ichiga oladi.

Beshinchi bosqich investitsiya strategiyasining baholash hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan investitsiya strategiyasining baholash mezonlari quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Korxonaning investitsiya strategiyasining korxona umumiy iqtisodiy rivojlanishi bilan muvofiqligi.

2. Investitsiya strategiyasining ichki balanslanganligi, ya’ni investitsiya faoliyatining ayrim strategik yo‘nalish va maqsadlarining bir-biriga mosligi va ularni ketma-ket amalga oshirish mumkinligi.

3. Investitsiya strategiyasining tashqi muhit bilan bog‘liqligi. Bu bog‘liqlik investitsiya tashqi strategiyasini amalga oshirishda mamlakatdagi investitsiya muhiti va iqtisodiy rivojlanishning ta’sirida ko‘rinadi.

4. Korxona investitsiya strategiyasini amalga oshirishda mavjud resurslar potensialini hisobga olgan holda baholash. Bunda asosiy e’tibor korxonaning o‘z mablag‘i hisobidan investitsiya strategiyasini amalga oshirishni ko‘zda tutadi.

5. Korxona investitsiya strategiyasini amalga oshirishda mavjud resurslarni baholash.

6. Korxona investitsiya strategiyasining natijalarini baholash. Bunda korxonaning investitsiya strategiyasini amalga oshirish natijasida olingan natijalar tahlil qilinadi, ya’ni korxona mavqeyining o‘sishi, korxona hodimlari mehnat sharoitlarining yaxshilanishi, korxona mijozlariga xizmat ko‘rsatishning yaxshilanishi va boshqalar.

Shunday qilib, korxona investitsiya strategiyasini ishlab chiqish korxonada samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda, korxona rivojlanishi, uning ichki va tashqi omillarga ta’sirini moslashtirishda asosiy rol o‘ynaydi.

Investitsiya strategiyasini ishlab chiqishda investitsiya bozoridagi barcha holatlar, shuningdek, makroiqtisodiy holatni tavsiflovchi amaldagi va prognoz ko'rsatkichlari, korxonaning moliyaviy resurslari kabilar inobatga olinishi lozim.

Nazorat savollari

- Innovatsiya deganda nimani tushunasiz?
- Innovatsiya investitsiyalari nimani anglatadi?
- Innovatsiya tushunchasiga iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta'riflarni bilasiz-mi?
- Innovatsiya faoliyatining qanday turlarini bizasiz?
- Korxona innovatsiya faoliyati deganda nimani tushunasiz?
- Innovatsiya faoliyati qanday xususiyatlarga ega?
- Mahsulot innovatsiyalarida korxona qanday holatlarda mahsulot sotish hajmini oshirish hisobiga foydani ko'paytirish imkoniga ega bo'ladi?
- Davlatning korxonalar innovatsiya faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan tadbirlari tizimi nimalarni o'z ichiga oladi?
- Korxonalar innovatsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini aytib bering?
- Kichik biznes korxonalari innovatsiya faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning qanday yo'nalishlarini bilasiz?
- Innovatsiya jarayonini amalga oshirishdan maqsad nima?
- Innovatsiya jarayonining rivojlanish bosqichlarini izohlab bering?
- Innovatsiya jarayonining rivojlanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
- Innovatsiya jarayonini amalga oshirish xususiyatlarini ifodalab bera olasizmi?
- Investitsiya strategiyasi deganda nimani tushunasiz?
- Korxona moliyaviy strategiyasini tanlashning asosiy tamoyillarini ifodalab bering?
- Korxona investitsiya strategiyasini ishlab chiqishda qaror qabul qilish algoritmi nimalarni o'z ichiga oladi?
- Innovatsion investitsiyalash deganda nimani tushunasiz?

➢ Innovatsion investitsiyalashning o'ziga xos xususiyatlarini izohlab bering?

➢ Innovatsiya yangiliklarining iqtisodiy samaradorligini tavsiflab bering?

➢ Innovatsiya yangiliklarining ijtimoiy samaradorligi deganda nimani tushunasiz?

➢ Innovatsiya samaradorligini qanday formula orqali hisoblash mumkin?

XV BOB. NOMODDIY AKTIVLARGA SAFARBAR ETILADIGAN INVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH

15.1. Nomoddiy aktivlar, ularning tarkibi va roli. Nomoddiy aktivlar – investitsiya obyekti sifatida

Ma'lumki, nomoddiy aktivlarga[1] yo'naltirilgan investitsiyalar korxonalarning ilmiy-texnik salohiyatini kengaytirishga mo'ljallangan bo'lib, mulkchilik huquqiga ega bo'lmasdan turib, foyda keltiradi. Nomoddiy aktivlar moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan, xo'jalik yurituvchi subyekti faoliyatida uzoq vaqt (bir yildan ortiq) davomida foydalaniladigan mulk bo'lib, bir qancha turlarga bo'linadi. Iqtisodiy adabiyotlarda va me'yoriy-huquqiy hujjatlarda nomoddiy aktivlarga berilgan ta'riflar deyarli bir xil mazmunni ifodalaydi. Masalan, «Nomoddiy aktivlar» nomli 38-sonli buxgalteriya hisobining xalqaro standartida quyidagicha ifodalangan: nomoddiy aktivlar pul (qiymat) ko'rinishiga, material-buyum ko'rinishiga ega bo'lmagan, ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishda qatnashuvchi, ijaraga berish mumkin bo'lgan va boshqaruv maqsadlarida foydalanuvchi aktivlardir.

Xorij iqtisodchi olimlaridan B.Nidlz, X.Anderson va D.Kolduellar «nomoddiy aktivlar – jismoniy ko'rinishga ega bo'lmagan, sotib olinayotgan aktivlar tarkibida kapital qo'yilmalarni tashkil etuvchi asosiy aktivlar», deb qaraydilar[2]. R.Entoni nomoddiy aktivlarni «yakka tartibda sotiluvchi aktivlar va korxona bilan birga sotiluvchi aktivlar», deb e'tirof etadi. Yakka tartibda aks ettiriluvchi aktivlar barcha huquqlarni o'zida namoyon etsada, mahsulotlar belgilari, uning xilma-xilligi korxonaning umumiy qiymatiga qo'shiladi.

[1] «Ko'rinmas», «sezib bo'lmaydigan», «ushlab bo'lmaydigan» aktivlar tushuniladi.

[2] Нидлз Б., Андерсон Х., Колдуэлл Д. Принципы бухгалтерского учета. М.: Финансы и статистика, 1996. С. 227.

Prof. A.Sheremet nomoddiy aktivlarga umumiy holda quyidagicha ta'rif beradi: «...moddiy qiymatga ega bo'lmagan yuridik va boshqa huquqiy munosabatlarni o'zida namoyon etuvchi, o'z egasiga ma'lum vaqt davomida foyda (daromad) keltiruvchi, foydalanuvchilar uchun qulayliklarni yaratuvchi aktivlardir»[1].

Ko'pgina iqtisodiy adabiyotlarda «nomoddiy aktivlar o'zida nojismoniy elementlarni tavsiflovchi aktivlardir» yoki «nomoddiy aktivlar – korxona aktivlarining ajralmas bir qismi hisoblanib, ular buyum shakligi ega bo'lmaydi» yoxud «nomoddiy aktivlar - moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan intellektual faoliyat mahsuli, ya'ni intellektual mulk», deb ta'riflangan.

Demak, nomoddiy aktivlarning tushunchasi ularning xususiyatlaridan kelib chiqadi. Ular moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan, uzoq vaqt davomida xarajatlarga aylanib boruvchi, korxonaga kelajakda daromad keltiruvchi va aktivlarning bir qismini tashkil etadigan hamda huquqiy munosabatlarni o'zida mujassam qiluvchi aktivlar hisoblanadi. Shuningdek, nomoddiy aktivlar moddiy mohiyatga ega bo'lmagan aktivlarga bo'lgan va uning egalariga uzoq davr davomida muayyan daromad yoki boshqa xil foyda olishni ta'minlaydigan aktivlarga nisbatan mulkiy huquqlardir.

Umumlashtiradigan bo'lsak, korxona faoliyatida bir yildan ortiq ishtirok etadigan, kelgusida iqtisodiy naf keltira oladigan, indentifikatsiyalanuvchi, moddiy buyumlashgan shaklga ega bo'lmagan aktivlarga nomoddiy aktivlar deyiladi.

Nomoddiy aktivlar boshqa aktivlardan quyidagilar bilan farqlanadi:

– asosiy vositalardan – moddiy-mulkiy qiymatlikka ega bo'lmasligi bilan;

– tovarlardan – sotish uchun mo'ljallanmaganligi bilan;

– ishlab chiqarish zaxiralaridan – ishlab chiqarish jarayonida uzoq muddat (bir yildan ortiq) foydalanilishi bilan.

Ko'p hollarda, nomoddiy aktivlar deganda ma'lum qiymatlikka ega bo'lgan intellektual mulk obyektlari, mulk huquqlari tushuniladi.

[1] Шеремет А., Рахман З. Бухгалтерский учет в рыночном экономике. М.:«Инфра-М», 1996. С. 135.

Intellektual mulk obyektlari haqida so‘z yuritilganda, asosan, turli ixtirolar, kashfiyotlar va yaratuvchanlikni tasavvur etamiz. Intellektual mulk obyektlari bo‘yicha Butunjahon tashkiloti Konvensiyasiga ko‘ra, ushbu mulk tarkibiga quyidagilar kiritiladi[1]:

– adabiyot, san’at asarlari va ilmiy ishlanmalar;

– xonandalar ijrolari, ovoz yozish studiyalari, radio va televideniye ko‘rsatuvlari;

– ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari, internet saytlari.

Respublikamizda amaldagi qonunchilikka asosan intellektual mulk tarkibiga quyidagi obyektlarni kiritish mumkin[2]:

– intellektual faoliyat natijalari: unga fan, adabiyot va san’at asarlari, ijrolar, fonogrammalar, efir orqali ko‘rsatuv, eshittirishlar, elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma’lumotlar bazasi, ixtirolar va foydali modellar, sanoat namunalari, seleksiya yutuqlari hamda oshkor etilmagan axborotlar;

– fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar, ular tarkibiga: firma nomlari, tovar belgilari (xizmat ko‘rsatish belgilari) va tovarlar chiqarilgan joy nomlari;

– intellektual faoliyatning boshqa natijalari hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar.

Nomoddiy aktivlar tarkibini belgilash muhim ahamiyatga ega bo‘lib, unga quyidagi obyektlarni kiritish mumkin; yer, suv va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqining qiymatlari, bino, inshoot, uskuna va jihoz kabi mulkdan foydalanish huquqlari, ixtiro va ratsionalizatorlik takliflari, «nou-xau»dan foydalanish huquqlari, mahsulotlarning yangi belgilari va boshqa intellektual (aqliy) mulklardan foydalanish kabi huquqlarni beruvchi ruxsatnomalar qiymati, shuningdek, subyektlarni birlashtirishda paydo bo‘ladigan gudvill, brokerlik o‘yinlari, franchayz, korxonani tashkil qilish davrida vujudga kelgan tashkiliy xarajatlar, elektron hisoblash mashinalari uchun dasturiy mahsulotlar.

---

[1] Intellektual mulk obyektlari bo‘yicha Butunjahon tashkiloti Konvensiyasi. 1979. 8-bo‘lim, 2-modda.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2003. 4-bo‘lim, 59-bob, 1031-modda.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy faoliyatida uchraydigan nomoddiy aktivlarga quyidagi aktivlar kiritiladi: patentlar, litsenziya, mualliflik huquqlari, kompyuter dasturiy ta'minoti, mijozlarning ro'yxati, nou-xaular, franchayz, savdo markalari, tashkiliy xarajatlar, gudvill, seleksiya yutuqlari, tovar belgilari, firma belgisi (ramzi), ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari.

Fikrimizcha, nomoddiy aktivlarni quyidagi tartibda tasniflash maqsadga muvofiqdir (15.1-rasm).



15.1-rasm. **Nomoddiy aktivlarning tasniflanishi**

Bu xo'jalik yurituvchi subyektlarda nomoddiy aktivlarni to'g'ri tasniflash va ular hisobini oqilona yuritish imkonini beradi. Ayrim ilmiy ishlarda[1] nomoddiy aktivlarga quyidagilar tegishli ekanligi asoslab berilgan. Jumladan, nomoddiy aktivlarga:

- patentlar;
- savdo markasi;
- tovar belgisi;
- dasturiy ta'minot;
- yerdan foydalanish huquqi;

[1] Ismanov I. Uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish masalalari. Iqt. fan. dok. ilm. dar. ol. uchun yoz. diss. avtor. T.: BMA, 2009. – B.13

– tashkiliy xarajatlar;
– franchayz;
– mualliflik huquqi;
– gudvill (goodwill).

Ma'lumki, bugungi kunda 40 dan ortiq moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (MHXS) ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur standartlarda intellektual mulk obyektlari nomoddiy aktivlarning bir qismi sifatida ularni hisobga olish qoidalari ko'rsatib berilgan. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida ishlab chiqilgan milliy standartlarda ham intellektual mulk obyektlarini hisobga olishda yuqoridagi qoidalar o'z ifodasini topgan[1]. Mazkur standartlarda nomoddiy aktivlar quyidagi uchta yirik guruhga ajratiladi:

– intellektual mulk obyektlari;
– tashkiliy xarajatlar;
– firma bahosi (gudvill).

15.2. Erkin bozor va kuchli raqobat muhitida nomoddiy aktivlarni kengaytirish zaruriyati. Nomoddiy aktivlarni baholash va gudvill. Gudvill tarkibi. Gudvill – investitsiya obyekti sifatida

Erkin bozor va kuchli raqobat intellektual tovarlarga bo'lgan talabni tobora kuchaytirib boradi. Ayniqsa, aqliy mehnat mahsuli bo'lmish tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talab ko'tarilib boradi. Maxsus tovar hisoblangan ilmiy g'oyalar, texnikaviy yangiliklar, texnologik ishlanmalar, xilma-xil axborotlardan xabardor bo'lish va ulardan raqobatbardoshlikni ta'minlash maqsadida doimiy tarzda foydalanish zaruriyati paydo bo'ladi. Erkin bozor va kuchli raqobat muhitida, ayniqsa, ilmiy texnikaviy ishlanmalarga bo'lgan talab kuchayadi. U amalda patent, litsenziya, franchayz, nou-xau, dasturiy ta'minot, turli axborot, savdo markalari, tovar belgilari va boshqalarga bo'lgan talablardir. Ilmiy-texnikaviy ishlanmalar bozorni, ko'pincha, tashqi bozorni, mamlakat tashqarisidagi bozorlarni nazarda tutadi. Ilmiy-texnikaviy ishlanmalar bozori XXI asrda tez kengayib bormoqda, yangi-yangi qismlarga ajratilmoqda va ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish sohalarida ulardan

[1] «Nomoddiy aktivlar» MHXS 38 va «Nomoddiy aktivlar» BHMS 7. Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schetlar rejasi. BHMS 21. 2001. sentyabr, – №108.

juda ham unumli foydalanish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Buning sababi iqtisodiyotda intellektual mehnat mavqeyining kuchayib borishidir. XXI asrda bozor iqtisodiyoti ilm talab ishlab chiqarishning o'sishi, turli xizmatlar, eng avvalo, axborot xizmati ahamiyatining kuchayishi bilan xarakterlanadi. Buni internet xizmati bozorining shiddat bilan yer yuzida o'sib borishi tasdiqlaydi. Shunday ekan, kuchli raqobat muhitida o'z mavqeyi, obro'-e'tiborini yo'qotish, raqobat muhitida sinish hech gap emas.

Ilmiy-texnikaviy yangiliklar xaridor mulkiga aylanish sharti bilan yoki o'z egasi mulki bo'laturib, vaqtincha foydalanish huquqi yoki shartlari orqali ishlab chiqarishga tatbiq etadi. Ishlab chiqarish subyektlarini novatsiyalarga, ya'ni unga yangilik kiritib borishga undaydi.

Nomoddiy aktivlar tarkibining asosiy qismini intellektual mulk obyektlari tashkil etganligi uchun mazkur paragrafda ularni baholashga alohida e'tibor qaratamiz. Ma'lumki, intellektual mulk obyektlarini baholash «Intellektual mulk obyektlarini baholash tartibi to'g'risida»gi [1] Nizomga asosan amalga oshiriladi. Unga ko'ra, intellektual mulk obyektini baholash Mol-mulkni baholash milliy standartlariga muvofiq baholovchi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi va baholash hisoboti bilan rasmiylashtiriladi. Intellektual mulk obyektining qiymati uch yondashuv bilan, ya'ni daromadli, xarajatli va qiyosiy yondashuvlar bilan aniqlanadi.

Daromadli yondashuv – bu baholash obyektidan kutilayotgan daromadlarni aniqlashga asoslangan baholash obyektining qiymatini baholash uslublari majmuyi. Bunday usul intellektual mulk obyektidan foydalanishdan daromad olish ehtimollari mavjud bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Intellektual mulk obyektidan foydalanishdan tushgan daromadlar intellektual mulk obyektidan foydalanish huquqi topshirilgan huquq egasi tomonidan ma'lum davr uchun olinadigan pul tushumlari va pul to'lovlari orasidagi farqdir. Intellektual mulk obyektidan foydalanishdan olinadigan asosiy daromadlar quyidagilar hisoblanadi:

– mahsulot (ish, xizmat)ni ishlab chiqarish va sotishda va (yoki) asosiy va aylanma mablag'larga sarmoya kiritishdagi xarajatlardan tejash, shuningdek, xarajatlarni amalda kamaytirish,

[1] Mazkur nizom O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasining 2009-yil 22-apreldagi 01/19-18/08-sonli qarori bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligida 2009-yil 8-mayda 1953-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

intellektual mulk obyektidan foydalanish huquqini qo'lga kiritishda xarajatlarning bo'lmasligi (masalan, litsenzion to'lovlarning yo'qligi, litsenziarga daromaddan eng ko'p ehtimoldagi ulushni ajratish zaruratining bo'lmasligi);

– ishlab chiqarilayotgan dona mahsulotning (ish, xizmat) narxini oshirish, uning sotuv hajmini oshirish;

– soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni kamaytirish, qarz evaziga xizmat ko'rsatish to'lovlarini kamaytirish;

– baholash obyektini ishlatishdagi pul oqimini olishdagi tavakkalchilikni kamaytirish, baholash obyektidan foydalanishdagi pul oqimining vaqtinchalik tuzilishini yaxshilash.

Intellektual mulk obyektlarini baholashning xarajatli yondashuvi – bu mulkning eskirganligini inobatga olgan holda baholash obyektini tiklash yoki almashtirish uchun zarur bo'lgan sarf-xarajatlar miqdorini belgilashga asoslangan baholash uslublari majmuyi. Bunday usulni qo'llash baholash obyektini tiklash yoki almashtirish imkoni bo'lganda amalga oshiriladi. Xarajatli yondashuvni qo'llash orqali baholash quyidagi asosiy jarayonlarni o'z ichiga oladi:

– baholash obyektiga shunga o'xshash yangi baholash obyektini yaratish uchun sarflanadigan xarajatlar miqdorini aniqlash;

– baholash obyektining shunga o'xshash yangi obyektga nisbatan eskirganligi hajmini aniqlash;

– baholash obyekti qiymatini unga nisbatan shunga o'xshash yangi baholash obyektini yaratish uchun sarflanadigan xarajatlar miqdorini chegirib tashlash yo'li bilan hisoblash.

Qiyosiy yondashuv – bu baholash obyektini unga nisbatan bitimlari qiymatlari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan boshqa shunga o'xshash obyektlar bilan solishtirish orqali baholash obyektining qiymatini baholash uslublari majmuyi. Bunday usulni qo'llash baholash obyektlarining o'xshash narxlari haqidagi ishonchli va to'liq ma'lumot hamda ular bilan amalga oshiriladigan bitimlarning haqiqiy shartlari mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi. Qiyosiy yondashuvni qo'llagan holda qiymatni aniqlash quyidagi asosiy jarayonlarni o'z ichiga oladi:

– baholash obyektini shunga o'xshash obyektlar bilan solishtirishdagi elementlarni aniqlash;

– baholanayotgan intellektual mulk obyektining har bir solishtirish elementlari bo'yicha shunga o'xshash har bir obyektdagi xususiyat va farqlari darajasini aniqlash va h.k.

Solishtirishning eng muhim elementlariga: intellektual mulk obyektining baholanayotgan mulkiy huquqlar hajmi; intellektual mulk obyektiga oid bitimlarni moliyalashtirish shartlari (shaxsiy va qarzga olingan mablag'lar nisbati, qarz mablag'larini taqdim etish shartlari); intellektual mulk obyektlari narxlarining o'zgarishi; intellektual mulk obyektidan foydalanish orqali ishlab chiqariladigan va sotiladigan mahsulotga bo'lgan talab; raqobatli takliflarning mavjudligi; intellektual mulk obektini foydali ishlatish muddati; intellektual mulk obektini o'zlashtirishga qilingan xarajatlar darajasi taalluqli hisoblanadi.

Gudvill – «firma bahosi», «bankning bahosi», «ishchanlik nufuzi», «yaxshi nom», «obro'-e'tibor» (reputatsiya) degan ma'nolarni anglatadi. Banklarni birlashtirib yuborishda yoki bankni sotib olishda uning sof aktivlari bahosidan (bozor baholaridagi barcha aktivlar va barcha majburiyatlar o'rtasidagi farq) ortiqroq bahoda xaridor tomonidan to'langan summasi gudvill, deb yuritiladi. Bu bank xaridori tomonidan bank sotib olinayotganda ushbu bankdagi yillar mobaynida shakllangan mijozlar bilan, qarz oluvchilar va depozitorlar bilan o'zaro o'rnatilgan munosabatlarning ham sotib olinganligini anglatadi.

Nazorat savollari

- Nomoddiy aktivlar deganda nimani tushunasiz?
- Nomoddiy aktivlarning xususiyatlarini izohlab bering?
- Iqtisodiy adabiyotlarda va me'yoriy-huquqiy hujjatlarda nomoddiy aktivlarga qanday ta'rif berilgan?
- Qaysi xorij iqtisodchi olimlarining nomoddiy aktivlarga bergan ta'riflarini bilasiz?
- Nomoddiy aktivlar boshqa aktivlardan nimasi bilan farq qiladi?
- Nomoddiy aktivlarga nimalar kiradi?
- Intellektual mulk obyektlari deganda nimani tushunasiz?
- Intellektual mulk obyektlari bo'yicha Butunjahon tashkiloti Konvensiyasiga ko'ra, ushbu mulk tarkibiga nimalar kiradi?

➢ Respublikamizda amaldagi qonunchilikka asosan intellektual mulk tarkibiga qanday obyektlarni kiritish mumkin?

➢ Nomoddiy aktivlarni tasniflab bering?

➢ Moliyaviy hisobotning xalqaro standartida nomoddiy aktivlar qanday guruhlarga ajratilgan?

➢ Intellektual mulk obyektlarini baholashning huquqiy-me'yoriy asoslarini bilasizmi?

➢ Intellektual mulk obyektini baholash qanday tartibda amalga oshiriladi?

➢ Intellektual mulk obyektining qiymati qanday yondashuvlar bilan aniqlanadi?

➢ Gudvill deganda nimani tushunasiz?

XVI BOB. INVESTITSIYA RISKLARI VA ULARNI PASAYTIRISH YO'LLARI

16.1. Investitsiya riski: mazmun-mohiyati va xususiyatlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiya loyihalarini amalga oshirish turli xil risklar bilan bog'liq bo'ladi-ki, bu ularning oldini olishning optimal variantlarini ishlab chiqishni hamda risklarni samarali boshqarishni taqozo etadi. Lekin, har qanday sharoitda ham, eng avvalo, loyihalarni amalga oshirishda duch kelishi mumkin bo'lgan risklarni tahlil qilish va baholash, eng dastlabki qadam bo'lib qolaveradi.

Investitsiya faoliyati ma'lum miqdordagi moliyaviy resurslarni talab qiladi. Bu sarflangan resurslardan investorlar ma'lum daromad, foyda olishni ko'zlaydi. Mazkur foyda investorlarning xarajatlarini, inflyatsiya omilini, tadbirkorlik riskini qoplashi lozim. Ammo, amaliyotda investorlar har doim ham kutilgan va rejalashtirilgan natijalarga erisha olmaydilar. Buning asosiy sabablaridan biri – risklarning mavjudligidir.

Investitsiya faoliyatida risk – bu investitsiyalarni qisman yoki to'liq yo'qotish, kutilgan daromaddan kamroq yoki ko'proq foyda olish, loyihada ko'zlangan maqsadlarga erisha olmaslik ehtimolidir. Loyihadan qanchalik ko'p miqdorda daromad kutilsa, u shunchalik yuqori riskli hisoblanadi.

Iqtisodiy lug'atlarda risk – xavf-xatar, zarar va yo'qotish ehtimoli, xavf ehtimoli yoki muvaffaqiyat umidida xavf tomon borish ma'nosida kelishi ko'rsatilgan.

Risksiz investitsiya jarayonini samarali tashkil etish murakkab bo'lib, iqtisodiyotda risk darajasining ko'payishi, o'z navbatida, ishbilarmonlik erki ko'payishi hisoblanib, ma'lum ma'noda u o'sha erkinlik, o'sha ixtiyoriylik uchun to'langan haqdir.

Risk nazariyasini o'rganishda klassik maktab namoyandalari muhim hissa qo'shishgan. A.Smit risk va foyda o'rtasidagi o'zaro

proporsionallik tushunchasini oydinlashtirishga harakat qilgan. Uning ta'kidlashicha, «riskli holatlar yuqori bo'lgan maydonda qonun bo'yicha daromad kichik bo'ladi, bu, o'z navbatida, kutilayotgan daromad darajasini ko'paytirish uchun usullar salmog'i yanada ortib boradi»[1].

«Risk» so'zi ispan-portugal tilida «suv ostidagi qoya» degan ma'noni bildiradi. Taniqli lug'atshunos S.Ojegovning rus tili izohli lug'atida «risk – bu muvaffaqiyatga intilish, baxtli hodisaga umid», degan ma'noni anglatadi, deyilsa, mashhur «Vebster» lug'atida riskka «xavf, zarar va talofat ehtimoli», deb tavsiflangan. V.Sevryuk «risk – bu hol, bir ishlab chiqaruvchining muayyan holati» degan ta'rifni bergan bo'lsa, rus olimi A.Olshanskiy «risk – bu zarar ko'rish yoki manfaatni qo'ldan chiqarish bilan bog'liq ehtimollar o'lchami»[2], degan ta'rifni keltiradi.

Turli iqtisodiy adabiyotlarda risk tushunchasining mazmun-mohiyatiga turlicha ta'riflar berilgan. Jumladan:

– zararning paydo bo'lishi yoki prognozlashtirilganidek daromad olaolmaslik xavfi ehtimoli;

– ma'lum bir ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyat natijasida korxona tomonidan o'z resurslarining ma'lum qismidan ayrilish, foyda ololmaslik yoki qo'shimcha xarajatlar qilish ehtimoli;

– muqarrar tanlov sharoitidagi noaniqlikni bartaraf qilish bilan bog'liq faoliyat bo'lib, bu jarayonda mo'ljallangan natijaga erishishni, muvaffaqiyatsizlik va mo'ljaldan farqlanishlarni miqdoriy va sifat jihatdan baholash imkoniyati;

– risk va xavf-xatar alohida narsa, ya'ni risk bu iqtisodiyot subyektining faoliyatidir va u tanlov bilan bog'liq. Bu faoliyat subyektning xavf-xatar sharoitidagi tanloviga asosan amalga oshiriladi. Xavf-xatar qanchalik yuqorilashgan sari subyekt shunchalik risk qilmaydi va risk nolga yaqinlashadi va h.k.

Riskni talqin qilishda akademik M.Sharifxo'jayev va prof. Yo.Abdullayevlar hammuallifligidagi «Menejment: 100 savol va javob» kitobida ham mantiqiy, ham lug'aviy ma'nodan kelib chiqib yondashilgan. Mazkur olimlar tomonidan o'zbek tilining izohli lug'atiga tayanib bergan fikricha[3]:

---

[1] Mirzayev F.I. Moliyaviy risklarning turlari, tasnifi, boshqarish va baholash usullari. T.: «Moliya», 2006. B. 10.
[2] Гвозденко А.А. Основы страхования. М.: Финансы и статистика, 1999. С. 148.
[3] O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild. «Rus tili», 1981. – B. 310-319.

– xavf – biror ko'ngilsiz hodisa yoki falokat yuz berish ehtimolligi; xatar; qo'rqinch;

– xatar – biror baxtsizlikka, falokatga olib kelishi mumkin bo'lgan sharoit; xavf, tahlika;

– xavf-xatar – xavf va xatar, biror narsadan qo'rqish;

– tavakkalchilik – bu oqibatning yaxshi bo'lishiga umid bog'lab, xavf ehtimolligini zimmasiga olgan holda qilinadigan harakat;

– tavakkalchilik – bu resurs yoki daromaddan to'la yoxud qisman yo'qotish xavfi;

– tavakkalchilik – bu noaniqlik sharoitida har qanday dovyurak menejer uchun tabiiy holat, vaziyat. Tavakkalchilik botirning ishi;

– tavakkalchilik – bu omadsiz oqibatning miqdoriy baholanishi.

Professor V.Usoskin «risk doimo noaniqlik bilan birga kelib, oxirgi, o'z navbatida, oldindan ko'ra bilish qiyin yoki mumkin bo'lmagan voqealar bilan bog'liq bo'ladi», deya izohlaydi. E.Stoyanova fikricha: «risk – bu rejalashtirilgan variantga nisbatan daromad ola bilmaslik yoki zarar ko'rish ehtimoli»[1].

Iqtisodiy adabiyotlarda, jumladan, «Xorijiy investitsiyalar» nomli o'quv qo'llanmada investitsiya risklariga berilgan ta'rif va tasniflashlar diqqatga sazovordir. Jumladan, «Investitsion risk deganda investitsion mablag'larning bir qismi yoki barchasini yo'qotish holati yuzaga kelishi mumkinligi tushuniladi. Investitsion risk umumiy moliyaviy riskning tarkibiy qismi bo'lib, o'zida moliyaviy yo'qotishlar ehtimolini va investitsiyalardan daromadlarni to'liq ololmaslik yoki qo'shimcha investitsiya xarajatlarning paydo bo'lishini namoyon etadi»[2].

Prof. Sh.Abdullayeva tadqiqotlarida «risk – xato, ikkilanish, noaniqlik, mavhumlik va hokazolar, deb talqin qilish xalqaro amaliyotga mos kelmasligi va shu holatga yaqinlashgan holda risk – «bank riski», «kredit riski» deb yuritilishini maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi[3].

---

[1] Muzayev F.I. Moliyaviy risklarning turlari, tasnifi, boshqarish va baholash usullari. – Toshkent: «Moliya», 2006 – B. 12-13.

[2] Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. T.: «Moliya», 2010. – B. 165.

[3] Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari sharoitida tijorat banklarining kredit portfelini diversifikatsiyalash. I.f.d. ilm. dar.

A.O'lmasov, A.Vahobovlarning «Iqtisodiyot nazariyasi» darsligida «tadbirkorlik riski – bu firmaning ko'zlagan maqsadiga erishish yo'lida u duch keladigan iqtisodiy xavf-xatardir»[1], deya talqin etilgan. Investitsiya faoliyatining har qanday turi bilan shug'ullanish risk bilan bog'liqdirki, shu boisdan riskning bu ko'rinishi tadbirkorlik riski, deb ham ataladi.

Gap risk ustida borar ekan, ana shu kategoriyaning naqadar real iqtisodiy munosabatlarni, iqtisodiy vaziyat yoki ahvolni to'g'ri tavsiflashi ustida to'xtalib o'tish lozim. Ma'lumki, risk investorlar faoliyatiga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan holatni ifoda etadi. U yaqqol ko'rinib, sezilib, bilinib turishi yoki xufyona bo'lishi ham mumkin. Riskning qanday ko'rinishda bo'lishini anglash investorlarning tafakkuriga, ongiga, ayniqsa, iqtisodiy dunyoqarashi darajasiga bog'liq. Buning ustiga riskning keltiradigan ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari darajasi ham mavjud, ya'ni ayrim risk unchalik yomon oqibat keltirmasligi, ba'zi risk jiddiy, katta zarar keltirishi, hatto, investor faoliyatining xonavayron bo'lishigacha olib kelishi mumkin.

Iqtisodchi olimlardan T.Malikov, O.Olimjonovlarning risk to'g'risidagi qarashlari diqqatga sazovordir. «Risk» atamasi o'zbek tilidagi ayrim manbalarda «tavakkalchilik», «xavf-xatar», «tahlika» va «g'ov» ma'nolarida tarjima qilinayotgan bo'lsa-da, ularning hech biri, mualliflar fikricha, «risk» atamasining asl ma'nosini bildirmaydi. «Zararlarni vujudga kelishi yoki daromadlarning ko'zda tutilgan darajadan kamroq olinishi ehtimoliga risk deyiladi»[2].

Ta'kidlash joizki, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdagi risklar, iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, moliyaviy risklar hisoblanadi. Moliyaviy risklar deganda, odatda, moliyaviy resurslarni, ya'ni pul shaklidagi resurslarni yo'qotish xavfi tushuniladi. Moliyaviy risklarning tarkibiga inflyatsiya riski, deflyatsiya riski, valuta riski, likvidlik riski, kredit va foiz risklarini kiritish mumkin.

Riskning mohiyatiga berilgan ko'plab ta'riflarning tahlili risk vaziyatini keltirib chiqaruvchi asosiy jihatlarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi: yuzaga kelgan holatning tasodifiy xususiyati;

---

ol. uch. taq. et. diss. T.: BMA, 2000. – B. 63-70.

[1] O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T.: «Sharq», 2006. – B.192.

[2] Malikov T., Olimjonov O. Moliyaviy menejment. T.: «Akademiya», 1999. – B. 6, 26.

muqobil qarorlarning mavjudligi; kutilajak natijaning ma'lumligi yoki aniqlash ehtimolining mumkinligi; zararlar yuzaga kelish ehtimoli; qo'shimcha daromad olish ehtimoli.

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinadiki, riskni tushunishda umumiy qilib aytganda, ikki xil qarash mavjud. Birinchidan, risk – bu obyektiv, ya'ni xavf-xatar, muvaffaqiyatsizlik va uning natijasida resurslarning bir qismidan yoki butunlay ajralish, rejalashtirilgan daromadni ololmaslik, zarar ko'rish, deb qarash. Ikkinchidan, risk – bu subyektning xavf-xatar, muvaffaqiyatsizlik, zarar ko'rish ehtimolini bila turib, yaxshi natijaga erishish umidida faoliyatni amalga oshirish, deb tushunish. Demak, ikkinchi xil qarashda risk faoliyatdir, faoliyat boshlash yoki boshlamaslikning shartidir. Fikrimizcha, riskka bunday ta'rif berish ham ma'qul emas. Chunki riskni subyektning tanlov asosidagi faoliyati, deb tushungan holatimizda uni har xil turlarga bo'lib o'rganish va tasniflashga hojat qolmas edi. Riskni bunday tushunganda riskka ta'sir qiluvchi omillar to'g'risida fikr yuritish mumkin, lekin, misol uchun, «mamlakat riski», deb riskni alohida nomlay olmasdik. Risklarni boshqarishga ham hojat qolmasdi. Shundan ko'rinadiki, o'zbek iqtisodchi olimlari ham riskni xavf-xatar va tavakkalchilik tushunchalari bilan ifodalaydi. Riskni – yo'qotish ehtimoli (misol uchun foydani, aylanma mablag'ni, kapitalni, mulkni va h.k.) ma'nosida tushunish mumkin.

Risk mohiyatini aniqlashda muayyan qiyinchiliklarga duch kelinadi. Ushbu muammoga turli xil yondashuv va fikrlar mavjud. Bunday turli qarash va yondashuv quyidagilar bilan belgilangan: birinchidan, ushbu omilning keng qamrovligi bilan; ikkinchidan, muammoning nisbatan yechimi aniqlanmaganligi bilan; uchinchidan, insonlarning amaliy faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillarning mavhumligi bilan. Biroq, risk uchun shunday bir xislat xoski, bu tushuncha yutish va yo'qotish, omad va omadsizlik imkoniyatlari nisbatidagi noaniqlik (mavhumlik) bilan bog'liq. Risk tanlangan qarorlarni amalga oshirishning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy sohadagi ijobiy va salbiy natijalari ehtimolining yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, risk novatorlik, innovatsion iqtisodiy faoliyat bilan ham chambarchas bog'liq. Xo'jalik yurituvchi subyekt doimo «risk holatida» bo'ladi. Ayniqsa, bu holat amalga oshirishning turli xil

ehtimolini qamrab oluvchi bir qancha variantlardan birini tanlashning doimiy talabi mavjud bo'lgan bozor iqtisodiyoti uchun xos sanaladi. Bozor iqtisodiyoti yetarli daromadlilikni rag'batlantiradi. Biroq, bozor sharoitida daromadlilikni oldindan belgilash tovar ishlab chiqarish qonunlari bilan, eng avvalo, qiymat qonuni bilan chegaralanadi. Riskni anglay olish xo'jalik yurituvchi subyektning mavjud ishlab chiqarish omillaridan birmuncha samarali foydalanishni modellashtirish orqali mavjud variantlardan muqobilini tanlash va amalga oshirish yo'li bilan risk holatini hal etish va bartaraf qilishga imkon beradi.

Investitsiyalarga xos bo'lgan moliyaviy risklarning asosiy turi loyihaviy risklar bo'lib, ular tarkibiga loyihalarning iqtisodiy samaradorligiga xavf soladigan, pul mablag'larining oqimiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan risklar kiradi. Hozirgi kunda loyiha risklari deganda, loyihani amalga oshirish natijasida ko'zlangan daromadlarning pasayishiga sabab bo'ladigan vaziyatlar majmuasi tushuniladi. Shu bilan birga, loyiha riski investitsiya loyihasini amalga oshirishga halaqit beradigan yoki loyiha samaradorligini pasaytiradigan risklarning yig'indisini ham anglatadi.

Riskni ma'lum bir qarorni qabul qilish natijasida zaxiralarni yo'qotish imkoniyati, daromadlarni ololmaslik yoki qo'shimcha xarajatlar zarurati sifatida belgilash mumkin. Risk bashorat qilinayotgan loyihani amalga oshirishda haqiqiy sharoitlardan ozgina chekinilganda daromadlarni ololmaslik yoki zararlarning paydo bo'lib qolish ehtimolidir. Risk kutilishi mumkin bo'lgan xatar bo'lib, investitsiyadan mo'ljallangan foydani olish jarayoniga xos bo'lgan umidsizlikdir.

Risklarning paydo bo'lish sabablari turlichadir. Masalan, ma'lumotlarning tanqisligi yoki to'liq bo'lmasligi, tashqi va ichki muhitdagi harakatlar (raqobatchilar, ishchilar holati, hukumat va boshqalarning harakatlari) va h.k. «Risk» tushunchasiga juda yaqin bo'lgan «noaniqlik» tushunchasi riskning aniq turlarini tasniflash uchun sinonim sifatida qo'llaniladi. Noaniqlik – bu investitsiya loyihasini amalga oshirish shart-sharoitlari haqidagi ma'lumotlarning to'liq yoki aniq emasligi. Masalan, inflyatsiya haqidagi, texnika-texnologiyalardagi o'zgarishlar haqidagi, loyiha quvvatining, obyektning qurilish va foydalanishga topshirish muddatlari, xarajat va natijalarning noto'g'ri hisob-kitob qilinishi

kabi ma'lumotlarning to'liq yoki aniq emasligi natijasida noaniqlik yuzaga keladi.

Risk bilan noaniqlikning farqi shundaki, natijalar ehtimolligi joriy davr ma'lumotlari asosida baholanayotgan vaqtda risk e'tiborga olinadi. Noaniqlik bunday ehtimollik o'tgan va kelasi davr ma'lumotlari yetishmasligi yoki to'liq emasligi sababli subyektiv aniqlangan vaqtda e'tiborga olinadi. Har qanday holda ham kelgusi iqtisodiy holatlar istiqbolini belgilash (inflyatsiya, foiz stavkasi, talab va taklif, ishlab chiqarish, sotish hajmi va boshqalar) kelajakning ma'lum emasligi sababli faqat taxminiy va noaniq natijalar bo'lishi mumkin.



16.1-rasm. **Noaniqlik va risklarning o'zaro bog'liqligi**

Noaniqlik va risklarning har ikkalasi ham loyihadagi yo'qotish va zararlarga bog'liq bo'lganligi uchun ularni bir-biri bilan uzviy aloqadorlikda ifodalash maqsadga muvofiqdir. Noaniqlikdan farqli tarzda riskning omillari oldindan ma'lum va ushbu holat ularni baholay olish va boshqarish imkonini beradi.

Investitsiya loyihalari kelajakka qaratilganligi sababli, ularni amalga oshirish natijalarini aniq taxmin qilish muammodir. Bunday loyihalar kutilishi mumkin bo'lgan risklar va noaniqliklarni hisobga olgan holda bajarilishi kerak. Investitsiya qarori bir qator kutilishi mumkin bo'lgan oqibatlarga ega bo'lgan hollarda, qaror riskli yoki noaniqliklarga ega, deb ataladi.

Bugungi kunda biz, nafaqat, risklar haqida ma'lumotlarga egamiz, balki ularni tahlil qilib, baho berib, risklarni boshqarish

imkoniyatiga egamiz. Lekin, tahlilning ham, risklar boshqaruvining ham birinchi bosqichi bu risk turini aniqlashdir.

Investitsiya loyihasini ishlab chiqishda va amalga oshirish davrida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarning har bir turini alohida hisobga olish, o'rganish va tahlil qilish, aniqlash hamda ularni pasaytirish choralarini ishlab chiqish zarur bo'ladi-ki, bu risklarga qarshi kurashishning eng samarali usuli hisoblanadi. Bunda risklarning o'ziga xos xususiyatlarini ham e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Lekin, asossiz yuqori riskka borish, xuddi riskdan butunlay voz kechilishi kabi zarardir. Yuqoridagilarni mujassamlashtiradigan bo'lsak, risk qilishdan oldin uni iloji boricha o'rganib, baholash va boshqarishga intilish lozim. Uni boshqarishda, albatta, risk tamoyillarini (o'z kapitali imkoniyatlaridan ortiq riskka bormaslik, risk oqibatlarini har doim hisobga olish zarur, kam miqdordagi foyda uchun ko'p miqdordagi mablag'lar bilan risk qilish kerak emas) hisobga olish kerak.

16.2. Investitsiya faoliyati bilan bog'liq risklar va ularning tasniflanishi

Iqtisodiyotda bozor munosabatlarining sog'lom rivojlanishi bilan raqobat ham kuchaya boradi. Ana shu raqobat kurashiga bardosh berish uchun ishlab chiqarish jarayoniga zamonaviy texnika-texnologiya yangiliklarini joriy etish sari dadil harakat qilmoq lozim. Bu, pirovard natijada, riskni ko'paytiradi. Bunday sharoitda riskning bo'lishi tabiiy ekanligini tan olish, voqeliklar istiqbolini belgilashga o'rganish, riskni baholash va uning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan chegaralaridan xatlab o'tmaslik lozimligini tan olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Umuman olganda, bozor iqtisodiyoti sharoitida risklarning bir necha turlari mavjud. Jumladan, ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq risklar, tijorat risklari hamda moliyaviy risklar.

Ishlab chiqarish riski mahsulotlar, tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish bilan yoki ishlab chiqarish faoliyatining har qanday turini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lib, bu riskning vujudga kelish sabablarining eng muhimlari quyidagilardan iborat: ishlab chiqarish hajmining ko'zda tutilgan darajadan pasayishi;

moddiy yoki boshqa xarajatlarning o'sishi; soliqlar va boshqa majburiy ajratmalar miqdorining oshishi va h.k.

Ishbilarmon tomonidan ishlab chiqarilgan yoki sotib olingan tovarlar, mahsulotlar va xizmatlarni sotish jarayonida vujudga keladigan risk tijorat riski deyiladi. Bu riskning sabablari quyidagilar bo'lishi mumkin: bozor kon'yunkturasining o'zgarishi natijasida sotish hajmining kamayishi; mahsulotlar sotish bahosining ko'tarilishi; ko'zda tutilmagan holda sotib olish hajmining pasayishi; muomala jarayonida mahsulotlarning ko'payib ketishi va boshqalar.

Korxonaning tijorat banklari va boshqa moliyaviy institutlar bilan vujudga keladigan munosabatlari sohasidagi risklar majmuasi moliyaviy risklarni anglatadi.

Moliyaviy risklar investitsiya loyihalarining real qiymatini pasaytirishda katta ta'sir doirasiga ega. Masalan, 2006 yil yakunida so'mning 1 AQSh dollariga nisbatan nominal almashuv kursi 1240,0 so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2009 yilning yakuniga kelib, ushbu ko'rsatkich 1511 so'mni, 2010 yilda 1640 so'mni tashkil etdi. Demak, mazkur davr mobaynida so'mning qadrsizlanish sur'ati 132,3 foizni tashkil qildi. 2013 yil davomida so'mning AQSh dollariga nisbatan ayirboshlash kursi 11,0foizga pasayib, 2014 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, bir AQSh dollari 2202,20so'mni tashkil qildi. Milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan yuqorida darajada qadrsizlanishi har qanday rentabelli investitsiya loyihasini norentabel loyihaga aylantirib qo'yishi mumkin. Chunki, bu oraliqda xom ashyo va materiallarning bahosi oshadi, ish haqi xarajatlari ko'payadi. Natijada, eksport qilinayotgan mahsulotlar qimmatlashib, ularni jahon bozorlarida sotish qiyinlashadi.

Korxona faoliyatining moliyaviy riski, aksariyat hollarda, qarz mablag'larining o'z mablag'lariga nisbati bilan o'lchanadi. Masalan, korxona qarz mablag'larining o'z mablag'lariga nisbati qancha yuqori bo'lsa, bu korxona shu darajada o'z faoliyati davomida kreditorlarga bog'liq bo'lib qoladi. Shunga mos ravishda moliyaviy risk ham yuqori bo'ladi, chunki kreditlashning to'xtatilishi yoki kredit shartlarining og'irlashuvi natijasida xom ashyo, materiallar va boshqalarning etarli emasligi tufayli ishlab chiqarish to'xtab qolishi ehtimoli mavjud. Agar korxonalarda mavjud moliyaviy risklar tahlil etilsa, ularni korxona moliyaviy faoliyati davomida foyda yoki kapitalni yo'qotish ehtimoli, deb ifodalash mumkin. Ushbu

korxonalardagi moliyaviy risklarni bir necha turlarga bo'lish mumkin (16.1-rasm).



16.1-rasm. **Moliyaviy risk turlari**[1]

Moliyaviy risklarni boshqarishni samarali tashkil etish, ularni muayyan belgilari bo'yicha aniq guruhlashga bog'liq. Har bir moliyaviy riskni alohida boshqarish usullari tizimi mavjud. Hozirgi kunda iqtisodchi olimlarning ayrimlari moliyaviy risklarning yuzaga kelishi limitidan kelib chiqqan holda ularni har xil guruhlarga bo'lishga harakat qilmoqdalar.

Investitsiya risklarini turli belgilar bo'yicha tasniflash mumkin.

1. Tarkibi bo'yicha risklar quyidagilarga bo'linadi: iqtisodiy risk; siyosiy risk; ijtimoiy risk; ekologik risk; texnologik risk; tijorat riski; informatsion risk va boshqalar.

2. Muddati bo'yicha risklar quyidagilarga bo'linadi: qisqa muddatli risklar; uzoq muddatli risklar.

3. Olinadigan natijaga qarab risklar: sof risklar va spekulyativ risklarga bo'linadi. Sof risklarga ekologik, siyosiy, tabiiy, transport va tijorat risklari (mulkiy, ishlab chiqarish, savdo risklari) tegishlidir. Spekulyativ risklar ham ijobiy, ham salbiy natijalarni olish imkoniyatida namoyon bo'ladi, ular moliyaviy risklardan iboratdir.

[1] Хелдервич К.Основы финансового анализа. Учебник. М.: Финансы и статистика, 2003. С.72.

Moliyaviy risklar tarkibiga quyidagilar kiradi:

– inflyatsion risklar – pulning qadrsizlanishi bilan bog'liq risklar;

– deflyatsion risklar – deflyatsiyaning o'sishi holatida baho darajasining tushishi, daromadlarning pasayishi, tadbirkorlikning rivojlanishi uchun shart-sharoitning yomonlashuvi sodir bo'ladi;

– valuta risklari – valuta kursining o'zgarishi bilan bog'liq valuta yo'qotilishi xavfi sifatida namoyon bo'ladi;

– likvidlilik risklari – qimmatli qog'ozlar yoki boshqa tovarlar sifatini va iste'mol qiymatini baholashning o'zgarishi oqibatida ularni sotishda mumkin bo'lgan yo'qotishlar bilan bog'liq bo'ladi.

Moliyaviy risklar tarkibiga kiruvchi investitsiya risklari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

– daromadlilikning pasayishi riski – qo'yilmalar, kreditlar, portfelli investitsiyalar bo'yicha foizlar va dividendlar miqdorining kamayishi natijasida yuzaga keladi, daromadlilikning pasayishi risklari o'z ichiga foiz va kredit risklarini qamrab oladi;

– foydaning boy berilishi risklari – bu risk amalga oshirilmagan tadbirlar natijasida kelib chiqadigan qo'shimcha (bilvosita) zararlar hisoblanib, bu risk tarkibiga quyidagilar kiradi, ya'ni birjaviy risklar, birjaviy bitimlardan ko'riladigan zararlar xavfi mavjud bo'lgan risklar;

– selektiv risklar – kapital qo'yilmalar, qimmatli qog'ozlar va shu kabilar turini to'g'ri tanlamaganligi bilan bog'liq risklar;

– bankrotlik risklari – tadbirkorlar tomonidan xususiy kapitalini butkul yo'qotish xavfi bilan bog'liq risklar.

4. Loyihaga ta'sir etish darajasi bo'yicha risklar quyidagilarga bo'linadi: mumkin bo'lgan risklar – ular ta'sirida kutilgan foydadan ayrilish mumkin; kritik risklar – loyiha pul tushumlaridan ayrilish xatari; katastrofik risklar – daromaddan va kiritilgan investitsiyalardan ayrilish xatari.

5. Loyiha faoliyati ishtirokchilari uchun risk tahdidlariga ta'sir etishning imkoniyatlari mezonlari bo'yicha riskni: ichki va tashqi risklarga ajratish mumkin. Tashqi risklar loyiha faoliyatining barcha bosqichlarida mavjud bo'lib, ularga siyosiy risklar va fors-major risklari kiradi.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida uning har bir bosqichi o'ziga xos risklar bilan bog'liqdir. Birinchi bosqich,

ya'ni investitsiya oldi bosqichida, ko'proq, loyiha tashabbuskorlari marketing riskiga, informatsion va ijtimoiy risklarga ta'sirchan bo'ladi. Investitsiya bosqichida, ko'proq, ilmiy-texnika risklari, moliyaviy risklar, tashqi iqtisodiy risklar va siyosiy risklar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ekspluatatsiya bosqichida loyiha ishtirokchilari texnologik, ekologik, fors-major, nolikvidlilik, iqtisodiy va moliyaviy risklar bilan yuzma-yuz bo'lish ehtimoli mavjud.

Investitsiya riski umumiy moliyaviy riskning tarkibiy qismi bo'lib, o'zida moliyaviy yo'qotishlar ehtimolini va investitsiyalashdan daromadlarni to'liq ololmaslik yoki qo'shimcha investitsiya xarajatlarining paydo bo'lishini namoyon etadi. Moliya bozorida faoliyat yuritish jarayonida investor turli xil risklarga uchrashi mumkinligini hisobga olish zarur. Moliya bozori dastaklarining ko'p sonli risklar ta'siriga tushishidan kelib chiqib, investitsiya risklari tizimli va tizimsiz turlarga ajratiladi.

Tizimli risklar (investitsiya portfeli risklari) – bu xatar ta'siriga ba'zi bir qimmatli qog'ozlar emas, balki butun bozor, uning katta bir qismi risklarga uchraydi. Bu holda iqtisodiy nobarqarorlik tufayli yoki boshqa sabablarga ko'ra ko'pchilik emitent va qimmatli qog'oz egalari zarar ko'rishlari mumkin. Tizimli risklarga quyidagilar kiradi: foiz riski; valuta riski; inflyatsiya riski; siyosiy risklar. Tizimli risklar bozor faoliyatidan kelib chiqadigan risklar hisoblanib, moliya bozori obyektiv ravishda kamaytirish imkoni bo'lmagan darajadagi tizimli risklar ta'sirida bo'ladi. Tizimli risklar, asosan, umumiy makroiqtisodiy holatlar bilan bog'liq. Shu sababdan rivojlanayotgan mamlakatlar moliya bozorlaridagi investitsiyalash jarayoniga nisbatan ko'psonli risklar bilan bog'liq, deb hisoblanadi. Tizimli risklarga quyidagilar kiradi:

– siyosiy risklar, ya'ni: ekspropriatsiya, musodara xarakteridagi soliq solish riski; investor uchun noqulay iqtisodiy siyosat olib borish natijasida (milliy valuta kursining o'zgarishi, foiz stavkalari yoki investitsiyalar daromadliligining qisqarishi, davlat ehtiyojlari bilan bog'liq iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiyalarni cheklash bilan bog'liq) kelib chiqadigan risklar.

– iqtisodiy risklar, ya'ni: umumiy bank inqirozi, defolt riski; suzib yuruvchi almashuv kursi sharoitida milliy valuta kursining xalqaro valutalarga nisbatan noqulay o'zgarishi riski; depozitlar

bo'yicha foiz stavkalarining negativ o'zgarishlari tufayli yo'qotish risklari.

– fors-major risklar, ya'ni: insonga bog'liq bo'lmagan, yengib bo'lmaydigan, asosan, tabiiy ofatlar va geosiyosiy xarakterdagi sharoitlardan kelib chiqadigan risklar.

– huquqiy risklar, ya'ni: milliy qonunchilikda, shu jumladan, soliq solish tizimidagi o'zgarishlar natijasida yuzaga keladigan risklar; qonunchilikni izohlashdagi o'zgarishlar natijasida kelib chiqadigan risklar. Rivojlanayotgan mamlakatlarda qonunchilik tizimi takomillashtirish jarayonida bo'lib, xususiy va intellektual mulkni himoyalashni ta'minlaydigan qonunlar ishlab chiqilmoqda. Shu sababdan, investitsiyalarni tartibga soluvchi qonun-qoidalarning qarama-qarshi yo'nalishda, o'zboshimcha talqin etilishi xavfi mavjud. Shuningdek, mahalliy va umumdavlat qonunchiligi manfaatlarining to'qnashuvi xavfi mavjud.

Rivojlanayotgan mamlakatlar soliq tizimi asta-sekin takomillashib, rivojlanib bormoqda. Natijada, turli qonun va tartiblarning hozirgi talqini kelajakda qarama-qarshi tomonga o'zgarishi mumkin. Investitsiya mablag'larining egalari investitsiya qarorini qabul qilishda soliq tizimi bilan bog'liq risklarni ham e'tiborga olishlari lozim.

Tizimsiz risklar – investitsiyalashning alohida obyektlari yoki ularning bir guruhi duchor kelishi mumkin bo'lgan risklar hisoblanadi. Ushbu risklarni «unikal risklar» yoki «individual risklar» deb atashadi va ular aksariyat hollarda, alohida moliyaviy instrumentlar (masalan, aniq kompaniyaning qimmatli qog'ozlari)ga xos bo'ladi. Tizimsiz risklar – xatarga ba'zi bir qimmatli qog'ozlar yoki ularning majmuasi uchraydi, ya'ni ma'lum bir korxonaning qimmatli qog'ozlari yoki tarmoqning qimmatli qog'ozlari kiradi. Tizimsiz risklarga quyidagilar kiradi: tadbirkorlik riski; moliyaviy risklar; nolikvidlilik riski.

Tizimsiz risklarga quyidagilar kiradi:

– narx riski – narxlarning noqulay o'zgarishi natijasida kelib chiqadigan risklar;

– likdivlilik riski – ma'lum vaqt kutilgan narxda aktivlarni sotish va sotib olishda vujudga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar (jumladan, yetib bo'lmaydigan kontragentlar);

– emitentning bankrot bo‘lishi riski – qimmatli qog‘oz emitenti to‘lovga qodir emasligining boshlanish riski. Ushbu holat bunday qimmatli qog‘oz (aksiya) narxining keskin tushishiga yoki uning (obligatsiya va boshqa qarz qog‘ozlari) qarzini to‘lashga imkoni bo‘lmasligiga olib keladi. Mablag‘larni davlat, munitsipal va korporativ obligatsiyalarga investitsiyalashda emitentning o‘z majburiyatlari bo‘yicha defolt riski ham mavjud. Munitsipal va korporativ obligatsiyalar bo‘yicha defolt holati beqaror iqtisodiyotga ega mamlakatlar bilan bir qatorda iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda ham bo‘lishi mumkin. Boshqaruvchi kompaniya eng ishonchli qimmatli qog‘ozlarni sotib olish orqali defolt riskini kamaytirishga harakat qiladi.

Tarmoq risklari, ya’ni ma’lum bir tarmoqning samarasiz faoliyati riski. Ushbu holat tarmoqdagi kompaniyalar faoliyatida va ular tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlarning likvidliligi ko‘rsatkichlari va narxlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Aksariyat hollarda, ushbu tarmoqdagi salbiy holat boshqa tarmoqdagi kompaniyalarga ham ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, Rossiyada iqtisodiyotning qazib chiqarish tarmoqlari (neft, gaz, boksit, minerallar qazib olish) zaif hisoblanadi, chunki ushbu mahsulotlarning narxi jahon bozorining o‘zgaruvchan kon’yukturasiga bog‘liq bo‘ladi.

Infratuzilma riski, ya’ni: operatsion (texnik, texnologik xodimlar riski) – axborot, elektr tarmoqlari va boshqa tizimlarning nosozligi, mos emasligi, qimmatli qog‘ozlar bozori infratuzilmasining mukammal emasligi bilan, operatsiyalarni amalga oshirish texnologiyasi, boshqaruv tartibi, hisob va nazorat, «inson omili» ta’sirida tashqi hodisalar ta’siri bilan bog‘liq xatolar tufayli kelib chiqadigan bevosita va bilvosita yo‘qotishlar riski; pay fondlariga xizmat ko‘rsatayotgan tashkilotlarning qarzlarini to‘lay olmaslik yoki halol bo‘lmagan faoliyat riski: maxsus depozitariyning; maxsus ro‘yxatga oluvchining; kompaniya boshqaruvchisining; baholovchining; auditorning va h.k. Umumiy holatda investitsiya riskining iqtisodiy tabiati turli belgilar asosida tasniflanishi mumkin.

Bundan tashqari, loyiha faoliyatida eng ko‘p uchraydigan risklar ham mavjud. Ular quyidagilar:

– iqtisodiy qonunlarning va iqtisodiy holatning o'zgarib turishi, investitsiyalash va foydadan foydalanish shartlari bilan bog'liq risklar;

– tashqi iqtisodiy risklar – savdo va mahsulot yetkazib berishga cheklashlar kiritish; chegaralarning berkilishi;

– siyosiy holatning noaniqligi yoki hududdagi yoxud mamlakatdagi noma'qul ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar;

– texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi, yangi texnika-texnologiya parametrlari, mahsulot sifati haqidagi ma'lumotlarning to'liq emasligi yoki noaniqligi;

– bozor konyunkturasining, ya'ni baho, valuta kurslari, yalpi ichki mahsulot va boshqalarning o'zgarib turishi;

– tabiiy iqlim sharoitlarining o'zgarishi, tabiiy ofatlarning yuz berishi;

– ishlab chiqarish texnik risklari – asbob-uskunalarning buzilishi va to'xtab qolishi, ishlab chiqarishdagi nosozliklar va boshqalar;

– loyiha ishtirokchilari maqsadlarining noaniqligi, ularning moliyaviy holati va ishdagi obro'si haqidagi ma'lumotlarning to'liq emasligi va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan tasniflashlarga asoslangan holda, investitsiya loyihasiga ta'sir etuvchi risklarning quyidagi guruhini keltirish mumkin:

– loyiha ishtirokchilari riski;
– loyiha-smeta qiymatining oshish riski;
– qurilishning o'z vaqtida tugamaslik riski;
– ish va obyekt sifatining pastligi riski;
– konstruksiya va texnologik risklar;
– ishlab chiqarish riski;
– boshqaruv riski;
– sotish riski;
– moliyaviy risk;
– mamlakat riski;
– ma'muriy risk;
– huquqiy risk;
– fors-major riski.

Yuqorida keltirilgan risklar tasnifi shartli ravishda bo'lib, bunday risklar aniq holatlarda mutaxassislar va ekspertlar tomonidan

tarmoqqa tegishliligi, ko'lamlari, tanlangan texnologiya, loyihani amalga oshirayotgan mamlakat va loyihaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Xullas, loyiha risklarining barcha turlarini ularning ta'siri jihatidan ahamiyatsiz va xavfsiz, deb bo'lmaydi. Loyiha risklari kichik bir texnologik yoki shu kabi mikrodarajadagi jarayondan tortib, to mamlakat, hatto, xalqaro miqyosdagi turli holatlar va hodisalarning o'zgarishiga bog'liq holda kelib chiqishi mumkin.

16.3. Investitsiya risklarini aniqlash usullari

Investitsiya loyihalarini amalga oshirishning maqsadga muvofiqlik masalasini hal etishda risk tahlili asosiy o'rinni egallab, bu asosida loyiha yuzasidan mumkin bo'lgan barcha yo'qotishlar o'rganilib, ularning oldini olish yoki tegishli vaziyatlarda ularni benuqson hal etish yoki pasaytirish choralari ishlab chiqiladi. Riskdan keladigan yo'qotishlarni kamaytirish yoki barham toptirish va ular bilan bog'liq salbiy oqibatlarni kamaytirish usullarini taklif etish uchun, eng avvalo, risklarning vujudga kelishiga imkon beruvchi omillarni aniqlash, ularning ahamiyatini baholash, ya'ni «risk tahlili» deb nomlanuvchi ishni bajarish lozim bo'ladi.

Risk tahlilining maqsadi investorga investitsiya loyihasini amalga oshirishda qatnashishning maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi qarorlarni qabul qilish va mumkin bo'lgan moliyaviy yo'qotishlardan himoyalanish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun kerakli ma'lumotlarni taqdim etishdan iborat. Shunga ko'ra, risk tahlilini loyihaning barcha ishtirokchilari mustaqil tarzda olib borishlari maqsadga muvofiqdir. Risk tahlili investitsiya loyihasining barcha ishtirokchilari – buyurtmachilar, pudratchilar, bank, sug'urta kompaniyalari, lizing kompaniyalari, mol yetkazib beruvchilar tomonidan olib borilishi lozim. U, odatda, bir-birini to'ldiruvchi ikki turga:

– risklarning turlari, omillari va doirasini aniqlash maqsadini ko'zlovchi sifat tahlili;

– alohida risklar kabi loyihalarning ham hajmini hisoblash imkonini beruvchi miqdoriy tahlil.

Risklarning sifat tahlili – risk omillarini va turlarini aniqlash maqsadiga ega. Loyihaviy risklarning sifat tahlilini o'tkazish jarayonida loyiha bo'yicha aniq risk turlari aniqlanadi, ularning paydo bo'lish sabablari o'rganiladi, risklarni pasaytirish bo'yicha takliflarda loyihani amalga oshirish oqibatlari tahlil qilinadi. Loyiha risklarining sifat tahlilida, eng avvalo, loyiha bo'yicha barcha risk turlari aniqlanadi, ya'ni loyiha riski tarkibidagi texnik risklar, loyiha qatnashchilari riski, siyosiy risklar, huquqiy risklar, moliyaviy risklar, marketing risklari, ekologik risklar, harbiy risklar, qurilish-ekspluatatsion risklar va boshqalar.

Risklarning miqdor tahlili – alohida risklar hajmini miqdor jihatdan aniqlash imkonini beradi. Loyiha risklarini miqdor jihatdan tahlil qilishda quyidagi usullar qo'llaniladi:

– sezgirlik tahlili;

– ssenariy tahlili;

– Monte-Karlo ulushida risklarni imitatsion modellashtirish.

Loyihaviy risklarning miqdoriy tahlilini o'tkazishda loyihaning hisob-kitoblariga asoslanadi.

Miqdoriy tahlilning vazifasi loyiha samaradorligi mezonlariga asosan riskli omillarning o'zgarishiga ta'sirini miqdor jihatdan o'lchash. Sezgirlik tahlili usuli loyiha risklarini baholashga imkon beruvchi eng oddiy usul zararsizlik nuqtasi tahlilidir. Zararsizlik tahlili deganda loyiha bo'yicha ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish hajmi, mahsulot tannarxi va foydaning bir-biriga bog'liqligini tadqiq qilish tushuniladi. Loyihaning sezgirligi tahlilini o'tkazishning yana bir usuli matematik dasturlashdir.

Risklar tahlilida tashqi omillarga: moddiy resurslarga bo'lgan narxning tebranishi, iqtisodiy o'sish va kelgusi mahsulotga bo'lgan talabning o'sishi, inflyatsiya, bank foiz stavkasining o'zgarishi, texnologiyaning rivojlanishi, siyosiy holat, iqtisodiy siyosat, shu jumladan, soliq siyosati, ekologik qonunchilik, tabiiy omillar va boshqalar kiradi. Ichki omillarga loyihalashtirilayotgan obyektning qurilish grafigi, joriy va ekspluatatsiya xarajatlari, ishlab chiqarish quvvatlarining o'zlashtirilishi kabilar kiradi.

Risklarni pasaytirish usullari turlicha bo'lib, ular risk turiga va risk guruhiga qarab tanlanadi. Birinchi bosqichda risklar tahlili loyiha tashabbuskorlariga investitsiya kiritish yoki kiritmaslik haqida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan zararlar haqida ma'lumot

beradi. Ammo, risklar loyiha hayotining barcha bosqichlarida bo'lganligi sababli risklar tahlili loyiha tugagunga kadar davom etadi.



16.4-rasm. **Risklarni baholash va boshqarishning tashkiliy jarayonlari**

Umuman olganda, risklarni aniqlash – sifat tahliliga, risklarni baholash – miqdor tahliliga taalluqli.

Risk tahlilining miqdor usullari orasida ommabop usullar quyidagilardir: statistik usul, statistik tajribalar usuli; maqsadga muvofiq keladigan xarajatlar tahlili; ekspert baholash; analitik usullar va boshqalar.

Risk tahlilining ahamiyati investitsiya loyihasining salohiyatli ishtirokchisiga, investorlarga loyihani maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirish haqidagi qarorlarni qabul qilishi uchun zaruriy ma'lumotlarni berishi bilan izohlanadi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida risklarni tahlil qilish va baholash yanada murakkablashadi. Sababi, bunday sharoitda loyiha risklarini baholashda tashqi iqtisodiy risklar,

mamlakatdagi yoki hududdagi ijtimoiy-siyosiy risklar, ya'ni eksport riski, valutaning tebranishi, hukumatning xorijiy investorlar va kreditorlar ishtirokidagi loyiha faoliyatini to'xtatish yoki cheklashga qaratilgan harakati, foydani boshqa mamlakatga olib o'tishdagi taqiqlashlar va cheklashlar, xorij kapitali uchun avval yaratilgan imtiyozlardan mahrum qilish, konsepsiya va litsenziyalarni qaytarib olish va boshqa omillar qo'shiladi. Shuning uchun ushbu omillarni ham inobatga olish kerak bo'ladi.

Bugungi kun amaliyotida loyiha risklarini tahlil qilishda bir qancha usullardan foydalaniladi. Jumladan:

- ekspert baholash usuli;
- zararsizlik nuqtasi (sezgirlik) tahlili;
- qarorlar daraxtini barpo etilishi usuli;
- Monte-Karlo usuli va boshq.

1. Ekspert baholash usuli.

Bu usul riskni tahlil qiluvchi iqtisodchi (ekspert)ning malaka darajasiga asoslanadi. Ehtimollik subyektiv tarzda aniqlanganida har bir kishi bitta hodisaning qiymatini turlicha belgilashi va u haqda turlicha qaror qabul qilishi mumkin. Bu usulda bankning faoliyatida o'tkazilgan barcha operatsiyalar bo'yicha mavjud statistik ma'lumotlar tahlil qilinishi lozim. Bunda imkoni boricha ko'proq yo'qotishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan operatsiyalarni tahlil qilish ko'zda tutiladi. Bank riski aniqlanganida bankning o'zidagi va bo'lish ehtimoli bo'lgan yo'qotishlar va ularning davr oralig'i aniqlab olinmog'i lozim. Bu oraliqni aniqlash ham risk darajasini kamaytirishga yordam beradi. Yo'qotishlar oralig'ini quyidagi tenglama bo'yicha aniqlash mumkin:

$$Y = YX / S \qquad (16.1)$$

bu yerda: **Y** – yo'qotishlar oralig'i darajasi; **YX** – yo'qotishlarga olib keluvchi holatlar soni; **S** – statistik tahlil qilinayotgan holatlarning umumiy soni.

Bu yerda S – bankning faqat yo'qotish, zararlarga olib kelishi mumkin bo'lgan operatsiyalarining soni emas, balki barcha operatsiyalarni, jumladan, foyda keltiruvchi operatsiyalarni ham o'z ichiga oladi. Agar shu inobatga olinmasa, bankning oraliq yo'qotishlar darajasi va u bilan bog'liq risk darajasi juda yuqori chiqishi mumkin, yani «Y» – yo'qotishlar oralig'i darajasi $0< Y <$

1 oralig'ida bo'lib, ushbu «Y» qancha «0» soniga yaqin bo'lsa, risk darajasi shuncha kichik bo'ladi. Agar «Y» qanchalik «1» soniga yaqin bo'lsa, risk darajasi shunchalik yuqori bo'ladi.

Shuni ta'kidlash mumkinki, bu usul risk darajasini yoki yo'qotishlar bo'lishi ehtimolini statistik ma'lumotlarga asoslanib yuqori aniqlikda matematik ifodalab beradi. Risk darajasini aniq son jihatdan aniqlab berish uchun barcha operatsiyalarning ehtimoliy natijasi va uning oqibatlarini ol/dindan ko'ra bilish lozim.

Loyiha risklarini ekspert baholash algoritmi quyidagilarni qamrab oladi:

– loyiha hayotiyligi siklidagi fazalarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklar tarkibini ishlab chiqish;

– risklarni muhimlik darajasi bo'yicha himoyalash. Bu maqsadda risklarning ehtimolligi, ushbu riskning xavflilik darajasi ekspert yo'li bilan aniqlanadi.

Investitsiya risklarini ekspert baholash usulining asosiy afzalligi loyiha tahlili jarayonida ekspertlar tajribasini qo'llash imkoniyatining mavjudligi va turli xil sifat omillarining ta'sirini hisobga olishda namoyon bo'ladi. Loyiha rahbari (firma) ekspert so'rovnomalari ko'rinishida baholash mezonlarini ishlab chiqadi, kompyuter yordamida hisoblab chiqadi. Bunday yondashuv investitsiyalarning qoplash davri yoki boshlang'ich investitsiya xarajatlarini qaytish davrini aniqlashga mo'ljallangan. Biroq, investitsiya qarorlari, nafaqat, mazkur mezonlar asosida qabul qilinadi, balki NPV, IRR, RI usullarini qo'llash bilan ham amalga oshiriladi. Shuning uchun investitsiya loyihalarining ekspert-analitiklari ekspert-baholash mezonlarining cheklanganligini bilsa ham, uni amaliyotda qo'llamoqdalar. Investitsiya loyihasiga pul mablag'larini qo'yish yuzasidan qaror qabul qiluvchi shaxslar investitsiyalarni qoplash davri bo'yicha zarur ma'lumotlarga ega bo'lish kerak va bu loyiha riskini aniqlashga ko'maklashadi.

2. Zararsizlik nuqtasi (sezgirlik) tahlili.

Zararsizlik tahlili deganda loyiha bo'yicha ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish hajmi, mahsulot tannarxi va foydaning bir-biriga bog'liqligini tadqiq qilish tushuniladi. Ba'zi hollarda bunday tahlil xarajatlar, ishlab chiqarish hajmi va foydaning bir-

biriga nisbatini tahlil qilish, deb ham ataladi. Bunda eng asosiy maqsad xarajatlarni qoplash uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish hajmini aniqlashdan iborat va bu holat korxona rahbarlariga va loyiha menejerlariga quyidagi omillarning o'zgarishi foydaga ta'sirini aniqlash imkoniyatini beradi:

– doimiy xarajatlar (miqdori ishlab chiqarish hajmiga qarab o'zgarmaydigan xarajatlar, masalan, qarz foizi, garov puli, ijara haqi, renta to'lovari va boshqalar);

– o'zgaruvchan xarajatlar (miqdori ishlab chiqarish hajmiga nisbatan to'g'ri mutanosiblikda o'zgarib turuvchi xarajatlar, masalan, ish haqi, xomashyo, yoqilg'i, yuk tashish xarajatlari va boshqalar);

– sotish hajmi;

- mahsulot tannarxi;

- sotilishi ko'zda tutilgan mahsulot assortimenti.

Xarajatlarni qoplash uchun zarur bo'lgan sotish hajmi maxsus nuqtani tavsiflaydi, ya'ni u ishlab chiqarish hajmining kritik nuqtasini ifodalaydi. Mana shuning uchun ham bunday tahlil zararsizlik nuqtasi, deb nomlanadi. Bunda korxona foyda ham olmaydi, zarar ham ko'rmaydi, ya'ni mahsulot sotishdan tushgan tushum mahsulotning to'liq tannarxiga (xarajatlarga) barobardir.

Zararsizlikni tahlil etish mahsulotni sotishdan tushgan tushumning sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish xarajatlariga teng bo'lgandagi, algebraik va grafik yo'l bilan topiladigan tenglik nuqtasini aniqlashdan iboratdir. Agar mahsulot sotish hajmi ushbu nuqtadan past bo'lsa (mahsulot tannarxidan past bo'lsa), u holda korxona ko'rgan zarari uchun chidashga majbur bo'ladi, agarda sotishdan tushgan tushum ishlab chiqarish xarajatlariga teng bo'lsa, bu holat uning o'z faoliyatini zararsiz yuritayotganidan dalolat beradi.

Zararsizlik nuqtasini aniqlash uchun, eng avvalo, sotish hajmi (Hs) o'zgarishining foydaga (F) ta'sirini aniqlash lozim bo'ladi. Bunday o'zgarishlar nisbatini aniqlashdagi elementlar bo'lib, mahsulot birligi narxi (Mn), mahsulot birligidagi o'zgaruvchan xarajatlar (Xo') va mahsulot birligidagi doimiy xarajatlar (Xd). Formula quyidagi ko'rinishga ega:

$$F = Nm * Hs - (Xo' * Xs + Xd) \qquad (16.2)$$

bu yerda: Hs – sotish hajmi; F – foyda; Nm – mahsulot birligi narxi; Xo‘ – mahsulot birligidagi o‘zgaruvchan xarajatlar; Xd – mahsulot birligidagi doimiy xarajatlar.

Ishlab chiqarishning zararsizlik nuqtasida F = 0 ga teng bo‘ladi va bundan zararsizlik nuqtasi kelib chiqadi:

$$Hs = Xd / Nm - Xo' \qquad (16.3)$$

Shunday qilib, zararsizlik nuqtasini aniqlashda sotish narxi, mahsulot birligiga ketgan o‘zgaruvchan xarajatlar hamda ma’lum vaqt (yil yoki oy) davomidagi doimiy xarajatlar eng muhim omillardandir.

Zararsizlik tahlilidan quyidagi muhim xulosalarni shakllantirish mumkin:

– yuqori zararsizlik nuqtasi istalmas bo‘lib, u firma ishlab chiqarish (mahsulot sotish) darajasining o‘zgarishiga bog‘liq bo‘ladi;

– doimiy xarajatlar qanchalik yuqori bo‘lsa, zararsizlik nuqtasi shunchalik yuqori bo‘ladi;

– sotiladigan mahsulot birligi bahosi va o‘zgaruvchan nisbiy xarajatlar o‘rtasidagi farq qanchalik katta bo‘lsa, zararsizlik nuqtasi shunchalik kichik bo‘ladi.

3. Qarorlar daraxtining barpo etilishi usuli.

Bu usul loyiha rivojlanishining turli xil variantlari mavjud bo‘lganda uning eng optimal variantlarini tanlash va tegishli qarorlar qabul qilish, shuningdek, loyiha bo‘yicha turli xil oraliqlarda qarorlar qabul qilinishi avvalgi qabul qilingan qarorlarga bevosita bog‘liqligi va uni istiqbolda yanada rivojlantirish holatini aniqlab beradi. Bunda riskni tahlil qiluvchi barcha ma’lumotlarga ega bo‘lishi kerak.

Qoida tariqasida, loyihani amalga oshirish davomida qilingan xarajatlar bir martalik moliyaviy qo‘yilmalarni amalga oshirishni talab qilmasdan, uzoq muddat davomida amalga oshirishni taqozo etadi. Bu holat loyiha menejeriga kapital qo‘yilmalarni qayta baholash zaruriyatini hamda loyihani amalga oshirishdagi o‘zgarishlarga tezkorlik bilan munosabat bildirishni talab qiladi. Mablag‘larni investitsiyalashni amalga oshirish uzoq muddatni talab etsa, loyiha bo‘yicha risklar, ko‘p hollarda, qarorlar daraxti usuli yordamida baholanadi.

«Qarorlar daraxti»ni barpo etish uchun ma'lumotlar to'plashning ketma-ketligi quyidagicha: loyiha hayotiyligi siklining davomiyligi va tarkibini aniqlash; loyihaning istiqboldagi rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy holatlarni aniqlash; asosiy holatlarning sodir bo'lish vaqtini aniqlash; asosiy holatlarning sodir bo'lishi natijasida qabul qilinishi mumkin bo'lgan qarorlarni shakllantirish; har bir qabul qilingan qarorlarning ehtimolligini aniqlash; loyihani amalga oshirish har bir bosqichining qiymatini aniqlash hamda olingan ma'lumotlar asosida «Qarorlar daraxti»ni barpo etish.

4. Monte-Karlo usuli.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi davrda Monte-Karlo usulini qo'llash katta ahamiyatga ega. Chunki ushbu davr loyihalarni amalga oshirishda noaniqlikning yuqori darajasi bilan, bozor iqtisodiyoti qonunlari to'liq amal qilinmasligi bilan va mutaxassislarning tahlil natijalari subyektiv ekanligi bilan belgilanadi. Monte-Karlo usuli – bu loyiha sezgirligini tahlil qilish usuli va ssenariylar usulining uyg'unlashtiruvchi usuli bo'lib, uning asosi bo'lib, ehtimollar nazariyasi xizmat qiladi. Agar ssenariylar tahlilida mutaxassis 3 xil variantdagi ssenariy tuzsa, Monte-Karlo usulida bu variantlar soni 500 ta va minglab ssenariylarni tashkil etadi. Ba'zi bir (yoki bir nechta) loyiha parametrlarini o'zgartirib, tahlilchi ularni uchta variantdan ko'rib chiqadi va har bir variantga loyiha natijasini hisoblab chiqadi. Ushbu natijalar yig'indisi asosida qaror qabul qilinadi.

Bu usulni yana immitatsion modellashtirish yoki statistik modellashtirish, deb ham atashadi. Immitatsiya deganda ushbu loyihaning ma'lum parametrlarini va shart-sharoitlarini o'zgartirib, loyihaning turli xil variantalarini yaratish, amaliyotdagi vaziyatni immitatsiya qilish tushiniladi. Barcha immitatsiyalar natijasi statistik usulda son jihatidan hisoblab chiqiladi. Monte-Karlo usuli tashqi omillar o'zgarishining maksimal darajada hisobga olinishini ta'minlaydi.

Monte-Karlo usulini qo'llashda zamonaviy kompyuter texnologiyalari bo'lishi zarur. Ularsiz hisob-kitoblar juda ko'p vaqtni oladi va mutaxassis bu murakkab jarayonda xatolarga yo'l qo'yishi mumkin. Ulardan Risk Mastyer, @Risk, Crystall Ball va boshqa kompyuter dasturlari tahlilga katta yordam beradi. Ko'p

hollarda kompyuterlarning o'zi bir nechta parametrlarning o'zgargan miqdorini olib, loyihaning tasodif variantlarini ishlab chiqadilar.

Monte-Karlo usulining asosiy bosqichlari:

– usul modelini tayyorlash, ya'ni tahlil uchun asos qilib olingan ko'rsatkichlarning (NPV, IRR, sof foyda, naqd pul oqimi yoki boshq.) matematik ko'rinishini kompyuterga kirgizish lozim;

– ehtimollarni taqsimlash bosqichi, ya'ni parametrlarni o'zgarish chegaralarini va ehtimollik qonuniyatlarini aniqlash;

– korrelyatsiya shartlarini belgilash, o'zgaruvchan miqdorlarning o'zaro bog'lanishini ko'rsatib berish;

– immitatsiya natijalarini yig'ish;

– natijalarni statistik tahlil qilish.

Har bir loyiha ssenariysi ma'lum ehtimol miqdorini anglatadi.

Masalan, loyiha bo'yicha kompyuter 500 ssenariy tuzgan bo'lsa, ularning har bittasi vujudga kelishi ehtimoli 0,2 %ga teng.

$R=100/n$

n - ssenariylar soni;

p - ssenariy ehtimoli.

Agar 5000 ssenariy tuzgan bo'lsa, ehtimollik ko'rsatkichi 0,02 %ga teng bo'ladi.

Agar 500 ta ssenariylar ichida 304 tada NPV noldan yuqori bo'lsa, 60,8 % ehtimoli bilan loyiha samarali bo'lishi kutiladi va risk 39,2 % variantni tashkil qiladi.

Bu usulning afzalliklari quyidagilar hisoblanadi: bozorni turli ko'rinishlari va o'zgarishlarini modellashtirish imkoniyati; modellarni kengaytirish imkoniyati va vaqt bilan chegaralanmaganligi (faqat loyiha hayoti davrida emas); tashqi omillarning barchasini hisobga olish imkonini beradi.

Usulning kamchiliklari: hisob-kitoblar murakkab kompyuter dasturlarini talab qiladi; tahlilchi ma'lum matematik va statistik bilim va tushunchalarga ega bo'lishi lozim; xatolar ehtimoli mavjudligi.

Ko'p hollarda, tahlil natijalari bo'yicha diagramma yoki gistogramma tuziladi. Ularda tahlil natijasi yaqqol namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, loyiha risklarini aniqlash, tahlil qilish, baholash va pasaytirish tadbirlarida risklarni boshqarish tizimi qonuniyati sifatida quyidagi masalalarga e'tibor qaratiladi: loyiha

risklarining tasnifi; loyiha risklarini aniqlash va baholash usullari; loyiha risklarini boshqarishning axborot ta'minoti; risklarning monitoringi va istiqbolini belgilash; risklarning oldini olish; risklarni kamaytirish texnologiyalari; risklarni boshqarishni tashkil etish; risklarni taqsimlash; risklarni sug'urtalash; risklarni boshqarish xarajatlarining optimal darajasini asoslash va samaradorlikni baholash; risklarni moliyalashtirish; natijalarni o'rganish va monitoring olib borish; monitoring ma'lumotlari asosida risklarni boshqarishda qo'shimcha chora-tadbirlarni qabul qilish.

Xulosa qilib aytganda, risklar barcha investitsiya loyihalari uchun xosdir. Riskni bartaraf etish uni loyiha ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash, daromad va yo'qotishlar, samaradorlikning pasayishi kabi holatlar bo'yicha risklar tahlilini olib borish orqali zaruriy choralar ko'rish bilan amalga oshiriladi.

16.4. Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda risklarni boshqarish

Investitsiya loyihalari risklarini boshqarishning u yoki bu turdagi vositalarining, mexanizmlarining qo'llanilishi amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari risklarining aniq turlari va ularni keltirib chiqaruvchi omillar ko'lamiga, shuningdek, ularning loyihani amalga oshirish natijalariga ta'siriga bog'liqdir. Risklar barcha loyihalar uchun umumiy bo'lgani kabi, har bir investitsiya loyihasining o'ziga xos xususiyatlariga, muayyan tasniflariga qarab maxsus risklar ham bo'lishi mumkin. Bunday sharoitlarda risklarni tahlil etish, ularni boshqarish vositalarini ishlab chiqishda kuchli va tajribali mutaxassisning malakali bilimiga tayaniladi. Bunda loyiha risklarini boshqarish bir martalik yoki bitta jarayondan iborat bo'lmasdan, balki u bir qancha bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi. Bu jarayonlar investitsiya loyihasini amalga oshirishdagi risklarni pasaytirish yoki bartaraf etishnigina emas, shuningdek, loyihaning ijobiy natijalarini ta'minlash yoki oshirishga ham bo'ysundirilgan bo'ladi.

Quyida investitsiya loyihalarini ishlab chiqishda aniqlanuvchi, hisobga olinuvchi risklarni tahlil qilish va ularni loyihani ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlaridagi boshqarish tizimining bosqichlari keltirilgan:

– risklarni boshqarishni rejalashtirish;
– risklarni tasniflash;
– risklarni sifatli baholash;
– risklarni miqdoriy baholash;
– risklarni rejalashtirish (aniqlash) va ularni hal etish usullarini tanlash;
– risklarning monitoringini olib borish.

Loyiha risklarini boshqarishning yuqoridagi barcha bosqichlari bir-biri bilan o'zaro bog'liqlikka ega.

Investitsiya loyihalarining amalga oshiriladigan tarmoq xususiyatiga qarab, yuqorida tilga olingan bosqichlar qisman o'zgarib turishi mumkin. Masalan, elektroenergetika va transport, neft va neftni qayta ishlash tarmoqlari va shu kabi davlat ahamiyatiga ega boshqa tarmoqlar iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan qat'iy yuqori ahamiyat kasb etuvchi davlat tomonidan nazorat qilib boriluvchi tarmoqlar hisoblanadi.

1. Risklarni boshqarishni rejalashtirish.

Risklarni boshqarishni rejalashtirish, deganda aniq loyiha bo'yicha boshqarishni rejalashtirish va qarorlarni qabul qilish jarayoni tushuniladi. Shuningdek, mazkur jarayon o'z ichiga loyiha risklarini boshqarish jarayonini kadrlar bilan ta'minlashni tashkil etishni ham qamrab olishi lozim.

2. Risklarni tasniflash.

Risklarni tasniflash jarayonida loyihaga, haqiqatdan ham, ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan risklar aniqlanadi va bu risklarning tasnifi keltiriladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, investitsiya loyihalarini amalga oshirishda risklarni tasnflash ularni boshqarishning eng muhim jarayonlaridan hisoblanadi.

3. Risklarni sifat jihatdan baholash.

Risklarni sifatli baholash – loyihada tasniflangan risklarning sifatli tahlilini amalga oshirish va ulardan eng xatarlilarini ajratib olishdir.

Risklarni sifatli baholash risklarning paydo bo'lish shart-sharoitlarini baholashni va ularning standart yoki nostandart usullar va vositalar bilan loyihaga ta'sirini aniqlashni bildiradi. Bizning fikrimizcha, aksariyat hollarda, tahlilning universal usullarini

qo'llash olinadigan natijalarning ko'zlangan darajadagi ishonchligini ta'minlashga imkon bermaydi.

4. Risklarni miqdoriy baholash.

Adabiyotlarda risklarni miqdoriy baholash sifatida risklarning paydo bo'lish ehtimolligini aniqlash va ularning loyihaga ta'siri tushuniladi.

Bizning fikrimizcha, miqdoriy tahlil, aksariyat hollarda, risklarni boshqarishning mustaqil bosqichi hisoblansa-da, u risklarni sifatli baholash bosqichi bilan uzviy bog'liqlikda qo'llanilishi lozim.

5. Risklarni rejalashtirish (aniqlash) va ularni hal etish uslublarini tanlash.

Iqtisodiy adabiyotlarda risklarni rejalashtirish (aniqlash) va ularni hal etish uslublarini tanlash sifatida loyihaga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi risklarni pasaytirish uslublari va texnologiyalarini ishlab chiqish tushuniladi.

6. Risklarning monitoringini olib borish.

Risklarning monitoringini olib borish bosqichi doirasida aniqlangan risklar va ularning tarkibi, bartaraf etilmagan risklar va risklardan himoyalanish rejasining bajarilishi ta'minlanganligi aniqlanadi hamda uning samaradorligini baholash ishlari olib boriladi.

Shuni e'tiborga olish lozimki, investitsiya loyihalari risklarini boshqarishda ularning tahlil qilinish natijalariga asoslanib, boshqarish usullari tanlanadi. Bunda risklar tahlilini:

1. Ehtimollik usullari.

2. Kritik (zararsizlik) nuqtalarni aniqlash usuli.

3. Loyihaning sezgirlik tahlili usuli orqali amalga oshirish ham maqsadli hisoblanadi.

Mazkur usullar ichida sezgirlik tahlili loyihaning turli ta'sirlar va omillarga sezgirligini aniqlashga yordam beradi. Biroq kritik (zararsizlik) nuqtalari tahlili usuli muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning yordamida investitsiya loyihasining daromadlilik darajasi aniqlash mumkin bo'ladi.

Risklarni aniqlash va boshqarish uchun uni keltirib chiqaruvchi omillar to'g'risida bilimga ega bo'lish lozim. Riskni keltirib chiqaruvchi omillar quyidagilar bo'lishi mumkin:

– tabiat, iqtisod, siyosat va sohalardagi noaniqliklar;

– subyektning bilimsizligi;
– subyektning mansabini suiste'mol qilishi;
– qarama-qarshi kuchlarning mavjudligi.

Riskni boshqarish turli faoliyat doiralarida riskni kamaytirish bo'yicha texnologiyalarni va bilimni talab qiladi. Hozirgi vaqtda riskni boshqarish faoliyatini quyidagi asosiy bosqichlarga bo'lish mumqin:

1. Risklarni aniqlash.
2. Risklarni baholash.
3. Risklarni boshqarish choralari va usullarini tanlash.
4. Risklarning oldini olish va nazorat qilish.
5. Risklarni moliyalashtirish (zaxira fondini tashkil etish).
6. Natijalarni baholash.

Riskni boshqarish choralari va usullarini tanlash juda muhim bosqich hisoblanadi. Aniq tanlangan usul doirasida aniq chora-tadbirlarni qo'llash mumkin. Bu bosqich loyihani amalga oshirishni boshlash haqidagi qarorni qabul qilishdan avval o'tkazilishi talab etiladi. Tanlashda kechikish investitsiya loyihasi ishtirokchisi uchun jiddiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi yoki ishtirokchilar o'rtasida jiddiy kelishmovchiliklar kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Riskni boshqarishda chora va usullarning optimal variantlarini tanlash barcha loyiha ishtirokchilari o'rtasida jiddiy muzokaralar o'tkazilishini talab qiladi.

Risklarning oldini olish va nazorat qilish bosqichi ma'lum reja va dasturlar asosida aniq tashkiliy-texnik tadbirlarni ko'rib chiqadi. Bu bosqichda quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi: risklar monitoringi; risk istiqbolini belgilash; tahdid soluvchi xatarlar haqida rahbarlarga ma'lumot berish va bu bilan bog'liq ko'rsatmalarni ishlab chiqish; risklarning oldini olish va nazorat qilish dasturi doirasida maxsus tashkiliy-texnik tadbirlarni qabul qilish.

Odatda, aksariyat risklarning oldini olish va nazoratini olib borish mumkin. Lekin, shunday risklar mavjudki, ularning oldini olish yoki kamaytirish mumkin emas, ya'ni ular investitsiya loyihasi ishtirokchilari ta'siridan tashqarida bo'ladi. Shunday risklar ko'p xarajat talab qilganligi sababli ularni, ya'ni risklarni moliyalashtirish usuli qo'llaniladi. Bunda loyiha ishtirokchilarining o'z-o'zini sug'urtalash, tajribali sug'urtachilar yordamida sug'urtalanishga mablag' ajratishi tushuniladi. Sug'urta shartno-

malarida riskning ko'pgina turlari bo'yicha sug'urta kompaniyasining zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirishi ko'rib o'tilgan moddalar mavjud bo'ladi. Risklarni aniqlash va hisoblashda loyiha ishtirokchilaridan tashqari, sug'urta tashkilotlari ham bevosita ishtirok etadi. Ular riskni baholashda o'z usullari va yo'llarini tanlaydilar va amalga oshiradilar, bu amalga oshirish rejadasturlarini nazorat qilib borishga imkon beradi.

Natijalarni baholash – bu ma'lum bir loyiha doirasidagi riskmenejmenti bo'yicha faoliyatlarning yig'indisi. U keng ma'lumotlar to'plami asosida o'tkaziladi va risk tahliliga tuzatishlar kiritish, risk-menejmentining alohida choralarini qo'llash samaradorligini baholash, riskni boshqarishda barcha qilingan xarajatlarni baholash maqsadida o'tkaziladi. Natijalarni baholash orqali olingan ko'rsatma va xulosalar keyingi loyihalarni amalga oshirishda qo'llaniladi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan risklarni aniqlash va boshqarish bosqichlari va risklarni baholash usullari yordamida risk sababli bo'ladigan yo'qotishlarni pasaytirish, ular bilan bog'liq ko'ngilsiz oqibatlarni kamaytirish usullarini taklif qilish mumkin.

Risklarni boshqarishdagi asosiy vazifa – amaldagi bozor konyunkturasiga mos darajada risklarni minimallashtirish, kreditlash xizmatlari bozorida bank pozitsiyasini minimum saqlab qolish. Riskni boshqarishdagi asosiy yo'llar quyidagilar: risklarni ajratish; riskarni loyiha ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash; moddiy va moliyaviy ta'minotni olish (garov, kafolat yoki kafillik); risklarni kredit bo'yicha yuqori foiz stavkasiga ko'chirish; risklarni venchur kreditlashga qabul qilish; qarzlar bo'yicha yo'qotishlarni qoplash uchun fondlarni shakllantirish.

Bular riskni boshqarish bo'yicha quyidagi ish yo'nalishlarini talab qiladi: har bir mijoz bo'yicha doimiy monitoringni olib borish; ma'lum bir mijozning asosiy xo'jalik faoliyatiga aloqador tarmoq holatining doimiy monitoringini yuritish; kafolatni jalb qilish va tahlil etish; risk uchun kompensatsiya olish (garov, kafolat va boshqalarni amalga oshirish).

Umuman, risklarni boshqarish – bu risk va foyda miqdorining oqilona qo'shilmasini aniqlashga qaratilgan harakatlar. Risklarni boshqarishning asosiy maqsadi bo'lib, ularni pasaytirish hisoblanadi.

Risklarni boshqarish quyidagi asosiy bosqichlarga bo'linadi: risk omilini aniqlash; risk omilini tahlil qilish va baholash; risklarni pasaytirish bo'yicha ishlarni rejalashtirish yoki risk oqibatlarini bartaraf etish; risklarning oldini olish va nazorat qilish; risklarni boshqarish usullarini tanlash va qo'llash; risk vaziyatlari va ularning oqibati haqida ma'lumot to'plash va kelajakka tavsiyalar tuzish.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida risklarni boshqarish bu amaldagi bozor konyunkturasiga mos darajada risklarni minimallashtirish, kreditlash xizmatlari bozorida bank pozitsiyasini minimum saqlab qolishdir. Shuningdek, riskni boshqarishdagi asosiy yo'llar bo'lib risklarni ajratish, risklarni loyiha ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash, moddiy ta'minotni olish (garov), moliyaviy ta'minotni olish (kafolat yoki kafillik), risklarni kredit bo'yicha yuqori foiz stavkasiga ko'chirish, risklarni venchur kreditlashga qabul qilish, qarzlar bo'yicha yo'qotishlarni qoplash uchun fondlarni shakllantirish va boshqalar hisoblanadi. Bular riskni boshqarish bo'yicha quyidagi ish yo'nalishlarini talab qiladi: har bir mijoz bo'yicha doimiy monitoring olib borish; ma'lum bir mijozning asosiy xo'jalik faoliyatiga aloqador tarmoq holatining doimiy monitoringini yuritish; kafolatni jalb qilish va tahlil etish; risk uchun kompensatsiya olish (garov, kafolat va boshqalarni amalga oshirish).

16.5. Investitsiya loyihalarida risklarni pasaytirish yo'nalishlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir investitsiya faoliyati risk bilan bog'liqligini inobatga olsak, investitsiya loyihalarini amalga oshirishda risklarning oldini olish yoki pasaytirish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirishdagi risklar ta'sirini yo'qotish yoki yumshatish ustuvor ahamiyatga egadir. Shu jihatdan, loyiha risklarini pasaytirishning bir qancha usullari qo'llaniladi. Jumladan:

– riskdan qochish, ya'ni risk bilan bog'liq tadbirlardan shunchaki og'ish tushuniladi;

– riskni loyiha ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash (riskning bir qismini hamkorlarga berish), bunda riskni taqsimlash loyiha-

ning moliyaviy rejasini va aniq hujjatlarini ishlab chiqishda amalga oshiriladi;

– riskni sug'urtalash, ya'ni muayyan risklarni sug'urta kompaniyalariga berishni anglatadi. Uning mohiyati investorning riskdan qutulish maqsadida daromadning bir qismidan voz kechish orqali aks ettiriladi. Bunda investorning risk darajasini «nol»ga tushirish uchun to'lovni amalga oshirishga tayyor ekanligini tushinish mumkin. Ko'p hollarda, sug'urta kompaniyalari moliyaviy risklarni sug'urtalash bilan risk darajasini pasaytirishga to'liq erishishga xizmat qiladilar;

– riskni pasaytirish (ko'zda tutilmagan xarajatlarni qoplash uchun zaxira mablag'larini tashkil etish yo'li bilan yo'qotishlar hajmini qisqartirish), ya'ni ko'zda tutilmagan xarajatlarni qoplash uchun zaxira mablag'larini tashkil etishdagi asosiy muammo risklarning jiddiy oqibatlarini baholash hisoblanadi. Buning uchun loyiha qiymatini, boshlang'ich baholashni hisobga olish lozim. Bu zaxira summasini aniqlashga katta yordam beradi.

Riskni pasaytirishning aniq vositasini tanlashda investor quyidagi tamoyillarga asoslansa, maqsadga muvofiq bo'lar edi:

– ortiqcha tavakkal qilish kerak emas;

– risk oqibatlari to'g'risida o'ylash lozim;

– kam narsa uchun risk qilish kerak emas.

Birinchi tamoyilning amalga oshirilishi investor kapitalni qo'yishdan oldin:

– ushbu risk bo'yicha mumkin bo'lgan zararning maksimal hajmini aniqlab olishi;

– uni barcha xususiy moliyaviy mablag'lar bilan taqqoslashi va ushbu kapitalning yo'qotilishi investorning bankrot bo'lishiga olib kelish-kelmasligini aniqlashi lozim.

Kapital qo'yilmasidan ko'rilgan zarar hajmi ushbu kapital hajmiga teng, undan katta yoki kichik bo'lishi ham mumkin. Xususan, bevosita investitsiyalardagi zarar hajmi, odatda, inflyatsiya omilini hisobga olgan holdagi venchur kapitali hajmiga tengdir.

Ikkinchi tamoyilning amalga oshirilishi investorning risk ehtimolligi miqdori va oqibatlarini aniqlab olgan holda riskni pasaytirish usullari to'g'risida qaror qabul qilinishini talab etadi.

Uchinchi tamoyilning amal qilinishi loyihadan ko'riladigan zarar hajmi nisbatan yuqori bo'lgan hollarda riskdan (tavakkal qilishdan) bosh tortish zarurligi bilan anglanadi.

Investor uchun uning manfaatiga mos bo'lgan loyiha uni amalga oshirishdagi yuzaga keluvchi risklarning to'liq bartaraf etilganidir. Loyihaning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda muqobil loyihalarni taqqoslama tahlil etishning ahamiyati juda kattadir. Loyihalarning taqqoslama tahlili, hatto, ularning qaysi biri eng kam riskli, yuqori foydali, tez qaytimli, kafolatlangan daromadli, hayotiyligi ishonchli investitsiya loyihasi ekanligini aniqlashga imkon beradi. Bunday tahlil investorning moliyalashtirishga loyiq haqiqiy raqobatbardosh loyihani aniqlashi va tanlashiga imkon beradi.

Risk strategiyasini ishlab chiqishning muhim tarkibiy qismi xedjirlash, ya'ni riskni kamaytirish yoki uning paydo bo'lishini ogohlantirish tadbirlarini ishlab chiqish hisoblanadi. Xorijiy bank amaliyotida eng keng tarqalgan, kredit riskini pasaytirishga qaratilgan tadbirlar quyidagilar hisoblanadi:

1. Qarzdorning kreditga layoqatliligini baholash. Xorij bank amaliyotida ssuda oluvchini balli baholashga asoslangan usul juda keng tarqalgan. Bu usul mijoz reytingini aniqlashni ko'zda to'tadi. Qarzdorni baholash mezonlari har bir bank uchun qattiq individuallashgan bo'lib, uning amaliyotdagi mavqeyidan kelib chiqadi va vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqiladi.

2. Bir qarzdorga beriladigan kreditning hajmini kamaytirish. Bu usul, qachonki, bank mijozning kreditga layoqtliligiga to'liq amin bo'lmasagina qo'llaninadi.

3. Kreditlarni sug'urtalash. Kreditni sug'urtalash uning qaytmaslik riskini to'liq sug'urta bilan shug'ullanuvchi tashkilot zimmasiga yuklanishini ko'zda tutadi. Sug'urtalash bilan bog'liq barcha xarajatlar ssuda oluvchilar tomonidan to'lanadi.

4. yetarli ta'minlanishni jalb qilish. Bunday usul bankka berilgan summaning qaytishini va foiz olinishini kafolatlaydi. Kredit riskidan himoya qilishda asosiy e'tibor zararlarni qoplash uchun mo'ljallangan yetarli ta'minotni jalb qilishga emas, balki ushbu zararlarga yo'l qo'ymaslik uchun qarzdor kreditga layoqatliligini tahlil qilishga qaratiladi. Chunki ssuda, kredit kelishuviga muvofiq, qaytarilishini hisobga olib beriladi.

5. Diskontli ssudalar berish. Diskontli ssudalar unchalik katta bo'lmagan darajada kredit riskini pasaytirishga yordam beradi. Bunday usulda kredit berish minimum kreditga to'lovni olishni ta'minlaydi. Agar kredit riskidan himoyalanishning boshqa usullari qo'llanilmasa, uning qaytishi to'g'risidagi savol javobsiz qolaveradi.

Yuqorida aytib o'tilganlardan tashqari, quyidagilarga e'tibor berish ham kredit riskini kamaytirishda katta ahamiyatga molikdir. Jumladan, tomonlar o'rtasida kredit munosabatlarining samarali amalga oshirilishiga ham oqilona kredit siyosati orqali erishish mumkin. Chunki kredit siyosati kreditlash jarayonida yuzaga keladigan risklarni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan chora va uslublarni, bank kredit portfelini samarali boshqarishga doir ko'rsatmalarni o'zida ask ettiradi. har bir bank o'zining kredit siyosatini mamlakatdagi iqtisodiy, siyosiy, geografik, tashkiliy va boshqa bank faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olgan holda ishlab chiqadi.

Global moliyaviy inqiroz sharoitida kredit siyosati muhim ahamiyat kasb etib, u bank strategiyasining ajralmas qismi sifatida kredit bozorida bankning harakat qilishidan ko'zlangan maqsadini, ta'moyillarini va yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Taktik jihatdan esa bu siyosat moliyaviy va boshqa vositalarni, kredit bitimlarini amalga oshirishdagi bankning maqsadlariga erishish yo'nalishlarini va qoidalarini hamda kredit jarayonini tashkil qilish tartiblarini ishlab chiqishni qamrab oladi.

Tijorat banklari o'z kredit siyosatini olib borishda hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida hozirda mavjud amallardan tashqari o'z oldiga quyidagi maqsadlarni qo'yishi lozim:

– kredit bo'limi xodimlarining individual vakolatini oshirish, rag'batlantirish va javobgarlikni kuchaytirish;

– kreditlashda garovdan ko'ra kredit subyektiga ko'proq e'tibor berish;

– kredit risklarini boshqarish bo'limi va uning vazifalarini aniq belgilash;

– bankning kredit portfeli umumiy summasining cheklanganligiga e'tibor berish;

– kreditlarni tarmoqlar bo'yicha diversifikatsiyalash, ya'ni bir tarmoqqa to'g'ri keluvchi kredit miqdorini chegaralash va boshq.

Kredit operatsiyalari bo'yicha risklarning oldini olishda birinchi navbatdagi ish kreditlashtirish bo'yicha faqat kreditlash bilan bir necha yil ishlab kelgan, tajribali, o'z ustida doim ishlaydigan, korxonalar moliyasini yaxshi biladigan, huquqiy bilimi yaxshi xodimni tanlab, ishga qo'yishdir. Ikkinchidan, kredit olmoqchi bo'lgan korxonaning moliyaviy ahvolini chuqur o'rganish asosida uning kreditga layoqatliligiga to'g'ri baho berish lozim. Kredit va unga hisoblangan foizlarning o'z vaqtida to'lanishida korxona tomonidan kredit ta'minotiga qarab emas, avvalo, qarz oluvchining o'zining kreditga layoqatlilik holatini yaxshiligiga, birinchi navbatda, e'tibor berish lozim. Uchinchidan, kreditlanayotgan operatsiyaning samaradorligini puxta o'rganish kerak. Qarz oluvchi ko'zlagan maqsad qanchalik real, rentabelli, maqsadga muvofiqligi bank xodimi tomonidan to'liq o'rganib chiqilishi lozim. To'rtinchidan, kredit ta'minotining bank talabiga mosligini o'rganib chiqish lozim. Ma'lumki, kredit ta'minoti turlariga mulk garovi, kafillik, kafolat, kreditning qaytmaslik xatarini sug'urtalash kiradi.

Kreditning ta'minlangan bo'lishi qarz oluvchi o'ziga olgan majburiyatlarini bajarmaslik sharoitida qarz beruvchining mulkdorlik manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydi va o'zining amaliy aksini kreditni biror garov yoki moliyaviy kafolat asosida berishda topadi. Bu umumiqtisodiy barqarorlikka erishish davrida, ayniqsa, muhimdir.

Bank tomonidan kredit garov asosida berilganida quyidagilarga e'tibor berilishi lozim: mulkning likvidliligi; mulk bahosini to'g'ri belgilash; mulkning egalik holatini to'g'ri aniqlab olish; mulkning qonun bilan sotilishi taqiqlangan mulklar ro'yxatiga kirish-kirmasligini aniqlab olish; garov shartnomasini qonunga mos tuzilishi; garov mulkini, albatta, bank baholagan summada majburiy va ixtiyoriy sug'urta qildirish.

Bank tomonidan kreditni kafillik bilan berayotganda quyidagilarga e'tibor berish kerak: kafillik beruvchi korxonaning moliyaviy ahvoli, kredit tarixi to'g'risida ma'lumotlarni tahlil qilish; kafilning huquqiy holatini aniqlab olish, ya'ni kafil qonun va o'z nizomiga asosan kafillik berish mumkinmi-mumkin emasmi aniqlab olish, agar mumkin bo'lsa, tartiblariga rioya qilishni ta'minlash; kafil to'g'risida boshqa subyektlarning fikrini

ham o'rganib chiqish lozim; kafillik shartnomasining qonunga mos ravishda tuzilishini ta'minlash.

Kreditni kafolat asosida berilayotganda kafolatni qonunda faqat banklar va sug'urta tashkilotlari berishlari mumkinligini esdan chiqarmaslik lozim. Banklarning va sug'urta tashkilotlarining moliyaviy holatini ham albatta tahlil qilib chiqish lozim bo'ladi. Kafolatni ham to'g'ri rasmiylashtirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bank va sug'urta kafolatini berish vakolati qaysi bo'g'in rahbariga berilganligini aniqlab olish lozim. Odatda, bankning quyi pog'onalariga, ya'ni shahar va tuman bo'limlari, hatto, viloyat boshqarmalariga ham bank nomidan kafolat berish huquqi berilmagan bo'ladi.

Bank tomonidan kreditning qaytmaslik xatarini sug'urta qilish sharti bilan kredit berayotganda sug'urta tashkilotining moliyaviy jihatdan barqaror ekanligini e'tiborga olish g'oyat katta ahamiyatga ega.

Bankning kredit operatsiyalari bilan bog'liq operatsiyalari bo'yicha risklarni kamaytirish usullaridan biri bankda kredit portfelini xatarlilik darajasi bo'yicha tasniflab chiqib, xatarliligiga mos ravishda zaxiralar tashkil qilishdir. Zaxira tashkil qilish uchun bankning foyda bilan ishlayotgan bo'lishi va yetarli foydasi bo'lishi lozim. Kredit qarzini va unga hisoblangan foizni ajratilgan zaxira bilan qoplash oxirgi choradir. Bank qaytarilmagan kreditni zaxira mablag'i bilan yopib, faqat bankning bu holatda to'xtab qolmasligini ta'minlaydi. Lekin, bu bank foydasining kamayishiga bilvosita ta'sir qiladi.

Bank riskini kamaytirish usullaridan yana biri bu diversifikatsiyalashdir. Diversifikatsiyani keng va tor ma'noda tushunish mumkin. Keng ma'nodagi diversifikatsiya deganda bank faoliyatini diversifikatsiyalashni tushunish lozim. Bunda bank faoliyatida keng miqyosdagi va har xil turdagi bank xizmatlarini joriy qilish bank riskini kamaytiradi, ya'ni bir xizmat turidan kelgan zararni boshqa bir turdagi xizmat ko'rsatishdan olgan daromad qoplay olishi mumkin bo'ladi. Tor ma'nodagi diversifikatsiya deganda bankning muayyan turdagi operatsiyalari doirasidagi diversifikatsiyalash tushuniladi. Jumladan, kredit operatsiyalari bo'yicha, valuta operatsiyalari bo'yicha, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar bo'yicha, bankning omonat va

depozit operatsiyalari bo'yicha diversifikatsiyalashni amalga oshirish mumkin. Valuta operatsiyalari bo'yicha diversifikatsiyani shunday tashkil qilish lozimki, bunda mablag'lar faqat bitta valuta bilan bog'liq operatsiyaga yoki faqat bitta operatsiyaga jalb etilib qolmasligi kerak. Qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalardagi diversifikatsiyaninng mohiyati shundan iboratki, oborotdagi mablag'ni faqat bitta korxonaning aksiyasiga yoki fyuchers shartnomasini sotib olishga joylashtirmaslik kerak. Buning ma'nosi shuki, faoliyat natijasi faqat bir operatsiyaning natijasiga yoki bir tarmoq, bir korxonaning faoliyat natijasiga bog'liq bo'lib qolmasin. Bankning omonat va depozitlar bo'yicha operatsiyalarni diversifikatsiyalash, deganda omonatlarni ko'pchilikdan qabul qilish tushuniladi. Bundan maqsad shuki, bankning barqaror faoliyat yuritishiga bir omonatchining yoki yuridik shaxsning bankka qo'ygan omonatini olib chiqib ketishining ta'siri bo'lmasligi lozim.

Kredit potrfelini diversifikatsiyalash deganda bankning ba'zi mijozlardan ko'rgan zararlarini boshqa mijozlaridan olgan daromadlari hisobiga qoplash uchun kredit resurslarini kam miqdorda ko'p sonli mijozlar o'rtasida taqsimlanishi tushuniladi. Kredit portfelini kreditning turlari, muddati, ta'minlanganligi, mintaqalar, tarmoqlar, mijozlar bo'yicha diverifikatsiyalash bank risklarini kamaytirishga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyati ma'lum bir tarmoqlarga xizmat qilishga yo'naltirilganligini inobatga olib, ularning kredit portfelini tarmoqlar bo'yicha diversifikatsiyalashga alohida e'tibor berish lozim. Tijorat banklari tomonidan bir tarmoqqa yo'naltirilgan kredit miqdori kredit portfelining 50-60 foizidan oshmasligi va shu qoida ularning kredit siyosatida o'z aksini topmog'i lozim. Kreditlarning noishlab chiqarish sohasida konsentratsiyalashuviga yo'l qo'ymaslik zarur.

Bank faoliyatida bugungi kunda diversifikatsiyalash quyidagi yo'nalishlarda olib borilmoqda:

– bank kredit qo'yilmalarini xalq xo'jaligining turli tarmoqlari bo'yicha diversifikatsiyalash;

– bank kredit qo'yilmalarini mijozlar o'rtasida diversifikatsiyalash;

– bank tomonidan jalb qilinayotgan omonatlarni turli omonatchilar bo'yicha diversifikatsiyalash;

– bank faoliyatida bank operatsiyalarining xilma-xil turlarini qo'llash yo'li bilan bank faoliyatining o'zini diversifikatsiyalash. Buning mazmuni shuki, bank faoliyatining bir sohasidan kelgan zararni boshqa sohadan kelgan daromad bilan qoplash imkoniyatini yaratish.

Hozirgi paytda iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilayotgan bank kreditlari hajmi oshishi, bank kreditidan foydalanayotgan turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidagi mijozlar miqdori ko'payishi va banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona joylashtirish va ularning samaradorligini oshirish, bergan kreditlar va ular bo'yicha hisoblangan foizlarni to'liq va o'z vaqtida undirib olishni ta'minlash bank kredit portfeli ustidan doimiy monitoring olib borishni talab etmoqda. Bank kredit portfeli ustidan monitoring o'rnatishni kredit xatarini oldini olishning eng birinchi sharti, deb qarash lozim. Chunki har qanday tajribali bank xodimlari bilan ishlanmasin, ular tomonidan monitoring ishlari olib borilmas ekan, kredit xatarini kamaytirish mumkin emas. Bank kredit portfeli monitoringi jarayonini shartli ravishda 4 bosqichdan iborat, deb olish mumkin:

– kreditlarni rasmiylashtirishning qonuniyligini va to'g'riligini nazorat qilish;

– berilayotgan kreditlarning maqsadga muvofiq ishlatilishini ta'minlash va nazorat qilish;

– qarzdorning va kafolat beruvchining moliyaviy holatini, garovga olingan mulkning butligini doimiy kuzatib borish hamda kredit va u bo'yicha hisoblangan foizlarning belgilangan grafik asosida undirilishini nazorat qilish;

– kredit va u bo'yicha hisoblangan foizlarni shartnomada belgilangan muddatlarda undirib olishni ta'minlash, o'z vaqtida undirilmagan taqdirda zudlik bilan keskin chora-tadbirlar belgilash.

Ushbu tartibdagi monitoring kredit portfelidagi har bir kredit qarzi bo'yicha olib borilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, investitsiya loyihalarida risklarni pasaytirish muhim ahamiyat kasb etib, bunda loyiha risklarini pasaytirish maqsadida risklarni loyiha qatnashchilari orasida

taqsimlashga imkon beruvchi diversifikatsiyalash, sug'urtalash, bu jarayon iqtisodiyotimizning bozor munosabatlariga o'tish davri sharoitida o'zining birinchi qadamlarini qo'ymoqda, loyihalarni amalga oshirish jarayonida kutilmagan holatlarga ajratmalar ulushini ko'paytirish hamda qo'shimcha ma'lumotlar olish yoki ularga ega bo'lish maqsadga muvofiqdir.

Nazorat savollari

- Investitsiya faoliyatida risklar deganda nimani tushunasiz?
- Risklarning mazmun-mohiyatini tushuntirib bering?
- Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiya risklarini boshqarishga bo'lgan obyektiv zarurat nimalar bilan belgilanadi?
- Investitsiya risklari qanday tasniflanadi?
- Investitsiya loyihasiga ta'sir etuvchi risklarning qanday turlarini bilasiz?
- Moliyaviy risklarning mazmuni va ularning turlarini aytib bering?
- Kapital qurilish bilan bog'liq risk turlarining mazmunini gapirib bering?
- Investitsiya loyihasini amalga oshirishning har bir bosqichida qanday risk turlari uchraydi?
- Tizimli va tizimsiz risklar mohiyatini izohlab bering?
- Risklarni tahlil qilish jarayoni nimalardan iborat?
- Risklarni boshqarish qanday bosqichlardan iborat?
- Risklarni baholashda qanday tahlil usullari qo'llaniladi?
- Risklarni sifat va miqdor jihatidan tahlil qilishning asosiy jihatlari nimalardan iborat?
- Risklarni tahlil qilishning statistik usullariga qaysi usullar kiradi?
- Risklarni tahlil qilishning analitik usullarini bilasizmi?
- «Zararsizlik nuqtasi»ni aniqlash usulining mazmunini ifodalab bering?
- «Zararsizlik nuqtasi»ni aniqlash formulasi qanday ifodalanadi?
- «Zararsizlik nuqtasi»ni aniqlashda qanday omillarning o'zgarishi hisobga olinadi?

➢ Investitsiya loyihalari risklarini tahlil qilish va baholashning ssenariylar usulining mohiyati va mazmunini tavsiflab bering?

➢ Ekspert baholash usulining mazmunini tushuntirib bering?

➢ Investitsiya risklarini pasaytirishning qanday yo'llari va usullarini bilasiz?

➢ Investor investitsiya qarorini qabul qilishdan avval qanday risk tamoyillariga amal qilishi lozim?

➢ Risklarni diversifikatsiyalash deganda nimani tushunasiz?

➢ Risklarni sug'urtalashning mohiyatini tushuntirib bering?

➢ Risklarni loyiha qatnashchilari o'rtasida taqsimlash deganda nimani tushunasiz?

➢ Risklarni pasaytirish usullaridan biri bo'lgan moliyaviy zaxiralar tashkil etishning mazmunini tushuntirib bering?

➢ Banklarda kredit riskini pasaytirishga oid qanday chora-tadbirlar qo'llaniladi?

➢ Investitsiya risklarini sug'urtalashning mazmun-mohiyatini tushuntirib bera olasizmi?

INVESTITSIYALARNI TASHKIL ETISH VA MOLIYALASHTIRISHGA OID ATAMA VA IBORALARNING IZOHLI LUG'ATI

A

Aylanma vositalar (mablag'lar) – korxona (xo'jalik)ning faoliyatini moliyalash uchun foydalanadigan pul mablag'lari. Aylanma vositalar aylanma ishlab chiqarish fondlari va muomala fondlaridan tashkil topadi. Aylanma ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarish jarayonida bir marta ishtirok etadi, har bir ishlab chiqarish davrida butunlay iste'mol qilinadi, o'z natural shaklini o'zgartiradi, uning qiymati yetishtirilayotgan mahsulotga to'liq o'tadi va mahsulot sotilishi bilan pulga aylanadi (xomashyo, materiallar, kelgusi davr xarajatlari, arzon baho anjomlar va b.). Muomala fondlari – mahsulotning korxonadan chiqib, to sotilishiga qadar muomala jarayonida band bo'lgan vositalar (sotuvga chiqariladigan tayyor mahsulot qiymati, kassadagi naqd pul mablag'lari va bankdagi hisobvaraqda turgan mablag'lar). Aylanma fondlarning muomala fondlari bilan birikishi iqtisodiy jihatdan asosli bo'lib, mablag'larning muomala va ishlab chiqarish sohalarida taqsimlanishini nazorat etishga imkon beradi.

Aktiv – (lot. activus – faol, ta'sirchan, ishchan) – 1) buxgalteriya balansining chap qismi, korxonaning muayyan sanada va pul ifodasida barcha vositalarini, ularning tarkibi va joylashuvini (asosiy fondlar, aylanma vositalar, pul vositalari, kapital sarflar, qarzdorlik talabnomalari va b.) aks ettiradi; 2) korxona yoki tashkilotning mulki yoki resurslari (bino, mashina, naqd pul, qimmatli qog'ozlar va b.). Pulga tez sotilishi (aylanishi) mumkin bo'lgan, bozori chaqqon aktivlar (veksellar, qimmatli qog'ozlar, oltin, naqd pul va b.) likvid aktivlar deyiladi.

Aksiya – (frans. action – farmoyish; ruxsatnoma, faoliyat) – aksiyador jamiyat chiqargan qimmatli qog'oz. O'z egasining aksiyadorlar jamiyati kapitalida hissasi borligini va shunga muvofiq topilgan foydaning bir qismini dividend shaklida olishini, uni boshqarishda ishtirok etish huquqini tasdiqlaydi.

Aksiya kursi – aksiyaning bozor narxi. Aksiya kursi aksiya keltiradigan dividend miqdoriga to'g'ri mutanosib va bank foizi darajasiga teskari mutanosiblikda o'zgaradi. Aksiya kursi aksiya

nominalidan (aksiyada ko'rsatilgan summadan) yuqori yoki past bo'lib, bu talab va taklifga bog'liq. Aksiya kursini emitent emas, bozor belgilaydi. Aksiya narxining birjada belgilanishi *birja kotirovkasi* deyiladi.

Aksiyador – aksiyaning egasi, undan naf ko'ruvchi yuridik va jismoniy shaxs.

Aksiyadorlik jamiyati – daromad topish maqsadida hissadorlik tamoyiliga binoan uyushgan sherikchilik jamiyati.

Aksiyadorlik kapitali – aksiyadorlik jamiyatining kapitali, sherikchilik asosida tashkil topgan korporativ mulk hisoblanadi.

Aksiyalarning nazorat paketi – aksiya egasiga aksiyadorlik jamiyatida amaldagi hukmronlikni ta'minlaydigan aksiyalar miqdori; chiqarilgan aksiyalarning umumiy summasida bir shaxs, kompaniya yoki davlatning yirik hissasi. Aksiyador jamiyatning yig'ilishida hal qiluvchi ovozga ega bo'lish huquqini beradi.

Amortizatsiya (lot. amortisatio – qoplash) – asosiy kapital (fondlar) amortizatsiyasi – asosiy kapital (mashina, mexanizmlar, jihozlar, binolar, inshootlar)ning ekspluatatsiya jarayonida eskirishi va ayni paytda ular qiymatining muayyan davr davomida ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlarga o'tib borishi.

Amortizatsiya ajratmalari – mahsulot tannarxiga kiritiladigan asosiy fondlar amortizatsiyasi summasi; asosiy fondlarni qisman tiklash (kapital ta'mirlash va yangilash) va to'liq tiklash fondlarini yaratishga xizmat qiladi.

Amortizatsiya fondi – 1) amortizatsiya ajratmalari hisobiga shakllanadigan maxsus fond; 2) mahsulotning tannarxi tarkibiga kiritiladigan amortizatsiya ajratmalari hisobidan korxonada shakllantiriladigan pul mablag'lari fondi.

Annuitet – (frans. annuite – yillik badal) – 1) kreditorlarga qarzni uzish hisobiga foizi bilan birga har yili to'lanadigan pul; 2) mijozga shartnomada ko'rsatilgan muayyan muddatlarda muntazam pul summasi keltiradigan investitsiyalar; 3) muddatli davlat qarzi, qarzlarning muayyan qismi har yili foizi to'langan holda uzib boriladi.

Asosiy kapital – kapitalning asosiy ishlab chiqarish vositalari (mashina, asbob-uskuna, ishlab chiqarish binolari va uskunalari)ni o'z ichiga oluvchi, iqtisodiy jihatdan o'z qiymatini ishlab chiqarilgan tovarlarga asta-sekin va uzoq muddatda o'tkazib boruvchi qismi.

Asosiy materiallar – tayyorlanadigan mahsulot tarkibiga kiradigan va uning asosini tashkil etadigan materiallar.

Asosiy fondlar – ishlab chiqarishga uzoq muddat xizmat qiladigan, o'z natural buyum shaklini uzoq vaqt o'zgartirmagan holda ishlab chiqarish jarayonida bir necha bor qatnashadigan mehnat qurolari va vositalari.

B

Bankdlik – aholini ish bilan ta'minlash, mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishi.

Bank kapitali – 1) banklarning muomalaga tushirgan pul kapitallari majmuyi (o'ziniki bo'lgan va jalb etilgan vositalar); 2) banklarning o'z faoliyatlarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan moliyaviy resurslari bo'lib, u banklar tomonidan turli manbalar orqali jalb etilgan pul kapitalidan iborat. Banklarning umumiy kapitali xususiy kapital bilan bir qatorda undan bir necha barobar ko'proq bo'lgan jalb etilgan kapitalni ham o'z ichiga oladi.

Bank kafolati – kafil banklarning mijozlari majburiyatlarini o'z zimmasiga olishi. Mijozlar qarzlarini o'z hisobidan va o'z muddatida to'lay olmagan hollarda banklar ularning topshirig'iga ko'ra va ularning hisobidan majburiyatlarni zimmasiga oladi. Qarz tegishli ta'minot (garov) asosida bank tomonidan to'lanadi.

Bank krediti – banklarning mijozlarga vaqtinchalik foydalanish uchun ma'lum shartlar va tamoyillarga asoslanib, kapital berishi.

Bank operatsiyalari – banklar amalga oshiradigan operatsiyalar: joriy yoki boshqa hisobvaraqqa pul qabul qilish, foizi bilan yoki foizsiz kreditlar berish, birja topshiriqlarini bajarish, qimmatli qog'ozlar, aksiyalar sotib olish, mijozlarning topshiriqlarini bajarish, tovarlar yoki tovar hujjatlari garovi hisobiga ssudalar berish, shuningdek, boshqa har qanday pulli va naqd pulsiz hisob-kitoblar bo'yicha operatsiyalar kiradi. Asosan, *passiv* (kreditlash uchun resurslar hosil qilish) va *aktiv* (foyda olish maqsadlarida bu resurslarni ishlatish) turlarga bo'linadi.

Bank aktivlari – banklarning asosiy faoliyatini amalga oshirishda foydalanuvchi turli moddiy va moliyaviy resurslar majmuyi. Ular, asosan, bank kreditlari, asosiy vositalari, sotib olingan qimmatli qog'ozlari, investitsiyalari, valuta ko'rinishida bo'ladi.

Bankning aktiv operatsiyalari – bank resurslarini joylashtirish bo'yicha operatsiyalar: mijozlarga uzoq muddatli va qisqa muddatli kreditlar berish, shu jumladan, veksellarni hisobga olish, ko'chmas mulk va qimmatli qog'ozlarni garovga olish yo'li bilan, bank

resurslarini davlat obligatsiya zayomlarini va korxona aksiyalarini sotib olish yo'li bilan investitsiyaga qo'yish.

Bankning passiv operatsiyalari – resurslarni bank schetiga tushirish: jamg'armalarni qamrab olish, qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashtirish, Markaziy bank pul emissiyasi, banklarning xususiy jamg'armalarining tashkil etilishi va h.k.

Bank ssudasi – bankning foiz to'lovi sharti bilan kreditga berilgan pul mablag'i. Qisqa va uzoq muddatli turlarga bo'linadi.

Bank foiz stavkasi – bank ssudasidan foydalanganlik uchun belgilangan haq miqdori. Qarz summasiga nisbatan foiz hisobida undiriladi. Uning miqdori kreditning turi, muddati va qarzning vaqtida qaytarilishiga bog'liq.

Bank depozitlari – jismoniy va yuridik shaxslarning bank muassasalariga ma'lum muddatga va muddatsiz omonat shaklida qo'yilgan bo'sh pul mablag'lari.

Bank tizimining likvidligi – banklarning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajara olish imkoniyati.

Banklar likvidligi – banklar aktivlarining qisqa muddat ichida pulga aylanish qobiliyati. Likvidlik bank majburiyatlarini bajarish va aktivlar o'sishini moliyalash bilan birgalikda depozitlar va qarz mablag'lari darajasining pasayishini samarali boshqarish.

Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi talablari – bank tizimining barqaror amal qilishi hamda o'z majburiyatlarini bajara olishini ta'minlash uchun o'rnatilgan xalqaro me'yorlar majmuyi bo'lib, u kapitalning yetarlilik darajasini, banklarni nazorat qilish jarayoniga hamda bozor intizomiga qo'yilgan talablarni ifodalaydi.

Bankrot – 1) qarzdorlik, nochorlik, tadbirkorning o'z qarz majburiyatlari bo'yicha mablag'i bo'lmaganligi uchun to'lashdan bosh tortishi; 2) xo'jalik sudi tomonidan e'tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini to'la hajmda qondirishga yoki majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini bajarishga qodir emasligi.

Bankrotlik riski – tadbirkor tomonidan xususiy kapitalini butkul yo'qotish xavfi bilan bog'liq risklar.

Balans foyda – mahsulot tannarxiga kiritiladigan barcha xarajatlar va chiqimlar hamda majburiy to'lovlar chegirilganidan so'nggi korxona yalpi daromadining qismi. Balans foyda soliqqa tortilgunga qadar bo'lgan yalpi foydadir.

Birja – qimmatli qog'ozlar, valuta, tovar, ish kuchi va xomashyo sotiladigan va xarid qilinadigan muassasa.

Birjaviy risklar – birjaviy bitimlardan ko'riladigan zararlar xavfi mavjud bo'lgan risklar.

Biznes – (ingl. business) – daromad keltiradigan yoki boshqa naf beradigan xo'jalik faoliyati; foyda olish maqsadlari ko'zlangan va qonunga xilof bo'lmagan har qanday tashkiliy faoliyat.

Biznes-reja – aniq tanlangan tadbirkorlik ishining barcha bosqichlari tavsiflangan va taxminan hisob-kitob qilingan loyiha. Unda aniq tanlangan tadbirkorlik ishining hamma tomonlari o'z aksini topadi.

Boshlang'ich kapital – investitsiya qilish uchun to'plangan dastlabki summa yoki ish boshlash uchun kerak bo'ladigan sarmoya.

Bojxona to'lovlari – mamlakat chegarasi orqali o'tkaziladigan (olib kiriladigan va chiqariladigan) tovar-moddiy boyliklar uchun to'lanadigan haq.

Bozor infratuzilmasi – bozorda tovarlar va xizmatlarning erkin harakatini ta'minlaydigan muassasalar, tashkilotlar majmuyi.

Bozor konyunkturasi – muayyan davrdagi bozor holati; bozorda muvozanatning mavjudligi yoki buzilganligi bilan tavsiflanadi.

Budjet – (ingl. budget – hamyon, mablag') – belgilangan muddat uchun ishlab chiqilgan, me'yorlashtirilgan hamda qonuniy ravishda tasdiqlangan daromadlar va xarajatlar yig'indisi.

Budjetdan moliyalash – davlat budjetdan davlat buyurtmalarini amalga oshirish, davlat dasturlarini bajarish, davlat tashkilotlarini saqlash (ta'minlash) bilan bog'liq xarajatlarga pul mablag'lari ajratish.

Budjetdan tashqari jamg'armalar – davlatning davlat budjetiga kiritmaydigan va aniq maqsadlarga mo'ljallangan pul mablag'lari.

Budjet dotatsiyasi – o'z daromadlari va budjetni tartibga soluvchi boshqa mablag'lar yetishmagan taqdirda quyi budjetning xarajatlari bilan daromadlari o'rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori budjetdan quyi budjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari.

Budjet subvensiyasi – qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori budjetdan quyi budjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari.

Budjet defitsiti – muayyan davrda budjet xarajatlarining budjet daromadlaridan ortiq bo'lgan summasi.

Budjet profitsiti – muayyan davrda budjet daromadlarining budjet xarajatlaridan ortiq bo'lgan summasi.

Budjet ssudasi – yuqori budjetdan quyi budjetga yoxud respublika budjetidan rezident-yuridik shaxsga yoki chet el davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag'.

Bojxona bojlari - ma'lum bir mamlakatning hududiga mahsulotlarni kiritish, undan chiqarish va olib o'tishda undiriladigan iste'mol soliqlaridan biri. Ularning asosiy maqsadi daromad olish bo'lmasdan, balki ichki bozorni, milliy sanoatni va qishloq xo'jaligini himoya qilishdir. Davlat iqtisodiy (moliya-soliq) siyosatining instrumenti sifatida maydonga chiqadi. Import qilinadigan mahsulotlarning bahosi bilan ichki bozordagi xuddi shunga o'xshash mahsulotlarning bahosini tenglashtirishi lozim. Odatda, mahsulotlar bahosidan olinadi. Buning uchun, ayrim hollarda, maxsus me'zonlar (masalan, og'irlik, maydon) ham qo'llanilishi mumkin.

V

Valuta konvertatsiyasi (lot. conversio – almashtirish) – valuta almashinuvi – mamlakat milliy valutasining xorijiy valutalarga yoki xalqaro to'lov vositasi sifatida amal qiluvchi valutaga erkin almashtirilishi.

Valuta kursi – bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligida ifodalangan narxi.

Valuta siyosati – 1) davlatning mamlakat ichida va undan tashqarida valutaga, valuta kursiga, valuta operatsiyalariga ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari; davlat iqtisodiy siyosatining va tashqi iqtisodiy faoliyatining tarkibiy qismi; 2) mamlakatning joriy strategik maqsadlarga muvofiq xalqaro valuta va boshqa iqtisodiy munosabatlar sohasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlari majmuasidir. U iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadlariga erishishga qaratilgan.

Valuta riski – bir valutaning boshqasiga nisbati bo'yicha kursning o'zgarishi bilan bog'liq valuta yo'qotilishi xavfi sifatida namoyon bo'ladi.

Veksel – (nem. wechsel – ayirboshlash) – ko'rsatilgan muddatda muayyan miqdordagi pulni to'lash majburiyati qayd etilgan qarzdorlik haqidagi rasmiy hujjat; qimmatli qog'oz. U universal to'lov, kredit va hisob vositasi bo'lib, xalqaro savdoda to'lov majburiyati; qisqa muddatli tijorat-kredit vositasi; banklararo uzoq muddatli munosabatlarni shakllantiruvchi vosita; banklardan ssuda olish uchun garov tarzida keng qo'llaniladi.

G

Garov huquqi (fuqarolik huquqida) – bir shaxsning majburiyatlarni ta'minlash uchun boshqa shaxsga mol-mulkka oid

huquqni berishi (garov)ni tartibga soluvchi va mustahkamlovchi huquqiy me'yorlar majmuyi.

Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz – jahonning deyarli barcha mamlakatlarida moliyaviy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi mutanosiblik va nisbatlarning keskin izdan chiqishi natijasidagi beqarorlik va chuqur tanglik holatlarining vujudga kelishi.

D

Davlat budjeti – davlatning muayyan vaqt (odatda, bir yil) uchun mo'ljallangan pul daromadlari va xarajatlari majmuyi. Davlat budjeti davlat ixtiyoridagi pul fondlarining taqsimlanishini bildirib, u davlat moliyasining bosh bo'g'ini hisoblanadi. Davlat budjeti tarkiban umumdavlat budjeti va mahalliy budjetga bo'linadi.

Davlat zayomlari – budjetga pul to'plash maqsadida davlat nomidan sotish uchun chiqariladigan, davlatning qarzdorligini tasdiqlovchi qimmatli qog'oz.

Davlat moliyasi – davlat ixtiyorida pul jamg'armalarining tashkil etilishi, taqsimlanishi va sarflanishi sohasidagi moliyaviy munosabatlar.

Davlat mulki – mulkchilik shakllaridan biri, davlatga qarashli va uning o'z vazifalarini bajarishi uchun zarur barcha mol-mulklar va mulkiy huquqlar.

Davlat mulkini xususiylashtirish – davlatning o'z ixtiyoridagi ishlab chiqarish vositalari, mol-mulk obyektlarini, korxonalar, uy-joy, transport vositalari, tabiat resurslari va boshqalarni davlat tasarrufidan chiqarishi va fuqarolar, jamoalar, shuningdek, davlatga tegishli bo'lmagan yuridik shaxslarga berishi yoki sotishi.

Davlat qimmatli qog'ozlari – budjet kamomadlarini qoplash maqsadlarida hukumat yoki mahalliy hokimiyat idoralari nomidan chiqarilgan va albatta, hukumat tomonidan kafolatlangan qimmatli qog'ozlar.

Davlat krediti – kredit munosabatlarida bevosita davlatning ishtiroki bilan xususiyatlanadi. Davlat krediti davlat budjetidan ustuvor investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha tasdiqlangan dasturlar asosida beriladi.

Daromad solig'i – moliya yilida soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslarning soliq solinadigan jami daromadlaridan, yuridik shaxslarning soliq solinadigan jami daromadi (foydasi)dan undiriladigan to'g'ri, umumdavlat solig'i.

Daromadlilik indeksi (profitobility index, PI) – investitsiya loyihasining diskontlangan daromadlarining diskontlangan investitsiya xarajatlariga nisbati tushuniladi, bu ko'rsatkich investorning 1 so'm sarf qilgan investitsiyalariga necha so'm daromad kelishini aniqlab beradi.

Davlat tashqi qarzi – davlat tomonidan xorijdan mablag' jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisi.

Devalvatsiya (de va lot. valeo – qiymat) – milliy pul birligi kursining xorij valutalariga nisbatan pasaytirilishi.

Depozit (lot. depositum – omonat, asrab qo'yilgan) – bankka qo'yilgan omonatlar. Bunday depozitlarning muddatli va talab qilib olinadigan turlari bor.

Diversifikatsiya – (lot. diversificatio – o'zgarish, xilma-xil taraqqiyot) – korxonalarning faoliyati sohalari va ishlab chiqaradigan mahsulotlari turining kengayishi, yangilanib turishi. Disversifikatsiya ishlab chiqarishda yuqori samaradorlikka erishish, iqtisodiy foyda olish, bankrotlikka barham berish va boshqa maqsadlarda amalga oshiriladi.

Dividend – (lot. dividendum – taqsimlanadigan narsa) – aksiyadorlar jamiyati foydasidan aksiya egasiga har yili beriladigan va uning daromadiga aylangan qismi. Dividendning miqdori aksiyadorlar jamiyatining sof foydasi, aksiyalar soni va qiymatiga bog'liq.

Diskont (ingl. discount – chegirma, lot. computare – hisobga olmoq) – qimmatli qog'ozning fond birjasida ayni paytda sotilayotgan narxi bilan nominali yoki uni qaytarib sotib olishdagi narxi o'rtasidagi farq.

Dotatsiya – davlat budjetidan qaytarilmaydigan tartibda beriladigan pul mablag'lari, zararlarni qoplash uchun korxona va tashkilotlarga beriladigan davlat nafaqalari.

Ye

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki – Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari, shuningdek, MDHga a'zo mamlakatlarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishga yordam ko'rsatuvchi xalqaro bank. 1990-yilda 42 a'zo hukumat mamlakatlari tomonidan 10 mlrd ekyu mablag' bilan tashkil etilgan. 1991-yildan faoliyat olib boradi. Shtab-kvartirasi Londonda joylashgan.

Yer uchun ijara haqi – uning hajmi, shartlari va o'tkazish muddatlari shartnomaga muvofiq o'rnatiladi. Qishloq xo'jaligi maqsadlariga mo'ljallangan yerlar ijaraga olinganda uning miqdori ijaralangan uchastkalardan olinadigan yer solig'ining summasidan oshmasligi kerak.

Yo

Yopiq aksiyadorlik jamiyati – aksiyalari faqat o'zining ta'sischilari yoki oldindan belgilab qo'yilgan boshqa shaxslar o'rtasida taqsimlanadigan jamiyat.

J

Jamg'arish – joriy davrdagi qayta ishlashning moddiy asosini kengaytirish orqali kelajakda aholi iste'molini oshirishga yo'naltirilgan jarayon. Jamg'arishning asosiy funksiyasi takror ishlab chiqarish jarayonining pirovard maqsadiga erishishga ko'maklashishdir. Takror ishlab chiqarish jarayonining maqsadi aholining o'sib va o'zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishdan iborat.

Jamg'arma – aholi, korxona va davlat joriy daromadlarining kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish va daromad olish maqsadlarida to'planib borishi.

Jahon banki – xalqaro moliya muassasasi. Tarkibiga BMTning ixtisoslashgan muassasa maqomiga ega bo'lgan 3 ta mustaqil xalqaro moliya instituti (Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi hamda Xalqaro taraqqiyot uyushmasi) kiradi. Ba'zi adabiyotlarda Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki norasmiy holda Jahon banki, deb ham ataladi.

Jahon bozori – xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish bilan o'zaro bog'langan mamlakatlar o'rtasidagi barqaror tovar pul munosabatlari tizimi.

Jahon bozori konyunkturasi – jahon tovar bozorlaridagi sotish sharti, ushbu bozorlardagi talab, taklif, narxlar darajasi, ularning o'zgarish tendensiyalari.

Z

Zararlar – fuqarolik huquqida qonunga xilof harakatlar tufayli bir shaxs tomonidan ikkinchi shaxsga yetkazilgan ziyonning pulda ifodalangan shakli.

Zararsizlik nuqtasi – mahsulotni sotishdan tushgan tushumning sotilgan mahsulot tannarxiga teng bo'lgandagi grafik nuqtani anglatadi. Bunda eng asosiy maqsad xarajatlarni qoplash uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish hajmini aniqlashdan iborat. Xarajatlarni qoplash uchun zarur bo'lgan sotish hajmi maxsus nuqtani tavsiflaydi, ya'ni u ishlab chiqarish hajmining kritik nuqtasini ifodalaydi. Bunda korxona foyda ham olmaydi, zarar ham ko'rmaydi, ya'ni mahsulot sotishdan tushgan tushum mahsulotning to'liq tannarxiga (xarajatlarga) barobardir. «Zararsizlik nuqtasi»dagi sotishdan tushgan tushum o'zini zararsiz sotish qiymati sifatida namoyon etadi, mahsulot birligi bu holatda zararsiz sotish bahosi hisoblanadi.

I

Ijara shartnomasi – fuqarolik-huquqiy shartnoma. Unga ko'ra, ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga haq evaziga mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanish yoki foydalanish uchun topshirish majburiyatini oladi.

Ijara haqi – ijara sharoitida taqdim etilgan mulk uchun to'lovning turi. Asosiy fondlarning alohida obyektlari ijaraga olinganda ular ijara shartnomasining butun amal qilish davomida teng hissalarda mahsulot tannarxiga kiritiladi.

Ijtimoiy investitsiyalar – inson salohiyatini, malakasi va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, nomoddiy ne'matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo'shiladigan investitsiyalar.

Import (ingl. import – keltirish, olib kelish) – mamlakatning ichki bozorida sotish uchun, shuningdek, ularni uchinchi mamlakatga o'tkazib yuborish uchun chet el tovarlari, xizmatlar, texnologiyalar, kapitallar, qimmatli qog'ozlar va boshqalarni keltirish.

Imtiyozli aksiya – dividend olingan foydaga qarab emas, balki oldindan belgilangan qat'iy foizlarda beriladigan aksiya.

Investitsiya (lot. investio – o'rash) – iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o'z mamlakatida yoki xorijda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq muddatli kapital kiritish (qo'yish). Pulning vaqtga bog'liq qiymati nazariyasiga ko'ra, investitsiya kelajakda naf olish maqsadida mablag'lar qo'yishdir. Investitsiya kapitalni muayyan muddatga bog'lashni yoki band qilishni bildiradi. Bundan asosiy maqsad kapital qiymatini saqlab qolish yoki kapital qiymatini vaqt mobaynida o'stirib borishdir. Iqtisodiy mazmuni jihatdan investitsiya turli faoliyatlarga

safarbar etilgan moddiy, nomoddiy boyliklar va ularga bo'lgan huquqlarni aks ettiradi.

Investitsiya siyosati – investitsiya faoliyatini jonlantirish, iqtisodiyotni yuksaltirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ijtimoiy muammolarni hal qilish maqsadida iqtisodiy subyektlar uchun qulay xo'jalik yuritish sharoitlarini yaratishga qaratilgan maqsadli tadbirlar majmuyi.

Investitsiya dasturi – respublika iqtisodiyotini barqaror va tadrijiy rivojlantirishga erishishga, tabiiy, mineral xomashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish yo'li bilan respublika ayrim tarmoqlari va mintaqalarini tarkibiy o'zgartirishning asosiy ustuvorliklarini va strategik vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan bir-biri bilan o'zaro bog'langan chora-tadbirlar majmuyi. O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturi respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbolining tarkibiy qismi hisoblanadi va davlat investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi.

Investitsiya muhiti – 1) investitsiyalar jozibadorligi hamda xavf-xatar darajasini belgilab beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy omillar majmuyi; 2) xorijiy investitsiyalarning risklilik darajasini va ulardan mamlakatda samarali foydalanish imkoniyatlarini oldindan belgilaydigan iqtisodiy, siyosiy, yuridik va ijtimoiy omillar yig'indisi.

Investitsion kreditlar – ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, modernizatsiya qilish va rekonstruksiya qilish, yangi bino va inshootlarni qurish uchun zarur bo'lgan vositalarni sotib olish maqsadida beriladigan uzoq muddatli kreditlar.

Investitsiya faoliyati – 1) iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga resurslarning kapitallashuvini ta'minlash va foyda (daromad) olish maqsadida investorlarning resurslarni jamg'arish va ularni turli shakllarda qo'yish bilan bog'liq bo'lgan barcha amaliy harakatlari yig'indisi; 2) investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlari majmuyi.

Investitsiyaviy faollik – turli iqtisodiy subyektlarning daromad olish maqsadida milliy yoki xorijiy iqtisodiyotlarga investitsiya resurslarini kiritishga intilishi.

Investitsiya me'yori – investitsiyalar hajmining yalpi ichki mahsulotga bo'lgan nisbati.

Investor – o'z mablag'larini, qarzga olingan va jalb etilgan mablag'larni, mulkiy boyliklarni va ularga doir huquqlarni, shuningdek, intellektual mulkka doir huquqlarni investitsiya faoliyati

obyektlariga investitsiyalashni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subyekti.

Investitsiya faoliyati ishtirokchilari – 1) buyurtmachilar, pudratchilar, yetkazib beruvchilar, banklar, sug'urta kompaniyalari, loyihalovchilar, vositachilar, ilmiy-maslahat firmalari, o'z mamlakatidagi qonunchilikka ko'ra investitsiyaviy mulk egalari (tasarrufchilari) yoki buyurtmalardan foydalanuvchi sifatida qatnasha oluvchi xorijiy tashkilotlarni kiritish mumkin; 2) investorning buyurtmalarini bajaruvchi sifatida investitsiya faoliyatini ta'minlovchi investitsiya faoliyati subyektlari;

Investitsiya loyihasi – iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa manfaat ko'rish maqsadida investitsiyalar kiritgan holda oldindan belgilangan muddat mobaynida amalga oshiriladigan o'zaro bog'liq tadbirlar va ishlar majmuyi.

Investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash usullari – bu uzoq muddatli kapital qo'yilmalarning kelajakda qoplanishini va foydaliligini baholash maqsadida turli obyektlarga ularni kiritishning maqsadga muvofiqligini aniqlash yo'llari.

Investitsiya soliq krediti – soliq to'lovchi tomonidan ma'lum bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha juda muhim buyurtmani bajarganligi yoki shu hudud aholisiga juda muhim xizmatni taqdim etganligi uchun unga mahalliy hokimiyat organlari tomonidan soliq summasi doirasida beriladigan yengillik, imtiyoz (soliq to'lovining kechiktirilishi).

Imtiyoz – ma'lum bir majburiyatlarni bajarishdan qisman (yoki to'liq) ozod etish, ma'lum bir qulayliklarga ega bo'lish.

Injiniring (ingl. Injineering – ixtirochilik) – muhandislik-maslahat xizmatlari – tijoratchilik qoidalariga asoslangan holda ishlab chiqarishni tashkil etishni ta'minlash, mahsulot sotishni uyushtirish va boshqalar yuzasidan masalahat berish.

Innovatsiya (ingl. innovations – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanilishi.

Innovatsiya investitsiyalari – texnika va texnologiyalarning yangi avlodini ishlab chiqish va o'zlashtirishga qo'shiladigan investitsiyalar.

Innovatsiya texnologiyalari – iqtisodiyotga yangiliklarni tatbiq etish bosqichlarida qo'llaniluvchi usul va vositalar majmuyi bo'lib, o'z

ichiga joriy etish, trening, konsalting, transfert, audit, injiniring kabi turlarini oladi.

Intellektual mulk – ijodiy aqliy faoliyat mahsuli. Ixtirochlik va mualliflik obyekti huquqi majmuyiga kiruvchi fan, adabiyot, san'at va ishlab chiqarish sohasida ijodiy faoliyatning boshqa turlari, adabiy, badiiy, ilmiy asarlar, ijrochi aktyorlik san'ati, jumladan, ovoz yozish, radio, televideniye asarlari, kashfiyotlar, ixtirolar, sanoat namunalari, kompyuterlar uchun dasturlar, ma'lumotlar bazasi, nou-xauning ekspert tizimlari, tovar belgilari, firma atamalari va boshqa aqliy obyektlar.

Inflyatsiya – (lot. Inflatio – shishish, bo'rtish, ko'tarilish), pulning qadrsizlanishi – tovar-pul muvozanatining buzilishi natijasida muomalada xo'jalik aylanmasi ehtiyojlaridan ortiq darajada qog'oz pullar miqdorining ko'payib ketishi, pul massasining tovarlar massasidan ustunligi natijasida tovar bilan ta'minlanmagan pullarning paydo bo'lishi.

Inflyatsiya darajasi – ma'lum vaqt ichida (oy, yil) baholar darajasining foizdagi o'zgarishi.

Iste'mol krediti – iste'mol ehtiyojlarini qondirish uchun qaytarishlik sharti bilan aholiga beriladigan pul mablag'lari yoki tovarlardan iborat kredit.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash – ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi jarayon. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning asosiy yo'nalish va vositalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: korxonalardan eskirgan asbob-uskunalarni chiqarish; ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash; mahalliy resurslar asosida ishlab chiqarishga innovatsiya texnologiyalarini joriy etish; ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini kengaytirish; ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va resurslarni tejash; sifatni boshqarish va sertifikatlash tizimini joriy etish; chiqitsiz va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va boshqalar.

Ishlab chiqarish samaradorligi – korxona miqyosida iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy dasturlar va tadbirlarning foydali natijalar berishi, olingan iqtisodiy samaraning muayyan qiymatga ega bo'lgan resurslarni qo'llagan holda eng yuqori ishlab chiqarish hajmiga erishishga sabab bo'lgan ishlab chiqarish omillari, resurslar sarflariga nisbati bilan tavsiflanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari – korxonaning mahsulot ishlab chiqarish maqsadlarida iqtisodiy resurslar sotib olish uchun qilgan pul sarflari.

Iqtisodiy faol aholi – milliy xo'jalikda band bo'lgan barcha kishilar bilan bir qatorda ish qidirayotgan mehnatga layoqatli aholi. Ular iqtisodiy jihatdan faol va tegishli faoliyatda qatnashishi mumkin, biroq, daromad oladigan manbalari kam yoki mablag'lari yo'qligi tufayli bu faoliyatni amalga oshira olmaydilar.

K

Kapital (nem. kapital; lot. capitalis – bosh, asosiy) sarmoya – keng ma'noda – o'z egasiga daromad keltirish xususiyatiga ega bo'lgan jami vositalar va mablag'lar; yangi qiymat keltiruvchi, o'zini-o'zi ko'paytiruvchi qiymat. Tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun kishilar tomonidan yaratilgan resurslar; tor ma'noda – ishlab chiqarish vositalari ko'rinishidagi ishga qo'yilgan, ishlab turgan daromad manbayi.

Kapital bozori, fond bozori – bo'sh turgan pul mablag'larini to'plash, ularni ssuda kapitaliga aylantirish, so'ngra uni ishlab chiqarish jarayonlari ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash munosabatlari; qimmatli qog'ozlar, korxonalarning aksiyalari hamda davlat obligatsiyalari bilan oldi-sotdi operatsiyalari olib boriladi.

Kapital qo'yilmalar, kapital mablag'lar – ishlab chiqarish va noishlab chiqarishga tegishli asosiy fondlarni yaratishga, ularni yangilashga va harakatdagi fondlarni ko'paytirishga, obyektni qurishga sarf qilinadigan, ishlab chiqarishga qo'yilgan mablag'.

Kapital qurilish – yangi qurilish, korxonalarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, zamonaviylashtirish va texnika bilan qayta jihozlash, obyektlar va vositalarni mukammal ta'mirlash, shu jumladan, loyiha-qidiruv ishlarini bajarish.

Konsorsium (lot. consortium – shirkat, ishtirok etish) – 1) kompaniyalar, banklarning kapitaltalab, juda keng ko'lamdagi iqtisodiy loyihani amalga oshirish yoki qarzlarni hamkorlikda joylashtirish uchun tuzilgan vaqtinchalik birlashmasi; 2) bu aniq iqtisodiy loyihalarni amalga oshirishni maqsad qilgan korxonalarning muvaqqat birlashmasi.

Konyunktura – bozorda ma'lum bir vaqtda yuzaga kelgan iqtisodiy holat (asosan, talab hamda taklif nisbati va u bilan bog'liq bo'lgan narxlar darajasi orqali yuzaga keladi).

Korxonaning innovatsiya salohiyati – korxonaning yangiliklarni joriy qilish yordamida bozor sharoitlarida faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida korxonaning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan rivojlanish qobiliyati. Korxonaning innovatsiya salohiyati tashkilotning ichki innovatsiya jarayonidagi barcha bosqichlarning (ijtimoiy mehnat va resurslarning sarf me'yorlari asosida) bir maromda kechishiga imkon beradi.

Kredit (lot. creditum – qarz, credo – ishonaman) – pul mablag'lari, tovar va xizmatlarni kelishilgan ustama (foiz) to'lab qaytarib berish sharti bilan ma'lum muddatlarga qarzga berish. Qarzga mablag' beruvchi tomon kreditor (davlat, bank, korxona, xususiy shaxs va boshq.), ssuda oluvchi tomon debitor (qarzdor) deyiladi. Kredit kelishuvi qarzdan foydalanish shartlari qayd etilgan shartnoma bilan rasmiylashtiriladi. Kredit muomalasi qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatdir. Lekin, har qanday qarz munosabati ham kredit bo'la olmaydi. Kredit munosabatida olingan mablag' qaytarib berilishi, foydalanilgani uchun haq (kelishilgan foizda) to'lanishi, muddatli, ma'lum tovar va nomoddiy aktivlar bilan ta'minlangan bo'lishi, maqsadli ishlatilishi shart.

Kreditga layoqatlilik – xo'jalik yurituvchi subyektlarning qisqa va uzoq muddatli qarzlar va ular bo'yicha foizlarni o'z vaqtida qaytara olish, qarzga xizmat ko'rsatishni ta'minlay olish imkoniyatidir. Korxona qanchalik kreditga layoqatli, to'lovga qobilli bo'lsa, u shunchalik bankrotlikdan himoyalangan hisoblanadi.

Ko'chmas mulk – yer bilan mustahkam bog'liq bo'lgan yer maydonlari, alohida bo'lgan suv obyektlari, o'rmonlar, ko'p yillik o'simliklar, binolar, inshootlardan iborat.

L

Lizing (ingl. lease foydalanish) – 1) mashina, asbob-uskuna, transport vositalari, ishlab chiqarish inshootlarini uzoq muddatli ijaraga olish; uzoq muddatli foydalaniladigan tovarlar eksportini kreditlashning shakllaridan biri; 2) ijara munosabatlarining alohida turi bo'lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing obyektini) mulk qilib sotib oladi va uni shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun lizing oluvchiga o'n ikki oydan ortiq muddatga beradi.

Lizing to'lovlari – lizing beruvchining lizing obyektini olish uchun qilgan xarajatlarining hammasi yoki ko'p qismi, shuningdek, lizing obyektini yetkazib berish va belgilangan maqsadda foydalanish uchun uni yaroqli holga keltirish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari lizing oluvchi tomonidan qoplanishi hamda lizing beruvchining daromadi. Lizing to'lovlari shartnomaning butun amal qilish muddatiga taqsimlanadi va bo'lib-bo'lib to'lanadi. Lizing to'lovlarining miqdorlari va davriyligi lizing shartnomasi bilan belgilanadi.

Lizing obyektlari – tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan iste'mol qilinmaydigan har qanday ashyolar, shu jumladan korxonalar, mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari hamda boshqa ko'char va ko'chmas mulklar.

Litsenziya – u yoki bu mahsulotni tayyorlash, xo'jalik ishlab chiqarish va ilmiy faoliyatning turini amalga oshirish, mahsulotning ma'lum bir turi va miqdorini eksport yoki import qilishga davlat yoki boshqaruv mahalliy organlarining rasmiy ruxsati.

M

Markaziy bank – mamlakatning pul belgilarini emissiya qilish (pul bosib chiqarish) va tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish huquqi berilgan bosh davlat banki. Markaziy bank pul muomalasini tartibga solishda va budjetni boshqarishda davlatga va hukumatga yordam beradigan organ hisoblanadi.

Majburiy zaxira talabi – tijorat banklari jalb qilgan mablag'laridan ma'lum bir qismining Markaziy bankning zaxira fondiga o'tkazilishi.

Marketing xizmatlari – *maxsus tayyorgarlik ko'rgan marketologlar* guruhi, uyushmasi, bo'limi va boshqarmasining faoliyat majmuyi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – a'zolari jamiyat majburiyatlari bo'yicha faqat o'zlari qo'shgan ulush doirasida javobgar bo'ladigan jamiyat.

Maqsadli soliq imtiyozlari – xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan *davlatning maqsadli ijtimoiy, iqtisodiy, investitsion va boshqa dasturlarining bajarilganligi uchun soliqqa tortish hajmining pasaytirilishi. Investitsion soliq kreditidan farqli ravishda o'zaro manfaatdorlik (o'zaro foydalilik) asosida mintaqaviy budjetga borib* tushuvchi soliq summalari doirasida ijroiya hokimiyati organlari tomonidan har qanday korxonaga berilishi mumkin.

Milliy valuta – bu muayyan mamlakatda muomalada yuruvchi va tanho to'lov vositasi, deb qabul qilingan puldir. Har bir milliy

valutaning boshqa valutaga almasha olish xususiyati valuta konvertatsiyasi deyiladi. To'liq konvertirlanuvchi va qisman konvertirlanuvchi valutalar bo'ladi. Valutalarning konvertirlanish darajasi mamlakat iqtisodiyotining ochiqligi, uning rivojlanganligi va eksport salohiyatiga bog'liq bo'ladi.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi – halol raqobat sharoitida jahon bozori talablarini qondiruvchi, iqtisodiy o'sish va turmush sifatini oshirishni ta'minlaydigan tovarlarni ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish hamda o'rta va uzoq muddatga iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlab turish qobiliyati.

Mikrolizing – mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar (tijorat banklari va boshqa kredit muassasalari) tomonidan lizing oluvchining topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan mol-mulk olish hamda uni egalik qilish va foydalanish uchun lizing oluvchiga shartnomada belgilangan shartlar asosida haq evaziga berish nazarda tutiladigan xizmat. Mikrolizing tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun «Mikromoliyalash to'g'risida»gi hamda «Lizing to'g'risida»gi qonun hujjatlariga muvofiq eng kam ish haqining ikki ming baravari miqdoridan oshmaydigan summada beriladi.

Moliyaviy investitsiyalar – mulkka egalik qilish va mulkdan daromad olish bilan bog'liq bo'lgan aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar orqali qo'yilmalar kiritish.

Moddiy boylik, moddiy ne'mat – muayyan insoniy ehtiyojlarni qondiradigan narsa, hodisa, mehnat, mahsulot; milliy boylikning tarkibiy qismi.

Moddiy ishlab chiqarish – jamiyat hayoti va taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlarni yaratish jarayoni.

Moddiy resurslar – iqtisodiyot taraqqiyoti va ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur bo'lgan moddiy-ashyoviy ne'matlar yig'indisi, moddiy-ashyoviy shakldagi iqtisodiy resurslar.

Modernizatsiya, modernizatsiyalash, modernizatsiya qilish (frans. moderne – eng yangi, zamonaviy) – biror narsani yangilash, unga zamonaviy tus berish, uni zamonaviy talablarga muvofiq o'zgartirish. Modernizatsiya qilishda mashina, apparat, turli texnologik qurilmalar, muhim kashfiyotlar texnika taraqqiyoti talablariga muvofiq qayta ishlanadi.

Moliya – maqsadli pul fondlarini hosil etish, jamlash, taqsimlash va ishlatish yuzasidan paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar; pul oqimlari harakati. Moliya pul munosabatlari sifatida iqtisodiyotda

muhim vazifalarni bajaradi: taqsimlash vazifasi; rivojlantirish vazifasi; ijtimoiy himoya vazifasi; axborot berish vazifasi; nazorat vazifasi.

Moliya yili – birinchi yanvardan o'ttiz birinchi dekabr kuni oxirigacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oluvchi davr.

Monitoring – (ingl. monitoring – kuzatish, nazorat qilish) – ma'lum bir hodisa yoki jarayonning holatini kuzatish, hisobga olish, baholash va istiqbolini belgilash. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish sohasida qo'llaniladigan monitoring berilgan ssuda (qarz)ni qoplash va unga foiz to'lash jarayonining borishi ustidan nazorat qilishda namoyon bo'ladi.

Monopoliya (yun. mono – tanho, poleo – sotaman) – iqtisodiyotning bir sohasida tanho hukmronlik; bozorni tashkil etish shakli.

Moddiy xarajatlar – xomashyo va asosiy materiallar, yordamchi materiallar, yoqilg'i, energiya va boshqa xarajatlardan iborat.

Mehnat unumdorligi – ishlab chiqarish jarayonida kishilar mehnatining foydaliligi, samaradorligi va mahsuldorligi. Mehnat unumdorligi ishlovchining ma'lum vaqt birligi (soat, smena, oy, yil) ichida tayyorlagan mahsulot hajmi bilan o'lchanadi. Mehnat unumdorligining o'sishi mahsulot birligini ishlab chiqarishda mehnat sarfining kamayishi demakdir.

Mualliflik huquqi – keng ma'noda – fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratish, foydalanish va huquqiy himoya qilishda vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlar yig'indisi; fuqarolik huquqining bir bo'limi. Tor ma'noda – asar muallifiga tegishli bo'lgan va qonunlarda mustahkamlanib qo'yilgan shaxsiy va mulkiy huquqlar tizimini tashkil etadi.

N

Narx – tovar qiymatining puldagi ifodasi; bozor iqtisodiyotida amal qiluvchi iqtisodiy dastak.

Nominal qiymat (lot. nominalis – nomi yozilgan) – pul belgilari, banknotlar, qimmatli qog'ozlarning ustiga yozib qo'yilgan qiymati, narxi.

Nou-xau (ingl. know how – qandayligini bilaman), ishlab chiqarish siri – hali hammaga ma'lum bo'lmagan va keng tarqalmagan yangi ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish-texnologik, boshqarish, moliyaviy-iqtisodiy, tijoratga oid bilimlar majmuyi va ularni

amaliyotda qo'llash tajribalari; ularga tanho ega bo'lish. U korxona uchun ham, shaxs uchun ham muayyan ustunlikni ta'minlaydi.

Noaniqlik (mavhumlik) – investitsiya loyihasini amalga oshirish shart-sharoitlari haqidagi ma'lumotlarning to'liq yoki aniq emasligi.

O

Obligatsiya – foiz shaklida daromad keltiruvchi qimmatli qog'oz. Davlat organlari tomonidan budjet defitsitini qoplash uchun va aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan kapitalni jalb qilish maqsadida chiqariladi.

Oltin-valuta zaxiralari – mamlakatning markaziy emissiya banki yoki xazinasida quyma va tanga shaklida to'plangan markazlashgan oltin zaxira fondi. Oltin-valuta zaxiralariga hukumat va markaziy banklarga tegishli bo'lgan oltin quymalari va oltin tangalar, xorijiy bank hisob raqamlaridagi valuta mablag'lari, xorijiy mamlakatlar banknotlari, tangalari va davlat qimmatli qog'ozlari kiradi. Oltin-valuta zaxiralari mamlakatning pul birligini mustahkamlash, uni barqaror ushlab turish, shuningdek, ichki valuta bozorini zaruriy valuta mablag'lari bilan ta'minlash maqsadida shakllantiriladi.

Omonat – mijozning ma'lum bir shartlar asosida bankka qo'ygan pul mablag'lari.

Omonat sertifikati, depozit sertifikati – omonat banki yoki boshqa kredit muassasasining pul omonatga qo'yilganligini tasdiqlovchi hujjat. U pul belgilangan muddat o'tishi bilan omonatni va u bo'yicha foizlarni talab qilib olish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Opsion (nem. option – tanlash, istak) – sotuvchi yoki xaridorga qimmatli qog'ozlar yoki tovarlarni muayyan muddat davomida belgilangan narxlarda sotib olish yoki sotish huquqini beradigan shartnoma.

Osiyo taraqqiyot banki – xalqaro mintaqaviy bank. Bankni tuzish haqidagi bitim 15 ta davlat hukumatlari tomonidan imzolangan bo'lib, 1966-yil 22-avgustda kuchga kirgan. Shtab kvartirasi Manila (Fillipin)da. Bank faoliyatining asosiy maqsadi Osiyodagi rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotiga va tashqi savdosiga ko'maklashishi, moliyaviy, texnik va iqtisodiy yordam ko'rsatish.

Oferta, offerta (lot. offero – taklif etaman) – bir shaxsning boshqa shaxsga tovar yetkazib berish, biror-bir xizmat ko'rsatish va b.

uchun shartnoma tuzish istagi va shartlari haqida yozma yoki og'zaki xabarnomasi.

Offshor zona – yuridik shaxslarga nisbatan soliq imtiyozlari yaratilgan, buxgalteriya hisoboti va audit bo'yicha talablar yumshatilgan, bojxona to'lovlari va savdo cheklovlari qisman yoki butunlay olib tashlangan ma'lum davlatning erkin iqtisodiy hududi.

Ochiq aksiyadorlik jamiyati – ishtirokchilari o'zlariga qarashli aksiyalarni boshqa aksiyadorlarning roziligisiz erkin tasarruf etishi (sotishi) mumkin bo'lgan aksiyadorlik jamiyati.

P

Pay, hissa – firma, kompaniya, jamiyat, shirkatning umumiy kapitalida muayyan jismoniy va yuridik shaxs hissasiga to'g'ri keladigan pul badali summasi yoki ulushi. Pay egasi oladigan daromad dividend deyiladi.

Patent (lot. patens – ochiq, aniq-ravshan) – texnik yechim (ixtiro)ning davlat tomonidan e'tirof etilganligini va ixtirochining o'z ixtirosiga olgan mutlaq huquqini tasdiqlovchi hujjat.

Portfel investitsiyalar – kapitalni korxonalar qimmatli qog'ozlariga (korxona ustav kapitalining 10 %dan kam qismini) joylashtirish (investorlarga ular faoliyatini bevosita nazorat qilish imkonini bermaydi).

Penya (lot. poena – jazolash) – majburiyatlarning o'z vaqtida bajarmaganligi uchun to'lanadigan pul jarimasi. Kechiktirib yuborilgan majburiyat summasidan foizlarda belgilanadi va kechikkan muddatning har bir kuni uchun undiriladi.

Pudrat shartnomasi (rus. podryad – bir yo'la) – fuqarolik-huquqiy bitim, unga ko'ra, bir taraf (pudratchi) ikkinchi taraf (buyurtmachi)ning topshirig'iga binoan, muayyan ishni bajarish va uning natijasini buyurtmachiga belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi. Buyurtmachi ish natijasini qabul qilib olish va buning uchun haq to'lash majburiyatini oladi.

Preferensiya – 1) investitsiya va innovatsiya xarajatlarini moliyalashtirish uchun investitsion soliq krediti va maqsadli soliq imtiyozi ko'rinishida belgilangan imtiyoz, yengillik; 2) iqtisodiyotni maqsadga muvofiq rivojlantirish va tartibga solishda ayrim soha va tarmoqlar, korxona va ishlab chiqarish turlariga nisbatan beriluvchi imtiyoz, afzallik va ustuvorliklar.

Real investitsiyalar – xo'jalik subyektining operatsion faoliyatini amalga oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilishi bilan bog'liq aktivlarni yaratishga sarflangan kapital.

Reinvestitsiya – investitsiyalar bo'yicha daromadlar ko'rinishida olingan va ishlab chiqarishni kengaytirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar; investorning faoliyati natijasida olingan foydani (daromadni) muomalaga kiritish (qayta investitsiyalash).

Respublika budjeti – davlat budjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Rekvizitsiya (lot. reguisitio – talab qilib olish, olib qo'yish) – mulkni haq to'lab majburiy ravishda davlat egaligiga to'la yoki vaqtincha foydalanish uchun olish.

Rekonstruksiya (qurilish, qayta tiklash) – 1) mavjud narsa (bino, inshoot)ni yaxshilash, amaliy ahamiyatini oshirish, takomillashtirish maqsadida tubdan qayta qurish; 2) faoliyat yuritayotgan korxonani ma'naviy va jismoniy eskirgan qurilma va asbob-uskunalarni ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, texnologik bo'g'inlar va yordamchi xizmatdagi nomutanosibliklarni yo'qotish yo'li bilan almashtirish yordamida to'liq yoki qisman o'zgartirish.

Rentabellik (nem. rentabel – daromadli, foydali) – korxona yoki tadbirkorlikning daromadliligi, samaradorligi; mikroiqtisodiy miqyosdagi iqtisodiy faoliyatning samaradorligi. Rentabellik foyda olib ishlashning qiyosiy, ya'ni sarf-xarajatlarga nisbatan aniqlanadigan ko'rsatkich bo'lib, foizlarda ifodalanadi.

Rezidentlar – kalendar yilida mamlakatda 183 kundan kam bo'lmagan muddatda yashagan, O'zbekistonda doimiy yashash joyiga ega bo'lgan va bo'lmagan soliq to'lovchilardan iborat. Shu mamlakatning rezidentlarining daromadlari shu mamlakatda soliqqa tortilishi shart.

Risk – bashorat qilinayotgan loyihani amalga oshirishda haqiqiy sharoitlardan ozgina chekinilganda daromadlarni ololmaslik yoki zararlarning paydo bo'lib qolish ehtimoli. Risk kutilishi mumkin bo'lgan xatar bo'lib, investitsiyadan mo'ljallangan foydani olish jarayoniga xos bo'lgan umidsizlik.

Sarmoya (fors.-tojik. – bosh va mablag') – asosiy savdo mablag'i. Sarmoya o'zining kelib chiqishi jihatidan savdo kapitali yoki savdo mablag'idir. Ko'pgina iqtisodiy adabiyotlarda sarmoya investitsiya deb ham ataladi.

Sinditsiyalashtirilgan kredit – bir necha banklar tomonidan yirik investitsiya loyihalarini birgalikda kreditlash.

Smeta (rus.) – oldindan tuzilgan kirim-chiqim hisobi. 1) xarajatlar smetasi – mahsulot ishlab chiqarish, ish, xizmatlarni bajarish bo'yicha to'liq xarajatlar hisobi; 2) daromadlar va xarajatlar smetasi – korxona, tashkilot, muassasaning xo'jalik faoliyatini moliyalashtirishda foydalaniladigan pul mablag'lari tushumlari va uni sarflash bo'yicha hujjatlashtirilgan buxgalteriya rejasi. Ba'zan ishlab chiqarishga, obyektlarni qurishga alohida xarajatlar smetasi tuziladi; 3) smeta bo'yicha moliyalashtirish –xarajatlarni qoplash uchun taqdim etilgan xarajatlar hisoblariga ko'ra davlat budjetidan pul mablag'lari ajratish.

Soliqlar – qonunda belgilangan tartibdagi stavka bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektlardan va fuqarolardan davlat tomonidan davlat yoki mahalliy budjetga olinadigan majburiy to'lovlar.

Soliq og'irligi (yuki) - davlat va jamiyat hayotida soliqlarning rolini xarakterlab (ko'rsatib) beradigan eng umumlashgan ko'rsatkich. Ishlab chiqarishning umumiy hajmi va daromadlarda soliq ajratmalarining salmog'ini (hissasini) ko'rsatuvchi, bozor iqtisodiyotining amalga oshirilayotgan modelidan kelib chiqadigan o'lcham. Soliq yig'imlarining jami milliy mahsulotga (yalpi ichki mahsulotga) nisbati bilan aniqlanadi.

Soliq imtiyozi - soliq to'lovchi soliq majburiyatlari hajmining to'liq yoki qisman qisqarishi, to'lov muddatining kechiktirilishi yoki orqaga surilishi. Soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasi soliq imtiyozlari tizimi orqali amalga oshiriladi. Soliq imtiyozi soliqqa tortish obyektining o'zgarishida, soliqqa tortish bazasining kamayishida (qisqarishida), soliq stavkalarining pasaytirilishida va boshqalarda o'z ifodasini topadi.

Soliq stavkasi – soliqqa tortish birligiga to'g'ri keluvchi soliqning hajmi (miqdori, darajasi).

Soliq tizimi - mamlakat doirasida (hududida) to'lovchilardan (yuridik va jismoniy shaxslardan) belgilangan tartibda olinadigan soliqlar, yig'imlar va boshqa to'lovlar hamda ular tarkibiy tuzilishining shakl va uslublari yig'indisi.

Ssuda (rus.) – moddiy boyliklar garovi hisobiga foiz to'lash va qaytarib berish sharti bilan muayyan muddatga qarzga beriladigan pul yoki moddiy boylik.

Ssuda kapitali – vaqtincha foydalanib qaytarish, ma'lum foiz haq to'lash sharti bilan qarzga beriladigan pul kapitali. Ssuda kapitalining iqtisodiy ma'nodagi o'ziga xos xususiyati shundaki, u foiz ko'rinishida foyda keltiradi.

Subvensiya (lot. subvenire – yordamga kelmoq) – markaziy organlar tomonidan muayyan tadbirni, obyektni maqsadli moliyalash uchun ajratiladigan pul nafaqasi. Maqsadli foydalanish talablari buzilganda subvensiya uni bergan organ tomonidan qaytarib olinadi. Davlat ma'qullagan iqtisodiy va madaniy rivojlantirish dasturlari, loyihalari subvensiya orqali pul bilan ta'minlanadi.

Subsidiya (lot. subsidium – yordam, nafaqa, qo'llab-quvvatlash) – davlat budjeti, mahalliy budjetlar mablag'lari yoki maxsus fondlardan jismoniy va yuridik shaxslarga, mahalliy organlarga, boshqa davlatlarga beriladigan pul mablag'i yoki natura shaklidagi yordam. Subsidiyalar davlat tomonidan qaytarib olmaslik sharti bilan ajratiladi.

Sug'urta – 1) tabiiy ofatlar, har xil baxtsiz hodisalar ro'y berishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash va boshqa pul qoplamalari to'lash uchun maqsadli pul jamg'armalarini tashkil etish va undan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimi; 2) yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish.

Sug'urta faoliyati – sug'urta bozori professional ishtirokchilarining sug'urtani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyati.

Sug'urta kompaniyasi – 1) sug'urta faoliyatini amalga oshirishga ixtisoslashgan yuridik shaxs, sug'urta xizmatlari bozorining professional ishtirokchisi; 2) sug'urtalovchi rolida maydonga tushuvchi, ya'ni sug'urta hodisasi ro'y bergan chog'da sug'urtalangan shaxsning zararlarini qoplash majburiyatini o'ziga oluvchi tashkilot.

Sug'urta mukofotlari (to'lovlari) – sug'urta qilinuvchilar tomonidan sug'urtalovchilarga to'lanadigan badal pullari bo'lib, ularning miqdori va hisoblash tartibi sug'urta shartnomasi bilan belgilanadi va ham so'm, ham chet el valutasida to'lanadi.

Sug'urta polisi, sug'urta vasiqasi – sug'urta shartnomasi yuridik kuchga kirganini tasdiqlaydigan hujjat.

Tashqi iqtisodiy faoliyat – O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro foydali iqtisodiy aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati.

Tizimli risklar (investitsiya portfeli risklari) – bu xatar ta'siriga ba'zi bir qimmatli qog'ozlar emas, balki butun bozor, uning katta bir qismi risklarga uchraydi. Bu holda iqtisodiy nobarqarorlik tufayli yoki boshqa sabablarga ko'ra ko'pchilik emitent va qimmatli qog'ozlar egalari zarar ko'rishlari mumkin: foiz riski; valuta riski; inflyatsiya riski; siyosiy risklar.

Tizimsiz risklar – xatarga ba'zi bir qimmatli qog'ozlar yoki ularning majmuasi uchraydi, ya'ni ma'lum bir korxonaning qimmatli qog'ozlari yoki tarmoqning qimmatli qog'ozlari kiradi: tadbirkorlik riski; moliyaviy risklar; nolikvidlilik riski.

To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar – 1) bevosita mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonini tashkil etish yoki yanada kengaytirish maqsadida xorijiy sheriklar tomonidan uzoq muddatli kapital qo'yilmalar kiritish. To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar investorlarga mazkur ishlab chiqarish jarayonlari ustidan nazorat qilish imkonini beradi; 2) xorijiy kapitalning uzoq muddatli kiritilishi bo'lib, investor tashkil qilayotgan firma aksiyalari yoki aksiyadorlik kapitaliga to'la ega bo'lish yoki kamida 10 foizi xo'jalik faoliyatining ta'sirchan nazorat qilinishini ta'minlaydi.

Texnik-iqtisodiy asoslash (TIA) – investitsiya loyihasini amalga oshirishning tanlov savdolari asosida va loyihani moliyalashtirish shartlarini hisobga olgan holda aniqlangan yakuniy, eng samarali texnik, tashkiliy va moliyaviy-iqtisodiy yechimlarini belgilovchi loyiha oldi hujjati.

Tender (ing. tend – xizmat ko'rsatish) – 1) ochiq turdagi yoki cheklangan sondagi ishtirokchilar uchun yopiq turdagi raqobatli savdo-sotiq; buyurtmani joylashtirishning tanlov shakli; 2) qimmatli qog'ozlarga obuna bo'lish, muddatli shartnoma bo'yicha tovarlar yetkazib berish, shartnomalar tuzish to'g'risidagi ariza, yozma taklif; 3) xalqaro bozorda mashina-uskunalar xarid etish, qurilish-montaj ishlarini bajarish, injiniring xizmatlari ko'rsatish uchun tanlov asosida buyurtmalar berish. O'zbekiston iqtisodiyotida bozor munosabatlarini shakllantirishda va rivojlantirishda tender keng qo'llaniladi. Davlat tasarrufidan chiqarilgan korxonalar aksiyalarining yirik paketlarini

sotishda, katta qurilish ishlarini olib borishda xalqaro loyihalarni amalga oshirishda tender e'lon qilinadi. Savdoni tashkil etish uchun vaqtinchalik organ bo'lgan tender qo'mitasi tuziladi.

Transmilliy korporatsiya – 1) xorijiy aktivlarga ega bo'lgan, operatsiyalarining kamida ¼ qismini mamlakat tashqarisida, o'zi ro'yxatga olingan chet mamlakatda amalga oshiradigan yirik korporatsiya; 2) bosh kompaniya bir mamlakat kapitaliga tegishli bo'lgan kompaniya; 3) xorijiy aktivlarga ega bo'lgan milliy monopoliyalar; 4) filiallari dunyo bo'ylab tarqalib ketgan kompaniyalar.

Tratta – (ital. tratta – o'tkazma veksel) – tashqi savdodagi asosiy hisob-kitob hujjati. Kreditorning qarzdorga (odatda, bankka) yozma buyrug'i. Unda bankning uchinchi shaxs (remitent – taqdimchi)ga yoki trattani taqdim qilganga muayyan summadagi pulni to'lashi ko'rsatiladi.

To'lov balansi – ma'lum bir davr mobaynida mamlakat tomonidan xorijga to'langan to'lanmalar va xorijdan olingan to'lovlar o'rtasidagi nisbat. O'z ichiga tegishli davrda mamlakat tovarlari eksporti va importi qiymatlarini ifodalovchi savdo balansini, xizmatlar balansini va notijorat to'lovni oladi. Bularning barchasi joriy operatsiyalar bo'yicha to'lov balansini shakllantiradi. Mamlakatning umumiy to'lov balansi joriy operatsiyalar bo'yicha to'lov balansi, kapitallar va kreditorlar harakati balansi, shuningdek, oltin va valuta zaxiralari harakati balansidan tashkil topadi.

U

Unitar korxona – mulk egasi tomonidan o'ziga birkitib berilgan mulkka egalik qilish huquqi berilmagan tijorat tashkiloti ko'rinishidagi davlat yoki mahalliy boshqaruv idoralari korxonasi. Unitar korxona o'z majburiyatlari bo'yicha o'ziga tegishli jami mol-mulki bilan javob beradi, lekin, mol-mulk egasi majburiyatlari bo'yicha javobgar emas.

Ustav kapitali – aksiyadorlik jamiyati ustavida qayd etilgan pul ifodasidagi dastlabki, boshlang'ich kapital. Ustav kapitali aksiyalar sotishdan tushumlar, ta'sischilarning xususiy qo'yilmalari va davlat qo'yilmalari hisobidan yuzaga keladi. Ustav kapitaliga badallar faqat pul mablag'lari ko'rinishida emas, balki mulk shaklida, masalan, imoratlar, yer, shuningdek, intellektual mulk obyektlari: patentlar, litsenziyalar, loyihalar shaklida ham bo'lishi mumkin. Ustav kapitali balansning passivida qayd etiladi.

Ustav fondi – ta'sischilar – ishtirokchilarning o'zlari tashkil etgan kompaniya, xo'jalik jamiyatiga dastlabki kiritgan va doimiy ulush hisoblanadigan moddiy va pul mablag'lari majmuyi. Ustav fondi kompaniyaning xo'jalik faoliyatidan olinadigan foyda hisobiga ko'payib borishi mumkin. Ustav fondi kompaniya, jamiyatning asosiy va aylanma mablag'lari qiymatini tashkil etadi.

Uchinchi shaxslar – fuqarolik huquqida, bevosita fuqarolik huquqiy munosabatlarida ishtirok etmaydigan, lekin, vujudga kelgan huquqiy munosabatda muayyan darajada huquq va majburiyat tug'diradigan subyektlar.

F

Faktoring (ingl. factor – agent, vositachi) – kichik va o'rta firma (mijoz)larga tijorat banklari va ularning sho'ba faktor-firmalari tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlar turi. 16-17-asrlarda savdo vositachilari tomonidan amaliyotga kiritilgan, keyinchalik mijozga aylanma kapital uchun kredit berishning bir turiga aylandi. Faktoringda faktor-firma mijoz (tovar yetkazib beruvchi)lardan qarzdorlarning qisqa muddatli qarzlarini undirish huquqini sotib oladi va firmalarning qarzlarini (majburiyatlarini) mijozga to'laydi, ya'ni qarzni qaytarish muddatidan oldin uning 70-90 %ini mijozga qaytaradi, qarzning qolgan qismi, foizlar chegirilgan holda qarzdorlar faktor-firma oldidagi o'z qarzini batamom uzganidan keyin qaytariladi. Faktoringda mijoz o'zining qarzdorlaridan qarzni undirish huquqini faktor-firmaga o'tkazadi. Ayniqsa, G'arb davlatlarining iqtisodiy amaliyotida keng qo'llaniladi. Faktoring bo'yicha kreditlar muddati 90–120 kun atrofida, kredit foizlari rasmiy bank stavkasidan yuqori turadi.

Faza (yun. phasis – paydo bo'lish) – biror jarayonning taraqqiyot yo'lidagi davr.

Fan-texnika taraqqiyoti – fan bilan texnikaning o'zaro bog'liq, yagona, ilgarilab boruvchi taraqqiyoti.

Fermer xo'jaligi – xususiy yoki uzoq muddatga ijaraga olingan yerda qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirish bilan shug'ullanadigan xo'jalik (yuridik shaxs).

Firma – (ital. firma – imzo) – korxona, kompaniya, xo'jalik va tijorat tashkilotlarining umumiy nomi. Xodimlar soni, mulk shakllari, huquqiy holati va boshqalarga ko'ra xilma-xil firmalar bor.

Foyda – tovarlar va xizmatlarni sotishdan olingan daromadning bu tovarlarni ishlab chiqarish va sotish xarajatlaridan ortgan qismi. Korxonalar va tadbirkorlar xo'jalik faoliyati moliyaviy natijalarining asosiy ko'rsatkichlaridan biri. Foyda pulda ifodalanadi. Foyda kapital, ishlab chiqarish omili sifatida tovar va xizmatlar narxi tarkibiga kiradi, ular sotilgach, pul shaklida kapital sohibi ixtiyoriga keladi. Foyda topish tadbirkorlikning asl maqsadi hisoblanadi, unga intilish bozor iqtisodiyotining rivojlanishini ta'minlaydi.

Fond birjasi – qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy vositalar oldi-sotdi qilinadigan birja. Fond birjasining asosiy vazifalari: bo'sh turgan pul va qimmatli qog'ozlarni sotishni tashkil etish orqali jamg'arilgan pul kapitalini safarbar etish va to'plash; xususiy xo'jalik subyektlari va davlat investitsiyalarini ularning qimmatli qog'ozlari xaridini tashkil etish yo'li bilan moliyalashtirish; qimmatli qog'ozlarning yuqori darajadagi likvidligini, ya'ni qimmatli qog'oz egalari uchun yo'qotishlarsiz tezda pul mablag'lariga aylanishini ta'minlash.

Fond bozori, qimmatli qog'ozlar bozori – moliya bozorining qimmatli qog'ozlar emissiyasi va ularning oldi-sotdisi bilan shug'ullanadigan sohasi. Fond bozorining asosiy vazifasi: investitsiyalarni, ya'ni kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga va texnika ravnaqiga zarur investitsiya mablag'larini to'plash hamda taqsimlash; qimmatli qog'ozlar paketlaridan foydalangan holda mulk egaligini o'zgartirish; qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi yo'li bilan bozorni qayta taqsimlash; qimmatli qog'ozlar chiqarish yordamida davlat qarzini moliyalashtirish va boshq.

Fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, apatridlar – muayyan mamlakatning fuqarosi hisoblanmaydigan va biron chet davlat fuqaroligiga mansubligini isbotlaydigan dalillari bo'lmagan shaxslar. Shaxs o'z fuqaroligini yo'qotgan va yangidan fuqarolik huquqini olmagan vaqtda fuqarosizlik kelib chiqadi. O'zbekiston Respublikasida yashab turgan, lekin, O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'xtatilgan, boshqa davlat fuqarosi bo'lmagan shaxslarga ichki ishlar idorasi tomonidan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga mo'ljallangan istiqomat guvohnomasi beriladi.

Fyuchers (lot. futurus – kelajak) – tovar yoki fond birjalarida xomashyo tovarlari, oltin, valuta, qimmatli qog'ozlarni amalda bo'lgan narxlarda, lekin, yetkazib berish va haqini keyingi kelishilgan muddatlarga qoldirish bilan oldi-sotdi qilish bo'yicha bitishuvlar.

Xazina majburiyatlari – davlat tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'oz; xazina majburiyatlari sotilganidan so'ng egasining ma'lum pul miqdorini budjetga o'tkazganini tasdiqlaydi va egalik qilish muddati davomida qayd qilingan daromad olish huquqini beradi.

Xalqaro valuta fondi – BMTning ixtisoslashgan muassasasi, a'zo mamlakatlarning valuta hamkorligini amalga oshiradigan xalqaro tashkilot. 1944 yilda Bretton-Vuds (AQSh)da o'tkazilgan xalqaro valuta-moliya Kongressida Jahon banki bilan bir vaqtda ta'sis etilgan. 1947 yil mart oyidan o'z faoliyatini boshlagan. Shtab-kvartirasi Vashingtonda.

Xalqaro kredit – davlatlar, banklar, firmalar, bir mamlakatdagi jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan boshqa mamlakatlar hukumatlari, banklari, firmalariga beriladigan kreditlar.

Xalqaro konvensiya – xalqaro shartnoma turlaridan biri; davlatlarning, odatda, biror-bir ixtisoslashgan sohada o'zaro huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

Xalqaro moliya korporatsiyasi – BMTning ixtisoslashtirilgan muassasasi; Jahon banki guruhiga kiradi. 1956 yilda Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining filiali tarzida tashkil etilgan, keyinchalik mustaqil yuridik shaxs. Shtab-kvartirasi Vashintongda.

Xarajatlar, sarf-xarajatlar, chiqimlar – tovarlarni ishlab chiqarish va muomala jarayonida turli resurslar (xomashyo, materiallar, mehnat, xizmatlar, mablag'lar) sarflari bilan bog'liq chiqimlarning pul shaklidagi ifodasi. Asosan, ishlab chiqarish va muomala xarajatlariga bo'linadi.

Xususiy mulk – ayrim kishilar yoki xonadonlar ixtiyoridagi mulk; bozor iqtisodiyotidagi xilma-xil mulklar orasidagi yetakchi mulk shakli. Xususiy mulkning obyekti moddiy va moliyaviy boyliklar, ish kuchi, intellektual mehnat mahsuli, yer, suv, yerosti boyliklari, korxonalar, xo'jaliklar, aksiya va obligatsiyalar, pul mablag'lari, transport vositalari, turarjoy, iste'mol tovarlari, mehnat qobiliyati, ishbilarmonlik mahorati, ilmiy kashfiyotlar, texnikaviy ixtirolar, san'at va adabiyot asarlari va boshqalar bo'lishi mumkin.

Xususiy sektor – iqtisodiyotning xususiy mulkchilik va xo'jalik yuritishning erkin bozor usullariga, iqtisodiy alohidalashuviga asoslangan sohasi. Bozor iqtisodiyoti davlat va nodavlat sektorlaridan iborat. O'z navbatida, nodavlat sektori xususiy va jamoa sektorlariga bo'linadi. Xususiy sektor nodavlat sektorining bosh bo'g'ini.

Xususiylashtirish – davlat mulkiga egalik huquqining davlatdan xususiy subyektlarga o'tishi jarayoni, xilma-xil mulkchilikni shakllantirish, iqtisodiyotni davlatlashtirishdan qaytish yo'llaridan biri. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish xususiylashtirishdan tashqari shu mulk hisobidan boshqa nodavlat mulk shakllarini vujudga keltirishni ham nazarda tutadi.

Y

Yirik investitsiya loyihasi – umumiy qiymati tijorat banklarining birinchi darajali kapitalining 25 foizidan oshadigan investitsiya loyihasi.

Ch

Chet el investitsiyalari – chet ellik investorlar, asosan, daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat obyektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir huquqlar, shuningdek, chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – aksiyalarining (ulushlari, paylarining) yoki ustav jamg'armasining kamida o'ttiz foizini chet el investitsiyalari tashkil etadigan korxonalar. Ular O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid kelmaydigan har qanday tashkiliy-huquqiy shakllarda faoliyat ko'rsatadilar. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona uni ta'sis etish yo'li bilan yoki ilgari chet el investitsiyalari ishtirokisiz ta'sis etilgan korxonada ishtirok etish ulushini (payini, aksiyalarini) yoxud bunday korxonani butunlay, shu jumladan, xususiylashtirish jarayonida chet ellik investor tomonidan sotib olinishi natijasida tashkil etilishi mumkin. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona davlat ro'yxatiga olingan paytdan e'tiboran yuridik shaxs huquqiga ega bo'ladi. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tashkil etish va ularni davlat ro'yxatiga olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Chek (fors.-toj – pul hujjati) – 1) bankdagi hisobvaraq egasining muayyan summadagi pulni biror shaxsga to'lash to'g'risida bankka yoki kredit muassasasiga yo'llagan yozma buyrug'i, farmoyishi; pul

hujjati, qimmatli qog'oz turi; 2) chakana savdoda kassaning xaridordan pulni qabul qilib olgani to'g'risidagi pattasi.

E

Egalik huquqi – mulk huquqiga tegishli tushuncha; mulkni qo'lda (ya'ni mulkning bevosita mulkdorning o'zida bo'lishi) yoki biron joyda (masalan, bankda, lombardda) saqlab turish bilan izohlanadi.

Eksport (ingl. export, lot. exporto – olib chiqaman, chetga chiqaraman) – tovarlar, xizmatlar, investitsiyalar, qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar va boshqalarni tashqi bozorga chiqarish.

Emissiya (lot. emission – chiqarmoq, ishlab chiqarmoq) – muomalaga bank biletlari, barcha shakllardagi pul belgilari va qimmatli qog'ozlar chiqarish.

Erkin iqtisodiy zonalar – 1) davlatlararo kelishuvlarga yoki maxsus qonunlarga muvofiq, xo'jalik va tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun imtiyozli soliq, moliya, huquqiy sharoitlar joriy qilinadigan muayyan hududlar; 2) mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo'lgan maxsus ajratilgan hudud. Xorijiy va mahalliy tadbirkorlarni jalb etish maqsadlarida tashkil etiladi va ularda zarur ishlab chiqarish va ish yuritish infratuzilmasi barpo etiladi. Erkin iqtisodiy zonalar, ko'p hollarda, davlatlararo tutash hududlarda, xalqaro aeroportlar, port shaharlarda yoki transport yo'llari tutashgan hududlarda tashkil etiladi. O'zbekistonda bunday zonalar Navoiy viloyati Karmana tumanida va Toshkent viloyati Angren shahrida tashkil etilgan.

Yu

Yuridik shaxs – fuqarolik huquq va majburiyatlarining subyektlari hisoblanuvchi korxona, muassasa, tashkilotlar. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligiga ko'ra, yuridik shaxs o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan va mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilotdir.

Yuridik shaxslardan olinadigan soliq – qo'shilgan qiymat solig'i, korxona va tashkilotlarning daromadi(foydasi)dan olinadigan soliq, aksizlar, yo'l fondini shakllantirish uchun manba sifatida foydalaniladigan soliqlar, korxona mol-mulki solig'i, yer uchun to'lovlar, reklama solig'i, birjada amalga oshirilgan bitimlardan olinadigan yig'im, mahalliy auksion va lotoreyalarni o'tkazish huquqi uchun litsenziya yig'imi, boshqa soliq, yig'im va majburiy to'lovlardan iborat.

Ya

Yalpi ichki mahsulot (YAIM) – mamlakat iqtisodiy faoliyatining muayyan davr davomidagi umumiy natijalarini tavsiflaydigan ko'rsatkich. Mamlakat hududida joylashgan barcha korxonalar (chet el va qo'shma korxonalari ham shu hisobga kiradi) jami ishlab chiqarish omillari bilan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning bozor qiymatlaridagi ifodasi bo'lib, uning miqdori milliy hisoblar tizimi asosida hisoblab chiqiladi.

Yalpi milliy mahsulot (YAMM) – mamlakatning ma'lum muddat ichida umumiy iqtisodiy faoliyatini tavsiflovchi yakuniy makroiqtisodiy ko'rsatkichlaridan biri. YaMM davlatning bozor narxlarida ifodalangan barcha birlamchi daromadlari (ularning mamlakat hududida yoki uning tashqarisida ishlab chiqarish omillari tufayli yuzaga kelishidan qat'iy nazar) jami yig'indisini ko'rsatadi. YaMM milliy hisoblar tizimi asosida hisoblanadi.

O'

«O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi – yagona korporativ tizimga ega bo'lgan ko'p tarmoqli sug'urta kompaniyasi. Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 13 apreldagi tegishli qaroriga muvofiq milliy sug'urta kompaniyasi tarzida tashkil etilgan. 1997-yil 28 fevraldan hukumatning eksport va import sug'urtasi bo'yicha maxsus sug'urta agenti maqomidagi O'zbekiston Respublikasi eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki – yirik kredit-moliya muassasasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 7 sentabrdagi farmoniga ko'ra tashkil etilgan. Muassisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Bank

loyihalarni moliyalashtirish, universal tijorat, investitsiyalarni yo'naltiruvchi va chakana bank vazifalarini bajaradi.

Q

Qimmatli qog'ozlar – 1) o'z egasiga mulkka egalik huquqini va daromad ko'rinishida muayyan pul summasini olish huquqini beradigan pul yoki tovar hujjatlari (aksiya, obligatsiya, akkreditiv, veksel, chek va b.); 2) o'zining egasiga dividend va foiz ko'rinishida daromad olish huquqini beruvchi mulk tituli. Ularning tarkibiga aksiyalar, obligatsiyalar va boshqalar kiradi.

Qurilish – moddiy ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biri; turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish; ishni yuritish uchun foydalaniladigan hudud bilan birga qurilayotgan bino (inshoot), keng ma'noda yaratuvchilik jarayoni. Tugallangan va foydalanishga topshirish uchun tayyorlangan ishlab chiqarish korxonalari, turarjoylar, jamoat binolari, inshootlari va boshqa obyektlar qurilishi mahsuloti hisoblanadi. Qurilishda ishlab chiqarish sikli nisbatan uzun bo'lib (bir necha oydan bir necha yilgacha), ishlab chiqarish jarayoni turli ob-havo sharoitida ochiq usulda olib boriladi. Pudrat va xo'jalik usulidagi qurilishni va montaj ishlarini, shuningdek, bino, inshootlarni kapital ta'mirlash ishlarini qurilish tashkilotlari va maxsus tashkilotlar; loyihalash, loyiha-konstruktorlik va qidiruv tashkilotlari; foydalanishga topshirish va qidiruv-parmalash tashkilotlari amalga oshiradi.

Qurilish materiallari – binolar (inshootlar) qurish va ta'mirlashda ishlatiladigan tabiiy va sun'iy ashyolar hamda buyumlar.

Qo'shma korxona – boshqa mamlakatlar firmalari ishtirokida bunyod qilingan, tashkiliy jihatdan yagona yuridik shaxs sifatida rasmiylashtirilgan korxona. Qo'shma korxona o'zaro manfaatdorlik negizida, hukumatlararo shartnomalar asosida tashkil qilinib, ishlab chiqarish, ilmiy-ishlab chiqarish, ilmiy-texnika vazifalarini yechishga qaratiladi. Ta'sischilarning o'z mulklarini birlashtirish va badallari hisobiga qo'shma korxonaning moliyaviy fondi yaratiladi. Qo'shma korxona, asosan, chet el texnikasi, texnologiyasi, investitsiyasi asosida barpo etilib, mahalliy xomashyo va ishchi kuchi hisobiga ishlaydi, o'z mustaqil balansiga ega bo'ladi, to'liq xo'jalik hisobi asosida faoliyat olib boradi. Qo'shma korxonaning chet ellik ta'sischisi daromad hissasini o'z mamlakatiga olib chiqib ketish (o'tkazish) huquqiga ega bo'ladi.

H

Hisob stavkasi, hisob foizi stavkasi, qayta moliyalashtirish stavkasi – markaziy banklarning tijorat banklari rezervlarini to'ldirish va ularning o'z mijozlariga bank xizmatlari ko'rsatish uchun beradigan kreditlariga belgilaydigan foiz stavkasi; tijorat banklari Markaziy bankdan olgan kredit resurslari uchun to'laydigan haq. Hisob stavkasi bozor mexanizmidagi g'oyat muhim iqtisodiy vosita, davlatning pul siyosatida qo'llaniladigan kuchli iqtisodiy dastak. Hisob stavkasi pul bozoridagi talabga ta'sir ko'rsatishning asosiy vositasi hisoblanadi. Iqtisodiyotda o'sishni tezlatish maqsadlarida hisob stavkasi pasaytiriladi yoki aksincha, iqtisodiyotda o'sish jadallashib, tovarlarni sotish qiyinlashganda o'sishni sekinlashtirish uchun hisob stavkasi oshiriladi. Hisob stavkasiga pul bozoridagi talabdan tashqari kutiladigan inflyatsiya darajasi ham ta'sir ko'rsatadi. Inflyatsiyadan ko'riladigan yo'qotish hisob stavkasini oshirish orqali qoplanadi. Masalan, me'yordagi hisob stavkasi 4 % bo'lib, inflyatsiya 3 % darajasida kutilsa, amaldagi hisob stavkasi 7 %ni tashkil etadi. Markaziy bankning hisob stavkasi qancha yuqori bo'lsa, tijorat banklari o'zlari taqdim etadigan kreditlar uchun oladigan foizi shu qadar yuqori bo'ladi.

Hisobot – korxonalar, tashkilotlar, kompaniyalar tomonidan o'z faoliyati to'g'risida davriy (oy, chorak, yil) va belgilangan shaklda tuziladigan, davlat, statistika va moliya organlariga taqdim etiladigan axborot, ma'lumotlar, hisob-kitob hujjatlari.

Hukumat – davlatning oliy kollegial organi. Hukumat turli mamlakatlarda turlicha nom bilan ataladi: Vazirlar Kengashi (Fransiya, Italiya, Polsha), Vazirlar Mahkamasi (Buyuk Britaniya, O'zbekiston) va h.k. O'zbekistonda hukumat Vazirlar Mahkamasi deb nomlanadi. U ijtimoiy hayotning barcha sohalariga rahbarlik qiladi. Hukumat tarkibi Prezident tomonidan shakllantiriladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: «O‘zbekiston», 1992.
2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. T.: «O‘zbekiston», 2008.
3. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi. –T.: «O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi», 2003.
4. O‘zbekiston Respublikasining «Ipoteka to‘g‘risida»gi qonuni, 2006-yil 4-oktabr.
5. O‘zbekiston Respublikasining «Mikromoliyalash to‘g‘risida»gi qonuni, 2006-yil 15-sentabr.
6. O‘zbekiston Respublikasining «Lizing to‘g‘risida»gi qonuni, 14-aprel 1999-yil.
7. O‘zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi qonuni, 24-dekabr 1998-yil.
8. O‘zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to‘g‘risida»gi qonuni, 30-aprel 1998-yil.
9. O‘zbekiston Respublikasining «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida»gi qonuni, 30-aprel 1998-yil.
10. O‘zbekiston Respublikasining «Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida»gi qonuni, 25-aprel 1996-yil.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmoni, 10-aprel 2012-yil.
12. «O‘zbekiston Respublikasining 2013-yilgi Investitsiya dasturi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 21-noyabr, 2012-yil. – №PQ-1855.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to‘g‘risida»gi farmoni, 2-dekabr 2008-yil. – №4059.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ««Mikrokreditbank» aksiyadorlik tijorat bankining tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni, 20-noyabr 2008-yil. – №4051.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashtirish, texnik va texnologik qayta jihozlashtirishni rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmoni, 14-mart 2007-yil. – №PF-114.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ««Mikrokreditbank» aksiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to'g'risida»gi farmoni, 5-may 2006-yil. – №3750.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «To'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni, 11-aprel 2005-yil.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tashqi iqtisodiy va savdo aloqalari, xorijiy investitsiyalarni jalb etish sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi farmoni, 21-yul 2005-yil. – №PF-3631.

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida»gi farmoni, 6 may 2003-yil.

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011–2015-yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi qarori, 21-dekabr 2010-yil. – №PQ-1442.

21. «Navoiy erkin industrial-iqtisodiy zonasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 27-yanvar 2009-yil. – №21.

22. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zona direksiyasi» Davlat unitar korxonasining Ustavini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori, 19-yanvar 2009-yil. – №48.

23. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Navoiy» erkin-industrial iqtisodiy zonasi faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, 9-aprel 2009-yil. – №105.

24. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi hududida alohida bojxona rejimi hamda alohida soliq rejimini ta'minlash tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida»gi qarori, 23-aprel 2009-yil. – №120.

25. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Investitsiya loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash tartibi haqida»gi qarori, 2007-yil 7-iyun. – №110.

26. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, 2006-yil 27-sentabr. №PQ-475.

27. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, 15-aprel 2005-yil. – №56.

28. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining ikkinchi kredit liniyasini o'zlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori, 20-yanvar 1997-yil. – №31.

29. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mikromoliyaviy xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori, 19-fevral 2007-yil. – №37.

30. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 16-fevraldagi majlisidagi ma’ruzasi. // «Xalq so‘zi», 1999-yil 17-fevral.

31. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi: Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlarni va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. // «Xalq so‘zi», 2013-yil 19-yanvar. – №13.

32. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi: 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. // «Xalq so‘zi», 2012-yil 22-yanvar. – №10.

33. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlarga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasi: Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. // «Xalq so‘zi», 2011-yil 22-yanvar. – №10.

34. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2006-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2007-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasi: Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo‘lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish – asosiy vazifamizdir // «Qishloq hayoti», 2007-yil 13-fevral. – №20.

35. Karimov I.A. 2008-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasi. // «Toshkent oqshomi», 2009-yil 16-fevral.

36. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: «O‘zbekiston», 2010. – B. 57.

37. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. T.: «O‘zbekiston», 2009.

38. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to‘g‘risida/ Tuzuvchi F.M.Mullajonov. T.: «O‘zbekiston», NMIU, 2005.

39. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: «O'zbekiston», 1997.

40. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: «O'zbekiston», 1995.

41. Karimov I.A. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. T.: «O'zbekiston», 1993.

42. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 12-sentabrdagi 395-sonli qaroriga 2-ilova «Markazlashtirilgan manbalar hisobiga qurilishni tashkil etish, moliyalashtirish va kreditlash tartibi to'g'risida»gi nizom. Mazkur Nizomga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.05.2004-y. 226-sonli qarori bilan o'zgartirishlar kiritilgan.

43. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli qaroriga ilova qilingan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi nizom.

44. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankining «Loyihaviy moliyalashtirishni tashkil etish tartibi to'g'risida»gi nizomi. 2000-yil 5-avgust.

45. «Mikrokreditlar berish va mikrolizing xizmatlari ko'rsatish tartibi to'g'risida»gi nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 6-maydagi 78-son qarorining 2-ilovasi.

46. Abdullayev Yo. Boboqulov T. Kredit. T.: «Mehnat», 1996.

47. Abdullayeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. T.: «Moliya», 2000.

48. Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari sharoitida tijorat banklarining kredit portfelini diversifikatsiyalash. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taq. et. diss. T.: BMA, 2000.

49. Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения. М.: «Юрист», 1999.

50. Александрова Е. Специальные экономические зоны в мировом хозяйстве // «Внешнеэкономическая деятельность», 1999. – №10.

51. Akramov X. O'zbekiston Respublikasi qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishiga makroiqtisodiy siyosatning ta'siri. Iqt. fan. nom. ilm. daraj. ol. uchun yoz. diss. avtor. T.: BMA, 2010.

52. Андрианов В.Д. Россия: Экономический и инвестиционный потенциал. М.: Экономика, 1999.

53. Аносов А.В. Международный опыт создания и развития СЭЗ.: Автореф. дис. акад. наук. М., 2003.

54. Арзимияна и др. Большой экономический словарь. М.: Правовая культура, 1994.

55. Axmedov K. Lizing operatsiyasini tayyorlash va o'tkazish: tajriba va muammolar. // «Bozor pul va kredit», 2001. – № 9.

56. Барановский Т., Лексис В. Общая теория кредита. М.: Дело, 1999.

57. Банковское дело / Под ред. проф. О.И.Лаврушина. М.: Банковский и биржевой научный центр, 1992.

58. Беренс В., П.М.Хавранек. Руководство по оценке эффективности инвестиций: Пер. с англ. перер. и дополн. М.: Интерэксперт, Инфра-М, 1995.

59. Бирман Г., Шмидт С. Капиталовложения. Экономический анализ инвестиционных проектов. М.: Юнити-Дана, 2003.

60. Боди, Зви, Кейн, Алекс, Маркус, Алан. Принципы инвестиций. Пер. с англ. М.: Вильямс, 2008.

61. Бочарев В.В. Методы финансирования инвестиционной деятельности предприятий. М.: Финансы и статистика, 1998.

62. Бочаров В.В. Финансовой анализ. – СПб.: Питер, 2002.

63. Борисов А.Б. Большой экономический словарь. М.: Книжный мир, 2005.

64. Бусыгин А.В. Предпринимательства. М.: Дело, 2001.

65. Васильев Н. М., Катырин С. Н., Лепе Л. Н. Лизинг как механизм развития инвестиций и предпринимательства. М.: Дека, 1999.

66. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. T.: Moliya, 2010.

67. Vaxobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. T.: Noshir, 2011.

68. Vahobov A. va boshq. Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik. / Mual.: A.Vahobov, N.Jumaev, U.Burxanov. T.: Sharq, 2003.

69. Газибеков Д.Г, Ангелиди М.С. Инвестиционная деятельность перед вхождением в рыночную экономику. Т., ТМИ, 1994.

70. Газман В.Д. Рынок лизинговых услуг. М.: Правовая культура, 1999.

71. Гвезденко А.А. Основы страхования. М.: Финансы и статистика, 1999.

72. Гитман Л.Дж., Джонк М.Д. Основы инвестирования. Пер. с англ. М.: Дело. 1997.

73. Дробозина Л.А. Финансы, денежное обращение, кредит. М.: Юнити, 2000.

74. Друзик Я.С. Свободные экономические зоны. Минск, 2000.

75. Друзик Я.С. СЭЗ в системе мирового хозяйства: Учеб.пособие. – Мн.: ФУАинформ, 2000.

76. Жарковская Е.П. Банковское дело. М.: Омега-Л, 2006.

77. Жуков Е.Ф. Банки и банковские операции. Учебник для ВУЗов. М.: Юнити, 1997.

78. Jo'ganev A.S. va boshq. Investitsiya loyihalari tahlili: Oliy o'quv muassasalari uchun o'quv qo'llanma T.: «Sharq», 2003.

79. Зименков Р.И. Свободные экономические зоны. Учеб. пос. М.: Юнити, 2005.

80. Зименков Р.И. Свободные экономические зоны: американский опыт. // Российский экономический журнал, 2004. №2.

81. Золотогоров В.А. Инвестиционное проектирование: Учеб.пос. М.: ИП Эксперспектива, 1998.

82. Зубченко Л.А. Иностранные инвестиции: учеб. пособие. М.: Книгодел, 2006.

83. Игонина Л.Л. Инвестиции: Учебник. М.: Магистр, 2008.

84. Инвестиции: учеб. пос. для студ. высш. учеб. зав. / И.Ю.Ткаченко, Н.И. Малых. М.: Академия, 2009.

85. Intellektual mulk obyektlari bo'yicha Butunjahon tashkiloti Konvensiyasi. 1979. 8-bo'lim, 2-modda.

86. Ismanov I. Uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish masalalari. Iqt. fan. dok. ilm. daraj. olish uchun yoz. diss. avtoref. T.: BMA, 2009.

87. Ипотечные и потребительские кредиты как источник повышения благосостояния населения. Пресс-конференция, организованная Центральным банком Республики Узбекистан // Биржевой вестник востока, 2009. №18.

88. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. T.: «Fan va texnologiya», 2007.

89. Казарцев А. Решение проблемы «плохих» кредитов: международный опыт // Журнал «Банковское дело», 2007. – №3.

90. Казимагамедова А.А., Гаджиев А.А. Деньги, кредит, банки: Учебник. М.: Экзамен, 2007.

91. Karimov A. Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi va audit. T.: «Iqtisod-moliya», 2008.

92. Karimov N.G., Angelidi M.S. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish tizimida sindikat asosida kreditlashtirish (Savollar va javoblar). T.: TMI, 2005.

93. Кейнс Дж.М. Избранные произведения / Пер. с англ. М.: Экономика, 1993.

94. Клас Эклунд. Эффективная экономика: шведская модель. М.: Экономика, 1991.

95. Ковалев В.В. Курс финансивого менеджмента: учеб. М.: Проспект, 2008.

96. Колтынюк Б.А. Инвестиционное проектирование объектов социально-культурной сферы: Учебник. – СПб.: Михайлова В.А., 2000.

97. Колтынюк Б.А. Инвестиционные проекты: Учебник. – СПб.: Михайлова В.А., 2000.

98. Краткий внешне-экономический словарь-справочник. Под редакцией В.И.Рыбалкин. М.: «Международные отношения», 1991.

99. Крылов Э.И., Власова В.М., Журавкова И.В. Анализ эффективности инвестиционной и инновационной деятельности предприятия. М.: Финансы и статистика, 2003.

100. Кузнецов Б.Т. Инвестиции: Учеб. пос. для студентов вузов. М.: Юнити-дана, 2006.

101. Кузнецов А. Свободные зоны и национальная экономика // Мировая экономика и международные отношения, 1990. №12.

102. Кэмпбелл Р. Макконелл, Станли Л. Брю. Экономикс, принципы, проблемы и политика. 2-том. М.: Республика, 1992.

103. Лаврушин О.И. и др. Денги, кредит и банки. М.: Финансы и кредит, 1999.

104. Лизинг в Центральной Азии и Азербайджане. Т.: 2009. ИФС.

105. Лысенко О.В. Методический подход к управлению формированием инновационных промышленных объединений. Автореф. дисс. на сосиск. уч. степ. канд. экон. наук. Екатеринбург, 2005.

106. Мазур И.И., Шапиро В.Д., Ольдерогге Н.Г. Управление проектами: Учеб. пособие для вузов / Под общ. ред. И.И. Мазура. М.: Экономика, 2001.

107. Макаревич Л.М. 200 правил бизнеса. М.: Дело и Сервис, 2003.

108. Макаркин Н.П., Шаборкина Л.В. Инновационный менеджмент: Уч.пос. Саранск: Мордовск, 2003.

109. Маренков Н.Л. Инвестиции для студентов вузов. Ростов-на-Дону: Феникс, 2004.

110. Марголин А.М. Экономическая оценка инвестиционных проектов: Учебник для вузов. М.: «Экономика», 2007.

111. Maxmudova G.N. Agrar sohani investitsiyalash samaradorligini oshirish yo'nalishlari. Iqt. fan. nom. ilm. dar. olish uchun yoz. diss. avtoref. T.: BMA, 2010.

112. Mirzyev F.I. Moliyaviy risklarning turlari, tasnifi, boshqarish va baholash usullari. T.: «Moliya», 2006.

113. Mirzalieva S.S. Erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirishning xorij tajribasi. Iqt. fan. nom. ilm. dar. olish uchun yoz. diss. avtoref. T.: BMA, 2001.

114. Миркин Я. Рынок ценных бумаг России: воздействие фундаментальных факторов, прогноз и политика развития. М.: Альпина Паблишер, 2002.

115. Морозов Д.С. Проектное финансирование: управление рисками и страхование. М.: Анкил, 1999.

116. Нешитой А.С. Инвестиции: Учебник. 4-е изд. М.: Дашков и К^0, 2006.

117. Никитина Т.В. Банковский менеджмент. – СПб.: Питер, 2002.

118. Nodirxonov U. Mamlakat reytingiga ko'ra xorijiy investitsiyalar. // Bozor, pul va kredit, 2000. – №8.

119. «Nomoddiy aktivlar» MHXS 38 va «Nomoddiy aktivlar» BHMS 7. Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schetlar rejasi. BHMS 21. 2001. sentabr. –№108.

120. Панова Г.С. Инвестиционная политика коммерческого банка. М.: ИКЦ ДИС, 2007.

121. Пиндайк Роберт С., Рубинфельд Дэниел Л. Микроэкономика: Пер. с англ. 2-е изд. М.: Дело, 2001. (Серия «Зарубежный экономический учебник»).

122. Питер С.РОУЗ. Банковский менеджмент. Пер. с англ. 2-с изд-во. М.: Дело ЛТД, 1995.

123. Raimjonova M.A. O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish. Iqt. fan. nom. ilm. dar. olish uchun yoz. diss. avtoref. T.: BMA, 2012.

124. Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Страдубцева Е.Б. Современный экономической словарь. 4-изд., перераб. и доп. М.: Инфра-М, 2005.

125. Роберт С. ПИНДАЙК, Дэниел Л. РУБИНФЕЛЬД. Микроэкономика, Калифорнийский Университет, Беркли, пер. с англ. М.: «Дело», 2001.

126. Рыбаков С.А., Орлова Н.А. Особые экономические зоны в России. М.: Вершина, 2006.

127. Saidov M.H. Oliy ta'lim iqtisodiyoti, investitsiyalari va marketingi. T.: «Moliya», 2003.

128. Сектор лизинговых услуг в Узбекистане: итоги 2007 года // «Экономическое обозрение», 2008. – №4.

129. Сергеев И.В., Веретенникова И.И. Организация и финансирования инвестиций. М.: Финансы и статистика, 2001.

130. Siddiqov A. Sanoat ishlab chiqarishga yo'naltirilgan investitsiya mablag'lari samaradorligi. // «Bozor, pul va kredit», 2004.– №7-8.

131. Сирополис Николас К. Управление малым бизнесом. Руководство для предпринимателей: Пер. с англ. М.: Дело, 1997. (Серия «Зарубежный экономический учебник»).

132. Староверова Г.С. Экономическая оценка инвестиций: Учеб. пос. М.: Кнорус, 2006.

133. Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi: Ikkinchi kitob: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma / M.Sharifxo'jayev ilmiy tahriri ostida. T.: «Sharq», 2003.

134. Финансы предприятий. Учебник. Под ред. Заяца Н.Е. 2-е изд. – Минск.: Высшая Школа, 2005.

135. Хамицаева А. Состояние и перспективы промышленности Китая // «Экономист». М.: 2008. – №9.

136. Хелдервич К. Основы финансового анализа. Учебник. М.: Финансы и статистика, 2003.

137. Xoshimov Q.B. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni soliqqa tortish va uni takomillashtirish yo'llari. Iqt. fan. nom. ilm. dar. olish uchun yoz. diss avtoref. T.: BMA, 2004.

138. Чернов В.А. Инвестиционная стратегия: Учеб. Пособие для вузов. М.: «ЮНИТИ-ДАНА», 2003.

139. Sharifxodjaev U. O'zbekiston va Osiyo taraqqiyot banki o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar tahlili. // «Moliya», 2010. – №3.

140. Шарп У., Александр Г., Бейли Дж. Инвестиции. Пер. с. англ. М.: Инфра-М, 1997.

141. Швецов Ю.Ф. Организационные методы сокращения длительности инновационного процесса. Автореф. дисс. на соискание ученой степени доктора технических наук. Самара, 2002.

142. Шеремет А.Д., Негашев Е.В.Методика финансового анализа. М.: Ассоциация бухгалтеров СНГ, ИПФ, ЮНИ-ГЛОБ, ИПО. 2004.

143. Шоҳаъзамий Ш.Ш. Финансовый рынок и ценные бумаги. Книга 1. Учебник. – Т.: «Иқтисод-молия», 2005.

144. O'lmasov A., Vahobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T.: «Sharq», 2006.

145. Qodirov A., Sotivoldiyev A., Muftaydinov Q.X. Iqtisodiyot nazariyasi: tayanch iboralar va tushunchalar. T.: ToshDTU, 2003.

146. Qo'ziyeva N.R. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari. Iqt. fan. dok. ilm. dar. olish uchun yoz. diss. avtoref. T.: BMA. 2008.

147. G'ozibekov D. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: «Moliya», 2003.

148. G'ozibekov D.G'., Nosirov E.I. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Risola. T.: «Iqtisod-moliya», 2007.

149. G'ozibekov D.G'., Qoraliyev T.M. Investitsiya faoliyatini tashkil etish va davlat tomonidan tartibga solish. T.: TMI, 1993.

150. G'ozibekov D.G'. va boshq. Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti. T.: «Fan va texnologiya», 2004.

151. «Toshkent» RFB yillik axborotlari, www. uzse. uz.

152. Xalqaro moliya korporatsiyasining Markaziy Osiyo va Ozarbayjonda lizingni rivojlantirish loyihasi bo'yicha hisoboti, 2009. aprel.

153. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T.: «O'ME» Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. 1-12-tomlar.

154. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990–2010-yillar) asosiy tendensiya va ko‘rsatkichlar hamda 2011–2015-yillarga mo‘ljallangan prognozlari. Statistik to‘plam. T.: O‘zbekiston, 2011.

155. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining statistik ma’lumotlari.

156. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma’lumotlari.

157. Internet saytlari:

– http: //www.federalrezerve. gov;
– http: // www. ecb. uz;
– http://ru.wikipedia.org/wiki/Uzbekistan;
– www.gazeta.uz;
– www.nfiez.uz;
– www.uza.uz.

MUNDARIJA

KIRISH 3

I bob. INVESTITSIYALARNING IQTISODIY MAZMUNI VA MOHIYATI 6
1.1. Investitsiyalar: iqtisodiy mazmuni, mohiyati va tasniflanishi (turlari) 6
1.2. Asosiy fondlarning shakllanishida kapital qo'yilmalarning roli 20
1.3. Jamg'armalar – investitsiyalash manbasi sifatida 24
1.4. Investitsiyalarning makro va mikroiqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli 27
1.5. Milliy iqtisodiyot taraqqiyotini ta'minlashda investitsiya loyihalarining o'rni va ahamiyati 33

II bob. INVESTITSIYA JARAYONLARINING MAZMUNI VA ASOSIY BOSQICHLARI 41
2.1. Investitsiya jarayonining mazmun-mohiyati. Investitsiyalash maqsadlari va yo'nalishlari . 41
2.2. Real investitsiyalarni amalga oshirish xususiyatlari 46
2.3. Moliyaviy investitsiyalarni amalga oshirish xususiyatlari 50

III bob. INVESTITSIYA FAOLIYATI VA INVESTITSIYA SIYOSATI 54
3.1. Investitsiya faoliyati: uning mohiyati, mazmuni va tarkibiy tuzilishi 54
3.2. O'zbekistonda investitsiya faoliyatini tartibga solish va muvofiqlashtirishda davlatning roli 58
3.3. Investitsiya faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar 67
3.4. O'zbekistonda investitsiya faoliyatining qonuniy-me'yoriy bazasi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya faoliyatini tashkil etish va ularning investitsiya faolligini ta'minlash vazifalari 74
3.5. Investitsiya siyosati: mazmuni, roli, asosiy yo'nalishlari va uni amalga oshirish bosqichlari 80
3.6. Globallashuv va xorij kapitali migratsiyasining kuchayishi. Zamonaviy investitsiya siyosatini amalga oshirishda xorijiy investitsiyalar ko'chishini hisobga olish 83

IV bob. IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING ROLI 89
4.1. Xorijiy investitsiyalarning mazmun-mohiyati va turlari. Xorijiy investitsiyalarni O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilishning obyektiv zarurligi 89
4.2. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish shakllari. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar – xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning shakli sifatida 98
4.3. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda erkin iqtisodiy hududlarning zarurligi va ahamiyati 104
4.4. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotni modernizatsiya qilishdagi roli 118
4.5. «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi va «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining mazmuni, maqsadi va ahamiyati. Xorijiy investorlarga berilgan imtiyozlar, kafolatlar va rag'batlantirish omillari 121
4.6. Fond bozoriga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning zarurligi va ahamiyati 127

V bob. INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA MUHITINING O'RNI 136
5.1. Investitsiya muhiti va unga ta'sir etuvchi omillar 136
5.2. Investitsiya muhitini baholash xususiyatlari 149
5.3. Investitsiya muhitida investitsiya salohiyatining o'rni. Investitsiya muhitini shakllantirishda huquqiy-me'yoriy tizim 157

VI bob. INVESTITSIYA FAOLIYATIDA KAPITAL QURILISH 162
6.1. Kapital qurilish va kapital qo'yilmalar. Yangi qurilish, ta'mirlash, kengaytirish, texnik qayta jihozlash. «Qurilish industriya»si tushunchasi 162
6.2. Mamlakat iqtisodiyoti uchun qurilish muddatini qisqartirishning ahamiyati. Qurilishning uch bosqichi: tayyorgarlik bosqichi, qurilish bosqichi, qurilish mahsuloti realizatsiyasi. Qurilish ishlab chiqarishining davomiyligi 169
6.3. Qurilishning tashkiliy shakllari. Kapital qurilishda loyihalashtirish 171
6.4. Kapital qurilishda tanlovni tashkil etish. Kapital qurilishda tenderlar 188
6.5. Buyurtmachi va pudratchining huquq va majburiyatlari 203
6.6. Qurilish-montaj ishlarining smeta qiymati tarkibi va tuzilishi 210
6.7. Qurilishda narxni shakllantirish asoslari. Qurilish obyektining shartnoma narxlari 214
6.8. Kapital qo'yilmalar samaradorligini baholash. Kapital qurilishda nazorat ishlarini olib borish 216
6.9. Kapital qurilishni moliyalashtirishning huquqiy asoslari 218

VII bob. DAVLAT INVESTITSIYA DASTURI 224
7.1. O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi: mazmuni, asosiy maqsadi, shakllantirish tartibi, tamoyillari va muddatlari 224
7.2. Kapital qo'yilmalarni rejalashtirish. Muhim investitsiya takliflarining yig'ma ro'yxati 232
Investitsiya loyihalarining adres dasturlari, adres ro'yxatlari: ularni ko'rib chiqish va tasdiqlash tartibi 232
7.3. Investitsiya dasturlari asosida kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish 240
7.4. Investitsiya dasturini amalga oshirish ustidan nazorat (monitoring) 244

VIII bob. INVESTITSIYA LOYIHALARINING MOLIYAVIY VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH 253
8.1. Investitsiya loyihalari samaradorligini baholashning mohiyati va ahamiyati 253
8.2. Investitsiya loyihalarining samaradorligini baholashning an'anaviy usullari 266
8.3. Investitsiya loyihalarida pul oqimlari tahlili. Investitsiyalarning samaradorligini diskontlash usullari asosida baholash 268

IX bob. INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARI VA USULLARI 296
9.1. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari 296
9.2. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'z mablag'lari (foyda, amortizatsiya ajratmalari, maqsadli tushumlar va boshqalar) 308
9.3. Jalb etilgan mablag'lar evaziga investitsiya faoliyatini moliyalashtirish (qimmatli qog'ozlar va bank kreditlari) 312
9.4. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish usullari 324
Nazorat savollari 327

X bob. INVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISHDA MOLIYAVIY VOSITALAR 329
10.1. Moliyaviy vositalar, ularning mohiyati, turlari va xususiyatlari 329
10.2. Birlamchi moliyaviy vositalar. Hosilaviy moliyaviy vositalar 333
10.3. Qimmatli qog'ozlarni joylashtirish evaziga moliyalashtirish manbalarini jalb etish 342
10.4. Aksiyadorlik kapitali hisobiga investitsiya faoliyatini moliyalashtirish 347

XI bob. INVESTITSIYA FAOLIYATINI KREDITLASH 354
11.1. Xo'jalik yurituvchi subyektlar investitsiya faoliyatini kreditlashning obyektiv zaruriyati 354
11.2. Investitsiya faoliyatini uzoq muddatli kreditlash 357
11.3. Xo'jalik yurituvchi subyektlar aylanma mablag'larini kreditlash xususiyatlari 365
11.4. Investitsiya faoliyatida ipoteka krediti 369
11.5. Korxonalarning kreditga layoqatliligi ko'rsatkichlari va kreditni rasmiylashtirish tartib-qoidalari 374
11.6. Investitsiya faoliyatini kreditlashda foiz siyosati 389
11.7. Kreditdan foydalanish ustidan bank monitoringi 396

XII bob. INVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISHNING LIZING MEXANIZMI 407
12.1. Lizingning iqtisodiy tabiati, mazmuni va mohiyati 407
12.2. O'zbekiston Respublikasida lizing munosabatlarining huquqiy asoslari 412
12.3. Lizingning turlari 423
12.4. Lizing krediti – asosiy kapitalga qaratilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbayi 426
12.5. Moliyaviy lizingning zamonaviy ilg'or texnologiya, uskuna va jihozlarni joriy etishdagi qulayliklari 429
12.6. Xalqaro moliyaviy lizingning iqtisodiyotni modernizatsiya qilishdagi o'rni 432
12.7. Lizing to'lovlari summasini aniqlash 440
Lizing munosabatlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibi 440

XIII bob. INVESTITSIYALARNI LOYIHAVIY MOLIYALASHTIRISH 449
13.1. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirishning mazmuni va mohiyati. Yirik investitsiya loyihalarini loyihaviy moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari 449
13.2. Loyihaviy moliyalashtirishning asosiy ishtirokchilari va ularning funksiyalari. Loyihaviy moliyalashtirish turlari. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirishni tashkil etish 458
13.3. Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida loyihaviy moliyalashtirishni tashkil etish va amalga oshirishning xorij tajribalari 463
13.4. Loyihaviy moliyalashtirish asosida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini texnik-iqtisodiy asoslash va baholash uslubiyoti tahlili 468
13.5. Investitsiya loyihalarini sindikatli kreditlash xususiyatlari. Investitsiya loyihalarini sindikatli kreditlashni tashkil etish 473

XIV bob. INNOVATSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH 480
14.1. Innovatsiya va innovatsiya faoliyati tushunchasi 480
14.2. Innovatsiyalarga qaratilgan investitsiyalar: o'ziga xos xususiyatlari va samaradorligini baholash uslubiyoti 485
14.3. Innovatsiya faoliyati – tadbirkorlik taraqqiyotini yuksaltirish omili sifatida. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning innovatsiya faoliyati 494
14.4. Innovatsiya strategiyasining mohiyati. Korxonalarda innovatsiya strategiyasini shakllantirish 505

XV bob. NOMODDIY AKTIVLARGA SAFARBAR ETILADIGAN INVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH 513
15.1. Nomoddiy aktivlar, ularning tarkibi va roli. Nomoddiy aktivlar – investitsiya obyekti sifatida 513
15.2. Erkin bozor va kuchli raqobat muhitida nomoddiy aktivlarni kengaytirish zaruriyati. Nomoddiy aktivlarni baholash va gudvill. Gudvill tarkibi. Gudvill – investitsiya obyekti sifatida 517

XVI bob. INVESTITSIYA RISKLARI VA ULARNI PASAYTIRISH YO'LLARI 522
16.1. Investitsiya riski: mazmun-mohiyati va xususiyatlari 522
16.2. Investitsiya faoliyati bilan bog'liq risklar va ularning tasniflanishi 529
16.3. Investitsiya risklarini aniqlash usullari 537
16.4. Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda risklarni boshqarish 546
16.5. Investitsiya loyihalarida risklarni pasaytirish yo'nalishlari 551

INVESTITSIYALARNI TASHKIL ETISH VA MOLIYALASHTIRISHGA OID ATAMA VA IBORALARNING IZOHLI LUG'ATI 561
ADABIYOTLAR 594

MAMATOV BAXADIR SAFARALIYEVICH
XUJAMKULOV DILMUROD YUSUPALIYEVICH
NURBEKOV OYBEK SHERALIYEVICH

INVESTITSIYALARNI TASHKIL ETISH VA MOLIYALASHTIRISH

Muharrir: **N. Rustamova**
Badiiy muharrir: **M. Odilov**
Kompyuterda sahifalovchi: **U.Raxmatov**

Nashr. lits. AI № 174. Bosishga ruxsat 25.05.2014-y.da berildi. Bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$. Ofset qog'ozi №2. «Times» garniturasi. Shartli b.t. 38,0. Nashr hisob t. 38,0. Adadi 200 dona. 21-buyurtma.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.
100084. Toshkent, Kichik halqa yo'li, 7-uy.

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO'JIZASI»
bosmaxonasida chop etildi.
100000. Toshkent, Amir Temur 60«A»-uy.

ISBN 978-9943-13-488-1